

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**O.M.G‘aybullayev**

**MILLIY G‘OYA TARIXI VA  
NAZARIYASI**

*5111600 – Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi  
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun  
darslik sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT–2019**

**UO‘K: 323.1(575.1)(075.8)**  
**КБК 66.5g(5O’)**  
**G’ 17**

**G’ 17**

**О.М. G’aybullayev. Milliy g’oya tarixi va nazariyasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2019, 576 bet.**

**ISBN 978-9946-5836-5-8**

Мазкур дарсликда республикамизда миллий ғоя тарихи ва назарияси билан боғлиқ жараёнлар, миллий ғоянинг тарихий тараққиёти, унинг концепция сифатида вужудга келиш хусусиятлари ёритилган. Унда миллий ғоянинг мафкуравий моҳияти, инсоннинг эркинликлари, сиёсий институтларнинг ўзига хос хусусиятлари ва миллий ғоя тамойилларининг жамиятдаги аҳамияти очиқ берилган. Дарсликда миллий ғоя тарихи ва назариясининг назарий асослари ва ривожланиш механизмлари ёритилган бўлиб, у 5111600 - “Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими” бакалавриат таълим йўналишининг “Миллий ғоя тарихи ва назарияси” фанидан дарслик сифатида тавсия этилади.

\*\*\*

В этом учебнике освещены история национальной идеи нашей страны, события, связанные с историей и теорией национальной идеи нашей республики, историческое развитие национальной идеи и особенности ее концептуального проявления. Учебник раскрывает идеологическую суть национальной идеи, свободы человека, основные особенности политических институтов и значение национальной идеи в обществе. В учебнике раскрыты и освящены механизмы развития, методологические основы теории и истории национальной идеи и рекомендуется как учебник по направлению бакалавриата 5111600 "Национальная идея, основы духовности и право", "Теория и история национальной идеи".

\*\*\*

This textbook covers the history of the national idea of our country, events related to the history and theory of the national idea of our republic, the historical development of the national idea and the features of its conceptual manifestation. The textbook reveals the ideological essence of the national idea, human freedom, and the main features of political institutions and the significance of the national idea in society also textbook reveals and sanctifies the mechanisms of development, the methodological foundations of the theory and history of the national idea and it is recommended as a textbook on fields of bachelor degree 5111600 “National Idea, Basics of Spirituality and Law”, “Theory and History of the National Idea”.

**UO‘K: 323.1(575.1)(075.8)**  
**КБК 66.5g(5O’)**

**Mas’ul muharrir:**

**A.Muxtorov** - falsafa fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**S.A.Choriyev** - falsafa fanlari doktori, professor.

**R.T.Shodiyev** - falsafa fanlari doktori, professor.

**A.R.Samadov** - falsafa fanlari nomzodi, dosent.

**ISBN 978-9946-5836-5-8**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining milliy mustaqilligi O'zbekiston xalqining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy hayot sohalarida katta o'zgarishlarga olib keldi. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish va ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash sohasidagi vazifalar milliy g'oya, uning asosiy tushuncha va tamoyillari, tarixi va nazariyasi masalalariga bo'lgan qiziqish va e'tiborni kuchaytirdi. Mustaqilligimizdan keyingi davr jamiyatimiz hayotida milliy g'oyani shakllantirish va rivojlantirish, Milliy g'oya tarixi va nazariyasi masalalariga qiziqish kuchaygan davr bo'ldi. Milliy g'oya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, O'zbekistonda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to'g'risidagi yaxlit va izchil ta'limot bo'lib, Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani esa milliy g'oyaning shakllanishi, O'zbekiston xalqining boy tarixi, yuksak ma'naviyati, g'oya va mafkura rivojlanishidagi vorislik jarayonlari, g'oya va mafkuraning tarixiy taraqqiyotida milliylik va umuminsoniylikning o'zaro aloqadorligi, xalqimiz va davlatchiligimiz taraqqiyotida g'oya va mafkura to'g'risidagi tarixiy yondashuvlar va nazariy qarashlarni ilmiy jihatdan o'rganadi. O'zbekiston xalqini buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiyligni hayot mezoniga aylantirish milliy mafkuraning bosh maqsadi bo'lsa, Milliy g'oya tarixi va nazariyasi milliy g'oyaning shakllanishi, uning tarixiy ildizlari va negizlarining xalqimiz hayotida tutgan o'rni va rolini o'rganadi. Shu bilan birgalikda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oya va mafkuraning ahamiyatini ochib beradi. Ushbu fan O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida yuksak salohiyatli, bilimli insonlarni tarbiyalash, qonunchilikka rioya qiladigan, fuqarolik burchini ado etadigan,

demokratik jamiyat talablariga amal qiladigan barkamol shaxsni shakllantirish vazifasini ham bajaradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayot sohalaridagi islohotlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ushbu o'zgarish va jarayonlar milliy g'oya va mafkurada o'z ifodasini topadi. Milliy g'oyaning iqtisodiyot uchun muhimligi va zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarida ifodalangan. Shu nuqtai nazardan, davlatning innovasion yangilanish dasturini shakllantirish, innovasiya va investisiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega, – deydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Buning uchun O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizasiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak<sup>1</sup>.

Milliy g'oya tarixi va nazariyasi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohalarida o'zbek davlatchiligi tarixi, davlat boshqaruvi an'analari va huquqiy tizimning takomillashib borishi, boy tarixiy meros va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan holda milliy o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga yordam beradi. Bugungi ijtimoiy taraqqiyot, informasion inqilob, globallashuv jarayonlari, jahon maydonlarini ta'sir o'tkazish maqsadida bo'lib olishga intilish, bu maydonlardagi o'zaro kurash sharoitida mafkuraviy siyosatni chuqur bilish, mazkur fanni o'rganish asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda yosh avlodning qalbi va ongiga Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat ruhini singdirish, fuqarolar, eng avvalo, yosh avlodda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish va yuksaltirish mafkuraviy siyosatdagi muhim vazifalar bo'lib hisoblanadi. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi kelajagimizni yaqqol tasavvur etish, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 116-бет.

poydevorini mustahkamlash, yot g'oyalar tajovuziga qarshi tura olish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, yurtimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash kabi vazifalarni bajarishda muhim ahamiyatga egadir. Barkamol avlodni tarbiyalash O'zbekistonda davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo'lib, bu sohada ushbu fan muhim ahamiyatga egadir.

Har bir jamiyat doimo muayyan manfaatlar hamda maqsadlar asosida rivojlanib boradi. Mana shu ezgu niyatlarni amalga oshirishda kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarni Vatanga sadoqatli, mehr-muhabbatli, halol, insofli qilib tarbiyalash katta ijtimoiy ahamiyatga molikdir. Bu ta'lim-tarbiya, fan, madaniyat, ma'rifat, adabiyot, san'at, din, sport sohalari singari tarbiyalash vositalarini qamrab oladi. Yoshlarning milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodi – milliy o'zlikni anglash, qadriyat, urf-odat, an'analar, milliy merosimiz, tarix, ona tilimizga munosabat tarzida shakllanib boradi. Milliy g'urur, iftixor, ma'naviy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy bilimlar ham xuddi shu yo'nalishda singdiriladi.

Yoshlarni milliy g'oya bilan qurollantirishda ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunga erishishning eng qulay yo'li yoshlarda sog'lom tafakkur va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa, yoshlarda el-yurt oldidagi ma'naviy burchini to'g'ri anglashni, milliy urf-odat va an'analarimizning nodirligini milliy g'oya orqali ularda jamiyat mafkurasiga mehr-muhabbatni uyg'otishni, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

Fanni o'qitish jarayonida yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, yurtga sadoqat, xalq ishiga kamarbastalik kabi ma'naviy fazilatlar shakllantirilib boriladi. Uning qonun va qoidalari, tushunchalari haqida ma'lumot beriladi. Fanni o'rganish jarayonida yoshlar tarbiyasiga oid quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi.

Yoshlarimiz ongi va qalbida ezgu g'oyalarlarga sadoqat tuyg'usini uyg'otish asosida ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish.

Yoshlarda mustaqil fikrlash malakasi va ko'nikmasini shakllantirish.

Dars o'tish jarayonida yoshlar ongli ravishda, o'z aqli, fikri, ezgu, insoniy mafkuraga, aniq milliy g'oyaga suyanib yashashga o'rgatiladi. Fanni o'rganish

jarayonida yoshlarning milliy g'oyaga qiziqishlari hisobga olinib, globallashuv avj olayotgan davrda mafkuraviy xurujlarning mohiyati ochib beriladi. Zararli g'oyalar va axborot xurujlariga qarshi tura oladigan barkamol inson tarbiyasini kuchaytirish, mafkuraviy profilaktika orqali sog'lom e'tiqodni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Yoshlarda Vatan kelajagi, xalq farovonligiga daxldorlik hissi milliy g'oya tarixi va nazariyasini o'rganish asosida shakllantirilib, mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo'llari, usullari haqidagi fikr va qarashlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 apreldagi "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bochqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5465-son farmoyishi asosida milliy g'oyaning jamiyatdagi ta'sirchanligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Mazkur fan doirasida boy tarixiy-ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g'oyamizning rivojlanib borishi, milliy g'oya taraqqiyotidagi vorislik jarayonlari tahlil qilinadi, milliy g'oyaning barkamol inson tarbiyasidagi tutgan o'rni va ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

## **1-BOB. “MILLIY G’OYA TARIXI VA NAZARIYASI” FANINING OB’YEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

### **1.1. “Milliy g’oya tarixi va nazariyasi” fanining shakllanishi**

“Milliy g’oya tarixi va nazariyasi” fanining shakllanishi – O’zbekistonning hozirgi taraqqiyot yo’li mustaqillik g’oyalari, milliy g’oya, yuksak ma’naviyat, o’zini anglashga intilish, millat va Vatan taqdiriga daxldorlik hissi kuchaygan, g’oya va ma’naviyatga milliy taraqqiyotimizning eng ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida jiddiy e’tibor qaratilayotgan davr bo’lib, ushbu fanning shakllanishi va ta’lim tizimiga kiritilishi ham shu jarayon bilan bevosita bog’liqdir. O’zbekistonda milliy mustaqillikdan so’ng boy tarixiy-ma’naviy merosni, milliy qadriyatlarni tiklashga davlat siyosati darajasida munosabatda bo’lib kelindi. Buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy, ma’naviy merosi, qilgan ishlari va ko’rsatgan jasoratlari xalqimiz tarixiy xotirasining tiklanishiga yordam berib, fuqarolarimizda vatanparvarlik, xalqparvarlik, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhidagi yangi fuqarolik ongining shakllanishiga yordam berdi. Mustaqillik tufayli boy tariximiz, madaniy va ma’naviy merosimiz, milliy urf-odat va an’analarimiz, udum va marosimlarimiz, dinu e’tiqodimiz qayta tiklandi. Xalqimizga xos bo’lgan mehr-oqibat, bag’rikenglik, hamjihatlik kabi ezgu fazilatlar, milliy mentalitetimizga xos bo’lgan boshqa jihatlar milliy o’zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g’urur va iftixor tuyg’ularining tiklanishi bilan kundalik hayotdagi munosabatlarni tartibga soluvchi me’yorga aylandi. Xalqimiz jahondagi boy tarixga va yuksak ma’naviyatga ega bo’lgan xalqlardan biri bo’lib, uning milliy g’oyasi jamiyat taraqqiyoti bilan boyib, rivojlanib, vorislik asosida turli madaniyatlarni o’zida ifodalab taraqqiy etib bordi. O’zbekiston Respublikasi o’zining milliy mustaqilligini qo’lga kiritganidan so’ng xalqimiz o’z oldiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish maqsadini qo’yib islohotlarni amalga oshira boshladi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun yurtimizda bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga yo’naltirilgan siyosat olib borila boshlandi. Zamonaviy dunyoviy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun bizga yot va begona

g'oyalarning tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazishga yordam beradigan, yuksak taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan milliy g'oya va milliy mafkuraning zarurligi O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida nazariy jihatdan asoslab berildi.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston xalqi o'z milliy g'oyasi negizlariga tayangan holda rivojlanish yo'lini tanladi. O'zbekistonning milliy mustaqil taraqqiyot yo'li xalqimizning boy tarixiy ma'naviy merosi va milliy qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatini berdi. Har qanday davlat, jamiyat va xalq maqsadsiz yashay olmaydi. U rivojlanish uchun o'zining ma'naviy asoslarini belgilab olishi zarur bo'lib, xalqning maqsad va muddaolari uning milliy g'oyasi va milliy mafkurasida o'z ifodasini topadi.

Insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyotida turli xil g'oyalar va mafkuralar mavjud bo'lib, ba'zi g'oyalar va mafkuralar jamiyatning taraqqiyotiga yordam bergan bo'lsa, ba'zi g'oyalar va mafkuralar g'oyaviy maqsadlar tufayli har xil salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirgan. Ana shu g'oyaviy, mafkuraviy maqsad va muddaoning, g'oya bilan g'oyaning, fikr bilan fikrning, jaholat va ma'rifatning farqini bilish uchun milliy g'oyani, uning tarixi va nazariyasini o'rganish, tahlil qilish va shu asosda mafkuraviy immunitetni shakllantirish lozimdir. Jamiyat hayotida shaxs, inson, ijtimoiy guruh, qatlam, xalq, millatlarning, maqsadi, orzu intilishlari, qarashlari bir-biridan farq qiladi. Lekin milliy g'oya turli ijtimoiy guruh, qatlam, xalq, millatlarni yagona maqsad atrofida uyushtiradi, birlashtiradi, harakat dasturi bo'ladi, ularni ma'lum maqsadga yo'naltiradi. Jamiyat hayotida g'oya va mafkuralarga ijobiy va salbiy maqsadlarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganiga ko'ra bunyodkor va vayronkor g'oyalar va mafkuralar deb baho beriladi. Globalashuv jarayoni va axborot oqimining tezlashuvi sharoitida ayrim g'oyalar va mafkuralar ma'lum bir millat va xalqning maqsad hamda intilishlarini hisobga olmasdan o'z g'oyalarini boshqalarga singdirishga, ularning ongi va qalbini egallashga urinadi, bunday yot yoki yovuz g'oyalardan ogoh bo'lish uchun milliy g'oya, milliy mafkurani, ularning tarixi va nazariyasini chuqur o'rganish va bilish zarur.



Bugun dunyoda insonning ongi va qalbi uchun g'oyaviy, mafkuraviy kurash ketayotgan ekan, milliy g'oya tarixi va nazariyasini g'oya, mafkura, milliy g'oya, mafkuraviy tahdid, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy immunitet, geopolitik maqsadlar, mafkuraviy siyosat kabi tushunchalar orqali insonning ongi va qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy g'oya va mafkurani fuqarolar ongi va qalbiga singdirib g'oyaviy, mafkuraviy tarbiyani olib borish imkonini beradi.

Milliy g'oyaning mazmuni va mohiyati, maqsadi va vazifalari O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, bu asarlarda milliy g'oyaning quyidagi jihatlariga asosiy e'tibor qaratilgan:

Eng avvalo, milliy g'oya tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish, o'zlikni anglash mezonini bo'lib hisoblanadi.

Shu bilan birga milliy g'oya xalq maqsadlarini ifoda etib, jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy kuch vazifasini bajaradi.

Milliy g'oya millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch e'tiborning manbai sifatida jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi.

Milliy g'oya O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam vakillarining manfaatlarini o'zida ifodalaydi.

Millat aholisi ongi va qalbida «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy g'oya turli millat, qatlam, uning vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan yuksak fenomen – ijtimoiy hodisa mazmuniga ega bo'lib, jamiyat mafkurasi vazifasini bajaradi. Milliy g'oya jamiyat hayotida biror-bir dunyoqarashni mutlaqlashtirmaslikni talab qiladi.

Milliy g'oyaning jamiyat hayotida bajaradigan muhim vazifalaridan biri – har qanday ilg'or g'oyani odamlar ongi va qalbiga singdirish va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olish imkoniyatining mavjudligidir.

Milliy g'oya jamiyat hayotida sub'yektivizm, volyuntarizm kabi illatlardan xoli bo'lgan va jamiyatimizning xolis fikriga tayanuvchi ob'yektiv mafkura bo'lib hisoblanadi.

Milliy g'oya ijtimoiy taraqqiyotda so'z bilan ishni, nazariya bilan ijtimoiy hayotni birlashtira olish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy omildir.

Milliy g'oya muayyan davrda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga qarab, o'zi ifodalaydigan g'oya, manfaat va muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalaridan ijodiy tarzda foydalanish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Milliy g'oya yuqorida ko'rsatib o'tilgan sifatlarga javob bergan taqdirda kutilayotgan maqsadlarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Milliy g'oya har bir insonning hayoti davomida uning ongiga, tafakkuriga singib, ishonch va e'tiqodiga aylanib boradi.

Milliy g'oyaning mazmuni va mohiyati, tushunchalari, shakllanish qonuniyatlari, namoyon bo'lish xususiyatlari, uni xalqimiz ongi va qalbiga singdirish yo'llari va usullari milliy g'oya fanida bir butun, yaxlit, tizimli tarzda o'rganiladi.

Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanida milliy g'oya tarixi va nazariyasiga taalluqli bo'lgan fikr va qarashlar bayon qilinganda milliy g'oya fanining tushuncha va tamoyillariga tayaniladi. Mazkur fanning ta'lim tizimiga kiritilishi jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot sohalarida sodir bo'lgan jarayonlarga bevosita bog'liq bo'lib, mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik hamda hamjihatlik ta'minlanishining mustahkam asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Lekin shu bilan birgalikda globallashuv sharoitida dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi, kommunikasiya va informasion texnologiyalarning tez sur'atlardagi taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turtki berib, yoshlar ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir etuvchi mafkuraviy xurujlarning kuchayishiga olib keldi. Bugungi kunga kelib turli maqsadlarni ko'zlab uyushtirilayotgan axborot xurujlari xalqlar, davlatlar, mintaqalar hayotiga, kelajak taqdiriga tahdid solmoqda.

Vatanimiz mustaqilligining milliy-ma'naviy asoslarini mustahkamlash, ma'naviy meros, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-

avaylash, ulardan oqilona foydalangan holda kelgusi, zamonaviy baxtli hayotimizni tashkil etishda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informasion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda milliy g'oyamizning tarixiy asoslarini chuqur o'rganishni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda ulardan oqilona foydalanish masalasi ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanini o'qitish jarayonida yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, buyuk ajdodlarimizdan meros bo'lgan bu Vatanni asrab-avaylash, uning buyuk kelajagini tashkil etish kabi muqaddas tuyg'ularni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

Fanni o'qitish jarayonida milliy mafkuraning muhim vazifalari bo'lgan milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish masalalariga ham katta e'tibor qaratiladi. O'zbek xalqi boy tarixga va yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xalqlardan biri bo'lib, xalqimizning boy madaniy va ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari, bayram va marosimlari milliy mafkura tayanadigan tarixiy ildizlardir. O'zbek xalqining qadimiy tarixi, davlatchiligi, yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyati fuqarolarda faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otib, milliy mafkura uchun asos bo'ladi. Milliy mafkuramizdagi ozodlik, erkinlik uchun kurash ruhi, ota-bobolarimizning mustaqillik yo'lida ko'rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlari ham milliy g'oya tayanadigan asosdir. Milliy g'oya xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongida mustaqil e'tiqod va dunyoqarashni shakllantiradi, ularni yangi jamiyat barpo etish jarayonining faol ishtirokchilariga aylantiradi. Mamlakatimiz mustaqilligi va yaxlitligiga tahdid soladigan mafkuraviy xavf-xatarlar kuchaygan paytlarda milliy

g'oya xalqni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ulug' maqsadlar yo'lida jipslashtiradi va safarbar etadi. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni chuqur o'rganish, undan zarur xulosalar chiqarishga katta e'tibor berib kelinmoqda.

## **1. 2. “Milliy g'oya tarixi va nazariyasi” fanining ob'yekti va predmeti**

“Milliy g'oya tarixi va nazariyasi” fanining ob'yekti – xalqimizning tarixiy, milliy-ma'naviy merosi, qadriyatlari, maqsad va mo'ljallari, demokratik prinsiplari namoyon bo'lishining umumiy va milliy xususiyatlarini, jamiyat ma'naviy hayotida vujudga kelgan turli g'oyalar va fikrlar asosida shakllanadigan yagona umummilliy g'oya va mafkuraning tarixiy va nazariy masalalarini o'rganishdan iboratdir.

Mamlakatimizda milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyliigi va ta'sirchanligini yanada oshirish masalasiga e'tibor qaratilib, tarixiy, milliy-ma'naviy meros va qadriyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada kuchaymoqda.

Ushbu fan O'zbekiston xalqining milliy g'oyasi, uning taraqqiyoti bosqichlari hamda nazariy asoslarini o'rganadi. O'zbek xalqining milliy g'oyasi va ma'naviy asoslarini o'rganishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Biron-bir xalq o'z tarixini bilmasdan, asrlar osha yaratilgan ma'naviy merosga tayanmasdan, uni yanada rivojlantirmasdan turib o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Xalqimizning milliy davlatchilik tarixi ming yillar avval shakllangan bo'lib, bugungi kunda biz qurayotgan buyuk davlat asoslari ham ana shu qadimiy poydevorga tayanadi. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, vatanparvarlik, xalqparvarlik, shu zaminga muhabbat va sadoqat ruhidagi yangi fuqarolik ongining shakllanishiga xizmat qiladi. Mamlakatimiz tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblari, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Bakr Narshaxiy,

Abulqosim Mahmud az-Zamahshariy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro al-Xivaqiy al-Xorazmiy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Sulaymon Boqirg'oni, Umar Chag'miniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shib, xalqimizning milliy iftixoriga aylandilar. Ularning ma'naviy merosi milliy g'oyamiz oziqlanadigan manbaga aylandi. Buyuk ajdodlarimizning ulug' nomlari xalqning xotirasida saqlanib, uni buyuk ishlarga ilhomlantiradi.

Milliy g'oya tarixi va nazariyasi insonni o'z xalqi, uning an'analari, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Vatanparvarlik va fuqarolik yakdilligi O'zbekiston davlati barpo etilayotgan ma'naviy negizlar bo'lib, bu milliy g'oyada o'z ifodasini topgandir.

Insonning g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasida uning o'z sha'ni va qadr-qimmatini bilishi muhim ahamiyatga egadir. Insonning sha'ni, eng avvalo, o'zini himoya qilish, o'z qadrini bilishdan boshlanadi. O'z qadrini bilgan odam hech qachon o'z Vataniga hiyonat qilmaydi, unda vatanparvarlik tuyg'usi kuchli bo'ladi. Ushbu fanning o'rganish ob'yekti bo'lgan milliy g'oyaning tarixiy taraqqiyot bosqichlari, ulardagi vorislik jarayonlari, milliy g'oya to'g'risidagi nazariyalar o'rganilganda ham insondagi vatanparvarlik, milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularining rivojlanishi masalasiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanining predmeti – milliy g'oya va mafkuraning mohiyati, taraqqiyot bosqichlari, tarixiy ildizlari, xalqimiz ma'naviy merosi va qadriyatlarining shakllanishi, milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillar uyg'unligi, milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalarining o'zaro munosabati, uni taqozo etuvchi umumiy va o'ziga xos jihatlar hamda milliy g'oyaning nazariy masalalarini o'z ichiga oladi.

Fanning muayyan bilimlar tizimi, o'ziga xos mavzulari hamda tushunchalari mavjuddir. Agar milliy g'oyaning predmetini – milliy g'oyaning shakllanishi, keng jamoatchilikning ishonch va e'tiqodiga aylanishi, uning madaniy negizlarining

ijtimoiy hayot, mehnat faoliyatida namoyon bo'lish shart-sharoitlari, omillari, qonuniyatlarining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish tashkil etsa, milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani esa g'oya va mafkura taraqqiyotini bosqichma-bosqich, vorislik asosida, tizimli tarzda o'rganadi, fanga taalluqli bo'lgan nazariy masalalarni ham tahlil qiladi. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani o'z tushunchalarini bayon qilganda milliy g'oya fanining tushuncha va tamoyillariga bevosita tayanadi.

Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanini o'rganish jarayonida milliy g'oyaning shakllanish tarixi, uning namoyon bo'lishi xususiyatlari o'rganiladi. Milliy g'oya konsepsiyasining mazmuni va mohiyati ochib beriladi. Milliy g'oya tipologiyasi va milliy g'oya konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari ko'rib o'tiladi. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanida O'zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyotining milliy g'oya konsepsiyasi bilan bog'liqligi masalalari tahlil qilinadi. Fanda milliy g'oyaning jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohalari bilan bog'liqligiga e'tibor qaratilgan. Milliy g'oya tarixi va nazariyasidagi eng muhim masalalardan biri inson masalasiga eng oliy qadriyat sifatida yondashilganligidir. Insonning huquqi, erkinligi va manfaatlarining milliy g'oya bilan bog'liqligi masalalari fandagi muhim masalalardan biridir. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanida milliy g'oyada siyosiy institutlar va mafkuralar xilma-xilligi masalasiga e'tibor qaratiladi, milliy g'oyani asrab-avaylash va himoya qilishning shart-sharoitlari va omillari ko'rsatiladi. Mazkur fanda milliy g'oyaning paydo bo'lishi, rivojlanib, taraqqiy etib borishi bir butun yaxlit jarayon sifatida ko'rib o'tiladi, milliy g'oyaning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish mexanizmlari va vositalari tizimli ravishda o'rganiladi. Milliy g'oya bugungi kunda O'zbekiston xalqining ishonch-e'tiqodi manbaiga aylanib, milliy g'oyada ma'naviy va moddiy xayot uyg'unligi ham, millatlararo totuvlik va hamjihatlik ham, milliy va diniy bag'rikenglik ham o'z ifodasini topmoqda. Milliy g'oya O'zbekistonda komil insonni tarbiyalashdagi eng muhim omillardan biridir. Lekin eng muhimi bugungi globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi sharoitida milliy g'oya ma'naviy tahdidlarning oldini olishda, yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashda, "ommaviy

madaniyat”ning zararli oqibatlariga qarshi fuqarolarda g’oyaviy, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda. Hozirgi paytda dunyoda turli-tuman g’oyaviy-mafkuraviy tahdidlar kuchayib, odamlar ongi va qalbini egallash uchun mafkuraviy kurash kuchaygan bir davrda milliy g’oya milliy o’zlikni anglashning muhim omili sifatida muhim o’rin tutmoqda. Yosh avlodda Vatanga muhabbat, istiqlol g’oyalariga sadoqat tuyg’ularini shakllantirishda, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda milliy g’oyaning tutgan o’rni va ahamiyati ham kundan-kunga ortib bormoqda. Milliy g’oya milliy va umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi. Milliy g’oya tarixi va nazariyasi fanida milliy g’oyaning milliy hamda umumdemokratik tamoyillari o’zaro bog’liqlik, aloqadorlikda, uyg’unlikda ko’rib o’tiladi. Milliy g’oyani ilmiy o’rganish, o’qitish va targ’ib-tashviq qilishning nazariy-metodologik asoslari tadqiqoti ham milliy g’oya tarixi va nazariyasi fanining o’rganish sohasiga kiradi. Shu bilan birgalikda g’oyaviy ta’lim-tarbiya va targ’ibot-tashviqot tizimi tadqiqoti ham fanning muhim masalalaridan biridir. Milliy g’oya tarixi va nazariyasini o’qitish jarayonida O’zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyotida milliy g’oyaga ehtiyojning ortib borish jarayoni ijtimoiy qonuniyat sifatida ko’rib o’tiladi. Milliy g’oya xalqning ishonch e’tiqodi manbai sifatida O’zbekistonning ichki siyosatida ham, uning tashqi siyosatida ham, davlatimizning xalqaro mavqeining mustahkamlanishida ham muhim ahamiyatga ega bo’lib kelmoqda.

### **1. 3. “Milliy g’oya tarixi va nazariyasi” fanining maqsadi**

Milliy g’oya tarixi va nazariyasi fanining maqsadi – milliy g’oyaning shakllanishi, uning tarixiy ildizlari va negizlarining xalqimiz hayotida tutgan o’rni va rolini o’rganish, O’zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g’oya va mafkuraning ahamiyatini ochib berishdan iboratdir. Mustaqillik davrida jamiyatimizda yuz bergan o’zgarishlar milliy o’zligimizni anglashni, milliy g’ururimizning o’sishini yangi bosqichga ko’tardi. Eng avvalo, xalqimiz milliy g’oya asosida milliy manfaatlarini chuqurroq va kengroq tushuna boshladi. Xalqning oliy maqsadlarini, orzu-istaklarini o’zida ifodalaydigan, ularga erishish yo’llarini asoslab jamiyatni birlashtiradigan, ularning kuch-g’ayratlarini yagona

maqsadga safarbar etadigan milliy g'oya va mafkurasining yagona konsepsiyasi yaratildi. Milliy o'zlikni anglashning o'sishi ma'naviyat masalalariga ham, milliy g'oyani shakllantirish masalalariga ham e'tiborni kuchaytirdi. O'zbek xalqining boy va qadimiy ma'naviyati milliy g'oya va mafkurani tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladi, ularni oziqlantiruvchi, harakatlantiruvchi aqliy va hissiy asos vazifasini o'taydi. Milliy g'oya va mafkuraning paydo bo'lishi hamda shakllanishi millatning ongi, dunyoqarashi, o'zligini va o'z tub manfaatlarini anglashi, kelajak taraqqiyot haqidagi tasavvurlari, intilishlari, o'z turmush tarzi mazmunini takomillashtirish istaklari va rejalari, madaniy merosga va zamonaviy qadriyatlarga munosabati bilan bevosita bog'liqdir. Milliy g'oya ma'naviyat negizida shakllanadi. Milliy g'oya xalqning haqiqiy tub manfaatlarini ifodalasa, jamiyatdagi aksariyat fuqarolar va ijtimoiy qatlamlar tomonidan tan olinsa, ma'naviyatning barcha sohalariga kuchli ta'sir ko'rsatib, tarbiyaning qudratli omillaridan biriga aylanadi. Milliy g'oya umummilliy manfaatlarini, xalqning orzu-umidini o'zida ifodalaydi, millatning jipsligini ta'minlaydi va o'zlikni anglashning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Milliy g'oya va mafkura O'zbekistondagi barcha xalqlarning tilidan, dinidan, etnik kelib chiqishidan, jinsidan qat'iy nazar tub maqsadlari va manfaatlarini o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya va mafkura turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, millatlar o'rtasida hamkorlik, millatlararo totuvlik va umumtaraqqiyot yo'lida jipslashish, shaxsiy, jamoaviy, guruhiy va milliy manfaatlardagi xususiy jihatlarga ham birday katta e'tibor qaratib, ularni uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Milliy g'oya va mafkura dunyoviylikka, diniy bag'rikenglikka va rasionalizmga asoslanadi. Rasional dunyoqarash tafakkur erkinligiga, shaxsning o'z faoliyatiga, mavjud holatga ijodiy, ijtimoiy mas'ullik nuqtai nazaridan yondashishiga asoslanadi. Milliy g'oya va mafkura alohida shaxslarni va butun jamiyatni ezgulikka, erkinlikka, ijodga va taraqqiyotga rag'batlantiradi. Milliy g'oya va mafkuraning tarixiy, madaniy va ma'naviy ildizlari mavjud bo'lib, bu ildizlar milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanining maqsadini ham o'zida ifodalaydi. Xalq og'zaki ijodi afsona va dostonlar, To'maris, Shiroq, Go'ro'g'li, Alpomish va boshqalarda ozodlik, el-yurt himoyasi uchun birlashish, Vatanga jonini ham



ayamay xizmat qilish, Vatan uchun jonini fido qilishga tayyorlik, vatanparvarlik kabi g'oyalar ilgari suriladi. Forobiy, Beruniy, Axmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy va boshqalarning ijodida ham milliy jipslik, birlik, ajdodlar merosini, ma'naviyatini asrash, rivojlantirish, fozillikka, saodatli turmushga erishish masalalari ilgari surilgan. Mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan fikr va g'oyalarda yuksak imon-e'tiqod, axloqiylik, halollik, ilmga qattiq tayanish, mehnatsevarlik va o'zaro yordam berish kabi ma'naviy fazilatlar ulug'langan. Amir Temurning "Kuch – adolatda" shiori esa o'z davrining milliy g'oyasi sifatida ijtimoiy taraqqiyotga katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu g'oya asosida Amir Temur davlatining mafkurasini va huquq-tartibot tizimini shakllangan. Milliy ozodlik kurashi g'oyasi jadid ma'rifatparvarligida ham asosiy masalalardan biri bo'lib, jadidchilik mafkurasida til, din, moddiy va ma'naviy madaniyatni asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga asosiy e'tibor qaratilgan edi. Milliy ozodlik kurashi va jadid ma'rifatchilari faoliyatini milliy g'oya va mafkura tug'ilishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy negizi deb hisoblash mumkin. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy g'oya va mafkura boy tarixiy ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda qayta tiklanib, O'zbekiston fuqarolari, eng avvalo, yosh avlodni milliy g'oyada aks etgan millatning haqiqiy orzusiga – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etishga da'vat etib takomillashtirilib borildi. Milliy g'oya va mafkuraning maqsadi O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan quyidagicha ta'riflanadi: "Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir"<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: Ўзбекистон, 2000. 7-бет.

#### **1.4. “Milliy g’oya tarixi va nazariyasi” fanining vazifalari**

Milliy g’oya tarixi va nazariyasi fanining vazifalari – milliy g’oyaning shakllanish va rivojlanish tarixi va nazariyasi bilan bog’liq asosiy tushuncha va tamoyillar asosida yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning milliy g’oyaga bo’lgan ishonch va e’tiqodini mustahkamlash, Vatanga sadoqat va xalqqa hurmat ruhini oshirish, yoshlarning ogohliligini va sezgirligini kuchaytirish hamda ularni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo’lida birlashtirish va safarbar etishdan iboratdir.

Milliy g’oya tarixi va nazariyasi fanining asosiy vazifasi fanda o’rganiladigan bilim va tushunchalarni pedagogik tamoyillar asosida, ma’rifiy yo’llar bilan talabalar ongiga singdirishdan iboratdir.

Mazkur fandan ta’lim berish jarayonida talabalar ongida yangicha dunyoqarash va mafkuraviy immunitet asoslari, mustaqil fikrlash ko’nikmalari shakllantiriladi.

Fanni o’qitish jarayonida yosh avlod qalbida g’oyaviy bo’shliq vujudga kelishiga yo’l qo’yilmaydi.

Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarni ajdodlarning shonli o’tmishi, fidokorligi va qahramonona hayoti ruhida tarbiyalashga e’tibor qaratiladi.

Milliy g’oya tarixi va nazariyasi fani yoshlarda milliy g’oyaga ishonch va e’tiqodni mustahkamlaydi. Ushbu fan milliy-ma’naviy meros va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda milliy g’urur, vatanparvarlik, millatparvarlik fazilatlarini shakllantirib, O’zbekiston fuqarolarini ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga yo’naltiradi.

Milliy g’oya tarixi va nazariyasi yosh avlodni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi olijanob g’oyalar ruhida tarbiyalaydi. Yoshlarni ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik ruhida kamol toptiradi. Ushbu fan O’zbekiston fuqarolari, yoshlarda yangicha dunyoqarashning shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda tarixiy xotiraning tiklanishi, milliy g’urur va iftixor tuyg’ularining yuksalishi ham milliy g’oya tarixi va nazariyasi faniga bevosita bog’liqdir.

Ushbu fan yosh avlodda boy tarixiy-ma'naviy meros va milliy qadriyatlar asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning eng asosiy vazifasi komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Shu bilan birgalikda yoshlarni yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashishga o'rgatish, ularda ogohlik va hushyorlik ko'nikmalarini hosil qilish ham fanning muhim vazifalaridan bo'lib hisoblanadi. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni beqiyosdir. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy g'oya haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz<sup>1</sup>. Shu bilan birga, men milliy g'oya bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tahlikali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur, deb bilaman<sup>2</sup>.

Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani bajaradigan vazifalaridan quyidagilar muhim ahamiyatga egadir. Ushbu fan talabalarda vatanparvarlik tuyg'usi, mustaqil dunyoqarash va erkin fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Bu yo'l orqali talaba yoshlarni milliy totuvlik va hamjihatlik ruhida tarbiyalaydi, ularda milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodni shakllantiradi. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani jamiyatda sog'lom ijtimoiy ma'naviy muhitni shakllantirishga, yoshlar ongida Vatan taqdiri uchun mas'ullikni mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu fanni o'rganish jarayonida xalqimizning tarixiy taraqqiyotida mavjud bo'lgan g'oyalar va mafkuralar, zamonaviy nazariyalar haqida ma'lumot berilib, talabalarining ongi

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. 71- бет.

<sup>2</sup> Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Т.: Ўзбекистон, 2000. 7- бет.

va dunyoqarashi shakllanishiga, mafkuraviy immunitetining kuchayishiga yordam beradi. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani yangicha fikrlaydigan, milliy o'zligini anglagan, boy tarixiy ma'naviy merosini yaxshi o'zlashtirgan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga yordam beradigan ijtimoiy-gumanitar fanlardan biridir. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani talaba yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularda vatanparvarlik, burch va fidoyilik tuyg'ularining yuksalishiga yordam beradi. Fan talabalarning g'oyaviy, mafkuraviy immunitetini mustahkamlaydi, ularda erkin fikrni uyg'otadi va fikr erkinligini kafolatlaydi. Jamiyatimiz ma'naviy hayotida sodir bo'lgan va bo'layotgan g'oyaviy, mafkuraviy jarayonlarni bilish, o'rganish, tahlil etish va ularga baho berishga imkoniyat yaratadi. Jamiyatning ma'naviy yangilanishida bir qator ilmiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni ham bajaradi. Ma'naviy yangilanish, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini tiklash mafkuraviy tarbiyaning muhim vazifasidir.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fanining predmetini tushuntirib bering?
2. Fanni o'qitish jarayonida milliy g'oyaning muhim vazifalari nimalardan iborat?
3. Fanning maqsad va vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
4. Fanining ob'yekti nima?
5. Milliy g'oya deb nimaga aytiladi?
6. Milliy mafkura nima?
7. Fanning yoshlar ma'naviyatiga ta'sirini nimalardan iborat?

## **2-BOB. MILLIY G'OYANING SHAKLLANISH TARIXI, UNING NAMOYON BO'LIH XUSUSIYATLARI**

### **2.1. Inson, millat va jamiyat hayotida g'oya va mafkuraga bo'lgan talab-ehhtiyojlar**

Ma'lumki, inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g'oya va mafkura muhim ahamiyatga egadir. Inson ong va tafakkurga ega bo'lib, o'z oldiga muayyan maqsadlarni qo'yib, bu maqsadlarni amalga oshirish uchun harakat qiladi. Insonning ma'lum maqsadga qaratilib amalga oshiradigan hatti-harakati faoliyat deb nomlanib, moddiy va ma'naviy faoliyatning asosini insonning mehnati tashkil etadi. Insonning jamiyat hayotidagi faoliyati ma'lum bir g'oya va mafkura asosida muayyan maqsadga yo'naltiriladi. Dunyodagi hech bir jamiyat, xalq va millat g'oya va mafkurasiz yashay olmaydi. Dunyodagi har bir jamiyatning, har bir davlatning o'ziga xos hamda mos milliy g'oya va mafkurasi mavjud bo'lib, bu g'oya va mafkura davlat va jamiyatning tub maqsadlari va manfaatlarini himoya qiladi. Odamlar jamiyat taraqqiyotining qaysi davri va bosqichida yashamasin, ular albatta nimagadir ishonishi, nimagadir e'tiqod qilishi, qandaydir bir g'oyaga, mafkuraga, ta'limotga asoslanib ish ko'rishi va faoliyat ko'rsatishi zarurdir. O'zbekiston xalqini umumiy maqsad sari faol harakatga da'vat etadigan milliy g'oya va mafkura bugungi kunda juda ham muhimdir. Milliy g'oya va mafkura O'zbekiston fuqarolarini barkamol inson qilib tayyorlash, tarbiyalash, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirishga xizmat qiladi. Insonning faoliyati va uning ijtimoiy faolligi jamiyat hayotiga maqsad va yo'nalish berib turgan g'oya va mafkuraga bevosita bog'liqdir. Milliy g'oya va mafkura odamlarda kelajakka ishonchni, umidvorlikni tarbiyalaydi, mehr-muhabbat, oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini shakllantiradi. Jamiyat hayotidagi har qanday g'oya va mafkura muayyan ijtimoiy-tarixiy negizlarga asoslanganda u odamlarni o'z atrofida uyushtirib, muayyan vazifalarni bajarishga yo'naltiradi.

O'zbekiston o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng boy tarixiy ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holatda milliy g'oya va milliy mafkura ishlab chiqila boshlandi. Milliy g'oya xalqning tub

manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oya bo'lib, u o'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalqning kelajagini belgilaydi. Milliy g'oya O'zbekiston xalqining madaniyati, tarixi, milliy o'ziga xosligi, ma'naviy-madaniy merosiga tayanilgan holda shakllanib boradi.

O'zbekistonda bugungi kunda boy tarixiy, ma'naviy merosimizni tiklash masalasida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Ko'plab ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar, qadimiy qo'lyozmalar nashr qilinmoqda. Boy tarixiy ma'naviy merosimizning namunalari bo'lgan qadimgi qo'lyozmalar, bitiklar, xalq og'zaki badiiy ijodi namunalari, buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan dunyoviy va diniy mavzulardagi asarlarni izlab topish, chet ellardagi ma'naviy merosimiz namunalarini O'zbekistonga qaytarish, xalqimizning ma'naviy mulkiga aylantirish uchun ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Ilm-fanning turli sohalariga taalluqli bo'lgan asarlar, badiiy adabiyotning nodir durdonalari, Axmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniylarning diniy-axloqiy mavzulardagi asarlari, Axmad Yugnakiy va Yusuf Xos Hojiblarning pand nasihatlarini, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshbandiylarning insonning ichki dunyosi, ruhiyatiga qaratilgan ta'limotlari, Alisher Navoiy va boshqalar tomonidan yaratilgan badiiy ijod namunalari xalqimizning boy tarixiy va ma'naviy merosi bo'lib hisoblanadi.

Insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyotida biror-bir jamiyat ezgu g'oyalar va mafkuralarsiz rivojlana olmagan. O'zbekistonda demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo qilinayotgan ekan, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda yot va begona g'oyalarning tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga yetkazish, bu yo'lda g'oyaviy, mafkuraviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, O'zbekistonning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy g'oya va mafkurani shakllantirish hamda rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillikdan keyin O'zbekiston xalqi o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlab, bu yo'l xalqimizning ma'naviy merosi va qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatini berdi. Insoniyatning tarixiy taraqqiyotidagi har qanday davlat, jamiyat va shaxs o'z

oldiga muayyan maqsadni qo'ygan holatda o'z faoliyatini olib boradi. Har bir xalqning maqsad va manfaatlari shu xalqning milliy-ma'naviy g'oyalarda o'z ifodasini topadi. Hozirgi davrda globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan, axborot olish imkoniyatlari tobora kengayayotgan bir sharoitda milliy g'oyani, uning tarixiy va nazariy asoslarini o'rganish muhim zaruriyatga aylanib bormoqda. Jamiyat hayotida g'oya bilan g'oyaning, maqsad bilan maqsadning, fikr bilan fikrning umumiy va o'ziga xos jihatlarini chuqur bilish va o'rganish milliy g'oya, uning tarixi va nazariyasini o'rganishga bo'lgan talab hamda ehtiyojni kuchaytirmoqda. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani O'zbekiston fuqarolarida tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish va o'zlikni anglash jarayonini kuchaytirishga xizmat qiladi. Milliy g'oyaning taraqqiy etib borish jarayonlarini tarixiy moddiy va ma'naviy meros bilan bog'liq holatda tushuntiradi. Milliy g'oyaning nazariy masalalarini tahlil qiladi. Millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tibor manbai hamda muhim ma'naviy omil vazifasini bajaradi. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fuqarolarga har qanday ilg'or g'oyani singdirish va ularda har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Hayotda har bir inson va jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi, yuksak g'oyasi, ezgu orzu-intilishlari mavjud bo'lib, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida har bir xalq, millat va jamiyat o'z manfaatlariga xizmat qilib, uning taraqqiyotini ta'minlashga yordam beradigan muayyan g'oyaga ehtiyoj sezadi. Shu bilan birgalikda insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida inson va jamiyat o'z maqsad va manfaatlariga zid bo'lgan zararli va begona g'oyalarga qarshi turadi. Jamiyat hayotida har qanday g'oya va mafkura muayyan millat va xalqning maqsad va muddaolari, manfaatlarini zamirida shakllanadi hamda takomillashib boradi. Milliy g'oya millat manfaatlarini va xalqning orzu-istaklarini o'zida ifodalab, u o'zining hayotbaxsh g'oyalari, buyuk maqsadlari bilan o'z kuch g'ayrati, aql-zakovati va hatto hayotini, buyuk g'oyalar yo'lida baxsh etishga tayyor insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyotida, yer yuzida inson paydo bo'lib uning urug', qabila, jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki

davrlardayoq ularni birlashtirib turadigan umumiy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tug'ilgan. Tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida har bir davlat, xalq, inson va jamiyatning o'ziga xos g'oyasi va jamiyatning o'ziga xos g'oyasi va mafkurasi bo'lgan. Insonning, jamiyatning, xalqning o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi uni amalga oshirishda jamiyat ahlini birlashtiradigan, safarbarlikka undaydigan g'oya va mafkura asosida amalga oshirilgan.

O'zbek davlatchiligi taraqqiyot bosqichlari va tadrijiy taraqqiyotining g'oya va mafkura bilan bevosita bog'liqligi masalasiga e'tibor qaratilsa, Qam dini, shomonlik, Ko'k Tangriga e'tiqod qadimgi Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning diniy e'tiqodi, jamiyatdagi g'oya va mafkurasi bo'lsa, miloddan avvalgi VII asrdan boshlab Qadimgi Baqtriya va Katta Xorazm davlatlari tashkil topishi bilan Zardushtiylik dini jamiyatdagi yetakchi g'oya va mafkura vazifasini bajara boshladi. Markaziy Osiyo hududi miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahamoniylar, miloddan avvalgi IV-II asrlarda Yunon-makedon davlatlari, Aleksandr Makedonskiy saltanati, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya davlatlari tarkibida bo'lib, yunon madaniyati, diniy e'tiqodi mahalliy aholining turmush tarzi, madaniyati, milliy g'oya va mafkurasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Markaziy Osiyo hududida Kushon va Qang' davlatlari tashkil topgan bo'lsa, Kushon davlati keyinchalik jahondagi eng yirik saltanatlardan biriga aylandi. Kanishka tomonidan Buddaviylik dinining davlat dini sifatida qabul qilinishi jamiyatning ma'naviy hayotiga, milliy g'oyasiga, milliy mafkurasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi o'zbek davlatchiligining barcha bosqichlarida amal qilib, turli davrlarda Qam dini, shomonlik, Zardushtiylik, Buddaviylik, Moniylik, Mazdakiylik, Nasroniylik, Islom dini jamiyat ma'naviy hayotiga, jamiyatning milliy g'oyasi va mafkurasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy hayot sohalari jamiyatdagi g'oya va mafkura vazifasini bajargan diniy ta'limot asosida rivojlanib borgan. IV-V asrlardan boshlab Markaziy Osiyo hududi turkiy xalqlar, Xioniylar, Kidariylar, Eftalitlar, Turk hoqonligi davlatlari tarkibiga kiritildi. VII – asrdan boshlab Markaziy Osiyo hududi Movarounnahr nomi bilan Arab xalifaligi, avval



Ummaviylar, keyin esa Abbosiylar xalifaligi tarkibiga kiritildi. Arablar o'z mafkuralari Islom dinini mahalliy xalqlar o'rtasida tarqatdilar va o'zbek davlatchiligining keyingi taraqqiyoti bevosita Islom dini asosida ishlab chiqilgan milliy g'oya va mafkura asosida rivojlanib bordi. Bunga IX-X asrlardan boshlab tashkil topa boshlagan mustaqil milliy davlatlar – Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar – Anushteginiylar kabi davlatlar taalluqlidir. Amir Temur va temuriylar davlati, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Xonliklar davri ham Islom dini va islomiy ilmlar – Ilmi Kalom, Ilmi Rivoyat, Ilmi Tavhid, Aqida ilmi asosida rivojlanib bordi. Insonning dunyoni aql yordamida bilishiga asoslangan Ilmi Hikmat Sharq Uyg'onish davri an'analari asosida rivojlandi va vorisiylik asosida keyingi davr ilm-fani rivojiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xalqimiz, davlatchiligimiz tarixida vujudga kelgan ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakatlari ham o'z davri uchun muhim va dolzarb bo'lgan milliy g'oya va milliy mafkuraga taalluqli bo'lgan fikr va g'oyalarni ilgari surishdi. Tarixiy ma'naviy merosimiz va milliy davlatchiligimiz an'alarida ham vorislik asosida milliy mustaqillik g'oyasi va mafkurasida ilgari surilgan fikr va g'oyalar mavjud bo'lib, bugungi kunda ulardan milliy g'oya va mafkuraning tarixiy ildizi sifatida foydalanishga harakat qilinmoqda. Masalan, jadidchilik mafkurasida mustaqillik g'oyasi ilgari surilgan, xususiy mulkning muqaddasligi e'tirof etilgan, diniy e'tiqod erkinligi qo'llab-quvvatlangan, tarixiy ma'naviy merosga tayanish zarurligiga e'tibor qaratilgan, dunyoviy ilm-fan va madaniyatni egallashga da'vat etilgan. Tarixiy ma'naviy merosimizdagi ushbu fikr va g'oyalar milliy g'oya va mafkuramiz tayanadigan va oziqlanadigan muhim manbalardan bo'lib hisoblanadi.

G'oya va mafkura barcha insonlar, xalqlar, jamiyat va davlat oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirishda yordam beradigan, turli sohada faoliyat yuritadigan jamiyat ahlini birlashtirib, ularni umumiy maqsad sari safarbar etadigan buyuk kuchdir. G'oya va mafkuraning hayotiyliigi odamlarning, millatning, jamiyatning milliy manfaatini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettirishiga, ularning turmush tarzi, dunyoqarashi, tabiatiga qanchalik mos bo'lishi bilan belgilanadi. Jamiyat hayotida odamlarning ezgu maqsad-muddaolarini

ifodalaydigan, ularga ma'naviy-ruhiy quvvat beradigan mafkurani ko'pchilik qabul qiladi va qo'llab-quvvatlaydi. Shunday holatda mafkura kuchli ruhiy qudratga ega bo'ladi. Mafkura barcha davrlarda jamiyatni yuksak va bunyodkor maqsadlar tomon birlashtirib, jamiyat ahli o'rtasida sog'lom munosabatlarni shakllantiradi. Jamiyat hayotida g'oya va mafkura barcha insonlar, xalqlar, jamiyat va davlat oldida muhim vazifalarni amalga oshirishda yordam beradigan, turli sohada faoliyat yuritadigan jamiyat ahlini birlashtirib, ularni umumiy maqsad sari safarbar etadigan muhim omildir.

Xalqimiz boy tarixiy merosga, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lib, xalqimizning boy tarixiy moddiy va ma'naviy merosi milliy g'oya va mafkura tayanadigan manbadir. Agar tarixiy ma'naviy merosimizda ilgari surilgan fikr va g'oyalarga e'tiborimizni qaratsak, Sharq Uyg'onish davri, Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning asarlarida insonlar ma'rifatga, ilm olishga, yuksak axloq-odobga, oliyjanob fazilatlar egasi bo'lishga, yaxshilikka da'vat etilgan. Tarixiy ma'naviy merosdan foydalanish yoshlarimizning fikrini o'stirishga, ongining shakllanishiga, dunyoqarashining kengayishiga yordam beradi.

Mustaqillik yillarida o'tmishda toptalgan, qoralangan tarixiy moddiy va ma'naviy merosimizga munosabat tubdan ijobiy tomonga o'zgardi hamda ulardan xalqimizning ma'naviy va ma'rifiy yuksalishi uchun foydalanish imkoniyatlari ham kengaydi. Bugungi kunda Respublikamizda bu yo'nalishda keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot tadbirlari olib borilmoqda.

O'zbekiston sayohatchilikni rivojlantirish uchun ham katta imkoniyatlarga ega bo'lib, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon, Qarshi kabi tarixiy obida shaharlar butun dunyoga mashhurdir. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob'yektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. ... Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan “kichik haj” dasturini

rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim<sup>1</sup>. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al – Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum. Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi – yosh avlodni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanmog'i lozim. Bizning madaniyatimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolganligi tasodifiy emas. Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va san'at ixlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan shug'ullanuvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohga aylangan.

Bularning har biri milliy g'oyamizning moddiy va ma'naviy negizlari hisoblanadi. Milliy g'oya aynan ana shulardan ozuqa oladi va shakllanib, rivojlanib boradi. Qaysi jamiyat o'z yo'lini to'g'ri tanlab olib, buyuk maqsadlarni ko'zlab taraqqiy etishni xohlasa u albatta milliy g'oya va milliy mafkuraga tayanadi. Milliy g'oya umummanfaat yo'lida xizmat qilsa, u taraqqiyotga kuchli ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy taraqqiyotda umummaqsad sifatida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya ijtimoiy taraqqiyotga kuchli ta'sir ko'rsatadi, jamiyat hayoti turli sohalarining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, ijtimoiy hayotning rivojlanib borishida odamlarning maqsad va manfaatlarini birlashtiradi, uyushtiradi, ma'lum bir maqsadga yo'naltiradi va harakat dasturi bo'ladi. Inson, millat va jamiyat hayotida g'oya va mafkuraga, eng avvalo, milliy g'oyaga bo'lgan talab va ehtiyojlar doimo ortib boradi.

## **2.2. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari**

Milliy g'oya – millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlarini va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oyaning shaklidir. Milliy g'oya shu bilan birgalikda

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 128-129-бетлар.

inson va jamiyatning hayotiga ma'no va mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir.

Xalqimizning yangi jamiyat barpo etish yo'lidagi orzu-intilishlari uning milliy g'oyasi va mafkurasini shakllantirishni hayotiy zaruratga aylantirdi. O'zining milliy g'oyasi va mafkurasiga ega bo'lgan davlat mustahkam, qudratli va obod bo'ladi. Jamiyatda milliy g'oya bo'lsa maqsad oydinlashadi, ezgu maqsad esa har bir kishini safarbarlikka da'vat etadi hamda jamiyatni yanada birlashtiradi. O'z kelajagini ko'rmoqchi va qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yoki jamiyat albatta o'zining milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarur bo'ladi. Jamiyatda oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, tizim asosida esa siyosat paydo bo'ladi. Milliy g'oya o'zining tarixiy ildizlariga egadir. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari O'zbekiston hududida eng qadimgi odamlarning paydo bo'lishi, urug' va qabilalarning kelib chiqishi, davlatchilikning shakllanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining tashkil etilishi, ilmiy va diniy bilimlardan foydalanish, falsafa, axloq, huquq va boshqa shu kabi narsa va hodisalarning bir butun tizim sifatida tarixiy makon va zamonda egallagan o'rnini o'zida ifodalaydi. Tarixiy ildiz deganda bugungi kunda mavjud bo'lgan barcha narsa va hodisalarning tarixiy makon va zamonda joy olgan barcha tomonlari nazarda tutiladi. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari xalqimizning davr sinovlaridan o'tib kelayotgan boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari, ota-bobolarimizning ozodlik, erkinlik uchun kurash ruhi, ularning mustaqillik yo'lida ko'rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlarida namoyon bo'ladi. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari asrlar davomida yillar sinoviga dosh berib, sayqallanib, takomillashib kelgan. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashiga, tarixiy xotirasining tiklanishiga, Vatan ravnaqi yo'lida samarali fidokorona mehnat qilishiga, erishgan buyuk yutuqlariga, tarixiy makon va zamondan joy olib, insonda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining yuksalishiga yordam beradigan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlar tizimidan iboratdir. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari o'zbek xalqining boy tarixiy moddiy va ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va

an'analariга asoslanadi. J.Ya.Yaxshilikov va N.E. Muhammadiyevlar tomonidan 2015 yilda chop ettirilgan "Milliy g'oya va mafkura" monografiyasida Milliy g'oya va mafkuraning tarixiy ildizlariga quyidagilar kiritilgan:

1. Eng qadimgi odamlarning paydo bo'lganligi va yashaganligi. Mualliflar o'zbeklarning juda ham qadimiy xalq ekanligini O'zbekiston hududida, Farg'ona vodiysining So'x tumani Selung'ur g'oridan topilgan "Farg'ona odami", "Fergantrop"ning topilishi bilan asoslashadi. Milliy mafkuraning asosiy vazifalaridan biri ham xalqning qadimiyligi, madaniyatining buyukligi bilan fuqarolarda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirishga harakat qilinadi. Qadimda Turon, so'ngra Turkiston va Movarounnahr nomlari bilan mashhur bo'lgan hozirgi O'zbekiston yerlari va bu o'lkada yashab uni obod etgan aholisi qadimiy tarixga, boy va yuksak davlatchilik an'analari hamda ma'naviyatga egadir. O'zbekiston hududidan ilk paleolit davriga taalluqli Selung'ur va Ko'lbuloq, keyingi davrlarga taalluqli Obirahmat, Xo'jakent, Paltov, Ko'lbuloq, Omonqo'ton, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Xo'jamazgil, Uchtut kabi makonlar topib o'rganilgan bo'lib, ushbu makonlar bu hududlar inson paydo bo'lib shakllangan, antropososiogenez jarayoni sodir bo'lgan hudud ekanligini ko'rsatadi.

2. Madaniyat va ma'naviyat ildizining qadimiyligi. Monografiyada o'zbek xalqining qadimgi madaniyatga va ma'naviyatga egaligi O'zbekiston hududidan topilgan mehnat qurollari va Surxondaryoning Zarautsoy qoyatoshlariga chizilgan rasmlar bilan asoslanadi. Darxaqiqat, O'zbekiston hududidan eng qadimgi davrlarga taalluqli bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklari topilgan bo'lib, mehnat qurollari, me'morchilik, idish-tovoq, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or anjomlarini tayyorlash, turar joylarni jihozlash bilan bog'liq ravishda amaliy bezak san'ati rivojlanib bordi. O'zbekiston hududida tasviriy san'at ibtidoiy davrda vujudga kelgan bo'lib, Zarautsoy, Ilonsoy, Sarmishsoy, Soymalitoshdan topilgan qoyatosh rasmlarida hayvonlar tasvirlari va ov lavhalari aks ettirilgan.

3. Milliy davlatchilik an'analari. O'zbekiston hududida miloddan avvalgi VII-VI asrlarda ilk davlatlar tashkil topib, o'zbeklar bundan 2700-3000 yillar avval o'z davlatchiligini barpo qilgan xalqlardan biri bo'lib hisoblanadi. Markaziy Osiyo

hududi tabiiy-geografik qulayliklarga ega bo'lib, bu yerda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik madaniyati qadim zamonlardayoq vujudga kelgan edi. Markaziy Osiyo hududidagi eng qadimgi davlatlar bu Katta Xorazm va Baqtriya podsholigi bo'lib, bu hududlarda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati rivojlangan edi. Markaziy Osiyoning o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlari qadimgi davrlardan boshlab savdo-iqtisodiy, madaniy, diplomatik munosabatlarni o'rnatgan edilar. Ularning milliy davlatchilik an'analarida, mulkiy munosabatlarida, diniy e'tiqodida, urf-odat va an'analarida, folklor va axloqiy me'yorlarida juda ko'p umumiylik mavjud edi. Markaziy Osiyo hududi Mesopotamiya, Hindiston va Xitoy kabi uchta buyuk Sharq sivilizasiyasi bilan bevosita chegaradosh bo'lib, G'arb sivilizasiyasiga xos bo'lgan Yunoniston va Rim bilan o'zaro aloqada rivojlangan edi. Markaziy Osiyo hududida yirik davlatlarning tashkil topishi yagona boshqaruv, qonunchilik, pul tizimining o'rnatilishiga, til, yozuv, boshqaruv, mulkchilik, soliq tizimi va moddiy hamda ma'naviy madaniyat sohasidagi umumiylikka olib keldi. O'zbek davlatchiligi tarixida o'ziga xos an'analar ham vujudga kelgan bo'lib, qat'iy qonun va tartib intizomning mavjudligi, adolatning bosh mezon qilib olinganligi, milliy va diniy bag'rikenglikning mavjudligi, axloq, ma'naviyat va komillikning asosiy mezon sifatida e'tirof etilishi uning o'ziga xos xususiyatidir.

4. Haqqoniy yozilgan tarix. Mustaqillikdan so'ng o'zbek xalqining boy tarixi va ma'naviy qadriyatlari milliy g'oya va mafkura asosida qayta ko'rib chiqilib, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirishga xizmat qiladigan haqqoniy tarixni yoritishga katta e'tibor berildi. Har qanday mamlakatning qudrati, uning milliy mustaqilligi, davlat chegaralarining daxlsizligi – o'sha mamlakat fuqarolarining o'z yurtiga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalanganliklari, Vatan mustaqilligi va milliy istiqlol uchun agarda zarur bo'lsa jon fido qilishga ham tayyor bo'lishdek olijanob fazilatlarga ega bo'lishlariga bevosita bog'liqdir. Bu fazilatlarni O'zbekiston fuqarolari ongida qaror toptirish va shakllantirishda haqqoniy yozilgan tarixning tutgan o'rni hamda ahamiyati beqiyosdir. Mustaqillik

xalqimizga tarixni xaqqoniy tarzda, voqea va hodisalar hayotda qanday sodir bo'lgan bo'lsa, ana shunday xolisona o'rganish imkoniyatini yaratib berdi.

5. Xalqning tarixiy xotirasi. Har bir xalq o'zining tarixiy makon va zamonda egallagan o'rnini unutmasligi zarur. Buning uchun esa tarixiy xotiraga ega bo'lib, tarix saboqlaridan xulosa chiqarib yashashi zarur. Tarixiy xotira – milliy g'urur va iftixor hissining zaminlaridan biridir. Millatning shakllanishi millat tomonidan o'z o'tmishini, tarixini, ajdodlarining mehnati, qahramonligi, milliy ma'naviyat va madaniyatining barcha yo'nalishlari, tarmoqlari, xilma-xilligini hamda o'ziga xosligini o'rganish va ularga ishlov berib, takomillashib borish jarayonidan iborat. Millatning tarixiy xotirasi qanchalik boy, mazmunli va uzviy bog'langan bo'lsa, bu millat shunchalik uyushgan, tadbirkor, harakatchan, hamjihat bo'ladi, o'z ajdodlari va avlodlarining sha'niga yarashadigan xizmatlarni, ishlarni bajarishga intiladi. O'zbek xalqi o'zining tarixiy xotirasi va ma'naviy merosi bilan haqli ravishda mag'rurlansa arziydi. Uning ildizlari juda chuqur bo'lib, uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. O'zbekistonning boy ma'naviy merosi shakllanayotgan yangi ma'naviyatimizning negizini, poydevorini tashkil qiladi. Ma'naviy merosimizda xalqimizning asriy orzu-intilishlari, bilimlari va hayotiy tajribalari mujassamlashgan bo'lib, u o'zligimizni anglash, milliy tiklanish va rivojlanishimiz uchun qudratli tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy meros xalqning muqaddas xotirasi bo'lib, uning insoniyat tarixi va ma'naviy taraqqiyotidagi tutgan o'rnini belgilab beradi. Ma'naviy merosga ilmiy munosabatni shakllantirishda, eng avvalo, unga aksiologik mezonlarga tayangan holda yondashish taqozo qilinadi. Ma'naviy merosga aksiologik yondashganda xalqparvarlik va vatanparvarlik asosiy mezonlardan bo'lib hisoblanib, ma'naviy meros jamiyatda alohida olingan inson uchungina emas, balki butun jamiyat va xalq uchun xizmat qiladi.

6. Yozma manbalar. Tarixiy manbalarning muhim va asosiy turlaridan biri yozma manbalardir. Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi dunyodagi eng boy tarixga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Markaziy Osiyoda qadimdan yashab kelgan xorazmiylar, baqtriyaliklar, so'g'diyonaliklar, davanliklar, qang'lilar, kushonlar va boshqalar o'z madaniyatlari va o'z

yozuvlariga ega bo'lganlar. O'zbekiston tarixi bo'yicha eng qadimgi manba bu zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"dir. O'zbekiston hududida yozuv miloddan avvalgi V-IV asrlarda paydo bo'lib, qadimgi Xorazm sopol idishlari sirtidagi yozuvlar mahalliy yozuv o'sha davrdan boshlab shakllanganligini ko'rsatadi. So'g'd yozuvi esa miloddan avvalgi III-II asrlardan boshlab shakllangan. O'zbekiston hududida miloddan avvalgi I asrlarga va milodning birinchi asrlariga oid yozuvi bo'lgan ko'plab tangalar topilgan. Bundan tashqari, to o'rta asrlarga qadar yetib kelgan ko'plab so'g'diy, turkiy tilli noyob yozma yodgorliklar, tosh, sopol, kumush, yog'och va charm buyumlarga bitilgan turli xil ma'lumotlar tarixiy yozma manbalar sifatida qimmatlidir. O'zbek xalqiga o'rta asrlardan boy tarixiy ma'naviy meros yetib kelgan bo'lib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida O'zbekistonning kitob fondlarida 100000 dan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanayotganligini aytib o'tganlar.

7. Xalq og'zaki ijodi. Folklor – xalq og'zaki ijodi bo'lib, inson nutqi shakllanishi bilan og'zaki so'z san'atining qadimiy tur va janrlari ham yuzaga kela boshladi. Folklorning asosiy xususiyati ijodiy jarayon – yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining og'zakiligi va jamoaviylik xarakteriga egaligidir. Folklor asari ko'pchilik tomonidan, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida yaratilgan poetika elementlari, an'anaviy uslub vositalari asosida yuzaga keladi. U muayyan eshituvchilar guruhiga mo'ljallangan bo'lib, xalq ommasi tomonidan e'tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etadi. Folklorning jamoaviylik xususiyati yakka ijodkorlik faoliyatini inkor etmaydi. Iste'dodli ijodkorlar og'zaki an'analar doirasida uni yanada mukammallashtiradilar, yangilarini yaratadilar.

Qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, lof, latifa, ertak, doston, askiya, og'zaki drama va boshqalar folklorning asosiy janrlari bo'lib, ular muayyan bir ijtimoiy-maishiy funksiyani ham ado etadi. Folklor janrlari yakka ijrolik, jamoa bo'lib ijro etish, sozli, sozsiz kabi ijro usullariga ham bo'linadi. Eng qadimgi davrlardan boshlab o'zbek xalqida afsona va asotirlar, urug' va qabilalar haqidagi rivoyatlar, aytimlar, olqishlar, marosim folklori, mehnat qo'shiqlari, topishmoq va maqollar keng tarqalgan. Afrosiyob, Elikbek, To'maris, Shiroq, Zariadr va



Odatida, Zarina, Oysuluv, Guldursun haqidagi afsona va rivoyatlar, qahramonlik eposlari, “Devonu lug’otit turk”da keltirilgan folklor namunalari, Alpomish, Go’ro’g’li, Avazxon kabi dostonlar o’zbek folklorining nodir durdonalaridir. Qaxramonlik dostonlarining yorqin namunalari bo’lgan “Alpomish” va uning davomi bo’lgan “Yodgor” dostonlarida qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, do’stlik, vafo va sadoqat ulug’lanadi. Bu esa milliy g’oya va mafkuraning shakllanishi hamda odamlar ongi va qalbiga singishida muhim ahamiyatga egadir.

8. Buyuk mutafakkirlarning merosi. Movarounnahrda islom uzil-kesil VIII asr boshida qaror topdi. Islom tamaddunining shakllanishi va ravnaq topishiga Movarounnahrlik buyuk mutafakkirlar ham katta hissa qo’shishdi. Movarounnahrlik buyuk mutafakkirlar islomiy ilmlar: muhaddislik, fiqh, tafsir ilmi, aqida ilmi, kalom ilmi, tavhid ilmi ya’ni tasavvufning rivojlanishiga katta hissa qo’shdilar. Ikkinchidan, Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar dunyoviy ilmlar: dunyoviy falsafa, dunyoviy ilm-fan – tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar rivojlanishiga ham katta xissa qo’shib keldilar.

Sharq Uyg’onish davrining buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy matematika, nazariy va amaliy astronomiya, geografiya, tarix va boshqa fanlar sohalarida tadqiqotlarni olib borgan. Uning nomini tarixda abadiy qoldirgan asarlaridan biri – “Al-jabr val-muqobala”dir. Muhammad Muso Xorazmiyning algebra, arifmetika, matematika, geometriyaga oid asarlari asrlar davomida avlodlar qo’lida merosni taqsimlashda, vasiyatnomalar tuzishda, mol-mulkni bo’lib olishda, sud ishlarida, savdo-sotiq muammolarida, shuningdek, yerlarni o’lchashda, kanallar qazishda, bino qurishda katta xizmat qildi. “Kitob surat al arz”, “Astronomik jadvallar”, “Quyosh soati to’g’risida risola”, “Hind hisobi haqida risola”, “Usturlob qurish haqida kitob”, “Zij” (“Astronomik jadval”), “Musiqa bo’yicha risola”, “Tarix bo’yicha risola” va boshqa ko’plab nodir asarlar ham Muso Xorazmiy qalamiga mansubdir. “Hisob al-Hind” (“Hind hisobi”) kitobida Xorazmiy hozirgi paytda ijtimoiy hayotda ishlatiladigan birdan to’qqizgacha bo’lgan raqamlar va nol yordamida istalgan sonni yozish, ular yordamida arifmetik to’rt amalni bajarish, o’sha raqamlar bilan ifodalangan

sonlardan kvadrat ildizlar chiqarish qoidalarini izohlab beradi. Al-Xorazmiyning “Kitob at-tarix” (“Tarix kitobi”)da Xuroson, Kichik Osiyo va Movarounnahrning VIII-IX asrlardagi tarixiga oid qisqa va aniq ma’lumotlar o’z ifodasini topgan.

Insoniyat Abu Ali ibn Sinoni jahon fani va madaniyatining, Sharq Uyg’onish davrining yirik arboblardan biri sifatida biladi va e’zozlaydi. Ibn Sinoning asosiy asarlari “Kitob at shifo” (“Davolash kitobi”), “Donishnoma”, “Najot”, “Kitob ul insof” (“Adolat kitobi”), “Kitob al-qonun fit tib”, (“Tib qonunlari kitobi”) kabilardan iboratdir. Ibn Sinoning “Donishnoma” nomli kitobi besh xil ilmni – mantiq, tabiiyot, ilmi hay’at (astronomiya), musiqa hamda ilohiyotni o’z ichiga oladi.

Sharq Uyg’onish davrining buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniy jahon fani va madaniyati tarixida alohida o’rin tutadi. Beruniy 160 ga yaqin asar yozgan bo’lib, uning asarlari astronomiya, matematika, geografiya va geodeziyaga, kartografiyaga, ob-havo masalalariga, minerologiya, fizikaga, dorishunoslikka, tarix va etnografiyaga, falsafaga, dinga, ritorika va musiqaga, adabiyotga va ilmning boshqa sohalariga bag’ishlangan. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Minerologiya”, “Geodeziya”, “Qonuni Mas’udiy” kabi asarlari uning eng mashhur asarlaridir. Beruniyning jamiyat, uning istiqboli, kelajak sari rivojlanib borishida mehnatning, ilm-fan, madaniyat va ma’naviyatning, inson omilining roli va ahamiyati borasida bildirgan fikr va mulohazalari muhim ahamiyatga egadir.

Sharq Uyg’onish davrining buyuk mutafakkirlaridan biri Ahmad al-Farg’oniydir. Ahmad al-Farg’oniy falakiyotshunoslik, matematika, geografiya kabi fanlar bo’yicha ijod qilgan. Ahmad Farg’oniyning ijodiy faoliyati Bag’dod bilan, ulug’ mutafakkir olim Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy rahbarligida faoliyat ko’rsatgan “Baytul Hikma” bilan bog’liq bo’lib, Ahmad Farg’oniy Bag’dodning Raqqoq nomi bilan ataluvchi mavzesida qurilgan Rasadxona qoshida tashkil etilgan falakiyotshunoslik maktabiga rahbarlik qildi. Ahmad Farg’oniyning dunyoga ma’lum va mashhur bo’lgan asarlari “Kitob fi usul ilm an-Nujum” (“Falakiyot ilmining usullari haqida kitob”), “Al-Farg’oniy jadvallari”, “Usturlob bilan amal

qilish haqidagi kitob”, “Oy, Yerning ustida va ostida bo’lganida vaqtni aniqlash risolasi”, “Yetti iqlim hibi”, “Usturlob yasash haqidagi kitob” kabilardir. Ahmad Farg’oniyning falakiyotga oid yirik ilmiy asarlaridan biri “Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob”dir. Bu asarda buyuk mutafakkir o’zi yashagan davrdagi falakiyotga oid bilimlarni tartibga soladi. Ahmad Farg’oniyning stereografik proyeksiyalar nazariyasini undan ming yil keyin buyuk matematik Eyler XVIII asrda geografiyaga oid xaritalar tuzish nazariyasiga tatbiq qildi va “Katta geografik xarita”ni tuzishda ishlatdi. Ahmad Farg’oniyning asarlari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib butun Yevropaga tarqaldi. Keyinchalik esa lotin, nemis, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilinib, Yevropadagi ilm-fan taraqqiyotiga bevosita o’z ta’sirini ko’rsatdi. Ahmad Farg’oniyning ma’naviy merosi xalqimiz uchun milliy g’oya va mafkura oziqlanadigan ma’naviy asos hamda milliy g’urur va iftixor masalasidir.

O’zbek xalqi ma’naviy merosi, milliy g’oya va milliy mafkuraning shakllanishida Abulqosim Mahmud az-Zamahshariyning ham o’ziga xos o’rni hamda ahamiyati bordir. Abulqosim Mahmud az-Zamahshariy arabshunos olim, shoir, yozuvchi, imom sifatida o’zidan juda katta ilmiy, ma’naviy meros qoldirdi. Az-Zamahshariy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, lug’atshunoslik, fiqh, tafsirshunoslik, islom tarixi, falsafa, uslub va notiqlik san’ati, tafsir, hadis va boshqa fanlar bo’yicha ellikdan ortiq asarlar yozgandir. Az-Zamahshariyning eng yirik va mashhur asari “Al-Kashshof an haqoyiq it tanziyl va uyun il-aqoviyl fi vujuh it-ta’viyl” (“Qur’ondagi yashirin haqiqatlarni ochib beruvchi”)dir. Zamahshariy Makkada uzoq vaqt yashaganligi uchun Jarulloh ya’ni Allohning qo’shnisi degan fahrli laqabni olgan. “Al-Kashshof” asarida Mahmud az-Zamahshariy Qur’oni Karimni til jihatidan izohlab, har bir so’z ma’nosini arab grammatikasi asosida tushuntiradi. Az-Zamahshariyning yana bir asari “Al-Mufassal” bo’lib, bu asar arab grammatikasiga oid eng qimmatli asardir. Az-Zamahshariyning “Asos al-balog’a” (“Notiqlik asoslari”) kitobi arab tilining izohli lug’ati bo’lib, arab lug’atshunosligini yuqori pog’onaga ko’tardi. Az-Zamahshariyning “Devon az-Zamahshariy” (“Zamahshariy devoni”) nomli

devonida olimning qasida, qit'a va nazmiy xatlari o'rin olgan bo'lib, lirik she'rlar asosan falsafa va axloq masalalariga bag'ishlangan.

Fiqh ilmi – musulmon qonunshunosligini rivojlantirishda Movarounnahr va Xorazm allomalari juda boy meros qoldirganlar. Movarounnahrlik fikhsunos olimlar – Abu Havs al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abul-l-lays as-Samarqandiy, Abu Bakr al-Buxoriy, Faxr ud-din Qozixon, Shams ul-a imma as-Saraxsiy va boshqalar o'z davrida islom dunyosida ma'lum va mashhur bo'lganlar. Movarounnahrlik faqih olimlar orasida Burhoniddin al-Marg'inoniy alohida o'rin tutadi. Burxoniddin Marg'inoniy musulmon huquqi xanafiya mazhabining buyuk nazariyotchisi va amaliyotchisi bo'lib hisoblanadi. Fiqhsunos olimning “Bidoyat al-mubtadiy” (“Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim”), “Kifoyat al-muntahiy” (“Yakunlovchilar uchun tugal ta'lim”), “Nashr ul-mazhab” (“Mazhabning yoyilishi”), “Kitob ul-mazid” (“Ilmni ziyoda qiluvchi kitob”), “Kitob ul-faroiz” (“Farzlar kitobi”), “Majma ul-navozil” (“Nozil bo'lgan narsalar to'plami”), “Manosik ul-haj” (“Haj marosimlari”), “Kitob ul-mashoyih” (Shayxlar haqidagi kitob), “Hidoya fi furu' al fiqh” (“Fiqh sohalari bo'yicha qo'llanma”) kabi asarlari bor. Burhoniddin Marg'inoniyning “Hidoya” kitobi to'rt jildidan iborat va 56 bobni tashkil etadi. Bu asar o'ziga xos shariat kodeksi bo'lib, hozirgi kunda ham islom dunyosi qonunshunoslari uchun asosiy qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Unda shariat masalalarida muallifning fikr-xulosalari bilan bir qatorda Xanafiylar mazhabining barcha imomlari, shuningdek boshqa mazhab vakillarining mulohazalari ham o'rin olgan. Asarda islomning asosiy marosim talablari, huquqiy va axloqiy qoidalari, xususan tahorat, namoz, zakot, ro'za, haj, qurbonlik, oila-nikoh bilan bog'liq bo'lgan masalalar, huquqiy qoidalarni bajarmaganlik uchun jazo choralari belgilangan. “Hidoya”da mulkiy va moliyaviy munosabatlarga, jinoyat va jazo, fuqarolik huquqlari, sud va prosessual masalalar keng o'rin olgan<sup>1</sup>. Vatanimiz hududida yetishib chiqqan ulug' allomalar, buyuk mutafakkirlarimizning ma'naviy merosi bugungi kunda fuqarolarimiz uchun milliy

---

<sup>1</sup> Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1997. 272-273-бетлар.

g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltiradigan, milliy g'oya va mafkurani shakllantiradigan ma'naviy omildir.

9. San'at va adabiyot durdonalari. O'zbek xalqi boy san'at va adabiyot durdonalariga egadir. O'zbek xalqining tarixiy taraqqiyotida milliy g'oya va mafkura doimo jamiyat hayotida yetakchi mavqega ega bo'lgan diniy e'tiqod hamda san'at turlari orqali namoyon bo'lib kelgan. O'zbekiston me'morchiligi qadimiy tarixga ega bo'lib, Xorazmdagi Tuproqqal'a, Buxoro yaqinidagi Varaxsha, Termiz yaqinidagi Bolaliktepa, Farg'ona vodiysidagi Quva qal'a binolari ichidagi saroylar yirik devoriy rasm, haykal va bo'rtma o'ymakor bezaklar bilan serhasham ishlangan. Salavkiylar va Yunon Baqtriya podsholiklari davrida yunon madaniyati me'morchilik san'ati uslublari kirib kelgan bo'lsa, Kushonlar davrida O'zbekiston janubida Buddaviylik ibodatxonalari hamda haykallari ko'plab barpo etilgan. O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida Zardo'shtiylik ibodatxonalari hamda moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklari ko'plab topilgan. Markaziy Osiyo hududiga islom dini kirib kelishi bilan me'morchilikda yangi binolar turi masjid, madrasa, maqbara xonaqoh va boshqalar paydo bo'ldi. Islom dini ta'sirida qurilgan me'moriy obidalarda ramz-timsollar yordamida Allohning qudrati, buyukligi, go'zalligi o'z ifodasini topgandir. Islom san'ati o'z mohiyatiga ko'ra, ilohiy tafakkurga yo'g'rilgandir. Bu holat she'riyatda (g'azal), musiqada (maqom), tasviriy san'atda (naqsh), me'morchilikda (masjid, maqbara, minora, madrasa) yorqin ko'zga tashlanadi. Islom estetikasida me'morchilik obidalarini – masjid, madrasa, maqbara, minora va ularga zeb berilgan naqshlar shakli va ziynati, hattotlik va kitob bezash san'ati nihoyatda ko'p ma'nolidir. Me'morchilik va hattotlik san'ati muqaddas so'zning botiniy va zohiriy zuhti bo'lib, ular islom mohiyatiga ko'ra, ilohiy So'zning yozma shakl ko'rinishidir. Shu bois masjid – Allohning uyi – ibodat dargohi; madrasa – Allohning So'zi o'qiladigan – ilm o'rganadigan maskandir. Me'morchilik obidalarining peshtoqlari, gumbazlari va muqarnaslari, ichki va tashqi devorlaridagi naqshlar va bitiklar ham o'sha muqaddas so'zlar shaklidir. ... Minora islom madaniyatida o'zining tamsiliy mazmuniga ham ega: u Allohning yagonaligi

– yolg'izligi ramzidir. Uning baland va viqorli turishi, tepasidan hamma narsaning ko'rinishi – Allohning ulug'ligi va hamma narsani bir ko'zda ko'rib turishi timsolidir. Minora Allohdan boshqaga bo'yin egmaslik, kasu-nokasdan o'zini baland tutmoq, g'urur va faxr ramzi hamdir.<sup>1</sup> G'urur va iftixor milliy mafkurani shakllantiradigan asosiy omildir.

O'zbekiston hududida amaliy bezak san'ati qadimgi davrlardan paydo bo'lgan bo'lib, bu san'atning rivojlanishi kundalik ro'zg'orda ishlatiladigan buyumlar, idishlar, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlash, shuningdek turar joylarni jihozlash bilan bog'liq edi. Xalq amaliy san'ati nihoyatda turli-tuman bo'lib, zargarlik, zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, kulolchilik, kandakorlik, tikuvchilik, to'quvchilik, sangtaroshlik, pichoqchilik, egarchilik, koshinkorlik va boshqa kasb va hunarlardan iboratdir. Amaliy bezak san'ati shoyi to'qish, gilamchilik, palos to'qish, charm, tosh, yog'och, metallga badiiy ishlov berish kabi turlar bo'yicha ham rivojlanib, amaliy san'at sohasida erishilgan boy tarixiy va ma'naviy meros xalqimiz uchun milliy g'urur va iftixor tuyg'usining uyg'onishida muhim ahamiyatga egadir. Madaniyat va san'at sohasida erishilgan yutuqlar xalqning tarixiy xotirasining uyg'onishiga yordam beradi. Xalqning ma'naviyati, milliy g'oyasi va mafkurasining yuksalishiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston hududidagi eng qadimiy tasviriy san'at namunalari qoya toshlarda tasvirlangan hayvonlar tasvirlari va ov manzaralaridir. Keyinchalik turli hayvonlar va odamlarning tasvirlarini o'zida ifodalagan haykaltaroshlik paydo bo'ldi. O'zbekiston tarixida tasviriy san'atning, rassomlik va haykaltaroshlikning rivojlanishi jamiyat hayotida keng tarqalgan diniy ta'limot bilan bog'liq bo'lib, turli davrlarda Zardo'shtiylik, Buddaviylik, Islom dini madaniyat va san'atning, amaliy va tasviriy san'atning taraqqiyotiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazib kelgandir. Tasviriy san'atda ijodkor turli ranglar, hajmlar va shakllar orqali o'zining fikr va tuyg'ularining barcha qirralarini ifodalashga harakat qiladi. Rassomlikda insonning fikr va tuyg'ulari ranglar yordamida ifodalansa, haykaltaroshlikda narsa va hodisalar hajmli shakllarda aks ettiriladi. Haykaltaroshlikda insonning tashqi

---

<sup>1</sup> Умаров Э. Эстетика. –Т.: Ўзбекистон, 1995. 27-28-бетлар.

qiyofasi bilan birgalikda uning ichki dunyosi, kechinmalari, fikr-tuyg'ulari ham o'z ifodasini topadi.

O'zbek xalqining tarixiy taraqqiyotida musiqa san'ati doimo rivojlanib, mehnat va marosim kuy-qo'shiqlaridan tortib murakkab doston, ashula, katta ashula va maqom yo'llari davrma-davr saralanib kelgan. O'zbek xalqining g'oyaviy, mafkuraviy tarbiyasida musiqa san'ati muhim o'rin tutib kelgan. O'zbek xalqining hayotiy urf-odatlar va marosimlarining deyarli barchasi maxsus cholg'u kuylari, qo'shiq va ashula turkumlari ijrosi bilan o'tkaziladi. Mehnat folklori o'zbek xalqi musiqa merosining shaklan boy, mazmunan beqiyos qatlamini tashkil etadi. Ayrim mehnat mavzulari alla, lapar, yalla, terma va doston singari janrlardan ham o'rin olgan bo'lib, fidoiy mehnat mavzulari uzoq o'tmishdan bastakorlar ijodida ustuvor o'rin egallab kelgan. Musiqa san'ati g'oya, mafkura bilan bevosita bog'liq bo'lib, musiqaning falsafiy, nazariy, tarixiy va amaliy muammolari tariximizda ham, bugungi kunimizda ham olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda.

San'at turlari orasida badiiy adabiyot alohida o'rin egallab, badiiy adabiyot so'z orqali namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyotni so'z san'ati deb ham ataydilar. So'z san'ati og'zaki va yozma shakllardan iboratdir. Og'zaki adabiyot shakli, askiya birdaniga ijod qilinadigan latifa, qiziqchilik ko'rinishlari orqali namoyon bo'ladi. Og'zaki adabiyot og'zaki so'z bahsi, o'tkir so'z va hozirjavob hajv, hazil, intermediya va boshqalar jamoa ijodi sodir bo'lishini taqozo etadi. Yozma adabiyot san'atning boshqa turlaridan tafakkur faolligi bilan ajralib turadi. Moddiy va ma'naviy olam, insonning aqliy-ma'naviy dunyosi yozma adabiyotda keng va har tomonlama mukammal tarzda aks ettiriladi. Yozma adabiyotni idrok etish badiiy asarni o'quvchidan ko'proq ijodiy faollik va mustaqillikni talab qiladi. Badiiy adabiyot san'atning barcha turlariga doimo ta'sir ko'rsatib, g'oyaviy, mafkuraviy tarbiyaning muhim omili va vositasi bo'lib kelmoqda. Badiiy adabiyot san'atning boshqa ko'pgina turlariga ilk asos vazifasini bajarib kelmoqda. Badiiy adabiyot boshqa san'at turlarini boyitib, o'zaro munosabatlar jarayonida o'zi ham boyib boradi. Shu bilan birgalikda g'oyaviy, mafkuraviy targ'ibot va tashviqotning

muhim vositasi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi, – degan edi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov, – ... Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi <sup>1</sup>. Alisher Navoiyning “Xamsa” asari, Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” romani”, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor, M.Ismoilij, Mirtemir, Shuhrat, Said Ahmad, Shukrullo, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Maqsud Qoriyev, Mirmuhsin, Sadulla Siyoyev, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Begali Qosimov, Sharof Boshbekov kabi yozuvchi va shoirlarimizning ijodi ham tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tarixiy mavzuda Maqsud Qoriyevning “Spitamen”, Mirmuhsinning “Temur Malik”, Uyg'un va Omon Matchonlarning “Beruniy”, Izzat Sulton va Abdulla Oripovning “Ibn Sino”, Sadulla Siyoyevning “Axmad Yassaviy”, Abdulla Oripovning “Amir Temur”, Maqsud Shayxzoda va Odil Yoqubovning “Mirzo Ulug'bek”, Pirimqul Qodirovning “Bobur” kabi drama va dostonlari, qissa va romanlari yozilib, Milliy g'oya va mafkuraning tarixiy shakllantirilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

10. Milliy qahramonlar hayoti, faoliyati va merosini o'rganishga e'tibor kuchaytirilib, o'zbek xalqining To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Yetimxon, Darveshxon, Dukchi Eshon, Madaminbek, Ibrohimbek kabi xalq ozodligi uchun kurashgan qahramonlarning faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi. Milliy g'oya va milliy mafkuraning shakllantirilishida tarixiy ong, ma'naviy merosning, ajdodlar merosining tutgan o'rni va ahamiyati kattadir. Tarix odamlarni o'ylantiradi, bo'lib o'tgan tarixiy voqea va hodisalarni tahlil qilish, fikrlash va ulardan amaliy hayotiy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Milliy o'zlikni anglashda, milliy birlikni

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. 139-140- бетлар.



shakllantirishda, ajdodlarimizning buyuk ishlarini anglab yetish hamda ulardan g'ururlanishda, xalqimizning jahon xalqlari orasida tutgan o'rniga baho berishda tarixiy xotira va ma'naviy merosning tutgan o'rni muhim ahamiyatga ega. Milliy qahramonlar hayoti, faoliyati va merosini o'rganishga e'tiborni kuchaytirishdan maqsad mustaqil davlatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnashadigan, idrokli va qobiliyatli, o'zining tarixiy ildizlarini chuqur biladigan, yurtiga, vataniga, ona xalqiga cheksiz mehr-muhabbat his-tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan avlodni kamol toptirishdan iboratdir. Tarixni o'rganish yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, buyuk ajdodlar bilan faxrlanish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirishga yordam beradi. Tarixiy xotira va ma'naviy merosni o'rganishda chuqur ilmiylik, xolislik va tarixiy haqiqatning ustuvorligi tamoyiliga asosiy e'tibor qaratiladi. Tarixiy ong milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantiruvchi omil sifatida milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantiradi, fuqarolarni otashin vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

### **2.3. Dastlabki g'oyaviy qarashlar va ularning manbalari**

Inson ong-tafakkurga ega bo'lgan oliy mavjudot bo'lib, insonda fikrni, g'oyani vujudga kelishi uning ongli faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Inson sezuvchi, fikrlovchi, ongli, mukammal mavjudot sifatida tashqi olamni idrok etish jarayonida qalbida turli his-tuyg'ular, tafakkurida xilma-xil fikr, qarash va g'oyalarni yaratadi. Insonning tafakkurida tug'ilgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Agar insonning fikri voqelikka oddiy munosabatni o'zida ifodalasa, g'oya inson va jamiyatni o'ziga jalb etib, uyushtirib, safarbar qilib, ijtimoiy kuch yoki vositaga aylanadi. G'oya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, odatda g'oya dastlab bir shaxsning ongida shakllanadi, so'ngra ijtimoiy dolzarbligiga qarab, odamlar, xalqlar va millatlar orasiga yoyiladi. G'oya insonlar qalbi va ongini egallab, jamiyat rivojiga ta'sir etadi. Insoniyat tarixidagi dastlabki odamlarning ishonch-e'tiqodi tabiatni ilohiylashtirish asosida shakllangan. Insoniyat tarixidagi eng qadimgi g'oya va mafkuralar ibtidoiy davrda vujudga kelgan bo'lib, bu davrda odamlar jamoa bo'lib urug'larga bo'linib yashaganlar. Odamlarning jamoa bo'lib

birlashib yashashi ularning muayyan mafkura asosida uyushganini, tabiat o'zgarishlariga birgalikda javob izlaganini ko'rsatadi. Odamlarning jamoa bo'lib birlashib yashashida ular yashaydigan hududning o'ziga xos iqlimi, tabiat dunyosi, shart-sharoitlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ibtidoiy davrdagi insonning o'zlashtiruvchi xo'jalikka asoslangan xo'jalik yuritishi, texnika rivojlanmagan vaqtdagi hayot tarzi, moddiy ta'minotining ko'proq tevarak atrofidagi tabiat hodisalariga bog'liq bo'lishi har bir qabilaning o'z tevarak-atrofidagi borliqni o'zining moddiy-ma'naviy ehtiyojlaridan, ularni qondirish darajasidan kelib chiqqan holda tasavvur etishiga olib kelgan. Inson o'zini tabiatning ajralmas bir qismi sifatida tasavvur etgan. Tabiat inson uchun sirli, muqaddas, hamma narsani boshqarib turuvchi ilohiy va jonli asos sifatida tasavvur qilingan. Ibtidoiy davrda insonda ong-tafakkurning shakllanishi dunyoqarashning dastlabki shakli mifologik ya'ni afsonaviy dunyoqarashning paydo bo'lishiga olib keladi. Mifologiya ya'ni afsona va asotirlarda inson o'zining atrofidagi tabiatni jonlantirib tasavvur qiladi. Tog', daryo, daraxtlar, hayvon va qushlar huddi insonga o'xshab fikrlaydi va inson bilan o'zaro muloqotga kirishadi. Mifologik dunyoqarash ertaklar, afsona va rivoyatlarda o'z ifodasini topadi. Mifologik dunyoqarashda tabiat kuchlari alohida jonli vujudlar ko'rinishida jonlantirib tasvirlanadi. Mifologiyada bir xil narsalarning xossalari ikkinchi xil narsalarga bemalol ko'chirilganligi sababli, u xayolotga keng yo'l ochib beradi. Har bir xalqda o'zining uzoq tarixiy o'tmishiga oid juda ko'p rivoyatlari va afsonalari mavjud bo'lib, afsona va asotirlar ibtidoiy jamiyatda yashagan odamlar, urug' va qabila a'zolaridan o'zlarini afsonaviy qahramonlar sifatida tasavvur qilish, xayoliy tarzda bo'lsa ham yovuz kuchlarga qarshi kurash olib borish va albatta g'alaba qozonib, adolat va haqiqat tantanasiga o'z hissasini qo'shish imkoniyatini beradi. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari yaratgan ko'pchilik afsona-asotirlar va rivoyatlarda yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat o'rtasidagi kurash g'oyasi ilgari surilib, adolat va haqiqatning g'alaba qozonishi pirovard natija sifatida ko'rsatilgan. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash va yaxshilikning albatta g'alaba qozonishi to'g'risidagi g'oya keyinchalik Zardo'shtiylik ta'limotida o'z ifodasini topgan.

Umuman olganda, mifologik dunyoqarashda ifodalangan rivoyatlar, afsona va asotirlar o'z mavzulari bo'yicha turli-tuman bo'lib, ularning ichida dunyoning

paydo bo'lishi, uning tuzilishi, tabiat va jamiyat hodisalarining yuz berishi, dunyoning boshqarilishi, undagi narsalar va hodisalarning o'zaro munosabatlari, bog'lanishlari, insonning paydo bo'lishi, yashashi, hayoti, dunyodagi o'rni, ishlari, tabiat kuchlari bilan olib borgan kurashlari, ma'naviy kamolot sari intilishlari, uning o'limi, inson hayotining ma'nosi va mazmuni kabilar bordir. Rivoyat va afsona-asotirlar qanday mavzu va qanday sohaga oid bo'lmasin, ular, eng avvalo, afsonaviy ong darajasidagi qadimgi ibtidoiy jamiyat kishilarining mifologik dunyoqarashini o'zida ifodalaydi. Mifologik dunyoqarashda insonni qurshab turgan dunyodagi narsa va hodisalar insoniy sifatlar va xususiyatlardan kelib chiqib baholanadi va tushuniladi. Insoniyatning tarixiy taraqqiyotida dastlab insonning hayoti uchun zarur bo'lgan yer, suv, shamol, yomg'ir, olov, o'simlik va hayvonot dunyosi, boshqa tabiiy kuchlar ilohiylashtirilgan. Inson o'zini tabiatning ajralmas tarkibiy qismi deb hisoblaydi hamda ibtidoiy davrdagi urug' yoki qabila o'zining kelib chiqishini muayyan hayvon, parranda hamda o'simlikka bevosita bog'lab tushuntiradi. Ibtidoiy davrda yashagan odamlar tabiatni jonlantirib tasavvur qilganlar, uni ilohiylashtirganlar, unga sig'inganlar. Ba'zi hayvon va qushlarni muqaddaslashtirish va ularning suyak qismi, tirnog'i, pari va hokazolarni tumor shaklida ishlatish, uy va hovlilarda, bog'-rog'larda hayvon kalla suyagini yomon ko'zdan saqlash maqsadida osib qo'yish kabilar ham ibtidoiy diniy tasavvurlardan totemizmning hozirgi zamondagi ko'rinishlaridir. Yangi qurilgan uyga yoki mevali daraxtga qo'chqorning shoxi yoki kalla suyagini, "muqaddas" deb hisoblangan isiriqni osish, bolaning beshigiga yoki kiyimiga ko'zmunchoqni yoki tumorni tikib qo'yish kabilar ibtidoiy fetishizm bilan bog'liq tasavvurlardir. Ibtidoiy davrda yashagan kishilar tabiatdagi turli narsa-hodisalarni jonlantirib tasavvur qilib ularga ta'sir ko'rsatishga harakat qilganlar. Bunday ta'sir esa sehrgarlik hatti-harakatlari orqaligina amalga oshirilishi mumkin edi. Ovg'a chiqishdan oldin ovning muvaffaqiyatli o'tishini ko'zlagan holatda sehrgarlik harakatlari amalga oshirilgan. Tajribaning ortishi, amaliy bilimlarning to'planishi bilan urug' jamoa a'zolari ichidan iste'dodli va tajribali, sehrgarlik "sirlari"ni va vositalarini yaxshiroq "biladigan" shaxslar ajralib chiqa boshlaydi. Sehrgarlik bilan shug'ullanadigan bunday shaxslar ibtidoiy dinning rivojlanishida va takomillashishida muhim rol o'ynaydilar va urug'chilik jamiyatida katta obro'li

o'rinni egallaydilar. O'zbek xalqining oilaviy-maishiy turmushida, to'y va aza marosimlarida sehrgarlik bilan bog'liq bo'lgan irim-sirimlar mavjuddir.

Animistik din sehrgarlik, totemizm va tabiatga sig'inish kabi e'tiqodlarni o'zida mujassamlashtirib, barcha buyumlarni, tabiat kuchi va hodisalarini jonlantiradi. Ibtidoiy davrda ruhlarni hurmatlash, ularni xotirlash, arvohlarga bag'ishlab qurbonliklar qilish kabi turli marosim va urf-odatlar vujudga keldi. Animistik tasavvurlar asosida ajdodlar ruhiga sig'inishning murakkab ko'rinishlari ham paydo bo'ldi. Bunda ajdodlarning arvohi ko'pincha o'zining tirik qavm-qarindoshlari va urug'doshlarining homiysi va himoyachisi bo'lib hisoblangan.

Xalqimizda bugungi kunda ham marhumning ruhiga bag'ishlab sham yoqish, hayitlarda is chiqarish, turli xudoyilarni o'tkazish, avliyolarga qurbonlik atash kabi animistik tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar mavjud. Ajdodlarga sig'inish e'tiqodi bilan bog'liq ziyoratgohlar ichida mashhur tarixiy shaxslar va yirik din arboblari nomi bilan atalgan avliyolar qatori ayrim mahalliy qishloq aholisining ziyoratgohi hisoblangan muqaddas joylar ham mavjud. O'zbekistonda muqaddaslashtirilgan qoyatoshlar va g'orlar, shifobaxsh buloqlar va keksa daraxtlar mavjud bo'lib, ayrim kasalliklarni davolashda ulardan ziyoratgoh sifatida foydalanishadi va xalq orasida bunday avliyo-anbiyolar to'g'risida turli afsona va rivoyatlar to'qilgan. Aslida avliyo-anbiyolar ilgarigi ibtidoiy diniy tasavvurlar bilan bog'liq bo'lib, islom dini tarqalishi bilan musulmon afsona va asotirlari asosida yangi shaklga kira boshlaydi hamda ko'p qadimiy ziyoratgohlar islomga oid biror shaxs yoki unga tegishli voqealar bilan bog'lanib o'zining mahalliy xususiyatini yo'qotadi. Shuning uchun O'zbekistonda Islom dini bilan, yirik avliyolar, davlat arboblari, mutafakkirlar nomi bilan bog'liq bo'lgan ziyoratgohlar mavjuddir.

#### **2.4. Urug'-qabilachilik davrlarida qabilalarni birlashtirishga xizmat qilgan ilk g'oyalar va qarashlar**

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining boshlang'ich davri, ibtidoiy jamiyatning ilk davrida odamlar mifologiya ya'ni afsona-asotirlar asosida tashqi olamni bilishga, o'rganishga harakat qilgan bo'lsalar, keyinchalik diniy dunyoqarash vujudga kelib,

dunyodagi barcha narsa va hodisalar ilohiy qudratning hohish irodasi sifatida talqin qilina boshlandi. Diniy dunyoqarash inson qalbidagi emosional ruhiy holatlar, e'tiqod va e'tiqodning hatti-harakatlarda ifoda etilishi jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Mifologik dunyoqarashda barcha hodisa va voqealarning sababi afsonaviy kuchlar hisoblansa, diniy dunyoqarashda ularning o'rnini turli dinlarga xos bo'lgan ilohiy qudratga ishonch va e'tiqod egallaydi. Diniy dunyoqarashning shakllanib borishi bilan jamiyat hayotida din kelib chiqadi hamda jamiyatdagi muayyan g'oya va mafkura ma'lum bir diniy ta'limot asosida shakllantiriladi, rivojlanib boradi. Diniy dunyoqarashning muhim jihatlarini diniy tuyg'u, diniy aqidalarga ishonish, sig'inish, diniy e'tiqod va shu kabilar tashkil etadi. Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan fan o'rganadi. Teologiya olam va odam munosabati, inson hayotining mazmuni va mohiyati, hayot va o'lim kabi masalalarni ilohiyot nuqtai-nazaridan o'rganuvchi fandır. Diniy dunyoqarash ibtidoiy jamiyatda vujudga kelgan bo'lib, u o'zidan oldin vujudga kelgan dunyoqarash shakli bo'lgan mifologiya ya'ni afsona-asotirlarni yanada takomillashtirdi. O'rta paleolitda dastlabki diniy tasavvurlar vujudga kelgan bo'lsa, so'nggi paleolitda dinning tarixiy shakllari vujudga keldi. Dinga quyidagi ta'rifni berish mumkin. Din tabiat va jamiyatda sodir bo'luvchi voqea hamda hodisalarni aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, din ibtidoiy davrda vujudga kelib o'sha davrda yashagan odamlarning dunyoqarashini o'zida ifodalovchi ma'naviy madaniyat elementidir. Din arab tilida "ishonch", "ishonmoq" degan ma'nolarni bildirib, din insondan tashqarida bo'lib, uni yaratgan ilohiy qudratga ishonch va e'tiqodni ifoda etadigan maslak, qarash hamda ta'limotdir. Odamlarda ilk diniy tasavvurlarning paydo bo'lib, shakllanib, rivojlanib, takomillashib borishi jarayoni insonda ong, tafakkurning shakllanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, insonning paydo bo'lib shakllanib borishi jarayoni fanda antropososiogenez deyiladi. Insonda ong-tafakkurning vujudga kelishi, inson o'zini o'rab turgan tashqi olam, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni jonlantirib tasavvur qilishlari natijasida odamlarda ilk diniy tasavvurlar vujudga keldi. Tabiiy muhitda ro'y bergan o'zgarishlar, mehnat, muloqot, oziq-ovqatlarning sifat jihatidan o'zgarishi

insonning tashqi qiyofasi, ongi, tafakkurining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, insonda tashqi olam to'g'risidagi bilimlar asta-sekin to'plana borishi natijasida uning dunyoqarashi shakllana boshladi. Diniy dunyoqarash vujudga kelishi bilan inson tabiatda sodir bo'layotgan ko'pgina narsa va hodisalarni ilohiylashtirib, ularga sig'ina boshlagan. Ibtidoiy davrda vujudga kelgan dinning tarixiy shakllari, ilk diniy tasavvurlarda inson tabiat hodisalarini muqaddaslashtirib unga sig'ingan, undan yordam olishga harakat qilgan. Ibtidoiy davrga xos bo'lgan e'tiqod bu politeizm, ya'ni ko'pxudolikka asoslangan diniy e'tiqod edi. Inson o'zini o'rab turgan tashqi olamdagi turli ilohiy kuchlarga ta'sir ko'rsatishga, ulardan yordam olishga harakat qilgan. Dinning ibtidoiy shakllarida insonni o'rab turgan tashqi olamdagi barcha narsa va hodisalar ilohiylashtirilib, inson uchun e'tiqod ob'yekti bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida inson nafaqat jismoniy tomondan, balki ma'naviy axloqiy jihatdan ham takomillashib bordi. Odamlar mehnat faoliyati natijasida tabiat sirlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ibtidoiy jamoa tuzumining keyingi bosqichlarida tabiat kuchlari oldida ojizlik sezganida odamlar bu kuchlarni ilohiylashtirib ularga sig'ina boshladilar. Natijada, animizm, fetishizm, totemizm, magiya, animatizm va shomonizm singari ilk diniy tasavvurlar, dinning tarixiy shakllari vujudga kela boshladi. Odamlarda dunyoni boshqarib turuvchi ilohiy kuchlarga ishonch paydo bo'lishi natijasida odamlar bu kuchlarni ruhlar deb, ulardan eng qudratlilarini ilohlar deb ataganlar. Odamlar ilohlarga ovning muvaffaqiyatli chiqishi, yomg'ir yog'ishi, sog'lik-salomatlikka erishish to'g'risidagi iltimoslar bilan murojaat qilganlar. Ular ilohlardan yordam so'raganlar. Ilohlarni turli qiyofada tasavvur qilganlar, yog'och, suyak yoki toshdan ilohlarning tasvirini qirqib yasab, bu tasvirlarni but yoki sanam deb ataganlar. But yoki sanamlar odamlar joylashgan qarorgohning eng faxrli joylariga o'rnatilgan. Odamlar ilohlar marhamatiga sazovor bo'lish uchun butlarga sajda qilganlar, butlarga atab turli-tuman qurbonliklarni amalga oshirganlar. Insoniyat tarixida insonning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lgan muhim ishlar, jumladan tug'ilish, ozuqa topish, ov qilish, o'z xavfsizligini ta'minlash, dafn marosimi kabilar turli diniy tasavvurlar va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lganligini ko'rish

mumkin. Diniy tasavvurlarning shakllari jamiyat hayotining sharoitiga bog'liq bo'lib, uning o'zgarishi diniy qarashlarda ham muayyan o'zgarishlarga olib keladi. Diniy tasavvurlarning dastlabki shakllariga urug'chilik tuzumi shakllanayotgan davrda paydo bo'lgan totemizm, animizm, fetishizm, shomonizm, magiya (sehrgarlik), animatizm kabilar kiradi. Dinning tarixiy shakllari o'z davridagi odamlar uchun g'oya, mafkura vazifasini bajargandir. Dinning tarixiy shakllari odamlarning e'tiqod ob'yekti sifatida alohida-alohida narsalarga sig'inishni talab qilsada ularning hammasi bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Dinning tarixiy shakllaridan biri Totemizm so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida "o totem" – uning urug'i degan ma'noni anglatib, totemizmning mohiyati muayyan guruh odamlar bilan ayrim hayvonlar, parrandalar va o'simliklar orasida o'zaro yaqinlik, qon-qarindoshchilik aloqalari bor, deb muayyan hayvon, parranda, o'simlikni muqaddaslashtirib unga e'tiqod qilishdan iboratdir. Urug'dosh guruhlar o'zlarini umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon, parranda va o'simlikdan kelib chiqqan deb hisoblanar edilar. Totemizmda urug'-qabila, xususan shu urug'ning har bir a'zosi hayoti va farovonligi ayni shu urug'ning haqiqiy ajdodi hisoblangan "totem" – hayvon, parranda yoki o'simlikka bog'liq deb ishoniladi. Muqaddas joylarda saqlanadigan biror urug' ruhini ifodalovchi hayvon yoki o'simlik surati solingan tosh, taxtachalar totem ruhlarining makoni sanaladi. Hayvon, parranda yoki o'simlik shu urug' yoki qabila uchun totem, binobarin, muqaddas va homiy hisoblangan. Shuning uchun ham kishilar totemning yordamiga muhtoj bo'lganlar, unga sehr yordamida ta'sir qilishga uringanlar. Avvallari totemlar sifatida faqat hayvonlar, shunda ham uy hayvonlari e'zozlangan. Biroq, keyinchalik qarindoshlik munosabatlari boshqa hayvonlarga ham, ba'zi hollarda esa o'simliklar, tabiat hodisalari, yomg'ir, quyosh, shamol va hokazolarga ham tarqalgan. Totemlar e'zozlangan, ularni o'ldirish va otish ta'qiqlangan. Totemni ozuqa sifatida ta'qiqlanishi tabu, ya'ni taqiqlash deb aytiladi. Totemistik tasavvurlarning rivojlanib borishi unda muayyan o'zgarishlarning vujudga kelishiga olib keldi. Zooantropomorf ko'rinishi bilan aralashgan holda odam bilan uning totemi qarindoshligi orasidagi oilaviy

munosabatlar, ya'ni odam vafot etgach, uning o'z totemiga aylanishi yoki aksincha, qayta inson shakliga kelishi haqidagi tasavvurlar paydo bo'ldi. Bularning hammasi o'tgan ota-bobolar ruhlariga sig'inishning kuchayishiga va ilohiy kuchlarga ishonchning o'sishiga olib keldi. Ikkinchi tomondan, totemga bo'lgan munosabat o'zgarib, tabu ya'ni ta'qiqlash tizimi vujudga keldi. Totemizm urug'chilik jamoasida diniy ko'rinishlarning tarixiy asosi bo'lib qoldi. Totemizm insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida urug' va qabilalar o'rtasida birlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik vazifasini bajardi. Totemizm keyinchalik milliy va jahon dinlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, hindlarning milliy dini Xinduizmda sigir, ilon, maymun, fil va boshqalar muqaddaslashtirilsa, islom dini tarqalgan Markaziy Osiyo hududida mushuk, musicha, qaldirg'och kabi hayvon va parrandalarga azob bermaslik asrlar davomida an'ana sifatida davom etib kelmoqda. Turkiston xalqlarining qadimdan yil hisoblash taqvimi bo'lib kelgan muchal yil hisobi ham totemistik xususiyatga ega bo'lib, 12 yillik sikldan iborat bo'lgan yil hisobi u yoki bu hayvonning nomi bilan atalgan. Muchal yil hisobida mush (sichqon), baqar (sigir), palang (yo'lbars), xargush (quyon), nahang (baliq), mor (ilon), asp (ot), go'spand (qo'y), hamduna (maymun), murg' (tovuq), sak (it), xo'k (to'ng'iz, cho'chqa) kabi hayvonlarning nomlari bo'lib, totemistik tasavvurlar ancha kuchli bo'lgan turk hoqonligidan boshlab muchal yil hisoblash taqvimi jahondagi boshqa mamlakatlarga tarqala boshladi. Turkiy xalqlarda bo'ri, bug'u, burgut kabi hayvon va qushlar muqaddaslashtirilib, ular urug' yoki qabilaning homiysi, ajdodi hisoblanadi. Amerika hindularida ham ayiq, bo'ri, yaguar, bizon, burgut, lochin, ilon kabilalar totem sifatida ulug'lanib kelingan.

Dinning tarixiy shakllaridan yana biri animizm bo'lib, animizm lotin tilidagi "anima" degan so'zdan olingan bo'lib, "jon", "ruh" degan ma'nolarni anglatadi. Animizm ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotdir. Animizm da ruhlar tabiiy hodisalarning boshqaruvchilari bo'lib hisoblanadi. Ibtidoiy jamiyatda odamlar tabiatning qudratli kuchlari osmon va yer, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momaqaldiroq va chaqmoq kabilarni ilohiylashtirib, ularda



ruh mavjud deb hisoblar edilar. Ibtidoiy odamlar tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabi odam e'tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo'lib, bu tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lgan animistik tasavvurlarga ham ega edilar. Ibtidoiy odamlar uchun ko'p yillik daraxt, kattaroq xarsangtosh, jarliklar va turli tabiat hodisalari jonli, tafakkurli, tabiatdagi ruhlar bilan bog'liq deb tasavvur qilingan, ruhlarga bag'ishlab qurbonliklar qilingan, ruhlarga atab marosimlar uyushtirilgan. Insonni o'rab turgan tashqi olamga nisbatan animistik tasavvur dunyoqarashning dastlabki shakli bo'lgan mifologiya, afsona-asotirlarni keltirib chiqardiki, bu dunyoqarashda insonni qurshab turgan tashqi olam jonli, ruhiy xususiyatga ega deb tasavvur qilingan. Ibtidoiy odamlar tabiatdagi har bir narsa hodisaning o'z ruhi mavjud deb hisoblaganlar. Shu bilan birgalikda insonda tana, jon va ruhning mavjudligi, ruh tanani tashlab chiqib tabiatda erkin mavjud bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlar ibtidoiy jamiyatda mavjud bo'lib, keyinchalik milliy, jahon dinlaridagi aqidaviy ta'limotlarda ham o'z ifodasini topdi. Hozirgi paytda jahon dinlari bo'lgan buddaviylik, xristianlik va islom dinida ham ruhlar to'g'risidagi animistik ta'limot mavjud.

Dinning tarixiy shakllaridan yana biri fetishizm bo'lib, fetishizm fransuz tilida but, tumor, sanam degan ma'noni bildiradi. Fetishizm ibtidoiy davrdagi diniy e'tiqod sifatida tabiatdagi jonsiz buyumlarga sig'inishni o'zida ifodalaydi. Fetishizmda sig'inish ob'yektlari tosh, tayoq, daraxt va umuman har qanday boshqa buyum bo'lishi mumkin. Tirik bo'lmagan jonsiz buyumlarga sig'inish ibtidoiy odamlarning ovchilik, xo'jalik yuritish faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ovchi o'zi ovlagan hayvonning tishini sug'urib olib uni bo'yniga taqib yurgan. Ibtidoiy odamlarning tasavvuriga ko'ra yirtqich, qudratli hayvonning tishi bilan birgalikda uning kuchi va qudrati ham ibtidoiy odamga o'tib unga doimo omad olib kelishi kerak edi. Fetishizmda turli-tuman toshlar, yog'ochlar, ko'zmunchoqlar, tumorlar, muqaddas joylar, muqaddas buyumlar e'tiqod ob'yekti bo'lishi mumkin. Turli-tuman butlar va tumorlarda jamoa a'zolari g'ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko'rganlar. Bunday fetishlarga afsungarlar va shomonlar egalik qilib, ular afsungarlik yo'li bilan buyumlarga ta'sir ko'rsatganlar. Ibtidoiy

jamo'a tuzumi davrida vujudga kelgan fetishizm keyinchalik milliy hamda jahon dinlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Buddaviylikdagi haykallarga, xristianlikdagi xochga va ikonalariga, islom dinidagi muqaddas qora-tosh "Xajar al-asvod", tumor, ko'zmunchoqlar hamda tasbehlarda ilohiy xususiyat borligiga ishonch bu fetishizmga taalluqlidir. Fetishizm dinning tarixiy shakllaridan totemizm, animizm va boshqalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, hayvon shohlari, qush patlari, turli yirtqich hayvonlarning tishlari va tirnog'i fetishistik tasavvurlar uchun doimo manba bo'lib kelgan. Hozirgi davrda uyning eshigi, ostonasiga baxt keltirishiga ishonib taqa osib qo'yish, devorga, eshikka, tikan, qalampir va boshqa narsalarni osib qo'yish ham fetishizmga taalluqlidir. Transport vositalarida har xil baxtsiz hodisalardan himoya qilish maqsadida osib qo'yiladigan tumorlar, hayvon tishlari, tirnoqlari, qushlarning patlari, tikonlar va boshqa o'simliklar ham fetishizmning bugungi kunda namoyon bo'lishiga misol bo'la oladi.

Dinning tarixiy shakllaridan yana biri shomonizm bo'lib, shomon tungus tilida "o'ta hayajonlangan", "jazavali kishi" degan ma'noni bildiradi. Shomonizm turkiy xalqlarda "qam" dini deb ham atalgan. Shomonlar odamlar bilan ruhlarning o'rtasida vositachilik qilish qudratiga ega bo'lgan kishilar bo'lib, shomonizmga e'tiqod qiluvchilarning fikriga ko'ra shomonlar kelajakni oldindan aytib, uzoq joylardagi voqea-hodisalarni bilish, kasalliklarni davolash, tabiat hodisalarini o'zgartirish, vafot etganlarni narigi dunyoga kuzatib borish, yovuz ruhlarning bilan jang qilish imkoniyatiga ega bo'lgan kishilar bo'lib hisoblanar edilar. Shomonizm minglab yillar davomida saqlanib va rivojlanib kelgan. Shomonlar afsungarlik hatti-harakati bilan shug'ullanib, ular orasida ayollar ham ko'pchilikni tashkil etgan. Shomonlar jazavali kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlari bilan muloqotda bo'la olishlariga, jamoaning orzu-niyatlarini ruhlarga yetkazish hamda ruhlarning irodasini odamlarga talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar. Shomonlar nog'ora, doira yoki boshqa cholg'u asbobi jo'rligida kuylab raqsga, jazavaga tushib, ma'lum hatti-harakatni amalga oshirib ruhlari bilan gaplashishga harakat qilgan. Shomonlar jazavali hatti-harakatlari bilan bemorlarni davolaganlar, bo'ladigan voqealarni oldindan bashorat qilganlar. Yo'qolgan narsalar haqida fol ochganlar, ovda omad tilab ma'lum hatti-harakatlarni amalga oshirganlar.

Shomonlar urug' qabilaning homiysi, qo'riqchisi, ruhi bo'lib hisoblanib, bularning hammasi urug' qabilalar o'rtasida shomonlarning obro'sini ko'tarib yuborgan. Shomonizm uchun o'ziga xos xususiyat bu ruhga ishonish edi. Bu ruhlar tabiatdagi turli-tuman ruhlardan iborat bo'lib, ushbu holat shomonizmga animizmning ham ta'siri borligini ko'rsatadi. Shomonlar odatda ma'lum harakatlarni ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida jazavaga tushib o'zini yo'qotish darajasida afsungarlik qilishgan. Marosim oxirida shomon hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar, uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi shunday holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Insonning jazavaga tushib o'zini unutish holati trans holati deyiladi. Shomonizm o'z taraqqiyotida qator bosqichlarni bosib o'tgan. Shomonlikning dastlabki shaklida urug' qabilaning har bir a'zosi shomonlik qilish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ish bilan ayollar, eng avvalo yoshi ulug' qariya ayollar ham shug'ullanganlar. Shomonizmdagi ikkinchi bosqich urug' shomonizmi bo'lib, bu davrda shomon urug' marosimlarini bajarish bilan shug'ullangan. Bu davrda har bir urug'ning o'z shomoni bo'lgan. Shomonizmdagi uchinchi, yuqori bosqich professional, kasbiy mutaxassislashgan shomonlarning paydo bo'lishi bo'lib hisoblanadi. Endilikda shomonlik kasbga aylanib, u avloddan avlodga meros bo'lib o'ta boshlaydi. Shomonizm hozirgi davrda mavjud bo'lgan milliy va jahon dinlarida u yoki bu shaklda mavjud bo'lib, islom dinida ham folbinlik, romchilik, qushnochlik, ko'chiriq qildirish holatlari ham shomonlik bilan ma'lum darajada bog'liqdir.

Dinning tarixiy shakllaridan yana biri sehrgarlik yoki magiya bo'lib, sehrgarlik insonning boshqa inson, hayvon va tabiatga g'ayritabiiy yo'l bilan ta'sir o'tkazish maqsadida bajariladigan hatti-harakati yig'indisi bo'lib, sehrgarlik dunyodagi barcha dinlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Magiya yunon tilida sehrgarlik degan ma'noni bildirib, sehrgarlikning asosini xavf-xatardan saqlashga qaratilgan maxsus harakatlar, duo o'qishlar, har xil irim-sirim bilan bog'liq ishlar tashkil qiladi. Kundalik hayotda inson sog'lom bo'lishni, omadli bo'lishni, yaxshi ayol bilan turmush kechirishni, birovning o'ziga yomonlik hatti-harakatlarini qila olmasligini, qorni to'q, usti butun bo'lishini doimo orzu qilgan bo'lib, sehrgarlik inson hayotidagi ana shu ideallarga erishish yo'lidagi

inson hatti-harakati bilan bevosita bog'liq edi. Sehrgarlik inson hatti-harakati, faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, sehrgarlikning quyidagi turlari mavjuddir:

- a) dushmanga ziyon-zahmat yetkazish sehrgarligi;
- b) harbiy sehrgarlik;
- s) muhabbat sehrgarligi;
- d) davolash sehrgarligi;
- ye) ob-havo sehrgarligi;
- f) xo'jalik sehrgarligi.

a) Dushmanga ziyon-zahmat yetkazish sehrgarligining mohiyati turli hatti-harakatlar orqali g'ayritabiiy yo'l bilan o'z dushmaniga ziyon yetkazishdan iborat. Insoniyat tarixida dushmanga ziyon-zahmat yetkazish sehrgarligi turli xalqlar tomonidan qo'llanilgan bo'lib, ibtidoiy davrlardan boshlab dushmanga ziyon-zahmat yetkazish sehrgarligi bilan shug'ullanayotgan odam o'z qurolini dushmani bor tomonga qaratib, dushmaniga zarar yetkazish maqsadida turli duolar o'qigan, muayyan hatti-harakatlarni amalga oshirgan. Dushmanga ziyon-zaxmat yetkazish sehrgarligining yana bir boshqa ko'rinishida dushmaniga zarar yetkazmoqchi bo'lgan sehrgar dushmani yegan ovqatning qoldiqlarini, sochini, tolasini, buyumining bir parchasini, tashlagan tirnog'ini, oyog'ining izini topib, so'ngra ularni o'zi sehrli deb hisoblagan moddalarga aralashtirib, uni yoqib yuborgan yoki suvda cho'ktirgan, yoki chiritib yuborish uchun bir joyga yashirib qo'yib, dushmaniga shu yo'l bilan zarar yetkazishga harakat qilgan. Dushmanga ziyon-zaxmat yetkazish sehrgarligida ba'zi marosimlarni bajarish yarim yillab davom etib, bunda topib kelingan dushmanning narsasiga sehr bilan shikast yetkazish yarim yil davom etsagina dushman kasalga yo'liqadi va o'ladi deb hisoblashgan. Ba'zi xalqlarda esa dushmaniga zarar yetkazish uchun ularning qadam izlariga o't qo'yib yuborishning o'zi yetarli bo'lgan. Boshqa odamga zarar yetkazish odamning o'ziga tegishli narsa orqali amalga oshirilganligi uchun turli xalqlarda tirnoq, soch, tish, bolalarning kesilgan kindigi to'g'ri kelgan joyga tashlab ketilmay, ularni ehtiyotlash, saqlab qo'yish, yashirib qo'yish, boshqalarning qo'li yetmaydigan joyga ko'mib qo'yish odatlari vujudga kelgan. Sehrgarlik orqali boshqa birovga zarar yetkazishda sehrgar bevosita odamning o'ziga zarar yetkazmasdan, balki insonga tegishli bo'lgan muayyan buyum, tirnoq, soch, suyak,

qurol, odamning tasviri orqali boshqa birovga zarar yetkazishga harakat qiladi. Sehrgarlikning kuchi va mohiyati ham ana shundadir. Odamlar boshqa birovga zarar yetkazishda odam nigohining “sehriga” ham qattiq ishonganlar. Keyinchalik turli xalqlar va dinlarda ko’z tegishiga taalluqli bo’lgan ma’lum qarash hamda tasavvurlar ham shakllangan. Dushmanga ziyon-zaxmat yetkazish sehrgarligining marosimlari yashirin ravishda o’tkazilib, uning asosiy tig’i yakka-yakka olingan dushmanga qarshi qaratilgan edi.

b) Harbiy sehrgarlik. Harbiy sehrgarlikning marosimlari ochiq ravishda o’tkazilib, bu sehrgarlikning asosiy maqsadi – harbiy g’alabani ta’minlashdan iborat bo’lgan. Harbiy sehrgarlikni harbiy harakatlar yoki mudofaa boshlanishidan avval harbiy raqslar ijrosi bilan boshlashgan. Raqs harbiy jangni eslatib, raqs tushayotgan jangchilar dushman tasvirlariga nayza sanchib sehr kuchi bilan bo’lajak jangda g’alaba qozonishga o’zlarini ishontirar edilar. Urush paytida mavjud bo’ladigan xavf-xatardan o’zlarini saqlash uchun jangchilar o’zlariga xavf-xatardan saqlaydigan tumorlarni taqib olardilar. Jangchilar bu harbiy tumorlar o’zlarini o’qdan, turli xavf-xatar va mag’lubiyatdan saqlab qolishiga qattiq ishonganlar. Natijada, turli buyumlarda mavjud bo’lgan sehrli kuch-qudrat to’g’risidagi tasavvur va qarashlar ham vujudga keldi. Keyinchalik ibtidoiy odamlar harbiy sehrgarlik bilan bog’liq marosimlarni bajarish orqali tabiatda mavjud bo’lgan turli-tuman ruhlarga ta’sir o’tkazishga harakat qilganlarki, bu ibtidoiy jamiyatda mavjud bo’lgan dinning tarixiy shakllari animizm, fetishizm, magiyaning o’zaro bir-biri bilan bog’liq ekanligini ko’rsatadi.

v) Muhabbat sehrgarligi. Muhabbat sehrgarligi juda keng tarqalgan sehrgarlik turi bo’lib u insoniyat tarixidagi deyarli hamma xalqlarda mavjud bo’lgan. Muhabbat sehrgarligining mazmunini ikki jins, erkak va ayol o’rtasidagi o’zaro munosabatlar, bir-biriga intilish yoki ularni bir-biridan qaytarish, ya’ni isitish yoki sovutish xususiyatini vujudga keltirish tashkil etadi. Magiyaning ikki turi oq va qora magiyaga ko’ra inson ezgu va yovuz ruhlar yordamida birovga yaxshilik yoki birovga yomonlik qilish imkoniyatiga ega bo’lsa, muhabbat

magiyasiga ko'ra inson bironi o'ziga isitib uning muhabbatiga erishish, boshqa odamni sovutib uning muhabbatini yo'q qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Muhabbat sehrgarligining marosimlarini bajarish juda oddiy bo'lib, bu marosimlar turli xalqlar tomonidan turlicha bajarilgan. Ba'zi xalqlarda erkak yoki ayol o'ziga rom qilmoqchi bo'lgan qarama-qarshi jins vakili o'zi tanlagan odamning oldiga o'g'il yoki qiz bolani yuborib, bu o'g'il yoki qiz bola uxlab yotgan erkak yoki ayolning peshonasiga, ko'kragiga o'simliklardan tayyorlangan alohida malhamni surib muhabbat sehrgarligini amalga oshirsa, ba'zi xalqlarda raqs tushish jarayonida erkak yoki ayol o'zi tanlagan qarama-qarshi jins vakili tanasiga "sehrlangan" tuproq, bo'yoq sepib yoki mayda-mayda tosh otib muhabbat sehrgarligi marosimini bajarishga muvaffaq bo'lgan. Yuqoridagi muhabbat magiyasiga taalluqli hatti-harakatlar Malakka yarim orolida yashovchi semanglar, Melaneziya orolida yashovchi aborigenlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, Yangi Kaledoniya orollarida yashovchi sulka qabilasidagi erkak biror ayolni o'ziga rom qilmoqchi bo'lsa, raqs tushish paytida sehri deb hisoblangan narsa chizilgan yelkasini u ayolga tekkizganidan so'ng muhabbat magiyasi sodir bo'lgan. Ayol xushidan ketib, kasal bo'lib qolgan. O'ziga kelib, kim o'ziga nisbatan sehr ishlatganini aniqlagan. Erkak esa bu ayolni davolaganidan so'ng, ayol o'ziga nisbatan sehr ishlatgan erkakka turmushga chiqqan. Muhabbat sehrgarligi bir-birini sevgan ikki jins vakillarini dushmanlar tomonidan ajratib yuborishi hamda bir-birini yoqtirmay qolgan erkak bilan ayolni bir-biridan uzoqlashtirish masalasini ham o'z ichiga oladi. Insoniyat tarixida dinlarning rivojlanib borishi, milliy hamda jahon dinlarining vujudga kelishi bilan muhabbat sehrgarligi ham diniy ta'limotlarga moslashib, rivojlanib bordi. Muhabbat sehrgarligi bilan bog'liq bo'lgan isitish va sovutish amallari islom diniga e'tiqod qiluvchi Markaziy Osiy xalqlari kundalik hayoti, urf-odat va an'analari bilan ham bog'liqdir.

g) Davolash sehrgarligi. Insoniyat tarixida sehrgarlikning turli shakllari mavjud bo'lib, shulardan bittasi davolash sehrgarligidir. Qadimgi davrlardan boshlab odamlar kasallik va o'limni dushmanlik sehri oqibatida yuborilgan ofat deb hisoblab, bu kasalliklarni davolash va uni tanaga kiritmaslik yo'llarini qidirganlar. Natijada, davolash sehrgarligi paydo bo'lgan. Davolash sehrgarligida qo'llanilgan vositalar juda xilma-xil bo'lib, sariq yoki qizil tusli mineral bo'yoqni

qaynatilgan suv bilan aralashtirib ichish, mineral bo'yoqni yog' bilan aralashtirib, undan malham tayyorlab, bu malhamni avval duo o'qib, so'ngra og'riq bor joylarga surish davolash sehrgarligida qo'llaniladigan usullardir. Tabiblar turli xil dori-darmonlarni tayyorlaganlar, odamlar tabib har xil moddalarning xususiyatini biladi va u buni ruhlardan oladi deb ishonganlar. Odam tanasini kasal tarqatuvchi kuchlardan tozalashda olov va suvdan, bug'li hammom, qonni chiqarib tashlash, odamni qayd qildirish kabi usullardan juda keng foydalanishgan. Tabiblar uyni tutunga to'ldirib, kasal tarqatuvchi ins-jinslarning odam tanasiga kirmasligi uchun kasalliklarni haydash marosimlarini bajarishgan. Davolash sehrgarligida tabiblar dam solingan "muqaddas" suvdan foydalanayapmiz, deb odamlarni ishontirgan. Davolash sehrgarligida bir odam tanasidagi kasallikni turli xil buyumlar orqali boshqa odamlarga o'tkazish mumkinligi to'g'risidagi aqida ham mavjud bo'lib, kasallikdan qutilish uchun kasal odamning qoni surilgan tayoqcha ko'rinarli joyga ilib qo'yilgan. Kimki ana shu tayoqchani joyidan qo'zg'atsa, ushlab olsa, kasallik duoning kuchi bilan unga o'tib ketadi, deb ishonishgan. Ko'pgina xalqlarda duoning kuchi bilan kasallikni daraxtlarga ham o'tkazib yuborish mumkin deb ishonilgan va bu bilan bog'liq marosimlar bajarib kelingan. O'zbek xalqining tarixiy taraqqiyotida davolash sehrgarligi bilan bog'liq bo'lgan ko'chiriq qildirish odati mavjud bo'lib, kasal bo'lib qolgan odam tanasiga kirib qolgan turli xil insu-jins, yovuz ruhlarni tabib duo qilib, kasalning atrofida aylanib, qo'lidagi xivchin bilan kasalning tanasiga urib kasallikni keltirib chiqargan yovuz ruhlarni kasal odamning tanasidan chiqarib yuborishga harakat qilganlar. Kasallik, inson tanasiga turli yara-chaqalar toshganda pul, turli buyumlarni yara-chaqaga silab uni tashlab ketish ham kasallikning pul yoki buyumni topib olgan inson tanasiga o'tib ketishi to'g'risidagi qarashlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Tarixiy taraqqiyotda davolash sehrgarligi quyidagi ko'rinishlarda olib borilgan.

- a) Kasalni davolash;
- b) Uni odam tanasiga kiritmaslik;

Davolash sehrgarligida kasal bo'lishga yo'l qo'ymaslik uchun turli-tuman tumorlarni taqib yurish ham xosiyatli deb hisoblangan.

Diniy tasavvurlarning dastlabki shakllari mavjudlik davridanoq diniy ishonchlar, toat-ibodatlar, afsungarlik, sehrgarlik, jodugarlik o'zlarining

maqsadlariga, yo'nalishlariga ko'ra yaxshi yoki yomon kabilarga ajratilgan va kishilarni yo ovchilik, yo alohida malaka, bilimni talab qiladigan boshqa hunar bilan, yo davolashlar, yoki ixlos ya'ni issiq-sovuq qilishlar bilan bog'liq bo'lgan turlarga bo'lingan. Sehrgarlikning asosini xavf-xatardan saqlashga qaratilgan maxsus harakatlar tashkil qiladi. Bunday harakatlarni duo o'qishlar, har xil irim-sirimlar bilan bog'liq ishlar tashkil etadi.

v) Ob-havo sehrgarligi. Ibtidoiy davrlardan boshlab odamlar tashqi olamga ta'sir ko'rsatishga, tabiat kuchlariga ta'sir ko'rsatib ob-havoni o'zgartirishga harakat qilganlar. Ob-havo sehrgarligi ibtidoiy davr odamlarining animistik tasavvurlari bilan bevosita bog'liq edi. Chunki, osmonni, bulutni, quyoshni, shamolni, yomg'irni boshqarib turadigan tabiatdagi qudratli ruhlar mavjud ekan, odamlar bu ruhlarga ta'sir ko'rsatib o'zlari uchun zarur paytlarda yomg'ir yog'dirishga yoki quyoshni chiqarishga harakat qilganlar. Dunyodagi ba'zi xalqlarda ob-havo sehrgarligi fetishizm bilan ham bog'liq bo'lib, qadimgi turkiy xalqlarda yomg'ir yog'dirish xususiyatiga ega bo'lgan "yada" toshi mavjudligiga ishonch mavjud bo'lgan. Qadimgi turklar "yada" toshini topib ob-havoni o'zgartirishga harakat qilganlar. Tabiat hodisalarini ilohiylashtirib, ularga sig'inish jahondagi ko'pgina xalqlarda mavjud bo'lib, chaqmoq, momaqaldiroq, quyosh, osmon ruhiga e'tiqod qilish ibtidoiy davrdan boshlanib, keyinchalik qadimgi davrdagi diniy e'tiqodlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Qadimgi Yunonistondagi Zevs, Rimdagi Yupiter, Urartudagi Xaldi, Yaxudiylarning Yaxve, arablarning Kuzox kabi xudolari chaqmoq, momaqaldiroq xudolari bo'lib hisoblansa, Misrdagi Ra, Xetlar, Zardushtiylik ta'limoti, Inkalar, Mayalar va boshqa xalqlarning diniy e'tiqodi quyoshni ilohiylashtirib unga sig'inishga asoslanar edi.

ye). Xo'jalik sehrgarligi. Inson ibtidoiy jamiyat so'ngra qadimgi davrda ham mehnat qilib o'zining oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, turli-tuman moddiy boyliklarga bo'lgan ehtiyojini qondirib kelgan. Ovchilik, termachilik, hunarmandchilik inson xo'jalik faoliyatining asosi bo'lib, inson ovda, dehqonchilikda, hunarmandchilik bilan shug'ullanishi jarayonida o'z ishining o'ngidan kelishi, omadli bo'lishi uchun turli rasm-rusumlar, duolar, ibodat usullaridan foydalanishga harakat qilgan. Ovchi ovga borishdan avval, dehqon yerni omoch bilan haydab ekin ekish jarayonida, hunarmand turli-tuman



buyumlarni yasashdan oldin o'z ishining o'ngidan kelishini so'ragan, turli hattiharakatlar, duolar, qurbonliklar amalga oshirilgan. Keyingi davrlarda milliy hamda jahon dinlari vujudga kelib rivojlanishi jarayonida insonning xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi turli ilohiy kuchlar, ruhlar, avliyolarning mavjudligi to'g'risidagi qarashlar vujudga keldi. Islom dinida ham Oллоh bilan odamlar o'rtasida vositachilik qilib turli kasb-hunarlarga homiylik qiluvchi pirlar mavjudligi to'g'risidagi qarashlar mavjud bo'lib, Duldul ota – yilqichilar, Zangi ota – qoramolchilik, Cho'pon ota – qo'ychilik, Vois bobo – tuyachilik, Noiloj bobo – chig'irichilar, Chakchak ota – echkichilik, Qo'rquq ota – musiqa, navo, kuy homiysi, Bobo dehqon – ziroat, ekin tikin, Langar ota – tolibi ilmlar, fozil kishilar homiysi, Xazrati Ali – polvonlar, Xazrati Dovud – temirchilar, Jo'mard ota – qassoblar, Yalang'och ota – shamol homiysi, Bibi Seshanba – charx yigiruvchi ayollarning piri bo'lib hisoblanib, u yoki bu kasb egasi bo'lgan inson o'z ishlarining o'ngidan kelishini so'rab o'z pirlariga murojaat qilganlar. Dinning yana bir tarixiy shakli animatizm bo'lib, animatizmda inson tabiatdagi turli-tuman ruhlarga emas, balki tabiatning o'ziga, tog'larga, daraxtlarga, soylarga va hokazolarga sig'inganlar. Ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan dinning tarixiy shakllari o'sha davrda yashagan odamlar uchun g'oya, mafkura vazifasini bajargan.

## **2.5. Avesto-milliy g'oya shakllanishi bosqichidagi muhim manba**

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va globallashtirish jarayonining kuchayishi jahonda ma'naviy-mafkuraviy vaziyatni ob'yektiv ravishda o'rganish, o'z mafkuramiz va milliy g'oyamizning tarixiy ildizlari va ma'naviy tamoyillarini chuqur o'rganish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

“Avesto” Markaziy Osiyo xalqlarining boy tarixga va yuksak ma'naviyatga ega ekanligini ko'rsatuvchi bebaho manbadir. O'z davrida keng tarqalgan diniy ta'limot sifatida zardushtiylik va uning muqaddas kitobi “Avesto” boy insonparvar qadriyatlarni, baxtli hayot qurish, jamiyatni adolatli boshqarish, insonning huquq va majburiyatlari, inson fikr va amallarining pokligi, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi, mehnatning zarurligi va foydaliligi, teran axloqiy g'oyalarni

o'zida mujassamlashtirib, milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishga o'z hissasini qo'shib kelgan. "Avesto"da Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davr tarixi, ijtimoiy va ma'naviy hayoti, diniy-falsafiy madaniyati, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tuzilishi, geografik joylashishi, davlatchiligining shakllanishi va boshqa masalalar o'z ifodasini topgan bo'lib, "Avesto"ning axloqiy-falsafiy mazmuni "ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" birligi g'oyasida o'z ifodasini topgandir. "Avesto" ko'p qatlamli manba bo'lib, tarixiy jarayonning barcha bosqichlari unda o'z ifodasini topgan. Lekin shu bilan birgalikda "Avesto" ham diniy ta'limot, ham falsafiy tizimdir. "Avesto"ni o'rganishda mifologiya, diniy ta'limot, ilohiyot va diniy falsafani farqlash muhim ahamiyatga egadir. "Avesto" dualizmining eng muhim xususiyati ochiq axloq tartib-qoidalari: yorug'lik xudosi o'zida haqiqat, donolik, ezgulik ruhlarini, qorong'ulik – yolg'onchilik, yovuzlik, axloqiy nopoklik ruhlarini mujassamlashtirgan. Axura Mazda va Angra Maynyu orasidagi murosasiz kurashda odamlar ham ishtirok qiladi. Ahura Mazdaning bosh talabi doimo yorug'lik ruhlarini qo'llab yordam berish va yovuzlik keltiruvchi devlarga va ularning tarafdorlariga qarshi kurashish. Buning oqibatida odam farovon turmush ko'radi, yaxshi hayot kechiradi. Mazkur aniq qarama-qarshi yorug'lik va qorong'ulik dualizmi zardushtiylik dinining bosh g'oyasi hisoblanib, boshqa barcha diniy tasavvurlardan uni alohida ajratib turadi<sup>1</sup>.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"da juda ko'plab qo'shiq, hikoyat va rivoyatlar mavjud. Bu qo'shiq va rivoyatlarda asosan zardushtiylikning ramziga aylangan quyosh muqaddas kuch sifatida ta'riflanadi. Qadimdan Markaziy Osiyoliklar quyoshni sevganlar. Odamlar qahraton qishning ayozi, qahr bilan kirib kelgan sovuq – qish faslidan ko'ra qut-barakaga to'la quyoshli kunlarni iltijo qilib kutganlar. Yaxshilik ma'budi Axuramazda quyosh olib kelsa, Axriman sovuq kunlarni keltirgan. Shunday qilib, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash "Avesto"dagi qo'shiqlarning, hikoyat va rivoyatlarning asosini tashkil qiladi. "Avesto"da quyosh qut-baraka ramzi sifatida

---

<sup>1</sup> Марказий Осиё фалсафий тафаккурида "Авесто"нинг ўрни. Муаллифлар жамоаси. –Т.: Фалсафа ва ҳуқук институти, 2012. 17-бет.

ta'riflanadi. Bundan tashqari, "Avesto" Markaziy Osiyo xalqlarining nihoyatda mehnatkash bo'lganligidan darak beradi. Bu jihatdan, ayniqsa, mehnat ma'budasi Ardivisura Anaxita haqidagi rivoyatlar diqqatga sazovordir. Zardushtiylik dinida mehnat va qahramonliklar ulug'lanadi, insondagi vatanparvarlik, jangovarlik, mehnatsevarlik inson ma'naviyatining muhim jihatlari sifatida o'z davridagi milliy g'oyada aks ettiriladi. Zardushtiylik dinida har bir inson kuniga besh marta yuvinib, poklanib quyoshni olqishlab sig'inishi shart bo'lgan. Zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi inson tabiatni, yer, suv, daraxt, o'simlik, jonivorlarni e'zozlashi, yerni ishlatib, sug'orib, bog'-rog', ekinzor qilishi, chorvani, ayniqsa, yilqichilikni yo'lga qo'yishi, suvni muqaddas tutishi shart bo'lgan.

Zardushtiylikning eng olijanob va bosh g'oyasi insonning kamol topishida, uning o'y-fikrlari, so'zlari va amaliy faoliyatining aniq umid-orzu va ezgu niyatlarga monand kelishiga bog'liqdir. Insonning o'z hayotida zimmasiga olgan barcha majburiyat va burchlarni bajarishi, ezgu xulqli, odob-ikromli, ezgu so'zli va xayrli amalga ega bo'lishi zardushtiylikning g'oyaviy negizini tashkil qiladi. "Avesto"da Oliy Tangriga iltijo va murojaat qilinib, "Axura Mazda yaratgan yaxshilik g'oyasiga, sog'lom, aql-xushi tetik farzandlarga, jasur, dono, bir necha tillarni biladigan o'g'il-qizlarga, uzoqni ko'rib, yurtni balo-qazolardan himoya eta oladigan o'g'lonlarga, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan pok ziynat avlodlarga olqishlar bo'lsin!" deyiladi. Undagi ta'rifga binoan, tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lishi lozim. "Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, – deyiladi, Zardusht ta'limotida, – u avvalo yozishni o'rganish bilan xulq-odobli bo'lsin, yaxshi o'qishni, so'ngra yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin". Mazkur insonparvarlik g'oyalarining u ming yillar muqaddam "Avesto"da paydo bo'lishi, ularning hozirgi zamonga hamohangligi naqadar yuksak bo'lganligini tasdiqlaydi<sup>1</sup>. Zardusht ta'limotida ko'rsatilishicha, umuminsoniy qadriyatlardan mehnatning moddiy va ma'naviy tomonlariga katta e'tibor berilib, uning uch axloqiy aqidasi – ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal

---

<sup>1</sup> Марказий Осиё фалсафий тафаккурида "Авесто"нинг ўрни. Муаллифлар жамоаси. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2012. 51- бет.

g'oyasini har bir kishi butun umr qalbiga jo qilmog'i zarur. Shundagina u pok, halol, mehribon, rostgo'y, sadoqatli, vatanparvar bo'lib kamol topadi, barcha yovuzliklardan va yomon harakatlardan o'zini tiyadi. Tinch mehnat, boyliklarni jamg'arish, mustahkam hokimiyat – Zardusht yaratgan Arta (haqiqat, tartib)ning mazmuni ana shundan iborat. Hech bir boshqa dinlarda mehnat va tinchlik g'oyalari bu tariqa ulug'lanmagan, inson mavqei buncha yuqori ko'tarilmagan. Bunday insonparvar ta'limot yuksak sivilizasiya zaminida paydo bo'ladigan davlatchilik tuzumiga xizmat qiladi. Zardushtiylik ta'limotiga binoan kelajakda Axura Mazda Axrimanning yovuz devlari ustidan g'alaba qozonadi, butun insoniyat birikib, yagona til o'rnatiladi, barcha odamlar farovon va tinch hayot kechiradilar. Ushbu g'oya jamiyatni boshqarib turgan davlat tuzumiga xos mafkura bo'lib xizmat qilgan. Shunday qilib, Zardusht ta'limotida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash oqibatida qaror topadigan olam tartibi, odamlarning to'g'ri yo'lni erkin tanlashiga, ongli ravishda ezgulik tomonida turib faol kurashishiga bog'liq degan g'oya olg'a surilgan. Bu zardushtiylikning uch ming yil osha bizgacha yetib kelgan, hozir ham, bundan keyin ham ahamiyatini yo'qotmaydigan buyuk umuminsoniy qadriyatga aylangan g'oyasidir.

## **2.6. Milliy g'oyaning tarixiy negizlaridagi asosiy manbalar va undagi ilg'or g'oyalar**

O'zbekiston xalqi boy tarixga, yuksak madaniyat va ma'naviyatga ega bo'lgan xalqlardan biri bo'lib, bugun xalqimizning boy tarixi, madaniyati, ma'naviyati milliy g'oya va mafkura asosida qayta ko'rib chiqilib baholanmoqda. Bugun O'zbekistonda ma'naviy hayot yangilanmoqda, milliy g'oya, milliy mafkura, ma'naviyatni tiklash va yuksaltirish masalasiga davlat siyosati darajasida munosabatda bo'linmoqda. O'zbekistonning milliy istiqloq g'oyasi va uning tarixiy manbalari xalqimizning boy tarixiy moddiy va ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, ajdodlarimizning milliy, ma'naviy-madaniy hayot tarziga bevosita borib taqaladi.

Har bir xalqning hayotida uning manfaati, maqsadi va qadriyatlarini ifodalovchi g'oyalar aynan shu xalqning hayot yo'li, turmush tarzi va tarixi bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanib boradi.

Qadimdan xalqimizning asrlar mobaynida shakllangan boy madaniy va ma'naviy merosi, ijtimoiy-siyosiy tafakkur tajribasi, ozodlik va erk yo'lidagi kurash ruhi, tarixiy jasorati va bunyodkorlik faoliyati bilan bog'liq g'oyalari milliy mafkuraning shakllanishida muhim manba vazifasini bajarib kelgan. Milliy g'oya va mafkura xalqimizning ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida rivojlanib, taraqqiy etib bordi. O'zbekiston hududida tashkil topgan dastlabki davlatlar, Katta Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada ilk bor dastlabki yozma manba – “Avesto” vujudga kelib, bu manbada jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotiga taalluqli bo'lgan ezgulik g'oyalari ilgari surildi. Zardushtiylikning ezgulik va insonparvarlik haqidagi g'oya va qarashlari mintaqamizga islom dini kirib kelguniga qadar mavjud bo'lgan asosiy g'oyalar edi. Nemis klassik falsafasi vakillaridan biri Georg Vilgelm Fridrix Gegel Zardushtiylik dinini tabiat dini, lekin ozod dinga o'tayotgan din deb ta'riflaydi. “Bu din, – deb yozadi Gegel, – yorug'lik va mehr-oqibat dinidir. U yovuzlik va qorong'ulikka qarshi turadi. Yorug'likning yovuzlik bilan kurashi, hayotning o'lim bilan kurashidir. Zoroastrning dini rivojlanishni va hayotning barhayot bo'lishi, ekin ekishni, uy hayvonlarini boqishni va yerga qarashni talab qiladi”<sup>1</sup>. Zardushtiylik ta'limotida “Bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqda shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldamchilik va hiyonatdan holi bo'lish” imonlilik alomatlaridir, deyiladi. “Avesto”da shaxsning axloqiy xislatlari, haqgo'ylik, adolatlilik ulug'lanadi. “Avesto”dagi bashoratlardan birida “Olam go'zalligi dehqondan, dehqonchilikdan, kimki yerga urug' qadabdi, u odamiylikka imon keltiradi, yagona shu yo'lgina haqiqat bo'lib, qolgani sarobdir”, deyiladi. Axuramazda qonunlarida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, uni jamoa o'rtasida adolatli taqsimlash eng savobli ishlardan hisoblangan. Undan keyingi savobli ish esa, oziq-ovqat tayyorlash, uy hayvonlari va chorva mollarini ko'paytirishdan iborat bo'lgan. Zardushtiylik o'gitlarida ona

---

<sup>1</sup> Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг антик даври. –Т.: Ўқитувчи, 1991. 206-бет.

zaminga, dehqonchilikka, hunarmandchilik, chorvachilik, Vatan va xalqqa ulug' muhabbat ruhi markaziy o'rinni egallaydi. Zardushtiylik dinida quyosh va yorug'lik ma'budasi – Mitra, fayz va baraka ma'budi – Noxit, baxt, qismat va yurt tinchligi ma'budi – Xumo, yer-suv va yog'ingarchilik ma'budi – Anaxita va Xubbi, yaxshilik va ezgulik ma'budalari Gaya Maretan va Yima kabilar yer yuzida yaxshilik va ezgulikning g'alaba qozonishi uchun doimo o'z hissalarini qo'shib keladilar.

Markaziy Osiyoning qadimgi tarixi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalarga Qadimgi Eron manbalari taalluqli bo'lib, bu manbalarga Naqshi Rostam, Behistun qoyasidagi mixxat yozuvlari, "Xvaday namak" ("Podshohnoma"), "MatakDani xazar datastan", ("Bir ming nafar yuridik ajirim", "Shohnoma) va boshqa asarlar taalluqlidir. Qadimgi Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi ma'lumotlar hindlarning epik dostoni "Maxabxarata"da ham keltirilgan.

O'zbekistonning qadimgi tarixi, bu yerda yashagan xalqlarning ma'naviyati, jamiyatning milliy g'oyasi va mafkurasiga taalluqli bo'lgan fikrlar qadimgi yunon va rim manbalarida bir muncha kengroq bayon qilingan. Gerodotning "Tarix", Ksenofontning "Yunon tarixi", Polibiyning "Umumiy tarix", Arrianning "Aleksandrning yurishi", Strabonning "Geografiya", Kvint Kursiy Rufning "Aleksandr Makedonskiy tarixi", Poliennning "Harbiy hiylalar" va boshqa asarlarda fuqarolarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirib, mafkuraviy vazifani bajaradigan "To'maris", "Shiroq" afsonalari, Spitamenning jasoratlari haqidagi ma'lumotlar, o'lkamizda yashagan qadimgi xalqlarning nomlari, turmushi, dini, madaniyati, iqtisodiy va siyosiy tuzumi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan. Rimlik tarixchi Pompey Trogning "Filipp tarixi", Yustinning "Pompey Trog epitomi" asarlarida ham Markaziy Osiyoning qadimgi davri haqida ma'lumot berilib, Pompey Trogning "Baqtriyaliklar qadimiylikda misrliklar bilan bahslashadilar" degan so'zlari bugungi kunda mafkuraviy ahamiyatga egadir.

Markaziy Osiyoning qadimgi davri xitoy manbalarida ham bir muncha keng yoritib berilgan bo'lib, bunday tarixiy asarlarga Sima Syanning "Shi Szi" ("Tarixiy

esdaliklar”), (mil. av. 145-86 yillar), Ban Guning “Syan-Xan shu” (“Avvalgi Xan sulolasining tarixi”), (32-92 yillar), Fan Xuaning “Xou-Xan shu” (Keyingi Xan sulolasi tarixi), (398-445 yillar), O’rta asrlar Xitoy tarixchilari Li Yan-shouning “Bey-shu” Shimoliy sulolalar tarixi), (taxm. 595-678 yillar), Vey Chjenning “Suy shu” (“Suy xonadonining tarixi”), (580-643 yillar), Ouyan Syu (1007-1072 yillar), va Sun Si (998-1061 yillar)larning “Sin Tan shu” (“Tan sulolasining yangi tarixi”) asarlarida qadimgi va o’rta asrlardagi Markaziy Osiyo, Xorazm, Toshkent, Samarqand va Sharqiy Turkiston haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Bu qo’lyozma asarlarda Markaziy Osiyoning o’sha davrdagi g’oya va mafkurasi haqida ham ma’lumotlar berilgan. Buyuk madaniyatning ildizlari uzoq o’tmishga borib taqalib, O’rxun-Enasoy bitiglari deb atalgan yodgorliklar shular jumlasiga taalluqlidir. O’rxun-Enasoy bitiglari katta toshlarga bitilgan kitoblardir. Qadimgi turkiy tilda, o’ziga xos xatda bitilgan bu asarlar VI-VIII asrlarda yaratilgan. Ularda turkiy xalqlarning o’z elu-yurtiga muhabbati, qahramonliklari, xorijiy bosqinchilarga qarshi qahru-nafratini o’zida ifodalagan g’oyalar o’z ifodasini topgan. Markaziy Osiyo va uning atrofidagi turkiy xalqlar yashagan o’lkalarni kezib chiqqan ulug’ olim Mahmud Qoshg’ariy o’zining 1069 yilda yozib tugallagan “Turkiy so’zlar devoni” (“Devonu lug’atit turk”) kitobida qadimgi davrdagi turkiy xalqlarning tili, tarixi, turmush tarzi, badiiy ijodidagi g’oyalar haqidagi fikrlarini bayon qilgan. Bu kitob yaratilganidan ko’p vaqt o’tmay, 1069-1070 yillarda Bolasog’unlik Yusuf Xos Xojib o’zining “Qutadg’u bilig”, (“Yaxshilik keltiruvchi bilimlar”) nomli dostonini yozib, bu dostonida u axloqiy, tarbiyaviy fikrlarini jozibali, badiiy shaklda ifoda etadi, ezigulik, adolatparvarlik va xalqparvarlik g’oyalarini ilgari suradi. O’rxun-Enasoy bitiglarida qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g’oyalari ilgari surilgan bo’lib, To’nyuquq, Qul tigin, Bilga hoqon, Ungin, Moyun chur bitigtoshlari O’rxun bitigtoshlari bo’lib hisoblansa, Eletmish Bilga hoqon, Uyuq Tarlaq, Uyuq Turan, Elegesh, Begra, Chako’l, Achur, Oltinko’l, Uybat yodnomalari Enasoydan topilgan bitigtoshlardir. Markaziy Osiyodan IV-X asrlarga oid so’g’d tilidagi turli mazmundagi yuridik hujjatlar, ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotdi hujjatlari, tilxatlar, So’g’d, Shosh, Turk va Farg’ona hukmdorlari o’rtasidagi yozishmalar, xo’jalikning kundalik turmushiga oid hujjatlar hamda farmonlar topilgan. Bu hujjatlar

Sug'diyonadagi Mug' qal'asidan, Samarqanddagi Afrosiyob tepaligidan, Qirg'iziston va Sharqiy Turkistondan topilgan. Markaziy Osiyoning o'rta asrlardagi tarixini yoritib bergan arab tilidagi manbalarga VIII-IX asrda yashagan arab tarixchisi Abulhasan Ali ibn Muhammad al-Madoiniyning "Axbor al-Xulafo" ("Xalifalar tarixi"), "Tarix al-buldon" ("O'lkalar tarixi"), IX asrda yashagan yirik geograf va tarixchi olim Al-Ya'qubiyning "Kitob al-buldon" ("Mamlakatlar haqida kitob") va "Tarix" nomli kitoblarini kiritish mumkin. IX asr arab tilidagi manbalarga Abubakr Ahmad ibn Yah'yo Jabir al-Balazuriyning "Kitob futux al-buldon" ("Mamlakatlarning zabt etilishi haqida kitob") va "Kitob ansob al-sharaf" ("Sharofatli kishilarning nasablari haqida kitob") kabi asarlari ham taalluqlidir. O'rta asrlar arab tilidagi manbalarga bundan tashqari Abu Yusuf Ya'qub, Ibn al-Faqih, Ibn Xurdadbeh, Tabariy, Ahmad ibn Fadlan, Al-Ma'sudiy, Abulfaraj Qudama, Istaxriy, Ibn Havqal, Abu Dulaf, Al-Muqaddasiy, Utbiy, As-Saolibiylarning asarlarini ham kiritish mumkin. Ushbu mualliflarning asarlarida islom dini tarqalgan hududlar haqida ma'lumot berilganida Movarounnahr va Xurosonda joylashgan davlatlar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyoti masalalariga ham alohida to'xtalib o'tiladi.

Xalqimiz madaniyati va ma'naviyatining, milliy mafkurasining ildizlari nihoyatda chuqur va qadimiy hamda poydevori mustahkam va baquvvat ekanligi masalasiga Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlari, ma'ruzalari, suhbatlarida alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, Ma'naviy hayotimizda muhim voqea bo'lgan ana shunday loyihalar haqida gapirganda, O'zbekistondagi Islom sivilizasiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom akademiyasi kabi ilmiy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari boshlanganini alohida qayd etish zarur, – deydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Shular qatorida buyuk allomalarimizning yodgorlik majmualari qoshida hadisshunoslik, islom huquqshunosligi, tasavvuf, kalom va aqida ilmi kabi diniy-ma'rifiy yo'nalishlarni o'rganish bo'yicha maxsus maktablar tashkil etildi. Albatta, bizning bu ishlarimiz chuqur ilmiy va amaliy asoslarga ega.

Ma'lumki, qadimiy madaniyat va sivilizasiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan O'rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar,



aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi<sup>1</sup>.

Poydevori baland va baquvvat bo'lgan bino har qanday sharoitda ham mustahkam va sobit turganidek, ma'naviy, axloqiy, falsafiy, siyosiy-huquqiy zaminlari mustahkam bo'lgan, fan yutuqlari, uning ilmiy xulosalariga asoslangan, tayangan milliy mafkuragina umri boqiy bo'ladi.

Xalqimizning ma'naviy poydevori, davlatimizning tayanchlari juda qadimiy va mustahkam bo'lib, buni hech kim inkor qila olmaydi. Tariximiz necha-necha ming yillarga borib taqalib, xalqimiz tarixiy taraqqiyotida ko'plab siyosiy birliklar, davlatchilik asoslari tashkil topdi, ilm-fan, madaniyat rivojlandi. Xalqimizning milliy g'oyasi, milliy mafkurasi boy tarixiy ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy etib bordi. Diniy qadriyatlar milliy mentalitetga, urf-odat, an'ana va udumlarga o'z ta'sirini ko'rsatib, milliy mafkuraning bosh g'oyasi mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan g'oyalar tizimi tariximizda ham, bugungi kunimizda ham jamiyat hayotida amal qilib kelmoqda.

Milliy mafkuramizga zamin, tayanch bo'lib xizmat qiladigan fikrlar, qarashlar va g'oyalar o'lkamizda tarixiy asoslarga ega bo'lib, mintaqamiz xalqlarining ma'naviyati va ma'rifati to'g'risidagi qarashlar tarixiy taraqqiyotimizda bosqichma-bosqich shakllanib borgan. Markaziy Osiyo hududida paydo bo'lgan sivilizasiya dunyodagi eng qadimiy sivilizasiyalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tarixan Turon, Movarounnahr, Turkiston deb atalib kelingan hududda yashagan ajdodlarimizning asrlar mobaynida yaratib, avaylab-asrab kelgan va kelayotgan osori-atiqalari, ertak va rivoyatlari, termalari, dostonlari, maqol va matallari, to'y va sayillarida, o'yinlarda, bayramlar va safarlarda ijro etadigan qo'shiq va laparlari, madaniyat va ma'naviyat, ma'rifatga oid bo'lgan jamiki meroslari, urf-odatlari, an'analari milliy mafkuraning shakllanishi va rivojlanishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Xalqimiz og'zaki ijodiyotining eng qadimgi tur va janrlaridan biri bo'lgan afsona va asotirlarda yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat, baxt bilan baxtsizlik o'rtasidagi kurash va bu kurashda ezgulikning

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 81-82-бетлар.

yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi haqidagi g'oya ilgari surilgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da qayd etilishicha, olamni yaratgan va uni boshqaradigan Yakka xudo – Axura-Mazda, odamlarni ezgulik uchun kurashga da'vat etadi, u ezgulik ishlari rahnamosi sifatida kishilarga nur, issiqlik, baxt-saodat baxsh etadi, kishilarni balo-yu, ofatlardan qutqaradi, mushkulini oson qiladi. Yovuzlik ma'budasi Axriman esa odamlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itadi, yovuzlikka yetaklaydi. Sharq xalqlari folkloridagi yovuzlik va zulmat kuchlari miflarda ko'pincha dev ajdarho va jinlar qiyofasida tasvirlanadi. Ular ofat va zulmat, qabohat va razolat, o'lim va kulfat, baxtsizlik, xonavayronlik, ochlik-qahatchilik timsollari sifatida namoyon bo'ladi.

Mintaqamizda bir necha asrlar osha yuzaga kelgan «To'maris», «Shiroq», «Zariadr va Odatida», «Zarina va Striangiya», «Manas», «Alpomish», «Qirqqiz», «Go'ro'g'li», «Avazxon», «Chambil qamali», «Oysuluv» singari dostonlarda o'z vatanining ozodligi va mustaqilligi uchun qahramonlik namunalarini ko'rsatgan xalqimizning fidoiy farzandlari tasvirlangan bo'lib, ana shu asarlardagi vatanparvarlik haqidagi milliy va umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy g'oyalar milliy mafkura uchun tag zamin va asos bo'lib xizmat qiladi.

Vatanni himoya qilish, erksevarlik, kindik qoni to'kilgan, ajdodlar tomonidan ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, e'zozlab kelingan diyorni, vatanni fidoyilik bilan mardona himoya qilish zarurligi haqidagi ta'limot, o'git va g'oyalar xalq og'zaki va yozma ijodiyotining barcha namunalarida ko'zga tashlanadi.

Barcha xalqlarni do'stlikka, axillikka, qo'lni-qo'lga berib yashashga da'vat etish, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, milliy ayirmachiliklarni o'rtadan ko'tarib tashlash, istiqbolni o'ylab yashashga da'vat etish, ajdodlar o'g'itlari, milliy udumlari, yo'l-yo'riqlariga xiyonat qilishni qat'iyan qoralash, farzandlarining baxti va istiqbolini o'ylab yashash va faoliyat ko'rsatish, sevgiga bir umr sadoqatli bo'lish va boshqa shunga o'xshash umumbashariy g'oyalar jamiki xalqlar madaniyati, mafkurasiga xos bo'lgan umumiy o'xshash jihatlardir.

Milliy g'oya va mafkuraning tarixiy negizi va manbasi sifatida «Avesto»dagi milliy mafkura uchun muhim bo'lgan qoidalar – bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qat'iy rioya

qilish, qarzini o'z vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish, iymonlilikdan iboratdir.

«Avesto»da olam taraqqiyotining mazmuni ezgulik kuchlari va yovuzlik kuchlari timsollari bo'lgan Axuramazda bilan Axriman o'rtasidagi murosasiz kurashdan iborat bo'lib, Axuramazda dunyoda yaxshilik, adolat, farovonlik, tinchlik, o'rnatishga intilsa, Axriman odamlarni yovuzlik, zulmat, o'lim, vayronagarchilikka yetaklaydi. Bu kurashda iymonli odamlar Axuramazda tomonida turishga intiladilar. Yaxshilik va yomonlik, nur bilan zulmat, baxt bilan baxtsizlik o'rtasidagi kurashda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi haqidagi g'oya «Avesto»dagi asosiy g'oyadir. «Avesto» – ajdodlarimizning o'tmish tarixi, madaniyati, ma'naviyati va tafakkurining, milliy g'oya va mafkuramizning muhim manbasidir.

Milliy g'oya va mafkura qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining aqli va tafakkuri, odob-axloqi, madaniyati, ma'naviyati, ma'rifati, boy hayotiy tajribalarini o'zida ifodalagan ma'naviy madaniyat namunalarida namoyon bo'lib, har bir inson qadimgi Markaziy Osiyo, o'rta asrlardagi Turkiston xalqlari tomonidan yaratilgan ma'naviyat yodgorliklarini o'qib-o'rganib, uning asosiy g'oyalarini o'zlashtirib, o'zida axloqiylik, ezgulik, insoniylik kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirib boradi. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan madaniy merosi, odob-axloqi, ta'lim-tarbiya borasidagi an'analari, O'zbekiston xalqlarining milliy g'oyasi va mafkurasi chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston taraqqiyotining g'oyaviy, mafkuraviy asoslari aholining milliy-ma'naviy turmush va tafakkur tarziga, xalq an'analari va urf-odatlariga asoslanib, o'zbek xalqi milliy mentaliteti va ma'naviyatiga xos bo'lgan kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'iy nazar odamlarga hayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi g'oyaviy, mafkuraviy tarbiyadagi muhim jihatlardir. Vatanga mehr va muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ma'rifatparvarlikka intilish, fuqarolarda milliy-g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish va yuksaltirish

masalalari milliy g'oya va mafkuraning muhim vazifalaridir. Tarixiy ma'naviy merosimizda ushbu masalalarga asosiy e'tibor qaratilib, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyani olib borishda ma'naviyat tarbiyasiga katta e'tibor qaratildi.

### **2.7. O'rta asrlardagi g'oyaviy qarashlar tarixi va rivojlanish xususiyatlari**

Sharq uyg'onish davri IX-XII va XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, diniy, falsafiy ta'limotlari rivojlanishida keskin o'zgarish, tub burilish davri bo'lib, bu davrda Markaziy Osiyo xalqlari safidan o'zining aql-idroki va tafakkuri, qomusiyliigi bilan insoniyatni lol qoldirgan fan va madaniyat arboblari, jahonga mashhur bo'lgan matematik, astronom, ximik, minerolog va tibbiyotchilar, shoir, yozuvchi va san'atshunoslar, tasviriy san'at va naqqoshlik ilmi arboblari, dunyo tan olgan faylasuf va tarixchilar, adabiyotchi va tilshunoslar yetishib chiqdilar. Uyg'onish davri mutafakkirlari o'zlarining qomusiyliklari, ayni bir paytning o'zida ham faylasuf, musiqashunos, ham mantiqshunos, jamiyatshunos va adabiyotchi, tarixchi, shoir, matematik, xullas, ilmning hamma sohasidan xabardorliklari, ijodning bir necha sohalarida o'zlarini ko'rsatganliklari bilan ajralib turadilar. Uyg'onish davri mutafakkirlarining ko'pchiligi fanda yangi yo'nalishlarni, yangicha tafakkur uslublarini ixtiro qildilar, ilgari hech kim aytmagan, tamomila yangi ta'limotlarni ilgari surdilar. VIII-XIII asrlarda Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy ta'limotlar ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatib, unda qadariylar, murji'alar, mutazila va Kalomdan iborat rasionalistik va insonparvarlik yo'nalishidagi diniy-falsafiy oqimlar, tasavvufning oriflik ta'limoti tarafdorlari, "sof arab-musulmon falsafasi" – mashshoiyunlar (Kindiy, Nasriddin Tusiy, Ibn Tufayl, Ibn Rushd), Demokratik empirik tabiatshunoslik falsafasi yo'nalishidagi tabiiyunlar (Roziy, Beruniy, Abu-l-Barakot) , amaliy siyosat, davlat va axloq falsafasi (Abu Hanifa, Abu Yusuf al-Xirojiiy, Forobiy, Ibn Miskavayx, Ibn Sino, Nizom-ul-Mulk, Nasriddin Tusiy, Forobiy, Abu Sulaymon Mantiqiy as-Sijjistoniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy), mantiqshunoslik va hozirgi semantik mantiq yo'nalishidagi falsafa, fan, falsafiy va diniy ta'limotlarni qiyosiy o'rganuvchilar

(Ibn an-Nadim, Abu Abdulloh Kotib Xorazmiy, Bayhaqiy, Ibn Xallikon, al-Forisiy al-Fahriy), kabi oqimlar vujudga keldi.

Islom tarqalib mustahkamlangan VII-VIII asrlardan boshlab musulmon madaniyati asosan Qur'onni yod olish, o'rganish, sharhlash, uni voizlik, hotiblik orqali targ'ib va tashviq etish, Hadislarni to'plash, tizimlashtirish, sharhlash, ularning ishonchli ya'ni sahih isnodlarini topishdan iborat edi. IX-X asrlarda imomlar Abu Hanifa, Ibn Anas, Abu Yusuf, Muhammad ash-Shaybon, Shofe'iy, Ibn Xanballar islom va shariatdagi asosiy to'rt mazhablarni tuzdilar. Imomlar Ibn Moja, Abu Dovud, Abu Isa at-Termiziy, Ismoil Buxoriy, Nasa'iy va boshqalar hadislarni yig'ib, tizimlashtirib, ularning isnodlarini, sahihlarini aniqlab, ilmiy tadqiq qildilar. Tabariy, Sa'olibiy, Faxriddin Roziy, Zamaxshariy, Bayzoviy va boshqalar Qur'on tafsirchiligi sohasida o'z tadqiqotlarini olib bordilar. Diniy qavmlar, mazhab va oqimlarni, turli mafkuraviy-g'oyaviy ta'limotlarni qiyosiy o'rganishda Ibn An-Nadim, Xorazmiy, al-Vositiy Farg'oniy, Abu-l-Hasan al-Ash'ariy, Beruniy, Muhammad al-Fahriy va boshqalar asosli ilmiy-nazariy yutuqlarga erishdilar. Abu-l-Hasan al-Ash'ariy, Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy, Boqilloni, Abu Homid al-G'azzoliy, Fahriddin Roziy, Abduraxmon al Ijjiy, Sa'duddin Taftazoniy, Abu Hafs – Umar an-Nasafiy va boshqalar islomning ilohiyot falsafasini – Kalomni ishlab chiqdilar. Sharq Uyg'onish davri musulmon madaniyati, ma'naviy hayoti, ayniqsa diniy mafkurasi o'z davri uchun misli ko'rilmagan g'oya va qarashlar, e'tiqodlarning teng mavqe'ligi (mafkuraviy plyuralizmi), e'tiqodiy bag'rikenglik va sabr-toqatlilik, hurfikrlilikning vujudga kelishi uchun imkoniyat yaratdi.

O'zbekistonning milliy g'oyasi va milliy mafkurasining shakllanishi va rivojlanishida xalqimizning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Bakr Narshaxiy, Abulqosim Mahmud az-Zamahshariy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, G'azzoliy, Moturudiy, Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Sulaymon Boqirg'oniy, Umar Chag'miniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin

Naqshband, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Pahlavon Maxmud, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur va boshqa jahonga mashhur bo'lgan buyuk qomusiy allomalarning ilmiy-falsafiy, huquqiy, diniy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, qarashlari va ta'limotlari asosiy tayanch va poydevor bo'lib xizmat qiladi. Xalqimizning boy tarixiy, ma'naviy merosida adolatli jamiyat va komil inson g'oyalari eng muhim va asosiy g'oyalar bo'lib hisoblanadi. Abu Mansur Moturidiy as Samarqandiy, Abu-l-Hasan al-Ash'ariy, Abu Homid al-G'azzoliylar islom dinidagi rasionalizm va insonparvarlik mayllarining qaytadan jonlanishiga, Uyg'onish davrining asosiy g'oyalari bo'lib qolishlariga turtki berdilar. Musulmon madaniyati, islom va shariatning siyosiy davlat tuzumi konsepsiyasi al-Mavardiy tomonidan ishlab chiqildi, Islom dinining huquqiy tizimi – Shariat Quduriy, O'zgandiy al-Farg'oniy, Burxoniddin Marg'inoniy tomonidan ishlab chiqilib nihoyasiga yetkazildi. Fiqh ya'ni islom huquqi ilmini rivojlantirishda Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Lays Samarqandiy, Abdul Hasan Xorazmiy, Najmiddin an-Nasafiy va boshqalarning nomlari mashhur. Burhoniddin Marg'inoniyning "Al-Hidoya" asari hanafiya mazhabi bo'yicha islom huquqshunosligining eng teran asarlaridan biridir. "Al-Hidoya" o'rta asrlarda ham, hozirgi kunlarda ham nafaqat Shariat Qomusi, Qonun chiqarish asosi, balki umuman har qanday huquqiy ta'lim va tahsilning, shariatdagi hanafiya huquqiy maktabi va boshqa mazhablar uchun asosiy manba bo'lib hisoblanadi. "Al-Hidoya" va o'zining boshqa asarlarida Burhoniddin Marg'inoniy Shariat huquqshunosligini tizimga solib o'rganadi va nazariy-metodologik yechimlar beradi. Marg'inoniyning va umuman Shariatning huquqiy merosini, demokratik qadriyatlari va an'analarini o'rganish xalqimizda siyosiy ong, madaniyat, huquqiy xotirani tiklashga, zamonaviy huquqiy jamiyatni qurish ishiga ham xizmat qiladi. Islom dini jamiyat hayotida ijtimoiy adolatni, insonparvarlikni qaror toptirishga, ma'rifatparvarlikni rivojlantirishga da'vat etadi. Islom, Shariat inson oldida oqilona tadbirkorlik, ishbilarmonlik qilishning keng imkoniyatlarini ochib bergan va rag'batlantirib turgan, insonning o'z sha'niga munosib yashashi shart-sharoitlarini vujudga keltirgan diniy e'tiqod va ta'limot bo'lib hisoblanadi.

Markaziy Osiyo hududiga islom dini tarqalishi bilan bu yerda diniy va dunyoviy ilmlar rivojlandi. Buxoro, Samarqand, Nasaf, Urganch diniy va dunyoviy ilmlarning markaziga aylanib, agar Samarqandda mingdan ortiq fiqh olimlari va hadis roviylari faoliyat olib borgan bo'lsa, Buxoro hanafiya mazhabi va naqshbandiya ta'limotining butun islom dunyosidagi yetakchi nazariy va uslubiy markaziga aylandi. Bu shaharlar butun dunyoda ilm-fan, ma'rifat, madaniyat, obodonchilik va farovonlik, go'zallik timsollariga aylangan edi. O'rta asrlar davrida Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning dunyoviy ilm-fan va ma'naviyat rivojiga qo'shgan hissalarini yanada salmoqli bo'ldi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) va Ahmad al-Farg'oni (taxm. 797-865) butun musulmon Sharqi va jahonda tabiiy va aniq fanlar rivojiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalar bo'lib, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy arab xalifaligining poytaxti Bag'dodda "Donishmandlar uyi" ("Bayt ul-hikma")ga rahbarlik qilgan. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy algebra faniga asos solgan buyuk mutafakkirdir. U matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix ilmi va boshqa fanlar sohasida barakali ijod qilgan. Uning "Al-Jabr Val Muqobala" ("Tenglamalar va qarshilantirish"), "Hisob al-Hind" ("Hind hisobi"), "Kitob surat al-Arz" ("Yer surati haqida kitob"), "Kitob at-Tarix" ("Tarix kitobi"), "Kitob al-Amal Bil Usturlabat" ("Usturlab" bilan ishlash haqida kitob) kabi asarlari ilmfanda olimga jahonshumul shuhrat keltirib, bugungi kunda xalqimizning boy tarixiy ma'naviy merosi sifatida fuqarolarimizda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo hududida yashab faoliyat olib borgan mutafakkirlardan yana biri Ahmad al-Farg'oni bo'lib, u asosan tabiiy fanlar, falakiyotshunoslik, matematika, geografiya kabi fanlar bo'yicha ijod qilgan. Ahmad Farg'oniyning ijodiy faoliyati Bag'dod bilan, ulug' mutafakkir olim Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy rahbarligida faoliyat ko'rsatgan "Baytul ul-hikma" bilan bog'liq bo'lib, u arab atamashunosligining paydo bo'lishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Ahmad Farg'oni Bag'dod va Damashqdagi rasadxonalar qurilishiga shaxsan qatnashgan, Bag'dodning Raqqoq nomi bilan ataluvchi mavzesida qurilgan

Rasadxona qoshida tashkil etilgan falakiyotshunoslik maktabiga rahbarlik qilib, “Kitob Fi Usul ilm an-Nujum” (“Falakiyot ilmining usullari haqida kitob”, “Falakiyot risolasi”. “Falak sferalari sababiyati”, “Al-Majistiy”, “Ilm al-hayya” (“Falakiyot ilmi”), “Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob”, “Oy Yerning ustida va ostida bo’lganida vaqtni aniqlash risolasi”, “Yetti iqlim hibi”, “Usturlob yasash haqidagi kitob” kabi asarlarni yozgan. Ahmad Farg’oniy bu asarlaridagi ilmiy kashfiyotlari bilan jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan va munosib xissa qo’shgan.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlaridan yana biri Abu Nasr Farobiy bo’lib, u Forobda ta’lim olib, Buxoro va Samarqandda, o’z davrining ilm-fan, madaniyat va ma’rifat markazlari bo’lgan Bag’dod va Damashq shaharlarida yashab o’z ilmiy darajasini oshirgan, ilmu-fanning deyarli barcha sohalarini egallab, 160 dan ortiq asarlar ijod qilgan. Farobiy fanning turli sohalarini, riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida ijod qilgan. Abu Nasr Farobiyning “Aristotel (Arastu)ning “Metafizika” asari maqsadlari haqida”, “Tirik mavjudot a’zolari haqida”, “Musiqa kitobi”, “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Siyosat al-Madoniya” (“Shaharlar ustida siyosat yurgizish”, “Fozil odamlar shahri”, “Masalalar mohiyati”, “Qonunlar haqida kitob”, “Tafakkur yuritish mazmuni haqida”, “Mantiqqa kirish haqida kitob”, “Falsafaning mohiyati haqida kitob” va boshqa asarlari olimning ilm va dunyoqarash doirasi nihoyatda kengligini ko’rsatadi. O’rta asrlar fanining rivoji va taraqqiyotida Farobiyning ilmlar tasnifi bo’yicha olib borgan ilmiy ijodiy ishlari g’oyatda qimmatli bo’lib, u “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Ilmlarning tasnifi haqida” va boshqa risolalarida o’sha davrda ma’lum bo’lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tasnifi va tafsilotini beradi. Farobiy ilmlarning beshta asosiy turkumini ko’rsatadi. Bularga 1. Til haqidagi ilm (grammatika, poetika, to’g’ri yozuv va boshqalar). 2. Mantiq. 3. Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geometriya, optika, sayyoralar, musiqa, og’irlik, mexanika. 4. Ilm at-tabiiy va ilm al-ilohiy-tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika. 5. Siyosat ilmi (ilm al-madaniy – shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi), yurisprudensiya (fiqh) va musulmon teologiyasi



(kalam). Xullas, Farobiyning ilmiy-falsafiy merosi xalqimizning buyuk ma'naviy boyligi sifatida asrlar osha avlodlar uchun ilhom va ijod manbai bo'lib xizmat qilaveradi<sup>1</sup>.

Insoniyat Abu Ali ibn Sino (980-1037)ni jahon fani va madaniyatining yuqori cho'qqisi, Uyg'onish davri madaniyatining yirik arbobi sifatida biladi va e'zozlaydi. Ibn Sino to'rt yuzdan ortiq asarlar yozib, uning yozgan asarlari ilm-fanning barcha sohalariga taalluqlidir. Ibn Sino asarlaridan 242 tasi bizgacha yetib kelgan bo'lib, ulardan 80 tasi falsafa, ilohiyot, tasavvufga, 43 tasi tabobat, 19 tasi mantiq, 26 tasi esa ruhshunoslikka bag'ishlangan. Ibn Sino o'zi yashagan davrdagi fanlarning barchasi - falsafa, tibbiyot, astronomiya, tabiatshunoslik, matematika, musiqa, huquq, axloq, din, adabiyot, tarix kabi fanlar bo'yicha shug'ullanib, u o'z asarlari bilan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqdi. O'zbekiston xalqi milliy g'oyasi va mafkurasining shakllanishi va taraqqiy etishi jarayonida Ibn Sino ma'naviy merosining tutgan o'rni va ahamiyati kattadir. O'z davrida Ibn Sinoni "Shayhur rais" – "Olimlar boshlig'i" deb atashgan. Ibn Sinoning asosiy asarlari "Kitob at shifo" ("Davolash kitobi"), "Donishnoma", "Najot", "Kitob ul insof" ("Adolat kitobi"), "Kitob al-qonun fit tib", ("Tib qonunlari kitobi") kabilardir. Ibn Sino o'zining tabiiy-ilmiy qarashlarida narsa va hodisalarning o'zaro bir-biriga ta'siri, aloqadorlik, zaruriy va tasodifiy bog'lanish to'g'risidagi muhim ma'lumotlarni keltirgan. Ibn Sino o'z asarlarida ilm va axloq-odob uyg'unligi, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, kishilarning o'zaro hamkorligi, insonlarning, yetakchilarning burchi to'g'risida qiziqarli g'oyalarni ilgari surgan. Inson o'zgalarga mehr-oqibatli, g'amxo'r bo'lmog'i, kerak vaqtda saxovat va muruvvat qo'lini boshqalarga uzatishi zarur, deb hisoblaydi mutafakkir. Inson hayotda shaxsiy va o'zgalalar tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi va muayyan ijtimoiy mavqega erishadi<sup>2</sup>, deb hisoblaydi u.

---

<sup>1</sup> Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ваган тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1997. 239-бет.

<sup>2</sup> Фалсафа асослари. –Т.: Ўзбекистон, 2005. 76-бет.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asardan 28 tasi bizgacha yetib kelgan. Abu Rayhon Beruniyning asarlari geografiya, astronomiya, tarix, geologiya, gidrogeologiya, geodeziya, mineralogiya, fizika, kimyo, botanika, farmakologiya kabi sohalariga taalluqlidir. “O’tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Geodeziya” kabi yirik asarlar Abu Rayhon Beruniyga katta shuhrat va obro’ keltirdi. Beruniyning yirik asarlaridan biri “Al osorul boqiya anil qurunil xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”)dir. Abu Rayhon Beruniy bu asarda o’zining hayotiy kuzatuvlari asosida yunonlar, rumoliklar, forslar, so’g’diylar, xorazmiylar, yahudiylar, arablar va boshqa xalqlarning yilnoma (kalendar) tizimlarini bir-biriga taqqoslab, ularning kelib chiqish tarixini tahlil qilib beradi. Bu asarda yana Qadimgi Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlarning tarixi, urf-odati va madaniyatiga oid masalalar ham o’z ifodasini topgan. Beruniyning eng yirik asarlaridan biri “Hindiston” bo’lib, bu asar hindlarning tarixi, fani, urf-odati, o’sha davrdagi ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yoritishga bag’ishlangan. Beruniyning yana bir bebaho asari “Kitobul jamohir fi ma’rifatil javohir” (“Qimmatbaho toshlarni bilish kitobi”)dir. Unda olim Markaziy Osiyodagi minerallar, ularning joylari haqida juda zarur ma’lumotlarni beradi. Abu Rayhon Beruniy Markaziy Osiyoda birinchilar qatorida dorishunoslik haqida “Kitobus saydalat fit tib” asarini yozib, bu kitobda olim mingdan ortiq dorivor moddalar haqidagi ma’lumotlarni bayon qiladi. Beruniy Xorazm tarixi bo’yicha “Xorazmning ajoyib kishilari” degan asar ham yozib qoldirgan. Abu Rayhon Beruniy tomonidan yaratilgan asarlar xalqimizning ma’naviy boyligi, milliy g’urur va iftixorimizdir. Beruniy ham vakili bo’lgan buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan boy tarixiy va ma’naviy meros milliy g’oya va mafkuraning shakllanishi va takomillashib borishida muhim ahamiyatga egadir.

O’z qomusiy ijodi bilan Sharq o’rta asr madaniyatini yuksak cho’qqiga ko’targan mutafakkirlardan biri Abu Abdulloh al-Xorazmiydir. Abu Abdulloh Xorazmiyning ilmiy dunyoqarashi o’sha davrda keng tarqalgan yunon falsafasi va

madaniyati, Sharq madaniyatining buyuk namoyandalari Yoqub ibn Is'hoq al-Kindiy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Bakr ar-Roziy va boshqalarning ilg'or g'oyalari ta'siri ostida shakllandi va rivojlandi. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafotih al-Ulum" ("Ilmlar kaliti") asari bizning davrimizgacha yetib kelgan bo'lib, bu asarda o'sha davrdagi deyarli hamma asosiy fanlar bo'yicha fikr yuritiladi. Abdulloh al-Xorazmiy o'z davri an'alariga ko'ra ilmlarni ikki qismga bo'lib tekshiradi. Birinchi qism shariat va u bilan bog'liq bo'lgan arab ilmlari va ikkinchi qism – arab bo'lmagan, ya'ni yunonlar va boshqa xalqlar ilmlari. Arab ilmlari qismiga Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'n bir bobdan iborat fiqh, yetti bobdan iborat kalom, o'n ikki bobdan iborat grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan iborat ish yurgizish, besh bobdan iborat she'riyat va aruz, to'qqiz bobdan iborat tarixni kiritadi. Ikkinchi qismga, ya'ni "arab bo'lmagan" xalqlar ilmlariga al-Xorazmiy uch bobdan iborat falsafa, to'qqiz bobdan iborat mantiq, sakkiz bobdan iborat tib, besh bobdan iborat arifmetika, to'rt bobdan iborat handasa, to'rt bobdan iborat ilmu nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyoni kiritadi. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning ma'naviy merosi milliy g'oya va mafkura tayanadigan, xalqimizda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini uyg'otadigan va mustahkamlashga yordam beradigan ma'naviy asosdir.

Sharq Uyg'onish davri IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda fanning deyarli barcha sohalari, jumladan, tarix ilmi sohasida ijod qilgan olimlar ko'p bo'lib, shunday olimlardan biri Abu Bakr Narshaxiydir. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari turli qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotlarida turlicha nomlangan bo'lib, bularga "Tarixi Narshaxiy" ("Narshaxiy tarixi"), "Tarixi Buxoro" ("Buxoro tarixi"), "Tahqiq ul-viloyat" ("Viloyat haqiqatini aniqlash"), "Axbori Buxoro" ("Buxoro haqida xabarlar") kabilarni keltirish mumkin. Ammo ilmiy adabiyotda asarning "Buxoro tarixi" atamasi mustahkam o'rin olgan. Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Movarounnahr va Xorazmning o'rta asrlar tarixiga tegishli bo'lgan qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Arablarning Movarounnahr va Xorazmga kirib kelishi, ularga qarshi ko'tarilgan xalq harakatlari, yerli xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid

masalalar asarda keng yoritilgan. Abu Bakr Narshaxiyning ma'naviy merosi xalqimizning ma'naviy boyligi, milliy g'oya va mafkura tayanadigan ma'naviy asos sifatida xizmat qilib kelmoqda. X-XI asrlarda tarixchi olimlardan Abul Hasan Bayhaqiy, Abu Nasr al-Utbiy va boshqalar ham ijod qilib, tarix ilmini rivojlantirishga, ma'naviyatni, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishga o'z hissalarini qo'shib keldilar. Bu mualliflar ko'proq g'aznaviylar davri tarixiga o'z e'tiborlarini qaratganlar. Sharq Uyg'onish davri madaniyati, Qoraxoniylar davri XI asrda Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojiblar yashab ijod qildilar. Mahmud Qoshg'ariy turkiy xalqlar tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlarini puxta o'rganish maqsadida butun Markaziy Osiyoni kezib chiqdi. Mahmud Qoshg'ariy o'zi to'plagan boy dalillar asosida "Javohirun nahv fi lug'ati turk" ("Turkiy tillarning sintaksisi durdonalari"), va "Devonu lug'atit turk" ("Turk tilining lug'ati") asarini yozgan. Mahmud Qoshg'ariy Kichik Osiyodan to Xitoy hududlarigacha cho'zilib ketgan yerlarda yashovchi turkiy xalqlar tarixi, geografiyasi, etnogenezi, urf-odatlarini, turmush tarzi, madaniyati to'g'risida g'oyatda qimmatli ma'lumotlarni beradi. She'riy usulda qalamga olingan buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg'ariyning asarida yuksak ezgulik g'oyalari, mehnatsevarlik, shaxsiy qahramonlik, g'animlarga nafrat kabi qarashlar o'z ifodasini topgan.

Qoraxoniylar davrida yashab ijod qilgan olimlardan biri Yusuf Xos Hojib bo'lib, u o'zining didaktik badiiy-falsafiy "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim"), asari bilan jahonga mashhur va ma'lum bo'ldi. Didaktik pandnoma-falsafiy "Qutadg'u bilig" asarida axloq-odob, ilm-ma'rifat, bola tarbiyasi, jamoat joylarda o'zini qanday tutish, so'zning ahamiyati va qadri, mehmondorchilik qoidasi, turmush tarzi va inson ma'naviy olamining yana ko'pgina masalalari qalamga olingan. Yusuf Xos Hojib odamlarni bilimli bo'lishga, falakiyot, geografiya, tarix, etnografiya, tibbiyot, riyoziyot, xandasa, ilmu nujum, huquqshunoslik, ijtimoiyot kabi fanlardan ma'lumotli bo'lishga da'vat etadi.

XII-XIII asrlarda yashab ijod etgan turkiy adabiyotning yirik va zabardast vakillaridan biri Ahmad Yugnakiy "Hibatul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni") asarining muallifidir. Ahmad Yugnakiyning she'riy usulda yozilgan "Hibatul-

haqoyiq” asari o’zbek adabiy merosining buyuk namunasi sifatida uning keyingi taraqqiyotiga katta hissa qo’shdi. Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” dostoni xalqimizning yuksak badiiy-ma’naviy merosining namunasi.

Xorazm ilm-fani va madaniyatini dunyoga tanitgan buyuk siymolardan yana biri arabshunos olim, shoir, yozuvchi va imom Abulqosim Mahmud az-Zamahshariydir. Az-Zamahshariy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, lug’atshunoslik, fiqh, tafsirshunoslik, islom tarixi, falsafa, uslub va notiqlik san’ati, tafsir, hadis va boshqa fanlar bo’yicha ellikdan ortiq asarlar yozgan. Az-Zamahshariyning eng yirik va mashhur asari “Al-kashshof” asaridir. Asarda az-Zamahshariy Qur’oni Karimni til jihatidan izohlab, har bir so’z ma’nosini arab grammatikasi asosida tushuntiradi. Az-Zamahshariyning yana bir asari “Al-Mufassal” bo’lib, bu asar arab grammatikasiga oid eng qimmatli asarlardan bo’lib hisoblanadi. Az-Zamahshariyning “Asos al-balog’a” (“Notiqlik asoslari”) kitobi arab tilining izohli lug’atidir. Az-Zamahshariyning hadisshunoslikka, geografiyaga, adabiyotga, she’riyatga bag’ishlangan asarlari ham bo’lib, “Al-foiq fi g’arib il-hadis” (“Hadislardagi notanish so’zlarni o’zlashtiruvchi”), “Al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh”, (“Tog’lar, manzillar va suvlar”), “Muqaddimat al-adab” (“Adabiyotga kirish”), “Devon az-Zamahshariy” (“Zamahshariy devoni”) shular jumlasidandir.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda islom huquqi – shariat ancha rivoj topgan bo’lib, shariat islom axloqiy qadriyatlari va musulmon huquqi falsafasini o’zida ifodalaydi. Shariatning tub mohiyati fiqh deb yuritiladi. Fiqh ilmi – musulmon qonunshunosligi sohasida Movarounnahr va Xorazm allomalari juda boy meros qoldirganlar. Movarounnahrlik fiqhshunos olimlardan Abu Havs al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abul-l-lays as-Samarqandiy, Abu Bakr al-Buxoriy, Faxr ud-din Qozixon, Shams ul-a imma as-Saraxsiy va boshqalar o’z davrida islom dunyosida ma’lum va mashhur bo’lganlar. O’rta asrlardagi fiqhshunos olimlar orasida Burhoniddin al-Marg’inoniy alohida o’rin tutadi. Burhoniddin al-Marg’inoniy musulmon huquqi xanafiya mazhabining buyuk nazariyotchisi va amaliyotchisi bo’lib hisoblanadi. Burhoniddin al-Marg’inoniy imom, qonunshunos bo’lib, hadislar bilan shug’ullangan. Qur’onni yoddan bilib,

unga sharhlar bergan. Ilmlarni yig'ib ularni muayyan fan tizimiga keltirgan. U sunniy shariatining to'rt asosiy mazhablari asoschilari va ularning shogirdlari asarlarini qunt bilan o'qib, o'zi ham fiqh ilmi bo'yicha tengsiz asarlar yozib qoldirgan edi. Burhoniddin al-Marg'inoniyning "Hidoya fi furu' al fiqh" ("Fiqh sohalari bo'yicha qo'llanma") asari tengi yo'q asar bo'lib, kitob to'rt jild va 56 bobdan iboratdir. Burhoniddin al-Marg'inoniyning "Hidoya" asari o'ziga xos shariat kodeksi bo'lib, bu asar bugungi kunda ham islom dunyosi qonunshunoslari uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Asarda islomning asosiy marosim talablari, huquqiy va axloqiy qoidalari, oila-nikoh bilan bog'liq bo'lgan masalalar, huquqiy qoidalarni bajarmaganlik uchun jazo choralari belgilangan. "Hidoya"da mulkiy va moliyaviy munosabatlarga, jinoyat va jazo, fuqarolik huquqlari, sud va prosessual masalalar keng o'rin olgan. Shuning uchun fuqarolar ongi va qalbiga tarixiy, ma'naviy merosni singdirib, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirishda Burhoniddin Marg'inoniy va uning "Hidoya" asari muhim ahamiyatga egadir.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida dunyoviy madaniyat bilan bir qatorda islom madaniyati rivojlanib taraqqiy etdi. Arab tili va arab yozuvi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan til va yozuv darajasiga ko'tarildi. Islom mafkurasi somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar anushteginiylar hukmdorlarining ichki va tashqi siyosatda yurgizgan siyosatida bosh yo'naltiruvchi g'oyaviy kuch bo'lib xizmat qildi. O'lkamizdan Qur'oni Karimni sharhlovchi va uning tafsirini bayon qiluvchi asarlar yozgan ulug' islomshunos allomalar Imom Abu Mansur Moturidiy, Imom Abu Lays ibn Muhammad Samarqandiy, Imom Zamahshariy, Imom Nasafiy kabilar bilan birgalikda Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Imom Muslim ibn al-Xajjoj, Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy, Imom Ahmad An-Naso'iy, Imom Abu Abdullo Muhammad ibn Yazit ibn Mojja kabi buyuk muhaddislar ham yetishib chiqdilar va ijodiy faoliyat bilan shug'ullandilar. IX asr hadis ilmi rivojlanishidagi oltin asr bo'lib, islom olamida eng nufuzli deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining mualliflari ham asosan Movarounnahr va Hurosondan yetishib chiqqan edilar.

Hadislar “Musnad”, “Sahiyh”, “Sunan” kabi yo’nalishlarga bo’linib, “Musnad” yo’nalishidagi hadislarda turli mavzulardagi hadislar bir joyda keltirilib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtiga ko’ra yoki alifbo tartibida joylashtirilgan edi. “Sahiyh” yo’nalishidagi hadislar to’plamiga buyuk muhaddis Imom Ismoil al-Buxoriy asos solgan bo’lib, bu yo’nalishda ta’rif etilgan to’plamlarga faqat to’g’ri, ishonarli hadislar kiritilgan. “Sunan” yo’nalishidagi to’plamlarda to’g’ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda “zaif” hadislar ham keltirilgan. Buyuk muhaddis Imom Buxoriy yigirmadan ortiq asarlar yozib, ularning ichida “Al-Adab al-Mufrad”, “At-Ta’rix as-Sag’ir”, “At-Ta’rix al-Kabiyir”, “Kitob al-Ilal”, “Asomi us-Sahoba”, “Kitob al-Kuna”, “Al-Jomi’ as-sahiyh” (“Ishonarli to’plam”) kabi asarlari eng mashhurlaridir. Imom Ismoil Buxoriyning “Al-Jomi’ as-sahiyh” (“Ishonarli to’plam”) asari to’rt jilddan iborat bo’lib, islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadislar to’plamlari orasida eng ishonarlisi va mukammali bo’lib, unda payg’ambar sunnatlari, hadislardan tashqari fiqh, islom marosimchiligi, axloq-odob, ta’lim-tarbiya hamda o’sha davr tarixi va etnografiyasiga oid qimmatli fikr va xulosalar ham bor. Ulug’ muhaddis olim at-Termiziyning esa o’ndan ortiq asarlari bo’lib, “Al Jomi’ as-sahiyh” (“Ishonchli to’plam”), “Ash-Shamoyil an-nabaviya” (“Payg’ambarning alohida fazilatlarini”) va boshqalar shular jumlasidandir.

IX-XIII asrlarda Markaziy Osiyo davlatlarida tasavvuf – so’fiylik ta’limoti rivojlandi. Tasavvuf ta’limoti, so’fiylik islomdagi falsafiy diniy oqim bo’lib, insonning ma’naviy-ruhiy poklanishini o’zida ifodalaydi. So’fiylar shariat qoidalarini o’rganib, tariqat orqali ma’rifat va haqiqatga yetishishga intilishadi. Tasavvuf ilmida komil insonni ruhan shakllantirish, kamolotga yetkazish masalasi bosh masala bo’lib hisoblanadi. Insonning ruhini tarbiyalash, parvarish etish orqali uni go’zal xulq-atvorli, fazilatli qilib yetishtirish masalasiga e’tibor qaratiladi. Tasavvuf futuvvat bilan bevosita bog’liq bo’lib, futuvvat tasavvufning bosqichlaridan birini tashkil etadigan tariqatning bir bo’lagidir. Tasavvuf singari futuvvat ham inson axloqini poklash, mehr-shafqat, himmat va mardlik ko’rsatishni talab qiladi. Hamma vaqt xalq xizmatida bo’lish, barchaga muruvvat ko’rsatish, evaziga hech narsa talab qilmaslik, xalqqa, beva bechoralarga shafqat, muruvvat ko’rsatish, kishilar gunohidan kechish, qanchalik katta, ulug’ ish qilgan

bo'lishiga qaramasdan hech qachon g'ururlanib ketmaslik tasavvufning ham, futuvvatning ham g'oyalari bo'lib hisoblanadi. Iymon e'tiqod, aql, ilm, parhez, muruvvat, shafqat, shijoat, hayr-ehson, vafo, sabr-toqat, nafsni tiyish, olihimmatlik, sirni bekitish, rahmdillik, ota-ona hurmatini bajo keltirish, ustoz xizmatida bo'lish, hamsoya haqini ado etish va boshqa shunga o'xshash xolatlar tasavvufning ham, futuvvatning ham talablaridir. Tasavvuf ta'limoti odamlarni iymon-e'tiqodga, axloq, diyonat, madaniyat, ma'rifat, ma'naviyatli bo'lishga chorlaydi, mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga da'vat etadi. Tasavvufning oqimlari va asosiy yo'nalishlari nihoyatda ko'p va xilma-xil bo'lib, Markaziy Osiyo hududida tasavvufning bir necha buyuk tariqati – ta'limotlari vujudga kelgan. Bular XII asrda Turkistonda vujudga kelgan Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda vujudga kelgan Kubroviya va XIV asrda Buxoroda yuzaga kelgan Naqshbandiya tariqatlaridir. Tasavvuf ilmining buyuk namoyondasi, Sharq tasavvufida munosib o'ringa ega bo'lgan “Yassaviya” tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviy mashhur mutasavvuf Yusuf Hamadoniyning ta'lim-tarbiyasi bilan voyaga yetib orif maqomiga erishadi. Ahmad Yassaviy o'zining juda chuqur va boy mazmunga ega bo'lgan “Devoni hikmat” asarida so'fiylik falsafiy dunyoqarashini bayon qiladi. Uning fikriga ko'ra “Haqning so'zini emas, o'zini bilish” asosiy masaladir. Shuning uchun u bu dunyo rohatini qidiradigan so'fiy – so'fiy emas, toat-ibodat qilib, halollik va poklikni targ'ib etib, xalq tashvishi bilan yashagan insongina haqiqiy so'fiydir, deb hisoblaydi. “Devoni hikmat” asarining boshdan oxiriga qadar ulug'vor insoniy fazilatlar, oddiylik, kamtarinlik, mehr-muhabbat, ishq, sadoqat, haqiqat, adolat, hurfikrlilik, insonni insondan ayirmaslik kabi masalalar falsafiy nuqtai nazardan tashviqot qilinadi. Va aksincha, yomonlik, nodonlik, johillik, adolatsizlik, haqsizlik, saxovatsizlik, molparastlik kabi illatlar tanqid qilinadi. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar insof, diyonatga chaqiriladi. Yassaviya tariqatining birinchi va asosiy fazilati uning xalqchilligidir. Unda ham Ollah, ham inson madh etiladi. Ahmad Yassaviy o'zining “Hikmat”larida insonni qadrlaydi, uni adolatsizlikdan, zulmdan himoya etishga chaqiradi. Ahmad Yassaviy inson o'zining azaliy pokligini saqlashi uchun bu dunyodan yuz o'girishi, umrini odamlardan uzoqda, yolg'izlikda, uzlatda toat-ibodat bilan o'tkazishi lozim deb hisoblaydi. Agar odam jonini qiynab bo'lsa-da,



ibodat qilsa, nafsini o'ldirib qanoat qilishga odatlansa, xo'rlash va malomatlarga bardosh bersa, o'shanda xudoning diydoriga yetadi, deydi. Yassaviya tariqatining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Abdulxoliq G'ijduvoni bo'lib, u ustoz Xoja Yusuf Hamadoni va birgalikda ta'lim olgan zamondoshi shayx Ahmad Yassaviyning ishini davom ettiribgina qolmay, ular yaratgan tariqatni mustaqil, yangi yuqori bosqichga ko'tardi. Abdulholiq G'ijduvoni o'zining "Vasiyatnoma" asarida jamoatga mulozim bo'lish, jamiyatga xizmat etishni Olohga yaqinlashishning muhim yo'li deb hisoblaydi hamda odamlarni halol mehnat qilish va halol yashashga da'vat etadi.

Tasavvuf ta'limoti va falsafasining yirik vakillaridan biri Xorazmlik Najmiddin Kubrodir. Tasavvufdagi Kubroviya tariqati u tomonidan asoslab berilgan. Shayx Najmiddin Kubro o'z davrining yirik olimlaridan bo'lib, u o'nga yaqin asarlar yozgan. "Favoix al-jamol va favotix al-jalol" ("Jamolining muattarlari va kamolotning egalari"), "Al usul al-ashara" ("O'nta qonun va qoidalar"), "Risolatut turuq" singari asar va risolalar uning qalamiga mansub bo'lib, o'z asarlarida Najmiddin Kubro Kubroviya tariqatini asoslab beradi. Shayx Najmiddin Kubroga "Ash-Shayx-i vali-tarosh" va "Tammam-ul-Kubro" ("Avliyolar taroshlovchi, ya'ni tayyorlab chiqaruvchi Shayx" va "Eng buyuk xotima") faxrli unvonlari berilgan. Kubroviya tariqatida diniylik bilan dunyoviylik chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, unda kishilarning diniy e'tiqodi, xudoga bo'lgan ishonchi, halollik, odamiylik, molu dunyoga hirs qo'ymaslik, o'z nojo'ya ishlaridan tavba qilish, hirsu havolardan saqlanish kabi axloqiy g'oyaviy talablar bir-biri bilan bog'lanib ketgandir. Kubroviya tariqatining bir qator axloqiy qoidalari bugungi kunda ham katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Najmiddin Kubro ta'limoti asosida shakllangan kubroviya tariqati Sharq va G'arbdagi ko'plab mamlakatlarga tarqalgan bo'lib, buning natijasida Firdavsiya tariqati, Nuriya tariqati, Rukniya tariqati, Hamadoniya tariqati, Nurbaxshiya tariqati, Nematulloiya tariqati singari yo'nalishlar yuzaga kelgandir. Najmiddin Kubro Xorazmda xonaqo qurib tasavvuf ilmi bobida juda ko'p sadoqatli va nomdor shogirdlar tayyorlagan. Tasavvuf ta'limotining asosiy talabi insonni foniy dunyodan uzilib, toat-ibodatlar vositasida insonning ruhini poklab uni boqiy dunyoga tayyorlashdan iborat bo'lsa, Kubroviya tariqati insonni bu dunyo bilan ham bog'lab, uni Vatanni sevishga, Vatan uchun

jon fido qilishga tayyor bo'lishga ham chaqiradi. Najmiddin Kubroning vatanparvarlik, xalqparvarlik haqidagi ta'limoti uning shaxsiy hayotida o'zining to'la tasdig'ini topib, yoshi yetmish oltiga chiqqan bo'lishiga qaramay Najmiddin Kubro Xorazm himoyasi uchun mo'g'ullarga qarshi jangga kirib shahid bo'ladi. Mo'g'ullar Najmiddin Kubroning nomi ulug'ligi, obro'si balandligini hisobga olib unga ozod bo'lishi, omon qolishi mumkinligi, buning uchun qamal qilingan qal'adan chiqib ketishi kifoya ekanligini bildirishadi. Ammo Najmiddin Kubro bunday jon saqlagandan ko'ra, o'z xalqi bilan yurt himoyasi yo'lida jon berishni afzal ko'radi.

Abduxoliq G'ijduvoni tomonidan asos solingan xojagoniy tariqati Bahouddin Naqshband tomonidan ancha to'ldirildi, takomillashtirildi va tugal ta'limot shakliga keltirildi. Yassaviya tariqati islomiy turk mamlakatlari aholisi o'rtasida keng tarqalgan bo'lsa, kubroviya va naqshbandiya nafaqat turkiy xalqlar o'rtasida, balki butun islom dunyosiga tarqalib, bu yerlarda yashaydigan xalqlarning ma'naviyatiga, dunyoqarashiga, iymon-e'tiqodiga, turmush tarziga ta'sir ko'rsatib, eng faol va mashhur tariqatlarga aylandi. Bahouddin Naqshbandning hayot tarzi, dunyoqarashi va tasavvufdagi o'rni, naqshbandiylik tariqatining xalqimiz, millatimiz tarixiy taraqqiyotida o'ynagan roli juda katta ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy ahamiyatga egadir. Bahovuddin Naqshband dunyoqarashi, tariqatining asosiy g'oyasi – diniy va umuminsoniy qadriyatlarni ustuvor sanash, ularga rioya qilish, hayotda insonning baxt-saodatini, ya'ni haqiqiy insonparvarlikni qaror toptirishdan iboratdir. Naqshbandiylik ta'limotining mohiyati “Dil ba yoru dast ba kor” shiorida o'z ifodasini topgan bo'lib, inson bu dunyoga kelar ekan, uning qalbi doimo Oллоhda, qo'li esa mehnatda bo'lmog'i lozim. Bahovuddin Naqshband tasavvufning barcha tariqatlari singari shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlarini e'tirof etadi. Naqshbandiya ta'limotining asosida ixtiyoriy faqirlik g'oyasi yotib, bu ta'limotning peshvolari ortiqcha dabdaba, isrofgarchilikni qoralab, odamlarni o'z mehnati bilan kun ko'rishga, beva-bechora muhtojlarga yordam berishga, boylikka ruju qo'ymaslikka da'vat etganlar. Har bir insonning muayyan bir hunarni egallashi va uning orqasidan halol mehnat bilan kun ko'rishini Naqshbandiya ta'limotining asosiy shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bahouddin Naqshband shaxs, oila va jamiyat ravnaqi uchun

“Kam yegil, kam uxla va kam gapir”, deb ta’kidlaydi. Davlat rahbarlariga esa “Zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan!” deb nasihat qiladi. Sohibqiron Amir Temur o’zining yirik saltanatini barpo qilganidan so’ng doimo Bahovuddin Naqshbandning tariqatiga amal qilib kelgan. Bahovuddin Naqshbandiyga Alisher Navoiy ham juda katta ixlos bilan munosabatda bo’lib, Naqshbandiylik ta’limotisiz Alisher Navoiy ijodini tasavvur etish mumkin emas. Naqshbandiya ta’limoti Navoiy ijodining g’oyaviy asosini – mafkurasini tashkil etadi. Alisher Navoiy ijodidagi komil insonning timsoli naqshbandiya tariqatida ishlab chiqilgan, targ’ib qilingan yo’l-yo’riqlar, shioru qoidalar, aqidalar, insoniy timsollar asosida dalillanadi hamda yoritiladi.

Xalqimiz, millatimizning milliy-madaniy o’zligini anglashida, ijtimoiy-milliy bir butunligini tiklashda, mustaqilligimizni mustahkamlashda, tarixiy ma’naviy merosimiz asosida milliy g’urur va iftixor tuyg’ularini yuksaltirishda, barkamol insonni tarbiyalash sohasida olib borilayotgan ishlarimizda tasavvuf ta’limotining ham, Naqshbandiya tariqatining ham o’ziga xos tutgan o’rni hamda ahamiyati bor.

## **2.8. Ma’rifatparvarlik g’oyalari va ularning o’ziga xos xususiyatlari.**

Ma’rifatparvarlik madaniyat va ma’naviyat sohasidagi oqim bo’lib, uning negizini fan, bilim imkoniyatlariga katta ishonch tashkil qiladi. Ma’rifatparvarlar bilimlar yordamida jamiyat hayotidagi nomutanosibliklar va kamchiliklarni bartaraf qilish mumkinligiga ishonganlar. Ilm-fanni egallash va targ’ib qilish insoniyat tarixida ancha ilgari boshlangan bo’lsada, ma’rifatparvarlik oqim sifatida G’arbda 17 asr oxiri – 18 asr boshlarida, Sharqda esa 19 asrning oxiri – 20 asr boshlarida vujudga keldi. G’arb ma’rifatparvarligining Volter, Monteskye, Kondilyak, Lametri, Golbax, Didro, Gelvesiy, Mabli, Morelli, Kondorse ilm-fanga, ta’limga katta e’tibor qaratdilar. Ular diniy aqidaparastlikni tanqid qilish bilan cheklanmay balki unga qarshi kurash olib bordilar. Natijada G’arb ma’rifatparvarligi dahriylik xususiyatini kasb etib, bu uning asosiy belgilaridan biriga aylandi.

Sharq ma'rifatparvarligi dinga emas, diniy aqidaparastlikka qarshi bo'ldi. Sharqdagi ma'rifatparvarlikning yirik namoyondalari Ismoilbek G'asprinskiy, Zakiy Validiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabilar diniy aqidaparastlikka mo'tadil dindorlik mavqeidan turib kurash olib bordilar. Sharq, xususan, Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlari G'arbdagi kabi keskin siyosiy talablarni ilgari surishmadi. Ular jamiyatni savodli qilish orqali adolatli va farovon turmushga erishmoqchi bo'ldilar. G'arbda ma'rifatparvarlar ko'proq tabiiy fanlarga murojaat qilishdi. Ularning ko'pchiligi tabiatshunos olim bo'lib, tabiatshunoslik fanlari rivojiga katta hissalarini qo'shishdi. Sharqda ma'rifatparvarlar faqat tabiiy fanlarga emas, balki umuman ilm-fanga, sog'lom fikrga, mantiqqa murojaat qilishdi. Ular xalqni farovonlikka, ro'shnolikka chiqarishning asosiy yo'li uni savodli qilish, davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish, adolatni ta'minlash, ortiqcha sarf-xarajatlar talab qiladigan marosimlarni cheklash kabi talablarni ilgari surishdi. Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlari diniy aqidaparastlikka qarshi kurashda faqat dunyoviy fanlardan emas, Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislaridan ham foydalanishdi. Ularning ko'pchiligi muayyan diniy bilimlarga ega bo'lib, jadid ma'rifatparvarlardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy diniy ilmlarni chuqur egallagan ulamo bo'lgan. Ma'rifatparvarlar jamiyatni rivojlantirishga yaxshilikni, adolatni, bilimlarni targ'ib qilish yo'li bilan erishmoqchi bo'lganlar. Xalqimizning tub manfaatlarini, ozodlik, mustaqillikka bo'lgan intilishlari, orzu-niyatlarini o'zida aks ettirgan yangi ijtimoiy-falsafiy tafakkur – ma'rifatparvarlik Turkistonda XIX asrning oxirlaridan boshlab paydo bo'la boshladi. Tariximizda ma'rifatparvarlik davri deb atalgan davr uchun umumiy bo'lgan tomonlar mavjud bo'lib, mamlakatni taraqqiy etgan, zamonaviy, ma'rifiy, Ozod, Hur va Mustaqil bo'lishi uchun kurash xalqimizning asl farzandlari, adiblari, ilm-fan va madaniyat arboblari uchun asosiy maqsad bo'lib hisoblangan. Ma'rifatparvarlar xalqni ilmli, madaniyatli qilish, milliy ongi va g'ururini o'stirish asosida el-yurtni yakdil, yaktan qilib birlashtirish, odamlar ko'zini g'aflat uyqusidan ochish yo'li bilan Vatanimiz mustaqilligini, millatimiz erkinligi va ozodligini ta'minlashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar.

Ma'rifatparvarlar o'z davrining jasur, xalqparvar, millatparvar, vatanparvar kishilari bo'lib, elim deb, yurtim deb yashashni o'zlari uchun yuksak maqsad deb bilganlar. Ma'rifatparvarlar yuksak saviyali ilmiy-falsafiy, badiiy, tarixiy asarlar yozdilar. Ulardan bizlarga badiiy, falsafiy asarlar, hikoyalar, odob-axloq majmualari, ruboiylar, nazmiy va nasriy asarlar, dostonlar, maktublar yetib kelgan bo'lib, bu ma'naviy merosda xalqimizning orzu-armonlari, maqsad va muddaolari, dardu xasratlari har tomonlama bayon qilib berilgan. Ma'rifatparvarlik harakatining o'zi ikki bosqichga bo'linib, birinchi bosqichda xonliklar davridagi iqtisodiy, siyosiy qoloqlikka qarshi kurash, zamonaviy davlat boshqaruvini joriy etish, ilm-fanni, maorifni rivojlantirish asosida jamiyatni yuksaltirishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, ma'rifatparvarlikning ikkinchi bosqichi bu jadidlar harakatidir. Jadidlar birinchi navbatda chor mustamlakachiligiga, siyosiy qaramlikka, iqtisodiy qoloqlikka qarshi kurashib, maktab, maorifni yuksaltirish asosida ozodlikka, mustaqillikka chiqishni, zamonaviy rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarilishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar.

Ma'rifatparvarlik mafkurasining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Ahmad Donish (1827-1897) bo'lib, u falsafa, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, tarix sohasida asarlar yozgan. Ahmad Donish mamlakatni odilona boshqarish uchun islohot o'tkazish zarur deb hisoblaydi. Ahmad Donishning fikricha, davlat xalqning manfaatini himoya qilishi, hukmdor esa bilimdon, aqlli bo'lib, o'z atrofidagilar bilan kengashib davlatni idora qilishi lozim. Ahmad Donish "Navodirul-vaqoye", "Risola dar ilmi kurra"("Globus haqida risola"), "Manozir al-kavokib" ("Yulduzlarni kuzatish"), "Tarixiy risola" kabi asarlarning muallifidir. Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy qarashlari "Navodirul-vaqoye" va "Tarixiy risola" kabi asarlarida bayon qilingan bo'lib, "Navodirul-vaqoye"da mamlakatni odilona boshqarishga taalluqli fikrlar, "Tarixiy risola" asarida Buxoro amirligidagi og'ir iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyat tahlil qilinib, jamiyatda o'tkazilishi zarur bo'lgan islohotlar ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Ma'rifatparvarlik harakatining yirik vakillaridan biri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1859-1909)dir. Furqat "Ilm xosiyati", "Akt majlisi

xususida”, “Toshkent shahrida bo’lg’on nag’ma bazmi xususida”, “Vistavka xususida”, “Shoir ahvoli va she’r mubolag’asi xususida” va boshqa ko’plab asarlarida ma’rifatparvarlik g’oyalarini ilgari suradi. Furqat jamiyatdagi salbiy illatlar va adolatsizliklarni bartaraf etishda ma’rifat, ilm-fan, ta’lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega ekanligiga o’z e’tiborini qaratib, uning “Ilm xosiyati”, “Vistavka xususida” kabi she’rlarida vatandoshlari zamonaviy bilimlar va taraqqiy etgan mamlakatlarning madaniyatini o’rganishga da’vat etiladi. Furqatning asarlarida ilgari surilgan ilg’or g’oyalar va fikrlar xilma-hil bo’lib, milliy g’oya va mafkuraga bevosita taalluqli bo’lgan Vatanni sevish, uning o’tmish tarixi va madaniyatini, tili, adabiyoti va san’atini hurmatlash, ularni katta hurmat va qiziqish bilan o’rganish haqida aytilgan fikrlar bugungi kunda ham o’z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Zokirjon Xolmuhammad o’g’li Furqat o’zining asarlari va she’rlarida zulmatning o’rniga nurni, jaholatga qarshi ma’rifatni, bid’atga qarshi ilm-fan, aql-idrok va tafakkurni madh etdi. Furqat odamlarni eskilik botqog’idan chiqishga, ilm-fan va texnikadagi yangiliklardan doimiy ravishda xabardor bo’lishga, buning uchun ilmni sevishga, bir emas, bir nechalab xorijiy tillar va madaniyatlarni o’rganishga chaqiradi. Furqatning “Ilm xosiyati”, “Gimnaziya”, “Vistavka”, “Nag’ma”, “Shoir ahvoli va she’r mubolag’asi xususida” singari she’rlarida ilmu-fan, texnikani, har xil hunarlarni, ixtirolarni, musiqa ilmini, chet tillarni, arab, yunon, rus, fransuz xalqlari adabiyoti, san’ati va madaniyatini bilib olishga chaqiradi. Furqat barcha ijobiy va foydali ilmlarni o’qib-o’rganishni o’z xalqiga tavsiya qiladi.

Ma’rifatparvarlik davrining yirik vakillaridan biri Muhammad Amin Mirzaxo’ja o’g’li Muqimiy (1850-1903) o’z dunyoqarashida erkin jamiyat, insof va adolat, insoniylik, iymon-e’tiqod, erk, barkamol inson haqida fikr yuritib, adolatsizlik, zo’ravonlikka asoslangan jamiyatni qoraladi. Muqimiyning “Veksel”, “Urug’”, “Asrorqul”, “Dodxohim”. “To’y”, “Tanobchilar”, “Moskovchi boy” kabi hajviy asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik haqqoniy ravishda tasvirlanadi. Muqimiyning asarlari, uning lirikasi nihoyatda chuqur ijtimoiy ma’noga egadir. Muqimiy o’z asarlarida hayotda ro’y bergan voqea-hodisalarni, jamiyatdagi kamchiliklarni ochib tashlaydi, kelajakka umid bilan qaraydi.

Ubaydullo Solih o'g'li Zavqiy (1853-1921) o'zining ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan o'zbek xalqi madaniyati, tarixi, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy tafakkuri rivojida alohida o'rin tutadi. Zavqiy asarlari, hajviy she'rlarida kelajakdan umidvorlik, isyonkorlik ruhi bo'rtib turadi. Vatanga, xalqqa muhabbat va xalq dardi, otashin vatanparvarlik va xalqparvarlik Zavqiy ijodidagi markaziy masalalardan biridir. "Kajdor zamonda", "Qarz", "Quloq soling yoronlar", "Pashshalar" va shu kabi asarlarida Zavqiy mehnatkash ommaning og'ir hayotini mohirlik bilan tasvirlaydi.

Avaz O'tar (1884-1919) Xivada tavallud topib, o'z davridagi ma'rifatparvar shoir sifatida shakllandi. Avaz O'tarning "Xalq", "Ulamolarga", "Sipohiyarga", "Harb vahshiylari", "Maktab", "Til", "Hurriyat", "Fidoyi xalqim", "Topar ekan qachon" kabi she'riy asarlarida uning ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik va demokratik g'oyalari juda mohirona ifodalangan. Avaz O'tar jamiyat ravnaqi, xalqning bilimli, ma'rifatli va madaniyatli bo'lishida o'z ona tilidan tashqari boshqa tillarni ham bilish lozim va zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Avaz O'tar "Maktab" nomli she'rida maktab ochish orqali xalqqa bilim – ma'rifat berish ishiga har bir inson qo'lidan kelgan himmatini ayamassligi kerak, deb hisoblaydi. Avaz O'tar ma'rifatparvar, millatparvar adib sifatida xalq ommasining baxtiyor kunlarga yetishiga, Vatanimizda Hurriyat, Ozodlik, Erk quyoshi barq urishiga astoydil ishonadi.

Turkistonda ma'rifatchilik harakatining avj olishi jadidchilik g'oyalarining vujudga kelishida muhim o'rin egalladi. Jadidchilik harakatining yirik namoyondalari Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib bordilar. Jadidchilik harakatining muhim hususiyati uning milliy ozodlik harakati va Turkistonda milliy burjuaziyaning vujudga kelishi bilan bog'liqligi edi.

Turkiston xalqlarining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy va madaniy taraqqiyotida XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning birinchi choragidagi davr o'zining sermazmunlilik, inqilobiy suronlilik, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Bu davrda Turkiston

xalqlari Chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, milliy davlatchiligini qurish, o'z milliy davlatchilik taraqqiyotiga yo'l ochishga qat'iy kirishgandilar. Bu jarayonlarning yetakchi kuchi – milliy savdo va sanoat burjuaziyasi hisoblanib, milliy burjuaziya xalqimizning tub iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qiladigan nazariy asos – jadidlar ma'rifatchiligini shakllantirib, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlamogda edi. Turkistonda milliy-ozodlik harakati, uning ma'rifatchilik mafkurasi – jadidchilik harakatidan iborat bo'ldi. Jadidchilik ma'rifatchiligi va mafkurasi Turkistondagi ma'rifatchilik harakati, Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar va boshqalarning demokratik va milliy-vatanparvarlik g'oyalariga tayangan holatda o'z qarashlarini ilgari surib, ma'rifatchilikni milliy uyg'onishga yo'naltirilgan umummilliy mafkura darajasiga ko'tardilar. Jadidlar tomonidan asoslab berilgan g'oyaviy maqsadlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Mulla Qilich, Shakuriy, Munzim, Ibrat, So'fizoda, Tavallo, Ajziy va boshqalarning ta'limotida umummilliy manfaatlarni ifoda etuvchi mafkura darajasiga ko'tarildi. Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati va uning g'oyaviy merosida mustaqillik, milliy-vatanparvarlik g'oyalari umumbashariy demokratik qadriyatlar bilan uyg'un holatda ilgari surilgan edi. Jadid ma'rifatchiligining falsafiy-nazariy zaminlari an'anaviy islom, shariat va tasavvufdan tortib, fan taraqqiyoti, davlatchilikdagi ijobiy yutuqlarga, umuminsoniy madaniy qadriyatlarga ham bevosita tayanar edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo'lib, yangi maktablar qurish, yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularni ilmli qilish, ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashga katta hissa qo'shgan fidoyi insondir. Behbudiy tomonidan jadid maktablari uchun “Risolayi asbobi savod”, “Risolayi jug'rofiyai umroniy”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Risolai jug'rofiyai rusiy” va boshqa darsliklar yozilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy “Padarkush” dramasini va boshqa ko'plab publisistik maqolalar yozgan. Bu maqolalarida u millat va Vatan taqdiri, mustaqillik g'oyasi, axloq va ta'lim-tarbiya masalalariga asosiy e'tiborini qaratgan. Behbudiy o'z davrining buyuk donishmandi bo'lib, u ilm-fan va madaniyatning hamma sohalari, ayniqsa, Sharq



falsafasi va Yevropa adabiyotidan chuqur bilim va ma'lumotga ega bo'lgan. Behbudiy o'zining nomi bilan atalgan "Behbudiy" deb nomlangan nashriyotni tashkil etib, unda o'zbek tilida darsliklar bosib chiqardi. Samarqandda mahalliy aholi uchun qiroatxona ochishga boshchilik qildi. "Samarqand", "Oyna" gazetalari Behbudiy rahbarligida chop etila boshlandi. Behbudiy o'z davrida mahalliy xalqdan birinchi bo'lib xarita tuzdi, o'z uyida kutubxona ochdi, tarixga, islom huquqiga oid asarlar, o'quv kitoblari yozdi. Behbudiy ayollarning ilm olish huquqini himoya qilib, ularni dunyoviy fanlarni o'rganishga undagan edi. Behbudiy Turkistonni Chor Rossiyasi mustamlakachiligi zulmidan qutqarish g'oyasini o'z asarlarida ilgari surib, xalqni milliy istiqlol uchun kurashga chaqirdi. Behbudiy Turkiston yoshlarini chet el dorilfununlariga yuborib o'qitib, millatning rivoji va istiqboli uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor qaratdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy asriy milliy urf-odatlarimiz, sharqona an'analarimiz, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga chaqirdi, odamlar o'rtasida muruvvat, saxovat, odamiylik singari xislatlarni kuchaytirish, mustamlakachilik yuzaga keltirgan salbiy illatlardan qutilish to'g'risidagi o'z mulohazalarini bayon qildi. Behbudiy odamlarni til o'rganishga da'vat etib, til bilishning, ayniqsa xorijiy tillarni o'rganib olishning shaxs ma'naviy kamoloti, millatning madaniy rivoji, ilm-fani taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berdi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek tilining davlat tili bo'lishi masalasini o'zi yashab turgan sharoitda birinchilardan bo'lib ko'targan edi.

Behbudiy tomonidan amalga oshirilgan barcha ishlar Vatan ravnaqi, millatning kelajagi, milliy istiqlol, Vatanning ozodligi va obodligi uchun amalga oshirilgan edi.

Jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniy (1878-1934) bo'lib, u pedagogik faoliyat va badiiy ijodni qo'shib olib bordi. Abdulla Avloniy "Ikkinchi muallim", "Birinchi muallim", "Alifbedan so'nggi o'quv kitobi" kabi darsliklarni yaratib, o'zi ochgan maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitish masalasiga asosiy e'tiborni qaratdi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" asari ta'lim jarayonida bolalar dunyoqarashi, milliy ongi va mafkurasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu asarda bolalarga ilm-fan

sirlarini o'rgatish, yaxshi xulq-odob qoidalarini singdirish, iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatni xom ashyo qaramligidan xalos etish, ma'rifat va ma'naviyatni yuksaltirish kabi masalalar bayon qilingan. Abdulla Avloniy o'zbek teatri va dramaturgiyasi rivojiga ham munosib hissa qo'shib, "Advokatlik osonmi", "Biz va Siz", Portugaliya inqilobi", "Ikki sevgi" kabi dramatik asarlar ham yozgan.

Jadidchilik harakatining yana bir atoqli vakili Abdurauf Fitrat (1884-1939) bo'lib, u ilmning ko'p sohalari bo'yicha ijod qilgan. Abdurauf Fitrat "Sayha" ("Bong"), "Hind sayyohining qissasi", "Chin sevis", "Hind istilochilari", "O'zbek tili grammatikasi", "Chig'atoy adabiyoti", "Uchqun" to'plami kabi ko'plab asarlarning muallifi bo'lib, Fitratning asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm ma'rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning milliy o'zligini anglashi, milliy ongining o'sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo'lib tijorat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o'rganish kabi g'oyalar ilgari suriladi. Fitrat tarixiy ma'naviy merosga ham e'tiborini qaratib, tasavvuf ta'limotining mohiyati, yassaviylik, naqshbandiylik va kubraviylik ta'limotlari to'g'risida bir qator ilmiy maqolalar e'lon qildi. Fitrat adabiyotshunoslikda Alisher Navoiy ijodini o'rgandi, musiqa sohasida "Shashmaqom"ni notaga tushirish ishiga rahbarlik qildi. Fitratning millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari hozir ham tadbirkorlik, ma'naviyat va ma'rifatni ravnaq toptirishda, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda, xalqning milliy o'zligini anglashida ham muhim ahamiyatga egadir. Abdurauf Fitrat favqulodda qobiliyat va iste'dodga ega bo'lgan shaxs bo'lib, uning ma'naviy merosi g'oyatda boy, xilma-xil va chuqur ma'nolidir. Fitratning "Bizda sharq siyosati", "O'zbek klassik musiqasi", "Turkistonda ruslar", "Hind ixtilofchilari", "Abulfayzxon", "O'g'izxon", "Arslon", "Sayxa", "Qiyomat", "Chin sevis", "Aruz haqida", "Adabiyot qoidalari" degan yirik qimmatli asarlari, dramalari, she'riy risolalari xalqimizning bebaho ma'naviy merosidir. Vatanni ozod, obod va erkin, xalqni har qanday istibdod kishanlaridan xoli ko'rish orzusi Fitratning barcha asarlarida ustuvorlik qiladi.

Jadidchilik harakati vakillaridan yana biri, o'z jonini, aqlu zakovati, iste'dodini Vatanimiz erkinligi va mustaqilligi, xalqimizning baxt-saodati yo'lida fido qilgan ulug' zotlardan yana biri – Abdulhamid Cho'lpon (1897-1937) dir.

Cho'lpon Sharq falsafasi, Sharq adabiyoti, Yevropa ilm-fani, madaniyati, adabiyoti va san'ati sohasida chuqur bilimga ega bo'lgan inson bo'lib, u ko'plab roman va dramatik asarlar, qator risolalar, esdalik va xotiralar, adabiy va tanqidiy san'atga oid ilmiy-nazariy maqolalar, ko'plab hikoyalar, she'rlar va bir qancha tarjimalarning muallifidir. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani, "Yorqinoy" dramatik asari, "Adabiyot nadur?", "Mirzo Ulug'bek", "Tilimizning yangilanishi" nomli maqolalari, "Sharq nuri", "Sharq qizi", "O'zbekim", "Turkistonlik qardoshlarimizga", "Odam va qush", "Xalq", "Buzilgan o'lkaga", "Qilich va qon", "Kishan", "Erkinlik istagi", "Yana o't" nomli she'rlari muallifning xalqimizga qoldirgan ma'naviy merosidir. Cho'lpon ijodida milliy uyg'onish, milliy mustaqillik, erkinlik g'oyalari asosiy o'rin egallaydi. Cho'lpon o'z asarlarida millatni yuksaltirish, xalqni o'zini-o'zi tanigan, o'zaro birlashgan, milliy hamjihatlikka erishgan, iftixor tuyg'usiga ega bo'lgan, o'z yurtining otashin vatanparvariga aylangan bo'lishi zarurligi masalasiga asosiy e'tiborini qaratadi. Turkistonning erkinligi, mustaqilligi g'oyasi Cho'lpon ijodidagi asosiy masalalardan biridir. Cho'lpon o'z xalqi kuch-qudrati va imkoniyatiga astoydil ishongan, xalqining buyuk aql-idroki va tafakkuriga ixlos bilan qaragan adibdir. U Vatan mustaqilligini ta'minlab, milliy istiqbol va istiqbol yo'lini ochadigan hal qiluvchi kuch xalq ommasi ekanligiga ishonadi. Uning xalqparvar adib va yetuk faylasuf olimligi uning "Xalq" deb atalgan faylasufona she'rida yaqqol ko'zga tashlanadi. Cho'lpon she'riyatida hur yashash, mustaqillikda hayot kechirish haqidagi falsafiy g'oyalar yetakchi o'rin egallaydi. Abdulhamid Cho'lponning "Biz bilgan o'lkaga" she'riy dostoni o'zining mazmun-mohiyati, falsafiy g'oyalarga boyligi va xalqni milliy istiqbolga da'vat etganligi bilan ajralib turadi. Dostonning har bir satri va jumlasini xalqni oyoqqa turg'azishga qaratilgandir. Abdulhamid Cho'lponning bebaho asarlari, nazmiy va nasriy merosi, ijtimoiy-falsafiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlari va ongini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda.

Turkistondagi jadidchilik harakatining rahnamolari Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lpon kabi siymolar "millat", "millatlar" tushunchalarini ilgari surdilar, milliy davlatchilik, iqtisod, pul, milliy til, madaniyat va an'anani

rivojlantirish kabi Turkiston milliy mustaqillik mafkurasining ustuvor g'oya va qadriyatlarini ishlab chiqdilar.

## **2.9. Mustamlakachilik mafkurasi va uning xalqimiz xayotidagi salbiy oqibatlari**

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda buyuk davlatlar maqomiga ega bo'lgan ayrim mamlakatlar ko'pgina hududlarni o'zlarining "hayotiy manfaatlari" hududi sifatida bosib olib uzoq vaqt davomida mustamlakachilik siyosati yuritganini ko'rishimiz mumkin. Mustamlakachi davlat o'zining siyosiy, iqtisodiy, harbiy ustunligidan foydalanib, bosib olingan hududlarni siyosiy va iqtisodiy qaram holatda saqlagan, koloniya metropoliya uchun arzon hom-ashyo va mahsulotlarni sotish uchun bozor vazifasini o'tagan. Bosib olingan hududlarning tabiiy xom ashyo resurslaridan foydalanish, bu mamlakatlarning moddiy va ma'naviy boyliklarini o'zlashtirish mustamlakachi davlatlarga ulkan va qudratli davlatga aylanish imkoniyatini yaratdi. Buning natijasida bu davlatlar dunyodagi boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarida o'zini boshqalardan ustun hamda yuksak mavqega ega deb hisoblay boshlaydilar. O'zini boshqalardan ustun, tanho va yagona deb bilish, insoniyat taqdiri, xalqlar kelajagini belgilashda o'zida alohida mavqening mavjudligiga ishonch buyuk davlatchilik g'oyasi va mafkurasining paydo bo'lishiga olib keldi. Insoniyat buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab to XX asrning o'rtalariga qadar mustamlakachilik g'oyasi va mafkurasi mavjud bo'lishi va amal qilishi sharoitida yashadi. Bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyotga buyuk davlatchilik shovinizmi deyiladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olib bu yerda mustamlakachilik tartibini o'rnatdi. XX asrning boshi, 1917 yildan boshlab Markaziy Osiyo hududida yagona mafkuraga asoslangan totalitar tuzum o'rnatildi. Tarixchilar Turkistonda Chor Rossiyasi hukmronligini "Oq imperiya" davri, 1917 yildan 1991 yilgacha bo'lgan davrni "Qizil imperiya" davri deb davrlashtirmoqdalar. Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olganidan so'ng milliy davlatchilik – xonliklar yo tugatildi, yo qaram holatga

keltirildi. Zo'rlikka asoslangan harbiy boshqaruv joriy etildi. Mahalliy aholiga nisbatan, ular qonunni, huquqni bilmaydi, ularni faqat zo'rlik bilan boshqarish mumkin, deb kamsituvchi siyosat olib borildi. Moddiy va ma'naviy boyliklar vahshiyona tashib ketildi. Mahalliy aholining o'z haq-huquqini talab qilib chiqqan norozilik chiqishlari vahshiyona bostirildi. Tarixiy moddiy va ma'naviy meros bosqichma-bosqich yo'qotib borilib, xalq o'z tarixidan begonalashtirildi. Davlat miqyosida ruslashtirish siyosati olib borilib, milliy til, madaniyat, din va e'tiqodga juda katta zarba berildi. Bularning hammasi mustamlakachilik mafkurasi, buyuk davlatchilik shovinizmi asosida amalga oshirildi. Mahalliy aholiga nisbatan past nazar bilan munosabatda bo'lindi. Siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohada kamsitish siyosati olib borildi. Sobiq Sovet davri, Qizil imperiya davrida yagona davlatning hukmron mafkurasi – marksizm-leninizm qaror toptirildi. Marksizm-leninizm jamiyatdagi eng inqilobiy sinf – ishchilar sinfi, proletariatning mafkurasi deb e'lon qilindi. Bu mafkura o'z oldiga odamlar teng, baxtli, farovon yashaydigan jamiyat qurishni maqsad qilib qo'yganligini e'lon qildi. Jamiyatdagi ijtimoiy tenglikning asosi odamlarning mulkdan begonalashuvida deb e'lon qilinib, ijtimoiy umumxalq mulki sifatida davlatning mulkka nisbatan monopoliyasi vujudga keltirildi. Mulka nisbatan davlat monopoliyasining vujudga kelishi boshqaruvning markazlashuviga, totalitar tuzumning o'rnatilishiga olib keldi. Totalitar tuzumning o'rnatilishi shaxsga sig'inish mafkurasini keltirib chiqardi. Sobiq Sovet tuzumi davridagi mafkura insonga ishlab chiqaruvchi kuchlarning elementi sifatida munosabatda bo'lib, insonning erki, huquqi, manfaatini himoya qilish masalasiga e'tiborni qaratmadi. Mulkdan begonalashgan inson uchun mehnatni rag'batlantiruvchi omilning yo'qotilishi natijasida insonda tayyorga-ayyorlik psixologiyasi shakllandi. Ijtimoiy taqsimot masalasida sun'iy tenglashtirish siyosatining olib borilishi jamiyat hayotidagi turg'unlikni kuchaytirdi. Bu esa, pirovard natijada jamiyatda islohotlarni o'tkazib, bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo qilinishiga olib keldi. Islohotlar natijasida insonning erki, huquqi kafolatlandi. Mulk huquqi konstitusion asosga ega bo'ldi. Odamlarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati davlat tomonidan rag'batlantirildi.

Sobiq Sovet tuzumi davridagi kommunistik mafkura milliy tillar va madaniyatlarning bir-biriga yaqinlashishi hamda qoʻshilib ketishi toʻgʻrisidagi yondashuvni ilgari surishi natijasida milliy tillar va madaniyatlarning rivojlanishiga katta zarar yetkazildi. Sobiq Sovet davrida oʻzbek tilining amal qilish sohasi sunʼiy ravishda qisqartirildi. “Baynalmilallik” shiori asosida milliy til va madaniyatga chetdan yot til va madaniyatlarning unsurlari kiritildi. Bu esa milliy til va madaniyatning kambagʻallashuviga olib keldi. Oʻzbek tilidagi ayrim soʻzlar muomaladan chiqib ketdi. Milliy madaniyatdagi baʼzi urf-odat, anʼana va udumlar eskilik sarqiti sifatida taʼqiqlandi. Kommunistik mafkura dini inkor etish, dahriylik yoʻlidan bordi. Natijada diniy qadriyatlar, moddiy va maʼnaviy madaniyatga, inson maʼnaviyatiga juda katta zarar yetkazildi. Tarixiy-maʼnaviy merosdagi vorislik jarayonlariga eʼtibor qaratilmadi. Bu jarayonlarning barchasi Sobiq Sovet tuzumi davridagi kommunistik mafkura asosida amalga oshirildi. Kommunistik mafkuraning sinfiy yondashuv toʻgʻrisidagi asosiy tamoyili ishchilar sinfi va uning manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuchlarning manfaatlarini jamiyatdagi boshqa barcha qatlamlar va guruhlarning manfaatlaridan soʻzsiz ustun turishiga asoslangan edi. Bunday gʻoyaviy nuqtai nazar obʼyektiv ravishda umuminsoniy qadriyatlardan voz kechishga, milliy omilning, tarixiy rivojlanish qonunlarining alohida ahamiyatga ega ekanligini inkor qilishga olib kelardi. Kommunistik mafkura ishlab chiqilayotgan dastlabki paytlardayoq yalpi zoʻravonlik ishlatishning haqqoniyligi asoslab berilgan boʻlib, keyinchalik u koʻplab kishilar hayotining qurbon boʻlishiga sabab boʻldi. Proletariat diktaturasi bu zoʻrlikka asoslangan davlat boshqaruv shakli edi. Sinfiy kurash, mavjud tuzumni zoʻravonlik bilan agʻdarib tashlash gʻoyasi oʻzining butun mazmuni bilan demokratik fuqarolar jamiyati negizlari va normalarini inkor etib, yorqin istiqbolga emas, balki jinoiy tartiblar hukmron boʻlgan mustabid ijtimoiy tuzumning oʻrnatilishiga olib keldi. “Proletar inqilobi” gʻoyasi faqat xususiy mulkchilikka va boshqacha fikrlovchi har qanday kishiga qarshi qaratilib qolmasdan, shu bilan birga turar joyning daxlsizligiga, ayrim insonning ham, shuningdek, millat va xalqlarning ham oʻz yashash tarzini oʻzi erkin tanlash huquqiga qarshi qaratilgan edi. Sinfiy yondashuv, murakkab ijtimoiy muammolarni zoʻrlik inlatish bilan hal qilishga intilish qatagʻonlarning avj oldirilishiga sabab boʻldi. Sinfiylik abadiy

axloq qonunlarining, insoniy ideallarning, an'anaviy xalq qadriyatlarining g'ayriinsoniy sinfiy ustunlik, sinfiy hukmronlik to'g'risidagi qarashlar bilan almashtirilishiga olib keldi. Kommunistik mafkura asosidagi davlat boshqaruv tizimi muqarrar ravishda keng aholi ommasining haqiqiy hokimiyatdan ajralib qolishiga, partiya diktaturasining vujudga kelishiga, u orqali esa dohiylar diktaturasining paydo bo'lishiga imkon berdi. "Proletariat diktaturasi" nazariyasi shunday jamiyatni barpo etishni belgilab bergan ediki, unda inson shaxsi qadrlanmas, demokratik tartiblar emas, balki mustabid tuzum hukmron bo'lardi. Sobiq Sovet tuzumi va kommunistik mafkura o'rnatilishi bilan darhol xususiy mulkchilik ta'qib usullari bilan barham toptirila boshlandi, badavlat qatlamlar quvg'in qilindi, ko'p ukladlilik tugatilib, mafkuralashgan tanho iqtisodiyot jadal sur'atlar bilan shakllana boshladi. Bozordan tashqari negizga, yuqoridan bo'ladigan tekischilik taqsimoti tamoyiliga asoslanuvchi socialistik iqtisodiyot yuqori samaradorlikka olib boradigan vosita, raqobat kurashidan mahrum bo'ldi. Natijada, raqobatdan mahrum bo'lgan socialistik iqtisodiyot faoliyatsiz bo'lib qoldi, o'z mehnatining natijasidan manfaatdor emaslik jamiyat hayotining barcha sohalarida turg'unlik holatini keltirib chiqardi. Sobiq Sovet davlatining milliy siyosati esa asos e'tibori bilan rasman baynalmilalchilik mafkurasi deb atalgan mafkuraga, ya'ni kommunistik imperiyani qaror toptiruvchi mafkuraga tayandi. U proletariatning jahonshumul g'alabasi muqarrarligiga va millatlarning jadallik bilan qo'shilib ketishiga qat'iyon ishonishga asoslangan edi. Sobiq Sovet davlati ulkan kommunistik imperiya sifatida tashkil topdi. U kommunizm xomxayollari yo'lida millatlar va elatlarni ezish, ularni qiyofasiz yangi tuzilma bo'lgan sovet xalqiga sun'iy ravishda birlashtirish siyosatini o'tkazdi. Socialistik g'oya Turkiston o'lkasiga kirib kelganida u o'zining butun mazmuni bilan mahalliy aholining milliy tafakkuri va turmush tarziga butunlay begona edi. Sosializmning zo'ravonlik tabiati darhol namoyon bo'ldi. Xalqning milliy ozodlikka, milliy davlatchilikni tiklashga bo'lgan orzu-intilishlari, uning o'z tarixiy taqdirini o'zi hal qilish huquqi inkor qilindi. O'zbekistonda socialistik davlatchilik andozasi chor mustamlakachilik rejimi o'rniga zo'ravonlik usullari bilan joriy etildi. Yangi hokimiyat o'ziga xos mustaqil milliy rivojlanish imkoniyatlariga barcha usullar bilan to'sqinlik qildi, mahalliy aholini davlatni boshqarishga jalb etishga, siyosiy

mustaqillikni qo'lga kiritishga qarshilik ko'rsatdi. Marksizm mafkurasiga tayanuvchi kommunistik tuzum xalqni mustamlakachilik asoratida saqlash, keng xalq ommasining tub manfaatlarini inkor etuvchi mustabid jamiyatni qaror toptirishni mo'ljallagan edi. Markscha iqtisodiy andozaning joriy etilishi og'ir oqibatlariga sabab bo'ldi. Sosialistik iqtisodiyotga xos bo'lgan umumiy illatlardan tashqari, u O'zbekistonda xalq xo'jaligining mustamlakachilik yo'nalishini saqlab qolish bilan to'ldirildi. Markaz O'zbekistonning arzon xom ashyo manbalari va tabiiy boyliklaridan bemalol foydalanishni kafolatli ravishda ta'minlanishini istardi. Buning natijasida O'zbekiston butun sovet tarixi davomida "sosialistik baynalmilalchilik"ning mafkuraviy asoslanishi ta'siri ostida sobiq markazga doimo xom ashyo yetkazib beruvchilik vazifasini bajarib keldi. Uning iqtisodiyoti bir tomonlama – xom ashyo yo'nalishida bo'lib qoldi, sanoatni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratilmadi, xalqning turmush tarzi past darajadagicha qolib ketdi, xalqning ehtiyojlariga yetarli darajada e'tibor berilmadi. O'zbekistonda tabiiy xom ashyoni qazib olish va unga birlamchi ishlov berish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor berildi. Respublikada sanoatning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga ikkinchi darajadagi vazifa sifatida qaraldi. Bu esa aholining turmush darajasiga, farovonligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekiston sobiq markazning arzon xom ashyo yetkazib beruvchi qo'shimchasiga aylantirilib, bu yerda paxta yakka hokimligi vujudga keltirildi. Paxtaga ishlov berish uchun ximiyaviy moddalarning ko'p qo'llanilishi natijasida atrof tabiiy muhitga katta zarar yetkazildi. Ekologiyaning yomonlashishi odamlarning sog'ligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Paxta yakka xokimligi sharoitida hamma joyga paxta ekilishi natijasida meva-cheva, sabzavot yetishtirish qisqarib ketdi. Yaylovlarni buzib u yerlarga paxta ekilishi natijasida go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirish ham yildan-yilga qisqarib bordi. Bu esa albatta aholining sog'ligi darajasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Lekin shunga qaramay rasmiy mafkura aholini odamlar baxtli, farovon yashaydigan jamiyat qurishga da'vat etar va bu jamiyatni nazariy jihatdan asoslab berishga harakat qilar edi. O'zbekiston uzoq yillar davomida kommunistik metropoliyani paxta, qorako'l teri, xom ipak, tabiiy gaz, rangli va nodir metallar bilan, shu jumladan, oltin, mis, uran, qo'rg'oshin, ruh va boshqa



narsalar bilan ta'minlab keldi. O'zbekistondan olib chiqib ketilgan ulkan tabiiy resurslarning qiymati yuz milliardlab AQSh dollarini tashkil etgani holda, markaziy hukumat respublikaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga juda arzimagan qoldiq mablag'larni ajratardi. Sun'iy ravishda tashkil etilgan paxta yakkaxokimligi O'zbekistonning kambag'al respublika bo'lib qolishiga olib keldi, unga jiddiy ekologik xavf tug'dirdi, oziq-ovqat masalasida uni Markazga qaram bo'lgan tahqirlovchi ahvolga solib qo'ydi. Paxta yetishtirishning yildan-yilga ko'payib borishi, yangi yerlarning ko'p miqdorda o'zlashtirilishi natijasida Orol dengizi suvining haddan tashqari kamayishi sodir bo'lib, bu O'zbekistonni ekologik falokatlar zonasiga aylantirdi.

O'z tabiatiga ko'ra mustamlakachi tuzum bo'lgan sovet mustabid tizimi xalqni ma'naviy jihatdan bo'sundirishga, uni o'zining o'ziga xosligidan, ma'naviy-etnik ildizlaridan begonalashtirishga harakat qildi. Yuksak ma'naviyatga, insonparvarlik, mehr-muruvvat, milliy mustaqillik, milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga, diniy qarashlarga asoslangan o'zbek xalqining shonli tarixi kommunistik ta'limotning ilgari surgan fikr va g'oyalariga mos kelmay qoldi. Kommunistik mafkura o'ziga muqobil bo'lgan tafakkurning har qanday shakllarini asta-sekinlik bilan yo'q qilib borish siyosatini amalga oshirishga harakat qildi. Sobiq Sovet hukumati "madaniy siyosati"ning mafkuraviy asosini "madaniy inqilob" nazariyasi tashkil etib, u odamlarning ong va tafakkurini o'z qarashlari va ta'limoti asosida qayta o'zgartirishni talab qilardi. Buning uchun insonga yoshligidan boshlab kommunistik mafkuraning asosiy tamoyil va talablari bosqichma-bosqich singdirib borilardi. Kommunistik mafkura ma'naviy ishlab chiqarishning barcha sohalari, keng tarmoq yoygan madaniy-mafkuraviy muassasalar tizimi orqali targ'ib va tashviq qilindi. Bu targ'ibot-tashviqot tizimi hukmron kommunistik partiya maqsadlariga xizmat qilishi lozim edi. Sobiq Sovet tuzumi davrida kommunistik rahbariyat ma'naviy hayotni mustabidlashtirish, milliy g'oyani socialistik g'oya bilan almashtirish vazifalaridan kelib chiqib ish olib bordi. Buning uchun, eng avvalo, tarixiy ma'naviy merosga ancha og'ir, halokatli zarbalar berildi. Kommunistik mafkura xalqimizning tarixiy ma'naviy boyliklari, yodgorliklarini inkor qilishga olib keldi. Axloq, adabiyot, san'at milliy zamindan ajratilib, uning o'rniga "proletariat madaniyati" degan sun'iy madaniyat

tiqishtirildi. Badiiy ijod jarayoni kommunistik mafkura qolipiga solib qo'yilib, tarixni, adabiyotni milliy g'urur va iftixor asosida haqqoniy yoritishga harakat qilgan ijodkorlar "o'tmishni ideallashtirish"da ayblanib qatag'on qilindi. Keyinchalik ham bu mustabid tizim o'z mafkuraviy apparatining butun qudratini ishga solib, ommaviy axborot vositalaridan, butun ta'lim tizimidan foydalanib, tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatishga, haqiqiy milliy an'analar va urf-odatlarni zo'r berib barbod qilishga, xalq xotirasidan jahon sivilizasiyasiga bebaho hissa qo'shgan buyuk ajdodlari nomlarini chiqarib tashlashga urindi. Kommunistik mafkura milliy tillar va madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashishi va qo'shib ketishi g'oyasini ilgari surdi. Bu esa milliy madaniyatlarning rivojlanishiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sobiq Sovet tuzumi davrida kommunistik mafkura "din – xalq uchun afyundir" shiori ostida dinga qarshi kurash olib bordi. Olib borilgan siyosat natijasida odamlarning diniy his-tuyg'ulari qo'pollik bilan oyoqosti qilindi, muqaddas diniy qadriyatlar toptaldi, kitoblar yo'q qilindi, ibodatxonalar buzib tashlandi, ruhoniylar ta'qib ostiga olindi, ularga nisbatan qatag'onlar amalga oshirildi.

Chor Rossiyasi davrida boshlab berilgan "ruslashtirish" siyosati sobiq Sovet davlati o'z faoliyatini olib borgan davrda ham yangi shakl va ko'rinishda davom ettirildi. Rus tili millatlararo aloqa tili sifatida jamiyat hayotining barcha sohalariga keng joriy qilindi. Majlislar rus tilida o'tkazildi, hujjatlar rus tilida rasmiylashtirildi, ommaviy axborot vositalari, ta'lim, matbuot, madaniyatda rus tilining faoliyat doirasi kengaytirildi. Natijada, O'zbekistonda o'zbek tili ikkinchi darajali til darajasiga tushirib qo'yildi. Maktablarda rus tilida o'tiladigan fanlarning soatlari ko'paytirildi. Ilm-fanda, matbuotda rus tilining ta'sir doirasi kuchli bo'lib, ilmiy dissertasiyalar asosan rus tilida yoqlandi, ilmiy adabiyotlar rus tilida nashr etildi. Shunday qilib, yot kommunistik mafkuraning joriy etilishi o'zbek xalqini mustabid Sovet tuzumiga qaram qilish maqsadida amalga oshirilib, o'zbek xalqi o'z yerida o'zini erkin his qilolmasdi. Kommunistik mafkura vositasida olib borilgan imperiyacha – mustabid tuzumning siyosati o'zbek xalqini o'zining haqiqiy madaniyatidan, milliy urf-odat va an'alaridan, tarixiy xotirasidan, chinakam ma'naviyatidan mahrum qilishga harakat qildi. Lekin kommunistik

mafкура hukmronligining og'ir mashaqqatlarini o'z boshidan kechirgan o'zbek xalqi ozodlik ideallariga sodiq bo'lib qoldi. Boy tarixiy ma'naviy merosni tiklash, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani uyg'otish, an'ana va udumlarga sadoqat bilan munosabatda bo'lish masalasiga e'tibor kuchaytirila boshlandi. Xalqimizning milliy o'zligini anglashi, tarixiy xotirasining uyg'onishi milliy g'oyamizning shakllanishi, tiklanishi, odamlar ongi va qalbiga singib ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining uyg'onishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. O'zbekistonning o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng tarixan qisqa muddatda jamiyat hayotining barcha sohalarida juda katta yutuqlarni qo'lga kiritgani ham milliy g'oyamizning odamlarni birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, ma'lum bir maqsadga yo'naltiruvchi, harakat dasturi bo'luvchi faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Mustamlakachilik davri mafkurasi va uning salbiy oqibatlari xalqimizga mustaqillikning naqadar buyuk ne'mat ekanligini teran anglash imkoniyatini beradi.

## **2.10. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar**

XX asrning 80 yillariga kelib sobiq Sovet mustabid tuzumi o'zining xo'jalik yuritish usuli, siyosiy tizimi, rivojlanish imkoniyatlaridan tamoman mahrum bo'ldi. Iqtisodiyot turg'unlik holatiga tushib qoldi, ijtimoiy muammolar keskinlashdi, etnik-milliy asosdagi mojarolar vujudga kela boshladi. Mamlakatning siyosiy rahbariyati mamlakat xalq xo'jaligiga zamonaviy ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etish, jamiyatni demokratlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish, mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish masalalariga ko'proq o'z e'tiborini qaratib islohotlarni amalga oshirishga harakat qildi. Ammo bu harakatlarning barchasi zoye ketdi. Islohotlardan ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Jamiyat a'zolari orasida mehnat intizomining pasayishi, ijtimoiy loqaydlik, befarqlik kuchayib bordi. O'zbekiston juda katta xom ashyo, iqtisodiy zahiralarga ega bo'lishiga qaramasdan rivojlangan davlatlardan tez orqada qola boshladi. Ishlab chiqarishning

samaradorligi pasaydi, odamlarning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy voqea hamda hodisalarga nisbatan qiziqishi kamaydi. Sanoatni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish juda sust olib borildi. Ana shunday sharoitda 80-yillarning o'rtalarida sobiq Sovet jamiyatida "qayta qurish" siyosati amalga oshirila boshlandi. "Qayta qurish" siyosatini amalga oshirishdan asosiy maqsad ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va shu bilan birgalikda jamiyat hayotida inson omilini faollashtirishdan iborat edi. "Qayta qurish" siyosatining markazida jamiyatni demokratlashtirish, ma'muriy-buyruqbozlik va byurokratizmga, qonunsizlikka qarshi kurashish masalasi turar edi. Chunki, jahondagi rivojlangan va demokratiya tarkib topgan mamlakatlarda ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilib, demokratiya va inson huquqlarini himoya qilishda olg'a siljishlar, xalq turmush sharoitida yangi imkoniyatlar vujudga kelayotgan bir sharoitda sobiq Sovet jamiyati jahondagi rivojlangan davlatlardan tobora orqada qolib bormoqda edi. 1985-1987 yillar Qayta qurishning birinchi bosqichi bo'lib hisoblanadi. Bu davrda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida ma'lum o'zgarishlar yuz berib, odamlarning ijtimoiy faolligi oshdi, demokratik o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi, milliy o'zlikni anglash jarayoni yuz berdi. Ammo tub o'zgarishlarni, barcha sohalardagi haqiqiy islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi urinishlar muvaffaqiyat qozonmay, 1986 yildan boshlab mamlakatdagi iqtisodiy ahvol yomonlashdi. 1987 yildan ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasayib, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. 1987-1990 yillar Qayta qurishning ikkinchi bosqichi bo'lib, endi jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilish kun tartibiga qo'yildi. Jamiyat hayotida amalga oshiriladigan ishlar siyosiy mafkura tomonidan jamiyatni to'liq demokratlashtirishdan iborat deb belgilandi. Demokratlashtirish jarayoni jamiyatni ma'lum darajada uyg'otdi, jamiyatda ijtimoiy faollik ortdi. Demokratik saylovlar joriy qilindi. Ammo mamlakatda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar oxiriga yetkazilmadi. Qayta qurish jarayoni "yuqoridan" boshlandi. Qayta qurish boshlangan paytda jamiyat a'zolari unga juda katta umid bog'ladilar. Jamiyat hayotida ro'y

berayotgan o'zgarishlar, ayrim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar odamlarda ertangi kunga, baxtli hayotga, "porloq kelajak"ka yana ishonch ruhini uyg'otdi. Lekin keyinchalik vaziyat o'zgarib, islohotlardan kutilgan natijalar amalga oshmadi. Odamlardagi ijtimoiy faollik o'rnini sustkashlik, davlat va partiya siyosatiga ishonmaslik, befarqlik kayfiyati egalladi. Qayta qurish sharoitida oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma-xilligi ma'lum ma'noda kuchaydi. Lekin kommunistik mafkuraviy yakkaxokimlik, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida ko'zlangan maqsadga, tom ma'nodagi oshkoralikka erishib bo'lmadi. Ushbu jarayonlar O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy hayotida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. O'sha davrdagi respublika rahbariyati Inomjon Usmonxo'jayev, Rafiq Nishonovlar O'zbekistonning sobiq Ittifoq doirasida tutgan o'rnini, uning imkoniyatlarini ochiq-oydin ayta olmadilar. Ular O'zbekistonning sobiq Ittifoqqa boqimanda ekanligi to'g'risidagi soxta fikrlarni tasdiqlashdan nariga o'tmadilar. Respublika rahbarlarining Markaz oldida tiz cho'kib sajda qilishlari oqibatida "O'zbek ishi", "Paxta ishi" deb nomlangan ishlar o'ylab topildi. Markazdan "desantchilar" O'zbekistonga yuborildi. Ko'plab rahbarlar ishdan olindi, kadrlarni almashtirish siyosati ommaviy tus oldi. "O'zbek ishi" doirasida jismoniy zo'ravonlik, ruhiy ta'sir ko'rsatish, qatag'onlar amalga oshirilib, xalqimizning nafsoniyatini toptash yo'liga o'tildi. Natijada, butun respublikamizda parokandalik, loqaydlik, umidsizlik va ishonchsizlik kayfiyati chuqurlashdi. Ijtimoiy-ma'naviy sohada esa milliylikning har bir ko'rinishi "internasionalizm"ning mohiyatiga yot ekanligini isbotlashga harakat qilindi. Bu narsa o'zbek tiliga, dinga, milliy urf-odat, an'ana, udumlar va marosimlarga bo'lgan munosabatda yaqqol ko'zga tashlandi. "Navro'z"ning ta'qiqlanishi, "Navbahor" deb yangi bayramning o'tkazilishi, rahbar kadrlarning dafn marosimlarida qatnashmasligi o'sha davrda sodir bo'lgan holatlardir. O'zbek xalqining tili, dini, urf-odat va an'analari, milliy qadriyatlari, millatning sha'ni va obro'-e'tiboriga nisbatan amalga oshirilgan tajovuzlar o'zbek xalqining sobiq sovetlar tuzumi va uning kommunistik mafkurasiga nisbatan nafratini yanada oshirdi.

Qayta qurish yillarida demokratiya, oshkoralik shiorlari asosida o'zbek xalqi milliy ongining o'sishi, ijtimoiy faolligining kuchayishi jarayonlari ham sodir bo'ldi. Sobiq Markaz o'zbek xalqining boy tarixi, qadimiy, ko'hna madaniyati, urf-odat va an'alarining chuqur, mustahkam ildizlari borligini bilganligi uchun ham bu tarix va madaniyatni kamsitish, mensimaslik siyosatini olib borgan edi. Qayta qurish davrida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar faollashdi. Tarixga, ma'naviyatga, madaniyatga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Milliy o'zlikni anglash jarayoni chuqurlashib bordi. Milliy o'zlikni anglash va oshkoralik jarayonlari mustaqillik to'g'risidagi g'oyalarning yana tiklanishi va shakllanishi uchun zamin yaratdi. 80-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar, xalq milliy ongining keskin ravishda o'sishi jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligini oshirib yubordi. Milliy o'zlik, milliy ongning o'sishi, eng avvalo, milliy tarix va ma'naviyatni o'rganishga bo'lgan qiziqishning kuchayishida namoyon bo'ldi. Qayta qurish tufayli berilgan ayrim erkinliklar, oshkoralik odamlardagi ijtimoiy faollikka ta'sir ko'rsatdi. Ushbu davrda o'zbek xalqining milliy-tarixiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish o'sib, u ijtimoiy ehtiyojga aylandi. Chunki, 80 - yillarning o'rtalaridan avval o'rganilishi ta'qiqlangan milliy xarakterdagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy voqea, hodisalar, allomalar faoliyatini o'rganishga biroz erkinlik berildi. Natijada, tariximizdagi ko'pgina voqea va hodisalar haqqoniy ravishda yoritib berildi. Din va tasavvuf, davlatchilik masalalari, Rossiya bosqini, jadidchilik, istiqlolchilik harakatlari tarixi yangicha tafakkur asosida qaytadan ko'rib chiqildi. Tarixiy voqea va hodisalarning g'oyaviy, mafkuraviy jihatlariga e'tibor kuchaytirildi. Ushbu davrda millatchilik, panislomizm va panturkizmda ayblanib qatag'on qilingan ijodkorlarning ijodiga qaytadan baho berilib, qatag'on qilinishining tub sabablari ochib tashlandi. Siyosiy ayblar qo'yilib qatag'on qilingan xalqimizning asl farzandlarining pok nomlari oqlandi. Ularning madaniyatimiz va tariximizning yetuk ziyolilari, millatimizning yetuk vakillari ekanliklari, Vatanimiz ozodligi yo'lida o'z jonlarini fido qilganliklari ma'lum bo'ldi. O'zbekistonda mustaqillik arafasida boshlangan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy uyg'onish sobiq sovet davri ma'muriy-

buyruqbozlik tizimining salbiy, g'ayriinsoniy tomonlarini ochib tashladi. Chunki mustabid tuzum davrida xalqimizning haqiqiy tarixi, boy madaniy merosi, urf-odat va an'analari, Navro'z bayrami, Ramazon va Qurbon hayitlarini nishonlash, dinga hurmat bilan munosabatda bo'lish taqiqlab qo'yilgan edi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband va boshqa aziz avliyolarimiz, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur singari ulug' ajdodlarimiz merosiga nisbatan adolatsizlik hukm surgan edi.

Mustaqillik arafasida xalqimizning sha'ni va g'ururi, qonuniy huquqlari, uning boy tarixi, bebaho madaniyati, buyuk ajdodlarimizning xotirasiga nisbatan tarixiy adolatni tiklash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Tarixiy ma'naviy merosni tiklash, an'anaviy xalq bayramlari, urf-odat va marosimlarni qayta tiklash bo'yicha qarorlar qabul qilindi. 1990 yil 21 martdan boshlab, eng qadimiy bayramlarimizdan biri Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlandi. Navro'z an'analariga binoan, qariyalar, bolalar, bemorlar, nogironlar xolidan xabar olish, beva-bechora va boquvchisidan ajralganlarga mehr-shafqat ko'rsatish bo'yicha tadbirlar amalga oshirildi. Mustaqillik arafasida dinga aloqador masalalar ijobiy hal qilindi, yurtimizda asrlar mobaynida mavjud bo'lgan xalq rasm-rusumlarining milliy shakllari yana hayotga tatbiq etila boshlandi.

Xalqimiz, ajdodlarimiz asrlar davomida orzu qilib kelgan mustaqillik, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z yurti boyliklaridan o'zi foydalanish, mamlakatning ichki va tashqi siyosatini o'zi belgilash, boy milliy merosdan bahramand bo'lish, tilini, dinini, urf-odatlari va milliy bayramlarini tiklash va rivojlantirish, o'z mehnati natijasidan manfaatdor bo'lishdek oliy darajadagi huquq va manfaatlarga mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng erishdi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Inson ma'naviy kamolotida g'oyaning roli qanday?
2. O'zbek millati qanday g'oya va mafkuralar negizida shakllangan?
3. Jamiyat hayotida g'oya va mafkuraga bo'lgan talab-ehtiyojlar nimalardan iborat?

4. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari nimalarda aks etgan?
5. Milliy g'oyaning falsafiy ildizlari deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbekiston hududida dastlabki g'oyaviy qarashlar qanday vujudga kelgan?
7. Dastlabki falsafiy g'oyalarning manbalari nimalardan iborat?
8. Totemizm dinning dastlabki shakli sifatida qanday g'oyaviy qarashlarni o'zida ifodalaydi?
9. Fetishizmning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
10. Animizm jamiyatda insonlarni qanday g'oyaga ishontiradi?
11. Shomonlik tushunchasini yoritib bering?
12. Magiya qanday g'oyalarni ilgari suradi?
13. "Avesto" – milliy g'oya shakllanishida qanday ahamiyatga ega?
14. "Avesto"ning mafkuraviy vazifasini aytib bering?
15. Milliy g'oyaning tarixiy negizlari yosh avlod tarbiyasida qanday rol o'ynaydi?
16. O'rta asrlardagi g'oyaviy qarashlar tarixi qaysi mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan?
17. O'rta asrlarda g'oyaviy qarashlarning muhim rivojlanish xususiyatlarini qanday manbalar tashkil etgan?
18. Ma'rifatparvarlik deganda nimani tushunasiz?
19. Ma'rifatparvarlik g'oyalari kimlar tomonidan ilgari surilgan?
20. Jadidlarning g'oyasi va mafkurasini tushuntirib bering?
21. Mustamlakachilik mafkurasi qaysi asrda vujudga keldi?
22. Mustamlakachilik siyosatining xalqimiz milliy ongiga ta'sirini aytib bering?
23. Mustamlakachilik davrida ijtimoiy-siyosiy ahvol qanday bo'lgan?
24. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi g'oya va mafkuraga qanday ta'sir etdi?
25. Mustaqillik g'oyasi va mafkurasining mazmuni va mohiyati nimalardan iborat?



### **3-BOB. MUSTAQILLIK VA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR KONSEPSIYASINING ISHLAB CHIQLISHI**

#### **3.1. Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekistonda jamiyat g'oyaviy - mafkuraviy asoslarining o'zgarishi**

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda milliy tiklanish jarayoni amalga oshmoqda. Bu jarayonda milliy g'oya yetakchi ahamiyat kasb etmoqda. Milliy g'oya millatning taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashning asosiy manbasidir. O'zbekiston o'zining milliy mustaqilligiga erishgach, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotidagi o'zgarishlar bilan bir qatorda odamlar ongi va dunyoqarashida, odob axloqi, imon-e'tiqodi, bilim saviyasi va ruhiyatida, madaniyati va ma'naviyatida, ta'lim tarbiyasida katta o'zgarishlar, yangilanish jarayonlarini amalga oshirish zarurati vujudga keldi. O'zbekiston o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan xalqimiz o'z oldiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish masalasini maqsad qilib qo'ydi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo qilina boshlandi. O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining barpo etilishi bizga vatanparvar, fidoyi, yot va begona g'oya va mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga yetkazish, bu yo'lda g'oyaviy, mafkuraviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy mafkurani shakllantirish, uning bosh g'oyasi va g'oyalar tizimini nazariy asoslab, kundalik hayotga joriy etish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Mustaqillik qo'lga kiritilganidan so'ng mustabid "kommunistik g'oya"dan voz kechildi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida tub sifatli o'zgarishlar amalga oshirilib islohotlar olib borildi. O'ta markazlashgan, totalitar boshqaruv tizimiga va rejali iqtisodiyotga asoslangan tizimdan insonning erki va huquqi kafolatlanadigan, o'zining qobiliyat va imkoniyatlarini erkin namoyon qilish imkoniyati mavjud bo'lgan demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi amalga oshirildi.

O'zbekistonda zamonaviy demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo qilish jarayonida boy tarixiy ma'naviy merosga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, milliy davlatchilik va xo'jalik yuritish an'alariga asoslangan holda adolatli va insonparvar jamiyat barpo etishga kirishildi. O'zbekistonda talab va taklif, raqobat kurashiga asoslangan iqtisodiy munosabatlar, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tilar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda yuksak ma'naviyatga katta e'tibor qaratildi. Bozor munosabatlariga o'tish odamlarda imon-e'tiqod, halollik, birovning haqini yeyishdan qo'rqish, hayr-ehson singari fazilatlar bo'lishini, ana shularni o'zida jam qilgan milliy, diniy, axloqiy qadriyatlarga katta e'tibor berishni taqozo eta boshladi. Milliy ma'naviyatimiz har bir insonda ona yurtiga muhabbat va sadoqatning qaror topishida, shu muqaddas tuproqqa egalik tuyg'ularini shakllantirishda, Vatanni himoya qilish, avaylab-asrashda olijanob insoniy fazilatlarni qaror toptirish va rivojlantirishda katta o'rin tutadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng biz soxta mafkuraning yakkahokimligidan qutuldik. Ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi. Qadimgi va boy tariximiz tiklandi. Ulug' bobolarimiz, dunyo tan olgan mutafakkirlarimizning ruhi shod etilib, yubileylari o'tkazildi, asarlari chop etildi, maqbaralari obod etildi. Milliy urf-odat, an'ana, udumlarimiz va qadriyatlarimiz tiklandi. Dinga nisbatan munosabat ijobiy tomonga o'zgarib, dinga ma'naviyat, qadriyat sifatida munosabat shakllantirildi. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasida davlat tili deb qonun yo'li bilan belgilab qo'yildi. Mustaqillik xalqimizning madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi. Mustaqillikdan keyin madaniy merosimizga alohida e'tibor qaratilib, juda ko'plab ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar, qadimiy qo'lyozmalar nashr qilindi. Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash ishlariga e'tibor kuchaytirildi. Turli davrlarda mamlakatimizdan tashqariga olib chiqib ketilgan, xalqimizning milliy boyligi bo'lgan san'at asarlarini, qimmatli qo'lyozmalarni izlab topish va O'zbekistonga qaytarish masalasiga e'tibor qaratildi. Mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekistonda ilm-fan, madaniyat, xalq ta'limi, maorif, adabiyot va san'atni rivojlantirish, tarixiy obidalarni ta'mirlash, asliga keltirish, qariyb unitilayotgan

xalq hunarmandchiligini tiklash masalalari bo'yicha Prezident farmonlari e'lon qilindi, qarorlar qabul qilindi. Milliy urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlar, qadriyatlarimizni tiklash, ulardan to'la bahramand bo'lish, yosh avlodni milliy qadriyatlar, an'analar asosida tarbiyalash masalasiga ham e'tibor kuchaytirildi. O'zbekistonda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ma'naviy yangilanish jarayonida an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligini ta'minlash va barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston o'z milliy mustaqilligini qo'lga qiritganidan so'ng inson omiliga e'tibor kuchayib, "islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun" degan hayotiy qoida jamiyat hayotida yetakchi mavqega ega bo'la boshladi. Taraqqiyotning "o'zbek modeli"dan ko'zlangan asosiy maqsad ham insonlarning erkinligi, huquq va manfaatlarining to'la ro'yobga chiqishini ta'minlovchi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratildi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, yosh avlodning qalbi va ongiga milliy g'oyaning chuqur singdirilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ana shularni nazarda tutib, O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi",<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tgan edilar. Mustaqillikdan keyin xalqimizning ong-tafakkuri, mustaqil fikrlashi, ma'naviy olami, ijtimoiy faolligining oshib borishi masalasiga katta e'tibor qaratildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, erishilayotgan yutuqlarga inson omiliga e'tiborning kuchaytirilishi bevosita o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mustaqillik davrida odamlarning dunyoqarashi, hayotga, mehnatga, o'z kasbiga bo'lgan munosabatida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jamiyat hayotining ma'naviy yuksalishi, milliy-ma'naviy yangilanish,

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 4-бет.

qadriyatlarimizning qayta tiklanishi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylandi.

O'zbekistonning sobiq sovet imperiyasi mustamlakachiligidan ozod bo'lib, mustaqil suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatining teng huquqli sub'yektiga aylanishi, erkin fuqarolik jamiyatini qurish sari dadil odimlari ulkan ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda davlat va jamiyatni rivojlantirish masalasida butun insoniyatning ilg'or tajribasini hisobga olib ish yuritish, o'z milliy-ma'naviy ildizlarimizdan madad olish hamda ulug' ajdodlarimizning an'alarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yo'l tutildi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lining besh tamoyili e'lon qilindi. Mazkur tamoyillar aniq va amaliy tizimga keltirilgan, jahonda taraqqiyotning "O'zbek modeli" nomini olgan modelning konseptual asosini tashkil qiladi. Mazkur tamoyillar mamlakatimizni isloh etish bo'yicha aniq maqsad va vazifalarni belgilab olish imkonini yaratdi, mamlakatning barqaror rivojlanishiga asos bo'ldi. Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizasiya qilish jarayoni bosqichma-bosqich davom ettirilib, bunda jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini yanada isloh etish, xususan, Konstitusiyada belgilab berilgan inson manfaatlari, erkinligi va farovonligini to'la ta'minlash masalasiga katta e'tibor berildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson huquq va erkinliklari ustuvor bo'lgan demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish masalasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Mazkur jarayonda insonga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lish, uning manfaatlarini islohotlarning asosiy mezon tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etdi. Shaxs ma'naviy olami insonning o'zligini ongli ravishda anglashga undovchi, o'rgatuvchi fenomen hodisa bo'lib, uning markazida inson tafakkuri turadi. Inson tafakkur jarayonida shakllanib, kamol topib boradi. Shaxs ma'naviy olamining shakllanishida oila, maktab, mahalla, jamiyatdagi munosib hayot va turmush tarzi, davlat tomonidan yaratilayotgan zarur shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, mustaqillikdan

keyingi davrda bu sohada juda katta ishlar amalga oshirildi. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi, fuqarolar ongi-tafakkurining milliy g'oya va mafkura asosida shakllantirilishida davlatimizning yoshlarga oid olib borayotgan siyosati ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, – Biz yoshlarga oid davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz<sup>1</sup>. O'zligini chuqur anglab yetgan, o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, o'z hayoti, o'z taqdirini mana shu ozod Vatan, dunyoda yagona bo'lgan ona yurtimiz bilan chambarchas bog'lab, kelajak sari intilayotgan yoshlar O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayot sohalaridagi yuksalish va taraqqiyotning bunyodkorlaridir. Mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va amaliy salohiyatga, zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lgan yoshlar mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bugungi kunda mustaqillikni mustahkamlashning asosiy vazifalaridan biri ham yoshlarda fuqarolikni shakllantirish, ularni umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, fuqarolik vazifalarini bajarishga tayyorlash, milliy ong darajasini oshirish, eng yaxshi fazilatlarni tarbiyalash orqali O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'uradigan, xalqi, Vatanining qadr-qimmatini, or-nomusini anglab, uni himoya qiladigan, yuksak g'oyalar, yangi kashfiyotlar, niyatlar yo'lida mehnat qilib, bor imkoniyatini ona Vataniga baxshida etadigan barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2017. 146-бет.

### **3.2. O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy hayot sohalarining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma xilligiga asoslanishi**

O'zbekiston o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng xalqimizning sobiq mustabid tuzum davrida toptalgan haq-huquqlari, milliy an'ana, urf-odat va qadriyatlari qayta tiklanib, o'zlikni anglash, adolat ustuvorligi asosida yashash hayotimiz mezoniga aylandi. Mustaqillik xalqimizning erkin va ozod, farovon yashashi uchun keng huquq va imkoniyatlar yaratdi. Konstitusiyamizda nafaqat bugungi kundagi ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solindi, balki O'zbekistonning huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati sari rivojlanib borishining tamal toshi qo'yildi. Konstitusiya mamlakatimizning demokratik qiyofasini belgilab berdi hamda barqaror taraqqiyotimizning mustahkam zamini bo'ldi. Qonunlarimizning manbai bo'lgan Konstitusiyamizga ko'ra, inson-jamiyat-davlat konseptual g'oyasi ishlab chiqilib, uning amalda tatbiq etilishi mamlakat taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Konstitusiya orqali shaxs, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladigan, samarali faoliyat ko'rsatadigan murakkab mexanizmga asos solindi. Konstitusiya jamiyat hayotining barcha sohalari, jumladan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ma'naviy hayot sohalariga ta'sir etib, ijtimoiy munosabatlar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini tartibga soladi. Bu esa, amaldagi asosiy qonun, yani O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining negizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida shaxs huquq va erkinliklari, manfaatlari eng oliy qadriyat deb e'tirof etildi. Milliy davlatchilikning tarixiy tajribasi asosida suveren demokratik davlat qurish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy zamini yaratildi. Davlat o'z siyosatini xalqning xohish irodasiga ko'ra, mustaqil tarzda amalga oshirish hamda suveren davlat sifatida o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi. Mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'yekti sifatida o'zaro manfaatli aloqalarga kirishadigan davlatga aylandi. Konstitusiya va uning asosida qabul

qilingan qonunlar taraqqiyotning “o‘zbek modeli” uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Jamiyatni demokratlashtirishda davlat va jamiyat boshqaruvida davlat organlaridan tashqari uchinchi sektor sifatida e‘tirof etilgan jamoat tashkilotlari, nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish organlariga ham yetarli huquq va imkoniyatlar berilib, O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish bosh strategik maqsad etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 12-moddasida, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilmaxilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas<sup>1</sup>, deyilgan. Demokratik jamiyatni barpo etishda saylov, demokratiya va siyosiy partiya kabi tushunchalar doimo yonma-yon qo‘llaniladigan tushunchalardir. Saylovlar – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shaklidir. Saylovlar bevosita siyosiy partiyalar bilan bog‘liq holda kechadigan jarayonlardir. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir. Konstitusiyaning 58-moddasi mazmuniga ko‘ra, siyosiy partiyalar davlat organlari hisoblanmaydi, lekin ular 60-moddaga ko‘ra, davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 34-moddasi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini e‘tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muholifat shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 6-бет.

hech kim kamsitishi mumkin emasligini belgilab qo'ygan. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, asosiy qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitusiyaviy tamoyil o'z ifodasini topgan. O'zbekistonda qurilayotgan demokratik jamiyatning ustuvor maqsadlari, tamoyillari, inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida, davlat hokimiyatini amalga oshirish shakli bo'lgan Prezidentlik Respublikasida, davlat hokimiyatining bo'linish tamoyillari, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro hokimiyati va sud hokimiyatida, shuningdek, mamlakatda siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslangan holda rivojlanish to'g'risidagi muhim konseptual qoidada o'z ifodasini topgan. Mustaqillik tufayli mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi paydo bo'ldi. Nodavlat, notijorat va jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda ikki palatali parlament faoliyat olib bormoqda. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish milliy g'oyaga asoslangan holda amalga oshirilmoqda. Uning asosiy g'oyalari orqali ham O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik jamiyatning siyosiy va falsafiy ma'no-mazmunini anglab olish mumkin. O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etishdan iborat bo'lib, Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalarida demokratik jamiyatning siyosiy va falsafiy ma'no-mohiyati mujassamlashgan. O'zbekistonda jamiyatning ijtimoiy hayot sohalari siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslangan.

Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati institutlari shakllanish va rivojlanishning o'ziga xos evolyusion yo'lini bosib o'tdi. Eng avvalo, ushbu institutlarni rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy asoslari yaratildi. Bu o'rinda so'z siyosiy partiyalar, fikrlar, g'oya va mafkuralar xilma-xilligini ta'minlash, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatadigan har qanday siyosiy partiyaning yakka mafkuraviy hukmronligi – monopolizmiga yo'l qo'ymaydigan mustahkam qonunchilik kafolatlarini yaratish haqida bormoqda. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik sari rivojlanish ikki bosqichni bosib o'tib, birinchi bosqichda



(1991-2000 yillar) ko'ppartiyaviy tizimning tashkil topishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Ikkinchi bosqich XXI asrning boshlariga (2001-2007 yillar) to'g'ri kelib, yurtimizda parlamentning ikki palatali tizimga – Senat hamda doimiy asosda ishlaydigan Qonunchilik palatasiga o'tishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy-ijtimoiy islohotlarning chuqurlashuvi, davlat boshqaruv tizimining yanada demokratlashuvi uchun kuchli turtki berdi. O'tgan davr mobaynida qonun chiqaruvchi hokimiyat – mamlakatimiz parlamentining ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi roli va ta'siri ancha o'sganini erishilgan amaliy natijalar ham tasdiqladi. Bu davr mobaynida qabul qilinayotgan qonunlarning sifati oshdi, jamiyat hayotida ijtimoiy-siyosiy faollik kuchaydi. Mamlakatimizni siyosiy modernizasiya qilish jarayonlarida siyosiy partiyalarning keng ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Siyosiy partiyalar fraksiyalarining faoliyati O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, "Adolat" sosial-demokratik partiyasining deputatlar fraksiyalari Demokratik blokni shakllantirganini ko'rsatish mumkin. O'z navbatida, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi parlamentda o'z siyosiy pozitsiyasini muxolifatdagi ozchilik sifatida belgilagan edi. Bu ijtimoiy ahamiyatli muammolar va vazifalarni hal etishda siyosiy partiyalar o'rtasida o'zaro hamkorlik va sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga yordam beruvchi jarayondir. O'zbekistonda milliy qonunchilikni bosqichma-bosqich rivojlantirish siyosiy partiyalar o'rtasida haqiqiy raqobat muhitining shakllanishiga, mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha muhim ijtimoiy-siyosiy vazifalarni amalga oshirishda sog'lom raqobatning kuchayishida hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Bularning barchasi parlament va butun siyosiy mexanizmning yanada samarali ishlashi, shuningdek keng ko'lamli ijtimoiy hamda mafkuraviy manfaatlarning amalda o'z ifodasini topishiga ko'maklashmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o'z faoliyatini olib boruvchi siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmalari bo'lib, jamiyat hayotida faoliyat olib boruvchi har bir ijtimoiy guruh, qatlam va sinfning ichidan eng faol qismi shu ijtimoiy guruh, qatlam va sinfning manfaatlarini o'zida ifodalovchi

mafkurasini ishlab chiqadi va uni hayotga, amaliyotga tatbiq etadi. Shuning uchun ham jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida nechta siyosiy partiya mavjud bo'lsa, har bir partiyaning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan mafkurasi mavjud bo'ladi. Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi asosida kafolatlanadigan diniy bag'rikenglik tamoyili jamiyat hayotida turli diniy ta'limotlarning erkin mavjud bo'lishi, odamlarga e'tiqod erkinligini kafolatlaydigan bo'lsa, har bir diniy ta'limotning o'zi ijtimoiy taraqqiyotning muayyan davri va bosqichida paydo bo'lib shakllangan mafkura ekanligiga, jamiyat hayotida muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarishiga ham e'tiborni qaratish zarur. Shuning uchun ham jamiyat hayotida turli g'oyalar va mafkuralar ko'p bo'lib, jamiyatdagi turli ijtimoiy guruh va qatlamlarning maqsad va manfaatlarini o'zida ifodalaydi. Milliy mafkura esa jamiyatdagi barcha odamlarning manfaatlarini o'zida ifodalaydigan umummafkuradir. Milliy g'oya va mafkuraning poydevori, zaminini jamiyatning ma'naviy salohiyati tashkil etadi. Milliy mafkura bu – bosh strategik g'oyani amalga oshirishning ma'naviy ruhiy asosi va tayanchidir. Milliy mafkura kishilarni milliy g'oyaga ishonitiruvchi, uni amalga oshirishda ularni ma'naviy qurollantiruvchi, rag'batlantiruvchi va ruhlantiruvchi kuchdir. Milliy mafkura milliy g'oyani oziqlantiradi va uni mustahkamlaydi. Milliy mafkura milliy g'oya tevaragida shakllanadi, u jamiyat va mamlakat hayotining madaniy-ma'naviy yo'nalishlaridan tortib, to siyosiy qarashlargacha bo'lgan barcha sohalarini qamrab oladi.

### **3.3. Hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi**

Ezgu, bunyodkor g'oya va mafkura barcha insonlarning hayoti mazmunini, orzu istaklarini ifodalaydi. Har bir inson va jamiyat o'zining oldiga muayyan bir maqsadlarni qo'yadi va unga erishish uchun harakat qiladi. Inson va jamiyat hayoti muayyan fikrlar, g'oyalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu fikr va g'oyalar asosida vujudga kelgan mafkura inson hamda jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutib, uzluksiz takomillashib, rivojlanib, davrlar o'tishi bilan o'zgarib boradi. Dunyodagi voqea-hodisalar va hayot ta'sirida inson tafakkurida shakllanadigan, muayyan mazmunga ega bo'lgan, biror-bir maslakni aks ettirib, uni amalga oshirishni taqozo

etadigan, insonlar va xalqlarni uyushtirib, muayyan maqsadlar sari boshlaydigan ijtimoiy fikrga g'oya deyiladi. G'oya anglangan maqsad va haqiqatni o'zida aks ettiruvchi fikr bo'lsa, mafkura ana shu maqsad va haqiqatning anglangan shakliga mos bo'lgan g'oyalar, fikrlar va ularni amalga oshirish usul va uslublari tizimidir. O'zining bosh va asosiy g'oyalari hamda tamoyillariga tayanib, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad, intilish va manfaatlarini ifoda etadigan, ularni amalga oshirish, e'tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirishning usul va vositalari tizimiga mafkura deyiladi. Insoniyat tarixida ko'plab mafkuralar vujudga kelib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida rivojlanib, keyinchalik o'zining o'rnini boshqa g'oya va mafkuralarga bo'shatib bergan. Jamiyatdagi muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamning manfaatlarini ifoda etishiga ko'ra mafkuralar ishchilar, dehqonlar, tadbirkorlar, ziyolilar kabi ijtimoiy qatlamlarning bir-biridan farq qiluvchi ehtiyoj va manfaatlari, maqsad va muddaolarini muayyan g'oyalar tizimida aks ettiradi. Tarixiy taraqqiyotda jamiyat hayotida turli xil mafkura shakllari vujudga kelib, ularda ilgari surilayotgan g'oya va maqsadlarning to'g'ri yoki noto'g'riligiga ko'ra mafkuralarni ilmiy yoki noilmiy, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqib esa, mafkuralarni progressiv va reaksiyon mafkuralarga ajratish mumkin. Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini o'zida aks ettirgani uchun jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, millat va elatlar orasida yoyiladi. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatdagi yangi avlod jamiyatda mavjud bo'lgan g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan g'oyalar va qarashlarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida, yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib qiladi. Bu g'oyalar jamiyat hayotida mavjud bo'lgan mafkurada amal qiladi. Insoniyat tarixida turli g'oyalar ezgulik va yovuzlik, ozodlik va istibdod, ma'rifat va jaholatga xizmat qilgan mafkuralar shaklida namoyon bo'lib, g'oya mafkuraga asos bo'ladi, o'z navbatida esa mafkura muayyan g'oyani amalga oshirishga xizmat qiladi. Mafkura jamiyat hayotida sodir bo'ladigan voqea, hodisa, jarayonlarni o'zida ifodalaydi, moddiy va ma'naviy madaniyatga o'z ta'sirini

ko'rsatadi. Mafkuraning hayotiyliigi odamlarning, millatning, jamiyatning milliy manfaatini, orzu intilishlarini qay darajada aks ettirishiga, ularning turmush tarzi, dunyoqarashi, tabiatiga qanchalik mos bo'lishiga bevosita bog'liqdir. Odamlarning ezgu maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, ularga ma'naviy-ruhiy quvvat beradigan mafkurani ko'pchilik qabul qiladi. Mana shunday holatdagina u kuchli ruhiy qudratga ega bo'ladi. G'oya va mafkura barcha insonlar, xalqlar, jamiyat va davlat oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirishga yordam beradigan, turli sohada faoliyat yuritadigan jamiyat ahlini birlashtirib, ularni umumiy maqsad sari safarbar etadigan ma'naviy omildir. Insonni ijtimoiy harakat va faoliyatga undash va shu tariqa ko'zlangan muayyan maqsad-vazifalarga erishish dunyodagi barcha ezgu mafkuralarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Milliy mafkura – mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolarning mafkurasi, u har bir vatandoshimizning jamiyat, el yurt oldidagi o'z burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganligini belgilaydigan ma'naviy mezondir.

Mafkura arab tilidan olingan so'z bo'lib, u fikrlar majmui degan ma'noni bildiradi. Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlarini, orzu istak va maqsad-muddaolari ifodalangan g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimidir. Unda manfaatlarini ifodalaganayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi. Insoniyat tarixida turli-tuman mafkuralar bo'lgan. Turli xalqlar va ijtimoiy kuchlarning g'oyaviy rahnamolari, mutafakkir va arboblari, o'zlarining manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib, mafkuraviy ta'limot va dasturlar ishlab chiqqanlar. Mafkuralar muayyan diniy, falsafiy ta'limot asosida yaratiladi, ma'lum ilmiy qarash va axloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkuralar o'z mohiyati va ta'sir kuchiga ko'ra jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga bo'lib yuborishi, davlatning jahondagi obro' va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, xalqlarni yuksaklikka ko'tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin. Yuksak maqsadlar, bunyodkor g'oyalarga asoslangan mafkuralar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo'ladi, ma'naviyatni yuksaltiradi, insonlarni ulug'vor ishlarga safarbar etadi. Ozodlik, erkinlik, mustaqillik, tinchlik, hamkorlik g'oyalari asosida

shakllangan, ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralar bunyodkorlik xususiyatiga ega bo'ladi. Vayronkor g'oyalar asosida shakllangan mafkuralar esa jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'ladi, millat va xalqlarni asoratga soladi. Bunday mafkuralar, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, hukmron, mustabid, tajovuzkor, bosqinchilik, ekstremistik, aqidaparastlik shakllarida namoyon bo'ladi<sup>1</sup>.

Insoniyat tarixida qancha ijtimoiy-siyosiy kuch, qancha millat va elat bo'lgan bo'lsa, shuncha xil mafkuralar ham bo'lgan. Hozirgi paytda aksariyat rivojlangan mamlakatlar xalqlari umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan erkinlik, adolat, qonun, inson huquqlari, millatlararo hamjihatlik, diniy bog'rikenglik kabi g'oyalarni tarannum etuvchi mafkuralarga tayanmoqda. Milliy mafkura xalqning tub manfaatlarini ifoda etib, olijanob maqsadlarni ko'zlasa, boshqa xalqlarni o'zaro hurmat va hamkorlikka chorlasa, bunday mafkura millatni taraqqiyot sari yetaklaydi, uning o'zligini anglashga va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga olib boradi. Milliy mafkura – millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g'oyaviy asoslash, ta'minlashga qaratilgan qarashlar tizimidir. Xalqimiz asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelgan mustaqillikni saqlash va mustahkamlash o'zbekistonlik har bir fuqaroning muqaddas burchidir. O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan asriy orzu-istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir. Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sosial fenomen – ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron-bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi<sup>2</sup>. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 12-moddasida, Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas, deb ko'rsatilgan. Darhaqiqat, O'zbekistonning milliy mafkurasi jamiyatdagi biror-bir ijtimoiy guruh, qatlam,

---

<sup>1</sup> Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. (қисқа изоҳли тажрибавий луғат) –Т.: Янги аср авлоди, 2002. 74-бет.

<sup>2</sup>Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар, – Т.: Янги аср авлоди, 2001. 96-бет.

sinf, siyosiy partiyaning emas, balki butun O'zbekiston xalqining maqsad va manfaatlarini o'zida ifodalaganligi uchun ham u xalq mafkurasi bo'lib hisoblanadi. Agar jamiyatdagi muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamning manfaatlarini o'zida ifodalaydigan mafkura davlat mafkurasi darajasiga ko'tariladigan bo'lsa, u jamiyatdagi boshqa ijtimoiy guruh yoki qatlamlarga o'zining xohish irodasini zo'rlik yo'li bilan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunga sobiq Sovet tuzumi davridagi proletariat ya'ni ishchilar sinfining manfaatlarini o'zida ifodalaydi deb hisoblanuvchi kommunistik mafkura misol bo'la oladi. Jamiyatdagi bitta sinfning mafkurasini mutlaqlashtirish sobiq Sovet tuzumi davrida o'ta markazlashgan totalitar tuzumning vujudga kelishiga ham, shaxsga sig'inish mafkurasining shakllanishiga ham sabab bo'lgan edi. Shuning uchun O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi bu xalq mafkurasi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosidan oziqlanadi. Milliy mafkura xalq mafkurasi sifatida adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi. Milliy mafkura yurt tinchligi, vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Shu bilan birga millati va dinidan qat'i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona-Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Milliy mafkura jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shunday xulosaga kelish mumkinki, g'oya safarbar etuvchi ulug'vor fikr bo'lsa, mafkura esa mana shunday ulug'vor g'oyalarni bir butun yaxlit kuch qilib birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, harakatga keltiruvchi, boshqaruvchi g'oyalar tizimidir. Uning mazmun-mohiyati O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida batafsil yoritilgan

bo'lib, ularda ayni paytda jamiyat taraqqiyotining bosh yo'nalishini ko'rsatuvchi milliy istiqlol mafkurasi tushunchasining ma'no-mazmuni ham ochib berilgan: "Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilishi mumkin emas, – deydi Islom Karimov, – Bu konstitusiyaviy qoida bizning oldimizga milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini qo'yadi"<sup>1</sup>. Milliy istiqlol mafkurasi keng xalq ommasining manfaatlarini, maqsad va ideallarini ifoda etib, u o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning – butun xalqimizning umumiy manfaatlarini ifodalaydi.

### **3.4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasini ishlab chiqishga ehtiyoj. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida milliy istiqlol g'oyasining nazariy va amaliy jihatdan asoslanishi**

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng odamlar ongini huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish kabi maqsadlarimizga binoan o'zgartirish, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, buning uchun esa mustaqil taraqqiyot qonuniyatlarini aks ettiradigan, tub manfaatlarimizga javob beradigan milliy g'oya zarurligi ayon bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida bu masalalarning mohiyati, dolzarbligi, jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati har tomonlama asoslab berildi. Milliy mafkura O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning mafkurasi bo'lib, u har bir fuqaroning jamiyat, el, yurt oldidagi o'z burch va mas'uliyatini qay darajada bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir. Fuqaroning jamiyat hayotida g'oya va mafkuraga bog'liqligi ijtimoiy adolat, erkinlik, inson huquqlari tushunchalari bilan o'zaro uyg'un tarzda bog'lanib ketadi. Fuqaro qanchalik mustaqil fikrlovchi va o'z taqdirini yurt, xalq taqdiri bilan bog'lab o'z o'rni va qadriga ega bo'lsa, milliy mafkura ham shuncha kuchli, ta'sirchan va yaratuvchan bo'ladi. Milliy mustaqillik g'oyasining asosiy

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1994. 109-бет.

tamoyillari O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov davlatimiz rahbari bo'lib o'z faoliyatini boshlagan 1989 yil iyun oyidan boshlandi. 1989 yil 21 oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi va xalqimizning tili, dini, urf-odat va madaniyatining yanada rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit va imkoniyatlar yaratildi. 1990 yil 24 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimi joriy etilib, Islom Karimov Respublika Prezidenti lavozimiga saylandilar va shu yil 20 iyunda Mustaqillik Deklarasiyasini qabul qilishning tashabbuskori bo'lib chiqdilar. 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Bularning barchasi milliy mustaqillik g'oyasini ishlab chiqish va jamiyat hayotiga tatbiq qilish sohasidagi dastlabki qadamlar edi. 1992 yil iyul oyida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Kengash sessiyasida "Bugungi kunda xalqni yakdil qila oladigan ishlar va g'oyalar oz emas, ular ichida eng ulug'i, eng olijanobi – O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini ta'minlashdir. Ana shu maqsad, ana shu g'oya atrofida birlashsak, aslo xor bo'lmaymiz aziz vatandoshlar" degan fikrni bayon qildilar.

Ma'lumki, mustamlakachilik siyosatiga asoslangan sobiq Sovet tuzumi va jamiyatda hukmron mavqega ega bo'lgan kommunistik mafkura bir necha ming yillik madaniyatimizga, xalqimizning milliy taraqqiyotiga, qadriyatlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Bu davrda mamlakatda soxta ideallarga asoslangan ijtimoiy normalar, hayotdan ajralgan volyuntaristik siyosat, boshqaruvning totalitar uslublari milliylikka xos bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni xalqning hayot tarzidan, ruhiyatidan siqib chiqarishga qaratilgan edi. Sobiq Sovet tuzumi davridagi kommunistik mafkura odamlar teng, baxtli va farovon yashaydigan jamiyat qurish g'oyasini ilgari surib, ijtimoiy tenglikning asosini odamlarning mulkdan begonalashuvida, hususiy mulkning yo'q qilinishida deb e'lon qilgan edi. Inson o'zining mehnati natijasidan manfaatdor bo'lmaganidan so'ng jamiyatda ijtimoiy tekischilik vujudga keldi. Yaxshi ishlagan va ishlamaganlarga moddiy ne'matlarni taqsimlashda bir xil munosabatda bo'lindi. Odamlarda "men davlatning fuqarosimanmi, kerak bo'lsa davlatning o'zi meni boqib olsin" degan tayyorga ayyorlik psixologiyasi shakllandi. O'zbekiston o'z milliy mustaqilligini e'lon qilganidan so'ng eski mafkuradan voz kechildi. Jamiyatning ma'naviy hayotida



g'oyaviy bo'shliq vujudga keldi. Vujudga kelgan g'oyaviy, mafkuraviy bo'shliqni turli yot g'oyalar va mafkuralar to'ldirishga harakat qilib, jamiyatimiz ma'naviy hayotiga diniy ekstremizm, fundamentalizm, missionerlik, prozelitizm, kosmopolitizm kabi zararli g'oyalar va mafkuralar kirib kela boshladi. Jamiyat hayotida O'zbekiston fuqarolarini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, ma'lum bir maqsadga yo'naltiruvchi, harakat dasturi bo'luvchi milliy g'oya va mafkurani ishlab chiqish va uni ijtimoiy hayotga tatbiq qilish ehtiyoji va zarurati vujudga keldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining strategik maqsadlarini o'zida ifodalagan "O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosati" konsepsiyasini nazariy jihatdan asoslab berdilar. Ilgari surilgan nazariyaning amaliyotga joriy qilinishi esa milliy g'oya, milliy mafkurani ishlab chiqish, uning asosiy tushuncha va tamoyillarini, g'oyalarini odamlar ongi va qalbiga singdirishni talab etardi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada, o'z yo'limizning shart-sharoiti va zaminlari, O'zbekistonning demokratik va ijtimoiy adolat jamiyati ekanligi, O'zbekistonning kelajagi buyuk, mustaqil, demokratik, huquqiy davlat hamda bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodidan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlat ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi. Konsepsiyada milliy manfaatlarining ustuvorligi va teng huquqliligi, hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatning mohiyati, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mustaqil O'zbekiston ichki siyosatining negizi ekanligi, bunda inson manfaatlariga qaratilgan mehnatni rag'batlantirish, kuchli ijtimoiy siyosatni olib borish, mamlakat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlari bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi va vatanparvarlik kabi bosh g'oyaviy tamoyillar ta'riflab berildi. Birinchi Prezidentimizning asarlarida xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasi ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Milliy g'oya, milliy mafkurani shakllantirish va rivojlantirish masalasiga birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab katta e'tibor qaratib kelgan. Bugungi kunda ham xalqni yakdil qila

oladigan ishlar va g'oyalar oz emas, – deydi Islom Karimov, – Ularning ichida eng ulug'i, eng olijanobi – O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini ta'minlash. Ana shu maqsad, ana shu g'oya atrofida birlashsak, aslo xor bo'lmaymiz, aziz vatandoshlar!<sup>1</sup>. Shunday qilib, milliy g'oya va milliy mafkuraning nazariy va amaliy masalalari birinchi Prezidentimiz tomonidan o'z asarlarida har tomonlama yoritilib, asoslab berilgan. Mafkura – jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi, – deydi Islom Karimov, – Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin, toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi. Mening fikrimcha, mafkuraning hayotiyliigi uning xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'li mos bo'lishi, eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan o'lchanadi. Faqat shunday mafkuragina hayot va davr sinovlariga bardosh beradi, odamlar unga ishonib, o'zining iymon-e'tiqodi sifatida qabul qiladi. Shundagina u eng zamonaviy quroldan ham ko'ra kuchli ruhiy-ma'naviy qudrat kasb etadi<sup>2</sup>. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni – Konstitusiyasining ishlab chiqilishida milliy va umuminsoniy g'oyalarga bevosita tayanilgani masalasiga ham bevosita to'xtalib o'tadi. Bu Konstitusiya, umumiy mazmunidan tortib oddiy bir bandiga qadar, Xo'ja Ahmad Yassaviy bobomiz davrida, buyuk Amir Temur zamonida shakllangan milliy tafakkurni, muqaddas islomiy qadriyatlarni o'zida aks ettiradi. Shu ko'hna zamin odamlari ko'nglida ustuvor bo'lgan adolat, haqiqat, iymon, olijanoblik, bag'rikenglik, mardlik, tantilik kabi ulug' xislatlar bu muborak hujjatdan munosib o'rin olgan. Darhaqiqat, u O'zbekistonimizda – shu aziz va muqaddas zaminimizda istiqomat qilayotgan insonlarning dunyoqarashini, ularga xos o'zaro munosabatlarni, xususiyatlarni, mehr-oqibat, odamiylik, o'zga millat va elatlarga nisbatan hurmat, ilmu fanga intilish, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlarni o'ziga asos qilib olgan.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996.15-бет.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкуриси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. –Т.: Ўзбекистон, 2000. 6-бет.

...Haqiqatan ham, hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning Konstitusiyamiz umuminsoniy g'oyalar – tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi eng ulug' g'oyalarga xizmat qiladi. Ishonchim komilki, buni barcha xalqimiz teran anglaydi va bunga ishonadi<sup>1</sup>.

O'zbekistonda barpo etiladigan davlat va jamiyat tayanishi zarur bo'lgan me'yorlar masalasiga to'xtalib, birinchi Prezidentimiz quyidagi fikrlarni bayon qilgan edilar. Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz, – degan edilar Islom Karimov, – Adolat va haqiqatga intilish esa xalqimiz tabiatining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'tmishda oliy adolat g'oyasi mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talab va bahoning asosi bo'lgan. U davlatchilik negizlarini belgilash, islomiy qoidalar va shariat mezonlarining poydevorini tashkil etgan. ... Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart<sup>2</sup>.

Milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasining asosiy tushuncha va tamoyillari, milliy mafkuraning g'oyalar tizimini ishlab chiqish va ularni jamiyat hayotiga tatbiq qilish masalalari mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab kun tartibiga qo'yilgan bo'lib, ushbu masala yuzasidan birinchi Prezidentimiz Islom Karimov quyidagi fikrlarni bayon qilgan edilar.

Yangi hayot, yangi jamiyat qurish, boshlagan islohotlarimizni pirovardiga yetkazish, biz ko'zlagan, biz intilayotgan manzillarga yetish, qisqa qilib aytganda, xalqimizga munosib hayot barpo etish haqida gapirar ekanmiz, – deydi O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov, – eng muhim muammolar orasidan asosiy to'rt tamoyilni, asosiy to'rt shartni alohida ta'kidlagan bo'lur edim.

Birinchisi. Biz bundan buyon ham yurtimizdagi tinchlik-totuvlik, barqarorlikni ko'z qorachig'iday saqlash, yovuz, g'arazli yomon ko'zlardan – harakatlardan asrab-avaylashimiz kerak.

Ikkinchi shart. Mulkchilik masalasida keskin va qat'iy o'zgarishlar yasash zarur. Mulk o'z egasiga tegishi lozim. Undan keyin shu mulkni asrash uchun,

---

<sup>1</sup>Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. 94-бет.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. 10-бет.

himoya qilish uchun, uni ko'paytirish uchun, uning shaxsga, oilaga, jamoaga xizmat qilishi uchun kurashish mumkin. Chunki, haqiqiy mulk egalari, yangi paydo bo'lgan mulkdorlar sinfi shu davlatni, shu ijtimoiy tuzumni tiklash uchun, ravnaq toptirish va qo'riqlash uchun o'zini ayamaydi. ... O'zining halol mehnati bilan o'ziga boylik topayotgan odamlarni quvish emas, qo'llab-quvvatlash kerak.

Uchinchi muhim masala – odamlarimizning, avvalo, faollarimizning, jamoatchiligimizning tafakkurini o'zgartirish darkor. Jamiyatga yangicha fikrlovchi odamlar kerak. Boqimandalik kayfiyatidan xalos bo'lib, o'zining kuchiga, aqlu zakovatiga, qurbiga, o'zining mulkiga ishonib, yorug' kelajak, munosib, erkin hayot uchun tinimsiz kurashish lozim.

To'rtinchi shart. Odamlarimiz, jamiyatimiz mafkurasida Vatan, yurt g'oyasi ustuvor bo'lmog'i kerak. Milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak. Bu muqaddas g'oyalar, millati va e'tiqodidan qat'i nazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog'i, har birimiz uchun eng katta tayanchga, eng katta ishonchga, boringki, haqiqiy iymonga aylanishi kerak. Istiqlolni himoyalash, uni qadrlash, ulug'lash va unga xizmat qilish milliy ongimizga, aqidamizga aylansagina, bizni tanlagan yo'limizdan hech qanday kuch qaytarolmaydi, qaddimizni bukolmaydi. Bu buyuk g'oyalar har birimizning qonimizga, qalbimizga singib, kelajak avlodlarga muqaddas boylik – muqaddas meros bo'lib o'tishi kerak<sup>1</sup>.

O'zbekistonda islohotlarning chuqurlashib borishi, fuqarolar ongi va qalbiga milliy g'oya va mafkuraning singib borishida O'zbekistondagi tinchlik-totuvlik, millatlararo va dinlararo ahillik va bag'rikenglikning tutgan o'rni va ahamiyati masalalariga ham birinchi Prezidentimizning asarlarida e'tibor qaratilgan bo'lib, Vatanimizni, undagi tinchlik va osoyishtalikni yomon ko'zlardan asray oldik, – degan edi Islom Karimov, – Eng muhimi, mustaqillik bizning or-nomusimizga, faxru g'ururimizga, vijdon va iymonimizga aylandi. Shu yillar mobaynida ona Vatan tushunchasi, hurriyat va demokratiya g'oyalari, istiqlol qadrini anglash tuyg'ulari vatandoshlarimiz qalbidan teran joy oldi. Bugun, men Vatanim uchun,

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. 12-бет.

uni ozod va obod etish uchun nima ish qildim, degan aqida bilan yashaydiganlarning soni, safi tobora kengaymoqda<sup>1</sup>.

Ma'naviyatning, milliy g'oya va mafkuraning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida bir muncha mukammal tarzda yoritilgan bo'lib, Ma'naviyat aslida nima ekanini hammamiz chuqur anglab olsak, uni bolalarimizga ham o'rgatsak, biz kimmiz, qanday buyuk zotlarning avlodimiz, qanday bebaho ma'naviy merosning vorislarimiz, degan savollarni oldimizga qo'yib, ularga javob berib yashaydigan bo'lsak, hech narsadan qo'rqmasak bo'ladi, – deydi Islom Karimov, – Chunki bunday ishonch va e'tiqod bilan yashaydigan xalqni hech kim yenga olmaydi. Xalqimizning ezgu hayot talablariga javob beradigan, uning tub manfaatlari, orzu-intilishlarini har tomonlama aks ettiradigan milliy g'oya, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir yurtdoshimizning o'z g'oyasiga aylansa, ularning qalbi va yuragidan chuqur joy olsa, – men ishonaman – ana shunda biz ko'zlagan yuksak maqsadlarimizga albatta yetamiz<sup>2</sup>. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida milliy g'oya va milliy mafkura haqida so'z yuritilganda mafkuraning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Milliy istiqloq mafkurasi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi; xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarmizning o'lmas merosidan oziqlanadi.

Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi; yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi; jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi; millati, tili va dinidan qat'i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi; jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. 349-бет.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т.: Ўзбекистон, 2015. 298-бет.

Istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur:

inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etishi; millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbai bo'lishi; zamon va davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan manfaat, maqsad muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olishi.

Milliy istiqlol mafkurasi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning – butun xalqimizning quyidagi umumiy manfaatlarini ifodalaydi:

Mamlakatning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, sarhadlar dahlsizligi; yurtning tinchligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, informasion tahdidlardan muxofaza etilishi; mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash; har bir oila va butun xalqning farovonligi; jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyillarining amal qilishi.

Milliy istiqlol mafkurasi ana shu talablarga javob bergan taqdirdagina quyidagi asosiy vazifalarni bajara oladi:

mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish; hur fikrli, mutelik va jur'atsizlikdan xoli bo'lgan, o'z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalash; odamlarimiz, ayniqsa yoshlarimizning irodasini baquvvat qilish, iymon-e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma'naviy muhit yaratish; vatandoshlarimiz tafakkurida o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash; vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish; xalqimizga xos bo'lgan iymon e'tiqod, insof-diyonat, saxovat, halollik, mehr-oqibat, sharmu-xayo kabi fazilatlarni yanada yuksaltirish. Mamlakatimizning ko'p millatli xalqi ongi va qalbida "O'zbekiston – yagona Vatan" degan tushunchani shakllantirish va rivojlantirish.

### **3.5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi, uning mazmuni va mohiyati**

Mamlakatimiz mustaqilligining bugungi bosh strategik maqsadi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bunda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy hayot sohalarida islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik O'zbekiston jamiyati ijtimoiy hayot sohalarida milliy g'oya negizlarining tiklanishi, shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari bo'ldi. Mustaqillik yillarida milliy g'oya ishlab chiqilib hayotga tatbiq etildi. Milliy g'oya O'zbekiston fuqarolarining ishonch va e'tiqodiga aylantirildi. Milliy g'oya O'zbekiston fuqarolari faoliyatida dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy g'oya tufayli xalqimizda haqiqiy vatanparvarlik tuyg'usi, milliy g'urur, o'zlikni anglash jarayoni amalga oshmoqda. Soxta g'oya va mafkuraviy aqidalar bilan bog'liq tushuncha va qarashlarga barham berilib, "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" tafakkuri, madaniyati shakllantirilmoqda. Milliy g'oya konsepsiyasining ishlab chiqilib rivojlantirilishi fuqarolarda mustaqil fikr va tafakkurning rivojlanishiga asos bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida milliy g'oyaning negizlari bo'lgan milliy madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Mustaqillik tufayli milliy g'oya ta'lim-tarbiyani yangi asosga, yuqori bosqichga ko'tarib, xalqimizning tarixiy merosi, milliy madaniy urf-odatlarini, an'analari va umum e'tirof etilgan demokratiya tamoyillari asosida ta'limda milliylik va umuminsoniylikning uyg'unligi amalga ta'minlanmoqda. Hozirgi yoshlar jahon ilm-fani yutuqlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanmoqdalar. O'zbekistonda mustaqillik yillarida milliy g'oya negizida yangi avlod shakllandi. Milliy qadriyatlarga sadoqatli, umuminsoniy qadriyatlarni egallagan, bilimli, dunyoqarashi keng, jismonan sog'lom yoshlar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etmoqdalar. Ushbu jarayon mustaqillikni

mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmog'da. Mustaqillikning o'tgan davri davomida milliy g'oya jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy jarayonlarga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Milliy g'oya jamiyat mafkurasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti yo'nalishini belgilab beradi. Milliy g'oya O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo qilinishi va rivojlanishiga yordam berib, u O'zbekiston fuqarolarini turli xil zararli yot g'oyalardan asraydi va himoyalaydi.

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Sobiq Sovet tuzumi davrida davlat mafkurasi bo'lgan yagona kommunistik g'oyadan voz kechildi. Jamiyatning ma'naviy hayotida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelganidan so'ng turli zararli g'oyalar va mafkuralar globallashuv va axborot oqimining tezlashuvi natijasida jamiyatning ma'naviy hayotiga kirib kelib odamlarning ongi va qalbini egallashga harakat qila boshladi. Jamiyat hayotida sog'lom g'oya ustuvor bo'lib turmasa, odamlarning qalbi va ongini yot, zararli g'oyalar egallab, xalq turmush tarzini izdan chiqaradi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov jamiyat taraqqiyotining o'ziga hos qonuniyatlarini teran his etib va tahlil etib Milliy istiqlol g'oyasi to'g'risidagi ta'limotni yaratdi. O'zbekistonning ma'naviy hayotidagi yangilanish jarayonlarini o'zida aks ettirgan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" konsepsiyasi Islom Karimovning asarlarida nazariy jihatdan asoslanib, O'zbekistonda islohotlarning amalga oshirilishi jarayonida amaliyotga joriy etib borildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning milliy g'oya va milliy mafkuraga bag'ishlangan asarlari asosida 2000 yilda "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" nomli risola tayyorlandi va chop etildi. 2001 yil 18 yanvarda "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi qabul qilindi.

Milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi va rivojlanishini tarixiy bosqichlar bilan ko'rib o'tganda, u bir necha tarixiy bosqichlar bo'yicha o'rganiladi. Tarixiy



nuqtai-nazardan yondashganda, har bir bosqich milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish jarayonida amalga oshirilgan muayyan faoliyat sohasi bilan bog'liq holda ko'rib o'tiladi.

Birinchi bosqich 1989-1991 yillarni o'z ichiga oladi. Bu bosqich O'zbekistonning mustaqillikka erishish arafasida amalga oshirilgan o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lib, amal qilib kelgan yagona mafkuraviy aqidalardan voz kechish, kommunistik g'oyani mamlakatimiz taraqqiyoti, yangi davr va zamon o'zgarishlari talablariga javob bermasligi, uni yangicha ong va tafakkur orqali qayta ko'rib chiqish va mutlaqo yangi tamoyillar asosida ishlab chiqish vazifalari qo'yilganligi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi bosqich 1991-1992 yillarga taalluqli bo'lib, bu bosqichda mustaqil O'zbekistonning demokratik taraqqiyotida uning talablariga javob beradigan jamiyat mafkurasini ishlab chiqish va belgilash, huquqiy asoslarini yaratish davri bo'ldi. Bu bosqichda milliy istiqlol g'oyasining jamiyat ijtimoiy hayoti sohalarida qanday prinsiplarga asoslanishi aniq ifodalab berildi. Mustaqillik tufayli birinchi marotaba Konstitusiyamizda mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligiga keng o'rin berildi. Konstitusiyaning 12-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas" – deb yozib qo'yilgan. Bu qoida Respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va istiqlol mafkurasini ishlab chiqishda va mustaqillikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hech qaysi mafkurani davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi milliy istiqlol g'oyasini davlat mafkurasi emas, jamiyat mafkurasi sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi va uni huquqiy jihatdan kafolatladi. Hayot mavjud ekan, jamiyat, davlat bor ekan, har qaysi millat, har qaysi xalq o'z yo'lini, maqsadini, lo'nda qilib aytganda, o'zining milliy g'oyasini, milliy mafkurasini aniqlab olishga harakat qiladi. Hayot taraqqiy etgan sari bunday masalalar yanada boyib, yanada takomillashib boraveradi. Milliy g'oyaning yana bir muhim ahamiyati shundan iboratki, u millatimizning, xalqimizning o'zligini anglashiga, o'zining milliy qadriyatlarini,

urf-odatlarini yo'qotmasdan, ularni tiklab, avaylab, e'zozlab, yangi, o'sib kelayotgan avlodga yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich 1993-2000 yillarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda amalga oshirilgan o'zgarishlar jamiyat mafkurasini yanada boyitish, uning jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida namoyon bo'lishini o'rganish, milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan tushuncha va tamoyillarni, maqsad va vazifalarni hamda uning asosiy g'oyalarni, shuningdek jamiyat mafkurasini bilan bog'liq konsepsiyani, ya'ni "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar"ni ishlab chiqilganligi bilan xarakterlanadi. Buni amalga oshirish uchun Islom Karimovning tashabbuslari bilan amalga oshirilgan tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy ishlar o'zining keng ko'lamliligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

To'rtinchi bosqich 2001-2007 yillarga taalluqlidir. Bu bosqichda Milliy istiqlol g'oyasining tushuncha va tamoyillari takomillashtirildi, rivojlanish qonuniyatlari aniqlashtirildi. Milliy g'oyani o'rganishni taqozo etadigan umumiy va o'ziga xos qonuniyatlar mavjud bo'lib, umumiy qonuniyatlar turli xalqlar, mamlakatlar, jamiyatlar hayotida amal qiladigan umumiy asosga ega bo'lgan ichki zaruriy bog'lanishlardir.

Beshinchi bosqich 2007 yildan to hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda Milliy istiqlol g'oyasini odamlar ongi va qalbiga singdirish yo'llari va vositalari takomillashtirildi. Milliy istiqlol g'oyasi tushuncha va tamoyillari tizimli holatga keltirildi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari asosida 2000 yilda chop etilgan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida milliy g'oya va mafkura tushunchalari tizimli ravishda yoritib berilgan bo'lib, Milliy g'oyani konseptual asosda tushunish imkoniyatini beradi. Risola 5 bobdan iborat bo'lib, 1-bob, Milliy g'oya va mafkuralar tarixidan, deb nomlangan. Ushbu bobda 6 ta paragraf bo'lib, bu paragraflarda, g'oya va mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyati, tarixiy shakllari va ko'rinishlari, xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri, falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlari, fikrlar va

qarashlar rang-barangligi, insoniyat tarixida mafkuradan ko'zlangan maqsadlar haqida ma'lumot berilgan.

Risolaning 2-bobi, Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash deb nomlanib, bu bob 5 ta paragrafdan iboratdir. 2-bobda, Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar va Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar, degan paragraflar bor.

Risolaning 3-bobi, O'zbekiston taraqqiyoti va mafkuraviy muammolar, deb nomlanib, bu bob 4 paragrafdan iborat. Bu paragraflar, Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz? Taraqqiyotning o'zbek modeli, O'zbekistonning jahondagi o'rni va nufuzi, mafkuraviy muammolar: g'oyaviy bo'shliq va zararli g'oyalarning jamiyatimizga ta'siri, deb nomlangan.

Risolaning 4-bobi, Milliy istiqlol mafkurasi, deb nomlanib, bu bobda 6 ta paragraf mavjud. Bular mohiyat-mazmuni, tarixiy va falsafiy asoslari, milliy va umuminsoniy tamoyillari, ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, milliy mafkuramizning bosh g'oyasi, mafkuramizning asosiy g'oyalari, kabi paragraflardan iborat bo'lib, oxirgi paragrafning o'zi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik) kabi g'oyalarga bo'lingandir.

Risolaning 5-bobi milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirish, deb nomlangan. Bu bobning o'zi 12 ta paragrafdan iborat bo'lib, bu paragraflar ta'lim-tarbiya, fan va ilmiy muassasalar, madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar, adabiyot va san'at, din, jismoniy tarbiya va sport, urf-odat, marosim va bayramlar, oila, mahalla, mehnat jamoalari, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari, kabi paragraflardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamoatchilik oldidagi chiqishlarida va o'z asarlarida milliy manfaatlar, milliy istiqlol, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, milliy mentalitet masalalariga katta e'tibor qaratdi. 1993 yil 23 aprel kuni Islom

Karimov bir guruh adiblar bilan suhbat qilib milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zarurligini asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida 1993 yil 7 may kuni nutq so'zlab Islom Karimov "Oldimizda turgan eng muhim masala, bu – milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir", degan edi. Mazkur nutqida Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: – milliy istiqlol mafkurasini xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim. Shu bilan birga bu mafkura xalqimizda, o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqiy davlatlar orasida teng huquqli o'laroq munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak. Xalqni milliy manfaatlar yo'lida birlashtirish uchun xalqning mafkuraviy konsepsiyasini ishlab chiqish lozim edi. Bu xayotiy zaruriyatni chuqur anglagan Islom Karimov o'zining asarlar to'plami 1-jildini "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura" deb atab, bu kitobda O'zbekistonning barcha sohalaridagi milliy manfaatlari o'z ifodasini topgan edi. Milliy istiqlol g'oyasining hayotga tatbiq etilishi va demokratik tamoyillarning amal qilishi davlat, jamiyat hamda fuqarolarning o'zaro munosabatlaridagi qonuniylikka asoslanadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar qanday ko'rinishda bo'lgan?
2. Mustaqillik va ma'naviyatning o'zaro bog'liqligi nimada?
3. O'zbekistonda jamiyatning ijtimoiy sohalarida siyosiy institutlarning mafkuraviy asoslari nimalarga asoslangan?
4. O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy hayot sohalarida mafkura va fikrlar xilma xilligi qanday shakllangan?
5. Hech bir mafkuraning davlat mafkurasini sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi deganda nima tushuniladi?
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasini ishlab chiqishga ehtiyoj mamlakatimizda qachon vujudga kelgan?

7. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida milliy istiqlol g'oyasining nazariy va amaliy jihatlari qanday asoslangan?
8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining jamiyat rivojidagi rolini tushuntirib bering?

## **4-BOB. MILLIY G'OYA TIPOLOGIYASI**

### **4.1. G'oyalar tipologiyasi, milliy g'oya tipologiyasi, ularning mazmun-mohiyati**

Inson ong, tafakkurga ega bo'lgan oliy mavjudot bo'lib, inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g'oyalar muhim o'rin tutadi. Har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan mafkuraga, ma'lum bir g'oyalarga tayangan holatda ijtimoiy hayotdagi tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlari, maqsad-muddaolari, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Inson jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, u turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. G'oya inson tafakkurining mahsuli, ma'lum bir maqsadga qaratilgan fikrdir. Fikr insonning voqelikka oddiy munosabatini ifodalasa, g'oya inson va jamiyatni o'ziga jalb etib, uyushtirib, safarbar qilib, ijtimoiy kuch yoki vositaga aylanadi. G'oya – voqelik va hayot ta'sirida vujudga keladigan, uni aks ettirish asosida shakllanadigan dunyoni bilishning o'ziga xos shakllaridan biridir. U shaxs, jamiyat, guruh, partiya va boshqalarning muayyan maqsadlarini ifodalovchi ularni birlashtiruvchi va pirovard maqsadlarga safarbar etuvchi ijtimoiy fikrdir. G'oya, o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, odatda g'oya dastlab bir shaxsning ongida shakllanadi, so'ng, ijtimoiy dolzarbligiga qarab, odamlar, xalqlar, millatlar orasiga yoyiladi. Bugungi kunda do'stlik, birodarlik, tinchlik va tenglik g'oyalari butun insoniyatni, mintaqaviy sivilizasiyalarni birlashtiruvchi va bahamjihat bo'lib harakatga undovchi g'oyalar hisoblanadi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida, yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi. Fikr anglangan haqiqatdan tug'iladi. G'oya esa haqiqatning namoyon bo'lish va rivojlanish qonuniyatlarini anglashdan tug'iladi. G'oya insonlar qalbi va ongini egallab, jamiyat rivojiga ta'sir etadi. G'oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanligidir.

Turli diniy aqidalar, falsafiy ta'limotlar, ilmiy qarashlar, badiiy asarlarning negizida muayyan g'oyalar yotadi. Ijtimoiy-siyosiy harakatlarning maqsadlari ham g'oyalarda aks etadi. G'oyalarning turlari ko'p bo'lib, ular tafakkur mahsuli sifatida, voqelikni, hayotni, uning qonuniyatlarini o'rganish, kashf etish, o'zlashtirish, bilish va anglash jarayonida vujudga keladi. G'oyalar tipologiyasida g'oyalar turlari ko'p bo'lib, tafakkurning mahsuli sifatida g'oya tevarak olamni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari – ilm-fan, din, falsafa, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq – ma'lum bir g'oyalarni ishlab chiqadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Jamiyatning ma'naviy hayoti, ijtimoiy ongning shakllari ma'lum bir g'oyalar bilan bevosita bog'liqdir.

Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab g'oyalar bir qancha turlarga bo'linadi. G'oyalar turlari ichida ilmiy g'oyalar, falsafiy g'oyalar, diniy g'oyalar, badiiy g'oyalar, ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, milliy g'oyalar, umuminsoniy g'oyalar va hokozolar mavjud. G'oyalarni jamiyatning ijtimoiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan partiyaviy, sinfiy va etnik, jamiyat hayotida tutgan ko'lamiga ko'ra farqlanadigan umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan g'oya shakllari bor.

1. Ilmiy g'oyalar – fan taraqqiyoti natijasida yaratilgan, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari, ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlarga ilmiy g'oyalar deyiladi. Ilmiy g'oyalarning rivojlanib borishi, fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksiz jarayon bo'lib, bu jarayonda amaliyotda tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi. Ilmiy g'oyalar muayyan bir fanlar tomonidan ishlab chiqiladi. Fan ma'lum bir tizimga solingan ilmiy bilimlar yig'indisidir. Fan o'zining ilmiy tushuncha uslublari va metodologiyasiga ega bo'lgan, olamni bilish va o'zlashtirishning maxsus usuli, ilmiy bilimlar tizimidir. Fan o'z oldiga ilmiy bilimlar, ilmiy g'oyalar yaratishni maqsad qilib qo'yadi. Ilmiy bilimlar hosil qilish usullariga qarab, fanlar eksperimental va fundamental fanlarga bo'linadi. Fanlar o'rganish ob'yektiga ko'ra tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga bo'linadi.

Tabiatshunoslik fanlarining botanika, zoologiya, kimyo, matematika, fizika kabi sohalari; ijtimoiy-gumanitar fanlarning tarix, etnografiya, sosiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, etika, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalari vujudga kelib, ularning har birida yana bir qator tarmoqlar vujudga keldi. Masalan, tarix fanida arxeologiya, etnografiya, manbashunoslik, numizmatika, geraldika kabi fan tarmoqlari mavjud. Texnik fanlarga elektrotexnika, energetika, informatika, mexanika, nanotexnologiya, robototexnika va boshqalar taalluqlidir.

Mustaqillik tufayli xalqimizning ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ma'naviy-intellektual merosini o'rganish, jahon ilm-fani va texnikasi yutuqlaridan bahramand bo'lish, dunyoning mashhur ilm dargohlarida o'qish-o'rganish, yangi ilmiy g'oyalarni ishlab chiqish va rivojlantirish imkoniyatlari vujudga keldi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish, zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish, barkamol insonni shakllantirishda ilm-fan yutuqlari, yangi ilmiy g'oyalarga tayanish hayotiy zaruratga aylandi. Fan-texnika taraqqiyoti jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylanib, kundalik hayotimizda juda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Fan va texnika juda tez rivojlanib, ishlab chiqarish jarayoniga yangi innovasion g'oyalar tatbiq etilmoqda. Yangi 2018 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinib, shu sohada ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

2018 yil 18-19 oktyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Rossiya Federasiyasi Prezidenti Vladimir Putin O'zbekistonga davlat tashrifi bilan kelib, tashrif asnosida turli sohalardagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 20 ta hujjat imzolandi. Ushbu hujjatlarning ichida fan va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar ham bo'lib, ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, Rossiya Federasiyasi oliy o'quv yurtlarining 82 ta, O'zbekistonning 80 ta oliy o'quv yurtlari rektorlari ishtirokida o'tgan "Yangi iqtisodiyot uchun yangi kadrlar" mavzusidagi birinchi Ta'lim forumida ta'lim va fan sohasidagi hamkorlik, jumladan, mamlakatda Rossiyaning



yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallarini ochish to'g'risida 100 dan ortiq kelishuv imzolandi.

Falsafa ijtimoiy tafakkur va insoniyat ma'naviy taraqqiyoti mahsulidir. U kishilarning olamni bilish, o'zlashtirish, farovon hayot kechirish va o'z insoniy salohiyatlarini namoyon etish ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqdir. Har bir falsafiy g'oya, mafkura, bilimlar tizimi asosan o'z davri xususiyatlarini aks ettirib, ular zamon ruhi va ma'naviyatini o'zida mujassamlashtirgan, davr muammolarini hal etishda qo'l kelgan. Shuning uchun Aflotun, Arastu, Suqrot, Konfusiy, Laoszi, Brixaspati, Forobiy, Beruniy, Navoiy, Gegel hamda boshqa faylasuflarning asar hamda ta'limotlarida ular yashab o'tgan davr g'oyalari aks etgan. Falsafiy g'oyalar har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir. Ular bizni o'rab turgan dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to'plangan bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma'no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi. Insoniyat tarixida turli xalqlarning aql-zakovat sohiblari, dono faylasuf va allomalari turli xil g'oyalar yaratganlar. Forobiyning fozil shahar to'g'risidagi, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandning komil inson haqidagi, Ibn Sinoning tana va ruh munosabatiga oid, Alisher Navoiyning adolat va insoniylik borasidagi teran fikrlari falsafiy g'oyalarning yorqin namunasi. Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, undagi o'zaro aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagi adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, umrning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog'liq ko'pdan-ko'p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining umumiy va azaliy muammolari sirasiga kiradi. Falsafa yangi g'oyalarning tug'ilishiga imkon beradi, hayot, ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Muayyan ijtimoiy kuch, guruh, qatlam, sinf, partiya va oqimlar o'z maqsad-muddalari va g'oyalari ilmiy asoslashda falsafadan foydalanadi.

Diniy g'oyalar deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymon e'tiqodning negizini tashkil etuvchi g'oyalarga aytiladi. Din arabcha so'z bo'lib,

“ishonch”, “ishonmoq” degan ma’nomlarni bildiradi. Din insonga tashqi olamdagi barcha narsalarni yaratgan ilohiy qudratga ishonch va e’tiqodni ifoda etadigan maslak, qarash va ta’limotdir. Din muayyan ta’limotlar, his tuyg’ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo’ladigan olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida shakli, uni idrok etish usulidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo’lgan ma’naviy-axloqiy kuchdir. Dinlar uchta katta guruhga bo’lib o’rganilib, bular – dinning tarixiy shakllari, milliy davlat dinlari va jahon dinlaridir. Dinning tarixiy shakllari – totemizm, animizm, fetishizm, shomonizm, sehrgarlik (magiya), animatizm kabi diniy qarash va tasavvurlardan iborat bo’lsa, milliy davlat dinlariga – Hinduiylik, Jaynizm, Sikhizm, Daosizm, Konfusiychilik, Sintoizm, Iudaizm, jahon dinlariga Buddaviylik, Xristianlik va Islom kabi dinlar kiradi. Insoniyat tarixida vujudga kelgan diniy ta’limotlarda o’ziga xos g’oyalari mavjud bo’lib, jamiyatning taraqqiy etib borishi jarayonida bu g’oyalarda ham muayyan o’zgarishlar amalga oshib, ular jamiyatga moslashib borgan. Hinduiylik, Jaynizm, Sikhizm, Buddaviylik kabi dinlar politeizm ya’ni ko’pxudolilik g’oyasi asosida o’z qarashlarini ilgari surgan bo’lsalar, Iudaizm, Xristianlik va Islom dinida monoteistik ya’ni yakkaxudolik g’oyalari ilgari surilgan. Islom dinida Allohning yagonaligi g’oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan.

Badiiy g’oyalar – adabiyot va san’at asarining asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadigan, undan ko’zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi. Badiiy g’oyalar insonda muayyan taassurot uyg’otadi. Badiiy asarni o’qish jarayonida adabiy qahramonlarni sevish, ulardan o’rnak olish, ularga ergashish holatlari yuz beradi. Inson badiiy ijod jarayonida badiiy asarni yaratish uchun muayyan g’oya asosida o’zining badiiy rejasini tuzadi. Badiiy reja o’zida voqelikning ichki va tashqi, yakka va umumiy tomonlarini singdirgan bo’ladi. Badiiy reja-g’oya san’atkor miyasida avval boshdanoq jonli taassurotlar, voqea-hodisalar bilan bog’liq holda vujudga keladi. Badiiy g’oya-reja san’atkorni ijodga chorlaydigan ichki izchil turtki bo’lib, u san’atkor ijodi davomini yo’naltirib turadi. San’atkor his-tuyg’ulari

o'zi yaratayotgan qahramonlari qiyofasiga kirib ularning hayoti bilan yashaydi. Hayotni kuzatish san'atkorga ham, olinga ham juda zarur. Ijodkor kuzatish orqali voqea-hodisalar zamiridagi mohiyatni ifodalaydigan vosita va shakllarni o'z xotirasiga muhrlaydi va ularni aks ettiradi. San'atkor dunyoni, avvalo, estetik nuqtai nazardan idrok etadi va baholaydi. Badiiy ijod jarayonining ibtidosi san'atkorning muayyan g'oyani yoki g'oyalar tizimini badiiyat orqali boshqalarga yetkazish istagi bilan bog'liq. Badiiy ta'sir vositalari juda katta kuchga ega bo'lib, inson va jamiyat ongini o'zgartirishda, shaxs ruhiyatiga ta'sir o'tkazishda, odamlarni harakatga keltirishda badiiy adabiyot va san'atning ahamiyati beqiyosdir. Milliy istiqlol g'oyasini targ'ib etish, xalqning ongi va qalbiga singdirishda bular muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar har bir xalq va umuman butun insoniyatning orzu-umidlarini, maqsad muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi. Ozodlik va mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari ijtimoiy-siyosiy g'oyalardir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, o'lmas g'oyalar xalqlarga kuch-quvvat va ilhom bag'ishlab, ularni o'z erki uchun safarbar etib kelgan.

Qaram holatga tushib qolgan insonni o'z erki uchun kurashga chorlaydigan, birovga qaramlikning har qanday ko'rinishini inkor etadigan g'oya bu ozodlik g'oyasidir. Ozodlik g'oyasi insoniyatning ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyoti jarayonidagi eng muhim g'oyalardan biridir. Qaysi bir xalq, millat, inson ozod va erkin bo'lsa, uning g'urur, iftixori yuksak, or-nomusi, kelajak uchun mas'uliyati ulkan, moddiy va ma'naviy madaniyati taraqqiy etgan bo'ladi. Ozod inson o'zining imkoniyati, qobiliyatini erkin namoyon qilib, jamiyatda baxtli farovon yashash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xalqimiz azaldan mehnatkashligi, buyuk yaratuvchilik quvvatiga egaligi, hamisha ezgulikka intilib yashashi, insonga munosabatning g'oyat ibratli jihatlarini turmush tarziga aylantirgani bilan ajralib turadi. Ozodlik esa davlat, jamiyat va insonga yuksalish, taraqqiy etish imkoniyatini beradi. Ozodlik tenglar orasida teng bo'lib, baxtli farovon yashash imkoniyatini beradi.

Mustaqillikka erishish g'oyasi xalqimizga azaldan meros bo'lib, bu xalqimizga ajdodlar orqali ming yilliklar qa'ridan bizgacha yetib kelmoqda. Mustaqillik – tenglik sari qo'yilgan birinchi qadamdir. Mustaqillik – o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o'zaro munosabatlarida ham, davlatlar o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, umumiy mezonlar asosida yashash demakdir. Mustaqillik – jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylashdir. Mustaqillik – erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir. Mustaqillik jahon taraqqiyotining ilg'or tajribalari asosida o'z ravnaqining o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqish bilan birga yagona zamin, yagona makon taqdirini belgilashda o'zaro hamkorlikning yangi, sifat jihatidan yuqori bo'lgan, umuminsoniy manfaatlarga mos keladigan andozasi asosida yashash demakdir. Mustaqillik – tabiatan ongli yashash, ongli munosabatni qaror toptirish mezonidir.

Adolat g'oyasi jamiyat hayotida ustuvor bo'lgan, jamiyatdagi, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy jihatdan tartibga solib, odamlarda kelajakka ishonchni mustahkamlaydigan tushunchadir. Adolat arabcha odillik, to'g'rilik, degan ma'noni bildirib, axloq va huquqning me'yoriy kategoriyalaridan biridir. Jamiyatning shaxsga, shaxsning jamiyatga va bir shaxsning ikkinchi shaxsga munosabatida namoyon bo'ladigan adolat ana shu munosabatlarni baholash mezonidir. Bu baholash iqtisodiy, siyosiy, huquqiy yoki axloqiy bo'lishi mumkin bo'lib, hayotning barcha sohalarida yuz beradigan ijtimoiy munosabatlarda qo'llaniladi. Adolat insoniyat ma'naviy qadriyatlarining oliy ko'rinishi bo'lib, baxt, ozodlik, tenglik, tinchlik tushunchalari kabi inson erki va irodasini o'zida ifoda etadi. Istiqloq tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq adolat tamoyillariga asoslanmoqda. Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar va muassasalar vujudga kelishi, inson manfaatlariga e'tibor jahon huquqiy andozalari va milliy urf-odatlarining uyg'unligida shakllanib borayotganligi mustaqil O'zbekistonda adolat talab va qoidalari tantana qilib borayotganligining belgisidir. Adolat qonun-qoidalariga suyangan davlat va jamiyat kuchli bo'lishi muqarrarligi to'g'risidagi sharqona qarashlar bugungi

O'zbekiston siyosatining muhim asoslaridan birini tashkil etadi. Adolat barchaning qonun oldida tengligidir. Adolatli jamiyat shaxsni shunchaki shakllantirib qo'ya qolmaydi, balki ma'naviy yetuk qilib kamol toptiradi.

Haqiqat – tashqi olamdagi narsa va hodisalarning inson ongida to'g'ri aks etishidir. Inson jamiyat hayotida yashar ekan, doimo tashqi olamdagi narsalarni o'rganishga, bilishga, haqiqatni anglab yetishga harakat qiladi. Haqiqat bu tashqi olamdagi narsa-hodisalarning to'g'rili haqidagi inson tomonidan berilgan axloqiy bahodir. To'g'rilik insonning ajoyib xulqlaridan biri bo'lib, hayotdagi hamma ishlarning tartibda bo'lishini ta'minlaydi. Haqiqatparvarlik va to'g'rilik insonning fazilatini oshiradi. Haqiqatgo'y, yaxshi xulq egasi odamlarga nisbatan ochiq yuzli bo'ladi, muloyimlikni qo'ldan bermay, shirinsuxanligi bilan ajralib turadi, doimo samimiy munosabatda bo'ladi. Haqiqatparvarlik insonning jamiyatdagi tutgan o'rni hamda mavqeyini belgilab beradi, unga nisbatan jamoatchilik fikrining shakllanishiga sababchi bo'ladi. Har bir tarixiy davrda uning ruhini aks ettiradigan, xalqning qadriyatlari va orzu-istaklariga mos keladigan g'oyalar kishilarning ongi va qalbidan joy oladi. Odamlar asrlar mobaynida odil jamiyatni orzu qilib, haqiqat tantanasi uchun kurashib kelganlar.

Tinchliksevarlik – insonparvarlik va vatanparvarlik kabi shaxs ma'naviyatining mezonlaridan bo'lib hisoblanadi. Urush xavfidan xalos bo'lish, tinchlikka intilish har bir ma'rifatli mamlakatning bosh g'oyasidir. Shuning uchun O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirish va taraqqiyotimizning asosiy shartlaridan biri sifatida tinchlik va barqarorlik ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Albatta bu g'oyani amalga oshirish, uni xalqimiz qalbi va ongiga sigdirishda istiqloq mafkurasining ahamiyati benihoya kattadir. Insoniyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinch-totuvlikka intilib kelgan. Insoniyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklikka ko'tariladi. Xalqaro maydonda tinch-totuv yashash ulkan siyosiy hamda ma'naviy masala bo'lib, u davlatlarning o'zaro hamkorlik, yaxshi qo'shnichilik, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlatning milliy mustaqilligi va suverenitetini hurmat qilish, zo'ravonlik, kuch ishlatish siyosatidan voz kechish kabi qoidalarga asoslanadi. Tinch-totuv yashash siyosati, avvalo, har bir davlatning to'la teng

huquqliligini, ularning bir-biriga tazyiq o'tkazmasligini, o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish, chegaralarning daxlsizligini e'tirof etishni nazarda tutadi.

Insonparvarlik insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmuidir. Insonparvarlik – odamzodning qadri, erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilishini ifodalaydigan g'oya va qarashlar tizimidir. Insonparvarlik keng ijtimoiy fikrni qamrab olib, adabiyot, falsafa, san'at va boshqa sohalarda namoyon bo'ldi va "gumanizm" nomi bilan rivojlandi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston ham istiqlolning ilk kunlaridanoq o'z siyosatida insonparvarlik qoidalariga tayanib, xalq hayotini va jamiyat faoliyatini ana shu asosda tashkil etishga kirishdi. Respublikamizda inson manfaatlarini himoya qilishga, uni qadrlashga, har bir shaxsning barkamolligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy tizim shakllantirildi. O'zbekiston Konstitusiyasi va qonunlari inson manfaatlarini himoya qilishga, uni qadrlashga, har bir shaxsning barkamollashuviga qaratilgan. Insonparvarlik g'oyalari, mazmuni va tamoyillari o'zbek milliy mentalitetining tarkibiy qismidir. Insonparvarlik g'oyalari xalq tafakkurining uzviy qismidir. Insonparvarlikning hozirgi davrda xalqimiz voqyeligida namoyon bo'lishi shundan iboratki, mustaqil O'zbekiston o'z tarixiy taraqqiyotining eng oqil yo'lidan, tinchlik, barqarorlik va totuvlik yo'lidan bormoqda.

Har qanday millat, har qanday xalq bor ekan, albatta uning o'z manfaatlari, o'z maqsad va orzu-ideallari bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol g'oyasi – O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;

- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi;
- adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi;

- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi;
- jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;
- millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariга sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi;
- jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi<sup>1</sup>.

Milliy istiqlol g'oyasi har bir O'zbekiston fuqarosining oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir.

Milliy istiqlol g'oyasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar g'oyasidan ustun turadigan sosial fenomen – ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi. Milliy istiqlol g'oyasi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning umumiy manfaatlarini ifodalaydi.

Vatan manfaatlari har bir fuqaro manfaatlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, Vatanning obodligi xalqning farovonligi bilan bevosita bog'liqdir. Milliy istiqlol g'oyasining muhim tamoyillaridan biri inson qadr-qimmatini har tomonlama yuksaltirish, xalq farovonligini oshirishdan iborat. Bunga erishish uchun xalqimiz, yurtimiz fuqarolarining hamjihatligi va birdamligini yanada mustahkamlash talab etiladi. Bu vazifa milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini-mag'zini tashkil etadi. Istiqlol mafkurasi – har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir. G'oya safarbar etuvchi ulug'vor fikr bo'lsa, mafkura esa mana shunday ulug'vor g'oyalarni bir butun yaxlit kuch qilib birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, harakatga keltiruvchi, boshqaruvchi g'oyalar tizimidir. Mamlakatimizda “O'zbekiston – yagona Vatan” degan tuyg'u yuksak

---

<sup>1</sup> Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар (қисқа изоҳли тажрибавий луғат). – Т.: Янги аср авлоди, 2002. 99-бет.

ijtimoiy darajada shakllanmoqda. O'zbekiston hududida qadimdan turli sivilizasiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonma-yon yashab kelgan. Milliy istiqlol g'oyasi tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish va o'zlikni anglash mezoni sifatida, xalqimizning tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy bayroq vazifasini o'taydi. Xalqning ijtimoiy darajadagi o'zligini anglashi tarixiy xotiraning uyg'onishi bilan uzviy bog'liqdir. Shu tufayli xalq o'zining o'tmishidan saboq chiqaradi, qanday maqsad sari, qanday yo'ldan borish lozimligini aniqlaydi va shu asosda o'z istiqbolini belgilaydi.

Milliy istiqlol mafkurasining muayyan maqsadlari bo'lib, bu maqsadlar pirovard natijaga erishishning yo'llari, vosita va usullarini belgilaydi. Mafkuraning asosiy maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

- odamlarni muayyan g'oyaga ishontirish;
- shu g'oya atrofida uyushtirish;
- g'oyani amalga oshirish uchun safarbar etish;
- kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan rag'batlantirish;
- g'oyaviy tarbiyalash;
- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- harakat dasturi bo'lish.

Keng xalq ommasini biron bir g'oyaning ilg'or va insonparvar ekanligiga ishontirmoq uchun, avvalo, mazkur g'oya xalq hayotiga yaqin, bevosita daxldor bo'lishi, ikkinchidan, uni odamlar ongiga yetkazishning eng qulay vosita va usullarini aniqlab olish kerak bo'ladi. Mustaqillik g'oyasining o'zagi bo'lgan – tanlagan taraqqiyot yo'limizning to'g'ri, adolatli va haqqoniy ekanligiga, u mana shu zaminda istiqomat qiladigan har bir insonning hayotiy manfaatlariga mos tushishiga keng ommani ishontirish, kishilarni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi bunyodkorlik ishlariga safarbar etish milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. Milliy g'oyaning xalqparvar, taraqqiyparvar ekanligiga bo'lgan ishonch kundalik hayot sinovlaridan o'tsagina, so'z va ish birligiga erishilsagina bu g'oya mustahkam e'tiqodga aylanadi. Jamiyatning g'oyat xilma-xil qatlamlarini umumiy manfaatlar atrofida jipslashtirish, odamlar o'rtasida hamjihatlik, totuvlik, o'zaro yordam xislatlarini



shakllantirish izchil mafkuraviy tarbiya vositasida amalga oshiriladi. Mafkurada ifoda etilgan g'oya va maqsad jamiyatdagi ko'plab partiyalar, ijtimoiy harakat va tashkilotlarning faoliyat dasturiga asos bo'ladi, ijtimoiy rivojlanishga kuchli turtki beradi. Bunyodkor mafkuraning safarbar etuvchi roli tub ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlarda, jamiyat hayotidagi ma'naviy o'zgarishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunyodkorlik g'oyalari bilan qurollangan keng xalq ommasining ideallari, manfaatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi mafkura insonparvarlik, taraqqiyparvarlik tamoyillari asosida mamlakat, xalq taqdirida ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi, kishilarni ezgu ishlarga da'vat etadi. Milliy istiqlol mafkurasining hayotiyliigi, ta'sirchanligi xalq orzu-umidlarini nechog'li to'la va yorqin aks ettirishi, ularni ro'yobga chiqarishning yo'llari va vositalarini qay darajada to'g'ri belgilashiga bog'liqdir. G'oyaviy tarbiya jamiyatdagi axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan g'oyani himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. G'oyaviy tarbiya jarayonida kishilarda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Mafkura jamiyatda ijtimoiy-siyosiy harakatning o'ziga xos dasturilamali bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy davr o'zgarishi bilan milliy mafkurani yanada takomillashtirish, yangi mazmun bilan boyitish zaruriyati vujudga keladi. Milliy mafkura jamiyatdagi barcha sosial qatlamlar va guruhlarining umumiy harakat dasturi, ularni faollikka da'vat etuvchi vosita hisoblanadi.

Milliy mafkura O'zbekiston zaminida istiqomat qilayotgan barcha kishilarni millati, dini, tili, kasb-kori, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar yagona maqsad yo'lida birlashtirishni, butun xalq irodasini murakkab ijtimoiy muammolarni oqilona hal etish uchun yo'naltirishni, kishilarda yorqin va baxtli kelajakka ishonch ruhini tarbiyalashni ko'zda tutadi.

#### **4.2. Milliy g'oyaning mafkuraviy plyuralizmga asoslanishi**

O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol g'oyasi, ijtimoiy taraqqiyotdagi safarbar etuvchi ulug'vor fikr bo'lsa, milliy mafkura esa mana shunday ulug'vor g'oyalarni bir butun yaxlit kuch qilib birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, harakatga keltiruvchi, boshqaruvchi g'oyalar tizimidir. Uning mazmun-mohiyati O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida batafsil yoritilgan

bo'lib, ularda ayni paytda jamiyat taraqqiyotining bosh yo'nalishini ko'rsatuvchi milliy istiqlol mafkurasi tushunchasining ma'no-mazmuni ham ochib berilgan: "Asosiy qonunimizda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, deyilgan, – deydi O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov, – Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilishi mumkin emas. Bu konstitusiyaviy qoida bizning oldimizga milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini qo'yadi. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qilishi lozimligini hech qachon unutmaylik"<sup>1</sup>. Milliy istiqlol mafkurasi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning – butun xalqimizning umumiy manfaatlarini ifodalaydi.

O'zbekiston hududi o'zining tarixiy taraqqiyotida ham, bugungi kunida ham o'ziga xos tafakkur uslubiga tayanib, bunday tafakkur uslubi ko'p o'lchovli (ya'ni bir vaqtning o'zida bir masalaning ko'p jihatlarini qamrab olish), tolerant (ya'ni turlicha nuqtai nazarlar va mafkuralarning bir-biriga daxl etmasdan yashay olishi, o'zgacha qarashlarga nisbatan toqatlilik va bag'rikenglik) va ochiq tizimga ega bo'lgani (ya'ni turlicha fikrlarga, nuqtai nazarlarga chegara qo'ymaslik, o'zgacha qarashlarning kirib kelishiga to'sqinlik qilmaslik, yangicha qarashlarga nisbatan toqatlilik) sababli yurtimizda turlicha qarashlar va turlicha diniy e'tiqodlar yonma-yon yashay olgan. O'zbekiston tarixida diniy bag'rikenglik g'oyasi asosida qam dini, shomonlik, zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik, islom dinlari yonma-yon faoliyat ko'rsatgan, bir-birlarining e'tiqodi, madaniyatini hurmat qilgan. Millatlararo totuvlik g'oyasi asosida O'zbekistonning tarixida ham, bugungi kunida ham turli tillar, madaniyatlar bir-birini boyitib, erkin rivojlangan. O'zbekiston hududida yashab o'tgan buyuk mutafakkirlarimizning falsafiy qarashlarida insoniylik g'oyalari ustuvorlik qilgan. Bu donishmandlarning falsafiy g'oyalari sinkretik (ya'ni turlicha g'oyalarning bir butunlikda jamlashuvi) va

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Буюк келажакимизнинг ҳуқуқий кафолати. – Т.: Шарк, 1993. 13-бет.

sinergetik (o'z-o'zini takomillashtiruvchi, keng, ko'p o'lchovli va ochiq sistemali) tafakkur uslubining ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbekistonning milliy istiqlol g'oyasi mafkuraviy plyuralizmga asoslanadi. Mafkuraviy plyuralizm – ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydigan tushunchadir. Qaysi bir mamlakatda ilg'or g'oyalar, mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish imkoniyati shuncha keng bo'ladi. Mafkuraviy plyuralizm ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan yangidan-yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga, turli xalqlar, elatlar, millatlar va siyosiy guruhlarining manfaatlarini umumiy tarzda ro'yobga chiqishiga sharoit yaratadi. U muqarrar ravishda ko'ppartiyaviylik tizimini taqozo etadi. Siyosiy partiyalar o'zlari mansub bo'lgan qatlamlar, siyosiy guruhlarining manfaatlari, intilishlari, orzu-umidlarini umumlashtirgan holda o'z harakat dasturlarini ishlab chiqadilar va ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etadilar. Har bir mamlakatda demokratiya va fuqarolik jamiyatining rivojlanganlik, yetuklik darajasi siyosiy partiyalar, harakatlar, nodavlat va notijorat tashkilotlarining jamiyatdagi o'rni va faolligi bilan belgilanadi. Siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, nodavlat va notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamiyatda fikrlar erkinligi va muxolifatni shakllantiradi, aholining siyosiy faolligi va siyosiy madaniyatining o'sib borishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 56-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi<sup>1</sup>. O'zbekiston fuqarolari siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018. 19-бет.

hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi (1996 yil 25 dekabr) Qonuniga asosan faoliyat olib bormoqda. Siyosiy partiyalar o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish huquqiga ega. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik jamiyatning qonuniy belgisi bo'lgan ko'p partiyaviylik tizimi shakllandi va jamoat tashkilotlari tubdan yangilandi. 2007 yilda qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirdi.

O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va harakatlar umumiy g'oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy maqsadlar asosida fuqarolarni ixtiyoriy ravishda uyushtiruvchi tashkilot bo'lib, ular fuqaroviy jamiyat bilan davlatni o'zaro bir-biri bilan bog'laydilar. Hozirgi kunda O'zbekistonda beshta siyosiy partiya va bitta Ittifoq mavjud bo'lib, bular:

1. "O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi" (1991 yil),
2. "O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasi" (1995 yil),
3. "O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi" (1995 yil),
4. "O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi" (2003 yil),
5. "O'zbekiston Ekologik partiyasi" (2019 yil).

O'zbekistondagi ittifoqqa O'zbekiston yoshlar ittifoqi (2001/ 2017 yil) taalluqli bolib, 2001 yilda tashkil etilgan O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati 2017 yilda O'zbekiston yoshlar ittifoqiga aylantirildi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991 yil 1-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tashkil topgan. Ushbu qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Xalq demokratik partiyasi o'z Dasturida milliy mustaqillikni mustahkamlash, demokratik davlat, insonparvar, adolatli jamiyat qurish, O'zbekiston xalqlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, fuqarolar totuvligini ta'minlash, har bir kishining munosib hayot kechirishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, fuqarolarning konstitusion haq-huquqlarini kafolatlash maqsadini ilgari surdi. O'zbekiston XDPsi parlament partiyasidir.

O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasi 1995 yil 18-fevralda tuzildi. Partiyaning Toshkentda 1 ta'sis qurultoyida uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Partiyaning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida huquqiy-demokratik davlat qurish, Vatanga sodiq xizmat qilish, adolatli fuqaroviy jamiyat qurish, demokratiya talablarining hamda mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning orzu-umidlariga monand shart-sharoit yuzaga keltirishga hissa qo'shishdan iborat.

O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi 1995 yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Partiya milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirish yo'lida o'z harakatining asosiy yo'nalishlarini quyidagicha belgilaydi: millatning ma'naviy birligi; Vatan – yagona oila; kuchli demokratik davlat; milliy qadriyatlar; ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va umumjahon integrasiya; zamon kishisi; milliy istiqloq.

2003-yil 15-noyabrda O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi tashkil topdi. O'zbekiston Liberal demokratik partiyasining Dasturi va Nizomi tasdiqlandi. Uning maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatini himoya qilish, jamiyat hayotini yanada erkinlashtirishdan iboratdir. O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi mulkdorlar qatlami, kichik biznes vakillari, fermerlar, jamoat tashkilotlari vakillari, ishlab chiqarish mutaxassislari, ijodkorlar, olimlar va barcha fuqarolarning manfaatlarini va siyosiy irodalarini ifodalovchi siyosiy tashkilot hisoblanadi. Partiya tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun yangi imkoniyat yaratish, ularning istiqbolini asoslash, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'zbekiston Ekologik partiyasi 2019 yil 8-yanvarda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tashkil topgan. Ushbu qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Partiyaning asosiy vazifasi jamiyatdagi ekologik muammolarni oldini olish va barchani uning yechimlari bo'yicha birlashtirish.

Harakatlar strategiyasi va uning asosida qabul qilingan Davlat dasturi ijrosini ta'minlashda siyosiy partiyalar, Oliy Majlis palatalari o'z elektorati manfaatlarini, saylovoldi dasturida belgilangan ustuvor yo'nalishlar, vakolatlaridan kelib chiqib, o'z g'oya va takliflari bilan faol qatnashishi lozim, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Ayniqsa, partiyalar bundan manfaatdor, chunki Harakatlar

strategiyasining bosqichma-bosqich, sifatli amalga oshirilishini ta'minlash orqali ular ham o'z dasturiy vazifalarini amalda bajarishga erishadi. Ayni paytda shuni alohida qayd etish kerakki, Harakatlar strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish ko'p jihatdan partiyalarning faolligiga bog'liq<sup>1</sup>.

Mamlakatda ilg'or g'oyalar, mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, ya'ni mafkuraviy plyuralizm hukmron bo'lsa, taraqqiyotning qulay va samarali yo'lini tanlab olish imkoniyati ham shunchalik keng bo'ladi. Fikrlar erkinligi va xilma-xilligi mafkuralarning mazmun jihatidan boyishiga, bir-birini to'ldirishiga xizmat qiladi. Mustaqil O'zbekistonda mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga katta e'tibor qaratilmoqda. G'oya va mafkuralar xilma-xilligi mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimiga ham sharoit yaratib, siyosiy partiyalar o'zlari mansub bo'lgan qatlamlar, siyosiy guruhlarning manfaatlari, intilishlari, orzu-umidlarini umumlashtirgan holda o'z harakat dasturlari orqali namoyon qilmoqdalar. Jamiyatdagi ezgu g'oyalar barcha davrlarda insonni yuksak orzular bilan yashashga, olijanob maqsadlar yo'lida e'tiqod bilan kurashishga o'rgatib kelmoqda.

#### **4.3. Milliy g'oyaning bunyodkor g'oya ekanligi. Uning jamiyatni jamiyat, millatni millat, xalqni xalq qilishdagi o'rni va ahamiyati.**

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz a'zolarining dunyoqarashi, fikrlash tarzida ko'pgina o'zgarishlar yuz bermoqda. Ana shunday sharoitda xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida mujassam etadigan milliy g'oya va mafkurani yaratish muhim vazifaga aylandi. Jamiyatning taraqqiy etib borishi jarayonida oldin g'oya paydo bo'ladi, g'oya asosida mafkura, mafkura asosida tizim va siyosat paydo bo'ladi. Milliy g'oya – tanlagan taraqqiyot yo'limizning to'g'ri, adolatli va haqqoniy ekanligiga, u mana shu zaminda istiqomat qiladigan har bir insonning hayotiy manfaatlariga mos tushishiga keng ommani ishonirish orqali

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2017. 585-бет.

ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etish uchun xizmat qiladi. Milliy g'oya O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida xalqni uyushtiruvchi, birlashtiruvchi, ma'lum bir maqsadga yo'naltiruvchi, harakat dasturi bo'luvchi bunyodkor g'oya bo'lib, u jamiyatni jamiyat, millatni millat, xalqni xalq qilish jarayonida muhim ahamiyatga egadir. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi oldida buyuk maqsad-muddaolar, o'ta dolzarb vazifalar turgan bo'lib, uning asosiy maqsadlaridan biri – O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat va elat kishilarini barkamol inson qilib tarbiyalash, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirishdir. Insonning faolligi uning ilg'or, bunyodkor, xalqning o'ziga xos va mos bo'lgan milliy g'oyaga amal va e'tiqod qilishiga bevosita bog'liqdir. Milliy istiqlol mafkurasi butun O'zbekiston xalqining milliy ruhini, madaniy merosini, his-tuyg'usini, milliy g'urur va iftixorini, kuch-qudratini, orzu intilishlarini o'zida ifodalaydi.

Milliy g'oya bunyodkor g'oya sifatida jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agarda ijtimoiy taraqqiyotda milliy g'oya xalqning ishonch va e'tiqodiga aylansa, u jamiyat taraqqiyotiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omilga aylanib, o'zining kutilgan natijasini beradi. Shuning uchun ishonch va e'tiqod masalasi milliy g'oyadagi muhim mezon hisoblanadi. Xalqni birlashtirish, mustaqillikni mustahkamlashning birdan bir yo'li – o'zbek xalqini uyushtiruvchi, yangi jamiyat qurishga safarbar etuvchi milliy g'oyani, jamiyat mafkurasini shakllantirishdan va odamlar ongi va qalbiga singdirishdan iborat bo'lib, O'zbekistonda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich olib borildi.

Milliy g'oya jamiyatni tashkil qilgan shaxslar, individlar va ijtimoiy guruhlarning siyosiy partiyalarga mansubligidan, qaysi dinlarga e'tiqod qilishidan, millati va irqidan, ijtimoiy maqsadidan qat'iy nazar, ularning manfaatlarini integrasiyalashtiruvchi hamda universallashtiruvchi ijtimoiy faoliyat omili bo'lib hisoblanib, jamiyatdagi tinchlik-barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik milliy g'oya yordamida ta'minlanadi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, mamlakatimizda yashayotgan barcha ijtimoiy-siyosiy qatlamlarni, tabaqalarni, millat va elatlarni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq

farovonligi g'oyasi atrofida birlashtirishga va uyushtirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. O'zini O'zbekiston fuqarosi deb bilgan har bir insonni umumiy Vatan tuyg'usi, xalq farovonligi, erkin va farovon hayot qurish, millatlararo totuvlik bilan uzviy bog'liq bo'lgan milliy g'oya birlashtiradi. Jamiyat hayotida milliy g'oya bajaradigan muhim vazifalardan biri, komil insonni, barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Komil insonni, barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim vositalari bo'lgan ta'lim-tarbiya, fan, madaniyat va ma'rifat, adabiyot va san'at, din, sport sohalariga, fanlarning mazmuniga Milliy istiqlol g'oyalarini singdirish muhim ahamiyatga egadir. Milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodni shakllantirish boy tarixiy ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida amalga oshiriladi. Boy tarixiy ma'naviy merosni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni fuqarolar ongi va qalbiga singdirishda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, O'zbekiston fuqarolarida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining shakllantirilishi muhim ahamiyatga egadir.

Milliy g'oyaning Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashdan iborat bo'lgan asosiy g'oyalarini hayotga tatbiq qilishda shaxs tarbiyasining quyidagi jihatlariga asosiy e'tibor qaratiladi:

-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va uni har bir insonning hayotiy ehtiyojiga aylantirish;

-tinchlik uchun kurashning har bir inson hayotiy maqsadi, manfaati va ehtiyojining markaziy masalasi sifatida e'tirof etilishi;

-el-yurt farovonligi uchun fuqarolarda fidoiylilik va burchga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirish;

-millatlararo va dinlararo bag'rikenglik xislatlarining vujudga kelishi va takomillashib borishi;

-xalq va millat manfaatlarining shaxsiy va ijtimoiy guruhiiy manfaatlariga qaraganda ustuvor ahamiyat kasb etishi;

-shaxsning milliy ongi, tarixiy ma'naviy merosi, milliy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirish asosida milliy o'zlikni anglash jarayonini kuchaytirish va milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yanada mustahkamlash.

“Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” g'oyasida mujassam bo'lgan milliy g'oya jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylanishi uchun, u o'zligini



anglagan har bir fuqaroning ongidan chuqur joy olishi va yashash tamoyiliga aylanishi zarurdir. Milliy g'oya xalqimizning qadimiy va boy tarixidan, ulug' alloma ajdodlarimizning hikmatlari va hayotiy o'gitlaridan, bunyodkor g'oyalardan, yashash ibratidan, shu bilan birgalikda jahondagi boshqa xalqlar tomonidan yaratilgan umuminsoniy qadriyatlardan oziqlanib taraqqiy etib bormoqda. Tarixiy xotira millatga kuch-qudrat bag'ishlaydi, hayotning og'ir sinovlarini munosib yengib o'tishga, o'zligini saqlab qolishga yordam beradi. G'oya xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lab turuvchi fikr bo'lib, u avvalo xalqimizning milliy ma'naviyatiga tayanadi. Milliy g'oya xalqimizning ma'naviy merosidan ozuqa oladi, milliy o'ziga xosligini saqlab turishga, milliy manfaatlarni amalga oshirishga va milliy taraqqiyot yo'llarini belgilashga xizmat qiladi. Milliy g'oya va mafkuraning muhim vazifasi O'zbekiston fuqarolarida kelajakka komil ishonch, erkin va farovon hayotga umid his-tuyg'usini tarbiyalashdan iboratdir.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol g'oyasi, teran zaminga, tarixiy ildizlarga ega bo'lsa ham, tizim sifatida mustaqillik sharoitida shakllandi va rivojlanmoqda. Milliy g'oyada Vatan ravnaqiga, uning gullab-yashnashi, ozod va obod bo'lishiga ustuvorlik berilgan. Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hissi madaniy merosimizda ham, milliy g'oyamizda ham salmoqli o'rin egallaydi. Milliy g'oya mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to'g'risidagi yaxlit va izchil ta'limot bo'lib, u jamiyatni jamiyat, millatni millat, xalqni xalq qilishga xizmat qiladi.

#### **4.4. Milliy g'oyaning yot va zararli g'oyalardan farqi, uni aniqlash mezonlari.**

Har bir xalq, millat va jamiyat o'z manfaatiga xizmat qilib, uning taraqqiyotini ta'minlashga yordam beradigan muayyan g'oyaga ehtiyoj sezadi. Milliy istiqlol g'oyasi millat manfaatlarini, xalqning orzu-istaklarini o'zida mujassamlashtiradi. U o'zining asosiy g'oyalari va maqsadlari bilan komil insonlarni tarbiyalashga harakat qiladi. Mafkura – jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Barcha davrlarda har bir davlat, xalq, jamiyatning o'ziga xos g'oyasi va mafkurasi bo'lgan. Mafkura barcha davrlarda jamiyatni yuksak va bunyodkor maqsadlar yo'lida birlashtirib, jamiyat ahli o'rtasida sog'lom munosabatlarni shakllantirgan, hamda ezgu orzular, maqsad-muddaolariga erishishda ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan omil vazifasini bajarib kelgan. Mafkuraning hayotiyliigi odamlarning, millatning, jamiyatning milliy manfaatini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettira oladigan bosh va asosiy g'oyalar, bu g'oyalar ularning turmush tarzi, dunyoqarashi, tabiatiga qanchalik mos bo'lishi bilan belgilanadi. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari tizimida insonning jamiyatdagi o'rni bunyodkor kuch sifatida belgilanib, mustaqillikning bosh g'oyasi ham, asosiy g'oya va tushunchalari ham bunyodkorlik falsafasi asosida yoritilgan. Milliy g'oya doimo jamiyatga tahdid solib kelgan yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashib, odamlarni ezgulik, farovonlik va baxtli hayotga da'vat etib kelgan. Milliy g'oya bunyodkor g'oya sifatida insonni ulug'laydigan, uning kuch g'ayrati va salohiyatini oshirib xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida taraqqiyot, ma'rifat, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik, poklik kabi ezgu his-tuyg'ularni mujassam etadigan, jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotiga xizmat qiladigan g'oyadir. Milliy g'oya kabi bunyodkor g'oyalarga tayangan fuqarolar farovon hayot va erkin jamiyat qurish uchun harakat qiladilar. Milliy g'oya – millat tafakkurining ko'p asrlik mahsuli va davr taqozosi bilan takomillashib boruvchi uzliksiz hodisadir. Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui, xalq hayotining fikriy ifodasidir. Milliy g'oyaning mazmun-mohiyati va uning yot va zararli g'oyalardan farqli tomonlari mustaqillikdan keyingi davrda nazariy jihatdan asoslab berildi va O'zbekistonda adolatli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi jarayonida amaliyotga, jamiyat hayotiga tatbiq qilindi.

Milliy g'oyani ishlab chiqish va jamiyat hayotiga tatbiq qilishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish, o'zlikni anglash mezonini bo'lish;
2. Xalq maqsadlarini ifoda etib, jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy vazifani bajarish;
3. Millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch e'tiborining manbai bo'lish;
4. O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam vakillariga birday taalluqli ekanlik;
5. Millat aholisi ongi va qalbida "O'zbekiston – yagona Vatan" degan tushunchani shakllantirishga xizmat qilish;
6. Turli millat, qatlam, uning vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan yuksak fenomen – ijtimoiy hodisa mazmuniga ega ekanligi;
7. Biron-bir dunyoqarashni mutlaqlashtirmaslik yoki biron-bir kuch, partiya yoki guruh qo'lida siyosiy qurolga aylanmaslik;
8. Har qanday ilg'or g'oyani singdirish va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olish;
9. Sub'yektivizm, volyuntarizm kabi illatlardan xoli va jamiyatimizning xolis fikriga tayanuvchi ob'yektiv mafkura bo'lish;
10. So'z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olish;
11. Davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan g'oya, manfaat, muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalaridan ijodiy foydalanish.

Milliy g'oya va mafkuraning hayotiyliigi, odamlarning, millatning, jamiyatning milliy manfaatini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettirishiga, ularning turmush tarzi, dunyoqarashi, tabiatiga qanchalik mos bo'lishi bilan belgilanadi. Hayot sinovlariga bardosh beradigan, odamlarning ezgu maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, ularga ma'naviy-ruhiy quvvat beradigan mafkurani ko'pchilik qabul qilib, shunday holatdagina mafkura kuchli ruhiy quvvatga ega bo'ladi.

Bugungi kunda jamiyat hayotida milliy g'oya kurashib kelayotgan bir qancha yot va zararli g'oyalar mavjud bo'lib, bu g'oyalar vayronkor g'oyalar bo'lib

hisoblanadi. Vayronkor g'oyalar deb inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuiga aytiladi. Milliy g'oyaga qarshi bo'lgan, jamiyatni tanazzulga yetaklaydigan yot va zararli, vayronkor g'oyalarga mustabidlik, bosqinchilik, terrorchilik, aqidaparastlik, jaholatparastlik, irqchilik, millatchilik, mahalliychilik, vatansizlik, yovuzlik g'oyalari kiradi. Bu g'oyalar bolshevizm, kommunizm, neokommunizm, fashizm, neofashizm, irqchilik, kosmopolitizm, shovinizm, panslavyanizm, panamerikanizm, panislomizm, paneronizm, panturkizm, nasizm, fundamentalizm, gegemonizm, konformizm kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm kabi zararli g'oyalar va mafkuralar globallashuv va geopolitik maqsad va manfaatlar kuchaygan bir sharoitda jahondagi tinchlik va barqarorlikka tahdid solmoqda. Globallashuv jarayonlari va axborot oqimining tezlashuvi ham insoniyatning oldiga bir qator muammolarni qo'yimoqda. Turli mintaqaviy, diniy-etnik, tajovuzkor millatchilik va shovinizm asosidagi mojarolar, ekologiya falokatlari, ma'naviy tanazzul, giyohvandlik, terrorchilik kabi muammolar butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida turli mafkuraviy markazlar tomonidan insonning ongi va qalbini egallash uchun kurash kuchayib bormoqda. Turli mafkura poligonlaridan tarqatiladigan, sirdan bezarar bo'lib tuyuladigan, turli axborotlar, filmlar, badiiy asarlar, kundalik ehtiyoj mollari orqali odamlarga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan mafkuraviy tahdidlar, avvalo insonlarning nozik his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularning ongi va qalbini egallashga qaratilgandir. Tahdid – inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo'naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan xavf-xatar shakli, muayyan barqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni ifodalovchi tushunchadir. Tahdidlar siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga bo'linib, bularning ichida eng xatarlisi ma'naviy-mafkuraviy tahdid sanaladi. Tashqi mafkuraviy tahdid – bu mamlakatimizdagi

barqarorlik va xavfsizlik tizimini izdan chiqarish uchun tajovuzkor g'oya tarafdorlari tomonidan tashqaridan turib mamlakatimizga xuruj qilinishidir. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarida ma'naviy-mafkuraviy tahdid tushunchalariga to'xtalar ekan: "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informasion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman<sup>1</sup>, degan edi.

Hozirgi kunda milliy g'oyamizga qarshi chiqib, jamiyatimiz hayotiga jiddiy xavf tug'diradigan mafkuraviy tahdidlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;
- yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g'oyasi;
- tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;
- axloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilishlar;
- turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va dinlararo mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar.

Mafkuraviy tahdid eng avvalo inson ongiga, tafakkuri va xulq-atvoriga xavf-xatar soladi. Inson ongi va qalbini yot va zararli, vayronkor va buzg'unchi g'oyalar bilan izdan chiqarishga harakat qilish mafkuraviy tahdidning eng asosiy mazmun mohiyatini tashkil qiladi. Mafkuraviy tahdid muayyan jamiyat a'zolarini yagona maqsad va muddaolardan chalg'itib, milliy g'oyaga va milliy mentalitetga mos kelmaydigan begona g'oyalar, fikrlar va qarashlarni chetdan turib eksport qilish jarayonida o'zini yanada aniqroq namoyon qiladi.

Hozirgi paytda jamiyat ma'naviy hayotiga kirib kelayotgan yot va zararli g'oyalarning ma'naviy tahdid sifatida namoyon bo'lish xususiyatlari quyidagilarda ko'zga tashlanadi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 13-14-бетлар.

- O'zbekistondagi demokratik qadriyatlar va demokratik taraqqiyot imkoniyatlariga nisbatan odamlarda shubha bilan qarash holatini vujudga keltiradi;
- odamlarni ezgu g'oyalardan, milliy g'oyadan chalg'itishga, ularga xayoliy farovon turmush tarzini va'da qilishga harakat qiladi;
- jamiyat a'zolari, birinchi navbatda yoshlar tafakkurida milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg'ularini zaiflashtirishga harakat qiladi;
- xalqimiz urf-odatlarini, milliy mentalitetiga begona odatlarni kiritishga intiladi;
- ekstremistik ruhdagi diniy g'oyalarni tiqishtirishga intiladi;
- aholi o'rtasida milliy taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg'otishga harakat qiladi;
- jamoaparvarlik, ijtimoiy hamkorlik ruhini inkor etib, individualizm g'oyalarini sun'iy ravishda tiqishtiradi.

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar eng avvalo, oddiy insonlar qalbi va ongini zabt etishga, ularni o'z milliy qadriyatlaridan, umumbashariy sivilizasiya yutuqlaridan mahrum qilishga, oxir oqibatda mamlakatimizni o'ziga qaram qilib olishga qaratilgan zamonaviy tajovuzkorlikning mafkuraviy bir shaklidir.

Hozirgi davrda vayronkor g'oyalar quyidagi xususiyatlarga egadir:

- g'oyaviy yakka hokimlikka intiladi;
- fikrlar plyuralizmini rad etadi;
- demokratik va milliy qadriyatlarni tan olmaydi;
- mutlaq hokimiyatga da'vo qiladi;
- jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka moyillikning mavjudligi;
- yagona, hukmron mafkuraga urinish;
- ijtimoiy ixtiloflarni qo'llash;
- aqidaparastlik va siyosiy ekstremizmni yoqlash.

Milliy g'oya uchun yot va zararli bo'lgan, vayronkor g'oyalarning tashkiliy asoslariga quyidagilar taalluqlidir:

- diniy ekstremizm;
- xalqaro terrorizm;
- narkobiznes;
- noqonuniy qurol-yarog' savdosi;
- begona, soxta diniy aqidalar;

- jangarilikni targ'ib etish;
- aqidaparastlik.

Jamiyatning taraqqiy etib borishi jarayonida yot va zararli, vayronkor g'oyalar jamiyat hayotida quyidagi zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- insonning fe'li-atvorini salbiy tomonga o'zgartiradi;
- tafakkur tarzini o'z negizlaridan begonalashtiradi;
- nosog'lom turmush tarzini shakllantiradi;
- begona urf-odatlarini targ'ib qilib, ularning kirib kelishi uchun muhit yaratadi;
- fikrlar xilma-xilligini cheklaydi;
- qaramlik, tobelik, mutelik muhitini yaratadi;
- mamlakatni, xalqni o'z milliy qadriyatlaridan, pirovard natijada o'z taraqqiyot yo'lidan begonalashtiradi;
- jamiyatda xalqlar va millatlararo totuvlikka, dinlararo bag'rikenglikka rahna solib, u yerda ichki ixtiloflar va parokandalikni keltirib chiqaradi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi davrida ro'y berayotgan mafkuraviy jarayonlar inson ongi, qalbi xilma-xil usullarda olib borilayotgan g'oyaviy targ'ibot va tashviqotning asosiy ob'yekti hamda maqsadiga aylanganini ko'rsatmoqda. Ma'lumki, xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy ongi va dunyoqarashida hamda xulq-atvor normalarida ota-onaga, o'zi yashayotgan mahalla jamoasiga, katta yoshdagi kishilarga chuqur hurmat bilan qarash, muayyan voqea va hodisalarga bosiqlik, mulohaza va andisha bilan munosabatda bo'lish, jamoa fikriga nisbatan alohida ehtirom ko'rsatish kabi xislatlar ustuvorlik qiladi. Bunday vaziyatda jahondagi turli xil geopolitik maqsadlarni ko'zlagan mafkuraviy markazlarning manfaatlari uchun xizmat qiluvchi vayronkor va buzg'unchi, yot va zararli g'oyalar hamda mafkuralar xalqimizning boy va ulug'vor qadriyatlariga, milliy madaniyatiga mutlaqo teskari va begona bo'lgan, asosan "individualizm", "egoizm", "kosmopolitizm", "zo'ravonlik", "diniy mutaassiblik" kabi g'oyalarni turli yo'l va vositalar yordamida jamiyatimizga olib kirishga urinmoqdalar. Ikkinchi tomondan o'zbek xalqining necha ming yillik milliy urf-odatlari va ma'naviy merosi va qadriyatlariga nisbatan ham ma'naviy xurujlar amalga oshirilmoqda. Bu maqsadga erishish uchun global aloqa tizimlari va boshqa vositalar orqali odamlarni

ma'naviy qashshoqlikka, tarkidunyochilikka, odamlarga nisbatan oqibatsizlik va shafqatsizlikka olib keluvchi g'oyalar hamda urf-odat normalari zo'r berib targ'ib qilinmoqda. Uchinchidan, hozirgi davrda xalqimizning boy va qadimiy milliy madaniyatiga nisbatan ham ma'naviy xurujlar amalga oshirilmoqda. Internet tarmog'idan, kinofilmlar va san'at turlaridan foydalangan holda insonni o'ziga jalb etuvchi, lekin yengil-yelpi, inson tafakkurini rivojlantirishga emas, aksincha uning sayozlashuviga xizmat qiluvchi san'at va madaniyat namunalarini jamiyatimizga olib kirishga qaratilgan harakatlar amalga oshirilmoqda. Bunday san'at va madaniyat namunalarida behayolik va mantiqsizlik g'oyalari targ'iboti yetakchilik qilmoqda. G'arb "ommaviy madaniyati" ta'sirida yuzaga kelayotgan bunday mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun O'zbekiston fuqarolari, odamlarimiz, avvalambor yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fizilatini qaror toptirish mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi muhim vazifa sifatida e'tirof etilmoqda.

Milliy g'oya va mafkuramizga qaratilgan har qanday tahdid va xavf-xatarlarning oldini olishda milliy-ma'naviy, g'oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi alohida o'rin egallaydi. G'oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik deganimizda, milliy g'oya va milliy mafkuraning millatni zaiflashtirishga qaratilgan, tashqaridan kirib keluvchi har qanday yovuz g'oyalar va mafkuralarga nisbatan kuchliligi, milliy ong, dunyoqarashni ular ta'siridan himoya qilishi va milliy manfaatlarni tarannum etishda hamda uning amaliyotda namoyon bo'lishini ta'minlay bilishdagi katta salohiyati nazarda tutiladi. Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash jamiyat ma'naviy hayotida bo'shliq paydo bo'lishining oldini olish, o'zining pirovard maqsadlariga mos va unga xizmat qiladigan g'oyalar tizimini shakllantirish, uni muttasil mustahkamlab borish, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni oshirish orqali amalga oshiriladi. Milliy g'oya xalqni, millatni birlashtiradi. Jamiyat har bir a'zosining ma'naviy kamolotga erishishini ta'minlab beradi. Milliy g'oya jamiyat a'zolaridagi yuksak ma'naviyat belgilari hisoblangan vatanparvarlik, fidoyilik singari fazilatlarining shakllanishiga yordam beradi. Ularni



Ozod va obod Vatanni yaratish yo'liga safarbar etadi. Milliy g'oya jamiyat ma'naviy hayotiga tahdid soladigan yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashadi, jamiyatning har bir a'zosida kelajakdagi farovon hayotga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Milliy g'oya turli yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish bilan birgalikda, mamlakatimiz fuqarolarini milliy mafkuramizning bosh g'oyasi bo'lgan Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etishga yo'naltiradi. Ularni mustaqillikka sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

#### **4.5. Mustaqillik sharoitida jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy asoslari o'zgarishining mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyati**

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar har bir insonning milliy o'zligini anglashini, milliy g'ururi o'sishini yangi bosqichga ko'tardi. Milliy g'oya mustaqillik sharoitida mamlakatimiz ma'naviy hayotini yuksaltirishga, jamiyat a'zolarini ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazib berishga xizmat qiladigan qudratli kuchga aylandi. Odamlar ongida mustaqillik, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, xalqning milliy ruhini uyg'otish va tiklash jamiyatning barqaror rivojlanishining muhim sharti va kafolatidir. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni tiklash ishlari boshlanib ketdi. Ma'naviy meros qadimiy zamonlardan beri ajdodlarimiz, otabobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, ma'naviy merosga tayanadi, biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

Mustaqillik sharofati bilan ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi. Ulug' mutafakkirlarimiz, bobokalonlarimizning ruhi shod etildi, nomi, izzat

ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi. Ularning ma'naviy meroslari xalqimizga qaytarildi. Xalqimizning boy tarixiy ma'naviy merosi, milliy davlatchilik an'analari, urf-odat va marosimlarini o'rganishga, qayta tiklashga, ulardan foydalanishga e'tibor kuchaytirildi.

Milliy davlatchiligimizning tarixiy tajribasi o'rganildi, Amir Temur tuzuklari, Forobiy, Beruniy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning odil davlat qurish va barkamol insonni tarbiyalash haqidagi dono fikr-mulohazalari mustaqillik davrida demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki, xalqimizning milliy davlatchilik tarixi ming yillar avval shakllangan bo'lib, bugungi kunda biz qurayotgan buyuk davlat asoslari ana shu qadimiy poydevorga tayanadi.

G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishishga chorlagan milliy istiqlol g'oyasi jamiyatimiz faoliyatining mezoniga aylanib, mustaqillikdan so'ng jamiyatga, el-yurt ishiga har tomonlama munosib, jismonan yetuk, ongu tafakkuri yuksak, ma'naviy barkamol insonlarni tarbiyalash masalasiga asosiy e'tibor qaratildi. Lekin o'z xalqiga, uning an'anasiga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, haqiqiy insonni tarbiyalash mumkin emas. Vatanparvarlik va fuqarolar yakdilligi – yosh va mustaqil O'zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida boy tarixiy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobokalonlarimizning ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat va xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Mustaqillik yillarida buyuk shaxslarning xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorliklar majmuasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni yanada kamol toptirish hamda xalq ongi-tafakkuriga milliy mafkura asoslarini singdirishga, dunyo xalqlariga o'zbek davlatchiligining ildizlari naqadar baquvvat ekanligini namoyish etishga xizmat qilmoqda. Buyuk allomalarimizning o'nlab nodir va noyob asarlari yangitdan kashf etilib, ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa xorijiy tillarda nashr etildi.

Jumladan, Imom Buxoriy, Ahmad Farg'oniy, Imom Termiziy, Burhonuddin Marg'inoniy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod, Sharafiddin Ali Yazdiy, Aziziddin Nasafiy kabi ulug' zotlarning merosi butun dunyoga targ'ib etilmoqda.

Mustaqillik yillarida xalqimiz madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish uchun fidoiylik ko'rsatgan jadid ma'rifatparvarlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Otajon Hoshimov, Botu, Elbek va boshqalar haqida ko'plab ma'lumotlar, ijodidan namunalar chop etildi.

Mustaqillik tufayli boy tariximiz va madaniy merosimiz, urf-odat va an'analarimiz, dinu diyonatimiz qayta tiklandi. Asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz xalqimizning betimsol boyligi, istiqbolimizning mustahkam poydevori va porloq istiqbolimizning kafolatidir. Bugungi globallashuv davrida inson ongi va tafakkurini egallash yo'lidagi kurash keskinlashayotgan, yoshlarni yot g'oya va mafkura, salbiy illatlar ta'siriga tortishga urinishlar tobora kuchayayotgan bir sharoitda ajdodlarimizning orzu-umidlari, intilishlari va boy tafakkurini o'zida mujassam etgan ma'naviy merosimiz va milliy qadriyatlarimizni ko'z qorachig'idek asrash va uni yosh avlod ongu-shuuriga singdirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillikdan keyingi davrda tarixiy an'analarga sadoqat, ajdodlar merosidan faxrlanish, ijtimoiy hayotning eng muhim yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratish mustaqil siyosat va milliy g'oyamizning eng muhim hayotbaxsh omillariga aylandi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda madaniyat, fan va ta'lim sohasida avvalgi davr bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada beqiyos yutuqlarga erishildi. Milliy hunarmandchilikning turli sohalari rivojlantirildi. Musiqa, amaliy va tasviriy san'at kabi yo'nalishlar rivojiga ham e'tibor kuchaytirildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida hukumatga qarashli bo'lmagan "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi tashkil qilindi. Mamlakatimizda "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport o'yinlarini o'z ichiga olgan uch bosqichli yagona uzluksiz tizim shakllantirildi. Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda ma'naviy hayotning

ajralmas qismi bo'lgan xalqaro kino, teatr va musiqali festivallar o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib qoldi. O'zbekistonda an'anaviy ravishda o'tkazilayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali butun jahon madaniy jamoatchiligi orasida keng shuhrat qozonmoqda. O'zbekistonda milliy merosimizni asrab-avaylash, amaliy san'at va hunarmandchilik yo'nalishidagi qadimiy an'analarni tiklash, bu borada ijodkorlarga har tomonlama ko'maklashish, yosh iste'dodlarning faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratish, ularning ijodini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng ko'plab festivallar, ko'rik-tanlovlar, milliy hunarmandchilik yarmarkalari, turli ko'rgazmalar, konsertlar doimiy ravishda o'tkazilmoqda.

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng dinga nisbatan munosabat ijobiy tomonga o'zgarib, dinga ma'naviyat, qadriyat sifatida munosabat shakllantirildi. O'zbekistonda yashab faoliyat ko'rsatayotgan turli konfessiyalar vakillarining ma'naviy dunyosi, e'tiqod erkinligi uchun mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab keng yo'l ochildi. O'zbekistonda dinga bo'lgan munosabat "dunyoviylik – dahriylik emas" degan tamoyil asosida belgilandi. O'zbekistonda turli e'tiqodga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglik muhiti o'rnatilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Dunyoviy davlat tuzumi amal qilayotgan O'zbekistonda barcha dinlarga bir xil va teng munosabatda bo'lish bugun real voqelikka aylandi. O'tgan davr mobaynida bag'rikenglikning muhim omillaridan biri bo'lgan millatlararo va dinlararo totuvlik ta'minlandi. Bugungi kunda O'zbekistonda insonning erkin fikrlash erki, xohlagan diniga e'tiqod qilish erkiga yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik erkiga bo'lgan huquqi tan olingan. Mustaqillik yillarida dinning, eng avvalo islom dinining ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatidagi mavqeyi tiklandi.

O'zbekistonning ma'naviy hayotidagi o'zgarish va yangilanishlar eng avvalo milliy g'oya va milliy mafkurada o'z ifodasini topib, milliy g'oya va milliy mafkura konsepsiyasi ishlab chiqilganda quyidagi masalalarga e'tibor qaratildi:

-milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu

orzularini, jamiyat oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni o'zida qamrab olishining shartligi;

-jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya – mafkura bo'lishi zarurligi;

-milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo holi bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda, munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkorligi;

-milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashi, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarurligi;

-milliy g'oya Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi muhimligi. Milliy g'oya va mafkura xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilib, xalqni, millatni birlashtirib, bunyodkorlik ishlariga da'vat etadi.

Mamlakatimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbiga ona yurtga muhabbat, milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda:

- o'zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma'rifiy va axloqiy merosini har bir fuqaroning ma'naviy mulkiga aylantirish, milliy o'zlikni anglashni ustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirish, milliy g'oya va mafkurani xalqimizning

ongi va qalbiga chuqur singdirish, uni ruhiy va ma'naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish;

- Vatan ozodligi yo'lida jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etib borish, siyosiy jarayonlarga, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar tahlili asosida jamiyatning har bir a'zosi qalbida milliy g'ururni kuchaytirish, hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaslik tuyg'usini kamol toptirish;

- aholining barcha qatlamlarida, xususan, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, ularda dunyo va mamlakat miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatda bo'lish hissini uyg'otish;

- jamiyatda o'zaro insoniy munosabatlar, izzat-ehtirom, mehr-muruvvat, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirish jarayonlarini milliy g'oya va ma'naviyat tamoyillari bilan uyg'un tarzda tizimli va uzluksiz targ'ib etib borishni yo'lga qo'yish;

- turli ommaviy axborot vositalari va Internet tarmoqlarida tarqatilayotgan, urf-odatlarimiz, milliy mentalitetimizga zid, odobsizlik va axloqsizlikni targ'ib etuvchi vayronkor g'oyalarning yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir o'tkazishining oldini olish;

- axloqiy, tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish, yoshlarda yuksak ma'naviy va madaniy sifatlarni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, g'urur va iftixor, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, boy tarixiy-madaniy merosga asoslangan holda mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash, xalqimizning azaliy an'ana va urf-odatlariga asoslangan holda jamiyatda o'z o'rnini topish, kasb-hunar egallashga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish;

- yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmunini keng targ'ib etish orqali ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

- yoshlarning turli sohalarda erishayotgan yutuqlarini keng targ'ib etish va ularning ongida barkamol shaxs idealini shakllantirish orqali zamonamiz

qahramonlarini kamol toptirish, bugungi kunda g'oyaviy, mafkuraviy sohada olib borilayotgan ishlarning muhim vazifalaridandir.

**Nazorat uchun savollar:**

1. G'oyalar tipologiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy g'oya tipologiyasi nima?
3. Milliy g'oya tipologiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering?
4. Mafkuraviy plyuralizm nima?
5. Milliy g'oyaning bunyodkor g'oya ekanligi nimalarda aks etadi?
6. Milliy g'oyaning jamiyatni jamiyat, millatni millat, xalqni xalq qilishdagi o'rni va ahamiyatini ochib bering?
7. Yot va zararli g'oyalarning farqi nimada?
8. Jamiyatda yot g'oyalarni qanday aniqlash mumkin?
9. Jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari deganda nimani tushunasiz?
10. Mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi bunyodkor g'oyalar qanday shakllanadi?

## **5-BOB. MILLIY G'OYA KONSEPSIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI**

### **5.1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining mazmuni va mohiyati. Milliy g'oya konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari**

O'zbekiston Respublikasi o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng milliy g'oya, milliy mafkura konsepsiyasini ishlab chiqish jamiyat hayotidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. 1993 yil 23 aprel kuni O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov bir guruh adiblar bilan suhbat qilib milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi. 1993 yil 7 mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, – “Oldimizda turgan eng muhim masala, bu – milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim. Shu bilan birga bu mafkura xalqimizda, o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli o'laroq munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak”<sup>1</sup>, – deb ta'kidlab o'tgan edilar.

Milliy g'oya jamiyat a'zolarining ongi va qalbiga ma'naviy va tarbiyaviy ishlar vositasida singib boradi. Milliy g'oya kishilarda birlik, birdamlik, hamjihatlik, hamkorlik, faollik, fidoyilik tuyg'ularini shakllantiradi. Milliy g'oyaning ma'naviy xayotni yuksaltirish yo'lidagi o'z vazifalarini bajarib borishi va uni yanada kuchaytirishi tarixiy zaruriyat bo'lib, mustaqillik yillarida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mustaqillik

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд, – Т.: Ўзбекистон, 1996. 203-бет.



yillari O'zbekistonda milliy g'oyaning ishlab chiqilishi, hayotga tatbiq etilishi hamda uning ishonch va e'tiqodga aylanishi davri bo'ldi. Milliy g'oya tufayli, xalqimizda haqiqiy Vatanparvarlik tuyg'usi, milliy g'urur, o'zlikni anglash jarayonlari amalga oshmoqda. Mustaqillik yillarida milliy g'oyaning negizlari bo'lgan milliy madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat o'zgardi. Mustaqillik tufayli milliy g'oya ta'lim-tarbiyani yangi bosqichga ko'tarib, xalqimizning tarixiy merosi, milliy madaniy urf-odatlari, an'analariga tayangan holda, umum e'tirof etilgan demokratiya prinsiplari asosida ta'limda milliylik va umuminsoniylikning uyg'unligi amalda ta'minlanmoqda. Milliy g'oya negizida yangi avlod shakllanib, ularning milliy qadriyatlarni hurmat qilishi turli sohalar bo'yicha o'zining samarasini bermoqda.

O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan asriy orzu-istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir. Asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelingan mustaqillikni saqlash va mustahkamlash har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Vatanning obodligi xalqning farovonligidir. Istiqlol mafkurasi – har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir. G'oya safarbar etuvchi ulug'vor fikr bo'lsa, mafkura mana shunday g'oyalarni bir butun yaxlit kuch qilib birlashtiruvchi tizimdir. Milliy istiqlol mafkurasi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning – butun xalqimizning umumiy manfaatlarini ifodalaydi. Mafkura – milliy o'zlikni anglatuvchi kuch. O'zlikni anglash – xalqni uyg'otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuchdir. Bizda «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tuyg'u yuksak darajada shakllanmoqda.

Milliy g'oya tufayli xalqimizda haqiqiy vatanparvarlik tuyg'usi, milliy g'urur, o'zlikni anglash jarayoni amalga oshmoqda. Soxta g'oya va mafkuraviy aqidalar bilan bog'liq tushuncha va qarashlarga barham berilib, “fikrga qarshi fikr,

g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" tafakkuri, madaniyati shakllantirilmoqda. Milliy g'oya konsepsiyasining ishlab chiqilib rivojlantirilishi fuqarolarda mustaqil fikr va tafakkurning rivojlanishiga asos bo'lmoqda.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov jamiyat taraqqiyotining o'ziga hos qonuniyatlarini teran his etib va tahlil etib Milliy istiqlol g'oyasi to'g'risidagi ta'limotni yaratdi. O'zbekistonning ma'naviy hayotidagi yangilanish jarayonlarini o'zida aks ettirgan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" konsepsiyasi Islom Karimovning asarlarida nazariy jihatdan asoslanib, O'zbekistonda islohotlarning amalga oshirilishi jarayonida amaliyotga joriy etib borildi. Birinchi Prezidentimizning asarlari asosida 2000 yilda "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" nomli risola tayyorlanib chop etildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning asarlarida, jamoatchilik oldidagi chiqishlari, ma'ruza va nutqlarida milliy manfaatlar, milliy istiqlol, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va milliy mentalitet masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan edi. Xalqni milliy manfaatlar yo'lida birlashtirish uchun jamiyatga milliy g'oya va mafkura zarur bo'lib, bu masala birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida konseptual asosda, bosqichma-bosqich, tizimli ravishda ishlab chiqildi. Islom Karimov asarlarining 1-jildi, "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura", deb nomlanib, bu kitobda g'oya va mafkura haqida birinchi Prezidentimizning quyidagi fikrlari bayon qilingan edi. Bizning eng ulug' maqsadimiz, eng ulug' g'oyamiz, eng ulug' shiorimiz shuki, O'zbekistonning bitta yo'li bor: mustaqillikni mustahkamlab, istiqlolni mustahkamlab – olg'a yurish. Mafkuramiz, tutgan yo'limiz, bor g'ayratimiz ana shu ulug'vor niyatga yo'naltirilishi kerak. Xalqimizni, barcha siyosiy kuchlarni, jamoat tashkilotlarini yakdillik, bir jon, bir tan qiladigan g'oya ham aslida shu<sup>1</sup>. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy mafkuraning konseptual asoslarini ishlab chiqish lozimligiga alohida e'tibor berib, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilingan kunning bir yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali majlisda shunday degan edi: Asosiy qonunimizda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. 217-бет.

fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, deyilgan. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasini maqomiga ko'tarilishi mumkin emas. Bu konstitusiyaviy qoida bizning oldimizga milliy istiqloq mafkurasini yaratish vazifasini qo'yadi. Milliy istiqloq mafkurasini xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qilishi lozimligini hech qachon unutmaylik. Unda jamiyatimizdagi barcha kuchlar, harakatlar, jamoat tashkilotlari, aholi turli tabaqalarining o'y-fikrlari, orzu-umidlari o'z ifodasini topmog'i lozim. U davlatimiz fuqarolarini ulug' maqsad yo'lida qalban birlashtirishga ko'maklashishi kerak<sup>1</sup>. Mustaqillikdan keyingi davrda milliy g'oya va milliy mafkura konsepsiyasini ishlab chiqish, uning asosiy tushuncha va tamoyillarini odamlar ongi va qalbiga singdirish masalasi nihoyatda dolzarb masalalardan biri edi. Islom Karimovning keyingi maqolalarida, ayniqsa, "Tafakkur" jurnali bosh muharriri bilan suhbatda milliy mafkura masalasi bosh mavzu sifatida muhokama qilindi. Bu suhbatda mafkuraning mohiyati, uning asosiy vazifalari, totalitar mafkuraning oqibatlari, jahondagi mafkuraviy jarayonlar, mafkuraviy poligonning har qanday harbiy poligonlardan xatarli ekanligi, milliy mafkuraning xususiyatlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, mafkuraviy bo'shliqning vujudga kelish sabablari, mafkuraviy immunitet va uning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rni, milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirish yo'llari, mafkurasizlik, mafkuraviy nigilizm va boshqa masalalar muhokama qilingan.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning milliy g'oya va milliy mafkuraga bag'ishlangan fikr-mulohazalari bayon etilgan yana bir asari "Milliy istiqloq mafkurasini – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" – ("Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar), – deb nomlanib, bu asarda milliy istiqloq mafkurasining hayotimizdagi o'rni, asosiy tamoyillari, kundalik ehtiyojga aylanishi, uning maqsadlari va ustuvor g'oyalari, mafkuraviy tahdidlar to'g'risidagi fikr-mulohazalari bayon qilingan. Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi, – deydi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, – Binobarin, toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi,

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Буюк келажакимизнинг ҳуқуқий кафолати. – Т.: Шарқ, 1993. 13-бет.

milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi. Mening fikrimcha, mafkuraning hayotiyliigi uning xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'li mos bo'lishi, eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan o'lchanadi. Faqat shunday mafkuragina hayot va davr sinovlariga bardosh beradi, odamlar unga ishonib, o'zining iymon-e'tiqodi sifatida qabul qiladi. Shundagina u eng zamonaviy quroldan ham ko'ra kuchli ruhiy-ma'naviy qudrat kasb etadi<sup>1</sup>.

O'zbekistonda milliy g'oya va mafkura konsepsiyasining ishlab chiqilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilib, birinchi bosqich 1989-1991 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda mustaqillikkacha amal qilib kelgan yagona mafkuraviy aqidalardan voz kechildi. Jamiyat hayotining muayyan g'oya yoki mafkura bilan bog'liqligi boy tarixiy merosning tiklanishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirish asosida amalga oshirildi.

Mustaqil O'zbekistonning demokratik taraqqiyotida, uning talablariga javob beradigan milliy g'oya va mafkurani ishlab chiqishda 1991-1992 yillar o'ziga xos, uning huquqiy asosini belgilash bosqichi bo'lib, bu davrda milliy istiqlol g'oyasining jamiyat ijtimoiy hayoti sohalarida qanday tamoyillarga asoslanishi aniq ifodalab berildi. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining asosiy tamoyillariga quyidagilar taalluqlidir:

- mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlashga yordam berish;
- qonunning ustuvorligi, demokratiya va o'z-o'zini boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallanayotganiga asoslanganlik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanish;
- xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;
- iqtisodiy plyuralizm va xilma-xil mulkchilikning erkin shakllanishini ta'minlash;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanganligi;
- vijdon erkinligi va fikrlar rang-barangligi muhitini shakllantirish;

---

<sup>1</sup>Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2000. 491-бет.

- o'tish davrida aholining ijtimoiy himoyalanganligi;
- jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligi tamoyillariga xizmat qilishi.

Mazkur tamoyillarning barchasi bir-biri bilan chambarchas aloqada va bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bu tamoyillar respublikamizda yashovchi barcha millat va elat vakillarining umumiy manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi. Mustaqillik tufayli birinchi marotaba Konstitusiyamizda mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligiga keng o'rin berildi. Konstitusiyaning 12-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas" – deb yozib qo'yilgan. Bu qoida Respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va istiqlol mafkurasini ishlab chiqishda hamda mustaqillikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ijtimoiy hayot sohalarida siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligining e'tirof etilishi jamiyat hayotining rivojlanishiga tamomila yangicha qarash va yondashuvning shakllanganligini ko'rsatdi. Boshqa tomondan, hech qaysi mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi milliy istiqlol g'oyasining davlat mafkurasi emas, balki jamiyat mafkurasi sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berib, uni huquqiy jihatdan kafolatladi.

Milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi va rivojlanishida 1993-2000 yillar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yillar davomida amalga oshirilgan o'zgarishlar natijasida jamiyat mafkurasi yanada boyitildi, milliy g'oya va mafkuraning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon bo'lish hususiyatlari o'rganilib, milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan tushuncha va tamoyillar tizimi shakllantirildi. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining maqsad va vazifalari, ularning asosiy g'oyalari, shuningdek jamiyat mafkurasi bilan bog'liq bo'lgan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" konsepsiyasi ishlab chiqildi va jamiyat hayoti barcha sohalariga tatbiq etildi. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" konsepsiyasi asosida amalga oshirilgan tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy ishlar o'zining keng ko'lamliligi bilan muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ijtimoiy taraqqiyotga maqsad va

yo'nalishni belgilab beradi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, – Mafkura jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Har qanday inson, tabiiyki, murod maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin, toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi<sup>1</sup>. O'zbekiston xalqining milliy istiqloq mafkurasi jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida hamjihatlik bilan harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir insonning maqsad-muddaolarini o'zida ifodalashga harakat qiladi.

## **5.2. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasida milliy g'oya va mafkuralar tarixining asoslanishi**

Milliy g'oya vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish va shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oyadir. Har qanday inson murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Mamlakatlar, davlatlar o'z manfaatlarini milliy g'oya, milliy mafkura orqali belgilab oladi. 2000 yil aprel oyi milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari bilan bog'liq konsepsiyani ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, milliy g'oya konsepsiyasini ishlab chiqishga bag'ishlab Oqsaroyda bo'lib o'tgan anjuman uni amaliy jihatdan ishlab chiqish va hayotga joriy etishda yangi bir bosqichni boshlab berdi.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2000 yil 8 iyunda "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblari "Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" deb nomlanib, bu asarda quyidagi asosiy g'oyalar ilgari surilgan:

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Т.: Ўзбекистон, 2000. 6-бет.

- 1.Mamlakat va davlatning manfaatlari milliy mafkura orqali o'z ifodasini topadi.
- 2.Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi.
- 3.Qudratli davlatlar, ayrim siyosiy markazlar inson ongini zabt etib, o'ziga qaratish uchun kurashmoqdalar.
- 4.Mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar mafkuraviy bo'shliq tufayli yuz bermoqda.
- 5.Odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi.
- 6.Yot mafkuraviy ta'sirga ayrim yoshlar kirib ketmasligi uchun mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zarur.
- 7.Milliy g'oya va milliy mafkurani ishlab chiqishdan maqsad huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat.
- 8.Jamiyatni ma'naviy yangilash va islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida siyosiy va davlat qurilishini erkinlashtirish lozim.
- 9.O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida oilani mustahkamlash orqali adolatli jamiyatni shakllantirish.
- 10.Jamiyatning iqtisodiy asosi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslanishi zarur.
- 11.Jamiyatning rivojlanishi yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga asoslanadi.
- 12.Milliy mafkurani yoshlar ongiga sodda va oddiy qilib tushuntirishda turli vositalardan samarali foydalanish.
- 13.Mafkura qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, balki u uzluksiz jarayon bo'lganligi uchun millat manfaatlariga javob berishi zarur.
- 14.Milliy mafkurani tepadan turib yaratib bo'lmaydi, milliy mafkura jamiyatning talab va ehtiyojidan kelib chiqqan holda keng xalq ommasi manfaatini o'zida ifodalaydi.
- 15.Milliy istiqlol mafkurasi Vatan tuyg'usi, ona tiliga muhabbat, milliy qadriyatlarga e'tiborda bo'lishi, oila, mahalla ya'ni milliy qadriyatlar bilan birga

umuminsoniy qadriyatlarga, diniy qadriyatlarga, ma'rifat tamoyillariga monand rivojlanishi kerakdir.

Milliy g'oya O'zbekiston xalqining tarixiy maqsadlarini amalga oshirish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat manbai hisoblanib, demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillikni mustahkamlash uchun xalqimizni birlashtiradigan, uning asriy ezgu maqsadlari bo'lgan "Kelajagi buyuk davlat"ni barpo etish har bir shaxsning hayotiy manfaatlarini o'zida mujassam etadigan milliy g'oya va mafkurani yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim shartiga aylanmoqda.

Milliy g'oya va milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari keng, murakkab va serqirra tushunchalar bo'lib, bu Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab olishga xizmat qiladi. Bu g'oya xalqni-xalq, millatni-millat etadigan, uning sha'nu sharafi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib boruvchi qarashlar tizimi hisoblanadi. Milliy g'oyani ishlab chiqish, uning maqsad va vazifalarini aniq tasavvur etishda, odamlarning ongi-shuuriga yetkazishda, O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyoti konsepsiyasining g'oyaviy negizi ekanligini idrok etishda O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, nutqlari va ma'ruzalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy g'oya O'zbekiston fuqarolarini birlashtirishga, ularni ezgu va bunyodkorlik ishlariga yo'naltirish va safarbar etishga xizmat qilmoqda.

Insoniyat tarixi xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayondir. Bu jarayonda turli g'oyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, o'ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon yetaklashiga qarab bir-biridan farq qiladi. Insoniyat tarixida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari – Suqrot va Platon, Konfusiy va Zardusht, Amir Temur, Alisher Navoiy, Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlarning har biri o'z davrida o'zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan ahamiyatga molik bo'lgan g'oyalarni yaratganlar. Bu g'oyalarga tayanib



bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadlarga erishish uchun doimo mehnat qilganlar. Bu borada insoniyatga ezgulik g'oyalari targ'ib qilgan Zardusht ham, "O'zini anglamoq buyuk saodat" ekanligini anglatgan Suqrot ham, "xalqni yakqalam qildim" deb insonparvarlik, adolat g'oyalari kuylagan Alisher Navoiy ham, markazlashgan davlat tuzib, xalqni birlashtirib, uning adolat kuchiga ishonchini mustahkamlagan Amir Temur ham, Hindiston ozodligi uchun kurashgan Maxatma Gandi ham bugungi avlodlar uchun ibrat namunasi bo'lgan ulug' insonlardir. Ijtimoiy taraqqiyotga, jamiyatda ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g'oyalar asos bo'ladi. Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek oliyanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat sivilizatsiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. O'zbekiston tarixida turli g'oya va mafkuralar mavjud bo'lib, eng avvalo insonning tabiat bilan uyg'unligiga o'z e'tiborini qaratgan qam dini, shomonlik, insoniyat tarixida adolat, haqiqat, ezgulik va mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalarni ilgari surgan zardushtiylik ta'limoti, dunyodagi barcha narsalarga nisbatan mehr-shafqatni da'vat etgan buddaviylik, insonni Ollohga e'tiqod qilishga va ilm olishga da'vat etgan islom dini, insonni ma'naviy kamol topishga da'vat etgan tasavvuf ta'limoti, diniy va dunyoviy bilimlar asosida shakllangan dunyoqarashga asoslangan ko'plab qarashlar va ta'limotlar vujudga kelib rivojlangan. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi diniy ta'limoti va mafkurasi bo'lib hisoblangan Zardushtiylikda insonni ezgulikka da'vat etuvchi g'oyalar markaziy o'rinni egallab, bu ta'limotda insonni o'troq, osoyishta, tinch hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadigan g'oyalar ulug'lanadi. Zardushtiylikning bunyodkor g'oyalari insonlarni tinch-totuv yashashga, halol mehnat qilib Vatanni obod qilishga da'vat etadi. "Avesto"da vatanparvarlik g'oyasi ulug'lanib, odamlarni barkamol etib tarbiyalash masalasiga asosiy e'tibor qaratilgan. Zardushtiylik ta'limotida ona zaminni e'zozlash, uni obod qilish g'oyalari targ'ib etilgan. "Avesto"da aks etgan Zardushtning "Ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha qabih andisha, qabih so'z va qabih amaldan yuz buraman" degan hikmatli so'zlari

bugungi kunda ham katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu o'lmas g'oyalar keyinchalik paydo bo'lgan boshqa diniy ta'limotlar, jumladan xristianlik va islom dinlari tomonidan ham qabul qilingan. Zardushtiylik ta'limoti o'z davrida shakllangan g'oyalar tizimidan iborat bo'lgan jamiyat mafkurasi edi.

Buddaviylik dini kushonlar davrida Markaziy Osiyo hududiga tarqalib, bu diniy ta'limotga ko'ra har bir inson beshta axloqiy talabga amal qilishi talab qilinadi. Bu axloqiy talablarga ko'ra har bir inson yomonlik qilishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'rilik qilishdan, his-tuyg'ularga ortiqcha berilishdan, ichkilikdan o'zini tiyishi lozimdir. Buddaviylik ta'limotida axloqiy g'oyalarga katta e'tibor qaratilgan. Buddaviylik ta'limotida inson faqat o'z kuchiga tayangan holda "najotning olijanob sakkizlik yo'li"dan ongli harakat qilib o'z maqsadiga erishishi mumkin degan g'oya ilgari suriladi. Buddaviylik ta'limotida asosan taqvodorlikning yo'llari va talablari to'g'risida fikr yuritilib, inson kamolotiga taalluqli bo'lgan fikr va g'oyalar ilgari surilgan.

Jamiyatdagi ezgu g'oyalar barcha davrlarda insonni yuksak orzular bilan yashashga, olijanob maqsadlar yo'lida e'tiqod bilan kurashishga o'rgatadi. Insoniyatning adolat, tenglik, tinchlik, qardoshlik, farovonlik kabi g'oyalari turli diniy va dunyoviy ta'limotlar asosida odamlarni yuksak maqsadlar sari yo'naltirgan. Islom dini, Qur'on va hadislarda tabiatni asrash, ilm olish, odamiylik, vatanparvarlik, halollik, ruhiy poklik, rahm-shafqatli, mehr-oqibatli va adolatli bo'lish, ota-onani va ayolni ulug'lash to'g'risidagi ezgulik g'oyalari targ'ib qilingan. Hadislardagi "Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir", "Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir", "Bir-birlaringizga hayr-ehsonli, mehr-oqibatli bo'lib, qo'l berib so'rashib yuringlar, shunda dillaringizdagi g'amug'ashlik ketadi", "Vatanni sevish imondandir", "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir", "Bir-birlaringizga ehson qilinglar, chunki ehson dildagi muhabbatni oshiradi", "Jannat onalar oyog'i ostidadir", "Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil", "Sizlarning yaxshilaringiz axloqi yoqimli bo'lganlaringizdir", "Ekmak niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda behosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib

qo'yavering", "Odamlarning yaxshisi – odamlarga foydalirog'idir", "Qarindoshlarga muruvvat qilish xushxulqlik va yaxshi qo'shnichilik – yurtni obod va umrni ziyoda etadi", "Halol rizq topish har bir mo'min uchun vojibdir", "Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi",<sup>1</sup> degan da'vatlarda ezgulik va insonparvarlik g'oyalari mujassamlashgan.

Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari ham o'z asarlarida jamiyat rivojini tahlil qilib, ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan bunyodkorlik g'oyalari xususida o'z fikr va mulohazalarini bildirganlar.

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri", "Baxt saodatga erishuv haqida" kabi asarlarida oliyanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U o'z asarlarida har tomonlama yetuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi yuksak axloqqa ega ideal jamoa haqidagi ilg'or g'oyalarni ilgari surdi.

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'zining she'rlari va dostonlarida ma'rifatsizlik, jaholatga qarshi kurash g'oyalarini ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchilikka, adolatga chaqiradi. Alisher Navoiy ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qilib, uning bu orzulari "Farxod va Shirin", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlarida o'z ifodasini topadi.

Sharq Uyg'onish davrida o'z ta'limotlarini yaratgan buyuk mutasavvuflar Xoja Yusuf Xamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, muhaddislar Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotlarida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlari jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qilib, bu g'oyalarda Vatan va xalq manfaati yo'lidagi fidoyilik va insonparvarlik ulug'lanadi. Bunyodkor va ezgu g'oyalar Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi va o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temurning "Temur tuzuklari", Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarlarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va

---

<sup>1</sup> Ахлоқ – одобга оид ҳадис намуналари. – Т.: Фан, 1990. 88, 102, 104, 108, 136-бетлар.

obodligi masalasi bosh g'oya sifatida ilgari surilgan. Bu g'oyalar Amir Temur va temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarining ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi. Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik edi. O'zbekiston tarixining barcha davrlarida va turli xalqlar tarixida milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirib jamiyatni birlashtiradi hamda uning salohiyati va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqaradi. Milliy istiqloq g'oyasining hayotga tatbiq etilishi va demokratik tamoyillarning amal qilishi davlat, jamiyat va fuqarolarning o'zaro munosabatlaridagi qonuniylikka asoslanadi. Shunday qilib, milliy istiqloq g'oyasining tarixiylik tamoyili xalqimiz ruhini, dahosini aks ettiruvchi o'lmas qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, buyuk ajdodimiz, sohibqiron Amir Temurning "Kuch – adolatdadir" degan shiori milliy g'oyaning tarkibiy qismini tashkil etadi. Amir Temur o'z hayotini xalqning farovonligi, yurt obodonchiligi uchun sarfladi, uning davrida hashamatli binolar, qurilish inshootlari, go'zal bog'lar bunyod qilindi, maktab va madrasalar, masjidlar qurildi. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va ilm-fan taraqqiyotiga katta e'tibor qaratildi. Bu davrda tasavvuf ta'limoti keng rivojlanib, Amir Temur tasavvufdagi poklanish, to'g'ri va sofdil bo'lish, halol mehnat qilish, biror kasbni egallash, muhtojlarga mehr-shafqat ko'rsatish kabi g'oyalarni xalqqa singdirish uchun doimiy ravishda harakat qildi. Temuriylardan Shohruh, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidalariga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an'analarini izchil ravishda davom ettirib, jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotiga yordam beradigan bunyodkor g'oyalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdilar. Temuriylar davrida ijod qilgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o'z asarlarida jamiyat va inson munosabati, insonning baxt-saodati, komil inson va fozil jamoa, ta'lim-tarbiya masalalariga o'z e'tiborini qaratib, Navoiy xalq orasida insonparvarlik g'oyalarini yoydi, turli millat va elatlar o'rtasidagi do'stlikni ulug'ladi. Navoiyning yaxshilik, ezgulik, muhabbat, do'stlik, adolat, tinchlik, osoyishtalik va boshqa go'zal fazilatlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar to'g'risidagi qimmatli fikrlari bugungi kunda ham barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Amir Temur va temuriylar davrida Saadiddin bin

Umar Taftazoniy, Mir Sayid Jurjoniy, Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nug'moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol Hoki va boshqa olimlar yashab ijod etganlar. Badiiy adabiyotda, tasavvuf she'riyatida, nazm va nasrda, g'azal va ruboiylarda adolatli jamiyat va komil inson g'oyalari Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Lutfiy, Binoiy, Qosimi Anvar va boshqalarning badiiy asarlarida rivojlantirildi. Xusayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylarning axloq va ta'lim – tarbiya masalalariga bag'ishlangan maxsus risolalari yaratildi. Amir Temur va temuriylar davrida Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofiz Abro', Fosih Xavofiy, Mo'yniddin Isfizoriy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar ham ijod qilib, o'z davrining tarixiy hodisalari, madaniy yuksalishi, ma'naviy hayotdagi g'oyaviy, mafkuraviy jarayonlarini yoritib berishgan edi. XVI-XIX asrlar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar va xonliklar davrida ilm-fan, madaniyat va san'at taraqqiyotida o'ziga xos xususiyatlar ko'zga tashlandi. Shayboniylar davrida ilm-fan, madaniyat va san'at taraqqiyoti vorislik asosida rivojlanib borgan bo'lsa, Ashtarxoniylar davrida dunyoviy fanlarning rivojlanishi ikkinchi o'ringa tushib qolib, din va tasavvufga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Shayboniylar davrida Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek akademiyasi an'alarini davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishib chiqib, fanning turli sohasida Kamoliddin Ibrohim, Xoja Muhammad, Qiyomiddin Shaydo, Muhammad Mazid, Hakim Shahrisabziy kabilar yetishib chiqdilar. Ilmi nujum sohasida Qiyomiddin Shaydo, Mavlono Kavkabi, Muhammad Amin ibn Ubaydilla, Mahmud ibn Ahmad Foziliy kabilar ijod qilib ilmiy g'oyalarni rivojlantirgan bo'lsalar, tibbiyot sohasida Muhammad Mazid, Mavlono Baqo, Mavlono Rafe, Muhammad Husayn ibn Shiroq Samarqandiy, Shohali ibn Sulaymon kabilar ijod qildilar. Ashtarxoniylar davrida Muhammad Sharif Buxoriy, Mulla Tursun Fariziy, Mulla Yusuf Qorabog'iy, Boboxoja ibn Xoja Orif Samarqandiy va boshqa olimlar falsafa, tasavvuf, tarix, fiqh, tilshunoslik, astronomiya, matematika, handasa, kimyo, mantiq kabi fanlar sohasida ijod qilib ilmiy g'oyalar rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar. Ashtarxoniylar davrida badiiy adabiyot sohasida ham bir muncha yutuqlarga erishilib, bu davrda Mirzo Abdulqodir Bedil, Sayido Nasafiy, Turdi, So'fi Olloyor, Boborahim Mashrab,

Xoja Samandar Termiziy, Mutribiy, Mulla Sodiq Samarqandiy ijod qildilar. Xonliklar davrida Buxoro amirligida tarix, adabiyot, musiqa va san'at bir muncha taraqqiy etib, tarix sohasida Muhammad Ya'qub ibn Doniyolbiy Buxoriy, Mirzo Shams Buxoriy, adabiyot sohasida Muhammadniyoz Nishotiy, Mujrim-Obid, Shavqiy, Joniy, Hiromiy, Vola, Junaydulloh Hoziq kabi shoirlar ijod qildilar. Xiva xoni Abulg'ozixon tomonidan "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" asarlari yaratildi. Xiva xonligida qo'lyozma kitob san'ati taraqqiy topgan bo'lib, bu yerda Muhammad Yusuf Rojiiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Rizo Oxund kabi usta xattotlar tomonidan she'riy asarlar, tarjima va tarixiy kitoblar yuksak mahorat bilan ko'chirilgan. Qo'qon xonligida Qo'qon xoni Umarxon Amiriy taxallusi bilan ko'plab she'rlar yozgan. Fazliy Namangoniy, Maxmur, Gulxaniy, Jahon otin Uvaysiy, Mohlaroyim – Nodira Qo'qon adabiy muhitining yirik vakillaridir.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlari Turkistonda ma'rifatparvarlik davri bo'lib, ma'rifatparvarlik ikki bosqichdan iborat bo'ldi. Birinchi bosqichda mavjud tuzum va tartiblarni tanqid qilish, madaniy yangiliklarni egallash, horijiy tillarni o'rganish, yangicha ilm-fanning ahamiyatini ko'tarish kabi masalalar kun tartibiga qo'yilib, Ahmad Donish, Avaz O'tar, Furqat, Muqimiy, Zavqiy kabilar bu davrning vakillari edilar. Ikkinchi bosqichda ma'rifatparvarlikdan jadidchilik harakati kelib chiqdiki, u endilikda yangicha ta'lim-tarbiya, yangi usul maktablarini yo'lga qo'yish, dunyoviy ilmlarni har tomonlama egallash, maorif-madaniyatga yangi tartiblarni o'rnatish, yangi ijtimoiy-siyosiy masalalarni kun tartibiga qo'yish darajasiga ko'tarildi. Turkistonda yangi usul maktablari ochilib, ma'rifatparvar, ilg'or pedagoglar bu maktablar uchun turli darsliklar, o'qish kitoblari, qo'llanmalar yaratdilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Abdullo Avloniy, Is'hoqjon Ibrat kabilar jadidchilik harakatida faol ishtirok etdilar. Jadidlar ta'lim-tarbiya masalalari bilan birgalikda mustaqillik, ozodlik g'oyalarini ham kun tartibiga qo'yidilar hamda uni amaliyotga joriy qilishga harakat qildilar.

### **5.3. Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurashning konsepsiyada yoritilishi. Konsepsiyada O'zbekiston taraqqiyoti va mafkuraviy muammolarining ochib berilishi**

Hayot mavjud ekan, jamiyat va davlat bor ekan, har qaysi millat va har qanday xalq o'z yo'lini, maqsadini, o'zining milliy g'oyasi va mafkurasini aniqlab olishga harakat qiladi. O'zbekiston mustaqilligi qo'lga kiritilgandan so'ng milliy g'oya va mafkurani ishlab chiqish hamda hayotga tatbiq qilish masalasiga katta e'tibor qaratila boshlandi. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari konsepsiyasini ishlab chiqishda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2000 yil aprel oyida Oqsaroyda bo'lib o'tgan anjumandagi ma'ruzasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Islom Karimov 2000 yil 8 iyunda "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblarda, ya'ni o'zining "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" asarida quyidagi masalalarga o'z e'tiborini qaratgan.

- Mamlakat va davlat manfaatlari milliy mafkura orqali ifodalanadi;
- Maqsad huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir;
- Siyosiy va davlat qurilishini erkinlashtirish lozim;
- Jamiyatning iqtisodiy asosi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslanishi zarur;
- Milliy mafkurani tepadan turib yaratib bo'lmaydi, u prinsipial masaladir;
- Mafkura qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, balki u uzluksiz jarayon bo'lganligi boisdan millat manfaatlariga javob berishi zarur;
- Milliy istiqlol mafkurasi Vatan tuyg'usi, ona tiliga muhabbat, milliy qadriyatlarga e'tiborda bo'lishi, oila, mahalla, ya'ni milliy qadriyatlar bilan birga umuminsoniy qadriyatlarga, diniy qadriyatlarga, ma'rifiy tamoyillarga asoslanib rivojlanishi kerak;
- Milliy mafkurani yoshlar ongiga sodda, lo'nda qilib tushuntirishda turli vositalardan samarali foydalanish zarur;

- Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi;
- Qudratli davlatlar va ayrim siyosiy markazlar inson ongini zabt etib, o'ziga qaratish uchun kurashmoqda;
- Mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar mafkuraviy bo'shliq tufayli yuz bermoqda;
- Odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi;
- Yot mafkuraviy ta'sirga ayrim yoshlar kirib ketmasligi uchun mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zarur;
- Oilani mustahkamlash orqali adolatli jamiyatni shakllantirish muhim;
- Jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida adolatli jamiyat va komil insonni tarbiyalash zaruriyati milliy g'oya va mafkuraga nisbatan talab va ehtiyojni kuchaytirdi. Natijada 2001 yil 18 yanvarda O'zbekiston Prezidentining ““Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida”gi Farmoyishi qabul qilinib, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, maktablarda “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fanlari ta'lim dasturlariga kiritildi. O'zbekiston Prezidentining asarlarida jamiyat rivojlanishining yangi nazariy konseptual g'oyalari asoslab berilib, milliy g'oya, uning mazmuni va mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalarining aniq yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Milliy g'oya O'zbekiston xalqining tarixiy maqsadlarini amalga oshirish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat manbai hisoblanib, demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillikni mustahkamlash uchun xalqimizni birlashtiradigan, uning ezgu maqsad-muddaolarini o'zida ifodalaydigan milliy g'oya va mafkurani yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim shartidir. Milliy istiqlol mafkurasi O'zbekiston jamiyatining mafkurasi sifatida o'zbek xalqining milliy madaniy merosi, urf-odat va an'analariga tayanadi. Shu bilan birgalikda, milliy



istiqlol g'oyasi O'zbekiston xalqining ong va tafakkur tarzi, mentaliteti va tarixiy an'alarini xisobga oladi. Boshqa tomondan, milliy istiqlol g'oyasi umuminsoniy qadriyatlar, dunyoda e'tirof etilgan demokratik tamoyillarga tayanadi. Milliy istiqlol g'oyasi muhim demokratik tamoyillar bo'lgan inson hayotining daxlsizligi, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini, huquq va manfaatlari ustuvorligini e'tirof etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga asosan milliy g'oyani hayotga tatbiq etish va targ'iboti samaradorligini oshirish masalasiga e'tibor kuchaytirildi. Milliy istiqlol g'oyasi demokratik xususiyatga ega bo'lib, u demokratik o'zgarishlarni hisobga olgan holda, siyosiy plyuralizm, mafkuraviy plyuralizm tamoyillariga asoslanadi. Milliy g'oya va milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari ancha keng, murakkab va serqirra tushunchalardan iborat bo'lib, bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab olishga xizmat qiladi. Bu g'oya xalqni-xalq, millatni-millat etadigan, uning sha'nu sharafi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib boruvchi qarashlar tizimi hisoblanadi. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lida erishilgan va erishilayotgan yutuqlarida milliy g'oyaning ishlab chiqilgani va unga tayanilganligi, o'ziga xos va mos mustaqil taraqqiyot yo'lidan borishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Jamiyat taraqqiyotida demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilishi uning milliy g'oya maqsadlari bilan mushtarak va uyg'un ekanligini ko'rsatadi.

Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasida hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash masalasi ham o'z ifodasini topgan bo'lib, hozirgi davr jahon miqyosida g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, hamda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davr bo'lib hisoblanadi.

Insoniyat XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolar, ya'ni, urush va tinchlik, ekologik xavf-xatarlar,

ma'naviy qashshoqlik va etikologiya, narkobiznes, terrorizm, demografik, energetik, havfli kasalliklarning oldini olish, oziq-ovqat va ichimlik suvi bilan bog'liq bo'lgan global miqyosdagi muammolarga duch kelmoqda. Shu bilan birgalikda dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy jarayonlar ham sodir bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham mavjud bo'lib, agressiv millatchilik va buyuk davlatchilik shovinizmi, neofashizm va irqchilik, aqidaparastlik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Hozirgi davrda globallashuv va axborot oqimining tezlashuvi sharoitida dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib, bu holat bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini o'z maqsadlari yo'lida o'zgartirmoqchi bo'layotgan turli zararli g'oyalar va mafkuralar mamlakatimizdagi va dunyodagi tinchlik-totuvlik, barqarorlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda. Hozirgi davrda dunyodagi tinchlik-barqarorlikka tahdid solayotgan yovuz, vayronkor g'oyalardan biri agressiv millatchilik va buyuk davlatchilik shovinizmidir. Buyuk davlatchilik shovinizmi – bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyotdir. Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa xalqlarni qaram qilish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda ularni kamsitishning o'ziga xos shakli bo'lib hisoblanadi. Shovinizm haddan tashqari kuchayib ketgan va o'z milliy mumtozligiga ishonishga asoslangan buyuk davlatchilik zo'ravonligiga asoslangan mafkuradir. Shovinizm – millatchilikning o'ziga xos shakli bo'lib, boshqa millatlarni mensimaslik va o'z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyotidir. Shovinizm, ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'pmillatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan geografik-siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatish uchun kurashida namoyon bo'ladi. Shovinizm atamasi Fransiyada o'zining agressiv millatchiligi bilan ajralib turadigan Nikola

Shoven nomi bilan bog'liq holda, XIX asrning birinchi yarmida paydo bo'ldi. Napoleonning bosqinchilik urushlari qatnashchisi bo'lgan, "buyuk Fransiya"ni yaratgani uchun imperatorga sajda qilish ruhida tarbiyalangan, o'ta millatchi bo'lgan real shaxs fransuz yozuvchilari I. va T. Konyarlarning "Uch rangli kokarda" nomli komediyasi qahramoni badiiy obrazining prototipi bo'lib hisoblanadi. Mohiyatan shovinizm millatchilikning o'ziga xos shakli bo'lib, boshqa millatlarning jahon tarixida tutgan o'rni, bugungi kundagi mavqei, ma'naviy-madaniy hayotining o'ziga xos tomonlarini mensimaslikka intilishida ko'zga tashlanadi. Bugungi kunda shovinizm g'oyalari bilan qurollangan, turli mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuch va harakatlarning asl maqsadi yosh avlodning qalbi va ongini egallashdan iboratdir. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik xavfsizligimizga tahdid solayotgan muammolardan biri ekanligini alohida ta'kidlagan edilar. "O'tgan mustaqil rivojlanish yillari davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda, deb aytish uchun asos bo'la oladi, – deydi Islom Karimov, – Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ruhidagi shiorlarda, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan hatti-harakatlarda aniq namoyon bo'lmoqda. ... Biroq shovinistik va agressiv millatchilik inersiyasining kuchi hali shu qadar zalvorliki, bu kuch unga duch kelganlar uchun ham, uni boshqalarga qaratayotganlar uchun ham naqadar xavfli ekanligini payqamaslik mumkin emas"<sup>1</sup>. Shovinistik kuchlar bugungi kunda, mamlakat aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazishga harakat qilmoqdalar. Buyuk davlatchilik shovinizmi ham jaholatning bir ko'rinishi bo'lib, unga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashish mumkin.

Fashizm italyan tilida fasismo – bog'lam, birlashma degan ma'noni bildirib, G'arb mamlakatlarida XX asr boshlaridagi og'ir iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy buxronlar davrida vujudga kelgan o'ta tajovuzkor va vayronkor g'oyalar asosida

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998. 64-бет.

shakllangan insoniyatga qarshi nazariya va amaliyot bo'lib, u jamiyatdagi o'ta reaksion va tajovuzkor doiralarning dunyoqarashi va manfaatini o'zida ifodalaydi. Fashizm bu davlat boshqaruvining terrorchi totalitar shaklidir. U dastlab XX asrning 20-yillarida Italiyada vujudga keldi, 30-yillarda Germaniyada fashizmning hokimiyatga kelishi ommaviy qatag'onlarga, genosidga sabab bo'ldi. Fashistik, militaristik davlatlarning aybi bilan insoniyat ikkinchi jahon urushiga tortilib, nihoyatda katta qurbonlar berildi. Insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarga juda katta zarar yetkazildi. Fashizmning birinchi belgisini o'ta kuchli millatchilik tashkil etib, fashistlar uchun millatning manfaati boshqa har qanday manfaatdan ustun turadi. Germaniyadagi millatchilik irqchilik bilan qo'shilib ketgan edi. Nasistlar fikricha, butun insoniyat tarixi bu, turli millatlar va irqalar kurashi tarixidan iborat bo'lib, bu kurashda faqat kuchlilargina g'olib chiqadi. Oliy irq bo'lgan millatning tarixiy missiyasi butun dunyoga hukmron bo'lishdir. Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniya fashizmi, oriylar oliy irq ular butun dunyoda hukmron bo'lishi kerak, deb o'zlarining bosqinchilik siyosatlarini g'oyaviy jihatdan asoslashgan edi. Fashizmga xos belgilar uning o'ta agressivligi, fuqaroning davlat hokimiyati oldida sig'inishi, unga sajda qilishidan iborat bo'lib, fashizm uchun bu holat milliy ruhni mujassamlashtiradigan qudrat, barqarorlik va tartibning kafolati edi. Fashistlar – totalitar tartib, ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalari to'la davlat nazoratiga olingan tartib tarafdori edilar. Fashizmning muhim xususiyati – ochiqdan-ochiq shovinizm va irqchilik bo'lib, uning mohiyati jamiyatning barcha taraqqiyparvar qatlamlari va ilg'or fikrli a'zolariga qarshi kuch ishlatish va zo'rvonlik siyosatini olib borishdan iboratdir. Fashizmning tashqi siyosati bosqinchilik va xalqaro terrorchilikdan iborat bo'lib, bunday siyosiy rejimlar XX asrning 30-yillarida Italiyada, Germaniyada, Portugaliyada, Ispaniyada va Sharqiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida o'rnatilgan edi. XX asrning 70-yillariga kelib Portugaliya, Gresiya, Ispaniyada ham fashistik tartiblar tugatildi. Ammo Avstriya, Germaniya va boshqa ba'zi mamlakatlarda fashistik unsurlarning muayyan darajada faollashuvi kuzatilmoqda. Yevropa mamlakatlarida «britogoloviye» ya'ni, “taqirboshlar”, Rossiyada skinxedlar fashistik g'oyalarni zamonga moslab talqin etishmoqdalar. Fashistik g'oyalarning zamonga moslab talqin etilishi hozirgi davrda neofashizm g'oyalarida o'z ifodasini topmoqda.

Neofashizm – hozirgi o'nglar, o'ta reaksiyon oqim bo'lib, ikkinchi jahon urushidan keyin tarqatib yuborilgan fashistik tashkilotlarning g'oyaviy va siyosiy merosxo'rlari bo'lib hisoblanishadi. Hozirgi davrdagi jahon miqyosidagi migrasion jarayonlar ham turli mamlakatlardagi o'ng kuchlarning faollashuviga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Irqchilik – odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqqlarga mansubligi bilan oqlashga harakat qiluvchi reaksiyon ta'limot. Irqchilik ta'limoti “Rasizm” deb atalib, “rasa” irq degan ma'noni bildiradi. “Rasizm” atamasi XVII asrdan boshlab Yevropada insoniyatning turli irqiy guruhlar, jumladan “oq” va “sariq” irqqa ajratish uchun qo'llanila boshlandi. Irqchilik ta'limoti, ya'ni “rasizm”, “oq tanli” irqning afzalligi, ularning azaldan “oliy irq” etib tanlanganligi, boshqa irqqlarning esa “oq irq”qa qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini asoslashga harakat qiladi. Irqchilik ta'limotining asosiy g'oyasi “oq” irqqlarni “quyi” irqqlar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etishdir. Irqchilar insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik-irqiy belgilari, ko'zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashqi, ikkinchi darajali jismoniy belgilari bilan bog'liq holda tushuntirib, ularni oliy va quyi irqqlarga ajratadilar. Unga ko'ra, oliy irqqlar xo'jayinlik qilishi, qolganlari ularga xizmat qilishi, bo'ysunishi shart bo'lgan. Irqchilik ta'limoti boshqa xalqlarga nisbatan bosqinchilik, talonchilik, mustamlakachilik siyosatini asoslashga harakat qiladi. O'z vaqtida irqchilik ta'limoti bilan qurollangan fashistlar Germaniyasi “oriylar irqi” hukmronligini o'rnatish maqsadida ikkinchi jahon urushini boshlagan edilar. Hozirgi davrda ham turli reaksiyon mafkuralarga asoslangan ayrim guruhlar va ularning nazariyotchilari irqchilik g'oyalarini targ'ib etib, taraqqiyotda nisbatan orqada qolgan xalqlarning go'yoki mustaqil rivojlanishga ruhiy jihatdan tayyor emasliklarini asoslashga harakat qilishadi. Irqiy jihatdan kamsitish ilmiy jihatdan o'rinsiz bo'lib, dunyodagi barcha irqqlar madaniy taraqqiyotga birdek qobiliyatlidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida barcha irqqlar va millatlarning teng huquqliligi belgilab qo'yilgan.

Aqidaparastlik – muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llashga urinishdir.

Aqidaparastlik arabcha – “qoida” va forscha – “parast” soʻzlarining oʻzaro birikishidan tashkil topgan soʻz boʻlib, qoidalarga dalilsiz va isbotsiz, koʻr-koʻrona ishonishga, oʻzgarmas tushuncha va qarashlarga asoslangan tafakkur uslubi va hatti-harakatlarni oʻzida ifodalaydi. Aqidaparastlikning turli koʻrinishlari mavjud boʻlib, ulardan biri diniy aqidaparastlikdir. Diniy aqidaparastlik – siyosiy maqsadlar yoʻlida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, yaʼni mazkur din paydo boʻlgan paytdagi arkonlar asosida hal etish niyatidagi harakat va qarashlardan iboratdir. Aqidaparastlar diniy eʼtiqod shakllanishining boshlangʻich davrida belgilangan, oʻsha zamondagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga mos boʻlgan barcha yoʻl-yoʻriqlarning qatʼiy hamda ogʻishmay bajarilishini talab qiladilar. Islom arkonlarini niqob qilib olgan aqidaparastlarning asosiy gʻoyasi – “sof islom” talablariga qaytish, asosiy maqsad esa islomiy davlatni tashkil etishdan iboratdir. Aqidaparast guruhlar oʻz gʻoyalari bidʼatli, gʻayriinsoniy boʻlishiga qaramasdan, oʻta johil va boshqalarga nisbatan murosasiz munosabatda boʻladilar. Aqidaparastlarning oʻzini shak-shubhasiz haq deb bilishi manmanlik va zoʻravonlikni keltirib chiqarib, bu esa oxir-oqibatda ekstremizmning paydo boʻlishiga zamin yaratadi. Ekstremistlar qayerda faoliyat koʻrsatmasin, oʻzaro nizolar, ixtiloflar, qurolli toʻqnashuvlar orqali, yaʼni qon toʻkish va zoʻravonlik yoʻli bilan oʻz maqsadlariga erishishga harakat qiladilar.

Aqidaparastlarning gʻoyalari oʻta zararli boʻlib, ular tarixiy maʼnaviy merosni, buyuk mutafakkirlarimizni, tasavvuf taʼlimotini, komil inson gʻoyasini tan olmaydilar. Aqidaparastlar tasavvuf taʼlimotidagi komil inson gʻoyasini islomga yot va begona deb hisoblaydilar. Ularning fikriga koʻra komil inson gʻoyasi kufr tushuncha boʻlib, ular hayotda komil insonning mavjud boʻlishini tan olmaydilar. Aqidaparastlar muqaddas joylarni tavof va ziyorat qilishni ham islomga zid deb hisoblaydilar. Aqidaparastlik bu jaholatdan iborat boʻlib, u insonning qalbi, maʼnaviy ehtiyojlari bilan mutlaqo hisoblashmaydi. Aqidaparastlar ilm-fan, madaniyat va tasavvuf taʼlimoti taʼsirida shakllangan adabiyot, falsafa, sanʼatdan ham voz kechishni talab qiladilar. Aqidaparastlikka qarshi turadigan kuch – bu ilm-maʼrifatdir. Aqidaparastlar tomonidan amalga oshirilgan hatti-harakatlar milliy mustaqilligimizga ham katta tahdididir.

Ekstremizm lotincha extremus soʻzidan olingan boʻlib, oʻta degan maʼnoni bildiradi. Ekstremizm – ijtimoiy-siyosiy xususiyatga ega boʻlgan muammolarni hal etishda oʻta keskin chora-tadbirlar, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotdir. “Ekstremistik” soʻzi esa “aql bovar qilmas darajada”, “haddan oshish” degan maʼnolarni bildiradi. Ekstremizm mazmuniga koʻra – diniy va dunyoviy, namoyon boʻlishiga koʻra – hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga boʻlinadi. Dunyoviy ekstremizmning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy koʻrinishlari mavjud boʻlgani holda, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremizm – muayyan diniy yoʻnalish va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib unsurlar siyosiy faoliyatining mafkurasidir. Ekstremistik tuzilmalarning asosiy maqsadi aslida jamiyatni qoʻrqov va vahimada tutib turish va shu yoʻl bilan omma ongida noilojlik, ertangi kunga ishonchsizlik tuygʻularini shakllantirishga qaratilgan edi. Diniy ekstremistlar qayerda va qaysi din bayrogʻi ostida faoliyat koʻrsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatni barpo qilish boʻlib, bu maqsadga oʻzaro nizolar, ixtiloflar, qurolli toʻqnashuvlar orqali, yaʼni qon toʻkish va zoʻrluk bilan erishishni koʻzlaydilar. Bu esa mustaqillikka ham, taraqqiyotga ham katta gʻov boʻladi. Ekstremistik guruhlarining yagona maqsadi hokimiyatni qoʻlga olish boʻlib, bu yoʻlda ular eng jirkanch usullarni qoʻllashdan ham tap tortmaydilar.

Diniy ekstremizmni keltirib chiqaruvchi sabablar quyidagilardan iboratdir:

- dindan foydalanib, dinga aloqasi boʻlmagan siyosiy hamda boshqa tajovuzlar va maqsadlarni amalga oshirish uchun intilish;
- dinni niqob qilib, turli siyosiy mojarolar, ziddiyatlarni keltirib chiqarishga urinish;
- inson, millatlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilash huquqini emas, balki dinning yashashga boʻlgan huquqini eʼtirof etish;
- dinni dunyoqarash, tafakkurning yagona vositasi deb hisoblash<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda globallashuv, axborot oqimining oshishi sharoitida bizning turmush tarzimizga, ruhiyatimizga nisbatan qilinayotgan maʼnaviy-maʼrifiy xurujlarning turli usul va vositalari koʻpayib, zararli gʻoyalarni internet tarmogʻi orqali, turli kinofilmlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa yoʻnalishlarda tarqatishga urinishlar amalga oshirilmoqda. Zararli gʻoyalarni maʼnaviy

---

<sup>1</sup> Миллий истиқлол ғояси. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. – Т.: Академия, 2005. 73-бет.

hayotimizga tiqishtirishdan asosiy maqsad esa bizning milliy qadriyatlarimizni barbod etish, mafkuraviy immunitetimizni susaytirish hamda yoshlarimizni soxta g'oyalar ta'siriga olishdan iboratdir. Shuning uchun ham milliy g'oya bugungi kunda xalqimiz, jamiyatimiz uchun hayotiy zaruriyat, mamlakatimizda fuqarolar totuvligi va birdamligini ta'minlaydigan, taraqqiyotimizga kafolat bo'ladigan, insonlarni ezgu maqsadlarga yo'naltiradigan ma'naviy-ruhiy kuchdir. Milliy g'oya ezgu maqsad yo'lida jamiyat a'zolarini birlashtiradi, ularga ruhiy madad beradi va har qanday ko'rinishdagi zararli illatlarni inkor etib, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya bilan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishga da'vat etadi.

#### **5.4. Milliy istiqlol mafkurasi, uni xalqimiz qalbi va ongiga singdirish usul va vositalarining konsepsiyada aks etishi**

Mustaqillik yillarida shakllanish yo'liga kirgan milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini, milliy o'zligimizni o'zida mujassamlashtirib, ularni umuminsoniy qadriyatlar, dunyo sivilizasiyasi yutuqlari hamda ilg'or, taraqqiyparvar g'oyalar bilan boyitib, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad va vazifalarni aniq-ravshan aks ettiradi. Mafkura arab tilidan olingan so'z bo'lib, fikrlar, nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi degan ma'noni bildiradi. Mafkura – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuasidir. Har bir davlat, jamiyat o'zi bajarayotgan tarixiy vazifani asoslovchi va barcha ijtimoiy sinflar, tabaqalar, millatlar va elatlar, diniy e'tiqodlar vakillarini shu vazifa atrofida birlashtiruvchi, jipslashtiruvchi umummafkuraga egadir. Hozirgi davrda rivojlangan davlatlarda barcha ijtimoiy tabaqalar va sinflar, millatlar va diniy e'tiqod tarafdorlari o'z mafkuralarini demokratiya, insonparvarlik, ijtimoiy adolat qoidalari hamda talablari asosida yaratishga intilmoqdalar. Mustaqil O'zbekiston ham xuddi shunday yo'ldan borib, O'zbekiston Prezidenti tomonidan uning ma'ruzalari, risolalari va kitoblarida asoslanayotgan nuqtai nazar va g'oyalar majmuasi mohiyatan umumxalq mafkurasidir. Bu mafkura O'zbekiston xalqining tarixini, madaniyatini, falsafasini, axloqini, siyosiy ongini, badiiy didini, diniy an'analarni chuqur o'rganish asosida, xalqimizning istiqbolini aniq belgilab



bermoqda. Milliy mafkuramizning asosiy maqsadi O'zbekistonni zamonamizning rivojlangan davlatlaridan biriga aylantirish, mamlakat aholisi farovonligini oshirish, ko'pmillatli O'zbekiston aholisini umummaqsad atrofida yanada jipslashtirishdir. O'zbekistonning Milliy g'oya konsepsiyasida milliy istiqloq mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirish usul va vositalari masalasi ham o'z ifodasini topgandir. Milliy istiqloq g'oyasi O'zbekiston xalqining tub manfaatlari, asriy orzu-umidlari, ezgu niyatlari, buyuk maqsadlarini ifoda etib, xalqning o'z maqsad-muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat bo'ladigan asosdir. Hozirgi davr axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan davr bo'lib, hozirgi sharoitda keng qamrovli va jadal sur'atlarda tarqalayotgan ma'lumotlar insonning istaklarini, qarashlarini o'zgartirishi, fikriga ta'sir qilishi mumkin. Endilikda xilma-xil usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotning asosiy ob'yekti, maqsadi insonning qalbi va ongini egallashga qaratilgan. Bugungi kunda mafkuraviy kurashning bosh maqsadi insonning qalbini zabt etish orqali uning ongini egallashdir. Milliy g'oyani O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini hisobga olgan holda, fuqarolar, yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimi va ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Bugungi kunda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish sohasida qilinishi kerak bo'lgan ishlarga, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish<sup>1</sup>, masalalari kiritilgan. Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, bu naqadar jiddiy masala ekani yanada

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – Т.: Адолат, 2018. 26-бет.

yaqqol ayon bo'ladi. Shu o'rinda farzandlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bilan bog'liq vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman. Avvalambor, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz<sup>1</sup>. Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Milliy mafkurani yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirish maktabgacha tarbiya, uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimi bo'lgan maktablar, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan mafkuraviy tarbiya vositasida olib boriladi.

Milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirish tizimli ravishda olib borilib, bu tizimga ta'lim va tarbiya, fan va ilmiy muassasalar, madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar, adabiyot va san'at, din, jismoniy tarbiya va sport, urf-odat, marosim va bayramlar, oila, mahalla, mehnat jamoalari, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va boshqalar kiritiladi.

Ta'lim va tarbiya tizimi orqali milliy mafkurani yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Milliy mafkurani ta'lim-tarbiyaning turli shakllari orqali yoshlar qalbi va ongiga singdirishda quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutiladi:

- ta'lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy mafkurani singdirishning differensial pedagogik-psixologik dasturi yaratiladi;
- kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish ishlari uzluksiz tarzda olib boriladi;

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 – жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2017. 88-89-бетлар.

- o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy mafkuraning g'oyalari teran aks ettiriladi;
- maktab, lisey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish talab etiladi;
- pedagogik kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirishga e'tibor beriladi.

Ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim jarayonida, o'quv qo'llanmalari, darsliklar va qo'shimcha adabiyotlarda quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi:

- Vatan tuyg'usini shakllantirish;
- ona tilimizga muhabbatni uyg'otish;
- milliy qadriyatlarga hurmat-e'tiborni kuchaytirish;
- ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
- oilaning insonparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasidagi tutgan o'rni va ahamiyatiga e'tiborni kuchaytirish;
- mahallaning demokratiya darsxonasi va o'z-o'zini boshqarish maktabi ekanligiga e'tiborni qaratish hamda sharqona demokratiyada jamoaviylik, milliy urf-odat, an'ana, udumlar va qadriyatlarning tutgan o'rni va ahamiyatiga e'tiborni qaratish.

Fan va ilmiy muassasalar milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Lekin bu borada quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi:

- aholining ijtimoiy xususiyatlarini, ya'ni ma'lumoti, yoshi, jinsi, kasbi va boshqalarni hisobga olgan holda, milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishning samarali yo'llarini keng ko'lamda ilmiy tadqiq qilish;
- milliy istiqloq mafkurasining milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy, huquqiy, siyosiy, sosiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy psixologik asoslarini, urf-odatlar, an'analar va intellektual qadriyatlarning mafkurani shakllantirish va boyitishdagi o'rni va ta'siriga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini muntazam olib borish;
- mafkuralar kurashining jahonshumul jarayonini o'rganish, uning monitoringi, bu kurashning umumbashariy va mintaqaviy muammolarini aniqlash;

- mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo'llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish<sup>1</sup>.

Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatga ega bo'lib, madaniy-ma'rifiy muassasalarga kutubxonalar, teatrlar, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar taalluqlidir. Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar o'tkazilib, milliy mafkuraning mazmun-mohiyati jamiyatdagi har bir ijtimoiy qatlarga yetkazib beriladi, turli tavsiya va qo'llanmalar yaratiladi. Mafkuraviy tarbiyada adabiyot va san'at muhim ahamiyatga ega bo'lib, shonli tariximizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqeeligini, olijanob orzu umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va san'at asarlarini yaratish, davrimizning qahramonlari timsolini yaratish va boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatish adabiyot va san'at yordamida amalga oshiriladi. Zararli g'oyalar va mafkuralarning ijtimoiy havfi ham adabiyot va san'at yordamida keng xalq ommasiga yetkazib berilishi mumkin.

Mafkura masalasidagi eng nozik va murakkab masalalardan biri bu dinga bo'lgan munosabat masalasidir. Davlatimizning dinga bo'lgan munosabati "Dunyoviylik – dahriylik emas", degan tamoyilga asosan o'rnatilib, O'zbekistonda dinga nisbatan boy tarixiy meros va ma'naviy qadriyat sifatida munosabatda bo'linib, dinning axloqiy, tarbiyaviy tomonlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida biz azim poytaxtimiz Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qildik. Nega

---

<sup>1</sup> Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: Ўзбекистон, 2000. 63-бет.

deganda, “Jaholatga qarshi – ma’rifat” shiori ostida mana shunday markazni tashkil etishni bugun davrning o’zi taqozo etmoqda<sup>1</sup>.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi insonni ham jismoniy, ham ma’naviy kamol topishida muhim ahamiyatga ega bo’lib, sport insonning irodasini toblab, odamni aniq maqsad sari intilish va qiyinchiliklarni bardosh hamda chidam bilan yengishga o’rgatadi. Jismoniy tarbiya va sport inson qalbida g’alabaga ishonch hamda g’urur va iftixor tuyg’ularini tarbiyalaydi. Yoshlarni, fuqarolarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham sport katta ahamiyatga egadir. Jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini ta’minlash hamda uni rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim shartidir.

Asrlar mobaynida shakllangan va avloddan avlodga bebaho meros sifatida o’tib kelayotgan urf-odat, an’ana, udumlar, marosimlar va bayramlar ham milliy mafkuraning asosiy g’oyalarini fuqarolar ongi va qalbiga singdirishda muhim ahamiyatga egadir. O’zbekistonda milliy urf-odat, an’ana, udumlar, marosimlar va bayramlar qayta tiklanmoqda. Urf-odat, an’ana, udumlar va marosimlarning tarbiyaviy jihatlariga, fuqarolarni uyushtiruvchi, birlashtiruvchi, ma’lum bir maqsadga yo’naltiruvchi jihatlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillik, Navro’z, O’qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kabi bayram va marosimlarimizning jamiyat hayotidagi tarbiyaviy ahamiyati ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda an’ana, udumlar va marosimlarni o’rganish, targ’ib qilish bilan bir qatorda to’y-marakalarni, urf-odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo’l qo’ymaslikka alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mafkuraviy tarbiyaning dastlabki bo’g’ini va eng muhim ijtimoiy omillaridan biri – oiladir. Milliy mafkuramizga xos bo’lgan ilk tushunchalar, eng avvalo, oila muhitida singib, bu jarayon bobolar o’giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Oila sharoitida har bir insonning dunyoqarashi, odob-axloq, insoniylik, vatanparvarlik, milliy g’urur va iftixor tuyg’ulari shakllanadi. Jamiyatdagi har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o’zaro hurmat va e’tibori hamda ahillikni ta’minlashi milliy mafkurada o’z ifodasini topadi.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 – жилд, – Т.: Ўзбекистон, 2017. 468-469- бетлар.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining asosini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla tashkil etadi. Mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Mahallada keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligiga tayangan holatda kishilarning ongiga o'zaro hurmat-e'tibor, mehr-oqibat, vatanparvarlik tuyg'ulari singdiriladi. Mahalla muhiti sharoitida yoshlar, fuqarolar ongi-tafakkuriga urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlar bilan birgalikda ezgulik g'oyalari ham singdirib boriladi. Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali olib borish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, ayniqsa, milliy qadriyatlarni tiklash, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarini qaror toptirishda mahalla muhim ahamiyatga ega.

Mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda mehnat jamoalari ham katta ahamiyatga egadir. Mehnat jamoalari turli millat va dinga mansub odamlarni do'stlik va hamjihatlik, o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilishga, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik g'oyalarini hayotga tatbiq qilishga o'rgatadi.

Siyosiy partiyalarning ham mafkuraviy targ'ibot-tashviqotda tutgan o'rni va ahamiyati katta bo'lib, jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning maqsad va manfaatlari siyosiy partiyalarning dasturlarida o'z ifodasini topadi. Siyosiy partiyalar fikrlarning turli-tumanligi va qarashlar xilma-xilligiga asoslangan holda demokratik jamiyat qurish g'oyasining ro'yobga chiqishi uchun xizmat qiladi. Har bir partiya o'z dasturiy g'oyalarini hayotga tatbiq etish jarayonida milliy mafkuraning asosiy tamoyillariga amal qiladi.

Jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarda nodavlat tashkilotlari ham muhim o'rin egallaydi. Inson huquqlari milliy markazi, Ma'rifatparvarlar jamiyati, Oila markazi, Faylasuflar milliy jamiyati, Ijtimoiy fikr markazi kabi tashkilotlar o'z faoliyatini milliy istiqlol mafkurasi bilan uyg'un holda tashkil etib, o'z faoliyatlarini olib boradi.

## **5.5. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ahamiyati**

Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar asosida bugungi kunda O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasi quyidagi maqsadlarni amalga oshirishi zarur bo'lganligi uchun ham muhim bo'lib hisoblanadi. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasi O'zbekistonda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishga yordam beradi. Jamiyatimiz ma'naviy hayotini eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos etish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, barkamol avlodni tarbiyalash masalalari ham konsepsiyada asosiy e'tibor qaratilgan masalalardir. Milliy g'oyaning negizidagi muhim ustuvor maqsad mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashdan iborat bo'lib, milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy hayoti sohalaridagi jarayonlarga bevosita ta'sirini ko'rsatadi hamda ijtimoiy taraqqiyotga yordam beradi. Mustaqillik yillarida jamiyatimiz a'zolarining dunyoqarashi va fikrlash tarzida ro'y berayotgan o'zgarishlarda ham milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining tutgan o'rni va ahamiyati katta bo'lib, xalqimizni ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirish, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etish, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida mujassam etish konsepsiyada ilgari surilgan fikr va g'oyalar asosida amalga oshiriladi. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasida mamlakatimiz fuqarolari, birinchi navbatda yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasiga asosiy e'tibor qaratiladi. Konsepsiyadan ko'zda tutilgan asosiy maqsad ham O'zbekiston

hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat va elat kishilarini barkamol inson qilib tarbiyalash va mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirishdan iboratdir. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasi mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, nutqlari, ma'ruzalarida nazariy jihatdan asoslanib, amaliyotga joriy qilingan bo'lsa, bugungi kunda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari, nutqlari va ma'ruzalarida yanada ijodiy tarzda rivojlantirib borilmoqda. O'zbekistonning bosh strategik maqsadi qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Bu O'zbekistonda millati, tili va dinidan qat'iy nazar har bir insonning barcha huquq va erkinliklari kafolatlanadigan, farovon turmush tarzi ta'minlanadigan demokratik davlat barpo ettirishdir.

To'la ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi, degan edi, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitusiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida, – U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda<sup>1</sup>. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasi jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir etib, ijtimoiy xayotda milliy g'oyaga ishonch va e'tiqod qancha mustahkam bo'lsa, u insonlarning shaxsiy, oilaviy hayotida, ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'lib, mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasi xalqimizga o'z salohiyatini to'la-to'kis ishga solish, o'zi istagan, o'zi xohlagan, o'zi tanlagan taraqqiyot yo'li – bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati,

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 4-5-бетлар.



milliy mafkuradagi bosh g'oya – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish imkoniyatini beradi.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani qachondan boshlab ta'lim tizimiga joriy etilgan?
2. Milliy g'oya konsepsiyasida qanday yo'nalishlar mavjud?
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasida qanday g'oyaviy qarashlar aks etgan?
4. Konsepsiyada milliy g'oya va mafkuraga qanday ta'riflar berilgan?
5. Inson qalbi va ongi uchun kurash deganda nimani tushunasiz?
6. Konsepsiyada O'zbekistonning milliy taraqqiyoti qanday mafkuraviy muammolarni o'z ichiga olgan?
7. Milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirish usullarini bilasizmi?
8. Milliy g'oyani xalqimiz qalbi singdirish vositalarini aytib bering?

## **6-BOB. O'ZBEKISTON MUSTAQIL DEMOKRATIK TARAQQIYOTINING MILLIY G'OYA KONSEPSIYASI BILAN BOG'LIQLIGI**

### **6.1. Mustaqillik, mustaqil demokratik taraqqiyot va milliy g'oya tushunchalarining o'zaro munosabati hamda mazmuni va mohiyati**

Mustaqillik – arab tilida tobe emaslik, ixtiyori o'zidalik, qaram emaslik, degan ma'nolarni bildirib, – erkin va ozod ravishda boshqalarning rahbarligisiz ish yurita bilish jarayonini o'zida ifodalaydi. Mustaqillik – o'zaro hurmat, bir-birini qadrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib ish ko'rish, keng dunyoqarash va erkin tafakkurga tayanib yashash, fikrlash hamda o'z hayotini o'zi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi. Mustaqillik har bir xalqning, millatning, har bir fuqaroning o'z istedodini namoyon etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'l ochadi. Mustaqillikka erishish g'oyasi xalqimizga azaldan meros bo'lib, bu xalqimizga ajdodlar orqali ming yilliklar qa'ridan bizgacha yetib kelgandir. Xalqimiz azal-azaldan o'z fikri-zikri bilan mustaqil, ozod, erkin yashash uchun doimo harakat qilgan. Tariximizning turli davrlarida ko'plab turli milliy mustaqil davlatchilik asoslari barpo etilgan.

Mustaqillik – tenglik sari qo'yilgan birinchi qadam bo'lib, tenglik bo'lgan joyda odamlar o'rtasidagi munosabatlar ham, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar ham umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, umumiy mezonlar asosida yashash me'yori hamda tartibi yuzaga keladi. Mustaqillik – o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarga asoslanadi. Mustaqillik – jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylash jarayonini ham o'zida ifodalaydi. Mustaqillik bu insonning erkin dunyoqarash va erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir. Mustaqillik mustamlakachilikning har qanday shakli va ko'rinishini inkor etadi. Mustaqillik jahon taraqqiyotining ilg'or tajribalari asosida o'z ravnaqining o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqqan holda

rivojlanishdir. Mustaqillik o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, davlatlararo va mintaqalararo siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy munosabatlar asosida hayot kechirishdir. Mustaqillik inson uchun tabiatan ongli yashash va ongli munosabatni qaror toptirish mezonini bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy sohalarda juda katta o'zgarishlar, yangilanish jarayonlari sodir bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabr kuni Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi xorijda O'zbekiston haqida shakllangan eski qolipdagi tushuncha va tasavvurlarni tubdan o'zgartirib, dunyo hamjamiyatining O'zbekistonga bo'lgan ishonchining bir necha marta oshishiga olib keldi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqida O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida mustahkamlangan tinchlik va xavfsizlikni, barqaror taraqqiyot va inson huquqlarini ta'minlash sohasida olib borayotgan odilona siyosatiga alohida to'xtalib o'tildi. Prezidentning nutqida dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqlar o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlash, BMTning rolini yanada oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surildi. Davlatimiz rahbarining nutqida O'zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan hamda insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib amalga oshirilgan bir qancha samarali tadbirlar sanab o'tilgan. Endilikda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi barcha huquqni muhofaza qilish sohasidagi barcha huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati parlament va fuqarolar tomonidan doimiy nazorat qilib borilmoqda. O'zbekistonda siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyatining roli ortib bormoqda, sud organlarining chinakam mustaqilligi ta'minlanmoqda. Ommaviy axborot vositalarining o'rnini sezilarli darajada ortib bormoqda. O'zbekistonda "xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi" degan tamoyil asosida iqtisodiyot tizimini liberallashtirish, qulay investisiya muhitini yaratish, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyoti jahon demokratiyasi, Sharqning insonparvarlik hamda xalqchillik an'analari, xalqimizning tarixiy

tajribasi va ijtimoiy adolat to'g'risidagi tasavvurlari asosida shakllanmoqda. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining birdan bir manbai xalq bo'lib, davlat xalqning irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi. O'zbekistonda demokratiya ikki turda namoyon bo'lib, birinchisi vakillik demokratiyasi, ya'ni fuqarolar o'zlari saylagan vakillar – deputatlar orqali davlat va jamiyatning muhim masalalarini hal etadilar. Ikkinchisi bevosita demokratiya – bunda fuqaro o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlari, mehnat jamoalari va fuqarolarning yig'inlari, referendumlar, qonun loyihalari muhokamasi, aholining ayrim masalalar bo'yicha fikrlarini so'rov yo'li bilan aniqlash kabi davlat va jamiyat hayotining muhim muammolarini bevosita hal etadilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi mamlakat hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarining hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Mustaqil O'zbekiston demokratiya sohasida o'ziga xos, bu borada rivojlangan mamlakatlarning, Sharq va G'arbning barcha ijobiy jihatlarini, ulug' ajdodlarimiz qoldirgan pand-nasihatlarni va xalqimiz an'analari, milliy mentalitetimizning tarixan tashkil topgan xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan demokratiyani yuzaga keltirmoqda. Demokratik davlat fuqarolarning davlat va jamoat ishlarini boshqarishdagi huquqlarini amalda ta'minlaydi, ana shunday ishtirok etishga sharoit yaratadi, shaxsning huquq va erkinliklari to'la ro'yobga chiqarilishini kafolatlaydi. Demokratik davlat ijtimoiy adolat prinsiplariga, huquqqa, qonunga, qonuniylikka asoslanadi. Demokratik davlat xalq uchun xizmat qiladi, uning manfaatlari va huquqlarini ta'minlaydi. Demokratik jamiyat qurish jarayoni kuchli fuqarolik jamiyati yaratilishini taqozo qiladi. Demokratiya sharoitida, davlat va uning tarkibiy qismi bo'lgan hokimiyatga munosabat o'zgaradi. Chunki hokimiyat jamiyat nazorati ostida bo'ladi. Saylash va saylanish mexanizmining amal qilishi, davlat rahbarlarining hisob berib turishi, matbuot erkinligi, jamoat tashkilotlarining faolligi demokratik, fuqarolik jamiyatiga xos xususiyatdir. Milliy g'oya demokratik fuqarolik jamiyatida har bir shaxs va butun jamiyatga taalluqli g'oyadir. Milliy g'oya negizida vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'usi yotadi. Milliy g'oya demokratiya va milliy davlatchilikning negizlarini tashkil etadi. Milliy g'oya, erkin fuqaro va

demokratiya o'zaro bog'liq tushunchalardir. Milliy g'oya demokratik fuqarolik jamiyati fuqarolarini chinakam hamjihatlikka, ma'rifatga olib boradi.

## **6.2. Mustaqil demokratik taraqqiyotni ta'minlashning milliy-ma'naviy va umuminsoniy demokratik tamoyillari**

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy-ma'naviy va umuminsoniy demokratik tamoyillarining metodologik asoslari, ilmiy va amaliy jihatlari O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari va nutqlarida yoritilgan bo'lib, bugungi kunda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yanada rivojlantirilmoqda. Milliy g'oya xalqaro huquq qoidalariga, umuminsoniy qadriyatlarga, O'zbekiston Konstitusiyasiga, milliy madaniyatimiz va urf-odatlarimizga, vijdon erkinligi, insonparvarlik, fikrlar xilma-xilligi kabi demokratik tamoyillarga mos keladi. "Tamoyil" va "yo'nalish" so'zlari jamiyatning turli jabhalaridagi ob'yektiv, takrorlanuvchan, ustuvor hodisalarni o'zida ifodalaydi. Jamiyat hayotida "tamoyil" va "yo'nalish" so'zlari ma'lum bir jarayondagi qonuniyatni o'zida aks ettiradi. Bugungi kunda demokratiyaning muhim, butun dunyoda e'tirof etilgan asosiy tamoyillari mavjud bo'lib, bu tamoyillarga quyidagilar taalluqlidir:

- 1). erkin va adolatli saylovlar; 2). ochiq va hisobot beruvchi hukumat; 3). inson huquqlarining ustuvorligi; 4). hokimiyat organlarining saylab qo'yilishi; 5). so'z, matbuot va vijdon erkinligining Konstitusiya va qonunlar bilan kafolatlanishi; 6). qonun ustuvorligi; 7). fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari mavjudligi va tengligi; 8). tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlar oldida hisob berishda burchliligi; 9). ko'ppartiyaviylik tizimining mavjudligi; 10). umummilliy masalalarning hal etilishida referendumlarning o'tkazilishi; 11). mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning tengligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi; 12). siyosiy muxolifatning ochiq faoliyat ko'rsatishi; 13). jamiyatda plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi, turli-tumanligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi hamda ularni amaliy hayotga joriy etish masalalari samarasining ortishi. O'zbekiston milliy mustaqillikni qo'lga

kiritganidan so'ng o'z oldiga bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishni maqsad qilib qo'ydi. Demokratik jamiyat qurish milliy-ma'naviy va umuminsoniy demokratik tamoyillar asosida amalga oshiriladi. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1). Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi.
- 2). Oila, mahalla, el-yurt muqaddasligi.
- 3). Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-e'tibor.
- 4). Millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga hurmat.
- 5). Kattaga hurmat, kichikka izzat.
- 6). Ayol zotiga ehtirom.
- 7). Sabr-qanoat, mehnatsevarlik.
- 8). Halollik va mehr-oqibat.
- 9). Demokratik jarayonlarning uzviyligi, asta-sekinligi.
- 10). Odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi.
- 11). Xalqimiz milliy madaniyatining o'ziga xosligi va hokazo.

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo qilishning umuminsoniy demokratik tamoyillariga quyidagilar taalluqlidir:

- 1). Qonun ustuvorligi.
- 2). Inson haq-huquqlari va hurfikrlilik.
- 3). Barcha millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash.
- 4). Diniy bag'rikenglik.
- 5). Dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik.
- 6). O'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va hokazolar.

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda umuminsoniy, mintaqaviy, milliy va diniy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda qurilayotgan demokratik, adolatli fuqarolik jamiyati uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Jamiyatni demokratlashtirishning yana bir muhim sharti odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'liqdir. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikri va ustuvorlik zaminida shakllanadi. O'zbekistonda demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat

qilishi, milliy urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlarning tiklanishi bilan uzviy ravishda amalga oshadi. Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biri tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning qayta tiklanganidir. O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Demokratiya qanchalik umuminsoniy ma'no va qadriyat kasb etmasin, uning negizini "milliylik", "milliy ruhiyat" va milliy-ma'naviy qadriyatlar tashkil etadi. Demokratik tamoyillarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishda uning quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

A). Demokratik jarayonlarning uzviyligi asosida milliy qadriyat sifatida shakllantirilishi;

B). odamlarning tafakkuri va ijtimoiy-siyosiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasining mutanosib bo'lishiga erishish;

V). jamiyatdagi turli xil guruhlar qarashlarini yagona maqsad – "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" degan milliy g'oya asosida hamjihatlik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosida;

G). demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash;

D). siyosiy munosabatlarda axloqiy, ma'naviy, milliy qadriyatlar ustuvorligiga erishish orqali umumbashariy demokratik tamoyillarni mamlakat fuqarosining turmush ehtiyojiga aylantirish.

Umuminsoniy qadriyat deganda jamiyat a'zolarining hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan va har bir shaxsning hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ijobiy ta'sir etadigan, kishilarning hatti-harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabatida namoyon bo'ladigan qadriyatlar tushuniladi. Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma yerda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma yerda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof-muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarining bugungi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir. Bu qadriyatlar butun insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat,

ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish borasidagi yangi jihatlar, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan ham iborat bo'lib, ulardan oqilona foydalanish respublikamizni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish ishiga ham xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilsa, jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o'rnini alohida ahamiyatga ega bo'ladi. An'anaviy qadriyatlarimizni demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir.

### **6.3. O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g'oyasini amalga oshirishda davlatning bosh islohotchilik roli**

O'zbekistonning o'tgan mustaqil taraqqiyot davri mobaynida, mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitusiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi. Mustaqil O'zbekiston dunyoning ilg'or davlatlarining tajribasini har tomonlama o'rganib va mamlakatimizning muayyan sharoitlarini inobatga olib, xalqning an'analari va mentaliteti bilan hisoblashib, bu tizimni yuzaga keltirdi.

O'zbekiston o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng milliy istiqloq g'oyasi davlatimiz tomonidan olib borilgan siyosatda "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" degan iborada ifodalandi. Mustaqillikni mustahkamlash, yaratuvchilik ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun millik jipslik, ichki osoyishtalik nechog'li zarurligini hisobga olib, milliy g'oya ifodasi yanada aniqlashtirildi, yanada soddaroq shaklda ifodalandi – "Bizdan ozod va obod Vatan



qolsin”. Ushbu g’oyaning mohiyati quyidagi fikrda o’z ifodasini topgandir. Shu aziz Vatan barchamizniki, uning mustaqilligini ko’z qorachig’iday avaylab-asrash, har tomonlama rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga teng huquqli a’zo bo’lish, kelajak avlodga obod Vatan qoldirish lozim. Mustaqil taraqqiyotning, mamlakatimizda o’tkazilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi inson ekanligi avval boshdan oq e’tirof etilib, “Islohotlar islohotlar uchun emas, balki inson uchun” tamoyili yangi jamiyat barpo etishning tamal toshiga aylandi. Erkin fikrlaydigan, ijtimoiy mas’ullikni to’g’ri tushunadigan shaxs iqtisodiyotni rivojlantirishning, jamiyatni demokratiyalashtirishning, erkin va farovon turmushni qaror toptirishning muhim sharti va asosiy sub’yektidir. Shuning uchun O’zbekistonning milliy istiqloq g’oyasi “Ozod va obod Vatanda – erkin va farovon yashash”, deb oydinlashtirildi. Milliy g’oya – mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to’g’risidagi yaxlit va izchil ta’limotdir. Milliy g’oya mamlakatdagi har bir millat, elat, ijtimoiy guruh, din, partiya yoki ijtimoiy qatlam vakili uchun umumiy mezon bo’lib, u ko’pmillatli O’zbekiston xalqining umumiy g’oyasidir. Xalqning mustaqil davlatchilik an’analarini ta’minlash hamda fuqarolarga yot va begona g’oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni erkin, demokratik fuqarolik jamiyati barpo etish yo’lida birlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi ishiga safarbar etish bu g’oyaning asosiy maqsadi va vazifasi sanaladi. Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotganligi, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortayotganligi, xalqimizning ma’naviy boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi bo’ladi. Bugungi kunda O’zbekistonda ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantirishga, yangi zamonaviy innovasion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishga, chet el investisiyalarini mamlakatimiz iqtisodiyotiga tatbiq etib, yangi ish o’rinlarini yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan o’zaro manfaatli shartnomalarni imzolab, 2018 yilda O’zbekistonda 3764 ta qo’shma korxonalar, 3196 ta xorijiy korxonalar faoliyat olib bordi. O’zbekistonda sanoat sohasida 2818 ta, savdoda 1484 ta, sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

ko'rsatishda 90 ta, axborot va aloqada 181 ta, tashish va saqlashda 207 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 286 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 289 ta va qurilishda 425 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilib, bu korxonalarning olib borayotgan faoliyati Vatan ravnaqiga xizmat qilmoqda.

Vatan ravnaqi – milliy mafkuramizning asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, bu g'oya har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiradigan, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga da'vat etadigan bunyodkor g'oyadir. U milliy g'oyaning oliy maqsadlaridan biri bo'lgan, barchamiz uchun muqaddas sanalgan Vatanimizning ravnaqini ta'minlash, uning jahon maydonida munosib o'rin egallashiga erishishini nazarda tutadi. Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida har bir yurtdoshimizni zimmasidagi yuksak fuqarolik mas'uliyatini his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi. Vatan ravnaqi g'oyasini amalga oshirish bevosita jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishiga bog'liqdir. Vatan ravnaqi g'oyasini amalga oshirishda hozirgi davrda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat, O'zbekistonning xalqaro miqyosda obro'-e'tiborini oshirish, iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar bilan shartnomalarni tuzib, iqtisodiyotga zamonaviy innovasiyalar, chet el investisiyalarini joriy etish, ilm-fanni taraqqiy ettirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, shu bilan birgalikda ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, jamiyatni boshqarishda ommaviy tashkilotlar, birinchi navbatda mahallaning mavqeini oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilish tamoyillariga amal qilish ham Vatan ravnaqi g'oyasini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Vatan ravnaqi g'oyasini amalga oshirishda hayotda demokratik tamoyillarning ustuvorligi, jamiyatning barcha jabhalarini erkinlashtirish, bozor munosabatlariga xos muqobil mulkchilikning shakllanishi, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy merosimizning tiklanishi, aholi intellektual salohiyatini oshirish, fan va ilmiy muassasalar, san'at va adabiyotni rivojlantirish, komil insonni tarbiyalash bo'yicha milliy ta'lim

dasturining qabul qilinishi va izchil amalga oshirilishi, xalqaro madaniy aloqalarni kuchaytirish ham Vatan ravnaqiga xizmat qiladi. Mamlakatimiz hayotining barcha sohaslarida qonun ustuvorligiga erishish, huquqiy demokratik jamiyat qurish sohasidagi tajribalar, davlatimizning xalqaro huquq normalariga amal qilishi Vatan ravnaqini ta'minlashga xizmat qiladi. Vatan ravnaqi g'oyasi har bir insonning taqdirida o'z ifodasini topadi, kelajak avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun hammaga birdek mas'uliyat va majburiyat yuklaydi. Vatan ravnaqi g'oyasi har bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi. Milliy g'oya O'zbekistonning barcha fuqarolarida «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tuyg'usini shakllantiradi.

Yurt tinchligi g'oyasi milliy istiqlolimizning asosiy g'oyalardan biri bo'lib, u bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. Insoniyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Tinchlikni saqlash va mustahkamlash butun insoniyatning oldida turgan muhim masaladir. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy masalalari tinchlik-totuvlik sharoitidagina samarali hal etilgan. Xalqimiz tinchlikni yuksak qadrlaydi hamda uni o'z orzu-umidlari, oliy maqsadlarining kafolati deb biladi. Shu bois ota-bobolarimiz duoga qo'l ochsa, dastavval tinchlik-omonlik tilaydi. Xalqaro maydonda ro'y berayotgan tub siyosiy o'zgarishlar tinchlikning qadrini yanada oshirmoqda. Boshqacha aytganda, xalqimizning “Qo'shning tinch – sen tinch” maqoli yanada teranroq ma'no kasb etib bormoqda. Tariximizga nazar tashlasak, yurtimiz tinch, elimiz xotirjam yashagan davrlardagina yurtimiz yuksak moddiy va ma'naviy yutuqlarga erishganiga guvoh bo'lamiz. Yurtimiz istiqloлга erishgan dastlabki kunlardan boshlab tinchlik-totuvlikni o'z siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb bildi. Bugungi kunda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z sa'y-harakatlari tufayli, nafaqat o'z hududida, balki butun mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlashga katta hissa qo'shib kelmoqda. Harbiy sohadagi islohotlarimizning samarasini oshirish maqsadida yangidan qabul qilinayotgan Mudofaa doktrinasi muhim rol o'ynaydi, – deydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Ushbu doktrina O'zbekiston

tashqi siyosatining ochiqlik tamoyilini, yaqin qo'shnilar bilan do'stona va amaliy munosabatlarni rivojlantirishni ifoda etadi. Unda davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida aniq belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

Yurt tinchligi – dunyo va mintaqalar tinchligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda tinchlik nihoyatda muhim omil sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Yurt tinchligi Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, birovga qaram xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Xalqimizning tinch va osoyishta yashashi, farovon va porloq kelajagi Vatan, Yurt taqdiri bilan bog'liq. Hozirgi davrda yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, doimiy ogohlik va hushyorlik, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi – yurt tinchligini saqlashning eng muhim omilidir. Yurt tinchligi g'oyasi jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega bo'lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtiradi, shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yurt tinchligi g'oyasini amalga oshirish bir qator yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi.

- 1). Mamlakatimizning hududiy bo'linmasligi va sarhadlarining daxlsizligini qonuniy yo'l bilan uzluksiz ravishda ta'minlab borish ishlarini kuchaytirish;
- 2). mamlakatimiz mustaqilligi va davlat hokimiyatining suverenitetini himoya etuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va qurolli kuchlarimizning jangovar shayligini oshirish va takomillashtirish;
- 3) yoshlarni vatanparvarlik va fidokorlik ruhida tarbiyalash ishlarini zamon talablari darajasida olib borish;
- 4). mamlakatimiz aholisining fuqarolik burchi va Vatanga sadoqat tuyg'usini yanada oshirish;
- 5). jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishni izchil yo'lga qo'yish;

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 143-бет.

6). mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish yo'lida birlashish ishlarini takomiliga yetkazish kabi ishlarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

Insoniyat tarixining barcha davrlarida odamlar tinch-totuv va farovon hayotga intilganlar. Mustaqillikka erishgan O'zbekiston xalqining oliyjanob maqsadlaridan biri – xalq farovonligi g'oyasidir. Xalq farovonligi – Vatan obodligini, unda yashaydigan kishilar hayoti uchun moddiy-ma'naviy boyliklarning mo'l-ko'lligini, odamlarning munosib turmush sharoitiga ega bo'lishini anglatadi. Xalq farovonligiga erishish uchun mamlakat iqtisodiyoti bugungi kunda tubdan isloh qilinmoqda. Eng avvalo iqtisodiyot o'zining tabiiy qonuniyatlari asosida rivojlanib, unda talab va taklif muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar o'z qobiliyatiga yarasha mehnat qilib, o'zining ehtiyojiga yarasha narsalarni xarid qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekiston g'alla, yoqilg'i-energetika sohasida mustaqillikka erishib, paxta yetishtirish sohasida respublikada ko'pgina klasterlar tashkil etildi. Mamlakatda qazib olinayotgan oltin bugungi kunda respublikamizning iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qilmoqda. Mustaqillik davrida O'zbekiston iqtisodiyotida neft-gaz ishlab chiqarish, mashinasozlik, kimyo va yengil sanoat kabi sohalarning hissasi ortib bordi. Mustaqillik davrida iqtisodiyotda biz uchun mutlaqo yangi ishlab chiqarish tarmoqlari – avtomobilsozlik, sellyuloza-qog'oz, qand-shakar, farmasevtika va boshqa sohalar vujudga keldi. Mustaqillik davrida erishilgan ulkan yutuq va natijalar Vatanimiz, xalqimiz shuhratini, boy tariximiz, bebaho milliy qadriyat va an'analarimiz, qudratli ma'naviy va iqtisodiy salohiyatimizni, bizning kimligimiz, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanimizni butun dunyoga tarannum etdi. O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot modelini ishlab chiqishda milliy davlatchilik asoslarini qayta tiklash va yangicha asosda shakllantirish, mamlakatimizni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, milliy qadriyatlarimiz va g'urur-iftixor tuyg'usini yuksaltirish, jamiyatni tubdan yangilash, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan har tomonlama barkamol avlodni – yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash kabi masalalarga katta e'tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiy mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doir kompleks

masalalarni hal etish – hukumat, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo'lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya'ni, xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi<sup>1</sup>.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir inson o'z aql-idrokini ishlatib, fidoyi mehnati bilan yashab, kichik korxonalar ochib, tijoratni rivojlantirib, boy-badavlat yashashi mumkin. Hozirgi davrda xususiy mulkchilikka, tadbirkorlik, sarmoyadorlik, ijarachilik, fermerchilikka – xullas, mulkning turli-tuman shakllariga yo'l ochildi. Biz amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan o'lchanadi, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Shu maqsadda ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish bo'yicha biz aniq chora-tadbirlarni rejalashtirganmiz va ular albatta amalga oshiriladi<sup>2</sup>. Bugungi kunda ishbilarmonlik va tadbirkorlik kundalik hayotimizda muhim o'rin tutib, davlat korxonalari ham, xususiy korxonalar ham eng zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etsalar, bozor talablariga javob bera oladilar. Hozirgi davrda O'zbekistonga ilg'or, zamonaviy texnologiyalar ham keltirilib, qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar chet ellarga eksport qilinib, davlat byudjetiga chet el valyutasi kelib tushmoqda. Bu esa mamlakat qudratini oshirib, xalq farovonligini ta'minlamoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, – Т.: Ўзбекистон, 2018. 147-бет.

<sup>2</sup> Ўша асар. 148-бет.

#### **6.4. Mustaqil demokratik taraqqiyotning milliy g'oya konsepsiyasi bilan mushtarakligi**

O'zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyoti mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida o'zining nufuzli o'rniga ega bo'lishiga, yoshlarda demokratik ong va tafakkurning shakllanishiga, milliy ma'naviy merosni qadrlash, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash asosida amalga oshiriladi. Bugungi kunda O'zbekistonda mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga ega, hayotga yangicha qaraydigan, o'z fikri va qarashlariga ega navqiron yoshlar hayotga ishonch bilan kirib kelmoqda. O'zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyotida fuqarolarda demokratik jamiyat talablariga javob beradigan dunyoqarash, fikrlar xilma-xilligi, erkinlikni qadrlash, inson qadr-qimmatini, sha'ni va or-nomusini hurmat qilish bilan bog'liq qadriyatlarning shakllantirilishi milliy g'oya konsepsiyasining ishlab chiqilishi va jamiyat hayotiga tatbiq etilishi bilan bevosita bog'liqdir. Mustaqil demokratik taraqqiyotning milliy g'oya konsepsiyasi bilan o'zaro bog'liqligi fuqarolarimizni mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish, demokratik qadriyatlarni hurmat qilish orqali ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etishda namoyon bo'ladi. O'zbekistonda mustaqil demokratik taraqqiyotning vazifasi fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan jamiyatni qurishdan iboratdir. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik institutlar shakllandi. Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon mavjud bo'lib, bular, xalqning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligi, hukumat qarorlarining xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi hamda oddiy fuqarolarning davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishi bilan bog'liqdir. Shu bilan birgalikda hozirgi davrda "milliy demokratik davlat" tushunchasi ham ishlatilib, milliy demokratik davlatga xos bo'lgan jihatlar quyidagilardan iborat:

- demokratik normalarga tayanadigan huquqiy davlat;

- demokratiyaga zid bo'lmagan holda tarixiy an'analar va jamiyat hayotining muhim sohalaridagi milliy xususiyatlarning saqlanishi;
- barcha fuqarolarning tengligiga asoslangan milliy siyosat olib borish;
- uning geosiyosiy mavqei iqtisodiy, ma'naviy va harbiy texnik imkoniyatiga, salohiyatiga mos bo'lish;
- fuqarolar ijtimoiy ongida demokratik tafakkurga amal qilinishi;
- mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borish;
- o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil tanlash va amalga oshirish;
- mustaqil demokratik taraqqiyot yo'lini belgilashda milliy g'oya konsepsiyasiga tayanish, boy tarixiy ma'naviy meros, milliy qadriyatlar asosida fuqarolarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirish.

Demokratiya – yuksak ma'naviyat, fuqarolarning ichki madaniyati va intellektual imkoniyati, fuqarolarning barcha uchun birday zarur bo'lgan qonunlarga to'liq rioya etishi, inson haq-huquq va erkinliklarini, umumxalq, umumdavlat manfaatlarini himoya qiladigan, barchani qonunlarga bo'ysunib yashashga undaydigan umuminsoniy, huquqiy va ma'naviy qadriyat hisoblanadi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilining ishlab chiqilishi va uning hayotga tatbiq etilishi buyuk ajdodlarimiz yaratgan jamiyat barpo etishga doir milliy falsafiy merosni zamonaviy tajribalar bilan uyg'unlashtirishni, islohotlarimizni esa xalq farovonligini oshirishga qaratgan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

O'zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyotining strategik maqsadi Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu maqsadga bozor iqtisodiyotiga asoslangan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish orqali erishiladi. O'zbekistonning taraqqiyot yo'li ijtimoiy larzalarsiz, inqilobiy sakrashlarsiz, tadrijiy tarzda rivojlantirish yo'lidir. Milliy istiqlol g'oyasi va milliy g'oya konsepsiyasi ana shu yo'lda O'zbekiston fuqarolarini birlashtiradi, ular o'rtasida hamkorlik va hamjihatlikni ta'minlaydi.

Demokratlashtirish jarayoni – davlatni boshqarish sohasidagi vazifalarning davlat zimmasiga o'tib borishini, bu jarayonda xalq vakillarining faol ishtirok



etishini o'zida ifodalaydi. Demokratiya fuqarolarning o'z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg'unlashtirishini talab etadi. Demokratlashtirish jarayonini chuqurlashtirish jamiyatdagi turli manfaatlar, turli-tuman kuch va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish zaruratini vujudga keltiradi. Jamiyat siyosiy hayotidagi demokratlashtirish jarayoni ko'ppartiyaviylik asosida amalga oshiriladi. Ko'ppartiyaviylik deganda bir qancha partiyaning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki tushuniladi. Partiyalar parlament ishida o'z vakillari orqali ishtirok etib, qonunlar qabul qiladi va ularni hayotga tatbiq etish borasida faollik ko'rsatadi. Ko'ppartiyaviylik turli manfaatlar, xilma-xil kuchlar o'rtasidagi muvozanatni vujudga keltiruvchi asosiy omil bo'lib, O'zbekistondagi turli manfaatlar, turli-tuman kuch va harakatlar muvozanatini ta'minlaydigan ma'naviy omil esa milliy istiqlol g'oyasidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida barcha siyosiy partiya va tashabbuskor guruh vakillarining bo'lishi, ular o'z fraksiya va guruhini tuzish imkoniyatiga ega ekanligi turli fikrlilik, bahs-munozara asosida faoliyat yuritish, ishchanlik muhitini shakllantirish imkoniyatini beradi. Deputatlarning ichida yuristlar, iqtisodchilar, sanoat, qurilish, transport, aloqa, qishloq xo'jaligi, fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash sohalari vakillari va tadbirkorlarning bo'lishi Qonunchilik palatasi aholi keng qatlamlarini qamrab olgani uning aholi turli qatlamlari manfaatlarini teng ifoda etishini ko'rsatadi. Biz barpo etayotgan jamiyatda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, fuqarolarga g'amxo'rlik qilish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu esa, milliy g'oyaning ijtimoiy sohadagi tamoyillarini belgilaydi, ularning amalga oshishiga xizmat qiladi. Kelajagi buyuk davlatni barpo etish, yosh avlodga ozod va obod Vatanni meros qoldirish borasidagi oliyjanob ishlar taqdiri eng avvalo yoshlarning ilm-fan sohasidagi yutuqlar va zamonaviy kasb-hunarlarini mukammal egallashlariga bevosita bog'liqdir. Jamiyatimizning ma'naviy hayoti sohasida ma'naviy qadriyatlarimizni zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy g'oya O'zbekiston fuqarolarini ma'naviy qadriyatlarni to'g'ri baholay bilishga da'vat etadi. Buning

uchun milliy qadriyatlar va ma'naviy merosga ilmiy asosda to'g'ri yondashuvni shakllantirish, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchillik va taraqqiyparvarlik mezonlari asosida milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni baholash talab etiladi.

## **6.5. Taraqqiyotning o'zbek modeli, uning asosiy prinsiplari**

Taraqqiyotning o'zbek modeli asosiy tamoyillari mustaqillikning dastlabki yillarida ishlab chiqilgan bo'lib, u jamiyat hayotini har tomonlama isloh etish va bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, adolatli, demokratik davlat qurishning strategik yo'lini o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya adolatli, demokratik davlat qurayotgan xalqimizni pirovard maqsadlarga yo'naltirib, taraqqiyotning o'zbek modelini amalga oshirishga yordam beradi.

Taraqqiyotning o'zbek modeli o'zining nazariy va amaliy jihatlariga ega bo'lib, u nazariya sifatida mamlakatimizning salohiyati va keng imkoniyatlaridan, tabiiy boyliklari, aholisining ongi, bilimi va yaratuvchilik mahoratidan kelib chiqqan holda rivojlantirish tamoyillarini belgilab beradi. Amaliy faoliyat dasturi sifatida esa taraqqiyotning o'zbek modeli islohotlarning huquqiy negizini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan aniq siyosatni olib borishga taalluqli bo'lgan fikr va takliflarni bayon etadi. Taraqqiyotning o'zbek modelining amaliy jihati boshqaruv, tashkilotchilik ishlari va aniq ijro mexanizmini o'zida aks ettiradigan va ularning ijrosini ta'minlaydigan farmonlar, qarorlar, davlat dasturlarini qabul qilishni hamda investisiya, soliq, moliya kredit, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni nazarda tutadi. Taraqqiyotning o'zbek modeli iqtisodiy munosabatlarni yangicha asosda rivojlantirish bilan birga, davlat qurilishi, jamiyatni demokratlashtirish, mulkdorlar sinfi va o'rta biznesni shakllantirish kabi davlatchilik negizini tashkil etadigan masalalarni hal etishni nazarda tutadi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan davlat, eng avvalo, jahon sivilizasiyasi, boshqa xalqlar ijobiy va ijodiy tajribalari, umuminsoniy qadriyatlarni inobatga olgan holda, adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik bilan sug'orilgan Sharq falsafasi va islom dini ta'limotlariga, milliy davlatchilik an'alariga asoslanmoqda. "Sharq

demokratiyasi” tushunchasi hamjihatlik g’oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi. O’zbekistonda davlatchilik asosini qonunni hurmat qilish, qonunga itoat etish, insonparvarlik tashkil etib, odamlarning teng huquqliligi va o’z ijtimoiy manfaat hamda burchlarini to’liq anglab olishlariga erishish davlat tizimining bosh yo’nalishini tashkil etadi. Demokratik, adolatli, odil jamiyatning asosiy vazifasi odamlarning o’z qobiliyati va ehtiyojlarini to’la namoyon qilishlari va ro’yobga chiqarishlari uchun zarur bo’lgan dastlabki imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmni yaratib berishdan iborat bo’lib, jamiyatimiz va davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg’onish g’oyasini ro’yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazishdan iboratdir. O’zbekistonda demokratlashtirish jarayonining chuqurlashib borishi natijasida mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, tinchlik-osoyishtalik, millatlararo hamda dinlararo hamkorlik, totuvlik ta’minlanmoqda, ko’pmillatlik asoslari va baynalminallik tamoyillari rivoj topmoqda. O’zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar, avvalo, xalqimizning milliy mentalitetiga mos, tarixiy an’analari, urf-odatlarini, milliy ruhiyati, ongi va turmush tarziga xos amalga oshirilmoqda. O’zbekiston ko’zlagan strategik istiqbolli vazifa mustaqillikning iqtisodiy poydevorini, modelini yaratishdan iborat bo’lib, O’zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o’tishining o’ziga xos yo’li Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan olg’a surilgan quyidagi besh tamoyilda ifodalab berildi:

Birinchi tamoyil – iqtisodiyot siyosatdan ustuvor bo’lishi va buning uchun iqtisodiyot mafkuradan holi bo’lishi kerak. Iqtisodiyot o’ziga xos bo’lgan ichki qonunlar asosida rivojlanmog’i zarur. Iqtisodiyot siyosatga nisbatan ustuvor mavqega ega bo’lishi lozim. Iqtisodiyotga na siyosat, na mafkura o’z tazyiqini o’tkazmasligi kerak. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi o’zbek modelining asosiy tamoyilidir. Bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning mazmun-mohiyatini aks ettiribgina qolmay, balki yurtimiz iqtisodiy hayotining yangiliklarga, ilg’or tajribalar va oqilona tashabbuslarga ochiqqligini ham ko’rsatadi. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi tamoyili iqtisodiy

rivojlanishda ma'naviyatning ahamiyati nechog'lik muhim ekanligini ham nazarda tutadi.

Ikkinchi tamoyil – davlat bosh islohotchi bo'lishi kerak. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibsiz ravishda, o'zibo'larchilik asosida emas, balki davlat rahbarligida amalga oshiriladigan islohotlar orqali yuz berishini bildiradi. O'tish davrida davlat xalq xo'jaligining, ayniqsa, uning asosini, tizimini belgilaydigan tarmoqlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashi, narx-navolarni tartibga solib turishi, shuningdek, bevosita yordam berishda imtiyozlar yaratishi, bevosita yordam ko'rsatish yo'li bilan ana shu tarmoqlarga madad berishini talab qiladi.

Uchinchi tamoyil – qonunlar va ularga amal qilinishining ustuvorligini ta'minlash. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibli ravishda, hammaning keng jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqqan davlat qonunlariga so'zsiz rioya etishi orqali borishini bildiradi. Qonunning ustuvorligi tamoyili – O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat yangilanishi, inson shaxsining yuksalishi uchun xizmat qiladi. Qonun ustuvorligi tamoyili to'liq qaror topishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- jamiyat va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan puxta va zaruratga qarab o'zgaruvchi qonunlar majmuasining vujudga kelishi va doimiy takomillashib borishi;
- jamiyat a'zolarining yuksak huquqiy savodxonligi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining yuqoriligi hamda qonunga qat'iy bo'ysunishi;
- amaldagi qonunlarni hayotga tatbiq etishning zarur iqtisodiy shart-sharoiti, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy mexanizmini yaratish.

To'rtinchi tamoyil – faol ijtimoiy siyosat yuritish. Bu iqtisodiyotga kuchli ta'sir eta oladigan, xalqning ijtimoiy himoyasini, uning faolligini ta'minlaydigan, ijtimoiy adolatni yuzaga chiqaradigan siyosatni olib borishni anglatadi. Shu boisdan iqtisodiy islohotlar jarayonida avval odamlar, birinchi navbatda, himoyaga muhtoj qatlamni oldindan kuchli darajada ijtimoiy himoyalash choralarini ko'rish zarurligi inobatga olinadi. Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining turli qatlamlarini

ijtimoiy muhofaza qilish o'zbek modelining insonparvarlik mohiyatini belgilovchi tamoyillardan biridir.

Beshinchi tamoyil – bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tish. Bu yetakchi tamoyil bo'lib, islohotlarning butun ichki mantig'ini, rivojlanib borishi va xarakterini belgilab beradi. Bozor iqtisodiyotiga tadrijiy ravishda, puxta o'ylangan holatda bosqichma-bosqich o'tish, mablag'lardan samarali foydalanish imkonini bermoqda, odamlarning safarbarligini oshirmoqda, ijtimoiy larzalarning oldini olmoqda, mulkchilik shakllarini bosqichma-bosqich rivojlantirmoqda. O'zbek modelining yana bir ustuvor xususiyati shundan iboratki, uning amalga oshirilishi mamlakatimiz ichida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarining izchil joriy etilishini ta'minlamoqda.

Taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlari va o'ziga xos ichki dunyosiga tayangan, ayni vaqtda, dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslanganligi tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mustaqillik nima?
2. Mustaqil demokratik taraqqiyot deganda nimani tushunasiz?
3. Milliy g'oya tushunchasining demokratiya bilan bog'liqligini tushuntirib bering?
4. Mustaqil demokratik taraqqiyotni ta'minlash jarayonida milliy-ma'naviy qadriyatlarning rolini bilasizmi?
5. Mustaqil demokratik taraqqiyotni ta'minlashning umuminsoniy demokratik tamoyillarini aytib bering?
6. O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlashda davlatning rolini tushuntirib bering?
7. Yurt tinchligi qanday g'oya?
8. Vatan ravnaqi g'oyasi yoshlarni qanday ruhda tarbiyalaydi?
9. Xalq farovonligi g'oyasini amalga oshirishda mafkuraning roli qanday?
10. Mustaqil demokratik taraqqiyotning milliy g'oya konsepsiyasi bilan uyg'unligini aytib bering?
11. Taraqqiyotning o'zbek modeli deganda nimani tushunasiz?

## **7-BOB. MILLIY G'OYANING JAMIYAT HAYOTI SOHALARI BILAN BOG'LIQLIGI**

### **7.1. Jamiyat hayoti sohalari tushunchalari, ma'no-mazmuni. Milliy g'oyaning jamiyat hayoti sohalarida aks etishi.**

“Jamiyat” ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida, ong va tafakkurga, til va nutqqa ega bo'lgan, bir-birlarining ijtimoiy yordami, ko'magiga ehtiyoj sezuvchi insonlar ijtimoiy uyushmasining eng umumiy ilmiy-falsafiy atamasidir. Jamiyat moddiy olamning, uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan tabiatning ham o'ziga xos bir qismidir. Jamiyat yaxlit, o'z-o'zidan rivojlanib boruvchi ijtimoiy tizim, sifat muayyanligiga ega bo'lgan ob'yektdir. Shu bilan birgalikda jamiyat – uni tashkil etgan kishilar faoliyatining yig'indisidir. Har bir avlod mavjud ijtimoiy munosabatlarga o'z xissasini qo'shadi. Har bir avlod hayotga qadam qo'yar ekan, mavjud ijtimoiy hayot sharoitlari ta'sirida shakllanadi, o'sadi va ulg'ayadi. Jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohalari mavjuddir. Jamiyatning iqtisodiy hayot sohasi keng ma'noda kishilarning o'z moddiy sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Inson jamiyatning iqtisodiy hayot sohasida moddiy boyliklarni ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Moddiy boyliklarni ishlab chiqarishdan asosiy maqsad fuqarolarning moddiy boyliklarga bo'lgan talab va ehtiyojini qondirishdan iboratdir. Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari va boshqa moddiy boyliklarni ishlab chiqarishdan iboratdir. Jamiyat hayotining asosiy harakat yo'nalishini belgilovchi to'rtta asosiy sohasi: moddiy, ma'naviy, ijtimoiy va siyosiy sohalari mavjud bo'lib, ulardan jamiyatning moddiy ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan jamiyatning moddiy hayoti sohasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kishilarning yashashlari, shaxs sifatida kamol topishlari uchun zarur bo'lgan moddiy shart-sharoitlar va omillar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i, kommunikasiya vositalari;
- moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan moddiy, iqtisodiy munosabatlar;

- ishlab chiqarish jarayonida insonlar o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi;
- moddiy ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar va tabiiy zahiralarni kiradi.

Jamiyatning moddiy hayoti kishilar uchun tirikchilik ne'matlari, vositalari yaratishga qaratilgan. U kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi. Moddiy ishlab chiqarishda jismoniy mehnat kishisi asosiy rol o'ynaydi.

Jamiyatning ma'naviy hayot sohasida ma'naviy boyliklar ishlab chiqariladi. Xalq tomonidan yaratiladigan ma'naviy boyliklar ziyolilar tomonidan o'rganiladi va rivojlantiriladi. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida ilmiy bilimlar, falsafiy ta'limotlar, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy, badiiy qarashlar, ushbu sohalarga taalluqli bo'lgan obrazlar, g'oyalar va nazariyalar yaratiladi. Ma'naviy soha qadriyatlari o'z ahamiyatini uzoq vaqtlar davomida saqlaydi. Ma'naviy qadriyatlarni hosil etish hamma vaqt yangilik yaratishdan, ijodiy yondashuvdan iborat bo'lgan. Ma'naviyatga bo'lgan talab va ehtiyoj hozirgi davrda O'zbekistonda kuchayib bormoqda. Chunki kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan barkamol insonni tarbiyalamasdan turib olg'a tomon rivojlanish, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayot sohasida vujudga keladigan muammolarni hal etish mumkin emas. O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni fuqarolarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, imon-e'tiqodiga, g'oyaviy-siyosiy yetuklik darajasiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradigan bozor munosabatlariga faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki yuksak ma'naviyat asosida boriladi. Bozor munosabatlariga o'tish odamlarda imon-e'tiqod, vijdon, halollik, birovning haqini yeyishdan qo'rqish, xayr-ehson singari fazilatlar bo'lishini, ana shularni o'zida jam qilgan milliy, diniy, axloqiy qadriyatlarga katta e'tibor berishni taqozo etadi. Milliy ma'naviyatimiz har bir insonda ona yurtiga muhabbat va sadoqatning qaror topishida, shu muqaddas tuproqqa egalik tuyg'ularini shakllantirishda, Vatanni himoya qilish, avaylab-asrashda muhim o'rin tutadi. Yuksak madaniyat va ma'naviyat sohibi bo'lgan inson otashin vatanparvar, yurti va xalqi ishiga fidoyi, qalbi pok, so'zi bilan ishi

bir, ilmi xulqiga monand bo'ladi. Mustaqillik xalqimizning madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi. Respublikamizda ilm-fan, madaniyat, xalq ta'limi, maorif, adabiyot va san'atni rivojlantirish, tarixiy obidalarni ta'mirlash, asliga keltirish, xalq hunarmandchiligi, kasanachilikni tiklash va rivojlantirish bo'yicha Prezident farmonlari va bir necha qarorlar qabul qilindi. Milliy urf-odat, qadriyatlarimizni tiklash, ulardan to'la bahramand bo'lish, yosh avlodni milliy qadriyatlar, an'analar asosida tarbiyalash sohasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, uning siyosiy va huquqiy madaniyatini rivojlantirish mamlakatimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat barpo etishning muhim shartidir.

Jamiyat hayoti, faoliyatini boshqarish siyosiy hokimiyat orqali amalga oshiriladi. Jamiyatni boshqarishda siyosiy hokimiyat yuzaga kelishi bilan bog'liq holda jamiyatning siyosiy sohasi vujudga keladi. Siyosat jamiyatning tez o'zgaruvchan, doimiy faol tomonidir. Siyosatning ob'yekti butun jamiyat sohasi hisoblanadi. Siyosatning sub'yekti esa jamiyatdagi katta-katta guruhlar bo'lib, ular diqqat markazida mavjud hokimiyatga nisbatan munosabat yotadi. Davlat – insoniyat sivilizasiyasi rivojlanishining mahsuli, xalqlar va millatlar hayotining huquq va qonunga asoslanib tashkil etishning siyosiy shaklidir. Davlatning kelib chiqishi nafaqat tarixiy zaruriyat, balki ijtimoiy taraqqiyot omili ham bo'ldi. Davlatchilik rivojlanishi bilan siyosiy boshqaruvning murakkab tuzilishi vujudga kelib, jamiyatda siyosiy partiyalar vujudga keldi. Siyosiy partiyalarda ijtimoiy guruh, qatlam, sinflarning bir muncha faol qismi muayyan g'oyalar va tamoyillar asosida uyushgan bo'ladi. Davlat hokimiyatini qo'lga kiritgan partiya boshqaruvda rahbarlik vazifasini bajaradi. Partiyalarning yetukligi demokratiyaning yetukligini ifodalaydi. Demokratiya xalqni hokimiyatning manbai ekanligi bilan bog'liq bo'lgan siyosiy-davlat tuzilishining shaklidir. Davlat hokimiyati tuzilishining boshqa shakllaridan farqli o'laroq demokratik jamiyatlarda qonunning ustuvorligi, fuqarolarning tengligi, asosiy davlat tashkilotlarining pastdan yuqorigacha saylab



qo'yilishi, saylov yoki referendum orqali ko'pchilikning xohish-irodasini bilish imkoniyatlari ta'minlanadi.

Jamiyatning ijtimoiy hayot sohasi jamiyatdagi turli ijtimoiy guruh va qatlamlar hamda ularning faoliyat sohasi bilan bog'liq bo'lgan tuzilmalar va tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatning ijtimoiy hayot sohasiga taalluqli bo'lgan tuzilmalarga ijtimoiy ta'minot, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat muassasalari, madaniy-oqartuv tashkilotlari, ijtimoiy himoya, jismoniy tarbiya va sport kabi sohalar kiritiladi.

Har qanday inson u yoki bu ijtimoiy birliklarning a'zosi hisoblanadi. Bu birliklar jamiyatning ijtimoiy tuzilishida muayyan o'rin egallaydi. O'zbekistonning ijtimoiy tuzilishida bozor munosabatlariga o'tish jarayonida kuchli o'rta qatlam, mulkdorlar sinfining paydo bo'lishi, jamiyatning siyosiy hayot sohasida turli siyosiy partiyalarning vujudga kelishi, davlatimizning ijtimoiy siyosatida kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat tomonidan ijtimoiy himoya tadbirlarining amalga oshirilishi jamiyatning ijtimoiy hayot sohasida amalga oshirilgan ishlardir. O'zbekiston Respublikasida izchil amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarda mulk va mulkchilik markaziy o'rinni egallaydi. Davlatimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotini shakllantirishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri deb belgilab oldi. Ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobatlashish muhitini yaratish esa bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartidir. O'rta mulkdorlar sinfi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtiruvchi kuch sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Biz barpo etayotgan jamiyatda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, fuqarolarga g'amxo'rlik qilish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu esa milliy istiqlol g'oyasining ijtimoiy sohadagi tamoyillarini belgilaydi, ularning amalga oshishiga xizmat qiladi. Yangi jamiyatni barpo etish jarayonida xalq moddiy farovonligini bosqichma-bosqich oshirilishini ta'minlash, yurtdoshlarimizning munosib hayot kechirishi va yoshlarimizning kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, aholini, eng avvalo, uning yordamga muhtoj qatlamlari – bolalar, qariyalar, nogironlar, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofazalashning aniq yo'naltirilgan mexanizmi yanada takomillashtiriladi. Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati,

diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash hamda rivojlantirishga ko'maklashish ham yangi jamiyat barpo etish jarayonida markaziy vazifadir. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish borasidagi buyuk maqsadni amalga oshirish jarayonida huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etiladi.

## **7.2. Milliy g'oya va iqtisodiy hayot. Ijtimoiy hayot sohalari va milliy g'oyaning o'zaro mushtarakligi.**

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish, avvalambor, har bir fuqaroning va butun jamiyatning oliy maqsadlarini o'zida mujassam etgan milliy g'oya atrofida jipslasha olishi, o'zini xalq, millatning ajralmas qismi ekanligini anglab yetishiga ham bog'liq. Bugungi kunda fuqarolar iqtisodiy erkinligining oshishi ularning siyosiy erkinligini ham yuksaltiradi, ularni ijtimoiy-siyosiy jihatdan faollashtiradi. Biz intilayotgan barqaror taraqqiyotga erishishda insonlarning turmushi yaxshi bo'lishi, ma'lumotli bo'lishlari, halol daromad topa olishlari, ijtimoiy ta'minotga bog'lanib qolmasliklari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Farovon hayotga erishish uchun odamlar erkin mehnat mahsulidan bahramand bo'lishi, halol yo'l bilan yuqori daromad olish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur.

Milliy g'oya va mafkuraning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari mavjud bo'lib, bu mafkura oila va fuqaroni munosib turmush darajasini ta'minlaydigan farovon hayotga erishishga chorlaydi. Milliy g'oya har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasin, o'z manfaatini xalq va Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'rishga da'vat etadi. Milliy g'oya mulkdor odamlar jamiyat ichida, xalq orasida faqat boyligi bilan emas, balki yuksak ma'naviy fazilatlari bilan ham ajralib turishi zarurligi, "shaxsiy va oilaviy farovonlikka erishish imkoniyati har kimning o'z qo'lida", degan hayot haqiqatini zamonaviy dunyoqarash sifatida shakllantiradi. Milliy g'oya va mafkurada "Har bir fuqaroning farovonligi – butun jamiyatning farovonligi" degan g'oya ilgari

suriladi. Milliy g'oya va mafkuraning ijtimoiy-iqtisodiy asoslariga bundan tashqari, mulkning xilma-xilligi, iqtisodiy hayotni erkinlashtirish, bu sohadagi plyuralizmni va sog'lom raqobatni yanada yuksak darajada rivojlantirish kabi masalalar kiritiladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat aholisi, har bir fuqaro, oila uchun insonga munosib hayot va faoliyat sharoitlarini yaratishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratilmoqda. Eng avvalo, xalqning ma'naviy yetukligini, axloqiy barkamolligini ta'minlash, iqtisodiy hayotni chuqur, har tomonlama isloh qilish, mulkchilikning xilma-xilligini joriy etish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini qaror toptirish, islohotlarning huquqiy negizlarini yaratish masalalariga e'tibor qaratiladi. Hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, fuqarolar osoyishtaligi, umummilliy totuvlikni ta'minlash, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, iqtisodiyotni boshqarishning bozor munosabatlari talablari tabiatiga mos yangi tashkilotlari, muassasalarini vujudga keltirish bugungi kundagi dolzarb masalalardir. Kuchli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatni barpo etish bizning pirovard maqsadimiz bo'lsada, ammo, ularning o'zini vujudga keltirish ham ayni ijtimoiy yo'naltirilgan, barqaror bozor iqtisodiyotini yaratish bilan uyg'un tarzda amalga oshiriladigan vazifadir. Islohotlarning dastlabki bosqichida erishilgan natijalar ularning yangi bosqichi ustuvor yo'nalishlari hamda vazifalarini aniqlash imkoniyatini berdi. Mulkning aksariyat qismini davlat tasarrufidan chiqarish, uni xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish, milliy valyuta, so'mning qadrini oshirish, iqtisodiyotda, xususan qishloqda, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ijtimoiy kafolatlarning ishonchli tizimini ta'minlay olishga qodir fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatni qurish mazkur ustuvor yo'nalish hamda vazifalar jumlasiga kiradi. Shaxsning mulkdor bo'lish, erkin kasb tanlashi, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, o'zi istagan iqtisodiy faoliyat turi bilan erkin shug'ullanish hamda shunga muvofiq cheklanmagan daromad olish va yaxshi yashash imkoniyatlariga ega bo'lish kabi demokratik ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni amalga oshirishni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor

iqtisodiyoti ta'minlaydi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijalaridan biri ijtimoiy himoya siyosatining demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rni va ahamiyatining ortib borishi bilan belgilanmoqda. O'zbekistonda islohotlar muqarrarligining g'oyat muhim sharti bo'lgan aholini ijtimoiy himoya qilish ustuvor yo'nalish bo'lib hisoblanib, bu holat o'z navbatida quyidagi omillarni belgilab beradi:

- Kuchli ijtimoiy himoya siyosati istiqloq va taraqqiyot yo'liga ishonchni mustahkamlaydi, bu ishonch esa aniq moddiy zamin asosida hosil bo'ladi.

- Kuchli ijtimoiy himoya siyosati eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratadi.

- Kuchli ijtimoiy himoya siyosati fuqarolarning islohotlar jarayoniga nisbatan manfaatdorligining oshib borishini ta'minlaydi. Kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati jamiyatda yangicha fikrlashning, tafakkur qilishning asoslarini yaratishga qodirligi tufayli ham demokratik jamiyat barpo etishga ko'maklashadi. "O'zbek modeli"ning beshta tamoyillaridan biri – mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish ekanligi davlatning ijtimoiy adolatni qaror toptirish sari rivojlanishini anglatadi. Mustaqil O'zbekiston o'zining aniq mo'ljallangan ijtimoiy himoya siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab olgan bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- Ijtimoiy himoya, avvalambor, barcha uchun imkoniyatlar tengligini ta'minlashdir. Toki har bir fuqaro iqtisodiy faoliyat, mehnat qilish, kasb-korni erkin tanlash, o'z oilasini boqish, ma'lumot olish, tibbiy xizmatdan foydalanishda boshqalar bilan teng huquqlarga ega bo'lsin. Ijtimoiy muhofaza – har bir kishiga samarali mehnat qilish, o'z hayotiy ehtiyojlarini o'zi qondira olishi imkoniyatlarini yaratish, buning uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ijtimoiy kafolatlarining ta'sirchan tizimini vujudga keltirish demakdir. Shu sababdan, kuchli ijtimoiy siyosat, birinchi galda, mehnatning qadrini oshirish, uni shaxs manfaatlarini qondirish, uning har tomonlama uyg'un kamol topishining, o'z ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, rivojlantirish va namoyon etishining hal qiluvchi vositasiga aylantirishga hamda buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'lmog'i kerak. Jamiyatdagi sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat,

san'at, ilm-fan va boshqa sohalar ham jamiyatning ijtimoiy hayot sohasiga bevosita taalluqlidir.

### **7.3. Milliy g'oya va ma'naviy hayot. Fan va ta'lim sohasidagi yutuqlar, uni ijtimoiy hayot sohalariga tadbiq etish**

Milliy g'oya millat taraqqiyotini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy manbasi hisoblanadi. Chunki millatning mustaqilligini, uning o'ziga xosligini faqat milliy g'oya, ularning moddiy kuchga aylanishi natijasida ta'minlash mumkin bo'ladi. Milliy g'oya inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir. Milliy g'oya har bir insonning o'zini anglashi jarayonida shakllanib, insonning shaxs sifatida shakllanishi uning o'zini anglashidan boshlanadi. Milliy g'oya insonning kundalik hayotida oddiy urf-odat, an'ana va qadriyatlardan boshlanib, ma'naviy meros, tarixiy xotira va millatning tarixiy tajribasini o'z ichiga oladi. Milliy g'oya oila, millat vakillarining o'zaro munosabatlari, hatti-harakatlari va mentaliteti ta'sirida shakllanib, milliy g'oya tizimida milliy ong, milliy o'zlikni anglash va milliy mentalitet yetakchi o'rin egallaydi. Milliy g'oyaning ta'sir doirasi nihoyatda keng bo'lib, u millatning o'ziga xosligini saqlab turish, millat manfaatlari yo'lida millat vakillarini birlashtirish, uyushtirish va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash kabilarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Milliy g'oyaning muhim imkoniyatlaridan yana biri, uning milliy ma'naviy tiklanishdagi manba ekanligida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya milliy tiklanishga ma'naviy-ruhiy ozuqa berib, uni harakatga keltiradi. Milliy g'oya millatning ehtiyojiga qarab o'zgarib, rivojlanib va takomillashib boradi. Milliy g'oya milliy ong, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, milliy meros kabilar zaminida, uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi. Milliy g'oyada millat taraqqiyoti, uning orzu-umidlari, maqsadlari, intilishlari, hatti-harakatlari va istiqbolining yo'nalishlari o'z ifodasini topadi. Milliy g'oya ilm-fan, madaniyat, san'at va jamiyat ma'naviy hayotining boshqa sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatning ma'naviy hayoti kishilar

mavjudligining real, jonli jarayoni, har qanday darajadagi mavjudligi ifodasi bo'lib, u kundalik oddiy tushunchalardan tortib, insoniyatning eng qaynoq ijodi, xayollari, ruhiy olami, hissiy kechinmalarigacha bo'lgan holatlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatning ma'naviy sohasida butun ma'naviy hayot emas, balki uning ba'zi qatlamlari yoki maxsus ma'naviy ishlab chiqarish darajasi bilan bog'liq bo'lgan tomonlari kiradi, maxsus amal qiladigan ijtimoiy institutlar (mafura va ilmiy muassasalar, teatrlar, kutubxona, muzey, maktab va hokazo) shular jumlasidandir. Bular ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchilar va tarqatuvchilardir. Ma'naviy sohaning asosini ma'naviy ishlab chiqarish tashkil etadi. Bu jarayonda g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar ishlab chiqariladi. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida inson tomonidan ilmiy bilimlar, falsafiy ta'limotlar, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy, badiiy va boshqa qarashlar ishlab chiqariladi. Ma'naviy ishlab chiqarish aqliy va intellektual mehnatga asoslanadi. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni insondan o'z faoliyatiga ijodiy tarzda yondashishni talab qiladi. Inson tarbiya va ta'lim jarayonida yangi g'oyalar, qarashlar, bilimlarni egallaydi. Unda muayyan g'oyaga asoslangan dunyoqarash, ijtimoiy maqsad, hayotiy yondashuv shakllanadi. Jamiyat ma'naviy hayotining negizini ma'naviy faoliyat tashkil etadi. Ma'naviy faoliyat deganda insonning aqliy, jismoniy, tashkilotchilik va boshqa hatti-harakatlari majmuasi tushuniladi. Bu faoliyat ma'naviy qadriyatlar yaratishga yo'naltiriladi, turli xil san'at asarlari, falsafa, ilmiy tadqiqotlar, axloq va huquqning me'yorlarida, siyosiy g'oyalarda, ideallar, orzu va fantaziyalarda o'z ifodasini topadi. Bilim insonning ham aqliy, ham jismoniy mehnati tufayli, shuningdek, odamlarning o'zaro bir-birlari bilan muloqotlari negizida yuzaga keladi. Bilim nafaqat fanga, balki san'atga ham tegishli bo'lib, har bir badiiy asar muayyan bir g'oyaga asoslangan holda o'z qarashlarini bayon qiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanib, ta'lim va tarbiya, ilm-fanni rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratildi. Zamonaviy taraqqiyot bosqichining talablariga to'la javob beruvchi ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Bu

muhim hujjatlar O'zbekistonda yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, unda bir qator ustuvor yo'nalishlar belgilab qo'yilgan. Xususan, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiya asosida kelajakka nisbatan yuksak ishonch hissini yuksaltirish, yoshlar ma'naviyati va mafkuraviy immunitetini milliy istiqlol g'oyasi asosida mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, yoshlarda Vatanga, xalqqa muhabbat, yurt farovonligi uchun kurashish, insonparvarlik, o'zlikni anglash, milliy g'urur, milliy iftixor, o'zga millat vakillarining qadriyatlarini hurmat qilish kabi fazilatlarni tarbiyalash, mustaqil fikrlash va faoliyat yuritish masalalariga e'tibor qaratilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimi, kadrlar tayyorlash milliy modelini shakllantirishdan iborat. Milliy modelning asosiy tarkibiy qismlarini shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish tashkil qiladi. Fan ilmiy bilimlar tizimi bo'lib, u o'z oldiga ilmiy bilimlar yaratishni maqsad qilib qo'yadi. O'zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish islohotlar muvaffaqiyatining garovi va moddiy farovonlik asosidir. Mustaqillik tufayli xalqimizning ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ma'naviy-intellektual merosini o'rganish, jahon ilm-fani va texnikasi yutuqlaridan bahramand bo'lish, dunyoning mashhur ilm dargohlarida o'qish-o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish, zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish, barkamol insonni shakllantirishda ilm-fan yutuqlariga tayanish hayotiy zaruratga aylandi. O'zbekistonning jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, taraqqiy etishi, shubhasiz, uning ilm-fan salohiyatiga bevosita bog'liqdir. O'zbekistonda mustaqillik sharoitida mamlakatning ilmiy-intellektual salohiyatini yanada kuchaytirishga katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston faniga kirib kelgan muhim yangiliklar uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlardan tashqari yana quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- fanning kompyuterlashtirilishida;

- jahonning global muammolarini hal etishda mamlakatimiz olimlarining faol ishtirok etayotganida;
- ilmiy tadqiqotlarda eng zamonaviy texnika, asbob-uskunalardan va ilg'or metodlardan foydalanilayotganida;
- olimlarimizning jahon tillarini o'rganishga rag'batlantirilishida;
- jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari oliy o'quv yurtlarida mutaxassis-kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilganligida;
- ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh qilinayotganida.

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy sohalardagi vazifalar Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlarida batafsil tavsiflab berilgan.

Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovasiyalar zamonidir, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovasion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda. Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovasion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda<sup>1</sup>.

Mustaqillik sharoitida yoshlarda milliy qadriyatlarning bizga maqbul bo'lgan tomonlarini shakllantirishda, ularga milliy tariximiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz va dunyoviy fanlardan puxta bilim berishda hamda milliy mafkuradagi asosiy g'oyalarni singdirishda ta'lim tizimi va fan taraqqiyoti muhim o'rin tutadi. Milliy mafkura – millat ravnaqi, xalqimizning farovonligi, jamiyatimizni porloq kelajakka undaydigan katta g'oyaviy kuchdir. U jamiyatdagi barcha kishilarni, ijtimoiy guruhlar, tabaqalarni bitta maqsad sari – O'zbekistonni kelajakda buyuk davlatlar safiga olib chiqishga da'vat etadigan ilmiy g'oyalar majmuasidir.

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 168-бет.



#### **7.4. Erkin va farovon hayot bunyod etishda ilm-fan yutuqlaridan foydalanish**

O'zbekistonda erkin va farovon hayot bunyod etish jarayonida ilm-fan yutuqlaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Fan o'z oldiga ilmiy bilimlar yaratishni maqsad qilib qo'yib, ilmiy bilimlar hosil qilish usullariga qarab, fanlar eksperimental va fundamental fanlarga bo'linadi. Shuningdek, o'rganish ob'yektiga ko'ra fanlar tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga bo'linadi. Hozirgi davrda zamonaviy fan taraqqiyotining yangi soha va tarmoqlari vujudga kelmoqda. Fanning ilmiy bilimlar tizimi sifatida vujudga kelishi insonning ehtiyojlari bilan bog'liqdir. Inson fan tufayli ijtimoiy munosabatlarni o'z maqsad va manfaatlariga mos ravishda takomillashtiradi.

O'zbekistonda mustaqillik tufayli jahon ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning ilmiy merosini chuqur o'rganish va ularning an'alarini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016 yil 30 dekabrda yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashib, bugungi tezkor davrda barcha soha qatori, ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarish zarurligini ta'kidlab o'tdilar. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham O'zbekistonda ilm-fanni taraqqiy ettirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda mamlakat rivoji ilm-fan taraqqiyotiga bevosita bog'liqdir. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etib, ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi, yangi nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovasion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi. Ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini ravnaq toptirish 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham o'z aksini topgan bo'lib, bu soha besh yil ichida davlat siyosatida ustuvorlik kasb etadi. 2017 yil 1 noyabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovasion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qaror imzolandi. 2017-2021 yillarda ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha maxsus dastur tasdiqlandi. Ushbu dastur fan va innovasiya sohasida 6 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 40 dan ziyod tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ilm-fanni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor zamirida iqtisodiyotimiz barqaror sur'atlarda rivojlanishini ta'minlash, raqobatbardosh, qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni jahon bozoriga olib chiqish, xalqimiz turmush farovonligini yanada yaxshilash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, yoshlarimizni yetuk, yuksak bilim va ma'naviyatga ega mutaxassis sifatida tayyorlash, mamlakatimizning jahon miqyosidagi nufuzini oshirish singari ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadi turadi. Hozirgi davrda ilmiy ishlanmalarni bozorda tijorat yo'sinida o'zlashtirish bosqichiga qadar kengaytirish va jadallashtirish imkonini beradigan ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlari, hamkorlikdagi korxonalar rivojlanayapti. Ularning faoliyati turli-tuman bo'lib, sanoatda yuqori texnologiyalarni, qishloq xo'jaligida yangi, istiqbolli biotexnologiyalarni ishlab chiqarish, hisoblash texnikasini tayyorlash va rivojlantirish, ta'limda yangi pedtexnologiyalarni, ishlab chiqarishda yangi innovasion texnologiyalarni joriy qilish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi o'z faoliyatining hozirgi bosqichida ilmiy-tadqiqot muassasalarining bozor iqtisodiyoti sharoitlarida nazariy va amaliy ish olib borishiga tobora ko'proq e'tibor beryapti. Akademiya ilmiy bo'linmalari xo'jalik yuritish mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, tashkilotlar hamda korxonalarining ilmiy-texnika mahsulotlari va xizmatlarini keng joriy etish masalasiga e'tiborni kuchaytiroqda. Ilmiy-tadqiqot natijasida olinayotgan mablag'lar nazariy fanlarni mustahkamlashga, xodimlar tayyorlashga, fan xodimlarining ijtimoiy muhofazalanganligini oshirishga sarflanmoqda. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tabiiy, texnikaviy, tibbiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojiga ko'maklashuvchi fundamental tadqiqotlar o'tkazadi, fan va texnika sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi, tabiat, jamiyat va insonning rivojlanishi, millatlar, milliy madaniyatlar, davlat va milliy munosabatlarning rivojlanishi muammolarini, ta'lim va ma'rifat

masalalarini o'rganadi, yangi texnika, zamonaviy texnologiyalarni va ulardan amaliyotda foydalanish tamoyillarini ishlab chiqishni amalga oshiradi, ilmiy ishlanmalar amaliyotda joriy etilishiga, xalq xo'jaligining ilm-fanni ko'p talab qiluvchi tarmoqlari rivojlantirilishiga, jahon fani va texnikasi yutuqlarining umumlashtirilishiga va ulardan foydalanishga ko'maklashadi, erkin va farovon hayot bunyod etishda ilm-fan yutuqlaridan foydalanishda olimlarning samarali ijodiy faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bizning bosh strategik maqsadimiz Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iborat bo'lib, odamlar baxtli va farovon yashaydigan jamiyatning milliy modeli ilm-fan tomonidan nazariy asoslab beriladi. O'zbekistonda inson baxtli va farovon yashaydigan ijtimoiy tizim shakllantirilib, bunday samarali tizim – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatidir. Huquqiy davlatda ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalarning qonun asosida erkin faoliyat ko'rsatishi ham ta'min etiladi. O'zbekistonda islohotlarni inson manfaatlarini ko'zlagan holda o'tkazish, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat, ilm-fan sohalariga doimiy e'tibor qaratish nazarda tutiladi. Kelajagi buyuk davlat barpo etish, kelgusi avlodlarga Ozod va obod Vatanni meros qoldirish borasidagi oliyjanob ishlar taqdiri, yoshlarning ilm-fan yutuqlari va zamonaviy kasblarni nechog'lik mukammal darajada egallashlariga bog'liqdir. Barkamol avlodni tarbiyalash O'zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning eng muhim shartidir.

#### **7.5. Mustaqillik tufayli jamiyat hayoti sohasida erishilgan yutuqlar. Ularning milliy g'oya maqsadlari bilan uyg'unligi**

O'zbekistonning milliy mustaqilligidan so'ng milliy g'oya bizning hayotimiz va dunyoqarashimiz mezoniga aylandi. Biz uchun mustaqillik yurtimizning boy tabiiy boyliklariga egalik qilish, xalqimiz qudrati, salohiyati, aqlu zakovatiga tayanib, O'zbekistonda yashayotgan har bir inson, har bir oila uchun munosib hayot qurish, kelajak avlodlar uchun ozod va obod Vatan qoldirishdir. Istiqloq – millatimiz, mamlakatimizning jahonda obro'-e'tibori, shon-shavkatini dunyoga tarannum etadigan sog'lom avlodni, har jihatdan barkamol va fidoyi o'g'il-qizlarni

tarbiyalash, ularni voyaga yetkazish va baxtini ko'rish imkoniyatini yaratdi. O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun – millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, farovon hayot kechirish kafolatlari ta'minlanmoqda. Mustaqillik biz uchun davlatchiligimizning poydevorini qurish, milliy ongimiz va ma'naviyatimizni yuksaltirish, milliy g'oya va mafkuramizning asosiy tushuncha va tamoyillarini ishlab chiqib hayotga tatbiq qilish imkoniyatini berdi. O'zbekiston xalqi mustaqillik tufayli o'z taqdirini o'zi belgilash, davlat va jamiyatning siyosiy tizimini mustaqil yaratish, demokratik yo'l bilan saylangan hokimiyat organlari orqali hokimiyatni butun to'laligi bilan boshqarish, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik imkoniyatlarga, tabiiy va xomashyo resurslariga to'la egalik qilish va ulardan mamlakatimiz manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birgalikda taraqqiyot yo'li jahon tajribalari, tarixiy an'analar va xalqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil tanlandi. O'zbekistonda milliy davlatchilik an'alariga asoslangan holda huquqiy demokratik davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish asosiy maqsad qilib olindi. Mustaqillik yillarida tariximizni xolisona yoritish, milliy va diniy qadriyatlarimizni qaytadan tiklash, yosh avlodni haqiqiy vatanparvar va yurtparvar etib tarbiyalash, ularga zamon talablari darajasida bilim berish va kasb-hunar o'rgatish, ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini to'la namoyon etish, yurtimiz xavfsizligi, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratildi. Tashqi siyosatda, xalqaro munosabatlarda mustaqil sub'yekt sifatida ishtirok etish, barcha nufuzli tashkilotlarga teng huquqlilik asosida a'zo bo'lib kirish, boshqa mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli shartnoma va bitimlar tuzish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Mustaqillik tufayli xalqimiz milliy o'zligini angladi, ozod xalq va mustaqil davlat sifatida O'zbekistonning ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon etish imkoniyati vujudga keldi. Ozod va erkin hayot sharofati bilan O'zbekistonni jahon tanidi, xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarimizning g'ayrati, azmu shijoati bilan Vatanimizning shon-shuhrati

ortib bormoqda. O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohalarida islohotlar chuqurlashib, xalqimizning farovonligi ortib bormoqda. O'zbekistonda mustaqillik sharofati bilan inson manfaatlari, xalqning tinchligi va farovonligiga xizmat qiluvchi erkin, ochiq ijtimoiy-siyosiy tizim barpo etishni ta'minlovchi keng qamrovli demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurishda dunyoda tan olingan demokratik tamoyillarga, rivojlangan davlatlar tajribasiga hamda ko'p ming yillik o'zbek davlatchiligi tarixi va o'ziga xos milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga tayanildi. O'zbekistonda 5 ta siyosiy partiya: "Xalq demokratik", "Adolat" sosial-demokratik, "Milliy tiklanish" demokratik, Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik, O'zbekiston ekologik partiyalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, kasaba uyushmalari tashkilotlari, yoshlar va xotin-qizlar, respublika va xalqaro nodavlat tashkilotlari, jamg'armalar va fuqarolarning boshqa birlashmalarini o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy-siyosiy tizim vujudga keldi. Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning vakolatli instituti (Ombudsman) ta'sis etildi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda. Demokratik institutlarning muhim tarmog'i bo'lgan erkin ommaviy axborot vositalari vujudga kelib, takomillashib bormoqda. Mustaqillik tufayli xalqimiz o'lkamizdagi beqiyos boyliklarning haqiqiy egasi bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo'lga kiritilishi boy tariximiz va merosimizni tiklash, ularni xolisona va haqqoniy, adolat hamda tarixiylik nuqtai nazaridan o'rganish va o'qitish imkonini berdi. Mustaqillik tufayli betakror milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy-madaniy an'analarimiz, dinu diyonatimiz tiklanib, bugungi kunda xalqimizning o'zaro mehr-oqibat, bag'rikenglik, hamjihatlik kabi olijanob ezgu fazilatlari kuchayib bormoqda. O'zbekiston xalqi o'zining qadr-qimmatini, milliy davlatchiligi, madaniyati, muqaddas qadriyatlari, tili bilan yagona xalq va millat bo'lib, jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'-e'tibor

qozonishga erishmoqda. Mustaqillik davrida buyuk shaxslar xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari jamiyat ma'naviyatini, milliy g'ururni yuksaltirishga hamda xalqimiz, eng avvalo yosh avlod ongiga milliy g'oya tamoyillarini singdirishga xizmat qilmoqda. Mustaqillik tufayli yurtimizda vijdon erkinligi to'la ta'minlandi. Turli millat vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z qadriyatlarini o'rganishlari, urf-odat va an'alarini rivojlantirishlari uchun keng imkoniyatlar ochildi. Mustaqillikdan keyin Vatanimizning har bir fuqarosi o'z iste'dodini namoyon qilishiga imkoniyat tug'ilib, madaniyat, san'at va sport sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. O'zbekistonda uch bosqichli sport musobaqalari tizimi yaratilib, respublikamizda an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod" hamda "Universiada" sport musobaqalari yosh avlodning o'z iste'dod va qobiliyatini yuzaga chiqarish uchun katta imkoniyatni yaratmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yosh qobiliyat egalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli jamg'armalar tashkil etildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida tuzilgan "Umid" jamg'armasi, bugungi kunda faoliyat qamrovi kengayib borayotgan "Iste'dod", "Mehr nuri", "Kelajak ovozi", "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" kabi jamg'armalar iste'dodli yoshlarni tanlash va ularning chet ellardagi nufuzli o'quv yurtlarida ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash, sifat jihatidan yangi dasturlar ishlab chiqish va ularni respublika ta'lim tizimiga joriy qilish, jahonning turli o'quv markazlari bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, ta'lim sohasidagi zamonaviy loyihalarni amalga oshirishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yishgan. Zamonaviy usulda barpo etilgan ta'lim muassasalarida yoshlarning yuksak pedagogik texnologiyalar asosida bilim olishi, kasb egallashi uchun barcha qulayliklar yaratildi. Bugungi kunda yosh avlodning o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun eng zarur shartlar, ona tili bilan birga jahon tillarini ham o'rganish, axborot asrida yashayotganimizni hisobga olgan holda, kompyuter va axborot texnologiyalaridan yaxshi xabardor bo'lish hamda zamonaviy kasb-hunar asoslarini puxta egallashdan iboratdir. Bugungi kunda yangicha

fikrlaydigan, o'z kelajagini mamlakatimiz kelajagi bilan bog'liq holda ko'radigan, milliy g'oya va mafkuraning asosiy tushuncha va tamoyillarini ongi va qalbiga singdirgan, barkamol insonni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillik davrida O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy poydevori rivojlangan mamlakatlarning tajribasi va milliy qadriyatlarimiz asosida mustahkamlanmoqda. O'zbekiston xalqi milliy mafkuramizning bosh g'oyasi bo'lgan Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lida faoliyat olib bormoqda. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati asoslari yanada mustahkamlanmoqda.

Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarini ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Barqarorlik nisbiy sokinlik, ijtimoiy tizimning normal faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. Umuman, insoniyat jamiyati tarixida g'oyalar ularni taraqqiyot sari olib borganidek, jamiyat barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya va mafkura asosiy vosita bo'lib qolaveradi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Jamiyat deb nimaga aytiladi?
2. Jamiyat hayoti sohalariga nimalar kiradi?
3. Milliy g'oyaning jamiyat hayoti sohalaridagi o'rnini aytib bering?
4. Milliy g'oya va iqtisodiy hayotning uyg'unligi nimada aks etadi?
5. Ijtimoiy hayot sohalari milliy g'oya bilan qanday baholangan?
6. Milliy g'oya va ma'naviy hayotning mushtarakligi nimada?
7. Fan va ta'limning ijtimoiy hayot sohalaridagi rolini aytib bering?
8. Erkin va farovon hayot bunyod etishda ilm-fanning rolini tushuntirib bering?
9. Mustaqillik tufayli jamiyat hayoti sohasida erishilgan yutuqlarni qanday faoliyatda ko'rish mumkin?
10. Jamiyatda milliy g'oyaning asosiy maqsadi nimalardan iborat ekanligini ayting?

## **8-BOB. MILLIY G'UYADA INSON – ENG OLIY QADRIYAT**

### **8.1. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida insonparvarlik g'oyalarining takomillashuv jarayoni, unda avlodlararo vorislik va yangilanishning namoyon bo'lishi**

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish masalasi dolzarb masalalardan biri bo'lib, barkamol insonni tarbiyalashda ma'naviyat, odob-axloq va ma'rifat singari qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Ana shu qadriyatlar kishilarda olijanob insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Insonparvarlik (yunoncha – gumanizm) keng ma'noda shaxsning qadr-qimmatini, erki, kamolotini ifodalaydi. Mustaqillikdan keyingi davrda o'tkazilayotgan islohotlar inson uchun, uning baxtli, farovon hayoti uchun mo'ljallangan bo'lib, insonning o'z mehnati natijasidan manfaatdorligi masalasiga davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugun hayotimizning o'zi Konstitusiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak<sup>1</sup>.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida insonparvarlik tamoyillariga amal qilinmoqda, har bir insonga o'zining imkoniyat va qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyati yaratilmoqda. Inson manfaatlarini ta'minlashda iqtisodiyotimizning yuksak sur'atlar bilan barqaror rivojlanishi qanday katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz, deb fikrini davom ettiradi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi,

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. 114-бет.



zamonaviy uy-joylar, sifatli ta'lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir<sup>1</sup>.

O'zbekiston mustaqil taraqqiyotining har bir bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar inson uchun, uning ehtiyoj va manfaatlar uchun xizmat qilib, islohotlar natijasida O'zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va maslagidan qat'iy nazar, shaxs sifatida o'zini namoyon etish, o'z hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy boyroq qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Insonparvarlik – odamzodning qadri, erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish jarayonlarini ham o'zida ifodalaydi. Insonparvarlik har bir zamonaviy huquqiy-demokratik davlatning hayotiy qoidasi va ijtimoiy tuzilishining muhim asosiga aylanib, mustaqil O'zbekiston o'z siyosatida gumanizm shartlari, talablari hamda qoidalariga bevosita tayanmoqda. O'zbekiston Konstitusiyasi va qonunlari inson manfaatlarini himoya qilishga, uni qadrlashga, har bir shaxsning barkamollashuviga qaratilgan. Insonparvarlik g'oyalari, mazmuni va tamoyillari o'zbek milliy mentalitetining tarkibiy qismini tashkil etadi. Insonparvarlik tamoyillari amal qiluvchi jamiyatda “Agar sen kishilarning qadr-qimmatini hurmat qilsang, kishilar ham sening qadr-qimminatingni hurmat qiladi”, degan tamoyil amal qiladi. Insonparvarlik jamiyatida mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'lib, insonga erkin faoliyat yuritish, o'zining imkoniyat va qobiliyatini ro'yobga chiqarish imkoniyati yaratiladi. Insonda bilim hosil qiluvchi ijodiy mehnat asosida insonparvarlik jamiyatining maqsadi – barkamol shaxs shakllanadi. O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyillar vujudga keltirildi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda inson huquqlari bilan bog'liq bo'lgan institutlar, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) tashkil

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. 121-бет.

etildi. Insonparvarlik jamiyatiga insonparvarlik mafkurasi zarur bo'lib, mehr-oqibat, muruvvat ko'rsatish insonparvarlikning oliy ko'rinishidir. Insondagi aql va donishmandlik, mehr-shafqat, mardlik va pokdillik uning insonparvarlik fazilatlaridir. Insonni oliy qadriyat deb bilish hamda yuksak darajada e'zozlash milliy mafkuramizning asosiy maqsadi va muhim talabidir. Insonparvarlik munosabatlari nafaqat madaniyat sohasida, balki jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo'lib, ijtimoiy insonparvarlik sifatida namoyon bo'ladi. Insonparvarlik jamiyatida mulkning xususiy mulkchilik shakli jamiyatning erkin, yaxlit rivojlangan shaxsini shakllantirishning iqtisodiy negizi bo'lib hisoblanadi. Insonparvarlik jamiyatida milliy g'oya va mafkura asosida odamlar, yoshlar iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalashga katta e'tibor qaratiladi. Boy tarixiy, ma'naviy meros asosida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirish milliy g'oya va mafkuradagi insonparvarlik tamoyillari asosida shakllantiriladi. Insonparvarlik jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy hayot sohalarida o'zgarishlar yuz berib, insonning huquqi, erkinligi va manfaati kafolatlanadi, insonga o'zining qobiliyatini erkin ro'yobga chiqarish imkoniyati beriladi, boy va farovon hayot kechirish imkoniyati yaratiladi. O'zbekiston Respublikasi insonparvarlik jamiyati barpo etish jarayonida 21 ta xalqaro shartnomalarga qo'shilib, mustaqil davlat va xalqaro hamjamiyat a'zosi sifatida faoliyat olib bormoqda. O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotdagi eng oliy qadriyat bo'lgan insonni e'zozlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat tamoyili ham insonparvarlik namoyon bo'lishining o'ziga xos shaklidir. Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyati, milliy mentalitetining ajralmas tarkibiy qismidir. O'zbek oilasida bugungi kunda ham yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlashgandir. Insonparvarlik insonning hayoti, ularning turli urf-odatlari, e'tiqodlari, intilishlari va qiziqishlarida namoyon bo'ladi. O'zbek

xalqining ma'naviy qiyofasini belgilaydigan mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, serfarzand oilalarga g'amxo'rlik qilish, to'y va marosimlarda o'zaro yordamlashish, hashar, oilada bir-birlariga ko'maklashish, himmatlilik, oilani asrab-avaylash kabi udumlar insonparvarlikning asosini tashkil qiladi.

Mustaqil O'zbekiston o'z siyosatida insonparvarlik va gumanizm shartlari, talablari va qoidalariga, Sharq va G'arb davlatlarining eng ilg'or tajribasiga tayanib, xalq hayotini va jamiyat faoliyatini tashkil qilmoqda. Insonparvarlik g'oyalari, mazmuni va tamoyillari o'zbek milliy mentalitetining tarkibiy qismidir.

## **8.2. Yangi g'oyalar tizimidagi ustuvor tamoyillar, ularni amalga oshirishning dolzarb vazifalari**

Milliy g'oya millat taraqqiyotini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy manbasi hisoblanadi. Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir. Milliy g'oya tizimida milliy ong, milliy o'zlikni anglash va milliy mentalitet yetakchi o'rin egallaydi. Milliy g'oyaning ta'sir doirasi nihoyatda keng bo'lib, u millatning o'ziga xosligini saqlab turadi, millat manfaatlari yo'lida millat vakillarini birlashtiradi, uyushtiradi va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Milliy g'oya milliy o'ziga xoslikni saqlab turish, milliy manfaatlarni amalga oshirish, millat istiqbolini belgilash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, umummilliy harakatni vujudga keltirish milliy g'oyaning muhim vazifasi bo'lib hisoblanadi. Milliy g'oyaning muhim imkoniyatlaridan biri uning milliy ma'naviy tiklanishdagi manba ekanligida namoyon bo'ladi. Milliy g'oyaning asosiy tamoyillari uning shakllanish xususiyatlari va amal qilish usullarining imkoniyatlari va yo'llarini belgilab beradigan yo'nalishlarini o'zida ifodalaydi. Milliy g'oyaning asosiy tamoyillari o'zaro uzviy aloqador bo'lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi va qonun ustuvorligi kabi talablarni ham o'zida ifodalaydi. Milliy g'oyaning huquqiy asosi qonunning ustuvorligi tamoyilidir. Davlat jamiyat siyosiy tizimining asosi, mamlakat barqarorligi va izchil taraqqiyotining kafolati bo'lgan siyosiy institut bo'lib, u jamiyatda ijtimoiy-

siyosiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'zbekistonda milliy va umumbashariy qadriyatlar, boy tarixiy meros va ma'naviy qadriyatlar, taraqqiy topgan davlatlarning tajribasiga tayangan holda insonparvar va adolatli jamiyat barpo etilmoqda. Milliy g'oyaning inson huquqlari, erkinliklari va hurfiylik tamoyili uning ijtimoiy mohiyatini belgilaydi. Har qanday mamlakatning demokratik xususiyatlarini ko'rsatuvchi shartlardan biri – inson huquq va erkinliklariga qanday yondashganligi hamda uning amalga oshishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratilganligi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining demokratik va huquqiy davlat qurishdan maqsadi – mamlakatda yashovchi har bir kishining huquq va erkinliklarini to'la ta'minlashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Inson huquqlariga amal qilishni ta'minlovchi vositalardan biri – har bir kishining o'z huquqini yaxshi bilishi, huquqiy ongning yuqori darajada bo'lishidan iboratdir. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklaridan to'g'ri foydalanishlari va zimmlariga yuklatilgan burchlarni halol, ixtiyoriy va vijdonan bajarishlari lozim. Qonuniylik odamlarda ishonch tug'diradi, qonunning adolatliligi uning inson va jamiyat mustaqilligi ehtiyojlariga mosligidan kelib chiqadi. Insonda shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklar mavjud bo'lib, fuqarolarning o'z huquqlari va erkinliklaridan keng foydalanishlari ularning faolligini oshiradi va davlat oldida turgan vazifalarning bajarilishini osonlashtiradi. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari uning davlat oldidagi burchlari bilan bevosita bog'liqdir. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari doimo rivojlanib, kengayib boradi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad har bir insonga munosib hayot sharoitini yaratib berishdan iboratdir. Insoniyat azaldan intilib kelgan umuminsoniy tamoyillardan biri vijdon erkinligi bo'lib, u “e'tiqod erkinligi” tushunchasidan ko'ra keng mazmunga egadir. “E'tiqod erkinligi” insonning biror din yoki g'oyaga e'tiqod qilishda o'z ixtiyori bilan ish tutishini ifodalaydi. “Vijdon erkinligi” esa insonning biror dinga, g'oyaga e'tiqod qilishi yoki e'tiqod qilmasligini o'zida ifodalaydi. Bu tamoyil insonning ishonch-e'tiqod borasidagi erkinligi, jamiyat qonunlariga mos hayot kechirishini bildiradi.

Milliy g'oyaning fikrlar xilma-xilligini qaror toptirish tamoyili demokratik jamiyat barpo etishning asosiy shartidir. Ushbu tamoyil odamlarni xilma-xil fikrlar va turli-tuman qarashlarga tayangan holatda umumiy maqsad yo'lida uyg'unlashuvini ifodalaydi. Mana shu uyg'unlik milliy g'oyani amaldagi kuchga aylantiradi. Milliy g'oyaning asosiy tamoyillaridan yana biri milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligidir. Ushbu tamoyil odamlarni buyuk kelajakni yaratish jarayonidagi ishonchini mustahkamlashga, fuqarolarning siyosiy madaniyatini o'stirishga xizmat qiladi. Milliy g'oya tayanadigan asoslardan biri milliy qadriyatlarga sadoqat tamoyilidir. Bu tamoyil O'zbekistonning har bir fuqarosi o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylab, kelajak avlodlarga vorislik asosida yetkazishida to'liq imkoniyatlar mavjudligini o'zida ifodalaydi. O'zbekistonda yashaydigan barcha millat va elat vakillari o'z ona tilini, madaniyatini, urf-odatlarini asrash va rivojlantirish imkoniyatiga egadir. Tarixiy meros va madaniy boyliklarni, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarni hurmat qilish va ularni o'rganish mazkur tamoyilning asosiy jihatidir. Milliy g'oya tayanadigan milliy asosdagi yana bir tamoyil xalqimizga xos bo'lgan jamoaviylik an'anasidir. Jamoaviylik jamiyatimizning muhim xususiyati, ijtimoiy hamkorlik va hamjihatlikning negizi hisoblanib, u fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvining milliy modeli bo'lgan mahallalarning faoliyatida namoyon bo'ladi. Milliy g'oyani odamlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanib, milliy g'oya bobolar o'giti, otalar ibrati, onalarning mehri orqali avloddan avlodga, insondan insonga o'tib, yosh avlodning ongi va shuuriga singib, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usining mustahkamlanib borishiga xizmat qiladi. Oila g'oyaviy tarbiyaviy jihatdan sog'lom bo'lsa, bunday oila negizidagi jamiyat va davlat mustahkam bo'ladi. Sog'lom oilalarda komil insonlar tarbiyalanadi, ularning e'tiqodi va dunyoqarashi milliy g'oya asosida shakllantiriladi. Oilada shakllangan iymon-e'tiqod, odob, axloq, aql-idrok va tafakkur ta'lim-tarbiya jarayoni hamda mahalla muhitida yanada yuksalib, insonning ma'naviy va axloqiy kamolotiga xizmat qiladi. Milliy g'oyaning amaliy tamoyillaridan biri – jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirishdir. Har bir jamiyat va davlat o'zi uchun mos demokratik taraqqiyot yo'lini o'zi tanlaydi. O'zbekiston ham o'zi uchun mos demokratik taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. O'zbekiston o'zi uchun tanlab olgan

sharqona demokratiyaning bir qator ustuvor jihatlari mavjud bo'lib, bu eng avvalo g'oyaviy-falsafiy asosda shakllangan insonparvarlikdir. Sharq mutafakkirlari davlatni avvalo, jamiyat taraqqiyotidagi ikki muhim omil, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy adolat mezonlarini amalga oshirish vositasi deb tushungan, qonunchilik va me'yoriy tizimlar ham aynan ana shu maqsadlarga xizmat qilgan. Bugungi sharqona demokratiyada bag'rikenglik, hamjihatlik, qadr, oqibat, andisha, kattalarga hurmat, ona zaminni e'zozlash masalasiga katta e'tibor qaratilib, bular milliy g'oyaning amal qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy g'oyani amalga oshirish jarayoni kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari borish asosida amalga oshiriladi. Milliy g'oyaning amal qilish jarayonida inson erkinligi muhim o'rin tutadi. O'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildiradigan inson milliy g'oya tamoyillarini to'g'ri baholay oladi. Milliy g'oyaning asosiy tamoyillari ko'p va keng qamrovli bo'lib, ular mafkuraning amal qilish yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **8.3. Istiqloлга asoslangan yangi g'oyalar tizimini takomillashtirish, uning ma'naviy ta'sirchanligi va mafkuraviy samarasini oshirish usullari va yo'llari**

O'zbekiston xalqining tub manfaatlari, yuksak orzu-umidlari, ezgu niyatlari va oldiga qo'ygan buyuk ishlarni amalga oshirish yosh avlodga bog'liq bo'lib, yosh avlod yurtni kelajakda taraqqiyot va farovonlik sari yetaklaydi. Insonni yetuk shaxs qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaning eng muhim yo'nalishi g'oyaviy tarbiya bo'lib, bu inson qalbi va ongiga hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy tushuncha va qarashlarni, muayyan g'oya va mafkura tamoyillarini bosqichma-bosqich singdirishdan iborat bo'lgan jarayondir. Milliy g'oya chuqur e'tiqodga aylansa, u ulkan kuch va qudratga ega bo'ladi. G'oyaviy tarbiyaning maqsadi – jamiyatning har bir a'zosi, ijtimoiy qatlam yoki guruhda ezgu g'oyalarga sadoqat, ularni amalga oshirish uchun mas'uliyat, yot va zararli g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir. Sog'lom g'oyalar natijasida insonda sobit e'tiqod va

yuksak dunyoqarash shakllanadi. Mustaqillik davrida yoshlar ongida Vatanga, milliy qadriyat va an'analarga muhabbat, ota-ona, oila va mahallaga mehr, kasb-hunar va bilimga intilish hissiyoti shakllantirilmoqda. Milliy g'oyaning ta'sir doirasi nihoyatda keng bo'lib, u millatning o'ziga xosligini saqlab turish, millat manfaatlari yo'lida millat vakillarini birlashtirish, uyushtirish va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Milliy g'oyani odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Milliy g'oyani yoshlar qalbi va ongiga singdirishda ta'lim va tarbiya muhim o'rin tutadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ongiga milliy g'oya va mafkura singdirib boriladi. Ta'lim va tarbiyada milliy g'oyani yoshlar qalbi va ongiga singdirish bosqichma-bosqich olib boriladi. Milliy g'oya targ'iboti va tashviqotining dastlabki bosqichi oila tarbiyasidan iborat bo'lsa, keyingi bosqichi maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan g'oyaviy tarbiyadir. Maktabgacha tarbiya muassasalari bolalardagi umumiy savodxonlik va maktabdagi ta'lim-tarbiyaga tayyorlash jarayonining muhim va zaruriy bosqichi sifatida ko'rib o'tiladi. Ta'lim beruvchi barcha muassasalar – maktablar, lisey va kollejlari, oliy o'quv yurtlari g'oyaviy, mafkuraviy ta'lim-tarbiyaning asosiy o'choqlari bo'lib, ularda ta'lim berish jarayonida quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi. G'oyaviy, mafkuraviy ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarda Vatan tuyg'usini shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi. Ona tiliga muhabbat uyg'otish, milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash, oilaviy tarbiyada vatanparvarlikka e'tiborni kuchaytirish, mahallaning demokratik institut va o'z-o'zini boshqarish organi sifatidagi mohiyatiga e'tiborni qaratish ham g'oyaviy, mafkuraviy ta'lim-tarbiyadagi muhim masalalardir. G'oyaviy, mafkuraviy ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanligi kabi jihatlariga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy g'oya va mafkurada dinning insonparvarlik mohiyati va davlatning dunyoviylik tamoyili masalalariga ham katta e'tibor qaratilgan.

G'oyalar adolatli va haqqoniy bo'lib, ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo'lsa, g'oyaviy tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishiladi. G'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yish, sog'lom mafkura tamoyillarini aholi qalbi va ongiga muttasil singdirib borish bugungi kundagi dolzarb masaladir.

O'zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyasining asosiy vazifasi – xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-istaklari, maqsadlarini, Milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir. G'oyaviy, mafkuraviy tarbiya jamiyatda, avvalambor, oila, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, lisey, kollejlar, oliy o'quv yurtlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatini taqozo qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'lim tizimi mafkuraviy tarbiyani olib boruvchi asosiy bo'g'indir, zero mafkuraviy maqsadlarni yoshlar ongiga singdirish vazifasi asosan ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun" degan ezgu g'oya asosida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishga kirishdi. Aholining hayot darajasi va turmushi sifatini yaxshilashga qaratilgan faol ichki va tashqi siyosat olib borildi. O'zbekistonda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan strategik ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni yechish bilan bir qatorda, jamiyatimiz hayotini, fuqarolarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini tubdan o'zgartirishga qaratilgan ko'pqirrali vazifalar ham amalga oshirildi. O'zbekistonda islohotlar jarayonida barkamol insonni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratilib, "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart", shiori olib borilayotgan insonparvar siyosatning mohiyatini tashkil etdi. O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati "Bizga tinchlik va omonlik kerak", shiorida o'z ifodasini topgandir. O'zbekistonning mustaqilligini har tomonlama mustahkamlash, mamlakatimizning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi, xalqimiz farovonligini ta'minlashga qaratilgan ishlar "Ona Vatanimiz va



xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir” degan shiorda o‘z ifodasini topdi. Shu bilan birgalikda O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili amal qilmoqda. Mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashda, “xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” degan tamoyilga tayanilmoqda.

Milliy g‘oya targ‘iboti va tashviqoti yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan g‘oyalar va tamoyillarga tayanilgan holatda olib borilib, ushbu jarayonda quyidagi masalalarga e‘tibor qaratiladi. Milliy g‘oya mustaqillikni mustahkamlash, uni asrab-avaylash va himoya qilish omili bo‘lib, u inson ongini bunyodkorlik g‘oyalariga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Milliy g‘oyani o‘rganish insonda milliy g‘ururni uyg‘otadi va uni doimo o‘zligini bilib yashashga undaydi. Shuning uchun milliy g‘oya Vatan, millatning dardi, orzu-umidlarini, maqsadlarini, sha‘nini baland tutib, uni doimo qalbida saqlagan holda o‘zligini boyitib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **8.4. Inson, uning sha‘ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini ta‘minlashning huquqiy kafolatlari**

Har qanday mamlakatning demokratik taraqqiyotdan ketayotganligini ko‘rsatuvchi muhim belgilardan biri o‘sha mamlakatda insonning sha‘ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklarining himoya qilinishi, ta‘minlanishidir. O‘zbekiston Respublikasining demokratik va huquqiy davlat qurishdan asosiy maqsadi mamlakatda yashovchi har bir insonning huquq va erkinliklarini to‘la ta‘minlashdan iboratdir. O‘zbekiston mustaqilligidan so‘ng insonning sha‘ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini himoya qilish masalasiga katta e‘tibor qaratildi. Inson huquqlariga amal qilishni ta‘minlovchi vositalardan biri – har bir insonning o‘z huquqini yaxshi bilishi, huquqiy ong va madaniyat darajasining yuqori bo‘lishidan iboratdir. Asosiy qonunimizga “davlat, uning idoralari va mansabdor shaxslari jamiyat va fuqarolar oldida mas‘uldirlar”, degan modda kiritilgan, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, –

Endilikda inson, uning hayoti, ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi”<sup>1</sup>. Har bir jamiyatning yetakchi kuchi bu inson bo'lib, inson jamiyatning rivojlanishida, uning tarkib topishida eng asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida insonning jamiyatda tutgan o'rni masalasi eng muhim masalaga aylanib bormoqda. Inson huquqlari davlat tomonidan ruxsat etilgan, man etilgan va uning o'z xohishi bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan huquqlarga bo'linadi. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish, davlatimiz ishlarini rivojlantirish, mustaqilligimizni mustahkamlashga qaratilgan 200 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Inson qonun doirasida o'ziga berilgan huquq va erkinliklarni hamda burchlarni aniqlaydi, unga rioya etishga harakat qiladi. Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari – insonga bekamu ko'st yashash imkoniyatini beruvchi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy sohalarda o'zining imkoniyat va talablarini amalga oshirishni ta'minlovchi huquqiy maqomdir. Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish O'zbekiston Respublikasi konstitusiyaviy tuzumining asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida qayd etilgan huquq va erkinliklar qonunlarning mazmuni qo'llanilishiga hamda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining inson huquqlariga doir davlat siyosatida insonning huquq va erkinliklari jamiyatda qonunchilik asosida mustahkamlanib, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy kafolatlar tizimi bilan ta'minlangandan keyingina amalga oshishi mumkinligi masalasi muhim o'rin egallaydi. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, Konstitusiyaning 13-moddasida, “O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi<sup>2</sup>, deyilgan. Qadr-qimmat tushunchasi insonning o'z qadrini, bu dunyoda uning hayoti oliy qadriyat ekanligini, o'z shaxsi oldida o'zi mas'ul ekanligini anglashi

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. 102-бет.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 7-бет.

uchun xizmat qiladigan hissiyot bo'lib, u sha'n, nomus, g'urur tushunchalari bilan bog'liqdir.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy qadriyatlar talablari darajasida shakllandi. O'zbekistonning bosh maqsadi – erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlatni barpo etishdan iborat bo'lsa, mustaqillikning asl mohiyati insonni va uning hayotini ulug'lashdan iboratdir. Mustaqillikning dastlabki paytidan boshlab O'zbekistonda inson huquqlari va ularni ta'minlash vazifasi davlat siyosatidagi ustuvor vazifalardan biri deb e'lon qilindi. Demokratik taraqqiyot yo'lini tanlab, insonparvar davlat qurish yo'lidan ketayotgan davlatlar qatori O'zbekiston ham o'z Konstitusiyasida insonlarning tabiiy, ajralmas huquqlari mavjudligi va barcha insonlar o'z qobiliyati, ijtimoiy kelib chiqishi, milliy, mafkuraviy mansubligiga ko'ra har xil bo'lishiga qaramay, qonun va sud oldida tengligi to'g'risidagi insonparvar qoidalarni oliy maqomda mustahkamlab qo'ydi. Inson shaxsining kamoli uchun erkin fuqarolik jamiyati zarur bo'lib, faqat shunday jamiyatdagina shaxs o'zining barcha qobiliyatlarini to'la amalga oshiradi. Bugungi kunda dunyoda inson va fuqaro huquqlari bo'yicha 300 dan ko'p xalqaro-huquqiy hujjat amal qilib turibdi. O'zbekiston mustaqillikdan so'ng inson huquqlariga doir xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga qat'iy rioya etishini butun xalqaro hamjamiyatga e'lon qildi. O'zbekiston tomonidan inson huquqlari bo'yicha oltmishdan ortiq konvensiya imzolangan. Mustaqillik davrida O'zbekistonda huquqqa munosabat tubdan o'zgarib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining eng muhim vazifasi qonuniylikni ta'minlash, insonning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini amalda oliy qadriyat darajasiga ko'tarish, asossiz jinoiy ta'qib va xususiy hayotga aralashish holatlariga yo'l qo'ymaslik, shaxsiy daxlsizlik huquqlari samarali muhofaza etilishini ta'minlash hisoblanadi. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari tizimida eng muhim va birlamchi huquq va erkinliklar – bu eng avvalo shaxsiy huquq va erkinliklardir. Chunki, kishilarning shaxsiy huquq va erkinliklari ta'minlanganidan keyingina Konstitusiya, qonunlar va qonun hujjatlarida mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va himoya qilinadigan boshqa huquq va erkinliklarni ta'minlash uchun shart-sharoit yaratiladi.

Har bir shaxsning huquqi va qonuniy manfaatlarining kafolatli himoyasini ta'minlash, fuqarolarning qonun oldida tengligi tamoyilini hayotga izchil tatbiq etishga qaratilgan sud-huquq islohotlari bugun o'zining yuksak samaralarini bermoqda. O'zbekistonda sud-huquq tizimini chuqur isloh qilish va liberallashtirish, sud hokimiyatining amaldagi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha mamlakatimizda keng miqyosli ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda 2008 yil 1 yanvardan boshlab o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida, shuningdek, fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini prokuraturadan sudlarga o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarining amalga joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimizda dunyodagi eng insonparvar, liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi. Jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida fuqarolar o'z huquq va erkinliklaridan to'g'ri foydalanishlari va zimmlariga yuklatilgan burchlarni halol, ixtiyoriy va vijdonan bajarishlari lozim bo'lib, bular ma'lum bir ta'moyillar asosida amalga oshiriladi. Bu tamoyillarga qonuniylik, teng huquqlilik, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarining uyg'unlashganligi, huquq va burchlarning birligi tamoyillari kiradi. Qonuniylik barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan O'zbekiston Konstitusiyasi, respublika qonunlari va boshqa huquqiy hujjatlarning aniq va og'ishmay bajarilishida o'z ifodasini topadi. Qonuniylik fuqarolarda ishonch tug'diradi, qonunning adolatliligi uning inson va jamiyat mustaqilligi ehtiyojlariga mosligidan kelib chiqadi. Teng huquqlilik tamoyili respublika fuqarosi huquqiy maqomining asosiy xususiyati bo'lib, u hamma fuqarolar huquqlari va burchlarining tengligini bildiradi. Fuqarolar belgilangan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklardan foydalanishda ham teng huquqlarga egadir. Fuqarolarning o'z huquqlari va erkinliklaridan keng foydalanishlari ularning faolligini oshiradi va davlat oldida turgan vazifalarning bajarilishini osonlashtiradi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Insonparvarlik deganda nimani tushunasiz?

2. Milliy g'oyada avlodlararo vorislik va yangilanish qanday namoyon bo'ladi?
3. Jamiyatda yangi g'oyalar tizimi qanday tamoyillar asosida rivojlanadi?
4. Istiqloлга asoslangan yangi g'oyalar tizimida mafkuraning rolini tushuntirib bering?
5. Insonparvarlikning ma'naviy ta'sirchanligi nimalarda aks etadi?
6. Yangi g'oyalarning mafkuraviy samarasini oshirish usullari va yo'llarini aytib bering?
7. Inson, uning sha'ni va qadr-qimmatining huquqiy asoslari qanday me'yoriy hujjatlarda ifodalangan?
8. Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlashda asosiy qomusimizning rolini tushuntirib bering?

## **9-BOB. INSON ERKINLIGI, HUQUQ VA MANFAATLARINING MILLIY G'UYADA AKS ETISHI**

### **9.1. Inson erkinligi, huquq va manfaatlari tushunchasi, uning ma'nomazmuni**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy-demokratik davlatni qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Mazkur jarayonda insonga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, biz bugun yurtimizda erkin va ozod, adolatli, insonparvar jamiyat barpo etmoqdamiz, – deydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Shu borada, avvalo, odamlarimizning halol mehnatiga hurmat bilan qarash, ularning qadr-qimmatini munosib baholashni biz o'zimizning bosh maqsadimiz, deb bilamiz. Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida insonga aynan mana shunday munosabat mustahkam qaror topdi. Shuning uchun ham mamlakatimiz ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Va bu yutuqlar jahon hamjamiyatining hayrati va havasini uyg'otmoqda. Ana shunday ijobiy o'zgarishlar asosida odamlarimizning dunyoqarashi, ongu tafakkuri yuksalmoqda. Ularning hayotga, mehnatga munosabati tubdan o'zgarmoqda. O'z kuchi va imkoniyatlariga, ertangi kunga bo'lgan ishonchi mustahkamlanmoqda<sup>1</sup>. O'zbekistonda shakllanayotgan milliy g'oya va mafkura insondagi moddiylik va ma'naviylikni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarning farovon, boy-badavlat, mulkdor, barcha qulayliklarga ega bo'lishini inkor etmaydi, aksincha, ularni tadbirkor, uddaburon va mehnatsevar bo'lishga rag'batlantiradi. Yuksak ma'naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolat o'rnatib, sahiy va oliyhimmat bo'lishga undaydi. Insonning erkinligi demokratik qadriyatlar tizimida alohida o'rin tutadi. Erkinlik – insonning intellektual-ma'naviy kamolotga erishuvining

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 96-бет.

zarur sharti bo'lib, erkinlik tufayli inson yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etadi, shaxsiy mas'uliyat va insoniy burchini to'la his etadi. Shaxs erkinligi avvalo, axloqiy, so'z, vijdon, matbuot erkinligida ro'yobga chiqadi. Demokratik jamiyat shaxs erkinligini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish bilan cheklanib qolmay, ilm-fan, san'at, din, huquq va boshqalarni rivojlantirishga ham e'tiborni qaratadi. "Erkinlik" tushunchasi o'z hatti-harakati, xulq-atvori va faoliyati uchun javobgarlikni his etadigan, ma'naviy jihatdan barkamol insonga nisbatan qo'llaniladi. Demokratik huquqiy davlatlar oldida turgan eng asosiy vazifa – inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. O'zbekiston mustaqilligidan so'ng shaxs – ya'ni inson, uning huquq va manfaatlari, shaxsiy daxlsizligi masalalari eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi, barchaning qonun oldida tengligi tamoyili o'rnatildi. O'zbekiston Konstitusiyasining 13-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Konstitusiyaning ikkinchi bo'limida insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari hamda bevosita inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari ko'rsatib o'tilgan. O'zbekistondagi barcha o'zgarish va yangilanishlar "Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun" degan hayotiy qoida asosida amalga oshirilmoqda. Taraqqiyotning "o'zbek modeli"dan ko'zlangan asosiy maqsad insonlarning erkinligi, huquq va manfaatlarining to'la ro'yobga chiqishini ta'minlovchi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratildi. Har qanday taraqqiyotning pirovard maqsadi va muvaffaqiyat mezonini bo'lgan inson uchun tanlovning kengayishi, o'z erkinligini amalga oshirish, uzoq va sog'lom turmush kechirish imkoni, bilim olish va munosib hayot darajasining yaratilishi jamiyat rivojida muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, yosh avlodning qalbi va ongiga milliy g'oyaning singdirilishi bilan bog'liqdir. O'zbekistonda ma'naviy meros, milliy qadriyatlarning tiklanishi,

yoshlarni har tomonlama yetuk, ma'nan yuksak, komil inson qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy-ma'naviy yangilanish, qadriyatlarimizning qayta tiklanishi taraqqiyot omiliga aylandi. Millat o'zligini qanchalik chuqur anglasa, o'zining izzatini, qadr-qimmatini joyiga qo'ysa, uni boshqalar ham ulug'laydi, hurmat qiladi. Vatanimiz kelajagi bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun millatimizning har bir vakili o'z farzandini milliy g'oyamiz, qadriyatlarimiz, tilimiz, qadimiy tariximiz, madaniy boy o'tmishimizda chuqur iz qoldirgan buyuk siymolarimizga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga insonparvarlik, baynalmilallik, samimiylik va bag'rikenglik ruhida ham tarbiyalashimiz bugungi kunda har qachongidan ham zarurroqdir. Ma'naviy barkamollik insonning ruhiy poklanishi, axloqiy ong va hissiyotlarga ega bo'lishi, halol va pok yashashni, mustahkam e'tiqodga ega bo'lishni oliy maqsad deb bilishidir. Ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar milliy g'oyamizning ajralmas qismi bo'lib, u xalq ongining o'sishi va turmush madaniyatining rivojlanishida, barkamol shaxsning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Erkinlik ijodiy yaratuvchi, faol, o'z oldiga qo'ygan maqsadi sari harakat qiluvchi insonning ehtiyoji bo'lib, uning tabiati bilan bog'liqdir. Shaxsning maqsadga muvofiq faoliyati jarayonida uning erkinligi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda namoyon bo'ladi. Shaxs erkinliklari, uning davlat bilan o'zaro burch va majburiyatlari demokratiyaviy konstitusiyalarda qonunlashtirilgan bo'ladi. Unda, birinchi navbatda, xalqning xoxish-irodasi erkin ifodalanishi, shu xalqning hokimiyat manbai ekanligi o'z aksini topadi. Shuning uchun ham xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qilishi lozim. Konstitusiyada shaxsning vijdon, so'z erkinligi, mulkiy daxlsizligi va hokazo huquqlari aks etgan bo'lib, ularda inson borlig'ining asosiy shartlari qamrab olinadi. Har qanday demokratik davlatda shaxs maqomi faollikni nazarda tutadi. O'zining faolligi tufayli shaxs mavjud siyosiy institutlar yordamida jamiyatga muntazam ta'sir ko'rsata oladi. Inson huquqlari va erkinliklari ko'p qirrali masala bo'lib, o'z ichiga kishilarning fuqarolik, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari va erkinliklarini qamrab oladi. Shaxsiy huquq va erkinliklar masalasida yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Har kim erkinlik va



shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanih va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasida har bir inson fikrlash, so'z va e'tiqod qilish, o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Har bir inson mulkdor bo'lishga haqli. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih, dam olish, ijtimoiy ta'minot olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish huquqiga egadir. Har kimga ilmiy, texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Konstitusiyada har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish kafolatlanadi. Aytib o'tilgan insonning huquqlari va erkinliklari uning inson sifatida yashashining zarur sharti va tabiiy ehtiyojlaridir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan keng huquqiy muhit vujudga keltirildi. Ma'lumki, BMT tomonidan 70 ga yaqin, Yevropa Kengashi Bosh assambleyasi tomonidan 160dan ziyod, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ko'proq inson huquqlariga taalluqli xalqaro konvensiyalar, deklarasiyalar, paktlar qabul qilingan bo'lib, hozirgi paytda inson huquqlari bo'yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjatlar mavjuddir. Mamlakatimiz qonunlarini inson huquqlari sohasidagi mazkur me'yor va andozalarga muvofiqlashtirish, bu sohada milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, ular bo'yicha majburiyatlarni bajarishning mexanizmi yaratildi.

Umuman olganda islohotlar markazida insonni oliy qadriyat sifatida baholanishi mamlakatimiz strategik vazifalariga hamohangdir. Xususan, bu boradagi barcha o'zgarishlarning mazmun-mohiyati ham inson va uning qadr-

qimmatini ekanligi bilan hamohangdir. Mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, har bir shaxs va insonlar huquq, erkinlik va manfaatlarga egadir. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda jahondagi demokratik jarayonlar, tinchlik va barqarorlik, inson huquqlari va vijdon erkinligi kabi umumbashariy qadriyatlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat boshqaruvida hokimiyatning bo'linishi tamoyilini amalga oshirishni ta'minlash, jamiyatning siyosiy tizimida parlamentni rivojlantirish, sud hokimiyatining rolini oshirish kabi masalalar O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishning, inson huquqlari himoya qilinishining muhim yo'nalishlari sifatida belgilanib olinib, bu masalada jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" g'oyasi asosida ijobiy natijalarga erishilib kelinmoqda.

## **9.2. Milliy g'oyaning inson erkinligi, huquq va manfaatlari ustuvorligi tamoyiliga asoslanishi**

Milliy g'oya inson erkinligi, huquq va manfaatlari ustuvorligi tamoyiliga asoslanadi. Milliy g'oya – milliy ongni uyg'otuvchi, millatning o'zligini anglatuvchi, o'ziga xoslikka, mentalitetga qiyofa baxsh etuvchi, milliy ruhiyat, g'urur, iftixor, e'tiqod va mas'ullik tuyg'ularini shakllantiruvchi fikrdir. Milliy g'oya har bir insonning o'zini anglashi jarayonida shakllanadi. Milliy g'oya tizimida milliy ong, milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotira, milliy meros, milliy mentalitet muhim o'rin egallab, inson erkinligi, huquq va manfaatlari ham milliy o'zlikni anglash jarayoniga bevosita bog'liq bo'lib hisoblanadi. Erkinlik shaxsning o'z manfaatlariga muvofiq ravishda hatti-harakatlar sodir qilish imkoniyatini ifodalaydi. Shaxs erkinligi, teng imkoniyatlar, huquqlar hamda burchlar tizimiga asoslanadi. Hozirgi davrda inson salohiyati avvalgidan ham ko'proq ahamiyatga ega bo'lib, huquq va erkinliklarga ega, o'ziga to'q, sog'lom aholi, yaxshi ta'lim olgan va malakali insonlar jamiyat yuksalishida asosiy omil hisoblanadi. Bugungi kunda milliy g'oyada aks etayotgan muhim qadriyatlarimizdan biri inson omiliga asoslangan holda farovon hayotga erishishdir. Mustaqillik davrida har bir insonning, fuqaroning qobiliyat va imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishlari uchun

imkoniyat yaratildi. O'zbekiston fuqarolarini jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash masalasi millat g'oyasi sifatida e'tirof etildi. Insonning huquqi, erkinligi va manfaati erkin hayot orqali namoyon bo'ladi. Erkin hayot – bu insonning o'z ixtiyori, qobiliyatini erkin namoyon eta olishidir. Jamiyat hayoti erkin bo'lgan joyda taraqqiyot bo'lib, inson o'z salohiyatini, qobiliyatini yuzaga chiqara oladi. Erkin hayot insonga qobiliyatini, salohiyatini yuzaga chiqarishga, o'zi sevgan kasb, mehnat faoliyatini erkin tanlashiga imkoniyat yaratadi. Inson jamiyatda erkin faoliyat olib boradi, qobiliyatini erkin namoyon qiladi. Inson o'zining imkoniyati, qobiliyatini o'z Vatani ravnaqi uchun sarflashga harakat qiladi. Uning faoliyati, aql-zakovati bunyodkorlik ishlariga yo'naltiriladi. Jamiyat hayoti turli sohalaridagi erkinlik – mulkning xilma-xilligi, bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lgan erkin raqobat, siyosiy institutlar, fikrlar xilma-xilligi, ijtimoiy hayotning erkinlashtirilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Insonning hayotidagi erkinlik uning o'z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun bahslashishi, o'zligini namoyon eta olishi, bunyodkorlik yo'lida orzu-maqсадlarga yetishish uchun yashashi hamda o'z maqsadlariga intilishida ko'zga tashlanadi. Barkamol avlod tarbiyasi milliy g'oyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Har bir alohida shaxs ongi va shuurida shakllangan tuyg'ular, fikrlar va munosabat yaxlit jamiyat, xalqning fikri va g'ururiga aylanganda shunday qudrat kasb etadiki, oqibatda erkin va hur yashash, Vatan tinchligi va har bir oilaning xotirjamligini ta'minlash xalqning e'tiqodi bo'lib qoladi. Shunday qilib, ko'pchilikning maslak va tilaklari, fikrlashi va munosabatiga aylangan g'oya, tasavvur va bilimlar tizimi xalq e'tiqodi deb ataladi.

Inson huquqi, erkinligi va manfaati bugungi kunda, xalqaro munosabatlarni tartibga solishdagi eng muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. 1948 yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi qabul qilinganida ham ushbu masalaga asosiy e'tibor qaratilgan edi. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 1-moddasida, Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak, deyilgan.<sup>1</sup> Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 3-moddasiga ko'ra har

---

<sup>1</sup> Constitution. uz./ uz / pages / humanrights.

bir insonning yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlari kafolatlansa, 7-moddaga ko'ra, barcha odamlarning qonun oldidagi tengligi va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqi e'tirof etiladi. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi Muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, 18 moddada insonning vijdon va din, 19 moddada e'tiqod erkinligi masalalari bayon etilgan. Deklarasiyaning 1-2 moddalarida insonning g'ururi, ozodligi, tengligi va birodarligi masalalari qayd etilgan. Hujjatning asosiy matni uning 4 ta ustunini tashkil etadi. 3-11-moddalardan iborat birinchi ustunda shaxsning yashash huquqi hamda qullikning ta'qiqlanishiga o'xshash huquqlari ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, 12-17-moddalardan iborat ikkinchi ustunda shaxsning jamiyatdagi fuqarolik va siyosiy huquqlari e'tirof etiladi. 18-21-moddalardan iborat uchunchi ustunda ma'naviy, jamoatchilik va siyosiy erkinliklar, xususan, diniy erkinlik va uyushmalarga a'zolik erkinligi kabilar haqida so'z yuritiladi. 22-27-moddalarda esa insonning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari belgilab berilgan<sup>1</sup>.

Inson huquqlari bo'yicha 2018 yil 22-23 noyabr kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi qatnashchilariga tabrigi va murojaatida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Bugun O'zbekiston milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan bir davrda biz "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan bosh tamoyilga amal qilmoqdamiz. Aynan ana shu tamoyil 2021 yilgacha O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Biz parlament vakolatlarini sezilarli darajada kengaytirdik, jamoatchilik nazorati institutlarini mustahkamladik, fuqarolik jamiyatini faol rivojlantirmoqdamiz. Sud tizimi va huquqni muhofaza qilish organlari tubdan isloh qilinmoqda. Oila instituti va jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizini mustahkamlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda, barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro tuzilmalar bilan yaqin sheriklik kengaymoqda, huquqni himoya qilish borasida hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar bilan amaliy muloqot yo'lga qo'yilgan. Biz ana shu muhim ishlarni qat'iy davom ettiramiz. Bizning ustuvor vazifamiz inson salohiyatini

---

<sup>1</sup> <https://kun.uz/news/2018/11/20>.

ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashdan iborat<sup>1</sup>.

Yuqoridagi fikrlarni umumiyLashtirib shunday xulosaga kelish mumkinki, demokratik huquqiy davlatning oldida turgan eng asosiy vazifa – inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. O'zbekiston ham demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan borar ekan, mamlakatda yashovchi kishilarning huquq va erkinliklarini to'la ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yib islohotlarni davom ettirmoqda. O'zbekiston mustaqilligidan so'ng shaxs – ya'ni inson, uning huquqlari, erkinliklari va manfaatlari eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklarining kafolati bo'lgan bir qator xalqaro hujjatlarni ratifikasiya qilgan bo'lib, ularning ichidagi eng muhimlaridan biri, 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasidir. Fuqarolik jamiyatida insonning huquq va erkinliklarining kafolatlari doimiy ravishda davlat himoyasidadir. Mustaqillik yillarida fuqaro erkinligi va uning faolligi masalasi demokratik jamiyat barpo etishning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Fuqaro erkin bo'lgan taqdirda jamiyat yuksak taraqqiyotga erishadi. Demokratiya inson erkinligini qonunlar vositasida kafolatlaydi. Inson huquqlari tushunchasiga davlat himoya qiladigan va kafolatlanadigan barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy dahlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, vijdon va din erkinligi kabi huquqlar kiradi. Insonning o'z huquq va erkinliklariga ega bo'lishi fuqarolarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

### **9.3. Milliy g'oya – barkamol avlodni tarbiyalash omili**

Milliy g'oya O'zbekiston xalqining tub manfaatlari, asriy orzu-umidlari, ezgu niyatlari, buyuk maqsadlarini o'zida ifodalaydi. Yosh avlodni milliy g'oya ruhida tarbiyalash O'zbekiston fuqarolari uchun muqaddas burchdir. Insonni tarbiyalashning muhim jihati g'oyaviy tarbiya bo'lib, g'oyaviy tarbiya insonning ongi va tushunchalari tizimiga hayot haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy,

---

<sup>1</sup> [https // president. uz / uz / 2152](https://president.uz/uz/2152).

estetik, axloqiy, diniy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidan iboratdir. Har qanday tarbiya jarayoni o'z maqsadi va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir. Chunki insonga beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari uning dunyoqarashini kengaytirish, ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. G'oyaviy tarbiya insonning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, axloqiy tamoyillar, go'zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Jamiyat hayotida mafkura muayyan ijtimoiy guruh a'zolariga xos o'zlaridagi mavjud ehtiyojlar, tilak, orzu, umidlar hamda manfaatlar asosida o'sha guruhning qarashlari, tasavvurlari dunyosi hamda g'oyalarining mahsuli sifatida yaratiladi. Mafkura insonni o'z yurti bilan faxrlanishga, uning kelajagi uchun qayg'urish, bu yo'lda tinimsiz izlanish va mehnat qilishga undaydi. O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi. O'zbekistonda barkamol insonni, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatdagi eng muhim masalalardan biridir.

Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan, – deydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda<sup>1</sup>. O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalashning nazariy va metodologik masalalari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlarida, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida va boshqa hujjatlarda har tomonlama ishlab chiqilgan. Shularga muvofiq ravishda, ta'lim tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarish, sog'lom, barkamol, ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligi belgilab berilgan. Inson qanday xulq, axloqiy, madaniy sifatga ega bo'lsa, faoliyat tarzini namoyon etsa, uning qadr-qimmatini ham shunchalik yuksak bo'ladi. Mehnat, aql, idrok, odob-axloq,

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 504-бет.

odamlarga yaxshilik qilish – insonning milliy g'oyaga asoslangan ma'naviy fazilatidir. Insonning ma'naviy kamolotida jismoniy go'zallik ham muhim ahamiyat kasb etib, jismonan baquvvat, sog'lom bo'lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. Inson jismoniy va ma'naviy barkamolligining yana bir muhim jihati uning Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishidir. Inson ma'naviy barkamolligining muhim jihatlaridan biri uning ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikri, oqilona so'zi, amaliy faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikdir. Insonning barkamolligi uning halolligi, mehnatsevarligi, insonparvarligi, adolatliligi, vatanparvarligi orqali namoyon bo'lib, insonda shakllantirilgan mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyati uning tashqi olamga, boshqa insonlarga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Chuqur bilimli, yuksak ma'naviyatli, ishbilarmon, tadbirkor, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ulari kuchli bo'lgan barkamol inson, barkamol avlod Vatan ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qiladi. Insonning Vatan ravnaqi yo'lida olib boradigan fidokorona faoliyati, mehnati Yurt tinchligi g'oyasiga bevosita bog'liq bo'lib, yurtda tinchlik, totuvlik hukmron bo'lsa, Vatan ham ravnaq topadi, xalq ham farovon yashaydi. Vatanning ravnaq topishi, yurtda tinchlik-totuvlikning o'rnatilishi, xalqning farovon hayot kechirishi O'zbekistonda Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotning barpo etuvchilari bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi. Ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalarining jamiyat hayotida amal qilishi ham eng avvalo jamiyat a'zolari bo'lgan insonlarning barkamolligi, fidoyiligi, insonparvarligiga bevosita bog'liqdir. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadlarga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash milliy g'oyaning muhim vazifasidir. Inson barkamolligining muhim jihati boy tarixiy ma'naviy merosga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda insonda milliy g'urur va iftixor tuyg'usining yuksalishidir. Insondagi ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvori me'yorlari, odob-axloqi bilan bevosita

bog'liqdir. Ma'naviy barkamol inson, ma'naviy barkamol avlod Vatan taqdiri va uning ravnaqi, xalq hamda millat taqdiri va farovonligi uchun o'zining barcha kuch va imkoniyatlari, qobiliyatlarini sarflaydi. Yuksak darajada ma'naviyatli barkamol inson, barkamol avlod O'zbekistonda Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etishda o'zining fidoyiligi, jasorati, mardligi, Vatanini qadrlashi, ajdodlaridan faxrlanishi kabi fazilatlari bilan ajralib turadi. Barkamol inson, barkamol avlodda milliy g'urur va iftixor tuyg'usi kuchli bo'lib, milliy g'urur bu o'z xalqining barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlarini, an'analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, asrab-avaylashni o'zida ifodalaydi. Barkamol insonning, barkamol avlodning sharqona fazilatlari ma'naviy merosimizda bir muncha mukammal tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, bular adolatparvarlik, halollik, soflik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik kabilardan iboratdir. Xalqimiz tarixida komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir insonning orzu va armoni deb hisoblangan. Komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lib, u insonni ezgulik, mehr va muhabbat, insonparvarlik, vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

#### **9.4. Barkamol avlodga xos bo'lgan xususiyatlar**

Milliy g'oya O'zbekiston fuqarolarining ma'naviy kamolotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning Vatan ravnaqi yo'lida fidoyilik bilan faoliyat olib borishlari, o'z xalqining buyuk o'tmishidan faxrlanuvchi inson bo'lib tarbiyalanishlarida milliy g'oya muhim o'rin tutadi. O'zbekistonning kuch-qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligida, ulug' ajdodlarimizdan avlodlarga o'tayotgan ma'naviy merosimizning kuchliligida, fuqarolarimizning el-yurtga, ona zaminga bitmas-tuganmas mehrida hamda xalqimizda milliy g'urur va iftixor tuyg'usining yuksak darajada ekanligidadir.



Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat boshqa xalqlar tomonidan to'plangan qadriyatlardan, ilg'or tajribalardan oqilona foydalangan taqdirdagina taraqqiyot yo'liga tusha oladi. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizning milliy mentalitetiga xos bo'lgan xususiyatlardir. Shu bilan birga mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu hayo, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillik kabi xususiyatlar ham xalqimizning milliy ruhiyatiga, mentalitetiga xosdir. O'zbekistonning taraqqiyotida, barkamol avlodni tarbiyalashda boy tarixiy ma'naviy merosni tiklash, milliy o'zlikni anglash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lida jamiyatni yangilash va rivojlantirishning to'rtta ma'naviy-axloqiy negizlariga katta e'tibor qaratilib, bu ma'naviy-axloqiy negizlar – umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi hamda vatanparvarlikdan iborat bo'ldi. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ushbu ma'naviy-axloqiy negizlari asosida barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratildi. Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish masalasiga O'zbekistonda davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi sifatida munosabatda bo'lindi. Barkamol avlodni tarbiyalash va rivojlantirish bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularga quyidagilar taalluqlidir. 1. Axloqiy tarbiya, 2. Huquqiy tarbiya, 3. Ekologik tarbiya, 4. Fuqaroni kasbga yo'naltirish, 5. Iqtisodiy tarbiya, 6. Estetik tarbiya, 7. Mehnat tarbiyasi va 8. Jismoniy tarbiya. Barkamol avlod tarbiyasida milliy g'oya muhim o'rin tutadi. Milliy g'oya barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili bo'lib, barkamol avlodga taalluqli bo'lgan bir qator xislat va xususiyatlar mavjuddir.

Barkamol avlodga xos bo'lgan umumiy xislatlar bu – yoqimlilik, ko'rkamlilik, jozibadorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, ulug'sifatlilik, o'ziga xoslilik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar.

Barkamol avlodga tegishli bo'lgan axloqiy fazilatlar – insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylik, odamiylik, imonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, iltifotlilik, kechirimlilik, mehmondo'stlik, halollik, to'g'rilik, diyonatlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hokazolar.

Barkamol avlodga taalluqli bo'lgan ishbilarmonlik xislatlari quyidagilardan iboratdir – ishchanlik, tirishqoqlik, serharakatlilik, mas'uliyatlilik, insoflilik, halollik, malakalilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, tadbirkorlik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, ta'masizlik, tavakkalchilik va boshqalar.

Barkamol avlodga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rib o'tganda bir qator fazilatlar va xislatlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Barkamol avlodga xos bo'lgan zukkolik, idroklilik fazilatlariga quyidagilar kiradi – zehnlilik, ba'manilik, xotirjamlik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topqirlik, notiqlik, tanqidiylik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik va boshqalar.

Barkamol avlodga tegishli bo'lgan sobitlik xislatlariga – faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, sabotlilik, birso'zlilik, barqarorlik, dovyuraklik, intizomlilik, jiddiylik, nafsni tiyishlik, o'zini yo'qotmaslik, o'ziga talabchanlik, kamsuqumlik, o'zini-o'zi idora eta bilish va boshqalar kiritiladi.

Barkamol avlodga tegishli bo'lgan ehtiroslilik xislatlariga – ko'tarinkilik, tantanavorlik, kelajakka ishonch, ezgulik, olijanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, hayolilik va hokazolar taalluqlidir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barkamol avlodga taalluqli bo'lgan fazilatlar va xislatlarning fuqarolar ongi va qalbiga singdirilishi ularni barkamol, sog'lom va komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Barkamol avloddagi g'oyaviy, mafkuraviy tarbiya eng avvalo, yuksak iymon-e'tiqod, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyat, vatanparvarlik, fidoyilik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi. Mustaqillik yillarida milliy g'oya asosida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash barkamol avlodda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z kasbi, maslagi va e'tiqodiga sadoqatni nazarda tutadi. Milliy g'oyaning asosiy maqsadlaridan biri har

tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Barkamol avlod – ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, ezgu g'oyalar va o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi insonlarni, o'z Vataniga halol xizmat qiluvchi fuqarolarni o'zida ifodalovchi tushunchadir. Barkamol avlodning muhim fazilati vatanparvarlik bo'lib, Vatanning ravnaqi avvalo uning fuqarolarining kamolotiga bog'liqdir. Barkamol avlodni mard va jasur qilib tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini yuksaltirish, fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy g'oya va mafkuraning muhim vazifasidir.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Inson erkinligi, huquq va manfaatlari tushunchasining fuqarolik jamiyatida tutgan rolini tushuntirib bering?
2. Milliy g'oyaning inson erkinligi, huquq va manfaatlari ustuvorligi tamoyilini tushuntirib bering?
3. Yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalashda milliy g'oyaning rolini tushuntiring?
4. Barkamol avlodga xos bo'lgan milliy xususiyatlarni aytib bering?

## **10-BOB. MILLIY G'UYADA SIYOSIY INSTITUTLAR VA MAFKURALAR XILMA XILLIGI TAMOYILI**

### **10.1. Siyosiy institutlarda va siyosiy jarayonlarda turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishi**

Bugungi kunda O'zbekistonda kechayotgan faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishni talab etmoqda. Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga izchil va bosqichma-bosqich o'tish bu davrning asosiy xususiyatidir.

Ikki palatali parlamentning shakllanishi, Prezident vakolatlarining bir qismini yuqori palata – Senatga o'tkazilishi, Bosh vazir huquq va vakolatlarining kuchaytirilishi "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitusiyaviy qonunning qabul qilinishi bilan yanada amaliy tusga kirdi.

Siyosat jamiyatning asosiy sohalaridan biri bo'lib, jamiyatning boshqa sohaları kabi xalqqa va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi. U jamiyatning birligi va yaxlitligi, xavfsizlik va barqarorligi, tinch-totuvligi va osoyishtaligini ta'minlovchi sohadir. Siyosat jamiyatni boshqarish, tartibga solish va mustahkamlash uchun uning barcha sohalariga, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarga chuqur kirib boradi va ta'sir o'tkazadi. Hozirgi paytda siyosiy institutlar xilma-xilligining siyosiy jarayonlarga bo'lgan ta'sirining oshib borishi kuzatilmoqda. Zamonaviy demokratik siyosiy institutlar – ikki palatali parlament, ko'ppartiyaviylik, turli ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar siyosiy hayotni demokratlashtirishga tobora kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. Siyosiy tizim jamiyatda siyosat, hokimiyat va boshqaruvni shakllantirish hamda amalda ro'yobga chiqarish

bilan bog'liq munosabatlar, harakatlar, tashkilotlar yig'indisidan iborat bo'lib, siyosiy tizimni tashkil etuvchi elementlar siyosiy hokimiyatni shakllantirish va amalga oshirishdagi o'rniga qarab quyidagi to'rtta kichik tizimlar guruhiga ajratiladi. 1. Tashkiliy tizim bo'lib, bu tizimga davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar kiradi. 2. Madaniy-mafkuraviy tizim bo'lib, bu tizimga siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura va jamoatchilik fikri taalluqlidir. 3. Me'yoriy tizim bo'lib, bu tizim siyosiy-huquqiy, tashkiliy, axloqiy, siyosiy va boshqa me'yorlardan iboratdir. 4. Axborot-kommunikasiya tizimi bo'lib, bu tizimga ommaviy axborot vositalari va ularning kommunikasiyalari hamda ilmiy infratuzilmalar kiritiladi.

Xalq hokimiyatchiligi, demokratik maqsadlar va ideallarni amalga oshirish uchun real istiqboli ko'proq barqaror bo'lgan siyosiy tizim turi – demokratiyadir. Demokratik siyosiy tizimning asosiy xususiyatlari – fuqarolarning siyosatga keng jalb etilganligi, ular huquqlari va erkinliklarining kafolatlanganligi, hayot darajasining yuqoriligi, rivojlangan o'rta tabaqaning muhim rol o'ynashidan iboratdir. Demokratik siyosiy tizimda hokimiyatni amalga oshirishda hokimiyat institutlari va shaxslar keng ishtirok etadi, rahbarlik ko'ppartiyaviylik shaklida tashkil etiladi. Xalqning xohish irodasi parlament shaklida ifoda etilib, qonun chiqaruvchi organlar saylovlar asosida shakllantiriladi. Shu asosda demokratik siyosiy madaniyat shakllantiriladi, davlatni boshqarishda fuqarolar huquq jihatidan teng bo'ladilar. Siyosiy tizimni shakllantirishda milliy davlatchilik negizlariga tayanish va an'analarni hisobga olish natijasida hokimlik institutining tarixiy-siyosiy qadriyat sifatida tiklanishi, ko'ppartiyaviylikning shakllanishi, o'z-o'zini boshqarish organi – mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilganligi, milliy parlament – Oliy Majlisning ikki palatali qilib shakllantirilishi, saylov tizimiga muqobillik, ko'ppartiyaviylikning chuqur kirib borayotganligi, jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tuzilmalarining o'rni tobora oshib borayotganligi islohotlar jarayonining tarkibiy qismlaridir. Sud-huquq tizimini chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi konsepsiya hayotga tatbiq etilishi natijasida sudlar ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlar tashkil etildi. 2008-yil 1-yanvardan mamlakatda o'lim jazosi bekor qilindi, shuningdek, fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish

huquqi prokuraturadan sudlarga o'tkazildi. O'zbekistonni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlodni tayyorlash maqsadida 1997 yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. O'zbekistonda davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi asosiy vazifalar, parlament roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazish, nohukumat va jamoat tashkilotlarining nufuzi va ta'sirini kuchaytirish, sud-huquq tizimini isloh qilish va liberallashtirish, matbuot, televideniye, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, senzurdan xalos bo'lish, axborot erkinligini ta'minlash, aholining ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish vazifalari belgilab berildi.

O'zbekistonning inson huquqlariga doir davlat siyosatida insonning huquq va erkinliklari jamiyatda qonunchilik asosida mustahkamlanib, iqtisodiy, siyosiy, yuridik, tashkiliy kafolatlar tizimi bilan ta'minlandi. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muhim o'rin tutib, O'zbekistonda kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari faol ish olib bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatdagi asosiy maqsad bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishdir. O'zbekistonda inson huquqlari eng oliy qadriyat bo'lib hisoblanib, bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning siyosiy qurilishi, iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotida tub ijodiy o'zgarishlar, yangilanish jarayonlari sodir bo'ldi va bu jarayon davom etmoqda. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilgan saylovlar natijasida ikki palatali parlament shakllanib, faoliyat yuritmoqda. Sud-huquq tizimi sohasidagi islohotlar o'zining hal qiluvchi bosqichiga ko'tarildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra ijro hokimiyatining samaradorligini tubdan yaxshilashni ta'minlashga qaratilmoqda. O'zbekiston mustaqilligidan so'ng mamlakatimiz fuqarolari siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini oshirish, huquqiy

ongi va madaniyatini yuksaltirish, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida ko'pgina ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda inson huquqlari va uni ta'minlash masalasi davlat siyosatidagi ustuvor masalalardan biridir.

## **10.2. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishi**

Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimi qaror topgan bo'lib, "partiya" atamasi lotincha "pars" so'zidan kelib chiqqan va "qism", "bo'lak" degan ma'nolarni bildiradi. Siyosiy partiya deganda fuqarolarning muayyan siyosiy maqsadlar atrofida birlashgan va muayyan siyosiy tashkilotlarga uyushgan qismi, tushuniladi. Siyosiy partiyalar bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida xalq bilan hokimiyat o'rtasida asosiy bog'lovchi bo'g'in bo'lgan demokratik institutga aylandi. Siyosiy partiya muayyan guruh yoki qatlamning maqsad va manfaatlarini ifoda etuvchi, uni umumdavlat va umummillat manfaatlari bilan uyg'unlashtirgan holda faoliyat ko'rsatadigan, rivojlanishning siyosiy yo'nalishlarini aniqlab beradigan siyosiy tashkilotdir. Siyosiy partiya muayyan siyosiy dastur asosida faoliyat ko'rsatib, siyosiy partiya atrofida jamiyatning muayyan guruhlari, tabaqalari, sinflari ma'lum bir maslak, g'oya asosida birlashadilar. Siyosiy partiyalar, odatda butun jamiyatning emas, balki jamiyatdagi muayyan bir ijtimoiy guruhning, gohida esa aholi qatlamlari katta bir qismining manfaatlarini ifoda etadilar. Siyosiy partiyalar jamiyatdagi muayyan guruhlar manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar. Bu manfaatlar ular uchun ijtimoiy asos, manba bo'lib xizmat qiladi, partiyalar bu manfaatlarni himoya qiladilar va ularni qondirish uchun hokimiyatga erishishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yadilar. Keng jamoatchilikning, butun jamiyatning xayrixohligiga, qo'llab-quvvatlashiga erishish yo'llarini qidirish – siyosiy partiyaning muhim xususiyatlaridan biridir.

Biz yurtimizda ko'ppartiyaviylik tizimini mustahkamlab, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda partiyalarning rolini oshirishga ko'maklashamiz, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Qachonki, siyosiy partiyalarning faolligi oshib, parlament faoliyati doirasida ular o'rtasida sog'lom raqobat va bahs-munozara

muhi shakllansa, shundagina vakillik hokimiyati organlari ham samarali faoliyat ko'rsatadi. Buni hayotning o'zi hammamizga har kuni ko'rsatayapdi. Agar rahbarlarimiz xalq vakillari bilan maslahat qilib ish tutsa, xato kam bo'ladi. Shuning uchun vakillik hokimiyati organlari ishi samarali bo'lishida partiyalarimiz faolligini oshirishimiz shart. Xalq deputatlari mahalliy kengashlarida partiya guruhlarining vakolati va rolini oshirish, ayniqsa, ijro hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilish borasidagi ta'sirini yanada kuchaytirish zarur, deb hisoblaymiz<sup>1</sup>.

O'zbekistonda siyosiy partiyalar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tarkibiga, demokratik parlamentning asosiy omiliga aylanib, siyosiy partiyalar o'zlarining jamiyat siyosiy tizimida egallagan mavqelaridan kelib chiqib dasturlar ishlab chiqadilar, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'llarini belgilab beradilar. Shu orqali jamiyat va davlat rivojiga o'z hissalarini qo'shadilar. Siyosiy partiyalar siyosiy jarayonlarning jamoatchilik nazorati ostida kechishini ta'minlashga yordam berish bilan birga davlatni jamiyatning turli ijtimoiy guruh va qatlamlari bilan bog'lab, ular o'rtasidagi mushtaraklikni yanada kuchaytiradilar. Bugungi kunda mamlakatimizda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston ekologik partiyasi ya'ni beshta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga 1991 yil 1-noyabrda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida asos solingan bo'lib, XDPning asosiy dasturiy maqsadi, bosh siyosati, kundalik faoliyatining asosiy qismi sifatida xalqimiz mehnat ahli, har bir oilaning moddiy va ma'naviy, barkamol bo'lishiga keng imkoniyatlar yaratish, fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, dini, mazhabi, millatidan qat'i nazar, barcha insonlarning sha'ni, qadr-qimmati, tinch hayotini ishonchli himoya qilish belgilangan. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi mamlakatimizning ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga va himoyaga ehtiyoji bor fuqarolari manfaatlarini ifodalaydi va ularni ijtimoiy jihatdan himoya qiladi. Bular – iqtisodiyotda band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan va ishga

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимишни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 44-бет.



joylashishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan odamlar, doimiy ish joyi va muqim maoshga ega bo'lmagan aholi qatlami, boshqa ijtimoiy sohalarning xodimlari va mutaxassislari, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar, pensionerlar hamda imkoniyati cheklangan kishilardan iboratdir. Partiyaning markaziy nashrlari "O'zbekiston ovozi" va "Golos Uzbekistana" gazetalaridir.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar o'rtasida xronologik jihatdan ikkinchi o'rinda turadigan partiya O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasidir. O'zbekiston ASDP 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan bo'lib, partiya ijtimoiy tarkibini, asosan, ziyolilar, yoshlar, ishchilar va aholining boshqa qatlamlari tashkil qiladi. O'zbekiston ASDP o'z dasturida O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashni siyosat sohasidagi asosiy vazifa deb biladi. "Adolat" sosial-demokratik partiyasi mamlakatimizda mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslikni o'zining muhim vazifalaridan biri qilib belgilagan. Partiya dasturida jamiyatda adolat mezonining buzilishiga qarshi kurash olib borish vazifasi qayd etilgan bo'lib, bu vazifa jamiyatda adolatni, haqiqatni qaror toptirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, demokratik yuksak onglik, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga amal qiluvchi fuqarolarni tarbiyalashdek tadbirlar bilan hamohang tarzda amalga oshiriladi. O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasining asosiy maqsadi demokratik huquqiy davlatni, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda hamda O'zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, birdamligi, konstitusiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlangan ma'naviy jiplashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etishdan iboratdir. "Adolat" ijtimoiy-siyosiy gazetasi O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasining rasmiy nashri hisoblanadi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalardan yana biri O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi hisoblanadi. O'zbekiston MTDP 1995 yil 3-iyundagi ta'sis qurultoyida tashkil topgan edi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining asosiy maqsad-vazifasi milliy an'analarni va qadriyatlarni saqlashdan iboratdir. Partiya huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, fan-texnika taraqqiyotini va O'zbekistonning globallashib borayotgan dunyoda munosib o'rin egallashini

ta'minlashni yoqlaydi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi biz faxrlanadigan milliy an'analar va qadriyatlarimizni saqlab qolish tarafdorlari bo'lgan insonlar manfaatlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bunday shaxslar partiyaning asosiy ijtimoiy qatlamidir. Partiya mustaqillik yillarida boshlangan milliy qadriyatlarni tiklash, o'zlikni anglash, milliy g'oyalarni shakllantirish va milliy mustaqillik mafkurasini mustahkamlash, xalqning ma'naviy hayotida diniy an'analarni tiklash kabi xayrli ishlarni izchil bosqichma-bosqich va tizimli ravishda davom ettirish tarafdoridir. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining asosiy siyosiy shiori - "O'zbekiston fuqarosi ongida o'z mamlakatining tarixiy o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi uchun faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash va mustahkamlash"dan iboratdir. Davlatning yangi xalqaro sharoitlarda va geosiyosiy voqelikda milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish yuzasidan amaliy qadamlarining taktik va strategik maqsadlari va vazifalari zahirida milliy tiklanish va rivojlanishning umumiy mafkurasi va keng qamrovli dasturi mavjudligi – bizning muqaddas orzumiz va strategiyamiz bo'lgan yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi – umummilliy g'oyasi atrofida jamiyatimizni birlashtirishga asoslangan yo'lini O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi ya'ni O'z.MTDP qo'llab quvvatlaydi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining matbuot nashri "Milliy tiklanish" ijtimoiy-siyosiy gazetasidir.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2003 yilning 15-noyabrida tashkil topib, O'zLiDeP mulkdorlar sinfi, kichik biznes, fermer xo'jaliklari, ishlab chiqarish va boshqaruvdagi yuqori malakali mutaxassislar hamda ishbiarmon kishilar manfaatini ifoda etib, himoya qiladi. Tadbirkorlar va ishbiarmonlar manfaatlaridan kelib chiqqan holda O'zLiDeP quyidagilarni o'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida belgilagan. Eng avvalo O'zLiDeP siyosiy kuchga aylanib, tadbirkorlarning yo'lini yanada ochib, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy sohalarda isbotlab berish, manfaatini himoyalash, ertangi kunini ta'minlash, shu ijtimoiy toifa nomidan O'zbekistonning siyosiy sahnasiga chiqishni va o'zining munosib o'rnini egallashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi mamlakatimiz milliy manfaatlariga javob beradigan, uning strategik istiqbollari dasturini Konstitutsiya prinsiplariga suyanib, boshqa

siyosiy partiya va harakatlar bilan ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq qilish uchun partiyaning kuch-imkoniyatlarini safarbar etishni ham asosiy vazifa sifatida belgilagan. O'zbekiston tanlagan ochiq demokratik, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojiga keng yo'l ochib berish va demokratik qadriyatlarni xalqimiz, avvalo, yoshlar ongi va hayotiga singdirish ham partiyaning vazifalaridandir. O'zLiDeP davlatni boshqarish, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta'sir o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, hayotimizdagi muammolarni hal etishda ko'maklashish, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, asrab-avaylashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish, o'zi uchun siyosiy platforma deb tanlab olgan liberal-demokratik g'oyalar va maqsadlarni o'z faoliyati bilan keng omma ongiga singdirish, bu borada har tomonlama chuqur o'ylangan tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish va o'z safini kengaytirishni o'ziga asosiy vazifa sifatida belgilagan. O'zLiDeP yuqorida qayd etilgan vazifalarni o'z ustavida mustahkamlab, amaliy faoliyatida ro'yobga chiqarmoqda. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining matbuot nashri "XXI asr" gazetasi bo'lib, bu matbuot nashri partiya faoliyatini keng yoritish, o'z maqsad va vazifalarini amalga oshirishga, aholini siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga salmoqli hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston ekologik partiyasi 2018 yilning 8 yanvarida tashkil topib, yangi partiya sifatida o'zining faoliyatini boshladi. O'zbekiston ekologik partiyasi – jamiyatning barcha kuchlari, O'zbekistonning bugungi fuqarolari va kelajak avlodlari qulay tabiiy atrof-muhitda yashash huquqiga ega bo'lishlari, aholi salomatligini yaxshilashga, muhofaza qilishga, tabiiy resurslarning barcha manbalaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan say'-harakatlarni safarbar qilishga intiladi. "Sog'lom muhit – inson salomatligi" ekologik partiyaning bosh shioridir.

O'zbekistondagi mavjud siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va Oliy Majlisning "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi (1996-yil 26-dekabr), "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi (2004-yil 29-avgust), "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini

kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitusiyaviy qonuni (2007-yil 11-aprel) asosida amalga oshiradilar. Partiya O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingach, yuridik shaxs maqomini oladi. Bizdagi ko'ppartiyaviylikka asoslangan siyosiy tizim har bir partiya uchun qonun doirasida o'z faoliyatini erkin amalga oshirishda zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Shuning uchun ham siyosiy partiyalar o'z dasturiy maqsad va vazifalarini, mafkuraviy sohadagi ishlarini qayta ko'rib chiqib, ularga zarur o'zgartish va qo'shimchalar kiritishi, bunda jahon tajribasini o'rganish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish foydadan xoli bo'lmaydi,<sup>1</sup> - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi siyosiy jarayonlarda umummilliy ehtiyojdan kelib chiqqan holda partiyalar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda amaliy muqobil takliflar bilan chiqishlari, turli ijtimoiy guruhlarining demokratik jarayonlardagi ishtirokini ta'minlashlari, o'z vakolatlari darajasida xalqni o'z orqalaridan ergashtirib, uni mustaqillikni mustahkamlashga safarbar etishlari zarurdir. O'zbekistonda demokratiyani barpo etish, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlarida siyosiy partiyalar bevosita ishtirok etmoqdalar.

### **10.3. Mafkuralar va fikrlar xilma-xilligining shakllanishi**

Mafkuralar va fikrlar xilma-xilligining shakllanishi demokratik jamiyatning mavjudligi va taraqqiyotining muhim shartidir. Mafkuraviy plyuralizm – ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalovchi tushunchadir. Plyuralizm lotin tilida – xilma-xillik, rang-baranglik degan ma'noni bildirib, O'zbekistonda ilg'or g'oyalar, mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, ya'ni mafkuraviy plyuralizm hukmron bo'lsa, taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyat shunchalik keng bo'ladi. Mafkuraviy plyuralizm ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan yangidan-yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga, turli xalqlar, elatlar, millatlar va siyosiy guruhlarining manfaatlarini umumiy tarzda ro'yobga

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 555-бет.

chiqishiga sharoit yaratadi. U muqarrar suratda ko'ppartiyaviylik tizimini taqozo etadi. Siyosiy partiyalar esa o'zlari mansub bo'lgan qatlamlar, siyosiy guruhlarining manfaatlari, intilishlari, orzu-umidlarini umumlashtirgan holda o'z harakat dasturlari orqali namoyon qiladi. G'oya insonlarni ma'lum bir ehtiyoj, manfaat, e'tiqod asosida birlashtiruvchi omil hisoblanadi. G'oyaning kuch-qudrati, hayotiyligi, uning har bir tarixiy bosqich ehtiyojlari va manfaatlarini nechog'lik o'zida ifodalashi bilan belgilanadi. Milliy mafkura o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi plyuralizm, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to'liq ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilmaxilligi asosida rivojlanadi. Bu qoida faoliyat ko'rsatayotgan partiyalar, harakat va ijtimoiy-siyosiy guruhlardan birortasining dasturiy g'oyalari yagona davlat mafkurasi bo'la olmasligini anglatadi. Milliy mafkura turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sosial fenomen – ijtimoiy hodisa bo'lib, bu mafkurada biron bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi. Milliy mafkura o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning – butun xalqimizning manfaatlarini ifodalaydi.

O'zbekistondagi siyosiy islohotlar jarayonida siyosiy tizim elementlari orasida davlatdan keyin siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari muhim o'rin egallab kelmoqda. Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy qatlam va guruhlar manfaatlarini ifoda etib, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etadilar yoki hokimiyatga bevosita ta'sir ko'rsatadilar. Siyosiy partiyalar tizimi bir partiyaviylik, ikki partiyaviylik va ko'ppartiyaviylikdan iborat bo'lib, hozirgi zamonda ko'ppartiyaviylik tizimi demokratik rivojlanish talablariga ko'proq darajada mos keladi. O'zbekistonda 2007-yilda qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy

partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitusiyaviy qonun huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Kasaba uyushmalari, yoshlar, ijodiy, madaniy, ilmiy va boshqa tashkilotlar jamoat tashkilotlari bo'lib, ular davlat maqomiga ega emaslar va siyosiy hokimiyat uchun kurash olib bormaydilar. Jamoat tashkilotlari mamlakat aholisining barcha qismlarini o'zlarida birlashtirib, ularning qaror va hujjatlari barcha aholi uchun majburiy emasdir. Jamoat tashkilotlari siyosiy maqsadlarni emas, balki ma'lum guruhlarining moddiy, madaniy, ijodiy va ilmiy sohadagi manfaatlarini qondirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yadilar. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilish jarayonida jamiyat siyosiy hayotida demokratiyaning shakllanishi va real hayotga tatbiq qilinishida fuqarolarning siyosiy faolligi katta ahamiyatga egadir. Chunki fuqarolarning siyosiy ishtiroki jamiyat hayotida siyosiy munosabatlarni yangi bosqichga ko'taradi va siyosiy tizimni takomillashtirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekistonning siyosiy tizimi oldidagi muhim vazifalardan yana biri jamoatchilik fikrini inobatga olish va uni amalga oshirish mexanizmini yaratishdir. Hozirgi davrda jamiyat siyosiy tizimining takomillashib borishi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim shartidir. O'zbekistonda kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayonida fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy faolligi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida mamlakatda ko'ppartiyaviylik va siyosiy xilma-xillik rivojlanishi uchun zarur bo'lgan siyosiy huquqlarning keng ko'lami ko'zda tutilgan bo'lib, O'zbekistonda mafkura va fikrlar xilma-xilligiga, ko'ppartiyaviylikka taraqqiyotimizni ta'minlashga yordam beradigan muhim omil sifatida munosabatda bo'linmoqda.

Siyosiy partiyalar roli va ahamiyatining kuchayishi hozirgi sharoitda ularning fuqarolar siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining ayniqsa, saylov jarayonlarida xohish irodasi va fikrini ifodalash, markazda va joylarda davlat hokimiyati organlarini shakllantirishning muhim ta'sir o'tkazuvchi vositasiga aylanishi orqali kechishini anglatadi.

Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri – davlatning siyosiy institutlarda va siyosiy jarayonlarda turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishiga huquqiy asoslar yaratib berish, shuningdek, huquqiy davlat fuqarolari – plyuralistik siyosiy madaniyatga ega bo'lgan shaxslarni shakllantirishdir. Mamlakatimiz fuqarolik jamiyati tomon odimlar ekan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlar, har qanday toifa va guruhlarning intilish va umidlari, har qanday inson e'tiqodi va dunyoqarashi oshkor, erkin izhor etiladi. Siyosiy partiyalar esa demokratik jarayonning muhim instituti sifatida aholining kengroq qamrovi ifodalayotgan g'oyalarni mujassam etish, ular atrofida aholini birlashtirishga intiladi. Har bir siyosiy partiya mazkur g'oyalarni hayotga tadbiq etishda muayyan ijtimoiy tabaqaga tayangani bois, ularning amalga oshirish yo'llari bir-biridan farq qiladi. Shunga qaramay, turli partiyalar tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalar mazkur jamiyatni jipslashtirish, aholi turmush farovonligini yuksaltirishga yo'naltirilganligi bilan umumiylik kasb etadi. Shu bois, demokratik jarayonlar faollashgani sari, har bir siyosiy partiya faoliyatida milliy g'oya targ'ibotiga talab kuchayaveradi.

#### **10.4. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslanishining huquqiy asoslari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 12-moddasida, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas<sup>1</sup>, deyilgan. Jamiyat hayotida ilg'or g'oyalar va mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, yani mafkuraviy plyuralizm hukmron bo'lsa, taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish imkoniyati shunchalik katta bo'ladi. Mafkuraviy plyuralizm ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan yangi-yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ko'ppartiyaviylik, partiyalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, eng avvalo, parlament ishida o'z vakillari

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 6-бет.

orqali ishtirok etuvchi partiyalarning demokratik qonunlar qabul qilish va ularni hayotga tatbiq etish borasida faollik ko'rsatishi, parlament orqali ijroiya hokimiyat faoliyatini nazorat qilib borishi turli manfaatlar va kuchlar o'rtasida muvozanatni vujudga keltiradi. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishida 1996 yil 25 dekabrda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunning ahamiyati muhim bo'ldi. Qonun 17 ta moddadan iborat bo'lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qoidalar asosida faoliyat yuritishlari uchun zarur mezonlar bayon qilingan. Qonunning 5-moddasiga binoan, "davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi"<sup>1</sup>.

Mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi shakllanishining qonuniy asoslari bilan bir vaqtda siyosiy partiyalarda o'z g'oyalarini targ'ib etish imkoniyati ham kengaydi. "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunning 12-moddasiga binoan boshqa vakolatlar bilan bir qatorda o'z mafkuralarini targ'ib va tashviq etish borasida siyosiy partiyalar, o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish, saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish, partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, kabi huquqlarga egadir.

"Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir"<sup>2</sup> – deb ko'rsatilgan. Qarashlar, manfaatlar va maqsadlar

---

<sup>1</sup> Ўзбекистонда сиёсий партиялар. – Т.: Академия, 2007. 197-бет.

<sup>2</sup> Ўзбекистонда сиёсий партиялар. – Т.: Академия, 2007. 200-бет.



mushtarakligi esa – g’oya, mafkura demakdir. Demak partiya mafkurasini **milliy mafkuraning bir bo’lagi, tashkil etuvchi qismi** sifatida talqin etilsa uning mohiyati chuqurlashadi. Binobarin partiya – kishilarning mafkuraviy birlashmasi bo’lib, har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarini himoya qiladi. Siyosiy partiyaning dasturida ushbu partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o’z ifodasini topadi.

Siyosiy partiyalar milliy g’oya targ’iboti va tashviqotida, jamoatchilikni g’oya atrofida birlashtirish va safarbar etishda muhim ahamiyatga ega bo’lib, ular jamoatchilik fikrini tarbiyalaydi, millatning hayotiy manfaatlarini ifodalovchi jamoatchilik fikrini shakllantiradi, milliy g’oya va mafkurani boyitadi, mafkuraviy immunitetni shakllantiradi, ishlab chiqilayotgan qonunlarga milliy g’oyani singdirib, uning amaliyotga tadbiqui yuzasidan monitoring olib boradi, milliy g’oya va mafkurani takomillashtiradi, milliy g’oya va mafkuraning hayotga tadbiqui jarayonidagi to’siqlarni (tahdidni) oldini olish va bartaraf etish kabi funksiyalarni bajaradi.

Respublikamizda mavjud bo’lgan beshta siyosiy partiyalarda bu kabi faoliyatni olib borish uchun barcha huquqiy shart-sharoitlar mavjuddir.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Siyosiy institutlar deganda nimani tushunasiz?
2. Siyosiy partiyaning jamiyatdagi roli nimalardan iborat?
3. Siyosiy partiyalarda fikrlar xilma-xilligi qanday namoyon bo’ladi?
4. Ko’ppartiyaviylik tushunchasini izohlab bering?
5. Jamiyat hayotida mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi qanday shakllanadi?
6. O’zbekiston Respublikasida siyosiy institutlar qanday mafkuralar va fikrlarga asoslanadi?

## **11-BOB. MILLIY G'OYA NEGIZLARINI ASRAB-AVAYLASH, UNI HIMOYA QILISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI**

### **11.1. Milliy g'oyaning negizlari tushunchasi, uning mazmun va mohiyati**

Milliy g'oyaning ma'no-mazmunini belgilaydigan asoslardan biri xalqimizning qadimiy va boy tarixi bo'lib, yurtimizdagi qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'analari, Vatanimizning shonli tarixi, boy tarixiy moddiy va ma'naviy merosi to'g'risidagi tasavvur va tushunchalar, shu muqaddas diyorda yashayotgan har bir inson qalbida g'urur – iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari, san'at durdonalari, milliy qahramonlarimizning ibratli hayoti milliy g'oya va mafkuramiz oziqlanadigan manbalardir.

Har qanday g'oya singari milliy g'oya ham o'zining tub ildizlariga egadir. Shu ma'noda unga kuch berib, rivojlanishi uchun asos vazifasini o'taydigan milliy g'oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlarini yaratish bilan birga, uning rivojlanishiga munosib hissa qo'shish yurtning baxtli kelajagini o'ylagan har bir fuqaro uchun mas'uliyatdir.

Milliy g'oya fanining tarixiy ildizlari o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi, ozod va obod Vatani ravnaqi yo'lida tinmay samarali erkin mehnat qilishi, insoniylikni ulug' fazilat deb bilib, komil insonlarni voyaga yetkazishga yordam beruvchi moddiy va ma'naviy madaniyat yutuqlariga asoslanadi. Milliy g'oyaning falsafiy asoslari deb har qanday g'oya va mafkuraning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun ma'naviy asos bo'lib, nazariy-uslubiy vazifani bajaradigan ilmiy falsafiy ta'limotlarga aytiladi.

Milliy g'oya tamoyillari asosida O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat asoslarining eng qadimgi ildizlaridan biri "Avesto"dir. U miloddan avvalgi IIV-IV asrlarda hozirgi O'zbekistonning Xorazm viloyati hududida yaratilgan ilk davlatchilik to'g'risidagi ijtimoiy-falsafiy, diniy ta'limot hisoblanadi. "Avesto"ni "Hayot yo'riqnomasi", "Qonunlar to'plami", "Bilimlar

majmuasi” deb bejiz atashmagan. Avestoda xalqimizning miloddan avvalgi davrdagi hayoti, dunyoqarashi, olam va odam to’g’risidagi tasavvur, urf-odat va ma’naviy qadriyatlarini, g’oyalari, diniy qarashlari o’z ifodasini topgan. Hozirgi adolatparvar demokratik jamiyat asoslarini yaratishga qaratilgan milliy g’oya bilan hamohang ijtimoiy-falsafiy fikr Avestoda mavjudligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, manbalarda yozilishicha, mahalliy xalqni o’z asoratida tutib turish uchun bosqinchilar mustahkam o’rnashib olish maqsadida “Mahalliy xalq ustidan o’z hukmini yanada mustahkamlash, ular ustidan nazoratni kuchaytirishning zarurligi natijasi o’laroq, boshqaruv apparati, boshqaruv markazi muntazam qurolli kuchlar, nazorat organlari tashkil etila boshlandi. Davlat ana shu tartibda tarkib topa boshladi”<sup>1</sup>. Ana shunday tarixiy sharoitda mahalliy xalqni birlashtirish ob’yektiv zaruriyatga aylanib, qadimgi ma’naviy merosimiz bo’lgan Avestoda milliy g’oyani asrab-avaylash, xalqni jipslashtirish, uni ma’naviy yuksaklikka da’vat etish, odamlar o’rtasida mehr-oqibat tuyg’ularini mustahkamlash va xalq an’analarini saqlab qolish kabi fikrlar ilgari surilgan. Miloddan oldingi IIV-asrda Markaziy Osiyo hududida temirdan yasalgan mehnat qurollari keng tarqalib, mehnat unumdorligi oshdi, jamiyatda mulkiy jihatdan tabaqalanish yuz berib, turli tabaqalar, chorvador va o’troq ziroatkor xalqlar o’rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi. Mana shunday sharoitda jamiyatdagi barcha odamlarning manfaatlariga javob beruvchi mafkuraga ehtiyoj vujudga kelib, bu mafkura vazifasini Avesto bajardi. Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlatlar – Qadimgi Baqtriya va Katta Xorazm davlatlari Avesto bilan bir vaqtda vujudga kelgan bo’lib, Zardo’sht ta’limoti cho’l bilan voha xalqi, kelgindi va o’troq xalqlar o’rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etdi. “Avesto”da davlat boshqaruvi tizimiga doir, jamiyat tarixi va uning rivojlanishiga oid ma’lumotlar o’z ifodasini topgan bo’lib, unda avvalo inson haq-huquqi, manfaati, erki, uning ruhiy, ma’naviy komilligi masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Avestoda “Ezgu fikr, ezgu so’z va ezgu amal”ni amalga oshirish asosiy g’oya bo’lib hisoblanib, barcha insonlar unga da’vat etiladi. Shu bilan birgalikda

---

<sup>1</sup> Тоҳир Карим. Муқаддас “Авесто” изидан. –Т.: Чўлпон, 2000. 122-бет.

zardushtiyalar iymoni mana shu uch soʻz “Ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu amal”dan iborat ekanligi taʼkidlanadi. Avestoda sogʻlom avlod gʻoyasini amalga oshirish masalasida ham bir qator falsafiy fikrlar ilgari surilgan. Oila qurishda yigit va qizning sogʻlom boʻlishi, inson faqat halol mehnat evaziga topilgan rizqni yeyishi, oila qurganda er va xotinning teng huquqliligi masalalariga katta eʼtibor qaratilgan. Avesto Vatanimiz hududida buyuk davlat, buyuk madaniyat, buyuk maʼnaviyat boʻlganidan guvohlik beruvchi bebaho tarixiy hujjat boʻlib, ming yillar, asrlar davomida avlodu-ajdodlar uchun maʼnaviy-ruhiy tayanch, cheksiz kuch-quvvat manbai boʻlib kelgan. Qadimgi ajdodlarimizning ezgu gʻoyalari va milliy davlatchilik anʼanalari aks etgan bu kitobda milliy gʻoyamizning tarixiy negizlari oʻz ifodasini topgandir.

Oʻrta asr Sharq Uygʻonish davrining buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiy oʻzining “Fozil odamlar shahri” risolasida jamiyatni boshqarish tizimi haqidagi ilmiy-nazariy taʼlimotni yaratdi. Forobiyning demokratik jamiyat haqidagi taʼlimotining asosini adolat va axloq, qonunchilik gʻoyasi tashkil etadi. “Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yaʼni mamlakat) shunday boʻladiki, – deb taʼkidlaydi Forobiy, – shu mamlakatning aholisidan boʻlgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma barobar boʻladi, kishilar oʻrtasida farq boʻlmaydi, har kim oʻzi istagan va oʻzi tanlagan kasb-hunar bilan shugʻullanadi. Odamlar chin maʼnosi bilan ozod boʻladilar. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton boʻlmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo boʻladi”<sup>1</sup>.

Odil – demokratik jamiyat barpo etish haqida gap borar ekan, A.Temur va temuriylar davriga alohida toʻxtalmoq lozim. Chunki, bu davrda demokratik jamiyat nazariyasi emas, balki uning real voqelikda namoyon boʻlishi bilan bogʻliq muhim ilmiy-falsafiy gʻoyalarni uchratishimiz mumkin.

Maʼlumki, XII-XIII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasi moʻgʻullar tomonidan bosib olinib, ushbu jarayon shakllanayotgan milliy davlatchilik tamoyillari rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Moʻgʻullar istilosi Markaziy Osiyo xalqlari moddiy va maʼnaviy madaniyati tanazzuliga olib kelib, shaharlar vayron

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: Наврӯз, 1993. 196-бет.

qilindi, aholining ko'pchiligi qirib tashlandi, milliy davlatchilik yo'q qilindi. Ayniqsa, ma'naviy hayotda, iqtisodiyotning izchil rivojlanishida va ijtimoiy munosabatlarda bu ta'sir yaqqol namoyon bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari qattiq jabr-zulm ostiga olindi, mehnatkash mahalliy aholi soliqlardan qattiq ezildi, ularga nisbatan zo'ravonlik siyosati olib borildi. Mo'g'ullar istilosi davrida ming yillar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan moddiy va ma'naviy merosimizga juda katta zarar yetkazildi, ko'plab ilm-fan maskanlari, madrasalar va qiroatxonalar yakson qilindi. Ana shunday, bir murakkab davrda Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi va Markaziy Osiyoda mustaqil davlatchilik tizimini shakllantirishi mamlakatda ichki nizolarni, mahalliy-xalqqa nisbatan adolatsizlikni bartaraf etishga olib keldi. Amir Temurning dunyoda buyuk shaxs, davlat arbobi, mashhur sarkarda, fan va madaniyat homiysi sifatida nom qozonishiga sabab bo'lgan fazilatlar "Temur tuzuklari"da o'z ifodasini topgan bo'lib, ushbu asarda davlatni boshqarish, mamlakatni idora qilish yo'l-yo'riqlari, qonun-qoidalari, pand-nasihatlari o'rin olgandir. "Temur tuzuklari"da do'stlik, vafodorlik, iymon va e'tiqod, kasb-hunar va boshqa insoniy fazilatlarga rioya qilish to'g'risida fikr yuritilgan. "Temur tuzuklari"da ilgari surilgan fikr va g'oyalar bugungi kunda ham katta ahamiyatga egadir.

Yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar dinu oyin asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi, – deydi Amir Temur, – Bunday saltanat yalang'och odamga o'xsharkim, uni ko'rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi – to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi. Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqea va ishni to'ra va tuzuk asosida bajardim<sup>1</sup>. Amir Temur davlatining mafkurasi Islom dinining Hanafiylik mazhabiga asoslangan bo'lsa, to'ra va tuzuk qonun-qoida, qonunlar degan ma'noni bildirib, Amir Temur davlatida davlat boshqaruvi qonunlarga asoslangan holda olib borilishini o'zida ifodalaydi. Ikkinchidan, hayotda, davlat ishlarini boshqarishda odillik, adolat va haqiqatning ustuvorligini

---

<sup>1</sup> Temur tuzuklari. – T.: Fafur Fulom nomiдаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. 57-бет.

ta'minlash uchun kurash masalasi "Temur tuzuklari"da ilgari surilgan asosiy masaladir.

Amir Temurning Markaziy Osiyo xalqlari tarixida adolatli davlat barpo etishdagi tutgan o'rni alohida ahamiyatga molik bo'lib, u markazlashgan yirik davlatga asos solgan buyuk siymodir.

E'tiborli jihati shundaki, musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qilganligi sohibqironning demokratik tizimni ijtimoiy hayotga joriy etish uchun ma'naviyat, mafkura va g'oyaning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Ijtimoiy qatlamlar va guruhlariga tayangan holda faoliyat yuritish hamda ularning manfaatlarini himoya qilish o'sha davr boshqaruvining o'ziga xos jihatlaridan biri edi. Temur esa, davlatni boshqarishda alohida ijtimoiy guruhlar, sinflar manfaatlarini himoya qilmasdan, davlat tizimining qatlamlariga, har bir fuqaroga tayanadi. Saltanatim ishlarini qonun-qoida va intizomga solib, saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim, – deydi Amir Temur, – Saltanatimni o'n ikki toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Bu o'n ikki toifani saltanatim falakining o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n ikki oyi deb hisobladim<sup>1</sup>. "Temur tuzuklari"da aytilishicha, davlat asosini o'n ikki ijtimoiy toifa tashkil qilib, ularga 1) sayyidlar, ulamo, mashoyix, fozil kishilar; 2) ishbilarmon, donishmand odamlar; 3) xudojo'y, tarkidunyo qilgan kishilar; 4) no'yonlar, amirlar, mingboshilar, ya'ni harbiy kishilar; 5) sipoh va raiyat; 6) maxsus ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotiblar; 8) hakimlar, tabiblar, munajjimlar, muhandislar; 9) tafsir va hadis olimlari; 10) ahli hunar va san'atchilar; 11) so'fiylar; 12) savdogar va sayyohlar kiradi. "Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir... Adolat va ozodlik – dastingiz, rahbaringiz bo'lsin"<sup>2</sup>, – deydi Amir Temur.

Markaziy Osiyoda demokratik jamiyat barpo etish va bu jarayonda ma'naviyat, mafkura va milliy g'oyaning naqadar muhimligi haqidagi ta'limotlar tariximizda ham, hozirgi davrda ham nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega

---

<sup>1</sup> Temur tuzuklari. – T.: Faфur Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. 64-бет.

<sup>2</sup> Amir Temur ўgитлари. – T.: Наврўз, 1992. 61-бет.

bo'lib, yirik mutafakkirimiz Alisher Navoiy ham o'z faoliyatida amaliyot bilan nazariyaning birligini mujassam etgan siymolardan biri bo'lib hisoblanadi.

Alisher Navoiy nazariyotchi va amaliyotchi sifatida xalq hokimiyati va davlat siyosatining adolatga asoslanganligini va uning mafkuraviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Uning fikricha, adolatsizlik, fuqarolarning fikrini inobatga olmaslik davlat boshqaruv tizimi tanazzuliga sabab bo'ladi va pirovard natijada demokratik jamiyat emas, balki jamiyatni jaholatga olib keladi.

A.Navoiy o'zining shoh asarlaridan biri bo'lgan "Mahbub ul – qulub" nomli asarida, "Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arzu dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim"<sup>1</sup>, – deydi. A.Navoiyning ijtimoiy-falsafiy ta'limotining asosida adolatli jamiyat g'oyasi yotadi. Adolatli jamiyat esa, kishilarning jamiyat hayotidagi tengligini ta'minlay oladi. Bunday jamiyatga erishishda, nafaqat podshohning adolatliligi, balki kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning yuksak ma'naviyat va mafkura asosida sog'lom bo'lishi lozimligiga e'tibor qaratiladi. Alisher Navoiy dostonlaridagi asosiy g'oya va mavzu mehnatkash xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo'yish, adolat va insof, mardlik va qahramonlik, sof sevgi va muhabbat, halollik va rostgo'ylik, go'zallik va nafosatni ulug'lash, mehnatni butun borliqning boshlang'ich ibtidosi va asosi deb bilishdir. Navoiy dostonlaridagi asosiy qahramonlar – Farhod, Shirin, Layli va Majnun kabi obrazlar insonlardagi barcha ulug' va olijanob fazilatlarini o'zlarida mujassamlashtirgan. Navoiyning xalqchil asarlari uning obro'siga yana obro' qo'shadi. O'zbekiston mustaqilligidan so'ng avlodlarimiz ongida milliy ong, mustaqillik tafakkuri va milliy birlik kabi g'oyalarni shakllantirishda Mir Alisher Navoiyning bosib o'tgan boy, jo'shqin hayot va ijod yo'li hammamiz uchun ibrat va namunadir.

Yurtimizga islom dini kirib kelishi bilan adolatli jamiyat haqidagi tarixiy ma'lumotlarning barcha ko'rinishlarida islom falsafasi, fiqh ilmi arkonlari, ilmi kalom, ilmi hikmat, ilmi rivoyat, tavhid ilmining barcha qarashlari o'z ifodasini topa boshladi. Islomning birinchi ildizi tavhid, ikkinchi ildizi axloq va uchinchi ildizi ilmdir. Qur'oni karimdagi ilm haqidagi, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat

---

<sup>1</sup> Аlisher Navoiy Махбул ул – қулуб. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. 12-бет.

haqidagi g'oyalar umumbashariyatga tegishli bo'lib, unda ilm-ma'rifatga inson ma'naviy-axloqiy barkamolligining ustuvor sohalaridan biri sifatida qaralgan. "Qur'on" kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. "Qur'on"da saxovat, mehmondo'stlik, jasorat, sabr va qanoat, qo'li ochiqlik, bag'ri kenglik, muruvvatlilik, keng fe'llilik, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan va yuksak ma'rifat belgisi deb qaralgan. Hadislar islomda Qur'oni karimdan keyin ikkinchi manba hisoblanadi va xalqning turmush tarzidagi barcha qonun-qoidalarni belgilab beradi. Hadislarda insonning inson oldidagi mas'uliyati "savob" va "gunoh" tushunchalari orqali bayon etilib, hadislar ota-ona, keksalarni hurmat qilish, ayollarni e'zozlash, halollik, qanoat, ilmi bo'lish, saxovat, ishonch, rostgo'ylik, xayr-ehson, diyonat, vafo, qadr, rahm-shafqat, sahiylik, sadoqat, mehr-oqibat kabi masalalar bayon etilgan.

Binobarin, islom dini jamiyatda insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib-tashviq qilib, unda, birovlarning haqiga ko'z olaytirish, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'g'rilik kabi qabih ishlar bilan shug'ullanish, fohishabozlik, poraxo'rlik qattiq qoralanadi. Islom dini odamlarni harom-harish yo'llardan uzoq yurishga, insofli-diyonatli bo'lishga, o'zidan yaxshi iz qoldirishga undaydi. Biz ko'p joylarda jaholatga qarshi ma'rifat tashabbusi bilan chiqyapmiz, deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko'chalarga kirib ketayotgan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya'ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmaydi<sup>1</sup>, deb ta'kidlanishi islomning odil jamiyat qurishda o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatib turibdi.

Ijtimoiy voqelikning turli sharoitlarida O'zbekistonda odil jamiyat, demokratik jamiyat haqidagi nazariyalar va ta'limotlar tarixiga oid misollarning goh unisi, goh bunisi o'z mohiyatini, ahamiyatini ko'proq namoyon qilishi mumkin. Ammo bizning nazarimizda, yuqorida ko'rib chiqqan jihatlar bugungi kunda O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning tarixiy-nazariy asoslari desak, mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, – Т.: Ўзбекистон, 2018. 475-бет.



Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: Xususan, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo'lida birlashishga da'vat etadigan teran ma'noli fikr va g'oyalar bugun ham o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotgan emas. Lekin biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boyluk egalari bo'la turib, ularni har tomonlama o'qib-o'rganish, xalqimiz, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizga, jahon hamjamiyatiga yetkazish bo'yicha yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olish kerak<sup>1</sup>.

Shu o'rinda, ulug' ajdodlarimiz yaratgan boy ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-madaniy meroslarning tiklanib borishi va xalqimiz hayotiga kirib borishini alohida ta'kidlash kerak. Ayniqsa, jahon ilm fani va tafakkuri taraqqiyotida muhim o'rin egallagan ilmiy-falsafiy meros, ma'naviy qadriyatlarimiz demokratik jamiyatning shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Ularni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi kundagi muhim vazifadir.

Kelajagi buyuk davlatni barpo etish jarayonida o'zining tub negizlariga asoslangan milliy g'oyalarimiz O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etish, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini yuksaltirish, insonning qobiliyatini rivojlantirish, uning o'z kuchi va imkoniyatlarini ishga solib, millat taraqqiyoti yo'lida jipslashib bir maqsad sari harakat qilishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk tarixda hech narsa iza ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir<sup>2</sup>. Bugungi kunda boy tarixiy ma'naviy meros va milliy qadriyatlarni tiklash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 82-бет.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, – Т.: Ўзбекистон, 2018. 29-бет.

## **11.2. Milliy ma'naviy meros va umuminsoniy demokratik prinsiplar. Ruhiiy safarbarlik va ma'naviy jipslikning milliy g'oya negizida shakllanishi**

O'zbek xalqi o'zining boy milliy ma'naviy merosi bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Uning ildizlari juda chuqur bo'lib, uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. O'zbekistonda qo'lyozma va toshbosma asarlarning o'zidan yuz mingdan ziyod asarlar mavjud bo'lib, ular Toshkentda Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozmalar instituti, Diniy nazorat, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa joylarda saqlanmoqda.

O'zbek xalqining ma'naviy merosi IX-XX asrlarda yozilgan va fanning barcha muhim sohalariga, matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, minerologiya, fiqh, falsafa, tarix, adabiyotga oid asarlardir. Ma'naviy meros – insoniyat rivojlanishining uzoq davrlar mobaynida tarkib topgan, inson aql zakovatining ifodasidir. O'zbekistonning boy ma'naviy merosi shakllanayotgan yangi ma'naviyatimizning negizini, poydevorini tashkil qilib, ma'naviy merosimizda xalqimizning asriy orzu-intilishlari, bilimlari va tajribalari mujassamlashgan bo'ladi. Milliy g'oya va milliy mafkuramiz ham ma'naviy merosimizga tayangan holda shakllanadi, ayni vaqtda uning yanada rivojlanishida muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy meros xalqning muqaddas xotirasi bo'lib, uning insoniyat tarixi va ma'naviy taraqqiyotidagi tutgan o'rnini belgilab beradi. Ma'naviy merosga ilmiy munosabatni shakllantirishda, eng avvalo, unga aksiologik mezonlarga tayangan holda yondashish taqozo qilinadi. Ma'naviy merosni qadriyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish har bir muayyan qadriyatning taraqqiyotdagi o'rnini to'g'ri baholab, uning milliy istiqlol ma'naviyatini shakllantirishda qay darajada xizmat qila olishini belgilashga imkon beradi. Madaniy merosning qadri abadul-abad tushmaydigan qismiga milliy qadriyatlar deyiladi. O'zbekistonda istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlar qayta tiklanib, milliy qadriyatlarimiz istiqlol madaniyatini yaratishimizda negiz bo'lib xizmat qilmoqda. Milliy qadriyatlarimizning tiklanishi milliy g'oya va milliy mafkuramizda ham o'z ifodasini topib, jamiyatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish,

jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasida olib borilmoqda. Ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi, o'sha davr hayotini aks ettiradi va keyingi avlodlar uchun ma'naviy meros bo'lib qoladi. Har bir avlod mavjud ma'naviy merosga tayanib uni taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi. Ma'naviy meros jamiyatda alohida olingan inson uchungina emas, balki butun jamiyat, xalq uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ma'naviy merosni baholaganda umummilliy manfaatlardan kelib chiqiladi. Ma'naviy merosga aksiologik yondashganda xalqparvarlik va vatanparvarlik mezonlari ham asosiydirlardan bo'lib hisoblanadi. Haqiqiy qadriyat vatanni sevishga, uni ardoqlashga, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun jonini fido qilishga tayyor fuqarolarni tarbiya qilishga bog'liqdir. Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqbol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Milliy g'oya millat tafakkurining mahsuli bo'lib, turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsad-muddaolarini, orzu-umidi va ishonch-e'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga olib boradi. Milliy ma'naviy qadriyatlar va milliy g'oyaning aloqadorligi ularning o'zaro ta'sirida namoyon bo'lib, milliy g'oya qadriyatlarni yanada yuksaltirish, ularni odamlarning ongi va qalbiga singdirish, istiqbol va istiqbolga xizmat qilmaydigan jihatlarini bartaraf qilish vazifalarini ham bajaradi. Milliy g'oya va milliy mafkuraning muhim vazifalaridan biri – kelajakka komil ishonch, erkin va farovon hayotga umid hissini tarbiyalashdan iboratdir. Millatning tub manfaatlari, uning o'z o'tmishiga bergan bahosi va kelajakka ishonchi milliy g'oyada o'z aksini topadi. Yuksak ma'naviyatga, pokiza axloqqa, demokratiya tamoyillariga tayangan milliy g'oya jamiyatni rivojlanishga yetaklab,

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etish jarayonida demokratiyaning butun dunyoda e'tirof etilgan asosiy tamoyillariga bevosita tayanilmoqda. Bu tamoyillar – erkin va adolatli saylovlar, ochiq va hisobot beruvchi hukumat, inson huquqlarining ustuvorligi, hokimiyat organlarining saylanib qo'yilishi, so'z, matbuot va vijdon erkinligining Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanishi, qonun ustuvorligi, fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy huquqlarining mavjudligi hamda ularning tengligi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlar oldida hisob berishda burchliligi, ko'ppartiyaviylik tizimining mavjudligi, umummilliy masalalarning hal etilishida referendumlarning o'tkazilishi, jamiyatda plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi, turli-tumanligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi hamda ularni amaliy hayotga joriy etish masalalari samarasining ortishi kabilardan iboratdir.

### **11.3. Milliy g'oya va milliy ma'naviy meros o'rtasidagi uzviylikning Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida nazariy asoslanishi**

Mustaqillikdan so'ng boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish, milliy g'oya va mafkuraning asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish masalasiga katta e'tibor qaratildi. Milliy g'oyaning jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayoti bilan, boy tarixiy madaniy va ma'naviy merosimiz bilan bog'liqligi masalalari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlarida bayon qilingan.

O'zbekistonda barpo etilayotgan Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyatga, boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga asoslanadi. Ushbu masalaga Prezidentimizning Konstitutsiya kuni munosabati bilan tantanali marosimdagi ma'ruzasida alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – ...Barchamiz bir narsani tushunib olishimiz kerak: yaxshi yashash uchun eng avvalo yaxshi mehnat qilish,

huquq va erkinlik bilan birga, javobgarlik va mas'uliyatni ham chuqur his etishimiz zarur. Bunga erishish esa, faqat va faqat o'zimizga bog'liq. Ko'zlagan marralarimiz qanchalik yuksak va mashaqqatli bo'lmasin, ularga yetish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Ajdodlarimiz merosi, xalqimizning ilmiy va bunyodkorlik salohiyati hamda tadbirkorlik fazilati bizga bu yo'lda beqiyos kuch-qudrat manbai bo'lib xizmat qiladi<sup>1</sup>.

Milliy g'oya, milliy mafkuradagi eng muhim g'oyalardan biri komil inson g'oyasi bo'lib, bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda katta e'tibor berilmoqda. Barkamol avlod tarbiyasida boy tarixiy ma'naviy merosimiz muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – ... Biz yoshlar uchun ularning sog'lom tug'ilishidan boshlab, toki mustaqil hayotga kirgunicha barcha zarur sharoitlarni yaratib berish maqsadida qanday katta ishlarni amalga oshirayotganimiz sizlarga yaxshi ma'lum. Mana, biz Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini, Toshkent shahrida esa Islom sivilizasiyasi markazini barpo etmoqdamiz. Bu ishlarni kimgadir ko'z-ko'z qilish uchun amalga oshirayotganimiz yo'q. Maqsadimiz – islom dinining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini, ma'rifiy islomni bolalarimiz ongiga singdirish. Shu yo'lda bizning buyuk ajdodlarimiz qanday ulug' ishlarni amalga oshirganlari haqida ular ana shunday maskanlarga kelib o'zlari uchun kerakli bo'lgan eng muhim bo'lgan bilim va tasavvurlarga ega bo'ladi. Eng asosiysi, ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topadi<sup>2</sup>.

Prezidentimiz asarlarida g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarni olib borish, bu ishlarni olib boruvchi kishilarni faollikka chaqiruvchi fikrlar ham mavjud bo'lib, mafkura

---

<sup>1</sup> Билимли авлод – буюк келажакнинг, тadbirkor халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. “Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 8 декабрь, 2-бет.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 25-бет.

sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapdi! Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim<sup>1</sup>. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, – Biz qanday marraga erishmoqchi bo'lsak, unga faqat ona yurtimizga mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik bilan erishamiz. Biz erkin va farovon kelajagimizni qurmoqchi bo'lsak, faqat mard va olijanob xalqimiz bilan birga barpo etamiz<sup>2</sup>. Prezidentimiz asarlarida yoshlar o'rtasida g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarni olib borishda yoshlar ittifoqi faoliyatini kuchaytirish masalasiga ham e'tibor qaratilgan. O'zbekiston yoshlar ittifoqi jahon madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz merosiga hurmat, unga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, bu bebaho boylikni chuqur o'rganish va keng targ'ib etishga qaratilgan mazmundor, ta'sirchan loyihalarni amalga oshirishga tashabbus ko'rsatishi nur ustiga nur bo'lur edi<sup>3</sup>. Boy tarixiy ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida O'zbekiston fuqarolarida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish va yuksaltirish g'oyaviy-mafkuraviy sohada olib borish zarur bo'lgan asosiy vazifadir. Tarixiy ma'naviy meros, milliy va diniy qadriyatlarni tiklash va shu asosda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish va mustahkamlash masalasiga Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida ham e'tibor qaratilgan bo'lib, Bugungi kunda

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2018. 484-бет.

<sup>2</sup> Ўша асар. 496-бет.

<sup>3</sup> Ўша асар. 504-бет.

O'zbekiston jadal rivojlanmoqda, – deydi Shavkat Mirziyoyev, – Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat. Umuman olganda Prezident asarlarida tarixiy ma'naviy meros, milliy va diniy qadriyatlar, barkamol insonni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi eng asosiy vazifa milliy g'oyani shakllantirish va odamlar ongiga singdirishdan iborat bo'lib, milliy g'oyani shakllantirishda xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, fuqarolarda kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini singdirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

#### **11.4. Milliy g'oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlari va omillari**

Milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oyadir. Milliy g'oya o'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalqning kelajagini belgilaydi, unga yetishishning o'ziga mos yo'llarini tanlab, ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlar bilan barcha g'oyaviy tamoyillarni ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo'lgan g'oyalar muhim ahamiyat kasb etib, agar milliy mafkuraning bosh g'oyasi Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iborat bo'lsa, bosh g'oyaning mazmun va mohiyatidan kelib chiqadigan Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi, Komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, Millatlararo hamjihatlik, Diniy bag'rikenglik kabi g'oyalar ana shunday umummilliy g'oyalar qatoriga kiradi.

Muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimiga mafkura deyiladi. Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. O'zbekiston xalqining milliy g'oya va milliy mafkurasi jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida hamjihatlik bilan harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir O'zbekiston fuqarosining o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi. Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'priki bo'lishga qodir g'oya jamiyat mafkurasi bo'lib hisoblanadi. Mafkuraning mohiyati faqat uning asosiy g'oyalari vositasida emas, balki ana shu g'oyalarga erishish usullari va umume'tirof etilgan tamoyillari, ularning aksariyat omma manfaatlariga mosligi orqali ham namoyon bo'ladi. Mafkuralar, ma'no-mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi. Milliy g'oya fanining falsafiy asoslari deb har qanday g'oyaning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun ma'naviy asos bo'lib, nazariy-metodologik vazifani o'taydigan ilmiy falsafiy ta'limotlarga aytiladi. Milliy g'oyaning diniy negizlari deb muayyan millatni ezgulikka da'vat etadigan, insoniyatni ezgulik sari yetaklaydigan diniy dunyoqarash, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuasiga aytiladi. Milliy g'oya fanining dunyoviy ildizlari deb jamiyat hayotida shaxs va jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy tafakkurini yuksak darajada rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarning yaxlit tizimiga aytiladi. Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tariladi. Bunga insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayxon Beruniy, Imom G'azzoliy va Abu Nasr Forobiy singari mutafakkirlar yonma-yon yashab faoliyat ko'rsatgan davr



misol bo'la oladi. Ilmiy kashfiyotlar ham milliy g'oya va mafkura rivojiga katta ta'sir o'tkazib, zamonaviy fan yutuqlari, jumladan kosmonavtika, kibernetika, elektronika, biologiya va tibbiyot, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirmoqda. Ayni vaqtda yuksak ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, globallashuv jarayonlari bir tomondan, inson aql-idrokining imkoniyatlariga, kelajakka ishonchni orttirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ekologik halokatlar, ma'naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun, ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish uchun ham jamiyatga sog'lom g'oya, sog'lom mafkura zarurdir.

Milliy g'oya jamiyat hayotida tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish, o'zlikni anglash mezonini bo'lib hisoblanadi. U ijtimoiy hayotda xalq maqsadlarini ifoda etib, jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy vazifani bajaradi. Milliy g'oya millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch e'tiborning manbai bo'lib, u O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam vakillarining manfaatlarini himoya qiladi. Milliy g'oya O'zbekistonda yashaydigan barcha fuqarolarning ongi va qalbida «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi. Milliy g'oya jamiyat hayotida turli millat, qatlam, uning vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan yuksak fenomen – ijtimoiy hodisa mazmuniga egadir. Milliy g'oya va milliy mafkura ijtimoiy taraqqiyotda yagona maqsadga – Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan barpo etish, erkin va farovon jamiyat qurish uchun xizmat qiladi. Mafkuraning asosiy maqsadi ushbu yo'lda xalqimizni jipslashtirish, kishilar ongida mustaqil dunyoqarash va ogohlik xissini tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish, fuqarolarimizda begona va buzg'unchi g'oyalarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni tarbiyalash bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari – xalqimizning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan boy madaniy va ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari, bayram va marosimlaridagi ozodlik, erkinlik to'g'risidagi qarashlari, ota-

bobolarimizning mustaqillik yo'lida ko'rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlari hamda ularni amalga oshirishda ma'naviy ruh bergan tafakkur tarzida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda yurtimiz ko'rkiga-ko'rk bag'ishlab kelayotgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'alaridan dalolat berib, ular Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida yaqqol tasavvur va tushunchalarni shakllantiradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Milliy g'oyani anglash umummaqsad yo'lida birlashish, uyushish, o'zini safarbar etish, hamjihatlik va hamkorlik, totuvlik hamda bag'rikenglik fazilatlari sifatida namoyon bo'ladi. Shunday omilning mavjudligi mamlakatning, xalqning, millatning ma'naviy, ruhiy kuch-qudrati mustahkam ekanligini ko'rsatadi.

### **11.5. Milliy g'oyaning rivojlanib, yangilanib borishi – umumiy qonuniyat ekanligi**

Har qanday jamiyat o'ziga xos rivojlanish yo'lini tanlar ekan, o'zining oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qo'yib faoliyat olib boradi. Bu vazifalar jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy, ta'lim-tarbiya va mafkuraviy jarayonlarning uzviy birligi asosida, muayyan qonuniyatga asoslangan holda amalga oshadi. Xalqlar, millatlar, ijtimoiy-siyosiy kuchlar faoliyatida sodir bo'lgan turli mazmundagi hodisa va jarayonlar, ayniqsa g'oyaviy hamda mafkuraviy omillar odamlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sir etadi. Har bir xalq, millat va jamiyat o'z manfaatiga xizmat qilib, uning taraqqiyotini ta'minlashga yordam beradigan muayyan g'oyaga ehtiyoj sezadi. G'oya muayyan xalqning maqsad-muddaolari, manfaatlari zahirida shakllanib, takomillashib boradi. Milliy g'oya millat manfaatlarini, xalqning orzu-istaklarini o'zida mujassamlashtiradi. U o'zining hayotbaxsh g'oyalari, buyuk maqsadlari bilan o'z kuch g'ayrati, aql-zakovati va hatto hayotini, buyuk g'oyalar yo'lida baxsh etishga tayyor komil insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Mafkuraning hayotiyligi odamlarning, millatning, jamiyatning milliy manfaatini, orzu-

intilishlarini qay darajada aks ettirishiga, ularning turmish tarzi, dunyoqarashi, tabiatiga qanchalik mos bolishi bilan belgilanadi. Milliy g'oya va mafkura jamiyatni yuksak va bunyodkor maqsadlar tomon birlashtirib, jamiyat ahli o'rtasida sog'lom munosabatlarni shakllantiradi. Milliy g'oya ezgu orzular, maqsad-muddaolariga erishishda ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan omil vazifasini bajarib kelgan. Milliy g'oya va mafkura barcha insonlar, xalqlar, jamiyat va davlat oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi, hamda turli sohada faoliyat yuritadigan jamiyat ahlini birlashtirib, ularni umumiy maqsad sari safarbar etadi.

Milliy g'oya fanining g'oya va mafkuralarga oid hodisa, voqea, jarayonlarni o'zida aks ettiruvchi, ularning tub mohiyatini va ahamiyatini ochib beruvchi qonuniyatlari va kategoriyalari mavjud bo'lib, milliy g'oyaning qonuniyatlari jamiyat hayotida mavjud bo'lgan g'oyaviy va mafkuraviy hodisalar, jarayonlarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbatan barqaror bo'lgan, rivojlanish xususiyati va yo'nalishlarini belgilaydigan, aniq bir natijalarni keltirib chiqarishga ta'sir ko'rsatadigan munosabatlar majmuini o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya va mafkura mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolarning g'oya va mafkurasini bo'lib, u har bir O'zbekiston fuqarosining jamiyat, el, yurt oldidagi o'z burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganligini belgilaydigan ma'naviy mezon bo'lib hisoblanadi. Fuqaro g'oya va mafkurasining kuchi ularda yashash manfaatining nechog'lik kuchliligidan kelib chiqib, shuning uchun ham u to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy adolat, erkinlik, inson huquqlari bilan chambarchas bog'lanadi va ular bilan uyg'unlik kasb etadi. Milliy g'oyada jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlar o'z ifodasini topib, inson manfaatlariga qaratilgan mehnat rag'batlantiriladi, mamlakat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlari bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik e'tirof etiladi. Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi va vatanparvarlik, xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish milliy g'oyani shakllantirish va rivojlantirish hamda g'oyaviy tarbiyadagi muhim jihatlardir. Milliy g'oya va milliy mafkuramizning asosiy

maqsadlaridan biri – har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat bo'lib, komil inson bu – ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi insondir.

Milliy g'oya va milliy mafkuraning shakllanishida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotiraning tiklanishi, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining shakllanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, insonning o'z-o'zini anglashi – bu o'z Vatani va shu Vatanda yashagan xalqning, millatning o'tmishi, uning madaniyati, urf-odati, hamda qadriyatlarini bilishi demakdir. O'z-o'zini anglash bu – o'tgan ajdodlar tarixini mukammal bilish, Vatan hududidagi boy madaniy va moddiy merosni aniqlab, porloq kelajak uchun xizmat qilishga intilish, avlodlar farovonligi uchun o'z hissasini qo'shish hamdir. Milliy g'oyaning hayotga tatbiq etilishi va demokratik tamoyillarning amal qilishi, davlat, jamiyat, fuqarolarning o'zaro munosabatlaridagi qonuniylikka asoslanadi.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li respublikani rivojlantirishning milliy g'oyaga asoslangan o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini hisobga olishni talab qiladi. Bu xususiyat va shart-sharoitlar quyidagilardan iboratdir:

Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. Vatanga mehr-muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'naviy meros va ma'rifatparlik g'oyalariga nisbatan hurmat ehtirom – O'zbekiston aholisiga xos fazilatlardir. Respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat – g'oyat muhim xususiyatlardan biridir. Respublikamizda aholi va mehnat resurslari yuksak sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Respublikaning yana bir xususiyati – milliy tarkibining o'ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallab, shu bilan bir vaqtda respublika hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi. O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan g'oyat turli-tumanligi milliy o'zligini

anglash va ma'naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi. Milliy g'oya va milliy mafkuraning taraqqiy etishi muayyan qonuniyat asosida amalga oshirilib, yagona maqsadga – Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan barpo etish, erkin va farovon jamiyat qurish uchun xizmat qiladi. Milliy g'oya va mafkuraning asosiy maqsadi ushbu yo'lda xalqimizni jipslashtirish, kishilar ongida mustaqil dunyoqarash va ogohlik xissini tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish, fuqarolarimizda begona va buzg'unchi g'oyalarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lib qolaveradi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Milliy g'oyaning negizlari tushunchasini tushuntirib bering?
2. Milliy-ma'naviy meros deganda nimani tushunasiz?
3. Umuminsoniy demokratik prinsiplarning falsafiy mohiyati nimada?
4. Ruhiy safarbarlik jamiyatda qanday amalga oshiriladi?
5. Ma'naviy jipslik milliy g'oya rivojida o'zini qanday namoyon qiladi?
6. Milliy g'oya va milliy-ma'naviy meros tushunchalari o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsating?
7. Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida milliy g'oyaning nazariy asoslanishini tushuntirib bering?
8. Milliy g'oya negizlarini himoya qilish mexanizmlarini yoritib bering?
9. Milliy g'oya negizlari qanday omillarga tayanadi?
10. Milliy g'oyaning rivojlanib, yangilanib borishini qanday tushunasiz?

## **12-BOB. MILLIY G'OYANING UMUMMAFKURAVIY JARAYONLAR BILAN BOG'LIQLIGI**

### **12.1. Milliy g'oya va umummafkuraviy jarayonlar tushunchalarining o'zaro munosabati, mazmun-mohiyati**

Mamlakatimizdagi ma'naviy islohotlar milliy g'oya va umummafkuraviy jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi davrda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integrasiyalashuvi va intensivlashuvi sodir bo'lmoqda. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradio aloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuv jarayoni kuchayib, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari kengaymoqda. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida insoniyat sivilizasiyasi tarixida erishilgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib, baynalmilallashib, universallashtirib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining integrasiyalashuv jarayoni sodir bo'lmoqda. Hozirgi paytda biron bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada, odamlar ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda. Mafkuraviy globallashtirish saviyasi past audio va videokassetalar, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan "san'at asarlari"ning ham keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. G'oyaviy-mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat va davlat o'zining g'oyaviy-mafkuraviy dahlsizligini ta'minlashi, g'oyaviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga e'tiborni qaratishi zarurdir. Ana shunday tadbirlar amalga oshirilganda mafkuraviy jarayonlarning globallashtirish g'oyaviy qarashlardagi muayyan farqlardan qat'iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar, tinchlik g'oyalariga sodiqlikning kamol topishiga sharoit yaratadi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi deb jamiyat taraqqiyoti qonunlari, uning rivojlanish tendensiyalarini muayyan ijtimoiy guruh, etnik birliklar, siyosiy kuchlarning o'ziga xos manfaatlaridan kelib chiqib talqin qilish va unga asoslangan holda insoniyat istiqbolini belgilashga qaratilgan mafkuraviy tizimlar majmuining makon va zamonda yaqqol ko'zga ko'rinib turadigan joylashuv tartibiga aytiladi.

Bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasi doirasida sodir bo'layotgan g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar progressiv va reaksiyon yo'nalishdagi mafkuraviy jarayonlarga bo'linadi. Progressiv yo'nalishdagi mafkuraviy jarayonlarga – tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik, inson erkinligi va shaxs kamoloti, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi kabilar kiritiladi. Reaksiyon yo'nalishdagi mafkuraviy jarayonlar – urush, qurollanish, terrorizm va ekstremizm, irqchilik, millatchilik, diniy aqidaparastlik, totalitarizm, mustabidlik, egoizm, mahalliychilik kabilardan iboratdir. Bugungi kunda progressiv yo'nalishda faoliyat olib borayotgan mafkuralar insoniyatni har xil samoviy va zamin ofatlaridan, urush va boshqa mojarolardan xalos etib, tinch-totuv, o'zaro hamjihatlikda yashash, hududlar bo'linmasligi, chegaralar daxlsizligini ta'minlash, moddiy va ma'naviy boyliklardan o'zaro foydali hamkorlik asosida foydalanishga harakat qilayotgan bunyodkor g'oyalar sifatida ish yuritmoqda.

Bugungi kundagi globallashuv sharoitida Markaziy Osiyoda ham murakkab geomafkuraviy jarayonlar sodir bo'lmoqda. "Mafkuraviy jarayon" tushunchasi eng umumiy ma'noda muayyan g'oyaviy qarashlar tizimining shakllanishi, rivojlanishi, rivojlanishi va tarqalishi bilan bog'liq bosqichlarning uzviy birligini ifodalaydi. "Mafkuraviy jarayon" tushunchasi mafkuraviy qarashlar – bilimlar, baholar, maqsadlarning shakllanishi hamda mafkuraviy qarashlarning tarqalishi, g'oyaviy tarbiyaning amalga oshirilishi bilan bog'liq sifatiiy holatni ifodalash uchun ham ishlatiladi. Mafkuraviy jarayon deb shaxs, elat, millat, xalq va jamiyatning biron-bir maqsadni ko'zlab yuritayotgan mafkuraviy faoliyatlarining ketma-ketlikda borishi, rivoji va oqimiga aytiladi. Mafkuraviy jarayon murakkab tizimdan iborat bo'lib, uning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiritiladi. Eng avvalo mafkuraviy ong va uning komponentlari, undan so'ng mafkuraviy munosabatlar, mafkuraviy soha

xaqida mavjud bo'lgan bilimlar tizimi, mafkura sub'yektlarining bilimlilik darajalari, qat'iy qaror topgan ma'naviy qadriyatlar, davlat hokimiyati tomonidan olib borilayotgan mafkuraviy siyosat tamoyillari va hokazolar mafkuraviy jarayonning tizimini tashkil qiladi.

Mafkuraviy jarayonlar o'z-o'zidan yuz bermaydi, u muayyan sabablarga ko'ra mafkura rivojlanishining qonuniyatlariga ko'ra ob'yektiv tarzda sodir bo'ladi. Mafkuraviy jarayonlar o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, ular o'ziga xos tayanch, negiz rolini o'ynaydigan g'oya va mafkura tamoyillari asosida harakat qiladi. Mafkuraviy jarayonlar mafkuraviy faoliyat yuritishning istiqbollarini mantiqiy jihatdan belgilab olish imkoniyatini yaratib, ular bunyodkor va vayronkor g'oyalar o'rtasidagi kechayotgan murosasiz kurash natijasida yangicha mazmun va mohiyatga ega bo'lib boradi. Bugungi kunda jahonda ro'y berayotgan mafkuraviy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchlari xilma-xil bo'lib, globallashuv sharoitida turli-tuman, o'z oldiga muayyan bir geopolitik, geostrategik maqsadlarni qo'ygan ijtimoiy guruh va qatlamlar, siyosiy kuchlar tomonidan mafkuraviy faoliyat olib borilmoqda va ular transmilliy xususiyatga ega bo'lib bormoqda. Bugungi kundagi globallashuv sharoitida Markaziy Osiyoda ham murakkab geomafkuraviy jarayonlar sodir bo'lib, eng avvalo tinchlik-totuvlik, yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini o'rnatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Markaziy Osiy mintaqasidagi geomafkuraviy jarayonlarga quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Eng avvalo, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi integrasiya jarayonlari kuchayib bormoqda. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mustaqil davlatlar o'rtasidagi strategik hamkorlik kuchaytirilmoqda. Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlar o'rtasida "Turkiston – umumiy uyimiz" g'oyasining amalga oshishi uchun harakatlar faollashtirilmoqda. Markaziy Osiyoda terrorçilikka, diniy aqidaparastlikka qarshi kurash masalasida hamkorlik aloqalari kuchayib bormoqda. Hozirgi paytda inson qalbi va ongi uchun kurash masalasi xalqaro munosabatlardagi eng muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Erkin va farovon hayot barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston xalqi o'zining milliy mafkurasini milliy va umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillar negizida rivojlantirmoqda.



## **12.2. Mafkuraviy jarayonlarning turli xil ijtimoiy guruhlar, qatlamlar manfaatlarini bilan bog'liqligi, uni anglash darajalari**

O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalanish jarayoni xususiy mulkchilikning ustuvor rivojlanishi negizida sodir bo'lib, ushbu holat milliy g'oya va milliy mafkurada ham o'z ifodasini topgandir. O'zbekistonda ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantirishga, mulkdorlar sinfini shakllantirishga, o'rta, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozir O'zbekistonda chet ellik tadbirkorlar, ishbilarmonlar bilan ko'plab qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda, milliy hunarmandchilik, kasanachilikni rivojlantirishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda ham kuchli o'rta qatlam, mulkdorlar sinfini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jamiyat hayotida fan, texnika, texnologiyaning, kompyuter va internet tizimining rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishida mulkchilik munosabati shakllariga emas, balki intellektual malaka, intellektual texnologiyaga qanchalik yaqin bo'lishiga asoslangan strukturaviy tabaqa paydo bo'lmoqda. Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishida turli sinf, tabaqa, guruh, qatlamlar mavjud bo'lib, bu ijtimoiy guruh va qatlamlarning har biri o'ziga xos ong, tafakkur va fikrlash tarziga ham egadir. Sinfy ongning darajasi turli xil tarixiy sharoitlarda, turli davlatlarda turlicha namoyon bo'ladi. Sinflar o'zining iqtisodiy imkoniyatlari, mavqei hamda turmush tarzi bilan bir-biridan farq qiladigan odamlarning katta-katta guruhlari bo'lib, ular bir necha guruhlarga, yuqori, o'rta va quyi tabaqalarga bo'linadi. Jamiyat a'zolarining tabaqalashuvi hozirgi vaqtda bir qator o'zgarishlarga uchrab, ularning tarkibida o'rta qatlamning o'rni jiddiy tarzda oshmoqda. Hunarmandlar, mayda korxonalarining egalari, mayda savdogarlar, dehqonlar va fermerlar, kam sonli erkin kasb egalari hamda yollanib ishlovchi ziyolilar, ishlab chiqarish, savdo, maorif, davlat va jamoat muassasalarining xizmatchilari va boshqalar o'rta qatlamni tashkil etadi.

Milliy g'oya va mafkura jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruh, qatlam, tabaqa va sinflarni munosib turmush darajasini ta'minlaydigan farovon hayotga erishishga chorlaydi. Milliy g'oya va mafkura har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasin, o'z manfaatini xalq va Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'rishga da'vat etadi.

Milliy g'oya va mafkura mulkdor odamlar jamiyat ichida, xalq orasida faqat boyligi bilan emas, balki yuksak ma'naviy fazilatlari bilan ham ajralib turishi zarurligi, "shaxsiy va oilaviy farovonlikka erishish imkoniyati har kimning o'z qo'lida", degan hayot haqiqatini zamonaviy dunyoqarash sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga "har bir fuqaroning farovonligi – butun jamiyatning farovonligi" g'oyasini ilgari suradi. Bulardan tashqari, mulkning xilma-xilligi, iqtisodiy hayotni erkinlashtirish, bu sohadagi plyuralizmni va sog'lom raqobatni yanada rivojlantirish ham milliy g'oya va milliy mafkuraning ijtimoiy-iqtisodiy asosini tashkil etadi. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, bu jamiyatdagi nafaqat ijtimoiy guruh, sinf, tabaqa va qatlamlarning bo'linishini, shu bilan birga ularning xilma-xil faoliyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni, ular o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabat, bir-biriga ta'siri kabi jarayonlar bilan birga boshqa ijtimoiy-tarixiy birlik – milliy, etnik, demografik guruhlarni ham o'z ichiga oladi. Milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo, har bir O'zbekiston fuqarosining mustaqil e'tiqod va dunyoqarashga ega bo'lishini taqozo etadi.

### **12.3. Mafkuraviy jarayonlarning turli xil g'oyalar, mafkuralar bilan bog'liqligi**

Globalashuv – insoniyat jamiyatidagi mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan madaniy, axborot, iqtisodiy, geosiyosiy makonlarning bir tizimga birlashuvi jarayonidan iborat bo'lib, ezgu g'oya va ta'limotlar hamda yovuz va zararli g'oyalar o'rtasidagi kurash jarayoni globalashuv sharoitida bir muncha dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, matbuot, radio, televideniye, internet kabi vositalar orqali turli-tuman axborot va ma'lumotlar jamiyatning ma'naviy hayotiga kirib kelib, odamlarning ongi va qalbiga singib bormoqda. Yuksak ma'naviyatli insonni tarbiyalash, yuksak ma'naviyatli jamiyatni

barpo etish milliy g'oyaning asosiy vazifasidir. Milliy g'oya bugungi kunda mamlakatimiz ma'naviy hayotini yuksaltirishga, jamiyat a'zolarini ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazib berishga xizmat qilmoqda. Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ustunlik darajasiga erishgan va g'oyaviy tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi kunda milliy g'oyaning rolini oshirib borish va uni ma'naviy hayotni yuksaltirishga safarbar etish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy g'oya jamiyat ma'naviy hayoti yuksalib borishining zamini bo'lishi bilan birga ma'naviyatimizni ezgu maqsadlar yo'lida yengilmas kuchga aylanishini ta'minlab beradi. Milliy g'oya xalqni, millatni birlashtirib, jamiyatning har bir a'zosida yuksak ma'naviyat belgisi bo'lib hisoblangan vatanparvarlik va fidoyilik singari fazilatlarni shakllantiradi. Milliy g'oya jamiyatning har bir a'zosida ertangi farovon hayotga ishonchni shakllantirib boradi. Milliy g'oya jamiyatimiz a'zolarini Ozod va obod Vatanni yaratish, erkin va farovon yashash orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Milliy g'oya jamiyat hayotidagi turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar o'rtasidagi hamkorlikni, millatlararo totuvlikni va umumtaraqqiyot yo'lidagi jipslashuvni ta'minlaydi.

G'oyaning eng muhim hususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanligidir. Ozodlik va mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari har bir xalq va umuman insoniyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini o'zida ifodalaydi, erkin hayot va adolatga asoslangan jamiyat barpo etish insoniyatning azaliy orzusi va maqsadidir. Ozodlik g'oyasi insonlarni o'z erki uchun kurashga chorlaydigan va qaramlikning har qanday ko'rinishini inkor etadigan g'oyadir. Ozodlik inson, millat, elat, xalq va jamiyatning imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, ma'naviy yangilanish, insonlarda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining yuksalishi uchun katta imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Ozodlik insonning erkinligi, huquq va manfaatlarini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi bunyodkor g'oyadir. Ozodlik, tinchlik, tenglik, do'stlik, hurfiylik, bag'rikenglik, mustaqillik, adolat, hamkorlik, birdamlik, ma'rifatparvarlik kabi g'oyalar bunyodkor g'oyalar bo'lib, bunyodkor g'oyalar taraqqiyotga xizmat qiladi, jamiyat va insonni ezgulikka yo'naltiradi. Mustaqillik

g'oyasi – eng ulug' va ezgu g'oya bo'lib, har bir xalq istiqlol tufayli o'ziga yot va begona tuzumdan, ijtimoiy tazyiqlardan xalos bo'ladi, o'z salohiyatini to'la-to'kis ishga solish, o'zi istagan va o'zi tanlagan yo'ldan borish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Mustaqillik – o'zaro hurmat, bir-birini qadrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib ish ko'rish, keng dunyoqarash va erkin tafakkurga tayanib yashash, fikrlash hamda o'z hayotini o'zi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi. Mustaqillik har bir xalqning, millatning, har bir fuqaroning o'z istedodini namoyon etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'l ochadi. Mustaqillikka erishish g'oyasi xalqimizga azaldan meros bo'lib, bu xalqimizga ajdodlar orqali ming yilliklar qa'ridan bizgacha yetib kelgandir. Xalqimiz azal-azaldan o'z fikri-zikri bilan mustaqil, ozod, erkin yashash uchun doimo harakat qilgan. Tariximizning turli davrlarida ko'plab turli milliy mustaqil davlatchilik asoslari barpo etilgan. Adolat va haqqoniyat g'oyalari – insonning tabiati va ijtimoiy tuzumning mohiyatini belgilaydigan, qudratli kuchga ega bo'lgan g'oyalardir. Odamlar asrlar mobaynida odil jamiyatni orzu qilib, haqiqat tantanasi uchun kurashib kelgan. Adolat buzilgan yerda umidsizlik va tushkunlik hukm suradi. Adolat tantana qilgan jamiyat yuksaklikka ko'tariladi. Adolatli bo'lish – adabning ustuni, insoniylikning asosi hisoblanadi. Insoniyat tirikligining davomiyligini ta'minlaydigan birdan bir narsa ham adolat. Adolatparvarlik – insondagi o'tkir aql, sof mulohaza, toza ko'ngil, olijanob va mard ekanini ko'rsatib turuvchi dalildir. Adolatli bo'lish – so'zida turish, qat'iylilik demakdir.

Har bir tarixiy davrda uning ruhini aks ettiradigan, xalqning qadriyatlari va orzu-istaklariga mos keladigan g'oyalar kishilarning ongi va qalbidan joy olib, insoniyatning tarixiy taraqqiyotida bunyodkor g'oyalar bilan birgalikda vayronkor g'oyalar ham ko'p bo'lgan. Millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar yuksak g'oyalardir. Vayronkor g'oyalar esa jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab bo'ladi hamda g'ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiladi. Vayronkor g'oyalarga shovinizm, genosid, fashizm, irqchilik, diniy ekstremizm, kosmopolitizm, gegemonizm, mustabidlik, terrorchilik, jaholatparastlik,

millatchilik, vatansizlik, bosqinchilik, aqidaparastlik, mahalliychilik, yovuzlik kabi g'oyalar taalluqlidir. Vayronkor g'oyalardan shovinizm – boshqa millatlarni mensimaslik va o'z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyotidir. Shovinizm XIX asrning 30 yillarida Fransiyada paydo bo'ldi. O'z mohiyatiga ko'ra shovinizm millatchilikning o'ziga xos shakli bo'lib, boshqa millatlarning jahon tarixida tutgan o'rni, bugungi kunda insoniyat jamiyati rivojini ta'minlashdagi mavqei, ma'naviy-madaniy hayotining o'ziga xos tomonlarini mensimaslikka intilishda yaqqol ko'rinadi. Shovinizm ko'p sonli xalqlarning ko'p millatli davlat doirasida, shuningdek, uni o'rab turgan geografik-siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatish uchun kurashida namoyon bo'lishi mumkin.

Genosid (yunoncha genos – nasl-nasab va lotincha caedere – o'ldirish, yo'q qilish) odam zoti va insoniyatga qarshi eng og'ir jinoyatlardan birini anglatuvchi tushunchadir. Genosid aholining ayrim guruhlarini irqi, millati, etnik yoki diniy belgilariga qarab yo'q qilish, ularni qasddan butkul yoki qisman qirib tashlashni ko'zda tutadigan shart-sharoitlarni vujudga keltirish, shuningdek, bolalar tug'ilishini cheklashga qaratilgan choralardir. 1948 yildan e'tiboran genosid xalqaro huquqiy maqomni olib, BMT tomonidan xalqaro jinoyat sifatida tan olingan. Genosid inson hayotiga qarshi qaratilgan og'ir jinoyat bo'lib, XVIII-XIX asrlarda ayrim Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosatida genosid yaqqol namoyon bo'ldi. Bu yevropaliklar tomonidan bosib olingan hududlar aholisining qirg'in qilinishida ko'zga tashlanadi. Genosid aparteidga xos bo'lgan ayrim xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi. Genosid qanday shaklda namoyon bo'lishidan qat'i nazar, dunyo jamoatchiligi tomonidan insoniyatga qarshi eng dahshatli jinoyat sifatida qoralanadi.

Fashizm (italyancha fascismo, fascio – bog'lam, aloqa, bog'liqlik) degan ma'noni bildirib, fashizm mustabidlik ruhidagi siyosiy harakatlar, partiya va rejimlarni o'zida ifodalaydi. Fashizm milliy safarbarlik va birdamlikka asoslangan mafkura bo'lib, u jamiyat tuzilishi va tizimini yangicha tashkil etishga qaratilgan millatchilik va irqchilik shakllarining yig'indisidan iboratdir. Fashizm irqchilik,

militarizm g'oyalari asosida boshqa xalqlarni yo'q qilishni targ'ib qiladi. Fashizm siyosiy harakat va tuzum sifatida turli ko'rinishlarda – monarxistik va harbiy-fashistik tuzumlar shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

Irqchilik (Rasizm) atamasi XVII asrdan boshlab Yevropada “insoniyat nasli”ni turli irqiy guruhlar, jumladan, “oq”, “qora” va “sariq” irqqa ajratish uchun qo'llana boshlandi. Irqchilik ta'limoti “oq tanli”larning afzalligi, ularning azaldan “oliy irq” etib tanlangani, boshqa irqlarning esa “oq”larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini asoslab beradi. Irqchilikning asosiy g'oyasi o'zining “ilohiy” tabiatiga ko'ra “oq” irqlarni “quyi” irqlar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra ajralib turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni xaqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat va hodisalarda namoyon bo'lib, ijtimoiy hukmronlik shakllaridan birining mafkurasi sifatida u buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, “tanlangan” xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Diniy ekstremizm ekstremizmning diniy sohada namoyon bo'lish shakli bo'lib, diniy ekstremizm muammolarni hal etishda o'ta keskin chora-tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotni anglatadi. Diniy ekstremizm namoyon bo'lish ko'lamiga ko'ra, hududiy, mintaqaviy va xalqaro shakllarga bo'linadi. Diniy ekstremizm ruhidagi qarashlar barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistlar qayerda faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatni barpo qilish bo'lib, bunga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali erishishni ko'zlaydi. Bu esa, davlat mustaqilligiga ham, jamiyat taraqqiyotiga ham katta g'ov bo'ladi. Ekstremistik guruhlarining asosiy maqsadi hokimiyatni qo'lga olishdan iboratdir. Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan ekan, xilma-xil qarashlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga intilishi tabiiy bo'lib, e'tiqod umumiylikiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o'ziga qaram qilishga intilish diniy aqidaparastlikka xos xususiyatdir. Diniy aqidaparastlik diniy asosda birlashuv g'oyasini birinchi o'ringa qo'yadi. Diniy

aqidaparastlik milliy suverenitetdan voz kechish yoki uni boy berish hisobiga yagona davlat tuzishni ko'zlayotganlar mafkurasidir. Xalifalikni tiklashga, uning to'g'ri ekanligini asoslashga urinuvchilar, bu hol aynan millat sifatida o'zligimizni anglashga yo'l qo'ymasligini yashirib, bu g'oyani tiqishtirishda ular bizning islom diniga e'tiqod qilishimizga alohida urg'u beradilar. Aqidaparastlik g'oyalari targ'ib qilinganda, bizning o'z tariximiz, tilimiz, betakror madaniyatimiz, jahon xalqlari o'rtasida o'ziga xos o'rnimiz, o'z taraqqiyot yo'limiz borligi tan olinmaydi.

Kosmopolitizm – (yunoncha, kosmopolites – “dunyo fuqarosi”) – dunyo fuqaroligini da'vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an'ana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg'usidan voz kechish g'oyasini ilgari suradigan qarashdir. Bugungi kunda insoniyat jamiyatining global yaqinlashuvi, avvalo, texnik taraqqiyot, transport vositalari, aloqa va kommunikasiya tarmoqlari, mikroelektronikaning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Kosmopolitizm – umuminsoniy qadriyatlarni milliy qadriyatlardan ustun qo'yuvchi, dunyo fuqaroligini targ'ib qiluvchi dunyoqarashdir. Kosmopolitizm vatanparvarlik tuyg'ularidan, milliy madaniyatdan, an'analardan “inson zotining birligi” uchun voz kechishga chaqiradi. Kosmopolitizm vatan, yurt tushunchalarini – Yer sayyorasi bilan almashtirishga chaqiradi. Kosmopolitizm butun dunyo hukumatini tuzish orqali jahonni egallab olishni ko'zlovchi ayrim guruhlar manfaatini ifodalab, xalqlarning mustaqillik uchun kurashlarini susaytirishga xizmat qiladi. Kosmopolitizmning mazmun-mohiyati, “Qayerda yashash yaxshi bo'lsa, o'sha joy Vatan” degan iborada o'z ifodasini topadi.

Gegemoniya (yunoncha, gegemoniya – “yetakchilik”, “boshqarish”) degan ma'nolarni bildirib, gegemoniya – turli sohalarda ustunlik va o'z hukmiga bo'ysundirishni anglatuvchi tushunchadir. Gegemonizm biron-bir qudratli kuchning manfaatlarini ustuvor darajada, bir tomonlama ta'minlash maqsadini ko'zlagani sababli u boshqa tomonning manfaatlariga zid bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishga putur yetkazadi. Gegemonizm dunyo hamjamiyatining barqaror rivoji, davlatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **12.4. Dunyodagi mafkuraviy jarayonlar. Mafkuraviy jarayonlar va mafkuraviy kurashlar**

XXI asrda kechayotgan global integrasiya jarayonlari, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangi tafakkur uslubining shakllanishiga olib kelmoqda. Hozirgi davrda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar yer yuzini, barcha mintaq va mamlakatlarni qamrab olmoqda. Bugungi kunda diniy ekstremizm, fundamentalizm, missionerlik, prozelitizm va boshqa egosentrizm g'oyalariga asoslangan g'oya va mafkuralarni kishilar ongi va qalbiga singdirishdan iborat bo'lgan mafkuraviy tajovuzlar mintaqaviy va umumbashariy ahamiyat kasb etib, unga qarshi kurashning xalqaro institusional tizimini shakllantirishni taqozo qilmoqda. Bugungi kunda g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi sharoitida aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradioaloqa tizimlarining kuchayishi bilan g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Hozirgi paytda biror hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda, – deydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir<sup>1</sup>. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida odamlar ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan va turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda. Hozirgi vaqtda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot kommunikasiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berib, turli g'oya va mafkuralar tortishuvi keskin tus olmoqda. Ushbu vaziyatda kimning milliy g'oyasi va mafkurasi kuchli bo'lsa o'sha o'zaro qarama-qarshilikda ustunlikni qo'lga

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 26-бет.



kiritadi. O'zbekiston o'zining iqtisodiy salohiyati, demografik imkoniyatlari, geopolitik joylashuvi, boy tarixiy, ma'naviy merosi va milliy qadriyatlarga egaligi, milliy g'oya va mafkuraga tayanishi bilan ajralib turadi. O'zbekiston bugungi kunda o'zining yaqin qo'shnilari, dunyodagi barcha davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlikni olib bormoqda.

Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlar mafkuraviy siyosat bilan o'zaro bog'liq bo'lib, mafkuraviy ta'sir ko'rsatish geosiyosatning eng ta'sirchan vositasidir. Hozirgi zamon g'oyaviy-mafkuraviy geosiyosatini demokratik va gumanistik tamoyillar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etib, xalqlarning erkinligi, ozodligi, hur fikrliligi, qonun oldida tengligi, inson hayotining hamma narsadan ustunligi, inson qadr-qimmatining yuqoriligi demokratik va gumanistik tamoyillarga taalluqli bo'lib, shu bilan birgalikda, davlat mustaqilligini tan olish, millati, dini va qadriyatlarini hurmatlash, ichki ishlariga aralashmaslik, tashqi siyosatda o'zaro manfaatdorlik, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hamkorlikda o'zaro hurmat O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatida asosiy e'tibor qaratilayotgan masalalardir. Mamlakatda ilg'or g'oya va mafkuralar ko'p bo'lib, mafkuraviy plyuralizm hukmron bo'lsa, ular milliy g'oyaning taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatsa, jamiyat taraqqiyotining samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyat shunchalik keng bo'ladi. O'zbekiston o'zining geosiyosiy omillariga ko'ra madaniy, ilmiy, texnologik va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etib bormoqda. O'zbekiston xalqi o'zining milliy qadriyatlarini saqlagan va rivojlantirgan holatda umuminsoniy qadriyatlarni ham chuqur hurmat qilib, e'zozlab kelmoqda. Milliy g'urur, iftixor, or-nomus, imon-e'tiqod, sabr-qanoat, mehnatsevarlik, mehr-muruvvat, oilani sevish, mahallani hurmat qilish kabi qadriyatlar xalqimizning o'ziga xosligini, ma'naviy yetukligini o'zida ifodalaydi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi integrasiyalashuv jarayonida xalqimiz hayotiga umuminsoniy qadriyatlar – demokratiya, inson huquqlarini hurmat qilish, adolatli jamiyat barpo etish, fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanish kabilar kirib keldi. Bugun davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda, jamiyat taraqqiyotini kafolatlashda teng huquqlilik va o'zaro foydali hamkorlik tamoyili muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston o'ziga xos ma'naviy-mafkuraviy tamoyillar asosida rivojlanib, ularga tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot, millatlararo

totuvlik va diniy bag'rikenglik, inson erkinligi va shaxs kamoloti kabi ilg'or g'oyalar kiradi. O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshqa davlatlar bilan teng huquqlilik va o'zaro hamkorlik tamoyili asosida o'zaro munosabatlarni olib borib, ushbu tamoyil geostrategik manfaatlarni ro'yobga chiqarish va davlatlararo aloqalarni mustahkamlashning eng to'g'ri yo'lidir. O'zbekistonning tashqi siyosatiga tinchlik, barqarorlik va hamkorlik g'oyalari asos qilib olingan bo'lib, o'zaro munosabatlarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, mafkuralar xilma-xilligidan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustunligi, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish asos qilib olingan. Hozirgi davrda g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar globallashib, yer yuzidagi barcha mintaqa va mamlakatlarni qamrab olmoqda. G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishilgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallashib, universallashib bormoqda. Boshqa tomondan millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi barqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatni, o'z millatining kelajagiga xavf solayotgan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelib, bu esa o'z navbatida xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkobiznes kabi hodisalarda ko'zga tashlanmoqda. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida internet muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Globallashuv ijtimoiy-siyosiy hayotning yangicha tarzda mafkuraviylashishiga, hamma sohalarda yangicha hayot tarzini targ'ib-tashviq qilishga, singdirishga urinish tarzida yuz berib, ko'p holatlarda hayot me'yori sifatida g'arb liberalizmiga asosiy e'tibor qaratiladi. Mafkuraviy globallashuv jarayonida inson ongi va qalbi uchun kurash masalasi asosiy masalaga aylanadi. Mafkuraviy globallashuv sharoitida ezgu, bunyodkor g'oyalarning universallashuv, umumiydashuv jarayoni yuzaga kelib, demokratiya, gumanizm, tinchlik, barqarorlik, mustaqillik va ozodlik, qonunning ustuvorligi, inson erkinliklari kabi g'oyalar g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar globallashuvi sharoitida umumbashariy qadriyatga aylanib bormoqda.

## **12. 5. Milliy g'oyaning mafkuraviy kurashlarda muhim omil ekanligi**

Milliy g'oya va milliy mafkuraning bosh strategik maqsadi milliy mustaqillikni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni ta'minlash uchun jamiyat a'zolarining hayot sharoitini yaxshilashdan iboratdir. O'zbekiston tashqi siyosatining o'ziga xos g'oyaviy-mafkuraviy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, bu masala O'zbekiston Konstitusiyasining 17-moddasida o'z aksini topgan. Konstitusiyaning 17-moddasida qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'yektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin<sup>1</sup>.

Mafkuraviy siyosat bu muayyan g'oyaviy qarashlar tizimini odamlar ongiga singdirish, zararli ma'naviy-mafkuraviy ta'sirlar, turli ko'rinishdagi tazyiqlarning oldini olishga qaratilgan uslub va vositalar hamda ularni ishlab chiqish, tartibga solish va boshqarish bilan bog'liq faoliyat majmuidir.

Bugungi kunda odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'sirini doimiy ravishda sezib yashaydi. Axborot asri, elektronika asri deb atalayotgan XXI asrning hozirgi davrida g'oyaviy-mafkuraviy ta'sirlardan xoli bo'lish deyarli imkonsiz bo'lib, bugungi kunda "mafкура poligonlari yadro poligonlari"ga nisbatan ko'proq kuchga egadir. Jamiyat hayotiga nisbatan harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, uni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin bo'lib, ammo jamiyatga nisbatan g'oyaviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyindir. Milliy g'oya – millat tafakkuri va ongining mahsuli bo'lib, u har bir millatning siyosiy ong

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 8-бет.

darajasi va rivojlanishini ham o'zida ifodalaydi. Shuning uchun ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib, hech bir jamiyat o'zining oldiga qo'ygan oliy maqsadi – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo eta olmaydi. Milliy g'oya va mafkura eng avvalo o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglashga yordam beradi, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'ygan oliy maqsad va vazifalarni qamrab oladi. Milliy g'oya jamiyatimizda mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlar, har qanday toifalar va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini muayyan maqsad atrofida birlashtiradi, davlatimizning daxlsizligini asraydi va el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydi.

Milliy g'oya va mafkura har qanday tajovuzkor millatchilik, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan xolidir. Milliy g'oya yosh avlodni vatanparvarlik va el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Milliy g'oya jamiyat hayotining barcha sohalarini o'zida qamrab olib, uning ma'naviy negizi mezoniga aylanadi. Jamiyat taraqqiyoti, mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan ulkan vazifalarni bajarishga ommani safarbar etish milliy g'oya vositasida amalga oshiriladi. Milliy g'oya va mafkura O'zbekiston xalqining milliy ruhini, madaniy merosini, his-tuyg'usini, milliy g'urur va iftixorini, kuch qudratini, orzu-intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Bugungi kunda dunyoda insonning qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va bugungi kunda dunyoni shunday asosda bo'lib olishga urinishlar davom etmoqda. Buning uchun ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, ularning yutuqlaridan keng foydalanishga harakat qilmoqdalar. Ana shunday sharoitda milliy g'oyani chuqur egallash orqaligina bunday mafkuraviy maydonlarda olib borilayotgan kurashlarning mohiyatini to'g'ri tushunish va oldini olish mumkin bo'ladi. Mafkuraviy jarayonlar fikr va g'oyalar tizimi sifatida inson ongiga yo'naltirilganligi, o'ziga xos maqsadlari borligi bilan farqlanadi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng jahondagi

ma'lum bir siyosiy kuchlar va mafkuraviy poligonlar ulkan iqtisodiy salohiyat va qulay geosiyosiy va geostrategik mavqega ega bo'lgan Markaziy Osiyo va uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekistonni o'z ta'siriga olishga harakat qilib, mamlakatimiz hududiga diniy ekstremizm, fundamentalizm, missionerlik, prozelitizm kabi zararli g'oyalar va mafkuralarni tarqatishga harakat qildilar. Markaziy Osiyoga ekstremizm va fundamentalizm g'oyalarini tarqatishdan ko'zlangan asosiy maqsad – diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash emas, balki ana shu g'oyalardan foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish va shu yo'l bilan siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritishdan iborat edi.

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng boy tarixiy, ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida g'oyaviy, mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratildi.

O'zbekiston mustaqillikdan keyin ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqaror, umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lgan, ma'naviy merosni va diniy qadriyatlarni tiklab, inson huquqlarini ustuvor soha darajasiga ko'tara olgan mamlakat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jamiyat hayotida amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalar masalasiga to'xtalib o'tib, – Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur<sup>1</sup>, – degan edilar.

Milliy g'oya O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va uni buyuk davlatga aylantirish haqidagi ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, ekologik, diniy, demografik, tarixiy qarashlar yig'indisi bo'lib, O'zbekiston xalqini istiqbolga yuksak ishonch va iymon e'tiqod ruhida tarbiyalaydi. Mafkuraviy kurashlar kuchaygan bugungi kunda yoshlar qalbida ona-Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tilimizga, ota-bobolarimizdan meros muqaddas islom diniga sog'lom munosabatni qaror toptirish, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish bugungi kundagi dolzarb

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Т.: Ўзбекистон, 2019. 40-бет.

vazifalardir. Bugungi kunda milliy g'oyaning muhim tamoyili inson qadriyatini har tomonlama yuksaltirish va xalq farovonligini oshirishdan iborat bo'lib, bunga erishish uchun xalqimiz, yurtimiz fuqarolarining hamjihatligi va birdamligini yanada mustahkamlash talab etiladi. Bu vazifa milliy g'oya va mafkuraning mazmuni va mohiyatini tashkil etadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Umummafkuraviy jarayonlar deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy g'oya va umummafkuraviy jarayonlarning biri-biri bilan uyg'unligini tushuntirib bering?
3. Mafkuraviy jarayonlarda ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning manfaatlari qanday g'oyalar orqali birlashadi?
4. Mafkuraviy jarayonlarni anglash darajalarini aytib bering?
5. Mafkuraviy jarayonlarning turli xil g'oyalar va mafkuralar o'rtasidagi kurashini qanday tushunasiz?
6. Dunyodagi mafkuraviy jarayonlarning tezlashuvi haqida nimalarni bilasiz?
7. Mafkuraviy jarayonlar va mafkuraviy kurashlarning biri-biridan farqini aytib bering?
8. Milliy g'oyaning mafkuraviy kurashlardagi roli qanday namoyon bo'ladi?

## **13-BOB. MILLIY G'OYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH MEXANIZMLARI VA VOSITALARI**

### **13.1. Milliy g'oyaning o'ziga xos xususiyatlari. Milliy g'oyaning muayyan mamlakat yoki xalq maqsadlari va taraqqiyot yo'li bilan bog'liqligi**

Milliy g'oya, eng avvalo, milliy ongning mahsuli bo'lib, u odamlarning e'tiqodiga aylanishi bilan milliy ongning yanada rivojlanishiga olib keladi. Milliy ongning rivojlanib borishi esa, o'z navbatida milliy g'oyaning takomillashib, rivojlanib borishga ta'sir ko'rsatadi.

Milliy ongning rivojlanishi milliy o'zlikni anglashdan boshlanadi. Milliy ong mazmun jihatidan milliy g'oyadan kengroq bo'lsada, milliy g'oya uning asosiy, umumiy mohiyatini ifodalaydi. Milliy ongi o'zaro uyg'un va mushtarak bo'lgan millat hamda etnik birliklar muayyan milliy g'oya atrofida birlashib, muayyan maqsadni o'z oldiga qo'ygan tarzda faoliyat yuritadi. Milliy ong – har bir millat yoki elatning tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning bevosita ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalaridagi faollik darajasini ifodalovchi tushunchasidir. Milliy ong millatning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, mehnati, boshqa millatlar bilan muloqot va aloqadorligi jarayonida paydo bo'ladi. Milliy ong alohida milliy muhitda sodir bo'lib, uning shakllanishiga tarixiy taraqqiyotda to'plangan bilimlar, siyosiy va huquqiy g'oyalar, san'at sohasida erishilgan yutuqlar, axloq, din va ijtimoiy ruhiyat singari jamiyat ongi ta'sir ko'rsatadi. Milliy ong tarixiy tajribani, oldin o'tgan ajdodlar ishlab chiqqan bilimlarni va tafakkur-mantiq usullarini o'ziga singdirib, voqelikni g'oyaviy tarzda o'zlashtirib, muayyan vazifalarni o'z oldiga qo'yadi. Milliy ong – O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning samarali omillaridan biri bo'lib, mustaqillikka erishgan millat o'z vazifalarini umummilliy g'oya va mafkura sifatida qanchalik chuqur va har tomonlama anglab yetsa, bu g'oya va

mafkuraning moddiy kuchga, bunyodkorlik omiliga aylanishi shu darajada samarali bo'ladi.

Milliy g'oya milliy ongning milliy burch va mas'uliyat bilan bevosita bog'langan holdagi ko'rinishi bo'lib, milliy g'oya kishilarning ongidagi o'zgarishlarning asosiy mezonini va ko'rsatkichiga aylangandagina o'zining asosiy ijtimoiy funksiyalarini bajara oladi. Demokratik jamiyatning barpo etilishida ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy jarayonlar muhim rol o'ynaydi, shu bilan birgalikda ijtimoiy ong shakllari, ayniqsa, mafkura, g'oya, kishilarning turmush tarzi, tafakkuri tarzida ham ko'pgina o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Milliy g'oya O'zbekistonning umumiy va yagona Vatan ekanligini tushunish, davlat tilini o'rganish, hurmat qilish, istiqloqlarga sadoqat, mustaqillikni mustahkamlash va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishga intilish kabi jarayonlarni o'zida ifodalaydi. Shu bilan birgalikda, milliy g'oyada kishilarning milliy-madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylashi, jamiyatning madaniy-iqtisodiy kamolotiga intilishi, etnik munosabatlarda umuminsoniylikning ustuvorligi kabi tuyg'u va maqsadlar ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, milliy manfaatlar, ehtiyojlarning umumiy maqsadlarga bo'ysundirilganligi, milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash jarayonlarining mamlakatning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga yo'naltirilganligi, siyosiy institutlar, partiyalar, jamoat tashkilotlari hamkorligi, diniy qavmlarning o'zaro hamjihatligi milliy g'oyaning rivoji va ko'zlangan maqsadlarga erishishida muhim ahamiyatga egadir. Milliy g'urur – shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan, ajdodlari qoldirgan moddiy va ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushunchadir. Milliy iftixor – millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish tuyg'usidir. Milliy g'urur va iftixor o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish, o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash, xalqimizning urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish, o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon



qilishni o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini o'zida ifodalaydi, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydi, asriy orzu-istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Milliy g'oya O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi. Milliy g'oya adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettirib, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy g'oya jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etib, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Shu bilan birgalikda milliy g'oya jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi. Milliy g'oya o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qilib, jamiyatdagi barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning umumiy manfaatlarini ifodalaydi. Milliy g'oya mamlakatning mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi hamda davlatimizning hududiy yaxlitligi va sarhadlari dahlsizligini ta'minlashga yordam beradi. Milliy g'oya qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. U demokratiya va o'z-o'zini boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallashiga asoslanadi. Milliy g'oya milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanadi. Shu bilan birga u xalqaro huquq qoidalariga mos kelib, iqtisodiy plyuralizm va xilma-xil mulkchilikning erkin shakllanishini ta'minlaydi. Milliy g'oya vijdon erkinligi va fikrlar xilma-xilligi muhitini shakllantirib, aholining ijtimoiy himoyalanganligi, jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligi jarayonlariga xizmat qiladi. Milliy g'oya respublikamizda yashovchi barcha millat va elat vakillarining umumiy manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi.

### **13. 2. Milliy g'oyani rivojlantirish tushunchasi, ma'no-mazmuni, milliy g'oya rivojlanishining ong va tafakkur, turli xil omillar bilan bog'liqligi**

Milliy g'oya mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to'g'risidagi yaxlit va izchil ta'limot bo'lib, u o'zida jamiyat taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillarini ifoda etadi. Milliy g'oya mamlakatdagi har bir millat, elat, ijtimoiy guruh, din, partiya yoki ijtimoiy qatlam vakili uchun umumiy mezon bo'lib, hozirgi davrda milliy g'oya uning tushuncha va tamoyillarini hayot talablari va bugungi taraqqiyotimiz masalalarini e'tiborga olgan holda o'rganish, boyitish, takomillashtirish va tushuntirish, targ'ib etish, undagi bilim-qarashlar tizimi asosida yangicha e'tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirish nihoyatda muhimdir. Milliy g'oya deganda mustaqillik yillarida yangi mafkurani shakllantirish borasida olib borilgan izlanishlar natijasida yuzaga kelgan asosiy g'oyalar, qoida va tariflar majmui, tuyg'u va tushunchalar tizimi tushuniladi. Milliy g'oya va mafkura biz qanday jamiyat, qanday davlat, qanday tuzum barpo etamiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob berib, milliy g'oyaning bosh strategik maqsadi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyatni barpo etishdan iboratdir. Milliy g'oya ana shu yo'lda fuqarolarni birlashtirib, ularni yakdil va hamfikir bo'lishlariga xizmat qiladi. Milliy g'oya millat taraqqiyotini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy manbasidir. Milliy g'oya – milliy ongni uyg'otuvchi, millatning o'zligini anglatuvchi, milliy o'ziga xoslik va mentalitetga ta'sir ko'rsatuvchi, milliy ruhiyat, g'urur, iftixor, e'tiqod va mas'ullik tuyg'ularini shakllantiruvchi fikr bo'lib, milliy g'oya har bir insonning o'zini anglashi jarayonida shakllanib, rivojlanib boradi. Milliy g'oyani rivojlantirish jarayoni insonning oila va tashqi muhit bilan munosabatlari asosida, milliy o'zlikni anglash, boy tarixiy moddiy va ma'naviy merosga tayanilgan holatda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish asosida amalga oshiriladi. Milliy g'oyani rivojlantirish urf-odat, an'ana va qadriyatlardan boshlanib, ma'naviy meros, tarixiy xotira va milliy taraqqiyotda to'plangan tajribalarni o'z ichiga oladi. Milliy g'oyaning rivojlantirilishida milliy ong, milliy

o'zlikni anglash va milliy mentalitet muhim o'rin egallaydi. Millatning o'zligini anglashi, o'zining tarixiy ildizlariga tayanib, o'z millatiga xos bo'lgan udumlar, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarga amal qilishi milliy g'oyaning uyg'onib, rivojlanib va takomillashib borishiga xizmat qiladi. Milliy ong va milliy o'zlikni anglash milliy g'oyaning rivojlantirilishiga ta'sir ko'rsatadi. Milliy g'oya millatning o'ziga xosligini saqlab turadi, millat manfaatlari yo'lida millat vakillarini birlashtiradi, ularni uyushtirib, taraqqiyot yo'nalishlarini belgilaydi. Milliy g'oya milliy o'ziga xoslikni saqlab turish, milliy manfaatlarni amalga oshirish va millatning istiqbolini belgilash jarayonida muhim ahamiyatga egadir. Milliy g'oyani rivojlantirish jarayonida milliy manfaatlar uchun umummilliy harakat vujudga keladi. Milliy g'oya insonda vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otadi, uning ong va tafakkurida ona zaminning muqaddasligi tuyg'usini mustahkamlaydi. Milliy g'oya millat vakillarida millat taqdiri uchun mas'ullik tuyg'ularini ham uyg'otadi. Milliy g'oya millat vakillari bilan yonma-yon yashaydigan o'zga millat va elat vakillarini, ularning manfaatlarini hurmat qilish, ularni o'z atrofida birlashtirish va uyushtirishga xizmat qilib, ularda diniy va insoniy bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Avlod-ajdodlari yuksak intellektual salohiyat, meros va ijtimoiy taraqqiyot tajribalarini yaratgan millatning milliy g'oyasi kelgusi avlodlarning taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Milliy g'oya millatning o'z-o'zini anglashi, milliy ong rivojlanishi bilan cheklanib qolmay, u millatni boshqalarga tanitadi va xalqaro mavqeini belgilashga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Milliy g'oya milliy ma'naviy tiklanishga asos bo'ladi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida milliy tiklanish masalasida katta yutuqlarga erishildi. Boy tarixiy-ma'naviy merosimiz qaytadan tiklanib xalqimizga qaytarib berilmoqda, milliy urf-odat, an'ana, udumlar va qadriyatlarni tiklash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Boy tarixiy moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizga asoslanayotgan milliy g'oya muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanmoqda, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortib bormoqda, xalqimiz ma'naviy boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalib bormoqda. O'zbekistonda iqtisodiyotni ilg'or texnologiyalar asosida modernizasiya qilish, yoshlarimizni sog'lom va barkamol qilish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda 2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-

quvvatlash yili” deb nomlangan bo’lsa, 2019 yilga “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb nom berildi. Inson erki, huquqining oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi, uning ishbilarmonlik, tadbirkorlik bilan halol mehnat qilishi, boy va farovon hayot kechirishi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun faoliyat olib borishi milliy g’oyaning asosiy maqsadidir. Milliy mafkuraning bosh g’oyasi mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan g’oyalarni hayotga tatbiq qilish va yanada rivojlantirish O’zbekiston tomonidan olib borilayotgan siyosatdagi muhim masalalardan bo’lib, O’zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik sohasida o’z an’analariga doimo sodiq bo’lib, bu yo’ldan hech qachon og’ishmasdan ilgari boradi, – deydi O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o’rtasida o’zaro hurmat, do’stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko’z qorachig’idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir<sup>1</sup>.

Milliy g’oyani rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo’ladigan demokratik jamiyat qurish tamoyillari davlat, mamlakat hamda fuqarolarni kelajakka da’vat qiladigan ma’naviy ehtiyoj, taraqqiyotga undaydigan omillardan biri tarzida yuzaga keladi, kishilarni boshqarish vazifasini bajarayotgan siyosiy partiyalar, rahbar shaxslar aql-zakovati hamda salohiyatini o’zida ifodalaydi.

Jamiyatda olib borilayotgan islohotlar va o’zgarishlarning asosiy maqsadi bo’lgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish O’zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirib, milliy g’oyaning jamiyat hayoti barcha sohalariga ta’sirini kuchaytiradi. Shuning uchun xalqimiz va mamlakatimizning bugungi va kelgusi taraqqiyotini belgilashda milliy g’oya muhim o’rin tutadi.

Milliy g’oya tamoyillari demokratik jamiyat qurish tamoyillari bilan uyg’unlikda mamlakatning ichki hayotini boshqarishning asosiy mezonlaridan biri bo’lish bilan birga, tashqi siyosatda davlatning salohiyatini ko’rsatadigan, uning

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Т.: Ўзбекистон, 2019. 58-бет.

jahon hamjamiyati va xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini namoyon qiladigan ma'naviy qadriyat va ijtimoiy omil bo'lib hisoblanadi.

Milliy g'oyada ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish, demokratik jamiyat qurish kabi ezgu maqsadlar o'z ifodasini topgandir.

O'zbekiston mustaqilligidan so'ng ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish, demokratik jamiyat qurish kabi ezgu maqsadlar kun tartibiga qo'yildi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish esa jamiyatimizning ijtimoiy ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yot mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, jamiyat a'zolarida mustahkam e'tiqodni shakllantirib, ularni yanada jipslashtirib, mamlakat fuqarolarining o'zaro totuv, do'st va inoq bo'lib yashashiga, o'z manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga chorlaydigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va nihoyat, yurtning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy g'oyani shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi yillarda o'ziga xos sharqona demokratik jamiyatni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldi. Ana shunday yo'nalishlardan biri bu, komil insonni tarbiyalab yetishtirish, uning ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishdan iborat edi.

Demokratik jamiyat barpo etish jarayoni milliy g'oyaning shakllanishi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilib, milliy g'oya o'z davrining asosiy vazifasi va maqsadini o'zida aks ettiradi. Milliy g'oyaning eng muhim xususiyati – insonni, jamiyatni ma'lum maqsad sari yetaklaydigan, uni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanligidadir. Milliy g'oya har bir xalq va millatning o'z salohiyatini to'la-to'kis ro'yobga chiqarish, o'zi istagan, o'zi xohlagan, o'zi tanlagan taraqqiyot yo'lidan borish imkoniyatini beradi.

### **13.3. Milliy g'oyaning rivojlanish mexanizmlari – milliy-ma'naviy meros, urf-odat, an'analar va qadriyatlar**

Milliy g'oya millat taraqqiyotini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy manbasi bo'lib, u har bir insonning o'zini anglashi jarayonida shakllanadi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi uning o'zini anglashidan boshlanadi. Milliy g'oya milliy-ma'naviy meros, urf-odat, an'ana va qadriyatlardan boshlanib, ma'naviy meros, tarixiy xotira va millat taraqqiyotida to'plangan tajribalarni o'z ichiga oladi. Milliy g'oya oila va millat vakillarining o'zaro munosabatlari, hatti-harakatlari va milliy mentalitet ta'sirida shakllanib, milliy g'oya tizimida milliy ong, milliy o'zlikni anglash va milliy mentalitet yetakchi o'rinni egallaydi. Inson o'zining turmushi va hayot kechirishi jarayonida o'z millatiga xos bo'lgan udumlar, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarga amal qilsagina milliy g'oya uyg'onib, rivojlanib va takomillashib boradi. Milliy ong va milliy o'zlikni anglash milliy g'oyaning shakllanishi uchun asos bo'ladi. Milliy g'oya ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida odamlarni birlashtiradi, uyushtiradi, ma'lum bir maqsadga yo'naltiradi, harakat dasturi bo'ladi va taraqqiyotning yo'nalishini belgilaydi. Milliy g'oya milliy o'ziga xoslikni saqlab turish, milliy manfaatlarni amalga oshirish va millatning istiqbolini belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Milliy g'oya insonlarning ongi va qalbiga singib borishi jarayonida milliy manfaatlar birlashib, jamiyatning barcha a'zolarining manfaatlarini o'zida ifodalaydigan umummilliy harakat vujudga keladi. Mana shu umummilliy harakatni vujudga keltirish milliy g'oyaning muhim vazifasidir. Milliy g'oya millat vakillarida vatanparvarlikni shakllantiradi, ularda ona zaminning muqaddasligi tuyg'usini uyg'otib, uni ko'z qorachig'idek asrash tasavvurini mustahkamlaydi. Milliy g'oya har bir millat vakiliga uning boy tarixiy ma'naviy merosi, tarixiy taraqqiyotga katta hissa qo'shgan vakillari to'g'risida ma'lumot berib, ularda g'urur va iftixor tuyg'ularini mustahkamlaydi. Milliy g'oya insonda tarixiy xotirani mustahkamlaydi, uning takrorlanmas imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatini vujudga keltiradi hamda millat vakillarida millat taqdiri uchun mas'ullik

tuyg'ularini uyg'otadi. Milliy g'oyaning imkoniyatlari nihoyatda keng bo'lib, u millatni boshqalarga tanitadi, uning umumjahon sivilizasiyasi jarayonlariga mustaqil sub'yekt sifatida kirib borishiga o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Milliy g'oya milliy-ma'naviy tiklanishdagi muhim manba bo'lib, millatning avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarning qaytadan tiklanib milliy rivojlanishga yo'naltirilishi ushbu jarayonni o'zida ifodalaydi. O'zbekistonning boy ma'naviy merosi shakllanayotgan yangi ma'naviyatimizning negizini, poydevorini tashkil qiladi. Ma'naviy merosimizda xalqimizning asriy orzu-intilishlari, bilimlari va hayotiy tajribalari mujassamlashgan bo'lib, u o'zligimizni anglash, milliy tiklanish va rivojlanishimiz uchun qudratli tayanch bo'lib xizmat qiladi. Milliy g'oya va mafkura ham ma'naviy merosimizga tayangan holda shakllanadi hamda rivojlanadi. Ma'naviy meros xalqning muqaddas xotirasi bo'lib, uning kishilik tarixi va ma'naviy taraqqiyotidagi tutgan o'rnini belgilab beradi. Ma'naviy meros jamiyatda alohida olingan inson uchungina emas, balki butun jamiyat va xalq uchun xizmat qiladi.

Har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlari, udumlari va marosimlari mavjuddir. O'zbek xalqining urf-odatlari, an'analari, marosimlari qadimgi tarixga ega bo'lib, ular xalqning ma'naviy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lib, shakllanib, takomillashib, o'z mazmunida shu xalqning orzu-umidlari, istaklari, turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham har bir xalq, millat, elat milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlarni avaylab-asrashi, taraqqiy ettirishi, kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyat sifatida yetkazishi muhimdir. Urf-odat, an'analar, marosim va bayramlar xalqning, millatning ma'naviyati, qadriyatlarining ajralmas qismidir. Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho va noyob meros sifatida takomillashib, to'ldirilib, xalqchillashib, zamonaviylashib kelayotgan urf-odatlar va marosimlar milliy g'oya va mafkurani xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda milliy urf-odat va an'analarimizning jamiyatni birlashtiruvchi, xalqimizni jipslashtiruvchi, odamlar o'rtasida mehr-oqibatni kuchaytiruvchi, ularni safarbar etuvchi xususiyatlaridan yanada samaraliroq foydalanish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Urf-odat, an'ana va marosimlarning shakllanishiga xalqning bosib

o'tgan tarixiy yo'li, xo'jalik yuritishning o'ziga xosligi, tabiiy muhit kabi bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Milliy an'analarni o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda to'y-ma'rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdabaga yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Urf-odat va marosimlar mazmuniga ko'ra dunyoviy va diniy, tarqalish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy hamda umuminsoniy urf-odat va marosimlarga bo'linishi mumkin. Asrlar mobaynida shakllangan, avlodlar avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omil bo'lib kelmoqda.

Qadriyatlar – jamiyatda, kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasidan iborat bo'lib, qadriyatlar tushunchasi voqelikdagi muayyan hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Qadriyatlar inson uchun ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblar va boshqalarning qadrini, ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri bo'lib hisoblanadi. Xalqimizning asrlardan asrlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Bizning milliy qadriyatlarimiz Markaziy Osiyo sivilizatsiyasiga xos jihatlardan, ya'ni tug'ilgan hudud va ona yurtiga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, xushmuomalalik, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham farqlanadi. Milliy qadriyatlarimizda milliy urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar ham mavjuddir. Mamlakatimiz taraqqiyoti hozirgi davrining yuksak ifodalari bo'lgan istiqloq, buyuk kelajak, vatanparvarlik, insonparvarlik, demokratiya, qonunning ustuvorligi kabi qadriyatlar bugungi kunda nihoyatda qadrlanmoqda. Istiqloq inson qadri, uning manfaat va ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni dolzarblashtirib yubordi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda ham inson erki, huquqi, manfaati eng oliy qadriyat sifatida baholanmoqda. Insonning butun umri shaxsiy qadriyatlarni



takomillashtirish, o'z qadrini kamolga yetkazish, o'zgaralar, jamiyat, zamon va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglashga intilish jarayonidan iboratdir.

#### **13.4. Milliy g'oya ta'sirchanligini oshirish mexanizmlari. “Fikr – g'oya – mafkura – tizim” munosabati**

Milliy g'oya – millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradigan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shaklidir. Milliy g'oya xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham o'zida aks ettiradi. Milliy g'oyaning asosiy maqsadi fuqarolarni, keng jamoatchilikni asosiy g'oyalari, maqsad va yo'nalishlari bilan O'zbekistonning taraqqiyot yo'lining ma'no-mazmuni, milliy-madaniy negizlari, xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda ishonch uyg'otish, ularni adolatli, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishi maqsadlarini amalga oshirishga uyushtirishda namoyon bo'ladi. Milliy g'oya fuqarolarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalab, g'oya bilan g'oyaning, fikr bilan fikrning, jaholatdan ma'rifatning farqini anglashga, ma'rifatga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladi. Inson ong-tafakkurga ega bo'lgan oliy mavjudot bo'lib, u tashqi olamda bo'layotgan voqea va hodisalarni fikr yordamida o'z ongida ifodalaydi. Fikr insonning voqelikka oddiy munosabatini ifoda etib, shamol bo'lmoqda, quyosh chiqmoqda, maysa chayqalmoqda, gulxan kuchaymoqda, inson harakatlanmoqda, degan fikrlarda inson tevarak atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarni o'z tafakkurida ifodalamoqda. “Inson yoki, umuman, xalq ozod bo'lmasdan, baxtga erisholmaydi” degan fikr esa g'oyaviy mazmunga ega bo'lgan fikr bo'lib, bu fikrda oldiga qo'yilgan maqsad namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham, g'oya inson tafakkurining mahsuli bo'lib, u ma'lum bir maqsadga qaratilgan fikr bo'lib hisoblanadi. G'oya o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, odatda g'oya dastlab bir shaxsning ongida shakllanadi, so'ng ijtimoiy dolzarbligiga qarab, odamlar, xalqlar, millatlar orasiga yoyiladi. Milliy g'oya ham mustaqillikdan so'ng tizimli tarzda yaratilib, xalqimizning o'z oldiga qo'ygan maqsad-muddolarini o'zida ifodalab, taraqqiy etib bormoqda. G'oyani falsafiy jihatdan talqin qilganda,

g'oya – voqelik va hayot ta'sirida vujudga keladigan, uni aks ettirish asosida shakllanadigan dunyoni bilishning o'ziga xos shakllaridan biri bo'lib, u shaxs, jamiyat, guruh, partiya va boshqalarning muayyan maqsadlarini ifodalovchi, ularni birlashtiruvchi va pirovard maqsadlarga safarbar etuvchi ijtimoiy fikr bo'lib hisoblanadi. G'oya ijtimoiy fikr sifatida shakllanib, u muayyan tarzda namoyon bo'ladi. G'oya o'zida biron-bir maqsadni ifodalab, odamlarni amaliy harakatga undaydi. G'oyaning eng muhim hususiyatlaridan biri, u muayyan mafkuraning asosi bo'lib hisoblanadi. G'oya oddiy munosabat ifodasi bo'lish bosqichidan butun bir xalqni, butun bir jamiyatni va hatto butun sivilizasiyani olg'a boshlovchi kuchga aylanish bosqichigacha bo'lgan taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Masalan, do'stlik, birodarlik, tinchlik, tenglik, hamkorlik g'oyalari bugungi kunda butun insoniyatni, muayyan mintaqadagi davlatlarni birlashtiruvchi va bahamjihat bo'lib yashashga da'vat etuvchi g'oyalar bo'lib hisoblanadi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyat hayotida mavjud bo'lgan muayyan g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, ma'lum bir qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'zi ham yangi g'oyalarni yaratib, ularni targ'ib qiladi. G'oya insonlar qalbi va ongini egallab, jamiyat rivojiga ta'sir etadi. Voqelikni, hayotni, uning qonuniyatlarini o'rganish, kashf etish, o'zlashtirish, bilish va anglash bilan shug'ullanuvchi barcha ijtimoiy tafakkur shakllari – ilm-fan, falsafa, din, san'at va badiiy adabiyot, axloq, nafosat, siyosat va huquq kabi sohalar muayyan bir g'oyalarga tayanadi va ular asosida rivojlanadi. G'oyalarni tizimli ravishda, muayyan turlarini o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda ko'rib o'tganda, ular ilmiy g'oyalar, falsafiy g'oyalar, diniy g'oyalar, badiiy g'oyalar, ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, milliy g'oyalar, umuminsoniy g'oyalar kabi turlarga bo'linadi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida oldin g'oya vujudga keladi, g'oya asosida mafkura, mafkura asosida tizim, tizim asosida esa siyosat vujudga kelib taraqqiy etib boradi. Jamiyat hayotida g'oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanligidir.

Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'lib, dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e'tiqodning asosini ham g'oya tashkil etadi. O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi

ekanligi, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi. Mafkura arab tilidagi "mutafakkiratun" so'zidan olingan bo'lib, chuqur ma'noli, teran mazmunli fikr, degan ma'noni bildiradi. Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning, jamiyatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy rivojlanish tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidan iboratdir. Mafkura g'oyaga nisbatan mazmunan kengroq tushuncha bo'lib, insoniyat tarixida turli-tuman mafkuralar bo'lgan. Mafkuralar muayyan diniy, falsafiy ta'limotlar asosida yaratiladi, ma'lum bir ilmiy qarashlar va axloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkuralar o'z mohiyati va ta'sir kuchiga ko'ra jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga bo'lib yuborishi, davlatning jahondagi obro' va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, xalqlarni yuksaklikka ko'tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin bo'lib, yuksak maqsadlar, bunyodkor g'oyalarga asoslangan mafkuralar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo'ladi, ma'naviyatni yuksaltiradi, insonlarni ulug'vor ishlarga safarbar etadi. Ozodlik, erkinlik, mustaqillik, tinchlik, hamkorlik g'oyalari asosida shakllangan, ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralar bunyodkorlik xususiyatiga ega bo'ladi. Vayronkor g'oyalar asosida shakllangan mafkuralar esa jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'ladi, millat va xalqlarni asoratga soladi. Bunday mafkuralar, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, hukmron, mustabid, tajovuzkor, bosqinchilik, ekstremistik, aqidaparastlik shakllarida namoyon bo'ladi<sup>1</sup>.

Turli-tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanishi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanishi mumkin.

Milliy g'oya va mafkura muayyan tizimdan iborat bo'lib, tizim bu tashqi olamdagi o'zaro bog'liq, muayyan tartibdagi bir-biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir. Mafkuraning asosini dunyoqarash tashkil etib, dunyoqarash – bu, avvalo, insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda, anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir.

---

<sup>1</sup>Яхшиликков Ж. Я., Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя ва мафкура. – Т.: Фан, 2015. 79-бет.

Dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shuki, unda afsona, asotirlar, din, falsafa, fan, siyosat, huquq, san'at, axloq va shu kabi ijtimoiy-ma'naviy hodisalar mujassamlashgan holatda aks etgan bo'ladi. Dunyoqarash kishilarning turmush tarzlari va hayotiy mavqelarini, ularning axloq-odob me'yorlaridan tortib bir butun madaniyati va ma'naviyatigacha bo'lgan barcha jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istak va maqsad-muddaolari ifodalangan g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi bo'lib, unda manfaatlari ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi. Mafkuraning asosiy strukturaviy komponentlari, fikr – g'oya – mafkura – tizim – siyosatdan iborat bo'lib, 1). fikr – dastlab biror-bir individ ongida vujudga keladi va o'zida yangilikni tashuvchi xususiyatga ega bo'ladi. 2). g'oya – fikr ko'pchilikning ongiga singadigan bo'lsa va u insonlarni muayyan maqsad sari birlashtirib, safarbar etadigan bo'lsa u g'oyaga aylanadi. 3). mafkura – davlat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan g'oyalar majmuidan kelib chiqadi va butun jamiyatga tatbiq etiladi. 4). tizim – mafkura asosida davlatda aniq asosga ega bo'lgan tizim ishlab chiqiladi. 5). siyosat – mafkuraga asoslangan tizim asosida har bir davlat o'z ichki va tashqi siyosatini olib boradi. Mafkura ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy, badiiy qarashlarning, g'oyalarning muayyan tizimi sifatida dunyoqarashga asos bo'ladi. O'zbekistonning milliy mafkurasini tizimli tarzda ko'rib o'tganda, mafkuraning bosh g'oyasi – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bosh g'oyaning mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan g'oyalar tizimi – Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi, Komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, Millatlararo totuvlik, Diniy bag'rikenglik g'oyalari o'zaro bir-biri bilan bog'liq holatda jamiyatdagi taraqqiyot jarayonini o'zida ifodalaydi. Milliy mafkuraning asosiy g'oyalari ma'rifatli dunyoda e'tirof etilgan umumiy qonun-qoidalar va xalqaro andozalar, umuminsoniy tamoyillar va qadriyatlarning ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay amal qilish, demokratiya va insonparvarlik kabi tamoyillarning talablariga to'liq mos keladi.

### **13.5. Milliy g'oya va OAV. Axborot - kommunikasiya sohasidagi o'zgarishlar va milliy g'oya ta'sirchanligini tobora oshirib borishda mafkuraning o'rni**

Ommaviy axborot vositalari har doim jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vositalardan biri bo'lib kelgan. Ommaviy axborot vositalarining milliy g'oya va mafkuraning targ'iboti va tashviqotida tutgan o'rni muhim bo'lib, keyingi yillarda jamiyatimizning barcha sohalaridagi yangilanishlar va islohotlar sharoitida OAV larning faoliyatida ham yangicha yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Bugungi kunda televideniye, radio, matbuot va ayniqsa, internet saytlarida milliy g'oya va mafkurani odamlar qalbi va ongiga singdirishga mo'ljallangan ma'lumotlar berib borilmoqda. OAV milliy g'oya targ'iboti va islohotlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ommaviy axborot vositalari – eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasi bo'lib, ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib, erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan bo'lib, milliy g'oya va mafkurani targ'ib-tashviq qilish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qilib, ushbu holatda ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rag'batlantirishga qodir bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari orqali milliy g'oyani singdirishning yana bir jihati, axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish hamda O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liqdir. Bugungi kunda globallashuv jarayoni avj olgani sari odamlarning axborot olish, tarqatish va qabul qilishga bo'lgan talab va ehtiyojlari tobora ortib bormoqda. O'zbekistonda

ham internetdan foydalanuvchilar soni kun sayin o'sib, hozirgi paytda ularning soni 10 million kishidan oshdi va ularning aksariyatini yoshlar tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda erkin va farovon hayot qurish jarayonida milliy matbuotimizni yanada rivojlantirish, uning jahon andozalari darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga e'tibor soha xodimlaridan jamiyat oldidagi o'z ma'naviy burchini astoydil his etishni, kasbga yanada mas'uliyat va fidoyilik bilan yondashuvni, milliy manfaatlarimizning tom ma'nodagi himoyachisiga aylanishini talab etadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamiyatni turli axborot xurujlaridan himoya qilish, yosh avlodni Vatanga sadoqat, boy tarixiy moddiy va ma'naviy merosimizga muhabbat, ezgu qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, fuqarolarimizni ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini asrab avaylashga da'vat etish ommaviy axborot vositalari xodimlarining asosiy burchidir. Eng muhimi, har bir OAV vakili jahondagi mavjud xavf-xatarlarni, xususan, axborot olamidagi keskin kurashlarni teran anglagan holda xalqimizni doimo sezgir va ogoh bo'lib yashashga da'vat etishda o'z hissasini qo'shishi alohida ahamiyatga egadir. Bugungi kunda jahonda katta miqdordagi mablag'lar axborotni qayta ishlash, uni belgilangan makonga yetkazishga sarflanayapti. Uzoq va yaqin mintaqalardagi turli xil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar o'zlarining g'arazli niyatlari yo'lida ommaviy axborot vositalaridan foydalanib, axborot erkinligini suiste'mol qilib, axborot tahdidlari orqali yoshlarning ongi va qalbini egallashga harakat qilmoqda. Bugungi kunda internet tarmog'ini milliy qadriyat va an'analarimizni o'zida aks ettiruvchi veb-saytlar bilan boyitish, ta'lim muassasalarini internet tarmog'iga ulashda odob-axloq qoidalariga muvofiq bo'lmagan veb-saytlardan foydalanishga cheklovlarni joriy etish, yoshlarda axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo'lishini ta'minlash, har bir fuqaro tafakkurida mafkuraviy immunitetning shakllanish imkoniyatlarini kuchaytirish, g'oyaviy tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada faollashtirish, axborot xurujlarining oldini olishga qaratilgan milliy

qonunchiligimizga zarur o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish bugungi kundagi dolzarb masalalardir.

Insoniyat bugungi kunda axborotlashgan jamiyatga o'tayotgan ekan, axborotlashgan jamiyat – bu tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan narsa, hodisa, voqea, jarayonlar haqida axborotlarni yig'ish, yaratish, saqlash, qayta ishlash, tizimlashtirish, uzatish va qabul qilish, iste'mol, ayirboshlash, taqsimlashga asoslangan moddiy va ma'naviy jarayonlarni uyg'un holda tezkor harakatga keltiruvchi intellektual munosabatlar zaminiga qurilayotgan kishilar jamiyatidir. Hozirgi davrda jahonda mafkuraviy gegemonlikka intilayotgan ayrim kuchlar axborot texnologiya kommunikasiyalar, jumladan internet orqali mamlakatimizga mafkuraviy xurujlarni amalga oshirmoqda. O'zbek xalqini tanlagan yo'lidan chalg'itish uchun internet orqali turlicha mafkuraviy xurujlar amalga oshirilib, bu xurujlar jamiyatimiz a'zolarining ongi va tafakkuriga ta'sir qilishga qaratilgan xurujlardir. O'zbek xalqining asrlar davomida shakllanib kelayotgan, milliy mentalitetiga xos bo'lgan ota-onaga, o'zi yashayotgan mahalla jamoasiga, katta yoshdagi kishilarga chuqur hurmat bilan qarash, muayyan voqea va hodisalarga bosiqlik, mulohaza va andisha bilan munosabatda bo'lish, jamoa fikriga nisbatan alohida ehtirom ko'rsatish kabi fazilatlari mavjud bo'lib, mafkuraviy xurujlarni amalga oshirishda “individualizm”, “egoizm”, “kosmopolitizm”, “zo'ravonlik”, “diniy mutaassiblik” kabi zararli g'oyalar va mafkuralar turli yo'llar va vositalar orqali tarqatiladi. Globallashuv, axborotlashgan jamiyat sharoitida g'oyaviy, mafkuraviy xurujlar milliy urf-odatlarimizga, milliy madaniyatimizga ham qarshi qaratilmoqda. Bugungi kunda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish – mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda milliy g'oya va milliy mafkuramizni targ'ib qiluvchi, o'zligimizni anglatuvchi, kuchli g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, badiiy, sport, harbiy-vatanparvarlik, milliy o'yinlar yo'nalishlarida milliy axborot resurslarini yaratish va rivojlantirish hozirgi davrdagi dolzarb zamon talabidir.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Milliy g'oyaning o'ziga xos xususiyatlari va ularning jamiyatda yoshlar ma'naviy dunyoqarashiga ko'rsatadigan ta'sirini tushuntirib bering?
2. Milliy g'oyaning muayyan mamlakat yoki xalq maqsadlari uchun xizmat qilish mexanizmlarini aytib bering?
3. Milliy g'oyaning muayyan mamlakat milliy taraqqiyoti yo'lidagi mafkuraviy ahamiyatini ochib bering?
4. Milliy g'oyani rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
5. Milliy g'oya rivojlanishining milliy ong va tafakkur bilan bog'liqligi jamiyatda qanday namoyon bo'ladi?
6. Milliy g'oyaning rivojlanish mexanizmlarini aytib bering?
7. Milliy-ma'naviy meros va urf-odatlarining bir-biridan farqi nimada?
8. Milliy an'analar va qadriyatlarning mafkuraga ta'sirini bilasizmi?
9. Milliy g'oya ta'sirchanligini oshirish mexanizmlari deganda nimani tushunasiz?
10. Fikr va g'oyaning farqini aytib bering?
11. "Fikr – g'oya – mafkura – tizim" bu qanday jarayon?
12. Milliy g'oya va ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi rolini aytib bering?
13. Axborot-kommunikasiya sohasidagi o'zgarishlar milliy g'oyaga qanday ta'sir o'tkazadi?



## **14-BOB. MILLIY G'OYA – O'ZBEKISTON XALQINING ISHONCH- E'TIQODI MANBAI**

### **14.1. Jamiyatni erkinlashtirish va davlat qurilishini demokratlashtirishda milliy g'oyaning roli**

Mustaqillik yillarida O'zbekiston jamiyati oldida turgan eng katta vazifa barpo etilishi lozim bo'lgan davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy qiyofasini aniqlashdan iborat bo'lib, O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish asosiy maqsad qilib belgilandi. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatda barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat'iy nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratildi. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat xalqimizning asriy an'alariga, muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatiga, milliy qadriyatlarimizga tayanilgan holda amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda qurilayotgan yangi jamiyat o'zining g'oyaviy-mafkuraviy asoslariga tayanilgan holda amalga oshirilmoqda. O'zbek xalqining ming yilliklar davomida yaratgan o'ziga xos g'oyalari – tinchlik, ozodlik, hurlik, mustaqillik, ezgulik, barqarorlik, ma'naviy barkamollik, shaxsni ulug'lash, uning manfaatlarini hurmatlash – bularning bari yangi shakllanayotgan jamiyatimizning g'oyaviy poydevori bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan milliy tiklanish jarayoni bir tomondan milliy o'zlikni anglash, boshqa tomondan, jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy asoslarini yaratish, uchinchi tomondan esa bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish asnosida yuz berdi. O'zbekistonning milliy tiklanish konsepsiyasi milliy mafkuraning bosh g'oyasi – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish g'oyasi bilan uyg'undur. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkor faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. Mamlakatimizda milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirish millat va jamiyat oldida turgan vazifalarni aniqlashtirib olishni talab qilib, bu vazifalar milliy mafkuraning bosh g'oyasidan kelib chiqadi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik,

dinlararo bag'rikenglik g'oyalari milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirishdagi muhim nuqtalardir.

O'zbekistonda davlat va jamiyatning bundan keyingi rivojlanishi ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish va demokratiyalash bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishdir. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi erkinlashtirish jarayoni "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" degan tamoyil asosida olib borilmoqda. O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayotini erkinlashtirishda markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlash juda muhimdir. "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" konsepsiyasi o'zining g'oyaviy-mafkuraviy asoslariga ega bo'lib, ular O'zbekistonda mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, shakllangan qadriyatlar darajasi va ko'lami bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdan iboratdir. O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonida siyosiy partiyalar muhim vazifalarni amalga oshiradi. Siyosiy partiyalarning asosiy funksiyasi alohida fuqarolar, ijtimoiy qatlam va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarning jamiyat uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlashdan iborat. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi – mahallaning o'zni beqiyosdir. Mahallaning xalqimizning urf-odatlari, an'ana va qadriyatlarini saqlab qolish, odamlarni jipslashtirish, ular o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini kuchaytirishdagi o'zni va ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi davrda davlatning vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish borasidagi ishlar izchil davom ettirib kelinmoqda. Mustaqil O'zbekistonda demokratiya jahon demokratiyasi, Sharqning insonparvarlik hamda xalqchillik an'analari,

xalqimizning tarixiy tajribasi va ijtimoiy adolat to'g'risidagi tasavvurlari asosida shakllanmoqda. Demokratiya asosida qiziqish, intilish va manfaatlarni mutanosiblashtirish, muvofiqlashtirish, murosaga keltirish va kelishish siyosati yotadi. Shu ma'noda demokratiya jamiyatdagi kuchlarni birlashtirishga, mamlakat salohiyatini taraqqiyot uchun safarbar qilishga xizmat qiladi. O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy-siyosiy xayotini erkinlashtirib, "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" konsepsiyasini hayotga tatbiq qilganda quyidagi masalalarga e'tibor qaratilmoqda. Eng avvalo, jamiyat fuqarolarida eski tafakkur tarzini yo'qotish, g'oyaviy-ma'naviy boqimandalik hissini bartaraf etish. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda ham ishbilarmonlik, tadbirkorlikka katta e'tibor qaratilmoqda, halol mehnat qilib boy-badavlat, farovon hayot kechirish milliy g'oyadagi Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi g'oyalarda o'z ifodasini topgandir. "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" konsepsiyasini hayotga tatbiq qilishda insonning siyosiy ongi va madaniyatini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ko'tarish, jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga dahldorlik hissini shakllantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda odamlarda o'z-o'zini boshqaruv organlarida, jamoat tashkilotlari, nodavlat muassasalarida erkin faoliyat ko'rsatish ko'nikmasini paydo qilish, mamlakat siyosiy hayotini erkinlashtirish orqali demokratik jamiyat qurish mexanizmining huquqiy-qonuniy asoslarini yaratish, davlat tuzilmalarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko'r-ko'rona aralashuv mexanizmini yo'q qilish, qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham jamiyatni erkinlashtirish va fuqarolik jamiyatini barpo qilish jarayonida muhim ahamiyatga egadir. O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotiga xos bo'lgan sharqona demokratiya milliy bosiqlik, andisha, yoshi ulug'larga hurmat, o'zaro maslahat, har qanday keskin masalada ham tomonlarning kelishuvlariga asoslanadigan faoliyat bo'lib, milliy g'oya va mafkura asosida demokratik jarayonlar taraqqiy etib boradi.

## **14.2. Jamiyatni demokratlashtirish jarayoni – milliy g’oyani rivojlantirish omili. Milliy g’oyaning gumanistik mohiyati**

Mamlakatimizda demokratik institutlar faoliyatini yo’lga qo’yish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mustaqil O’zbekiston o’zining demokratik hayotini tashkil qilar ekan, o’tmishdagi va hozirgi G’arb va Sharq demokratiyasining barcha ijobiy tomonlarini hisobga olish yo’lidan bormoqda. O’zbek xalqi asrlar bo’yi orzu qilib kelgan haqiqiy demokratiyaga mustaqillik tufayli erishmoqda. O’zbekistonda barpo etilgan demokratiya yangi turdagi demokratiya bo’lib, mamlakatimizda mustaqillik va insoniylik tantana qilganligini hammaga ko’rsatmoqda. O’zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining birdan bir manbai xalq bo’lib, davlat xalqning irodasini ifodalaydi va uning manfaatlariga xizmat qiladi. Huquqiy demokratik davlatda inson sha’ni va qadr-qimmat, obro’si va hurmat-e’tibori, huquq va erkinliklari Konstitutsiya va boshqa tegishli qonunlar bilan himoya qilinadi. Demokratiya – erkin yashash va erkin faoliyat olib borish, fikr bildirish, o’z irodasini ifodalash, haq-huquqlaridan bemaolol foydalanish va jamiyat ishlariga faol qatnashishni anglatadi. Demokratiya har bir insondan yuksak ma’naviyat egasi bo’lish, mas’uliyat va jamiyat oldidagi burchni his qilishni talab etadi. Demokratiya erkin fuqarolik jamiyati sharoitida ochiq muloqotlar, qonun asosidagi munosabatlar, oshkoralikni yuzaga keltiradi va qonun asosida ijtimoiy adolatning tiklanishiga yordam beradi. Demokratiya sharoitida hokimiyat jamiyatning nazorati ostida bo’ladi. Saylash va saylanish mexanizmining amal qilishi, davlat rahbarlarining hisob berib turishi, matbuot erkinligi, jamoat tashkilotlarining faolligi milliy g’oya asosida amalga oshadi. Milliy g’oya asosida shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlari o’zaro yaqinlashib boradi, bir-biriga hisob berish kuchayib, shaxs va davlat manfaatlari uyg’unlashib ketadi. Milliy g’oya vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg’usiga asoslanib, demokratik jamiyatning taraqqiy etib borishi sharoitida milliy g’oya, milliy taraqqiyot va yurt rivoji tushunchalari o’zaro bir-biri bilan uyg’unlashib ketadi. Milliy-ma’naviy qadriyatlar milliy g’oyaning eng muhim asoslaridan bo’lib, milliy vatanparvarlik ruhi qanchalik baland bo’lsa, bu qadriyatlar shunchalik anglanib, ong va shuurimizga singib boradi. Mustaqillik

davrida mulkchilikka munosabat o'zgarib, hususiy mulk davlat tomonidan rag'batlantirildi, ishbilarmonlik va tadbirkorlik qo'llab quvvatlandi. O'zbek millatining boy tarixi va ma'naviy merosi chuqur o'rganila boshlandi. Davlat shaxsiy tashabbus va sa'y harakatni ro'yobga chiqarish uchun katta imkoniyatlarni yaratib berdi. O'zbekistonda barpo etilayotgan davlatchilik tizimi adolatli jamiyat qurishga qaratilgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oyada ham O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratlashtirish jarayoni o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonasi ham fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning o'ziga xos demokratik instituti sifatida faoliyat olib bormoqda. Hozirgi davrda demokratik taraqqiyot yo'lidan ketayotgan davlatlarga qo'yilgan asosiy talablar – qonunga tayanish va bo'ysunish, adolat tamoyiliga asoslanib ish ko'rish, turli ijtimoiy guruh, qatlam haq-huquqlari va manfaatlarini hisobga olish, kengashib ish ko'rish, saylov tizimining, o'ziga xos davlat hokimiyati bo'g'inlarining mavjudligi, davlatni, el-ulusni himoya qilish, insoniylik, mehr-muruvvat ko'rsatish va boshqalardir. Ushbu masalalarning amalga oshirilishi esa milliy g'oyaga bevosita bog'liqdir. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan birinchi ustuvor yo'nalishi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya qilish masalalariga qaratilgan. Demokratiya – yuksak ma'naviyat, fuqarolarning ichki madaniyati va intellektual imkoniyati, fuqarolarning barcha uchun birday zarur bo'lgan qonunlarga to'liq rioya etishi, inson haq-huquq va erkinliklarini, umumxalq, umumdavlat manfaatlarini himoya qiladigan, barchani qonunlarga bo'ysunib yashashga undaydigan umuminsoniy, huquqiy va ma'naviy qadriyat hisoblanadi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan davlat, eng avvalo, jahon sivilizasiyasi, boshqa xalqlarning ijobiy va ijodiy tajribalari, umuminsoniy qadriyatlarni inobatga olgan holda, adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik bilan sug'orilgan Sharq falsafasi va islom dini ta'limotlariga, milliy davlatchilik an'alariga asoslanmoqda. O'zbekistonda davlatchiligimiz asosini insonparvarlik tashkil etadi. Odamlarning

teng huquqliligi va o'z ijtimoiy manfaat hamda burchlarini to'liq anglab olishlariga erishish davlat tizimining bosh yo'nalishini tashkil etadi. Demokratik, adolatli, odil jamiyatning asosiy vazifasi odamlarning o'z qobiliyati va ehtiyojlarini to'la namoyon qilishlari va ro'yobga chiqarishlari uchun zarur bo'lgan dastlabki imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmni yaratib berishdan iborat. Jamiyatimiz va davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri, ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'rifatni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazishdir. Jamiyat hayotida odamzod qadri, erkinlik va qobiliyatlarining har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, kishilarning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilishini ifodalaydigan g'oya va qarashlar tizimiga insonparvarlik deyiladi. Insonparvarlik adabiyot, falsafa, san'at va boshqa sohalarda "gumanizm" degan nom bilan rivojlantirildi. Bugungi kunda insonparvarlik huquqiy demokratik davlatlarning barchasida hayotiy qoidaga aylanib bormoqda. Mustaqillikdan keyin O'zbekistonning siyosatida insonparvarlik qoidalariga katta e'tibor qaratilib, xalq hayoti va jamiyat faoliyati shu asosda tashkil etildi. Respublikamizda inson manfaatlarini himoya qilishga, uni qadrlashga, har bir shaxsning barkamolligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy tizim shakllantirildi, O'zbekistonda gumanizm tamoyillari, demokratik munosabat va qadriyatlar jamiyat hayotidan keng o'rin olmoqda. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash huquqiy demokratik davlatning eng muhim belgisi bo'lib, O'zbekistonda insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmi yaratilmoqda. O'zbekiston Konstitusiyasida inson huquqlarini kafolatlovchi qoidalar o'rin olgan. Inson o'z huquq va erkinliklariga tug'ilgandan ega bo'lishi, ya'ni tabiiy huquq g'oyasi qonun me'yorlari asosida aks ettirilgani mustaqil O'zbekiston Konstitusiyasining muhim xususiyati bo'lib, bu fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonparvarlik g'oyalari, mazmuni va tamoyillari o'zbek milliy mentalitetining muhim tarkibiy qismidir. Insonparvarlik g'oyalari xalq tafakkurining uzviy qismi bo'lib, ushbu an'ana mustaqillik yillarida yanada rivojlantirilmoqda.

### **14.3. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurilishining mafkuraviy kafolatlari**

Demokratik huquqiy davlat – jamiyat taraqqiyoti va davlat shakllarining rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan, davlatni tashkil qilishning eng mukammal shakli va mazmunidir. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jamiyatimiz rivojining siyosiy va konstitusiyaviy maqsadi qilib qo'yilgan. Huquqiy davlat qurishda fuqarolar yuksak huquqiy bilimga, huquqiy madaniyatga, huquqiy onglilikka erishmog'i, huquqqa hurmat va unga amal qilish odat qoidasiga aylanishi lozimdir. Huquqiy davlat huquq doirasida harakat qiladi, uning jamiyat va inson bilan barcha munosabatlari huquqiy me'yorga asoslanadi. Huquqiy davlatning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishida milliy g'oyaga asoslangan holda davlat organlari, mansabdor va yuridik shaxslar, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari hamda fuqarolar bevosita ishtirok qiladilar. Demokratik jamiyat qurish uchun mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlar adolatli bo'lishi, o'zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart. Bunday qonunlarga og'ishmay itoat etilsagina, jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi. Chunki barcha demokratik institutlar, inson huquq va erkinliklari qonun vositasida joriy etiladi. Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri – jamiyat a'zolarining qonun oldida tengligi, Konstitusiya va qonunlar ustunligining ta'minlanganligidir. Shu bilan birgalikda Konstitusiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etishda milliy g'oya muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 4-moddasiga ko'ra, davlatimiz o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning urf-odat va an'alarining hurmat qilinishini ta'minlaydi. Konstitusiyaning 8-moddasiga ko'ra, O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar mamlakatimiz fuqarolari tashkil etishi belgilab qo'yilgan. Konstitusiyamizning ushbu moddalari milliy g'oyamizning millatlararo totuvlik g'oyasida o'z ifodasini topgandir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 31-moddasida, Hamma uchun vijdon

erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi, deyilgan bo'lsa, 61-moddada, Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi<sup>1</sup>, deyilgan. Konstitusiyamizning ushbu moddalari milliy g'oyaning dinlararo bag'rikenglik g'oyasini o'zida ifodalaydi. Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17-moddasida, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'yektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi<sup>2</sup>, deyilgan. Konstitusiyaning ushbu moddasi milliy g'oyamizning yurt tinchligi g'oyasiga bevosita hamohang bo'lib, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan tinchliksevar siyosatni o'zida ifodalaydi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, hamda unga asoslangan holda qabul qilingan qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham milliy mafkuraning bosh g'oyasi va g'oyalar tizimi o'z ifodasini topgan bo'lib, Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlarida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik g'oyalari aks ettirilgan. Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishida Vatan ravnaqi g'oyasi quyidagicha ifodalangan. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 21-бет.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 8-бет.



yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizasiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investisiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish<sup>1</sup>, Vatan ravnaqi g'oyasining iqtisodiy asosini tashkil etadi. Harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan ustuvor yo'nalishida, ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizasiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish<sup>2</sup>ga oid masalalar o'z ifodasini topgan bo'lib, ushbu ustuvor yo'nalishida xalq farovonligi va komil inson g'oyalari o'z ifodasini topgan. Milliy g'oyaning asosiy g'oyalari harakatlar strategiyasining beshinchi yo'nalishi, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat, ustuvor yo'nalishida o'z ifodasini topgan bo'lib, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnicilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalari milliy

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. –Т.: Адолат, 2018. 5-бет.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. –Т.: Адолат, 2018. 5-бет.

g'oyamizning millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, yurt tinchligi kabi g'oyalarida ifodalangan.

O'zbekistonda o'tgan davr mobaynida huquqiy davlatning muhim yuridik negizlari yuzaga keltirildi, xalq ommasi ko'plab yangi qonun va farmonlar bilan tanishdi, ularning yangi davlat, yangi jamiyat uchun ahamiyatini angladi. Bugungi kunda O'zbekistonda huquqiy davlat asoslari izchillik bilan yaratilmoqda.

#### **14.4. “Vatanni sevmok iymondandir” g'oyasining mazmuni va ahamiyati**

Hadisi shariflarda “Vatanni sevmok iymondandir”, degan hadis keltirilgan. Vatanni sevish g'oyasi insondagi vatanparvarlik tuyg'usini o'zida ifodalaydi. Inson uchun Vatandan yuksakroq boylik yo'q bo'lib, iymonni, diyonatni tiklamay turib, kelajagi buyuk Vatanni yarata olmaymiz. Vatan tuyg'usi insonga ona allasi, bolalikda eshitgan she'r, qo'shiqlar bilan kiradi. Vatanparvarlik tuyg'usi insonda go'daklikdan boshlab shakllanadi va insonning butun umri davomida mustahkamlanib boradi. Vatan va vatanparvarlik hissini, millat hissini har bir o'zbekistonlik fuqaro chuqur anglashi hamda O'zbekiston fuqarosi bo'lganidan, shu yurtga dahldorligidan faxrlanishi lozimdir. “Ona Vatan” iborasi insonlar orasida muqaddas, aziz, sevimli Vatanga nisbatan ishlatilib, Vatan Onaga tenglashtiriladi. Vatan hissi shu Vatanning egasi bo'lgan xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatanning haqiqiy farzandi bo'lish uchun uni sevish, qadrlash, u bilan faxrlanishning o'zi yetarli bo'lmay, o'zini Vatan farzandi deb hisoblagan har bir inson uning yuksalishi va taraqqiyoti uchun bor imkoniyatini namoyon qilishga harakat qiladi.

Vatanparvarlik – insonning o'z yurti manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi fidoyiligi, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatning e'tiqod va iymon darajasiga ko'tarilishi, ona-yurt tarixi, milliy meros va qadriyatlarini bilish va e'zozlash, xalq va millat manfaatlari yo'lida astoydil mehnat qilish, Vatan himoyasi yo'lida har doim shay turish, o'z aql-zakovati, mehnati bilan uning boyligiga boylik, qudratiga qudrat qo'shishdir. Vatanparvarlik – o'z vatanining mustaqilligini asrab-avaylash,

uning yo'lida fidokorona mehnat qilish, Vatan himoyasiga tayyor bo'lish, Vatan tarixi va madaniyatini bilish va undan faxrlanishdir. Milliy g'oya va milliy mafkuraning asosiy maqsadlaridan biri ham O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaroni, birinchi navbatda yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbida insonparvarlik fazilatlarini chuqur singdirishdan iboratdir. Vatanparvarlik – iymon-e'tiqodga aylangan yuksak ma'naviyat bo'lib, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat mehnatda, insonning bunyodkorlik faoliyatida namoyon bo'ladi. Xalqimiz oldida turgan eng muhim vazifa – jamiyatimiz a'zolarini, eng avvalo voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura va o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash hamda milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo totuvlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek asrash, yosh avlod o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishda O'zbekiston yoshlar ittifoqi o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lishi lozim<sup>1</sup>, – degan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Vatanparvarlik – bu ona zaminni sevish, e'zozlash, o'z ona Vatani uchun jonkuyarlik qilish, o'z xalqining milliy madaniyati, san'ati, me'morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, Vatan oldida mas'uliyatli bo'lishdir. Vatanparvarlik odamga mas'uliyat yuklaydi, uni ijod va bunyodkorlikka, shijoat va g'ayratga rag'batlantiradi. Xalqimizning tub manfaatlariga, milliy g'oyaning hayotiy kuchga aylanishi uchun kurash ayni vatanparvarlik namunasidir.

Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 534-бет.

borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi<sup>1</sup>. O'zbekiston vatanparvarligining hal qiluvchi belgisi xalqlar do'stligi, baynalmilalchilik bilan mustahkam bog'liqligidir. Vatanparvarlik – bu insonning o'z millatiga, ona yeriga, iymoniga sodiqlikdir. Vatanparvarlik – bu Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, millat obro'siga hissa qo'shish, foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o'ylash, insonparvar bo'lish demakdir. “Vatanni sevmoq iymondandir” g'oyasi O'zbekiston fuqarolarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hissi o'zbek xalqi qadriyatlarining muhim jihatidir. Har bir insonning qalbida o'z Vatanga buyuk e'tiqod, olijanob muruvvat his tuyg'ulari barq urib tursa, bu ajoyib ne'matlarni umrbod ardoqlasa, hayotda, turmush tarzida qo'llasa, shundagina u sofdil, samimiy va odil fazilatli haqiqiy vatanparvar bo'la oladi. “Vatanni sevmoq iymondandir” g'oyasi O'zbekiston fuqarolarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib, ularda Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lish tuyg'usini mustahkamlaydi. Ushbu g'oyaning mazmuni – Vatanga mehr-muhabbatli va sodiq bo'lishdan, yurtning o'tmishi va hozirgi kuni uchun faxrlanishdan, mamlakat manfaatlarini himoya qilishga intilishdan iboratdir. Vatanparvarlik insonga ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish, o'z ona Vatanini dushmanlardan, yot va begona g'oyalardan himoya qilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslikni nazarda tutadi. Vatanparvarlik milliy g'oyani targ'ib qilish, O'zbekistonda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasidagi do'stlik, tinchlik va ahillikni mustahkamlash uchun kurashishda ham namoyon bo'ladi. Milliy mafkuraning bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot vatanparvarlik g'oyasi asosida bunyod etiladi. Vatanparvarlik g'oyalari inson ongiga oila sharoitida singdirilib, bu jarayon insonga bobolar o'giti, ota ibratini, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 229-230-бетлар.

yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksalib boradi. "Vatanni sevmoq iymondandir" g'oyasi O'zbekiston fuqarolarida vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashga yordam beradi, insonning vatanparvarlik tuyg'usi esa uning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga yordam beradi. O'z davlati bilan faxrlanish va fuqarolarning vatanparvarligi O'zbekistonni jahondagi rivojlangan davlatlar qatoriga chiqib olishi uchun katta imkoniyatlarni vujudga keltirib, bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda.

#### **14.5. Ko'pmillatli mamlakatimiz aholisi ongida «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasini shakllantirish vazifalari. Milliy g'oyaning fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati**

«O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasi – O'zbekistonda yashovchi barcha millat, elat va din vakillarining mamlakatimizni o'z vatani sifatida tan olinishini anglatuvchi g'oyadir. O'zbekiston mustaqilligining eng katta yutuqlaridan biri respublikamizda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikning ta'minlanishidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 18-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar<sup>1</sup>. O'zbekistonda bugungi kunda yagona Vatan – yagona xonadon tushunchasi yangicha mazmun kasb etib, barcha fuqarolarning yagona oila, butun mamlakat taqdiri uchun javobgarlik hissi oshib bormoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi, deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 9-бет.

ifodasini topdi<sup>1</sup>. «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasi – O'zbekistonda yashovchi barcha millat, elat va din vakillarining milliy ravnaqi, har bir millatning o'ziga xosligi, tili va madaniyatini takomillashtirish, e'tiqod erkinligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Bugungi kunda O'zbekistonda umumiy xonadon tinchligi, osoyishtaligi uchun mas'ullik burchi, fuqarolarning yuksak darajadagi vijdon va imon ishiga aylanmoqda.

Bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Ular umumiy uyimiz – O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo'shmoqda. Bizning Konstitusiyamiz va qonunlarimizda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklariga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat ta'lim muassasalarida o'qitish 7 tilda olib borilmoqda. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz yetakchi rol o'ynamoqda. Ular o'zlarining o'ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandchiligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishiga, har birimizga ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shmoqda<sup>2</sup>. O'zbekistonda yashovchi har bir millat vakili respublikamizdagi olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning pirovard natijasi – farovonlikdan, osoyishtalik, tinchlik va barqarorlikdan manfaatdordir. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 295-бет.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, –Т.: Ўзбекистон, 2018. 296-297-бетлар.

farovonligi – hamma uchun muqaddasdir. O'tgan davr mobaynida mustaqillik biz uchun eng ulug', eng aziz qadriyat bo'lib, milliy o'zligimiz, or-nomusimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli, ezgu orzu-intilishlarimiz, yutuq va marralarimizning hayotbaxsh manbai sifatida shu muqaddas zaminda yashayotgan barcha vatandoshlarimiz qalbidan mustahkam o'rin egalladi. O'zbekistonda davlat tomonidan milliy taraqqiyotimizdagi muhim va dolzarb masala – turli millat va etnik guruhlarining rivojiga katta e'tibor berilmoqda. Bu yo'nalishdagi milliy siyosat «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasi va quyidagi tamoyillar asosida olib borilmoqda. Eng avvalo O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari an'analariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lib, ularning rivoji uchun sharoit yaratildi. O'zbekistonda millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning qonun oldidagi tengligi ta'minlandi. Islohotlar jarayonida davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida etnik o'ziga xosliklar hisobga olindi. Millatlararo munosabatlarni hal qilishda millatchilikning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasizlik muhiti shakllandi. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida barcha millat va elat vakillarining har tomonlama ishtiroki ta'minlandi. O'zbekistonda ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiladigan partiyalar va jamoat birlashmalari tuzilishiga, ularning faoliyatiga yo'l qo'yilmadi. «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasi ezgu umumbashariy qadriyatlardan biri bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar taraqqiyotida hal qiluvchi o'rin tutib, ular uchun tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etilishi milliy g'oya bilan bevosita bog'liq bo'lib, fuqarolik jamiyati – bu shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei yuksak bo'ladi. Fuqarolik jamiyatida davlat va uning organlari faoliyati ustidan fuqarolarning jamoatchilik nazorati o'rnatiladi. Davlatning bir qator vakolatlari jamoat

tashkilotlari zimmasiga yuklanib, fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida, ko'pmillatli mamlakatimiz fuqarolari orasida, hamjihatlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasining amalga oshishini ta'minlaydi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Jamiyatni erkinlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat qurilishini demokratlashtirishda milliy g'oyaning rolini ko'rsatib bering?
3. Jamiyatni demokratlashtirishda milliy g'oya qanday ta'sir kuchiga ega?
4. Milliy g'oyaning insonparvarlik mohiyatini ochib bering?
5. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etishda mafkuraning rolini aytib bering?
6. “Vatanni sevmoq iymondandir” g'oyasining yoshlar ongiga ta'sirini ochib bering?
7. Ko'pmillatli mamlakat deganda nimani tushunasiz?
8. «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasini tushuntirib bering?
9. Milliy g'oyaning fuqarolik jamiyati rivojidadagi ahamiyati nimada?



## **15-BOB. MILLIY G'OYADA MA'NAVIY VA MODDIY HAYOT UYG'UNLIGI**

### **15.1. Ma'naviy va moddiy hayot tushunchalarining ma'no-mazmuni**

Jamiyat murakkab, o'z-o'zidan rivojlanib boruvchi tizimdir. Jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch insonlarning ma'naviy va moddiy faoliyati bo'lib, jamiyatning ma'naviy, moddiy va ijtimoiy-siyosiy hayot sohalari mavjuddir. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlari mavjud bo'lib, ma'naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o'zlikni anglash, dunyoqarash, bilimga intilish, san'at, g'oya, mafkura, nafosatga, ma'naviy kamolotga intilishlar kiradi. Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, harakat vositalari, o'zini himoyalash, o'zidan nasl qoldirish kabilardan iboratdir. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirishning muhim vositasidir. Jamiyatning ma'naviy hayot sohasida kishilar turli ma'naviy qadriyatlarni yaratadilar, tarqatadilar va yaratilgan ma'naviy boyliklar va qadriyatlar jamiyatning turli qatlamlari tomonidan o'zlashtiriladi. Ma'naviy ishlab chiqarish sohasiga adabiyot, san'at, musiqa asarlari bilan bir qatorda ilmiy bilimlar, falsafiy ta'limotlar, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy, badiiy qarashlar taalluqlidir. Hozir O'zbekistonda jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni milliy g'oya va mafkura asosida tarbiyalash, xalqimizning boy madaniy va ma'naviy merosi, qadriyatlari, an'analari hamda urf odatlarini egallashlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Ma'naviy ishlab chiqarish natijasida, dastavval obrazlar, g'oyalar va nazariyalar yaratiladi. Ular yordamida kishilar o'rtasidagi ma'naviy aloqalarga erishiladi. Inson ma'naviyati o'zaro ijtimoiy-ma'naviy faoliyatda shakllanadi va qaror topadi. Ma'naviy soha qadriyatlari o'z ahamiyatini uzoq vaqtlar davomida saqlaydi. Ma'naviy qadriyatlarni hosil etish hamma vaqt yangilik yaratishdan iborat bo'lgan. Ma'naviyat sohasi qadriyatlari ishlab chiqilishi, saqlanishi, zarur bo'lganda qaytadan tiklanishi va tarqalishi uchun maxsus yaratilgan muassasalarga ega bo'ladi. Ilmiy tadqiqot muassasalari,

ijodkorlar uyushmalari, madaniy-oqartuv muassasalari, kutubxonalar, muzeylar, teatrlar, maktablar va boshqalarda ma'naviylik va moddiylik o'zaro chirmashib ketadi. Jamiyatning ma'naviy hayoti o'z mohiyatiga ko'ra, kishilar hayotining mavjud jarayoni, amal qilishiga ko'ra-ijtimoiy hayotiy faoliyat va ongni ishlab chiqarish, tarqatish hamda kishilarning ma'naviy ehtiyojlari bilan bog'langan nisbiy mustaqil sohadir. Ma'naviy sohaning asosini ma'naviy ishlab chiqarish tashkil etadi. Bu jarayonda ong, ya'ni g'oyalar, qarashlar va tasavvurlar ishlab chiqiladi. Ma'naviy ishlab chiqarish ijtimoiy ongni, ma'naviy qadriyatlarni yaratishdan iboratdir. Ma'naviy ishlab chiqarish aqliy va intellektual mehnatga asoslanadi. Ma'naviy ishlab chiqarish eng avvalo, mehnatning ijodiy xarakterini namoyon qiladigan sohadir. San'atkor, olim, rassom, bastakorning mehnati ijodiy mehnatdir. Inson tarbiya va ta'lim jarayonida yangi g'oyalar, qarashlar va bilimlarni egallaydi. Unda dunyoqarash, ijtimoiy maqsad va hayotiy yo'nalish shakllanadi. Jamiyat ma'naviy hayotining negizini ma'naviy faoliyat tashkil etadi. Ma'naviy faoliyat deganda insonning aqliy, jismoniy, tashkilotchilik va boshqa hatti-harakatlari majmui tushuniladi. Ma'naviy faoliyat ma'naviy qadriyatlarni yaratishga yo'naltirilib, san'at asarlari, falsafa, ilmiy tadqiqotlar, axloq va huquqning me'yorlarida, siyosiy g'oyalarda, ideallarda o'z ifodasini topadi. Ma'naviy faoliyat aqliy, ijodiy mehnat bilan shug'ullanadigan alohida olingan inson yoki kishilar guruhiga xos xususiyatdir.

Jamiyatning ma'naviy hayoti moddiy hayot bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyatning moddiy hayot sohasi kishilarning o'z moddiy sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Inson jamiyat hayotida o'zining moddiy ehtiyojlarini qondiradigan, jamiyat hayotining doimiy va zaruriy asosi hamda sharti bo'lgan moddiy ne'matlarni ishlab chiqaradi va takror ishlab chiqaradi. Jamiyatning moddiy hayotida moddiy ishlab chiqarish jarayonida insonlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqalarga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi. Odamlar o'zining moddiy ishlab chiqarish faoliyatida irodasi va ongiga bog'liq bo'lmagan holda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadilar. Jamiyatning moddiy hayot sohasidagi moddiy ishlab chiqarish jarayoni jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ya'ni muayyan ijtimoiy qatlam, toifa va guruhlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda turli qatlam va

toifalarning mavjudligi mehnat taqsimotiga, shuningdek, ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatning iqtisodiy sohasi moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy sohada mamlakatning xo'jalik hayoti tashkil etiladi. Jamiyatning iqtisodiyot sohasi kishilarning o'z moddiy sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi: Eng avvalo, bu kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlardir. Jamiyatning moddiy hayotiga oziq-ovqat, kiyim-kechak, turarjoy, yoqilg'i va kommunikasiya vositalari kiradi. Moddiy hayotning muhim jihatlaridan biri bu – moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish munosabatlaridir. Jamiyatning moddiy hayotiga yana ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui kiritiladi. Uning muhim jihatlaridan biri moddiy boyliklar va tabiiy zahiralardir. Jamiyatning moddiy hayotida ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar va ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik munosabatlari muhim ahamiyatga egadir. Mulk tushunchasi inson o'ziga tegishli bo'lgan moddiy narsalar, shu jumladan, o'zining hayoti, jismoniy va ma'naviy kuchlariga egalik qilish huquqiga ega bo'lganida vujudga kelib, mulk odatda bir-birini taqozo qilgan holda ikki shaklda, xususiy va umumiy mulk shaklida bo'ladi. Ishlab chiqarishning texnologik va tashkiliy tomonlari mavjud bo'lib, texnologiya – bu insonning mehnat buyumlariga fan va amaliyot imkoniyatlari, talablari asosida ta'sir etish usulidir. Ishlab chiqarishning texnologik usuliga mos keladigan uchta – asboblardan foydalanish, mexanizasiya va avtomatlashtirish bosqichlari mavjuddir. Texnika taraqqiyoti fandagi chuqur o'zgarishlar asosida yuz beradi. Fan-texnika inqilobi o'zining hozirgi bosqichida mikroelektronika, biotexnologiyaning rivojlanishi, yalpi kompyuterlashtirish va hokazolardan iborat bo'lmoqda.

## 15.2. Milliy g'oyaning ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligiga asoslanishi

Jamiyat hayotida moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qilgan har bir inson va jamiyat ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligiga asoslangan holda rivojlangan holda ijobiy natijalarga erisha oladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan uyg'un holatda olib borilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab jamiyatimiz hayotida ana shu ikki omilning uyg'un tarzda rivojlanishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Taraqqiyotning o'zbek modeli iqtisodiy rivojlanish bilan birga, ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy rivojlanish omillarini ham o'zida qamrab oladi. Taraqqiyotning o'zbek modeli faqatgina iqtisodiy rivojlanish modeli emas, balki milliy tiklanish, ma'naviy yuksalish va ijtimoiy taraqqiyot modelidir. O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida iqtisodiy va ma'naviy omillarning *o'zaro uyg'unligi* masalasi bugungi kundagi dolzarb masaladir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bir qator muvaffaqiyatlarga erishilib, eng avvalo jamiyatda iqtisodiy va ma'naviy omilni uyg'un qabul qilish immuniteti shakllantirildi. Jamiyatda iqtisodiy va ma'naviy uyg'unlikdagi mustahkam baza yaratilib, inson va jamiyat hayotida iqtisodiy va ma'naviy omillarning uyg'unligi zarurat ekanligi milliy taraqqiyot jarayonida amaliy tajribadan o'tdi.

Jamiyat hayotida iqtisodiy va ma'naviy omillarning uyg'unligi dialektik zarurat bo'lib, agar jamiyat hayotida iqtisodiy omil ustuvor bo'lib, ma'naviy omil ikkinchi darajada bo'lsa, jamiyat hayotida insonning ma'naviy-ruhiy dunyosi qashshoqlashadi. Shu bilan birgalikda jamiyatda ijtimoiy muhit muvozanati buzilib, davlatning byurokratik roli oshadi. Jamiyat hayotida iqtisodiy omil ustuvor bo'lsa, xalq ongida bir yoqlama fikrlar, qarashlar va tushunchalar shakllanib, istiqboldagi rivojlanish shubha ostida qoladi va boshqalar. Agar jamiyat hayotida ma'naviy omil ustuvor bo'lib, iqtisodiy omil ikkinchi darajada bo'lsa, jamiyat hayotida insonning turmush farovonligi kutilgan darajada bo'lmaydi. Jamiyat hayotida iqtisodiy omilga e'tibor qaratilmasa, jamiyatda iqtisodiy-moddiy

manfaatdorlik susayib, odamlarda davlatning qudratiga bo'lgan ishonch yo'qoladi. Shu bilan birgalikda xalqning ertangi kunga bo'lgan ishonchi va orzusi bir yoqlama tus olib, tadbirkorlik, tashabbuskorlik va optimistik ruh yo'qolib boradi. Iqtisodiy va ma'naviy omillar dialektik birlikka ega bo'lib, ular milliy g'oyada o'z ifodasini topadi.

Inson o'z hayoti davomida iqtisodiy omil vositasida moddiy farovonlikka erishadi, ma'naviy omil vositasida insoniy tabiatini yuksaltirib boradi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi masalasi quyidagicha ifodalangan.

Insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi, – deydi Islom Karimov, – Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi<sup>1</sup>. Moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investisiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Shu sababli ham investisiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investisiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: investisiya deymiz, islohotlar deymiz, modernizasiya, deymiz. Lekin bu o'zgarishlardan ko'zlangan asosiy maqsad nima o'zi? Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir<sup>2</sup>. O'zbekistonda moddiy va ma'naviy jarayonlarning

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 67-бет.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Т.: Ўзбекистон, 2019. 8-бет.

o'zaro mutanosib tarzda rivojlantirilayotgani siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo'lib xizmat qilmoqda.

### **15.3. Moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo'yish, ularning biriga ustunlik berishning samarasiz ekanligi**

Inson o'z hayoti davomida tana va ruh ehtiyojlarini qondirishga harakat qilib, tana ehtiyojlarini qondirish inson borlig'ining birlamchi sharti hisoblanadi. Inson jamiyat hayotida yashar ekan, u yeyishi, ichishi, kiyinishi, uy-joyga, mol-mulkka egalik qilishi zarurdir. Biroq inson hayotining ma'nosi faqat moddiy ne'matlardan bahramand bo'lish, tanparastlik, lazzatlanish, boylikka ruju qo'yishdan iborat emas. Inson ruhan ham ma'naviy oziqqa ehtiyoj sezadi. Shu bois insonda ma'rifatparvarlik, odamiylik, odillik, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, olihimmatlik, vatanparvarlik kabi ma'naviy fazilatlar shakllanadi, Yuksak ma'naviyat insonni ruhan poklab, uning imyon-e'tiqodini mustahkamlaydi. Inson hayotida moddiy ehtiyojlar qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, ma'naviy ehtiyojlarga talab undan ham kuchliroqdir. Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning imyon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch nazarda tutiladi.

O'zbekistonda shakllanayotgan milliy g'oya va milliy mafkura insonga bir yoqlama qarashlarga zid ravishda, undagi moddiylik va ma'naviylikni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarning farovon, boy-badavlat, mulkdor, ishbilarmon va tadbirkor bo'lib yashashlari uchun imkoniyat yaratadi. Shu bilan birgalikda ularni mehnatsevar bo'lishga rag'batlantiradi. Yuksak ma'naviyat inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolat o'rnatib, saxiy va olihimmat bo'lishga undaydi. Ma'naviy taraqqiyotning yuksakligi iqtisodiyotning gurkirab rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Aholi turmush darajasi faqat uning daromadining oshishi, sifatli iste'mol tovarlari bilan yetarli ta'minlanishi asosida o'lchanmay, balki ma'naviyat va ma'rifat, madaniy ehtiyoj, turli shakllarda sifatli xizmat ko'rsatish, bo'sh vaqtdan mazmunli

foydalanish, jismoniy va aqliy yetuklik kabi ko'pgina sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Insonning kundalik hayotidagi ehtiyojlar va manfaatlar – inson faoliyatini harakatlantiruvchi kuchdir. Inson ishlab chiqarish orqali o'z ehtiyojlarini qondiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar faqat yuksak ma'naviyat, halollik, poklik, ahdga vafo kabi ma'naviy fazilatlar asosida tartibga solinadi. Iqtisodiyot va ma'naviyat o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, ma'naviyatsiz iqtisod va iqtisodiyotsiz ma'naviyat yuksak bosqichga ko'tarila olmaydi. Mamlakat qanchalik iqtisodiy rivojlangan bo'lsa, bu mamlakatda ma'naviyat va ma'rifat shunchalik rivojlangan bo'ladi. Ma'naviyati va ma'rifati yuksak inson yurt, mamlakat oldida o'ziga yuklatilgan mas'uliyatni chuqur his etadi. Shu yurt, mamlakat, xalq uchun halol, bunyodkorlik mehnati bilan uning yuksalishi uchun o'z hissasini qo'shishi kerakligini teran anglab yetadi. Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy yo'nalish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish, ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish jarayonlari bilan uyg'un holatda olib boriladi. Yuksak ma'naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassam bo'lib, insonning olijanob fazilatlari yetuk shaxslar timsolida o'z aksini topadi. Insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar shaxs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o'rnida, uning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishida, muayyan g'oya va mafkurani amalga oshirishida yaqqol namoyon bo'ladi. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishida muayyan tarixiy shart-sharoit hamda muayyan g'oya va mafkura muhim o'rin tutadi.

Bozor iqtisodiyoti inson ehtiyojlarini to'laroq qondirish, shu bilan birga uning qobiliyati, ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu imkoniyatlarga quyidagilar taalluqlidir. Eng avvalo mehnatni tashkil etish usul va shakllari o'zgardi. Undan so'ng mehnatga yangicha munosabatni rag'batlantirishga yordam beruvchi omillar shakllantirildi. Insonga o'z qobiliyati va qiziqishlariga mos bo'lgan faoliyat turlarini tanlash imkoniyati yaratildi. Davlat tomonidan shaxs tadbirkorligi va ishbilarmonligi har tomonlama qo'llab-quvvatlandi. Jamiyatda turli mulk shakllari vujudga keltirildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxs erki va huquqlari yanada kengayadi. Davlat va jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatlari yaratilib, demokratik qadriyatlar yanada rivojlanadi. Shu bilan birgalikda ma'naviy meros va madaniyat yutuqlaridan erkin

foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ushbu imkoniyatlar shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda, uning komil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson manfaatlari, uning ezgu maqsadlari ro'yobga chiqishini ta'minlashga qaratilgandir. Milliy g'oyada insonning qadr-qimmatini joyiga qo'yish, inson uchun baxtli hayot sharoitlarini yaratish, insonning o'zligini anglashi, iymon-e'tiqodi butun bo'lishi masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Milliy g'oyada mujassam bo'lgan buyuk maqsadlarni ro'yobga chiqarish avvalambor jamiyatimiz va shu jamiyat a'zosi bo'lgan har qaysi insonning ma'naviy olami va dunyoqarashidagi ijobiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir.

Milliy g'oya sifatida milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadi O'zbekistonda chinakam insoniy jamiyat qurish va komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Bu mafkuraning iqtisodiy zaminini mulk shakllarining xilma-xilligi, bozor munosabatlarining amal qilishi; ijtimoiy asosini ijtimoiy qatlam va guruhlarning erkinligi va teng huquqliligi; siyosiy negizini fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat tizimlari; huquqiy omilini inson erkinligi qonunlarda kafolatlanishi va mustahkamlanishi; ma'naviy tayanchini hur fikrlilik, fikrlar xilma-xilligi, daxlsizligi, millat va xalq hamjihatligining garovi, jahon hamjamiyatida xalqimizning har jihatdan mustaqilligi va tengligi tashkil etadi. Milliy mafkura shaxs erkinligi g'oyasiga tayanadi. O'z haq-huquqini taniydigan, ayni paytda o'z manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtiradigan insongina milliy g'oyamiz tamoyillarini to'g'ri baholay oladi. Erkinlashtirish jarayonida inson haq-huquqini ta'minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga rioya etib yashash jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylanib boradi.

#### **15.4. Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi masalalarining yoritilishi**

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xalqimizning asrlar davomida intilib kelgan orzu-maqsadlari va zamon talablarini, dunyoviy taraqqiyot mezonlarini hisobga olgan holda, jamiyatimiz hayotida ma'naviy va moddiy omilning uyg'un tarzda rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi.



O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish davrida jamiyat a'zolarining o'z salohiyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun teng imkoniyat va erkinlik muhiti, ham qonuniy, ham amaliy shart-sharoitlar yaratildi. O'zbekistonda barpo etilayotgan davlat va jamiyatning milliy modeli O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlarida nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, – Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi<sup>1</sup>, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida qilinishi zarur bo'lgan asosiy vazifalar Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, – Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo, keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida quyidagi maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozim, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – bularga:

- ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investisiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirish;
- iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;
- valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. –Т.: Адолат, 2018. 3-бет.

- iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro'yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash<sup>1</sup>, – taalluqlidir.

Ma'naviy hayot, ma'naviy omil masalasida qilinishi zarur bo'lgan asosiy vazifalar haqida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Murojaatnomasida quyidagi fikrlar bayon qilingan. – Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. O'tmishga berilgan baho, albatta, xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur. ...Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak<sup>2</sup>.

Iqtisodiy islohotlar har qanday sharoitda, har qanday ijtimoiy tuzum yoki jamiyatda zaruriy ehtiyoj hisoblanadi, biroq bu jarayon ma'naviy hayotdagi islohotlar va insonlarning kamoloti bilan uyg'un tarzda amalga oshiriladi. O'zbekistonda kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sohasida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Shakllanayotgan yangicha iqtisodiy tafakkur ma'naviy jarayon bo'lib, inson hayoti va taqdiri, uning axloqiy fazilatlari, ichki dunyosi, ruhiyati bilan bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida odamlarda mulkdorlik tuyg'usi shakllanib, mulkni tasarruf qilishda erkinlikka amal qilindi, iqtisodiy munosabatlarda ma'naviy fazilatlar, halollik, poklik, va'daga vafo qilish, burchga sadoqat, ishbilarmonlik fazilatlarini shakllantirishga katta e'tibor qaratildi.

Barchamizga ayonki, O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, –

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Т.: Ўзбекистон, 2019. 10-11-бет.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Т.: Ўзбекистон, 2019. 40-бет.

Biroq bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir. ... Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og’ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko’taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz<sup>1</sup>.

Jamiyat iqtisodiy hayotidagi o’zgarishlar jamiyat ma’naviy hayoti, ilm-fan taraqqiyotiga bevosita bog’liq bo’lib, ushbu masala Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlarida o’z ifodasini topgandir. Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor islohotlariga o’tishi ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirishga bo’lgan yangicha yondashuvlarga yo’l ochib berdi, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Mustaqillik yillarida O’zbekiston Prezidenti va hukumatining bir qator muhim qaror va farmoyishlari qabul qilindi. Ular mamlakatimizning ilmiy salohiyatini saqlab qolish va ilmiy muassasalar faoliyatini mamlakatimizning dolzarb ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga yo’naltirish imkonini berdi. Fundamental tadqiqotlar natijasida to’plangan yangi bilimlar olimlarning amaliy va innovasion ishlanmalarida o’z ifodasini topmoqda<sup>2</sup>.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari, nutqlari, ma’ruzalarida milliy g’oya, milliy mafkura, jamiyatning moddiy-iqtisodiy va ma’naviy-mafkuraviy hayot sohalari va ular o’rtasidagi o’zaro uyg’unlik masalalari bayon qilingan.

## **15.5. Moddiy va ma’naviy omillarni o’zaro uyg’unlashtirish, shu asosda inson, davlat va jamiyat hayotini yuksaltirish masalasi**

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2018. 144-146-бетлар.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2018. 169-170-бетлар.

Jamiyat taraqqiyotida moddiy va ma'naviy omillar ijtimoiy rivojlanishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekiston mustaqilligidan so'ng jamiyat hayotining iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy hayoti sohalarida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy rivoji ehtiyojlari jamiyatda milliy ma'naviyatni, mamlakatning har bir fuqarosida ijodiy fikr qila olish qobiliyatini shakllantirish masalasiga e'tiborni kuchaytirdi. Jamiyatda ma'naviy imkoniyatlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, amalga oshiriladigan ishlarning ko'lami shunchalik keng va ularning samarasi ham yuksak bo'ladi. Mustaqillikdan so'ng iqtisodiyot sohasida mulkning aksariyat qismi davlat tasarrufidan chiqarilib, uni xususiylashtirish jarayonlari chuqurlashtirildi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishilib, milliy pul – so'mning qadrini oshirish, iqtisodiyotda, xususan qishloqda, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, chet el investisiyalarini iqtisodiyotga tatbiq etib yangi sanoat korxonalarini tashkil etishga katta e'tibor qaratildi. Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan yuqoridagi moddiy omillar shu bilan birga kishilarning sermahsul mehnat qilishlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning ta'sirchan, baquvvat tizimini shakllantirish, har bir kishining samarali mehnat qilishdan shaxsiy manfaatdor bo'lishini ta'minlash kabi omillarga bevosita bog'liqdir. Jamiyatning moddiy-iqtisodiy hayotini yuqori bosqichga ko'tarish inson omili bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy omillarga bevosita bog'liq bo'lib, bu sohada aholining yuqori darajadagi zamonaviy savodxonligiga, yuksak madaniyatli bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Bugungi kunda faqat yuqori saviyali, ma'lumotli, madaniyatli va kasbiy tayyorgarligi jihatidan yetuk bo'lgan shaxslargina O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish va demokratik huquqiy davlatni barpo etish mamlakatimizni mustahkamlashning hal qiluvchi shartidir. O'zbekistonda shakllanayotgan fuqarolik jamiyati shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari mumkin qadar to'la darajada ro'yobga chiqishiga imkoniyat hamda shart-sharoitlar yaratadi. Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti ma'naviy omillarga bevosita bog'liq bo'lib, bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatni faqat yuksak

ma'naviyat, axloqiylik hamda vatanparvarlik negizlarida barpo etish mumkin. Yuksak ma'naviyat xalqimizni ezgulikka, insoniylikka, nurli istiqbol va buyuk kelajakka eltuvchi yo'ldir. Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda milliy qadriyatlarni tiklash, vorislik an'alariga sadoqatli avlodni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimizni ozod va obod jamiyatga aylantirish, Vatan ravnaqini ma'naviy ta'minlab berishga qaratilgan nazariya – milliy g'oya shakllandi. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning tiklanishi asosida yangi jamiyat qurishda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot va ta'lim-tarbiyaning roli oshirildi. Ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzliksiz ish olib borish fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning muhim tarkibiy qismidir. Ma'naviyat iqtisodiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi va rivojlantiruvchi muhim omillardan biridir. O'zbekistonda mustaqillik sharoitida mamlakatning ilmiy-intellektual salohiyatini yanada kuchaytirishga katta e'tibor qaratildi. Mustaqil davlatning istiqboli, uning kuch-quvvati fan, ta'lim va san'at taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Fan ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishda va ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishda, texnika va texnologiyaning prinsipial yangi xillarini yaratishda, mehnat unumdorligini oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Iqtisodiyot ma'naviyatning rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoitlarni yaratadi. Yangi texnologiyalarni yaratish, mehnat qurollarini takomillashtirish va shu kabilar ilm-fan va texnik ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, ma'naviyatning o'sishi, ilmiy-texnika kashfiyotlari, aholi bilimlarining va malakasini oshishi, iqtisodiy tafakkurning o'zgarishi, yuksak marralarni ko'zlash va yangiliklarga intilish iqtisodiyotni rivojlantiradi. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda mehnatga butunlay yangicha munosabat shakllantirilmoqda. Jamiyatda vujudga keladigan moddiy-iqtisodiy munosabatlarda inson asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, har qanday ijtimoiy faoliyatning sub'yekti sifatida e'tirof etilib, odamlarning dunyoqarashidagi baholar, qadriyatlar mezoniga, ijodga, mehnatga nisbatan yangicha munosabatlar shakllantirilmoqda. Jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim ma'naviy omili shaxsning ijodiy intilishlari, tadbirkorligi, ishbilarmonligini qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirishdir. Bugungi kunda

yangicha dunyoqarash, erkin iqtisodiy tafakkur va erkin iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga egadir. Mehnatni munosib baholab, moddiy rag'batlantirish va shu orqali jamiyat iqtisodiy hayoti rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish bevosita odamlarning iqtisodiy tafakkur darajasiga bog'liqdir. O'zbek modeli ma'naviyatga, mehnat tarbiyasiga katta e'tibor berishni va ayni paytda tarbiya ishlari moddiy rag'batlantirish bilan olib borilishini taqozo qiladi. O'zbek modeli an'anaviy mehnat tarbiyasining mazmunini zamonaviy texnologiyaga asoslangan rasional tashkil etilgan ishlab chiqarishga, bozor iqtisodiyotiga, mehnat bozoriga moslashtirib boyitishni taqozo qiladi. An'anaviy tarbiyamiz mehnatsevarlik, ishdagi tartib-intizom, tashabbuskorlik, fidoyilik singari ma'naviy fazilatlarga katta e'tibor qaratishni taqozo qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida odamlarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, halol mehnat orqali inson o'z turmushini yaxshilashi, ehtiyojlarini qondirishi, qobiliyat va iqtidorini, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatining yaratilishi iqtisodiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning erkin rivojlanishi, uning siyosiy va iqtisodiy faolligining o'sishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatning shakllanishi, iqtisodiyotning rivojlanishi va jamiyat hayotining erkinlashishi demokratik jamiyat barpo etish jarayonida amalga oshiriladi. Jamiyat taraqqiyotida moddiy omillar – foydali qazilmalar, ishlab chiqarishni tashkil etadigan texnologiyalar, ma'naviy omillar – ilm-fan taraqqiyoti, ta'lim darajasining yuqoriligi, insonning o'z mehnati natijasidan manfaatdor bo'lib, ijodiy mehnat qilishi ijtimoiy yuksalishning asosidir.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ma'naviy va moddiy hayot tushunchalarining bir-biridan farqini tushuntirib bering?
2. Milliy g'oyaning ma'naviy hayotda aks etishini qanday tushunasiz?
3. Milliy g'oyaning moddiy hayotda aks etishi nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Moddiy ehtiyojlarga nimalar kiradi?
5. Moddiy ehtiyojlar va insonning ruhiy olami bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

6. Moddiy ehtiyojlar va insonning ruhiy olamining biridan ikkinchisining ustunlik qilishini qanday tushunasiz?
7. Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligini nimalarda ko'rish mumkin?
8. Moddiy va ma'naviy omillar jamiyatda qanday namoyon bo'ladi?
9. Moddiy va ma'naviy ehtiyojlar inson hayotida qanday rol o'ynaydi?

## **16-BOB. MILLIY G'OYA - MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLILIKNI TA'MINLASH OMILI**

### **16.1. O'zbekistonning ko'pmillatli va polietnik davlat ekanligi**

O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda millatlararo omillarning ahamiyati katta bo'lib, qadimdan O'zbekiston hududida turli madaniyat va sivilizasiyalar vakillari, turli xalqlar, etnik guruhlar aralashib, do'stlik va hamjihatlikda yashab kelganlar.

Bugungi kunda O'zbekistonda 137 millat va elat, 16 diniy konfessiya vakillari o'zaro hamkor va hamjihat bo'lib yashab kelmoqdalar. Ular orasida har xil millatlarga mansub aholi mavjud bo'lib, ular mamlakatimizning barcha fuqarolari qatori bir xil huquq va majburiyatlarga egadirlar. O'zbekistonda turli millat vakillarining ta'lim olishlari, mehnat qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Respublikaning milliy tarkibi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, aholining etnik tarkibida tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Hozirgi paytda O'zbekiston hududida o'z madaniyati va an'alariga ega bo'lgan 130 dan ortiq millat vakillari yashaydi. O'zbekistonning milliy-madaniy turli tumanligi milliy o'zlikni anglashning o'sishi va ma'naviy jihatdan qayta uyg'onish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, respublikani jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Polietnik ya'ni ko'pmillatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan milliy siyosatda, milliy totuvlik va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, millatlar va etnik guruhlar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch, totuvlikni qaror toptirish, demokratik, kuchli fuqarolik jamiyati qurish va siyosiy barqarorlik omilini saqlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Ular umumiy uyimiz – O'zbekistonimiz ravnaqi



yo'lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo'shmoqda. Bizning Konstitusiyamiz va qonunlarimizda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat ta'lim muassasalarida o'qitish 7 tilda olib borilmoqda. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz yetakchi rol o'ynamoqda. Ular o'zlarining o'ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishiga, har birimizda ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shmoqda<sup>1</sup>.

O'zbekistonda milliy siyosat quyidagi tamoyillar asosida olib borilmoqda:

- eng avvalo O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lib, ularning rivoji uchun sharoit yaratildi;
- millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi ta'minlandi;
- davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida etnik o'ziga xosliklar hisobga olindi;
- millatchilikning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murossasizlik muhiti shakllandi;
- ijtimoiy va siyosiy hayotda barcha millat va elat vakillarining har tomonlama ishtiroki ta'minlandi;

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I-жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2018. 296-297-бетлар.

- mamlakatimizda ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiladigan partiyalar va jamoat birlashmalari tuzilishiga, ularning faoliyatiga yo'l qo'yilmadi.

O'zbekistonda ruslar, koreyslar, tatarlar, boshqird tatarlari, ozarbayjonlar, turkmanlar, tojiklar, ukrainlar, qirg'izlar, turklar, yahudiylar, nemislar, polyaklar, armanlar, uyg'urlar, beloruslar, qrim tatarlari, arablar, bolgarlar, boshqirdlar, greklar, gruzinlar, litvaliklar, qoraqalpoqlar, xitoylar, dunganlar va boshqa xalqlar tinch-totuv, yaxshi qo'shnichilik asosida hayot kechirmoqdalar. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining tele-radio kanallari orqali o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, tatar, uyg'ur, ozarbayjon tillarida ko'rsatuv va eshittirishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda gazetalar o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, koreys, tojik, turkman, ukrain, ingliz tillarida, jurnallar esa o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida bosilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda o'rta va oliy ta'lim 7 tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari birdek hurmat qilinib, ularning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan. O'zbekistonda olib borilgan oqilona milliy siyosat tufayli mamlakatimizda yashayotgan barcha millatlarning vakillari orasida etnik-madaniy asoslarda jiplashish jarayonlari sodir bo'ldi. 1989-yilda Madaniyat vazirligi qoshida Respublika millatlararo madaniyat markazi tuzilgan bo'lsa, mustaqillik tufayli yaratilgan imkoniyatlar tufayli bu jarayon juda tez rivojlanib bordi. Bugungi kunda respublikamizda 137 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat ko'rsatib, bu milliy-madaniy markazlar uch asosiy yo'nalishda faoliyat ko'rsatib kelmoqda:

- har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlar va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqani jonlantirish;
- O'zbekistonni o'zining haqiqiy Vatani deb bilish va unga sadoqat bilan xizmat qilish;
- O'zbekiston davlatiga nom bergan o'zbek xalqi bilan do'stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash, uning tilini, madaniyatini va tarixini bilishga katta e'tibor qaratish.

1992-yil yanvarida Millatlararo madaniyat markazi Respublika Baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli

millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi.

## **16.2. Milliy g'oyada turli millatga mansub xalqlarning manfaatlari va maqsadlarining ifodalanishi**

Milliy g'oya O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to'g'risidagi yaxlit va izchil ta'limot bo'lib, bu ta'limot mamlakatdagi har bir millat, elat, ijtimoiy guruh, din, partiya va ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya 130 dan ziyod millat va elat vakillaridan iborat bo'lgan O'zbekiston xalqining umumiy g'oyasidir. O'zbekistonning ko'p millatli xalqida mustaqil davlatchilik an'analarini ta'minlash, hamda fuqarolarda yot va begona g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni erkin, demokratik fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida birlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi ishiga safarbar etish milliy g'oyaning asosiy maqsadi va vazifasidir. Har qanday millat, elat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlari, orzu-umidlari, maqsad-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Har bir millat, elat va xalq o'zining tarixiy taraqqiyotida muayyan bir g'oyalar va mafkuralarga tayangan holda rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Lekin milliy g'oya doimo jamiyatdagi turli millat, elat va xalqlarning umumiy manfaatlarini o'zida ifodalab, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishi va maqsad-muddaolarini o'zida ifodalaydi. Mustaqil O'zbekistonda milliy munosabatlarga, ob'yektiv qonuniyatlarni hisobga olgan holda milliy g'oya asosida xolisona yondashuv imkoniyati yaratildi. O'zbekistondagi milliy tiklanish jarayoni respublikadagi barcha millat va elat vakillariga taalluqli bo'lib, ular o'zlarining milliy tillari, madaniyatlari, milliy an'analari, urf-odat va tarixiy tarkib topgan boshqa milliy xususiyatlarini tiklash, o'rganish va zamon talablariga javob beradigan qadriyatlarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Hozirgi vaqtda O'zbekistonning ko'pmillatli xalqi ongi va qalbida milliy ong, milliy mentalitet, milliy g'oya, milliy mafkura, milliy ma'rifat, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur

va milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish va yuksaltirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillikni mustahkamlash davlatimizning, millatimizning boshqa davlatlar va boshqa millatlar bilan munosabatlarini kengaytirish, bu aloqalarning samaradorligini oshirish asosida amalga oshirilmoqda. Milliy g'oya O'zbekiston fuqarolarida millatparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishni talab qilib, millatparvarlik respublikadagi barcha millat va elat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Har bir insonning millatparvarligi avvalambor uning o'z millatiga, uning tiliga, madaniyatiga, an'analari, urf-odatlar va rasm-rusumlariga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda millatlararo hurmat-izzat va hamkorlik aloqalarini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillikning muhim vazifalaridan biri, millatni, milliy til va madaniyatni yuksaltirish, dunyoga tanitish, millatning kuchini, salohiyatini, qobiliyatini, shijoatini namoyon qilishdan iborat bo'lib, ushbu masalada milliy g'oya muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda millatlararo munosabat sohasida olib borilayotgan siyosat respublikada yashayotgan 130 dan ortiq millat, elat va xalqlarning tili, dini, madaniyati, urf-odat va an'analarini tiklash va rivojlantirishga qaratilgan.

Milliy g'oya xalqni, millatni birlashtiradi. Jamiyatning har bir a'zosining ma'naviy kamolotga erishishini ta'minlab beradi. Milliy g'oya O'zbekistonning barcha fuqarolari, millat va elat vakillarida insonning yuksak ma'naviyat belgilari bo'lib hisoblangan vatanparvarlik va fidoyilik singari fazilatlarni shakllantiradi. Milliy g'oya O'zbekistonda yashaydigan barcha xalqlarning tilidan, e'tiqodidan qat'iy nazar ularning barchasining manfaatlarini o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya jamiyat a'zolarining ongi va qalbiga ma'naviy va tarbiyaviy ishlar vositasida singib borib, u O'zbekistondagi turli millat va elat vakillarida birlik, birdamlik, hamjihatlik, hamkorlik, faollik, fidoyilik kabi tuyg'ularning shakllanishi va mustahkamlanishiga yordam beradi.

O'zbekiston hududida turli millat va elat vakillari qadimgi davrlardan boshlab tinch-totuv yashab kelishgan bo'lib, tariximizda ham, bugungi kunimizda ham millatlararo totuvlik, hamjihatlik masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Mamlakatimiz hududida hech qachon milliy asosda urush-janjal, kelishmovchilik bo'lmagan, aksincha xalqimiz turli sabablar bilan yurtimizga kelib qolgan boshqa

millat vakillarini qadrdonlardek kutib olgan, ularning boshini silagan, samimiyat, mehribonlik, g'amxo'rlik, ya'ni o'zbeklarga xos bag'rikenglik va mehmondo'stlik fazilatlarini namoyon etgan. Bugungi kunda O'zbekistonda 137 millat va elat, 16 diniy konfessiya vakillari tinch-totuv yashab, O'zbekistonning taraqqiyoti va yuksalishi yo'lida mehnat qilmoqdalar. O'zbekistonda turli millat va elat vakillari bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, ularning qonunlarda belgilangan huquq va erkinliklari, manfaatlari to'liq ta'minlangan, ta'lim olishlari, mehnat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 4-moddasida, "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi",<sup>1</sup> deyilgan. Ko'p millatli O'zbekistonning barqaror rivojlanish tajribasi, jumladan, har bir millat va elatga xos xususiyatlarning saqlanib qolishi va rivojlanishi jahon hamjamiyatidagi ko'pgina davlatlar va ularning fuqarolarida katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. 2007 yilning sentyabr-oktyabr oylarida BMT qarorgohida "Dinlararo tenglik va madaniyatlararo muloqot: O'zbekiston tajribasi" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tgan edi. Markaziy Osiyodagi tinchlik-barqarorlik, siyosiy va milliy asosdagi hamkorlik masalalari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etib, Biz noyabr oyida Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida o'tkaziladigan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi yuqori darajadagi xalqaro anjumanda mintaqadagi fundamental muammolarni muhokama qilishni rejalashtirganmiz, - degan edi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida, - Ushbu anjuman yakunida biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga doir maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifini kiritishni mo'ljallaganmiz<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 4-5-бетлар.

<sup>2</sup>Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 249-бет.

O'z mustaqilligini mustahkamlash jarayonida O'zbekiston uchun eng ahamiyatlisi, muhimi milliy manfaatdir. Millatlararo munosabatlarda ham millatlarning o'z manfaatlari bor. O'zbekiston o'z oldiga zamonamizning rivojlangan davlatlari qatoridan joy olishni maqsad qilib qo'ygan ekan, bu olijanob maqsadga erishishning zaruriy shartlaridan biri, davlat, hukumat, xalq va har bir fuqaro, millat va elat o'zlarining faoliyatini milliy manfaatlarini himoya qilishni ko'zlagan holda olib borishga harakat qiladi. Turli millatlarning milliy madaniyati, tili, urf-odat va an'analarni yanada rivojlantirish, millatlarning milliy manfaatlariga e'tiborni qaratish O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatdagi muhim masalalardan biridir. Milliy g'oya milliy manfaatlar bilan bir vaqtda shakllanib, unda millatning ma'naviy qadriyatlari, an'analari, orzu-umidlari o'z ifodasini topadi.

### **16.3. “Millatlararo totuvlik” tushunchasi, uning milliy g'oyada aks etishi**

Milliy g'oya bu faqat birgina millatning emas, balki jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo'lida baholi qudrat hissa qo'shayotgan mamlakat fuqarolarining millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini ifoda etadi. Bugungi kunda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashab, bu jamiyatdagi milliy o'ziga xoslikni ifodalaydi.

Millatlararo totuvlik g'oyasi turli millat va elatlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotidagi muhim omil bo'lib, bu g'oya bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Milliy g'oya O'zbekistonda yashaydigan turli millat va elat vakillarining iste'dodi va salohiyatini to'laro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratib, ularni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini amalga oshirishga yo'naltiradi.

O'zbekiston hududida qadimgi davrlardan boshlab ko'plab millat va elat vakillari hamkor-hamjihat bo'lib yashab kelganlar. Turli xalqlar, millat va elatlar o'rtasidagi madaniy munosabatlarda Buyuk Ipak yo'li muhim ahamiyat kasb etgan. O'zbekiston hududida tarixiy taraqqiyotda milliy asosdagi nizolarning

bo'lmaganligi xalqimizning millatlararo totuvlik va milliy bag'rikenglik sohasida katta tajribaga ega ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda O'zbekiston hududida yashab kelayotgan millatlarni millatlararo totuvlik g'oyasi asosida tarbiyalash milliy mafkuraning asosiy maqsadlaridan biridir. Polietnik mamlakat bo'lgan O'zbekistonda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biridir. Millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahondagi vaziyat va imkoniyatlarga bog'liq. O'zbek xalqi o'zining ona tili, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklash bilan birga boshqa millatlarning tili va milliy madaniyatlarini tiklash va rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratmoqda. O'zbek xalqining tarixida ham, bugungi kunida ham olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish uning eng yuksak fazilatlari bo'lib hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda millatlararo totuvlik g'oyasini amalga oshirish sohasida ko'pgina ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonning ko'pmillatli xalqi ongida "O'zbekiston – yagona Vatan" degan g'oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyg'usini shakllantirishga katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 8-moddasida "O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi"<sup>1</sup> deyilgan. "O'zbekiston xalqi" tushunchasi O'zbekistonda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik munosabatlarini o'zida ifodalaydi. Har bir millat o'zining betakror madaniy-ma'naviy qadriyatlariga egadir. Turli millat vakillarining bir mamlakat hududida yashashlari, birgalikda mehnat qilishlari, jamiyat hayotining barcha sohalarida o'zaro ta'sirda bo'lishlari jamiyat taraqqiyotining tezlashishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekistonda yashayotgan barcha millat, elat, xalq va etnik guruhlarining vakillari o'z milliy madaniy urf-odatlarini, an'analari, tiliga, konstitusiyaviy huquqiy tenglikka egadir. O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat qonuniy yo'l bilan mustahkamlangan. Milliy g'oya o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra barcha millat va

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 6-бет.

elatlarning umumiy manfaatlarini o'zida ifodalab, mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda fuqarolarning milliy mansubligidan qat'iy nazar qonun oldida tengligi konstitusiyaga ko'ra kafolatlangan. Mustaqillik O'zbekistondagi turli millat va elat vakillariga o'zlarining tarixiy vatanlari bilan aloqalar o'rnatish imkoniyatini berdi. Millatlararo totuvlik g'oyasi O'zbekistondagi turli millat, elat, xalqlarning o'zaro tinch-totuv, hamkorlik va hamjihatlikda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo'lidagi faoliyatini o'zida ifodalovchi g'oyadir.

Millatlararo totuvlik g'oyasi turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilab, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Jahonda polietnik, ya'ni ko'pmillatli va monoetnik, ya'ni birmillatli davlatlar mavjud bo'lib, O'zbekiston polietnik davlatlar qatoriga kiradi. Turli millat, elat va xalqlarning, madaniyatlarning uyg'unligi O'zbekistonning taraqqiyotiga xizmat qiladi, O'zbekistonning jahondagi boshqa davlatlar bilan olib borayotgan munosabatlarida madaniyatlar uyg'unligini vujudga keltiradi. Hozirgi davrda har bir millatning umumdavlat, umumxalq darajasidagi manfaatlarini bilan birga o'zining milliy qadriyatlari, o'zining tili, madaniyati, urf-odat va an'analari, marosim va bayramlari, diniy e'tiqodini saqlash va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan milliy manfaatlarini ham mavjuddir. Shu bilan birga turli millatlarni o'zining tarixiy vatanlari bilan bog'lab turuvchi omillar mavjud bo'lib, ushbu holat O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan olib boradigan munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston kabi ko'p millatli, polietnik mamlakatda turli millatlarning manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash Vatanimiz taraqqiyoti va gullab yashnashining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi davrda milliy davlatchilikning taraqqiyoti qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan millat, elat va xalqlar o'rtasidagi tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik va teng huquqli munosabatlarlarga bevosita bog'liqdir. O'zbekistonda o'zbek xalqining ona tili, milliy madaniyati va tarixini tiklash bilan birga, respublikada hayot kechirayotgan boshqa millat va elatlarning tili, madaniyati, urf-



odat, an'ana va udumlari, milliy qadriyatlarini tiklashga katta e'tibor qaratilib, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish o'zbek xalqi milliy mentalitetining muhim jihatlaridan biri bo'lib, O'zbekistonning ko'pmillatli xalqi ongiga "O'zbekiston – yagona Vatan" degan g'oya doimiy ravishda singdirib borilmoqda.

#### **16.4. Milliy g'oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlik omili. Uni amalga oshirish shart-sharoitlari**

Milliy g'oya jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo'lida hissa qo'shayotgan O'zbekiston fuqarolarining millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini o'zida ifoda etuvchi ma'naviy omildir. Milliy g'oya jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayot sohalarida mavjud bo'lgan turli millatlarning manfaatlarini o'zida ifoda etadi, kelajakda barpo etilishi zarur bo'lgan jamiyatning asosini yaratish, mustahkamlash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan umummaqsad yo'nalishidagi harakatlar majmuini, millatlararo munosabatlarni, milliy bag'rikenglikni o'zida ifodalovchi fikrlarni, qarashlarni va g'oyalarni o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya ko'pmillatli O'zbekiston fuqarolarining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi hamda ularni respublikamizning kelgusi taraqqiyotida birlashtiradi, uyushtiradi, ma'lum bir maqsadga yo'naltiradi, ularni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi. Bugungi kunda O'zbekistonda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamkorlik va hamjihatlik ruhida tarbiyalash milliy mafkuraning asosiy maqsadlaridan biridir. Millatlararo totuvlik ijtimoiy taraqqiyotning muhim omilidir. Ko'pmillatlilik va millatlararo totuvlik omili millatlarning va madaniyatlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi, madaniyatlarning o'zaro bir-birini boyitishi, turli millat va elat vakillarining ijtimoiy-aqliy jihatdan taraqqiy etib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Ko'pmillatlilik omili jamiyat hayotida demokratik o'zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining,

fuqarolik jamiyati qurilishining muhim va ta'sirchan vositasidir. Har bir millat o'zining betakror madaniy va ma'naviy qadriyatlariga ega bo'lib, turli millat vakillarining bir mamlakat hududida yashab, birgalikda mehnat qilishlari, o'zaro muloqot qilishlari, o'zaro madaniy aloqalari jamiyat va davlatning taraqqiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Jamiyat hayotida adolatli milliy siyosatning olib borilishi O'zbekiston fuqarolarida maqsadning yagonaligi, taqdirning birligi, hamjihatlikning zarurligi to'g'risidagi qarashlarning shakllanishiga olib keladi. Millatlararo munosabatlarda umuminsoniy g'oyalarning ustuvorligi va shaxsiy manfaatlarining muhimligiga e'tibor qaratiladi. O'zbekistonda bozor munosabatlari sharoitida barcha millatlarning manfaatlarini xisobga olishga, har bir millatning madaniyati, tili, urf-odat va an'analari, madaniy merosini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy g'oya o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra barcha millatlarning umumiy manfaatlarini o'zida ifodalaydi. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar sohasida turli millat va elat vakillariga o'zlarining tarixiy vatanlari bilan aloqa o'rnatishga imkoniyat yaratilib, o'rnatilgan aloqalar ona tilini o'qitish va o'rganishni yo'lga qo'yish, turli qo'llanmalar va adabiyotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash, yoshlarni ta'lim olish uchun rivojlangan mamlakatlarga yuborish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Milliy g'oya barcha O'zbekiston fuqarolarining manfaatlarini o'zida ifodalovchi g'oyadir. O'zbekiston Respublikasida o'tkazilayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyatlar yaratish va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat bo'lib, bu sohada erishilgan eng katta yutuq mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlik hamda millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. O'zbekistonni o'z Vatani deb bilib, uning taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan turli millatga mansub davlatimiz fuqarolari tinchlik, ijtimoiy totuvlik va o'zaro hamkorlik sharoitida Vatanimiz ravnaqiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Baynalmilal Madaniyat Markazi va Milliy madaniyat markazlari mamlakatimizda yashovchi turli millat vakillarining milliy an'analari, urf odatlari va marosimlarini qayta tiklash, ma'naviyat va madaniyatini

rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish sohasida ko'pgina ishlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasining Baynalmilal Madaniyat Markazi quyidagi vazifalarni bajarib kelmoqda:

- milliy madaniyat markazlarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;
- O'zbekistonda istiqomat qilib turgan boshqa millatlar va elatlarning madaniyati hamda ma'naviy qadriyatlarining rivojlanishiga, milliy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlarning tiklanishiga ko'maklashish;
- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va xorijiy davlatlardagi milliy va baynalmilal madaniy markazlar bilan aloqalar o'rnatish, ular bilan munosabatlar hamda hamkorlikni rivojlantirish;
- millatlar va elatlarning baynalmilal jipslashuviga xizmat qilish.

O'zbekiston Respublikasi Baynalmilal Madaniyat Markazining faoliyati jamoatchilik Kengashi tomonidan boshqarilib, bu kengash markaz rahbariyati, milliy madaniy markazlar rahbarlari, atoqli olimlar va jamoat arboblardan tashkil topgan. Markaz mamlakatdagi umumxalq bayramlarini tayyorlash, bu ishga barcha millat vakillarini tortish, turli festivallar, ko'rgazmalar, uchrashuvlar tashkil qilish yo'li bilan turli madaniyatlarning boyligi va turli-tumanligini ko'rsatish, O'zbekistonda yashab turgan barcha millatlar va elatlar o'z madaniyatlari, an'ana va urf-odatlarini rivojlantirishda to'la erkinlikka ega ekanliklarini o'zlarining amaliy ishlari bilan ko'rsatib kelmoqdalar.

Milliy madaniy markazlar – O'zbekistonda istiqomat qilib turgan barcha millatlar, elatlarning madaniyat, ma'naviyat, milliy urf-odatlar va an'analar sohasidagi o'zlariga xos talab va ehtiyojlarini qondirish, shu tariqa ularning O'zbekiston miqyosida yanada mustahkamroq jipslashtirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-ixtiyoriy tashkilotlardir. Milliy madaniy markazlarning asosiy vazifalari uch yo'nalishga egadir. 1) har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy vatan bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish; 2) mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy Vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan xizmat qilish; 3) Vatan bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati, tarixi va tilini

o'rganish, mustaqil davlatga nomi berilgan millat bilan do'stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash. O'zbekistonda bundan buyon ham qo'lga kiritilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash, mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamkorlik va hamjihatlik ruhida tarbiyalash milliy mafkuraning asosiy maqsadlaridan biridir.

### **16.5. Millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda milliy g'oya rolining oshib borishi**

Mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik g'oyasi ilgari surilgani va amalda unga erishilgani O'zbekiston rivojida qo'lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biri bo'ldi. Mamlakatimiz rahbariyati milliy masalani oqilona, xalqaro tamoyillarga mos holda yechish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqdi. Mustaqillikdan keyin yurtimizning ko'pmillatli xalqi ongida "O'zbekiston – yagona Vatan!" degan g'oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyg'usi shakllanmoqda. O'zbekistonda koreys, rus, tojik, qozoq, tatar, ozarbayjon, turkman, ukrain, qirg'iz, yahudiy, nemis, polyak, armani, uyg'ur, belorus, qrim tatar, arab, bolgar, grek, gruzin, litvalik, xitoy, dungan va boshqa milliy-madaniy markazlar milliy mafkuramizning bosh g'oyasi mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan millatlararo totuvlik g'oyasi asosida hamkor-hamjihat bo'lib faoliyat yuritmoqdalar. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning o'z ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, ta'lim o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida olib borilmoqda. O'zbekistonda ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va radioeshittirishlarning olib borilayotganligi ham millatlararo totuvlik g'oyasining amaliy ifodasidir.

O'zbekistonda millatlararo totuvlik g'oyasini hayotga joriy qilish yangidan-yangi shakllarda, turlarda, yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda turli millat vakillarining milliy tarixi, madaniyati, tilini, urf-odatlarini o'rganish bo'yicha turli tadbirlar o'tkazilmoqda, milliy bayramlar nishonlanmoqda,

to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston tarixini, madaniyatini va tilini o'rganish bo'yicha tadbirlar tashkil etilmoqda, turli suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazilmoqda, to'garaklar tashkil etilib, faoliyat olib bormoqda. Turli millat vakillari o'zbek xalqining milliy bayramlarida hamkor-hamjihat bo'lib ishtirok etishmoqda. Navro'z, hosil bayrami, turli-tuman sayillar O'zbekistonda millatlararo totuvlik g'oyasi namoyon bo'lishining amaliy ifodasi bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda turli milliy markazlarning milliy musiqa, raqs va hunar to'garaklari o'z ishini kengaytirmoqda. Milliy bayram kunlariga bag'ishlab tadbirlar o'tkazilmoqda, turli-tuman festivallar tashkil qilinmoqda. Milliy madaniy markazlarda tarixiy Vatanning rassomlari, yozuvchilari, shoirlari, oqinlari va baxshilari, madaniyat va siyosat arboblari bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda. Milliy madaniy markazlarda tarixiy Vatandan kelgan siyosiy arboblari va madaniyat namoyondalari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko'rgazmalari, bir tomondan, ayni millatning O'zbekiston fuqarosi sifatida o'z o'rnini borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shu zaminda yashovchi barcha millatlarning O'zbekiston xalqi – O'zbekiston fuqarosi ekanligini namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g'oya atrofida birlashuviga olib boradi. Jamiyat hayotida har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, an'analari, qadriyatlari namoyon bo'ladi. Milliy g'oya o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra barcha millatlarning umumiy manfaatlarini ro'yobga chiqarib, mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik hamda ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlashga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotida, har qanday polietnik davlatda turli millatlar o'rtasidagi munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratuvchi muhim omillar bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilib turgan millat va elatlarning har biri o'ziga xos madaniyatga va ko'p asrlik an'analarga egadir.

Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning

xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi, - deydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, - Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi. Yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir<sup>1</sup>.

Shunday qilib, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarining hurmat qilinishini ta'minlab, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratib kelmoqda.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. O'zbekistonning ko'pmillatli davlat sifatida shakllanishida milliy g'oyaning tutgan roli qanday?
2. Polietnik davlat deganda nimani tushunasiz?
3. Milliy g'oyada turli millatlarning manfaatlari qanday mafkura asosida birlashadi?
4. O'zbekistonda yashayotgan xalqlarning maqsadlari milliy g'oyada qanday namoyon bo'lmoqda?
5. "Millatlararo totuvlik" tushunchasi deganda nimalar tushuniladi?
6. O'zbekistonda millatlararo totuvlikning milliy g'oyada aks etishini nimalarda ko'rish mumkin?
7. Milliy g'oyani amalga oshirish shart-sharoitlarining zaminida yotgan ajdodlarimizning meroslarini aytib bering?
8. Millatlararo totuvlik milliy g'oyada barcha millatlarning manfaatlarini ifodalashini siz qanday tushunasiz?

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 – жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2018. 295-296-бетлар.

## **17-BOB. MILLIY G'OYADA MILLIY VA DINIY BAG'RIKENGLIK TAMOYILI**

### **17.1. “Milliy bag’rikenglik” va “Diniy bag’rikenglik” tushunchalarining ma’no-mazmuni**

Bag’rikenglik inson tomonidan shaxs, elat, millat, boshqa xalqlarga, turli din vakillariga sidqi dildan, ochiq ko’ngillik bilan bo’lgan munosabatni o’zida ifodalovchi tushunchadir. Bag’rikenglik jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo’lib, bunday sohalarga insoniy, oilaviy, milliy va umuminsoniy munosabatlarni kiritish mumkin. Bag’rikenglik inson tomonidan boshqalarga nisbatan murosa, o’zaro hurmat, qadrlash, sabr-toqat, chidamlilik, qanoat, shukr qilish kabi shakllarda namoyon bo’ladi. Bag’rikenglik bor joyda xayrli va savobli ishlarga qo’l uriladi, millatlar va turli din vakillari o’rtasida o’zaro tinchlik va barqarorlik mustahkamlanib boradi. Milliy bag’rikenglik muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining o’zaro hamjihat, hamkorlikda yashashi jarayonida millatlararo munosabatlarda vujudga keladi. O’zbekiston hududida qadimgi davrlardan boshlab millatlararo munosabatlarda o’zaro tinchlik-totuvlik, bir-birlarining tili, madaniyati, urf-odat va an’analarini, diniy e’tiqodini hurmat qilish masalasiga katta e’tibor qaratilgan. O’zbekiston Respublikasi hududida barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analariga hurmat bilan munosabatda bo’linmoqda, ularning rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. O’zbekistonda yashab kelayotgan millatlarni o’zaro hamkorlik va hamjihatlik ruhida tarbiyalash milliy mafkuraning asosiy vazifasidir. Milliy g’oya asosidagi O’zbekistonning rivojlanish yo’li milliy bag’rikenglik, aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzi, xalq an’analari va urf-odatlariga asoslanadi. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to’g’risida g’amxo’rlik qilish, ochiq ko’ngillilik, millatidan qat’i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo’lish, o’zgalar kulfatiga xamdard bo’lish va o’zaro yordam tuyg’usi kishilar o’rtasidagi munosabatlarning me’yori bo’lib, milliy bag’rikenglikda amal qiladi.

O'zbekistonda milliy bag'rikenglik fuqarolarning boshqa millat vakillariga o'zaro hurmat-ehtiromida, o'z Vataniga mehr-muhabbatida, turli millat vakillarining tili va madaniyatiga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Respublikaning milliy tarkibida tub aholi ustun mavqeni egallab, shu bilan birga o'zining madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari milliy bag'rikenglik asosida hayot kechirmoqda. O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan turli madaniyatlarga egaligi milliy o'zlikni anglash, ma'naviy tiklanish, jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish hamda respublikani jahon hamjamiyatiga qo'shilishida muhim ahamiyatga egadir. Millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyotiga, jahondagi vaziyat va imkoniyatlarga bevosita bog'liqdir. Qo'shni mamlakatlarda, yonma-yon yashayotgan etnoslar orasidagi tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabat taraqqiyot asosidir. Bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik milliy bag'rikenglik asosidir. Milliy bag'rikenglik har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi. Insonparvarlik va millatlararo totuvlikka intilish, milliy bag'rikenglik xalqimizning yuksak fazilatidir.

Diniy bag'rikenglik - turli diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini o'zida ifodalaydigan tushunchadir. Diniy bag'rikenglikning mohiyati shundan iboratki, O'zbekiston hududida tariximizda ham, bugungi kunimizda ham turli din vakillari yonma-yon tinch-totuv yashab kelmoqdalar. Vatanimiz hududida asrlar mobaynida yirik shaharlarda masjid, cherkov va sinagogalar mavjud bo'lib, turli millat va dinga e'tiqod qiluvchi kishilar o'z diniy amallarini erkin ado etib kelganlar. O'zbekiston tarixida Vatanimiz hududida diniy asosda ziddiyatlarning bo'lmaganligi xalqimizning dinlararo bag'rikenglik sohasida katta tajribaga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda bugungi kunda erkin fuqarolik jamiyati va dunyoviy davlat barpo etilib, davlat qonuniy asosda barcha dinlarga va bu dinlarga e'tiqod qiluvchi fuqarolarga teng imkoniyatlarni yaratib bergandir. Diniy tashkilotlar bilan



munosabatlar qonuniy asosda tashkil qilinib, dinga e'tiqod qiluvchilarning haq-huquqlari hurmat va himoya qilinmoqda. O'zbekistonda e'tiqod erkinligi amalda ta'minlanmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda 16 ta konfessiya va 2238 ta diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda turli diniy tashkilotlarning o'z faoliyatini erkin olib borishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, buning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 18-moddasida, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar<sup>1</sup>, deyilgan bo'lsa, 31-moddada, Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi<sup>2</sup>, deyilgan.

Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda yashab faoliyat ko'rsatayotgan turli konfessiya vakillarining ma'naviy dunyosi, e'tiqod erkinligi uchun keng yo'l ochildi. O'zbekistonda dinga bo'lgan yangicha munosabat "dunyoviylik – dahriylik emas" degan tamoyil asosida belgilandi. Bugungi kunda O'zbekistonda turli e'tiqodga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglik muhiti o'rnatilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'zbekiston Konstitusiyasining 18, 31, 61-moddalari hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning (yangi tahriri 1998 yil 1 mayda qabul qilingan) har bir insonning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqini ta'minlovchi, diniy qarashlarni majburan singdirishni ta'qiqlovchi bandlari milliy, irqiy va diniy kelib chiqishidan qat'iy nazar, jamiyatning barcha a'zolari o'rtasidagi totuvlikni hayotga tatbiq etish uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qilmoqda. Dunyoviy davlat tuzumi amal qilayotgan O'zbekistonda barcha dinlarga bir xil va teng munosabatda bo'linmoqda. O'zbekistonda Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyat ko'rsatib, uning asosiy vazifalari: vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 9-бет.

<sup>2</sup>Ўша асар. 13-бет.

qonun hujjatlariga binoan diniy masalalarni hal qilishda yagona siyosatni amalga oshirish, davlat organlarining O'zbekiston hududida joylashgan diniy tashkilotlar bilan aloqasini amalga oshirish, diniy tashkilotlar va ularning a'zolari o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish va sabr-toqatlilikni mustahkamlash siyosatini o'tkazish, mamlakatimizda va chet ellarda diniy tashkilotlar o'rtasida aloqalar o'rnatilishini tashkil etish, fuqarolarning mamlakatimizdan tashqaridagi muqaddas joylarga ziyoratga borishi, xalqaro anjumanlar o'tkazilishini uyushtirishdan iborat.

## **17.2. Milliy bag'rikenglik va ko'pmillatlilik. Millatlararo muloqot. Din va dinlararo muloqot**

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelganlar. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmaganligi xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. Mustaqil davlatimizning kelajagi birinchi navbatda, o'zbek xalqining milliy o'zligini qanchalik anglab yetganligiga hamda mamlakatimiz hududida o'zbeklar va boshqa millat, xalq vakillari bilan yonma-yon istiqomat qilib turgan har bir kishining millati, dini, tili va e'tiqodlaridan qat'iy nazar, bir-birining ko'nglini o'z bilishga, ular orasida do'stona munosabatlarning o'rnatilishiga bog'liqdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ko'plab millat va elat vakillari huquqlari va erkinliklari tenglashtirilgan xolda tinch va farovon hayot kechirib kelmoqdalar. Ular kelajakda O'zbekistonni taraqqiy etgan mamlakatlar safiga olib chiqish yo'lida hamjihatlik bilan, bunyodkorlik va yaratuvchilik ishlari bilan shug'ullanib kelmoqdalar.

Mamlakatimizda har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy vatan bilan aloqa qilish munosabatlarini bog'lashga, milliy his-tuyg'ularining namoyon bo'lishiga keng yo'l ochib berilgan. Bu O'zbekiston barqaror rivojlanishining kafolatidir. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini ta'minlab berishga katta e'tibor berilayotgan bugungi kunda ko'p millatli davlatlar uchun milliy siyosatni to'g'ri, aniq ko'zlangan maqsad

asosida olib borish muhim ahamiyatga ega bo'lib, taraqqiyotning jadallashuviga yordam beradi. Ko'p millatli davlatlarda milliy masala barcha millat va xalqlarning milliy manfaatlarini birday hisobga olgan holda hal etiladi. Millatlararo totuvlik milliy mafkuraning asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini o'zida ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilib, ularning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib kelmoqda. Bag'rikenglik har bir fuqaroning ma'naviy burchi, siyosiy hamda huquqiy extiyoji bo'lib, turli millatlar manfaatlarini ijtimoiy-g'oyaviy ifodalash orqali inson individualligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini, millatlararo hamjihatlikni hurmat qilish, turli xalqlar va elatlar vakillarini qabul qila bilish, ularga hamdard bo'lish, kam ta'minlanganlarga yordam berish va ijtimoiy-g'oyaviy hayotni tushunishni, o'z manfaatini xalq, davlat manfaatlar bilan bog'lay bilishni anglatadi. Milliy bag'rikenglik – millatlararo totuvlik g'oyasi asosida namoyon bo'lib, mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentalitetining asosini tashkil etgan. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo muloqot hamda millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining muhim vazifalaridan biridir. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy bag'rikenglik va diniy bag'rikenglik g'oyalarining ilgari surilganligi va amalda ularga erishilganligi respublikamiz taraqqiyotidagi eng katta yutuqlardan biri bo'ldi. O'zbekistonning ko'pmillatli xalqi ongida “O'zbekiston – yagona Vatan” degan g'oya asosida haqiqiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratildi.

Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishini, hayotning mazmuni va ma'nosi, insonning yashashdan maqsadlari kabi savollarga javob beruvchi dunyoqarash shakli bo'lib, u diniy dunyoqarashni, diniy marosimlarni va diniy tuyg'uni o'z ichiga oladi. Mustaqil O'zbekistonda barcha dinlarga to'la erkinlik

berilgan bo'lib, ularning asosiy faoliyat sohasi davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, siyosiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'min etishdan iboratdir. Din insonning tafakkuri, madaniyati, ma'naviyati, ruhiyati, kundalik hayoti bilan murakkab tarzda bog'langan bo'lib, dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Dunyodagi ko'pgina dinlar odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Jahondagi barcha yirik dinlar insonni xayrli, savobli ishlar qilishga chaqiradi. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o'rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o'rnatish masalasi bayon qilingan.

Hozirgi zamonda dinlararo bag'rikenglik g'oyasi nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston hududida islom dini qaror topganiga qadar zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, xristianlik, mazdakiylik, shomoniyylik kabi dinlar mavjud bo'lgan. Ushbu dinlarning negizida o'sha davrda barchasining sintezi natijasida betakror madaniyat vujudga kelgan. Zardushtiylik ta'limoti bo'yicha ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi doimiy kurashda inson bu kurashning u yoki bu tomonida ishtirok etadi. Bu dinning uch tayanchi fikrlar sofligi, so'zning sobitligi va amallarning insoniyligidan iborat bo'lib, bu jihatlar zardushtiylikda "ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" tarzida ifodalangan. Kushonlar davrida Markaziy Osiyo hududiga kirib kelgan buddaviylik dini odamlarni dunyodagi barcha narsalarga mehr-shafqat bilan munosabatda bo'lishga chaqirgan. Buyuk ipak yo'li orqali Markaziy Osiyo hududiga kirib kelgan xristian dini odamlarni o'ziga yomonlik qilganlarga nisbatan yaxshilik qilishga da'vat qilgan. IX – asrdan boshlab hozirgi O'zbekiston hududida islom dini sunna yo'nalishining Hanafiylik, ya'ni Imomi A'zam mazhabi qaror topib, bu mazhab o'zga dinlar va mahalliy urf-odatlariga nisbatan erkinlik berishi bilan boshqa mazhablardan ajralib turgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli e'tiqodga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglik muhiti o'rnatilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ko'pkonfessiyalikning real ijtimoiy holat ekanligi va uning kelajakda ham saqlanib qolishini hisobga olgan holda, O'zbekistonda diniy bag'rikenglik

uchun to'la sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekistonda turli konfessiyalar o'rtasida totuvlik va bag'rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash, millatlararo va dinlararo hamjihatlik yuzasidan takliflar va chora tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish maqsadida Din ishlari bo'yicha qo'mita qoshida konfessiyalar ishlari bo'yicha jamoatchilik kengashi tashkil etilgan.

### **17.3. Ko'pdinlilik, dinlararo bag'rikenglik, vijdon erkinligi kabi tushunchalarning mazmuni va mohiyati**

Demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan O'zbekistondagi ma'naviy hayotni tashkil etuvchi, uni birlashtirib turuvchi asos – diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatga asoslanadi. O'zbekiston xalqi tomonidan azaldan ardoqlab kelinayotgan qadriyatlarning aksariyatiga islomiy ruhiyat va sharqona odob-axloq chuqur singib ketgan. O'zbekiston – dunyoviy davlat. Dunyoviy davlatda davlat dindor fuqarolarning diniy e'tiqod va haq-huquqlarini qanchalik hurmat-ehtirom qilsa, dindorlar ham davlatning qonunlari va siyosatini shunchalik hurmat va ehtirom qilishlari shart. O'zbekiston polietnik ya'ni ko'pmillatli davlat bo'lib, milliy mafkuramizdagi millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik g'oyalari o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Qadimdan diyorumizda zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan bo'lsa, bugungi kunda ham O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga taalluqli bo'lgan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu diniy tashkilotlarga o'z diniy marosimlarini o'tkazish va mamlakat hayotida ishtirok etish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitusiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasida ko'pgina diniy tashkilotlar mavjud bo'lib, bularning ichida - Rus pravoslav cherkovi, Rim katolik cherkovi, Yevangel xristian-baptistlar cherkovi, To'liq injilchi xristianlar cherkovi, Yettinchi kun xristian-adventistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Nemis Yevangel-lyuteranlar cherkovi, Arman Apostollik cherkovi, "Iyegov guvoxleri" cherkovi, "Golos Bojiy" cherkovi, Koreys protestant cherkovlari, Yaxudiylar diniy

jamoalari, Bahoiylar diniy jamoalari, Buddaviylar ibodatxonasi, Krishnani anglash jamiyati, Bibliya kitob jamiyati kabi diniy tashkilotlar bor.

Dinlararo bag'rikenglik turli xil diniy e'tiqoddagi kishilarning birgalikda hamkor va hamjihat bo'lib yashashini o'zida ifodalar ekan, bu g'oyani amalga oshirish quyidagi chora tadbirlarni talab qiladi:

- e'tiqod va vijdon erkinligini har tomonlama ta'minlash;
- barcha dinlar tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarning mantiqiy jihatdan mazmun-mohiyatini teran anglab olish asosida ish yuritish;
- turli din va konfessiyalarning teng huquqliligini e'tirof etish;
- har xil din va konfessiyalarning bir-birlariga o'zaro hurmat bilan munosabatda bo'lishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish;
- diniy-ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash amaliyotini joriy etish;
- barcha din vakillarining o'zaro hamkorlik va hamjihatlikda yashashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik;
- barcha dindorlarning siyosiy jarayonlarda teng, fuqaro sifatida ishtirok etishini ta'minlash;
- diniy partiyalar tuzib, dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'ymaslik;
- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik, kabi bir qator ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan diniy bag'rikenglik g'oyasini amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlar o'z vaqtida muntazam tarzda bajarilsa, turli xil dinlarga e'tiqod qiluvchi dindorlar o'rtasida murosas falsafasi paydo bo'lib, ular ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot bunyod etish g'oyasini qo'llab quvvatlaydilar va uning amalga oshishiga o'zlarining bor kuch-g'ayratlarini sarflaydilar.

Vijdon erkinligi fuqarolarning u yoki bu dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. Vijdon erkinligi inson huquqlari masalasining eng muhim qirralaridan biri bo'lib, shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari

Deklarasiyasi”da bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Deklarasiyaning 18-moddasida, - Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga egadir; bu huquq o’z dini yoki maslagini o’zgartirish erkini, o’z dini yoki maslagiga yakka tartibda yoki boshqalar bilan birgalikda, ta’limot, toat-ibodatda hamda diniy rasm-rusumlar va boshqa shunga o’xshash marosimlarni ado etishda haloyiq bilan birgalikda yoki hususiy tarzda e’tiqod erkinligini qamrab oladi, deyilgan.

O’zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining tamal toshi “vijdon erkinligi” tushunchasi bilan chambarchas bog’liqdir. Fuqaroviy erkinliklar ichida insonning ichki ma’naviy dunyosiga va uning ruhiyatiga bevosita aloqador bo’lgan vijdon erkinligi demokratik mamlakatlarda umume’tirof etilgan inson huquqlarining eng asosiylaridan biridir. Muayyan insonning qadr-qimmat, odamlar orasidagi mehr-oqibat, samimiylik, axloqiy poklik, insofu adolat va insonparvarlik kabi eng ezgu umuminsoniy qadriyatlar fuqarolik jamiyati hayotining haqiqiy mezonlari bo’lib, O’zbekistonda davlat va jamiyat qurilishi jarayonida tom ma’nodagi vijdon erkinligini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasining vijdon erkinligiga munosabati – O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 31-moddasida mustahkamlab qo’yilgan “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo’l qo’yilmaydi”, degan qoidada o’zining aniq huquqiy-qonuniy ifodasini topgan. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahririga (1998 yil, 1 may) ko’ra, “vijdon erkinligi” fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki e’tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitusiyaviy huquqidir. Shu ma’noda, huquqiy kategoriya sifatida – vijdon erkinligi, bir tomondan, e’tiqod erkinligini, ikkinchi tomondan esa, hech bir dinga e’tiqod qilmaslik huquqini ifoda etadi. Eng muhim konstitusiyaviy huquqlardan bo’lgan vijdon erkinligi huquqining amalda ro’yobga chiqarilishi fuqarolik jamiyatining ma’naviy-madaniy rivojlanganlik darajasining muhim ko’rsatkichidir.

#### **17.4. Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenglik tamoyili**

Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenglik tamoyili muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda O'zbekiston milliy va diniy bag'rikenglik masalasida dunyodagi ko'pgina xalqlarga namuna bo'lmoqda. Millat kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligidir. Millatning quyidagi umume'tirof etilgan belgilari mavjud bo'lib, bular:

- Huquqiy birlik – ya'ni muayyan makonda birgalikda, ya'ni zich yashash;
- Iqtisodiy hayot ukladida, u millatlar tarkib topishining iqtisodiy asosi bo'lgan tovar-pul munosabatlari vujudga kelishida aks etadi;
- Tarixiy taqdir birligi, u mazkur milliy birlikning yaratilishi, ular an'analarning merosiyligi sifatida tushuniladi;
- Yagona til, turli-tuman lahjalarida bo'lishiga qaramay, millatning barcha a'zolariga tushunarli bo'ladi;
- Madaniyatning umumiyligi, u har qanday millatning folklori, ya'ni xalq og'zaki ijodi, urf-odat, marosimlar, rasm-rusumlar, qo'shiqlar, maishiy hayot madaniyatida aks etadi;
- Milliy o'z-o'zini anglash, bu milliy ong va shu millat a'zolarining individual ongiga o'z milliy manfaatlarinigina emas, balki o'z xalqining jahon tarixiy taraqqiyotidagi o'rnini va rolining anglanishi sifatida yuz beradi. O'zbekiston Respublikasi polietnik davlat bo'lib, mamlakatimizda 130 dan ortiq millat, elat va xalq vakillari yashaydi. Bunda o'zbeklar mamlakat aholisining 80% ni, qolgan millat va elat vakillari esa 20% ni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, ular jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida teng bo'lib, bu qonun-qoida millatlar o'rtasidagi munosabatlarni hal etishning huquqiy asosi, tamal toshi bo'lib hisoblanadi. Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muayyan mamlakatda yashayotgan turli millat vakillarining yagona maqsad yo'lida birlashib, o'zaro tenglik, hamkorlik, ahillik bilan bir-birlarining tili, diniy e'tiqodi, urf-odatlari, an'ana va milliy



qadriyatlarini hurmat qilib, e'zozlab yashashlarini tarannum etuvchi fikrlar va amaliy hatti-harakatlar tizimidir.

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik quyidagi konstitusiyaviy tamoyillarga tayanadi:

- fuqarolarning qanday millat, elatga mansubligidan qat'iy nazar qonun oldida tengligi;
- fuqarolarning diniy e'tiqodidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi;
- mamlakat hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratib berilishi kabilarga asoslanadi.

Millatlararo totuvlik va milliy bag'rikenglik tamoyili:

- barcha millat va elatlarning teng huquqini qonunda va amalda ta'minlab borishga xizmat qiladi;
- millatlararo hamkorlik va hamjihatlikni uzluksiz tarzda yo'lga qo'yishga yordam beradi;
- turli milliy madaniyatlar rivoji uchun keng yo'l ochib beradi;
- boshqa millat va elatlarga hurmat bilan qaraydi, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi;
- milliy va umumbashariy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi va birligini ta'minlaydi.

Milliy bag'rikenglik tamoyili diniy bag'rikenglik tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lib, diniy bag'rikenglik turli diniy e'tiqoddagi kishilarning birgalikda hamkor va hamjihat bo'lib yashashini o'zida ifodalaydi. Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z faoliyatlarini o'zaro teng huquqlilik, hamdo'stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqdalar. Diniy bag'rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub kishilarning hamdo'stlik munosabatlarinigina nazarda tutmay, balki e'tiqodidan qat'iy nazar barcha kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo'lidagi hamkorligini ham qamrab oladi. Diniy bag'rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish

yo'lida birlashtirib, ularning ongi va qalbiga milliy g'oya va mafkurani singdirishga yordam beradi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilayotgan hozirgi davrda diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini, jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab olishga yordam berib, diniy bag'rikenglik g'oyasi asosida barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar yagona maqsad yo'lida birlashtiradi. Bugungi kunda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy va diniy bag'rikenglik tamoyiliga asoslangan holda O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqarolarning o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Davlatimiz tomonidan milliy va diniy bag'rikenglik tamoyilini hayotga tatbiq qilganda dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy bag'rikenglik turli millatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va an'alarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos munosabatlarni o'zida ifodalasa, diniy bag'rikenglik dinlararo va har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash hamda bir-birlarini hurmat qilish asosida vujudga keladigan munosabatlarni o'zida ifodalaydi. Milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglik turli xalqlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro hamjihatlik va totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon hayot qurishga xizmat qiladi.

#### **17.5. Milliy g'oyaning milliy bag'rikenglikka zid holatlar, milliy ayirmachilik va separatizm kabilarning oldini olishdagi ahamiyati**

Hozirgi davrda globallashtirish jarayonining kuchayishi, axborot oqimining tezlashuvi natijasida turli g'oyaviy, mafkuraviy tahdidlar paydo bo'lib, odamlarning ongi va qalbini egallashga harakat qilmoqda. Paydo bo'layotgan harakat va g'arazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay,

maqsadlari dindan niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish hamda hokimiyatga intilishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Barchamizga ayonki, jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib bormoqda, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli to'qnashuv va nizolar davom etmoqda. Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o'choqlari kamayish o'rniga ko'payib bormoqda. Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart. Bu – zamon talabi<sup>1</sup>.

Milliy g'oya jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko'ndalang qo'yayotgan masalalarni hal qilishga yo'naltiruvchi, chetdan bo'layotgan g'oyaviy, ma'naviy tahdidlardan, milliy bag'rikenglikka zid holatlar, milliy ayirmachilik va separatizm kabilardan himoya qiluvchi muhim omildir. Jahondagi globallashtirish jarayonlari milliy g'oyaga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytirmoqda. Milliy g'oya odamlar ongida, xotirasida g'oyaligicha qolmay, amaliyotga, hayotga tatbiq etilgan holda milliy ma'naviyatni va ma'naviy o'zlikni tashqi nosog'lom g'oyaviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi. O'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'zining taraqqiyot yo'lini yo'qotishi mumkin. Jamiyat hayotida ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib pirovard oliy maqsad bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etib bo'lmaydi. Millat o'zligini to'la anglagan taqdirda jamiyat hayotida buyuk o'zgarishlar qilishga qodir bo'ladi.

Milliy g'oya Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, komillikka tayanar ekan, ana shu g'oyalarga qarshi qaratilgan hatti-harakatlar tashqi va ichki tahdidlarning oldini oladi. Tashqi tahdidlar – O'zbekistonning davlat chegarasidan tashqaridan kirib keluvchi tahdidlardir.

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 141-бет.

Hammamiz ko'rib, kuzatib turibmiz – bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi ufq va imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor etmoqda, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migrasiya, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og'ir kulfatlar olib kelmoqda, g'arazli kuchlar hali ongu tafakkuri to'la shakllanib ulgurmagan bolalarni o'z ota-onasi, Vataniga qarshi qo'yib, ularning hayotiga zomin bo'lmoqda. Shuning uchun biz – ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-kuy bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirib, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat aytganidek, bu dunyo haqiqatan ham kurash maydoniga, sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq esa bu kurashning quroliga aylanib borayotganini chuqur anglab, shu borada jaholatga qarshi ma'rifat asosida ish olib borishimiz zarur<sup>1</sup>.

Ichki tahdidlar esa o'z Vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g'oya, fikr, hatti-harakatlardan iborat bo'lib, bunday tahdidlarga nosog'lom mahalliychilik, boshqalarni mensimaslik, vatandoshlarining haqiga xiyonat qilish, “ma'naviy emigrasiya”, ya'ni baxtini o'z vatanidan emas, o'zga joylarda qidirish, odamlarning ijtimoiy mavqe'iga qarab muomala qilish, poraxo'rlik, korrupsiya, qo'pollik, ashaddiy millatchilik, ortiqcha mol-dunyoga hirs qo'yish, befarqlik, loqaydlik, o'zligini anglamaslik, merkantilizm, milliy ayirmachilik, separatizm va boshqa illatlar ichki tahdidlar vazifasini bajaradi. Ular qancha keng tarqalsa, fuqarolarning g'oyaviy birligiga shuncha ko'p zarar yetkaziladi, jamiyatda parokandalik vujudga kelib, fuqarolar o'rtasida hamjihatlik bo'lmaydi. Barcha zamon va makonlarda ma'naviyati kuchli, ishonch va e'tiqodi mustahkam millat doimo bir bo'lib, mavjud muammolarni tez va soz hal qilgan, boshqalarga qaraganda peshqadam bo'lgan. Milliy ayirmachilik davlatdagi turli millat va elatlar o'rtasida o'zaro nizo va ziddiyatlarni keltirib chiqarsa, separatizm

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 496-бет.

lotin tilida ajrataman degan ma'noni bildirib, ajralib chiqishga intilishni o'zida ifodalaydi. Separatizm davlatdagi mayda millat va elatlar vakillarining ajralib chiqib, o'zlari alohida siyosiy birlik, boshqaruv shaklini tashkil etish jarayonini o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya har qanday milliy ayirmachilik va separatizmni inkor etib, millatlar va elatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va hamjihatlik aloqalarini kuchaytirish va mustahkamlashga harakat qiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. "Milliy bag'rikenglik" va "Diniy bag'rikenglik" tushunchalarining bir-biridan farqini aytib bering?
2. "Milliy bag'rikenglik" tushunchasini tushuntirib bering?
3. "Diniy bag'rikenglik" deganda nimani tushunasiz?
4. Milliy bag'rikenglik va ko'pmillatlilik o'rtasidagi aloqadorlik nimalardan iborat?
5. Millatlararo muloqot madaniyatining mohiyati nimalardan iborat?
6. Din va dinlararo muloqotning rolini ochib bering?
7. Ko'p dinlilikka ega davlatlarning xalqaro nufuzini qanday tushunasiz?
8. Vijdon erkinligi deganda nimani anglash mumkin?
9. Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenglik tamoyillarining rolini ko'rsatib bering?
10. Jamiyatda milliy bag'rikenglikka zid holatlar qanday holatlarda namoyon bo'ladi?
11. Ayirmachilik va separatizm tushunchalarini biri-biridan farqini ochib bering?

## **18-BOB. KOMIL INSONNING SHAKLLANISHIDA MILLIY G'OYANING O'RNI**

### **18.1. Komil inson, barkamol avlod tushunchalari, ularning mazmun mohiyati**

O'zbekistonning milliy mustaqilligidan so'ng jamiyat hayotining barcha sohalarida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy hayot sohalaridagi islohotlar bilan birgalikda O'zbekiston fuqarolarini barkamol inson qilib tarbiyalash, ularning ongi va qalbiga milliy g'oya va mafkuraning asosiy tushuncha va tamoyillarini, g'oyalarini singdirish, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, har bir shaxsni insonparvar, vatanparvar, axloqiy va estetik jihatdan yuksak darajadagi komil insonlar qilib tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratildi. Shaxsni bilimli, mas'uliyatli, siyosiy jihatdan idrokli, huquqiy savodxon, axloqan pok va ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash masalasiga davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi o'tgan qisqa davrda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yo'lida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik qiladigan muhim ijtimoiy tuzilmaga aylandi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Shu asosda yosh avlodimizning grajdanlik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, yoshlar bilan doimiy muloqot olib borish, ularning bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi, jamiyatning munosib a'zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash vazifasi barchamizning kundalik faoliyatimiz mezoniga aylanib bormoqda<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 490-бет.

Ma'naviy barkamollik insonning ruhiy poklanishi, yuksak ongu tafakkurga ega bo'lishi, halol va pok yashash, mustahkam e'tiqodga ega bo'lishida yaqqol namoyon bo'ladi. "Komil" so'zi arab tilida "yetuk, to'liq, mukammal" degan ma'nolarni bildiradi. Insondagi komillik deb mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuiga aytiladi. Ana shunday fazilatlarga, komillikka erishgan insonlar jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, shu tufayli komil inson g'oyasi dunyoga kelgan. Komil inson milliy mafkuraning asosiy g'oyalaridan biridir. Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidadir. Komil insonning mohiyati, avvalo jamiyatni barkamol qilish yo'lidagi sa'y-harakatlarda namoyon bo'ladi. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida shunday fikrlar bayon etilgan. Erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda Sog'lom avlod harakatining keng tus olgani, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor maqsadni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir<sup>1</sup>.

Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat-ma'rifatli insonning ikki qanotidir.

Komil inson g'oyasi o'zining amal qilish tamoyiliga ega bo'lib, uni quyidagilar tashkil etadi:

- Jismoniy barkamollik
- Aqliy barkamollik
- Ma'naviy barkamollik

---

<sup>1</sup>Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: Ўзбекистон, 2000. 56-57-бетлар.

- Milliy qadriyatlarga sodiqlik
- Umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish

Komil va barkamol insonlar millat, jamiyat va davlat taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Inson kamolotida jismoniy va ma'naviy go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog'lom bo'lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. Komillikning yana bir jihati Vatanga, millatga, elu-yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir.

Komillik insoniy fazilatlarining uyg'unligini ifodalaydi. Kishining ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikr va oqilona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo'lishi komillikning mezonlaridir.

Komil inson va barkamol avlod to'g'risidagi nazariya va amaliyot metodologik jihatdan O'zbekiston Prezidenti asarlarida, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida va boshqa hujjatlarda har tomonlama ishlab chiqilgan. Shularga muvofiq ravishda, ta'lim tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarish, sog'lom, barkamol, ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligi belgilab berilgan. Ma'naviyati boy insongina komil inson bo'la oladi. Komil insonda yuksak axloqiy, madaniy va jismoniy fazilatlar har jihatdan uyg'un bo'lib, u chuqur va zamonaviy bilimga va keng ilmiy-falsafiy dunyoqarashga ega bo'ladi. Komil inson g'oyasi tarixiy ma'naviy merosimizda dastlab zardushtiylik ta'limotida, islom dini asosida shakllangan tasavvuf ta'limotida ishlab chiqilgan edi. Bugungi kunda dunyoviy davlat barpo etilayotgan O'zbekiston Respublikasida komil inson g'oyasi dunyoviylik asosida bayon qilinmoqda. Milliy g'oyamizda ilgari surilgan komil inson bu – ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi, o'z Vataniga halol xizmat qiluvchi insondir. Barkamol inson har tomonlama mukammal insonni o'zida ifodalab, barkamol inson jismoniy sog'lom, aqliy, axloqiy, ma'naviy jihatdan yetuk insonni o'zida ifodalaydi. Vatanparvar, fidoyi, ishbilarmon, tadbirkor, shaxsiy manfaatini Vatan manfaati bilan uyg'un holda ko'radigan, bir necha tillarni mukammal biladigan, yuksak ma'naviyatli inson barkamollikning timsoli bo'lib, O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatidagi muhim masalalardan biridir. Komillikning bosh mezoni insoniylik hisoblanadi. Insonning eng noyob



fazilatlaridan biri uning komillikka intilishidan iborat bo'lib, halol mehnat qilish, aql, idrok, odob-axloq, odamlarga yaxshilik qilish insonning muhim ma'naviy fazilatidir. Insonning jismoniy faoliyati kasb-hunar bilan shug'ullanishni o'z ichiga olib, insonni go'zal qiladigan uning hunari, ilmi va odobidir. Insonning hunari ham, ilmi ham uni yuksaklikka ko'tarib, unga katta obro' va shuxrat keltiradi. Insonning kamolotida jismoniy go'zallik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Insonda o'zining salomatligi haqida shaxsan g'amxo'rlik qilish madaniyati oila, maktab, mahalla, sog'liqni saqlash tizimi, jismoniy tarbiya va sport vositasida yoshlikdan singdirib boriladi. Insondagi komillikning yana bir jihati Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Insondagi ma'naviy yetuklikning shartlaridan biri insoniy sifatlarning uyg'unligi masalasi bo'lib, insonning ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikr va oqilona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dilining birday bo'lishi undagi yetuklik mezoni va shart-sharoiti bo'lib hisoblanadi. Barkamollikning qirralari ko'p bo'lib, har bir insonda yoshligidan boshlab mantiqiy tafakkur madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizasiya qilish, uni innovasion asosda rivojlantirish, o'z oldimizga qo'ygan ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, g'ayrat-shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz<sup>1</sup>.

Mustaqillik sharoitida to'g'ri ma'nodagi mustaqil fikrlash har bir yoshning qobiliyati, olamga faol munosabati, malakasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga egadir. Ta'limning yangi modeli O'zbekistonda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib kelib, o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalashga hizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 49- бет.

## **18.2. Komil inson va barkamol avlodga xos bo'lgan fazilatlar. Barkamollik sifatleri, mezonlari**

Insoniyat tarixidan ma'lumki, komillik sifati faqatgina insonga nisbatan qo'llaniladi. Inson yer yuzida ong va tafakkurga ega bo'lgan yagona mavjudotdir. Inson – tafakkur va tasavvur sohibi, fikr-tuyg'ular, g'oya va orzularga ega bo'lgan, ularni amalga oshira oladigan, yuksak intellektual imkoniyatlar va yarata olish qobiliyatiga ega bo'lgan zotdir. Insonni ijtimoiy jihatdan baholaganda uning intellektual imkoniyatlari, yarata olish qobiliyati, faoliyati, hatti-harakati, fe'l atvoriga ko'proq e'tibor qaratiladi. Insoniyat asrlar davomida jismoniy sihat-salomatlik bilan birga, ma'naviy komillik va yetuklikni orzu qilib kelgan. Komil inson azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ma'naviyatimizning uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Madaniy merosimizning ilk namunasi "Avesto"da "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu ish" tamoyillarini o'z qiyofasida ifodalagan kishi komil bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan. Komil inson g'oyasi islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma'no va mazmun kasb etgan. Barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida o'zining teran ifodasini topgan. Vatanimiz tarixida ta'lim-tarbiya masalalari va shu bilan birga komil insonni tarbiyalash masalasi muhim vazifalardan biri sifatida qaralgan. Bu masala tasavvufning bosh mavzularidan biri bo'lib, o'tmish allomalari ijodida o'z aksini topgan. Sharq Uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab allomalar ham o'z asarlarida komil inson tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Komillik yo'li bu ilm yo'lidir. Inson komillikka o'qish, o'rganish va bilish vositasida erishadi. XIX asrda yozilgan Ahmad Donishning va boshqa ma'rifatparvarlarning asarlarida, XX asr boshlarida yozilib chop etilgan Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobi va boshqa jadid-ma'rifatparvarlarning asarlarida komil inson orzusi asosiy mavzulardan biri bo'lgan. Komil inson qiyofasini aniqroq tasavvur qilish uchun komillikni

shakllantiruvchi tarkibiy qismlarni belgilash va tavsiflash zarur bo'lib, bular qatoriga quyidagi insoniy sifatlarni kiritish mumkin: Oliyjanoblik, oqillik, ilmlilik, fozillik, odillik, halollik, qanoat, saxovat, rostgo'ylik, to'g'rilik, pokizalik, vazminlik, tadbirkorlik, kamtarlik, diyonat, vafodorlik, oqibatlilik, rahmshafqatlilik, saxiylik, sadoqatlilik, sabotlilik, mehr-oqibatlilik va boshqalar.

Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning fikriga ko'ra, Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu siyrati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmolim pokiza zotdir<sup>1</sup>. Tasavvuf ahli sig'ingan ideal – Komil inson aslida xalq ideali, adabiyot ideali edi.

Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib shunday deb yozadi: “Bilgilki, Komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif”.

Komil insonga, avliyolarga xos xislatlarni Alisher Navoiy o'zining “Nasoyimul muhabbat” asarining so'zboshisida maxsus sanab o'tadi. Chunonchi: birinchisi – tavba, ikkinchisi – halol luqma bilan qanoatlanish, uchinchisi – o'z kasbidan topib kun o'tkazish, to'rtinchisi – shariatga rioya qilish, beshinchisi – tariqat odobini saqlash, oltinchisi – barchadan o'zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, yettinchisi – chuchuk tilli bo'lish, sakkizinchisi – rahmdil bo'lish, to'qqizinchisi – saxiy bo'lish, o'ninchisi – mard bo'lish, o'n birinchisi – halimlik, xushxulq bo'lish, o'n ikkinchisi rizo-rozilik bilan kun o'tkazish, o'n uchinchisi – sabrli bo'lish, o'n to'rtinchisi – sadoqatli, vafoli bo'lish, o'n beshinchisi – riyozat chekishdan qo'rqmaslik, o'n oltinchisi favqulodda xislatlar ko'rsatish. Shu tariqa, komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan<sup>2</sup>.

Komillik g'oyasi ko'pgina olimlar, mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan bo'lib, Kaykovusning “Qobusnoma” asarida shunday fikrlar bayon

---

<sup>1</sup> Najmiddin Komilov. Tasavvuf ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1996. 143-бет.

<sup>2</sup> Najmiddin Komilov. Tasavvuf ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1996. 153-бет.

qilingan. Nedinkim, juvonmardlik, donishlik, kamolot, sharif – bularning hammasi aqlning sarmoyasidir va oliy aql tashabbusi bila badanda paydo bo'ldilar. Juvonmardlik asli uch narsadur: biri ulkim, aytg'on so'zingni o'zing qilsang, ikkinchisi ulkim, rostlikka xilof qilmasang, uchinchisi ulki, xayr ishini ilgari tutsang. Odamdagi qolg'on barcha sifatlar bu uch narsaning ostidadur. Ey farzand, agar senga mushkul bo'lsa, men bu uch sifatni tadbir bila, bu qavmning har biriga martaba va andozasiga loyiq taqsim qilurman. Bilg'il, juvonmardlik va iyorlik shunday kishiga sazovordurki, bir qancha hunari bo'lsin. Bu hunarlardan biri: jasur, mard, sabr-matonat, va'daga vafo qilmoq, pok dil va pok zabon bo'lmoq bo'lsa, yana biri ulkim, o'z manfaatini ko'zlab asirlarga ozor bermasa, bechoralarga madad yetkursa, yomonlarning yomonlig'ini yaxshilardan yiroq tutsa, rost so'z aytsa, o'z tanidini dod bersa, yaxshiga yomonlik yetkurmasa, ziyondin omon tutsa, odamlarga ziyon-zarar yetkurmasa, yaxshi qarag'ilki, bunday ishlarning ham oxiri ul uch sifatga vobastadur<sup>1</sup>.

Bugungi kunga kelib komil inson tushunchasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyatning industrial sivilizasiyadan axborot sivilizasiyasiga o'tishi, globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi sharoitida elektronika, kompyuter, uyali texnika, atom, ultratovush, lazer va infraqizil nurlar, biogenetika, kosmonavtika kabi umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan soha va yo'nalishlar soni yanada ko'payib bormoqda. XXI asrning eng muhim masalalari – odamning odamiyligini asrab qolish, shaxs tabiatining tabiiyligini saqlash, inson qalbidagi eng ezgu sifatlarini himoya qilish, odamzodni ma'naviy tanazzuldan qo'riqlash va boshqalardir.

Insonning komillik darajasiga yeta olishi uning ezgulikka xizmat qilishi, ilmlarni o'zlashtirishi va rivojlantirishi, ezgu ishlar qilish jarayonida erishishi mumkin bo'lgan aniq hodisa yoki oliy darajadagi ma'naviy yuksalishi asosida amalga oshib, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish orqali komillik sifatlariga ega bo'lgan barkamol insonlar tarbiyalanadi. Erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga

---

<sup>1</sup> Кайковус. Қобуснома. –Т.: Истиқлол, 1994. 158-159-бетлар.

ko'tarish orqali barkamol insonlarni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

### **18.3. Ta'lim-tarbiyaning milliy g'oya negizlariga asoslanishi hamda barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati**

Maorif va madaniyat barkamol insonni shakllantirishning eng muhim vositasidir. O'zbekistonda ta'lim-tarbiyani milliy g'oya negizlari asosida rivojlantirishga, barkamol avlodni tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz, – deydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Jumladan, butun insoniyatni tashvishga solayotgan terrorizm va ekstremizm kabi balo-qazolarni bartaraf etishda faqat ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilan cheklanmasdan, birinchi navbatda bu tahdidlarni keltirib chiqarayotgan sabablarga qarshi kurashish, yoshlarni ezgu insoniy ideallar ruhida kamol toptirish eng asosiy vazifaga aylanmoqda<sup>1</sup>.

O'zbekistonda 1997 yil 29 avgust kuni O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi yangi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinganidan so'ng zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratildi. “Ta'lim to'g'risida”gi yangi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinganidan so'ng milliy g'oya bilan bevosita bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalar kun tartibiga qo'yildi:

- milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash va jahon andazalari darajasiga ko'tarish;

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 448-бет.

- uzluksiz ta'lim tizimini tashkil qilish va ta'lim muassasalarining moddiy bazasini zamon talablari darajasiga ko'tarish;
- yoshlarimizga zamonaviy bilim berish, buning uchun eng avvalo, ta'lim beruvchilar bilimining saviyasini ko'tarish;
- zamonaviy o'quv dasturlari, darsliklarni yaratishda milliy g'oya, milliy mafkura masalalariga e'tiborni qaratish;
- xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga katta ahamiyat berish;
- ta'lim jarayonida maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslarni tarbiyalash;
- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish va ularni milliy g'oya asosida erkin fikrlaydigan shaxs etib tarbiyalash;
- respublika oliy o'quv yurtlarining xorijiy davlatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan aloqasini o'rnatish va mustahkamlash.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy vazifa yosh avlod ongida milliy g'oyani shakllantirishning shart-sharoitlari, uni shaxs ongiga singdirish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Bu juda murakkab, ko'p qirrali jarayon ta'lim-tarbiyaning asosi hisoblanadi. Insonning yoshlik davri pedagogik, psixologik jihatdan milliy g'oyani singdirishda juda muhim davr bo'lib hisoblanadi. Bu davrda yoshlarda jamiyat hayotida o'z o'rnini egallash, istiqbol rejalarini tuzish, ma'lum bir mutaxassislikka ega bo'lishga ishtiyoq kuchayadi. Insonning yoshlik davri g'oyaviy e'tiqod, hayotiy shijoat, jo'shqin kuch-g'ayrat, mustaqillikka intilish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yoshlarda mafkuraviy immunitet, shuningdek, g'oyaviy e'tiqodni qaror toptirish, dunyoqarash hamda tafakkurni vatanparvarlik, xalqparvarlik ruhida shakllantirish, orzu-intilishlarni to'g'ri yo'naltirishda milliy g'oya muhim ahamiyatga egadir. Milliy g'oya asosida yoshlarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftihar tuyg'usi mustahkamlanadi, ularda mas'uliyat, vijdon, e'tiqod, o'zini-o'zi hurmat qilish, o'zgalar qadr-qimmatini e'zozlash kabi tuyg'ular shakllantiriladi. Yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish va vatanparvarlik tuyg'usi doimiy ravishda olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantiriladi. Milliy g'oya yoshlar qalbiga ishonch ruhini baxsh etishi, ajdodlarimizning bebaho merosi va umumbashariy qadriyatlarga tayanishi, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashga undashi,

O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga uyg'unlashib borishini nazarda tutish singari muhim omillarni qamrab oladi. Milliy g'oya insonda mehnatsevarlik, qat'iy iroda, sabr-toqat, mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat, yaxshilikka ergashish kabi fazilatlarning shakllanishiga hamda yanada takomillashuviga yordam beradi. Milliy g'oya insoniy tamoyillar, mafkuraviy jarayonlar va milliy manfaatlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'zida aks ettiradi. Milliy g'oyani yoshlarimiz ongiga singdirishda pedagogik-psixologik dasturlar yaratish, barcha o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarga milliy mafkura g'oyalarini singdirish, ta'lim muassasalarida mafkuraviy ta'lim-tarbiyani talab darajasiga ko'tarish, pedagog kadrlar bilimlarini chuqurlashtirib borish, bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamini ke'g'aytirish va sifatini oshirish muhim masala hisoblanadi. Mafkuraviy ta'lim-tarbiya nafaqat o'quv muassasalarida, balki mahalla, korxonalar va tashkilotlarda izchil va tizimli tarzda olib boriladi.

Yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish yaxlit jarayon bo'lib, bu jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- yoshlarga g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim-tarbiyaning mohiyati hamda jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida ma'lumot beriladi;
- yoshlarda g'oyaviy va mafkuraviy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj vujudga keltiriladi hamda mafkuraviy tafakkur qaror toptiriladi;
- yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy, amaliy faoliyatlarini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi:

- mafkuraviy ta'lim-tarbiya ilmiy asosga ega bo'lib, yoshlarga O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi g'oyalar haqida chuqur bilim beriladi;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari, qarorlari, hukumatimiz qarorlarini o'rganish va to'g'ri talqin etish, bu me'yorlar fuqarolar, davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi hamda ularni og'ishmay ijro etishga o'rgatish mafkuraviy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib hisoblanadi;

- yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirishga tizimli yondashish va mafkuraviy tarbiyani uzluksiz tashkil etishga e'tibor kuchaytiriladi;
- milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirish aniq maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshiriladi;
- yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirish masalasiga bir butun jarayon sifatida yondashiladi;
- milliy g'oya - jamiyatda tinchlik, totuvlik, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolati bo'lib hisoblanib, jamiyatda yashayotgan yoshlarni yagona maqsadga yo'naltiradi;
- yoshlar tomonidan egallangan nazariy bilimlar amaliy harakatlar, mashg'ulotlar jarayonida mustahkamlanib boriladi.

Milliy g'oyaning kuchi bir tomondan ma'rifat-targ'ibot ishlari, uning samaradorligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan yoshlarning kundalik hayotda duch keladigan muammolarni tushunishlari, ularning munosabatlariga fikrga fikr bilan, g'oyaga g'oya bilan javob bera olish, uni qanday hal etayotganlariga bevosita bog'liqdir.

#### **18.4. Kamil insonning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, shart-sharoitlar**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning taqdiri har bir fuqaro, aniqrog'i insonning faolligiga bog'liqdir. Milliy g'oya jamiyatdagi mafkuraviy muhitni tubdan yangilovchi va rivojlantiruvchi muhim omil bo'lib, u jamiyat a'zolarining aql, idrok va maqsadlarining ongli ravishda birlashuvini ta'minlaydi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Kamil inson o'zida imon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o'zaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, eliga, xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarni va g'oyalarni mujassamlashtiradi. Yuksak darajadagi ma'naviyatga ega inson – fidoyilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi.



Komil insonning shakllanishida g'oyaviy tarbiya, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muhit, siyosiy ong va huquqiy madaniyat darajasining yuqoriligi muhim ahamiyat kasb etadi. G'oyaviy tarbiya bu inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibatda o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir.

Komil insonni tarbiyalashda quyidagi masalalar va omillarga e'tibor qaratiladi:

- yoshlarni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash;
- ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga e'tiborni kuchaytirish;
- yoshlarni ertangi kunga mas'uliyat bilan yashashga o'rgatish;
- yoshlarni ta'lim-tarbiya tizimiga nisbatan ongli munosabatda bo'lishga o'rgatish;
- ta'lim-tarbiya tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy tuzilmasini yaratish;
- yoshlarda ijtimoiy fikrlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish masalalarini hayotga tatbiq etishda ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytirish zarurdir.

Yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol avlod qilib tarbiyalashda:

- sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- milliy va umumbashariy qadriyatlarga e'tiqod hissini yo'naltirish;
- ta'lim-tarbiya tizimiga ongli munosabatni shakllantirish;
- ota-onaga bo'lgan hurmat va e'tiborni yanada kuchaytirish;
- ustoz-shogird tizimini yanada takomillashtirish;
- insonni bilim olishga yanada qiziqtirish;
- atrof muhitga e'tiborli bo'lish;
- pedagogik va psixologik bilimlarni muntazam o'zlashtirish;
- yoshlarning axborot olish ko'lamini kengaytirish;
- yoshlarda har bir ishga ijodiy yondashuvni tashkillashtirish;
- yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish;
- ta'lim-tarbiyani hayot bilan bog'lash;
- ta'lim va tarbiyaning o'zaro aloqasini kuchaytirish;

- yoshlarning individual xususiyatlariga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Komil insonni shakllantirishda, yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning o'rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlarda millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analari, moddiy va ma'naviy boyliklari o'z ifodasini topadi.

Komil inson, barkamol avlodning tarbiyasini yo'lga qo'yishda tarbiyada uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash orqali ta'limni insonparvarlashtirish, milliy tarbiyaning zamon bilan bog'liqligini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Ta'lim tizimidagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad barkamol insonni, yetuk shaxsni tarbiyalashdir. Komil insonni, barkamol shaxsni tarbiyalashda insonning bilim darajasi bilan bir qatorda, ularda mehr-muhabbat, adolat, samimiylik va axloq egasi bo'lish kabi tuyg'ularning shakllantirilishi muhim hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida yoshlarni komil inson, barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bular:

- yoshlarni sportga jalb etish;
- ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatish;
- ilmiy dunyoqarashini boyitish;
- mahalla bilan aloqani mustahkamlash;
- ta'lim tizimida interfaol metodlardan foydalanish;
- axborot olish madaniyatini shakllantirish;
- axborot va telekommunikasiya imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- ta'lim-tarbiya tizimida integrativ yondashuvni amalga oshirish;
- mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirish va takomillashtirish;
- milliy-ma'naviy qadriyatlardan ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish;
- intellektual salohiyatni yuksaltirish kabi ishlar orqali o'sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs va jamiyatning faol a'zosi qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Komil inson tarbiyasida g'oyaviy tarbiya muhim ahamiyatga ega bo'lib, g'oyaviy tarbiyalash deb, insonning ongi va tafakkuri tizimida shu yo'nalishdagi dunyoqarashni shakllantirish jarayoniga aytiladi. G'oyaviy tarbiya oila, ta'lim-tarbiya muassasalari, mahalla, mehnat jamoalarida olib boriladi.

## **18.5. Barkamol avlodning shakllanishi, unga xos xususiyatlar: yangicha tafakkur, falsafiy dunyoqarash, ma'naviy axloqiy poklik, yuksak ma'naviyat**

O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari ustuvor bo'lgan huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish orqali ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo milliy mafkuramizning asosiy maqsadidir.

Komil va barkamol insonlar millat, jamiyat va davlat taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Inson kamolotida jismoniy va ma'naviy go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog'lom bo'lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. Komillikning yana bir jihati Vatanga, millatga, elu-yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi jahon madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz merosiga hurmat, unga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, bu bebaho boylikni chuqur o'rganish va keng targ'ib etishga qaratilgan mazmundor, ta'sirchan loyihalarni amalga oshirishda tashabbus ko'rsatishi nur ustiga nur bo'lur edi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo totuvlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek asrash, yosh avlod o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishda O'zbekiston yoshlar ittifoqi o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lishi lozim<sup>1</sup>.

Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Lug'atlarda Komil so'zi – to'liq, yetuk, mukammal ma'nolarini, "barkamol" esa yetuklikka erishgan, mukammal, kamol topgan, beka mu-ko'st degan ma'nolarni berishi aytiladi.

Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 – жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2018. 533-534-бетлар.

ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir.

Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak<sup>1</sup>.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish bugungi kundagi dolzarb masaladir. Komil inson tarbiyasi ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat.

Bugungi zamonning komil insonlariga xos bo'lgan fazilatlar quyidagilardan iboratdir:

yuksak salohiyatli, ma'naviy uyg'oq, or-nomusli, uyat va andishali, sharmu hayoli, iboli va iffatli, sobitqadam, shijoatli, diniy qadriyatlarni biluvchi, savob ishlarni ko'p qiladigan, tariximiz, madaniyatimiz, buyuk ajdodlarimiz merosini

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Т.: Ўзбекистон, 2019. 8-бет.

chuqur biluvchi, Vatanga sodiq, milliy g'ururli, yuksak ma'naviyatli, yangicha fikrlovchi, shijoat, azmu qaror va o'ktamlikka ega, fidoyi, yuksak huquqiy madaniyatli, jahon tarixi va madaniyati yutuqlarini chuqur o'rgangan, mard, tashabbuskor, el-yurt tashvishini zimmasiga oladigan, daxldor, iymonli-e'tiqodli, o'z haq-huquqini bilib, himoya qila oluvchi, mustaqilligimizni ko'z qorachig'iday asrab-avaylovchi, himoyalovchi, saxiy, o'z mustaqil fikriga ega, mehr-oqibatli, g'oyaviy va mafkuraviy ta'sirlarga qarshi tura oladigan, o'tganlarni xotirlab, tiriklarni qadrllovchi, qisqa fursatlarda erishgan yutuqlarimizni davom ettirishga qodir, bilimli va iste'dodli, mehnatsevar, tadbirkor va yangilikni tez ilg'aydigan, g'ayrat-shijoatli, irodali, qat'iyatli, sabot-matonatli, jasur, faol, zamonaviy, yuksak texnologiyalarni o'zlashtirgan, sog'lom turmush tarziga intiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol topgan, ogoh, hushyor, munosib daromad topuvchi, yuqori malakali, mas'uliyatli, yetuk mutaxassis bo'lgan fuqarolar o'zlarining faoliyatida barkamollik fazilatlarini namoyon etadilar.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Komil inson deganda kimlarni tushunasiz?
2. Barkamol avlodni komil inson qilib tarbiyalashda milliy g'oyaning roli nimalardan iborat?
3. Komil inson va barkamol avlodga xos bo'lgan fazilatlarining milliy qadriyatlar bilan bog'liqligi nimalarda aks etadi?
4. Barkamollik sifatleri va mezonlarini aytib bering?
5. Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy g'oya qanday falsafiy asoslarga ega?
6. Barkamol avlodni tarbiyalashda mafkuraning rolini ochib bering?
7. Komil insonni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aytib bering?
8. Barkamol avlodning shakllanishida yangicha tafakkur nimalardan iborat?
9. Komil insonni tarbiyalashda falsafiy dunyoqarashning rolini tushuntirib bering?
10. Barkamol avlod tarbiyasida ma'naviy ideal, axloqiy poklik, yuksak ma'naviyat tushunchalarining rolini ochib bering?

## **19-BOB. MA'NAVIYATGA TAHDIDLARNING OLDINI OLISHDA MILLIY G'UYAGA TAYANISH ZARURATI**

### **19.1. Ma'naviy tahdid, g'oyaviy tazyiq va tajovuz tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati va yuzaga kelish shart-sharoitlari**

Hozirgi davrda globallashtirish ta'sirida dunyo tobora bir butun va yaxlit bo'lib, mamlakatlar va xalqlar taraqqiyoti bir-birini taqozo qiluvchi hodisaga aylanmoqda. Globallashtirish jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Milliy g'oya – o'zining mazmun-mohiyati bilan mafkuraviy tajovuz, ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan ma'naviy omil va kuchdir. Ma'naviy tahdid insonning ongi, dunyoqarashi va axloqiga ta'sir ko'rsatishi bilan jiddiy xavf hisoblanadi.

“Tahdid” so'zi arabcha “do'q qilish, qo'rqitish” degan so'zdan olingan bo'lib, kundalik hayotda “birovni qo'rqitish, unga do'q, po'pisa qilish hamda biror falokatning, qo'rqinchli voqeaning sodir bo'lish xavfi”, degan ma'nolarni anglatish uchun ishlatiladi. Tahdid so'zi falsafiy jihatdan keng va tor ma'noda ishlatilib, “Tahdid – keng falsafiy ma'noda inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo'naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan xavf-xatar shakli, muayyan barqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni ifodalovchi tushuncha” bo'lsa, tor ma'noda tahdid deb makon va zamonda mavjud bo'lgan real jamiyatning ijtimoiy tuzilmalarini zaiflashtirishga, qolaversa, yemirishga qaratilgan shaxsiy, mahalliy, hududiy, mintaqaviy omillarning qo'rqitish, do'q, po'pisa qilishdan iborat bo'lgan hatti-harakatlariga aytiladi.

Ma'naviy tahdid deganda esa, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan

mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion xurujlar nazarda tutiladi. Ma‘naviy tahdidlar g‘oyaviy tazyiq va axborot xurujlari tarzida amalga oshirilib, bu yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma‘naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga mutlaqo yot bo‘lgan qadriyatlarni targ‘ib etish, xalqning tarixiy xotirasini buzish va o‘zgartirish, kiberterrorizm kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Mafkuraviy tajovuz muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni zaiflashtirishga, barbod qilishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi g‘oyaviy-nazariy qarashlar majmuasidir. Mafkuraviy tajovuz – biron bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan g‘oyaviy buzg‘unchilikning bir shaklidir. Bugungi kunda mafkuraviy tajovuzni amalga oshirish uchun xilma-xil usullardan, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklardan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanilmoqda.

Tahdidlar xususiyati va taraqqiyot sohalariga o‘tkazadigan ta’sir darajasiga qarab, inson, shaxs, fuqaro, millat, davlat, jamiyat, mintaqa, global, ichki va tashqi, katta va kichik, shuningdek, iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ekologik, demografik, ma‘naviy, mafkuraviy va boshqa shakllarga bo‘linib, bularning ichida eng xatarlisi ma‘naviy-mafkuraviy tahdid bo‘lib hisoblanadi. Ma‘naviy-mafkuraviy tahdidlarning o‘zi ham ichki va tashqi tahdidlarga bo‘linib, ichki tahdidlar nosog‘lom mahalliychilik, boshqalarni mensimaslik, vatandoshlarining haqiga xiyonat qilish, baxtini o‘z vatanidan emas, boshqa joylardan qidirish, korrupsiya, ashaddiy millatchilik, befarqlik, loqaydlik, o‘zligini anglamaslik kabi illatlar shaklida namoyon bo‘lsa, tashqi mafkuraviy tahdid – bu mamlakatimizdagi barqarorlik va xavfsizlik tizimini izdan chiqarish uchun tajovuzkor g‘oya tarafdorlari tomonidan tashqaridan turib mamlakatimiz ichkarisiga tomon qilingan g‘oyaviy, mafkuraviy xurujlardan iboratdir. Ma‘naviy tahdidlar insonning ongi va dunyoqarashiga qarshi qaratilganligi uchun, ularning ijtimoiy xavfi bir muncha yuqoriroq bo‘ladi. Ma‘naviyatimizga qarshi qaratilgan xar qanday xuruj – bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyatlarga, ma‘naviy merosimizga,

milliy gʻurur, milliy iftixor tuygʻusiga, xalqimizni doimiy ravishda bosqichma-bosqich taraqqiyotga chorlaydigan, shu yoʻldagi barcha asorat va illatlardan xalos boʻlib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan maʼnaviy xavf-xatarlardan iboratdir.

“Barchamizga ayonki, jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib bormoqda, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli toʻqnashuv va nizolar davom etmoqda. Ming afsuski, bunday notinch keskinlik oʻchoqlari kamayish oʻrniga koʻpayib bormoqda. Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish boʻyicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart”.<sup>1</sup>

Bugungi kunda dunyo siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy qadriyatlar sohasida globallashuv tomon yuz burayotgan bir paytda har bir davlat oʻzining milliy manfaatlarini taʼminlashga, oʻz negizlaridan uzoqlashib ketmaslik va jahon sahnidagi boshqa qudratli obʼyektlar taʼsiriga tushib qolmaslikka intilmoqda. Globallashuvning ilmiy-texnik taraqqiyot bilan birga kechayotgani axborot sohasidagi regional va global tahdidlarning ortib borishiga sabab boʻlmoqda. XXI-asrda insoniyat bir qator tahdid va xavf-xatarlarga duch kelib, bu tahdid va xavf-xatarlarga ekologik muammolar, resurslar taqchilligi, qashshoqlik, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik, terrorizm, demografik inqiroz, demokratiya eksporti, maʼnaviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, gʻarbona turmush tarzini tiqishtirish kabilar kiradi. Internetdagi ayrim xabarlar buzgʻunchilik harakatlarini sodir etishga undab, hozirgi vaqtda bunday axborot tarqatish usullaridan turli ekstremistik guruhlar, buzgʻunchi tashkilotlar foydalanishga harakat qilmoqda. Ular tomonidan amalga oshirilayotgan maʼnaviy, mafkuraviy tajovuz aholining maʼlum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini oʻzlariga maʼqul yoʻnalishda oʻzgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi gʻoyalarni singdirishdek koʻrinishlarda sodir boʻlmoqda. Bunday tajovuzlarga yoʻl qoʻymaslikning eng qulay yoʻli fuqarolarda ona Vatanga, boy tariximizga, din-u

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 141-бет.



e'tiqodimizga sog'lom munosabatni qaror toptirish, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish va mustahkamlashdir.

## **19.2. Ma'naviy tahdid va tajovuzlarning o'ziga xos ko'rinishlari, niqoblanish xususiyatlari va harakat usullari**

Milliy g'oya bugungi kunda xalqimiz, jamiyatimiz uchun hayotiy zaruriyat, mamlakatimizda fuqarolar totuvligi va birdamligini ta'minlaydigan, taraqqiyotimizga kafolat bo'ladigan, insonlarga ezgu maqsadlariga erishishda ma'naviy-ruhiy kuch bo'lib, u ezgu maqsad yo'lida jamiyat a'zolarini birlashtiradi, ularga ruhiy madad berib, har qanday ko'rinisdagi ma'naviy tahdid va tajovuzlarni inkor etadi. Milliy g'oya mamlakatimiz buyuk kelajagi poydevorini yaratishdagi muhim vosita bo'lib, insonning ongi va qalbini egallashga qaratilgan har qanday zararli, begona g'oyalarga qarshi turadigan, mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yordam beradigan muhim ma'naviy omildir. Bugungi kunda davlatlarning qudrati, mamlakatlarning salohiyati yadroviy poligonlar bilan emas, g'oyaviy, mafkuraviy poligonlardagi salohiyati bilan o'lchanmoqda. "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" tamoyili davlatimizning g'oyaviy, mafkuraviy sohadagi siyosatini o'zida ifodalab kelmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirishga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan birgalikda, internet orqali kelayotgan ba'zi axborot xurujlarida xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analariga umuman to'g'ri kelmaydigan zararli g'oya va mafkuralar ham ilgari surilmoqda. "Demokratiya", "erkinlik" shiori ostida axloqiy buzqlik, ma'naviy tubanlik holatlarini targ'ib-tashviq qilish bizning milliy g'oyamiz va mentalitetimizga umuman to'g'ri kelmaydi. Globallashuv sharoitida ayrim kuchlar tomonidan "demokratiya targ'iboti" shaklida amalga oshirilayotgan ishlar, G'arb turmush tarzini "soxta demokratiya" shaklida xalqimizning kundalik hayotiga tiqishtirishga xarakatda ko'zga tashlanmoqda. Milliy g'oya har qanday ko'rinisdagi zararli

illatlarni, zo‘ravonlikni, axloqsizlikni, e‘tiqodsizlikni, jaholat va ma‘rifatsizlikni, buzg‘unchi fikr va yovuz g‘oyalarni inkor etib, O‘zbekiston fuqarolarida sog‘lom fikr va imon-e‘tiqodning mustahkamlanishiga yordam beradi. Xalqimizni turli g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash milliy mafkurani yanada rivojlantirish, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda jahonda ko‘plab davlatlar mavjud bo‘lib, ularda turli siyosiy kuchlar, partiyalar, dinlar, diniy oqimlar, mazhablar, guruh va qatlamlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ko‘pgina ilg‘or davlatlarda umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslangan mafkuralar amal qilmoqda. Shu bilan birga, muayyan kuchlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga, o‘z ta‘sir doirasini kengaytirishga qaratilgan intilishi kuchayib, tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va terrorizm, irqchilik va ekstremizm mafkuralari shular jumlasiga kiradi. Hozirgi paytda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, axborot xavfsizligini ta‘minlash g‘oyaviy, mafkuraviy tarbiyadagi muhim vazifa bo‘lib, butun dunyoda xavfsizlik muammosi, tinchlikni ta‘minlash masalasi, “ommaviy madaniyat” nomi ostida kirib kelayotgan turli xil illatlardan saqlanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotganidan dalolat beradi, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev. – Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasozlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”.<sup>1</sup>

Hozirgi kunda diniy-ekstremistik oqimlar uchun o‘z maqsadlarini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, Internet va ijtimoiy tarmoq sahifalari orqali keng targ‘ibot olib borish va puxta ishlangan

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 251-252-бетлар.

strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifalardan biriga aylangan. Chunki, globallashtirish jarayonida axborotlarni tezkorlik bilan to'plash, tarqatish va iste'mol qilishda ko'plab ijobiy tomonlar bilan birga g'arazli kuchlarning g'oyaviy kurash yo'lida amalga oshirayotgan axborot xurujlarida ham o'z aksini topmoqda.

Jamiyatdagi ma'naviy tahdidlardan biri terrorizm bo'lib, terrorizm jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholi keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otishga qaratilgan siyosiy kurashning o'ziga xos usuli bo'lib, u yashirin ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatni egallash maqsadida amalga oshiriladi. Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri ushbu harakat tarafdorlarining "Kuch ishlatish va zo'ravonlik davlatni qulaturvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi", – degan g'oyaga asoslanib harakat qilishlaridir.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid bo'lgan g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi. Diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik muayyan g'oyalarning to'g'ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan ketish, "o'zgalar" va "o'zgacha" qarash va g'oyalarga murosasiz munosabatda bo'lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda, ularni tan olmaslikda namoyon bo'ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Hozirgi vaqtda turli guruh va oqimlar tomonidan diniy ekstremizm va aqidaparastlikni targ'ib qilishda, jamiyatda norozilik kayfiyatini tarqatishda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanilmoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga "kufr diyori", "hijrat", "jihod", "shahidlik", "xalifalikni tiklash" kabi g'oyalar singdirilib, ular turli to'qnashuv va nizo o'choqlariga jalb qilinmoqda. Internet tarmog'ining chegara bilmasligi, sun'iy yo'ldosh orqali efirga uzatiladigan fazoviy kanallarga to'siq qo'yishning iloji yo'qligi hisobga olinadigan bo'lsa, hozirgi kunda bu kabi buzg'unchi g'oyalardan aholini, hususan yoshlarni asrash uchun ularda bu kabi yot g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitetni hosil qilish, internet va Ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali mazkur guruhlariga asosli raddiyalar berish, sof diniy ta'limotlarni yoshlarga yetkazish, ularni

xalqparvarlik, vatanparvarlik, milliy va diniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi davrda ma'naviy tahdidlarga missionerlik va prozelitizm ham taalluqli bo'lib, missionerlik – bu bir dinga e'tiqod qiluvchi aholi orasida boshqa bir dinni maqsadli targ'ib qilishdan iborat bo'lsa, prozelitizm – bu to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilishdir. Missionerlik va prozelitizm din bilan bog'liq holda shakllangan va mutaassiblikka asoslangan hodisalar hisoblanadi. Missionerlik lotin tilida “yuborish”, “vazifa topshirish”, missioner esa “vazifani bajaruvchi” degan ma'nolarni anglatadi, prozelitizm yunon tilida “kelgindi” degan ma'noni anglatadi. Missionerlik va prozelitizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungi kundagi muhim vazifadir.

### **19.3. Ma'naviy tahdidlarning oshkora va yashirin jihatlari, ularning turli daraja va ko'lamda namoyon bo'lish xususiyatlari**

O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik hamda hamjihatlik mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning mustahkam asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Lekin g'oyalar kurashi avj olgan XXI-asrda dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida hal etilishi zarur bo'lgan ko'plab muammolar yuzaga kelayotgani, kishilarning osuda hayotini izdan chiqarishga qaratilgan yangi shakldagi tahdidlarning kun sayin paydo bo'layotgani va buning natijasida buzg'unchi g'oyalarning mafkura maydonini qurshab olishga harakat qilayotgani barchani ogohlik va hushyorlikka chaqiradi. Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi, kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur'atlardagi taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turtki bo'lib, yoshlar ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir etuvchi ma'naviy, mafkuraviy xurujlar global muammoga aylandi. Bugungi kunda turli maqsadlarni ko'zlab uyushtirilayotgan axborot xurujlari xalqlar, davlatlar, mintaqalar hayotiga, kelajak taqdiriga tahdid solmoqda. Hozirgi davrda inson qalbi va ongi uchun kurashning yangidan-yangi usul va

vositari ko‘payib bormoqda. Ma‘naviy, mafkuraviy tahdidlarni odamlar ongi va qalbiga singdirishda din omilidan foydalanishga harakat qilinmoqda. Islom niqobi ostida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaassib uyushmalar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qat‘iy nazar, barcha musulmonlarning ma‘naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib, ularni yagona maqsad ostida birlashuvi g‘oyasini ilgari suradilar. Bunday kuchlar shu yo‘l bilan har bir davlatning o‘z taraqqiyot yo‘lidan og‘dirishga harakat qiladilar hamda qayerda g‘oyaviy bo‘shliq, loqaydlik va beparvolik mavjud bo‘lsa, ular o‘sha yerda paydo bo‘ladilar. “Ekstremistik” so‘zi “aql bovar qilmas darajada”, “haddan oshish” degan ma‘nolarni bildiradi. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me‘yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati hisoblanadi. Ekstremistik harakatlarning eng quyi tabaqasi ko‘pincha siyosiy tushga ega bo‘lmagan, mayda zo‘rluk va jinoyatlar sodir etgan unsurlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday zo‘rlukning siyosiy lashtirilishi terrorizm tomon qo‘yilgan birinchi qadam bo‘ladi. O‘z doirasiga yangi kimsalarni tortar ekan, ekstremistik guruh yoki uning rahbariyati so‘zsiz bo‘ysunishni va “ish”ga mutaassibona sadoqatni talab qiladi. Bugungi kunda ekstremizm va undan o‘sib chiqqan terrorizm mamlakatlar, mintaqalar va umuman dunyo xavfsizligiga asosiy tahdid sifatida birinchi o‘ringa chiqdi.

“Dunyo miqyosida xalqaro terrorizm, ekstremizm kabi xavf-xatarlar, milliy va global xavfsizlikka qarshi tahdidlar tobora ortib borayotgan hozirgi murakkab davrda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini yuksaltirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy qurol-yarog‘ va aslahalar bilan ta‘minlash, harbiy xizmatchilarning jismoniy, ma‘naviy-intellektual tayyorgarligini oshirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish eng ustuvor vazifamiz bo‘lib qolmoqda”,<sup>1</sup> – degan edi ushbu masala bo‘yicha O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Ekstremistik qarashlarni barcha diniy ta‘limotlar doirasida uchratish mumkin. Shuning uchun ekstremizmni faqat muayyan din bilan bog‘lash mutlaqo asossizdir. Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 27 йиллиги ва Ватан ҳимоячилари куни муносабати билан байрам табриги. “Халқ сўзи” газетаси, 2019 йил 13 январь, 1- бет.

talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag' yig'ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongu shuurini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydi<sup>1</sup>.

Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uyushmalar va aqidaparastlar turli dinlar, shu jumladan, xristianlik, islom, yahudiylik dinlari ta'limotidan foydalanmoqdalar. Axborot maydoni rivojlanib, tobora kengayib borayotgan hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari ekstremizm va terrorizm qo'lidagi kuchli qurolga aylanib qolmoqda.

Zamonaviy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini o'ziga qaratib kelayotgan masaladir. Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir.

O'zbekiston davlatining barqaror taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ichki siyosati ham ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda ekstremizmdan terrorizmning kelib chiqishini bartaraf etishga qaratilgan strategiyadir. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar bu kurash strategiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

“O'zbekiston terrorizm, ekstremizm va radikalizm mafkurasiga qarshi kurash borasida hamisha prinsipial pozitsiyaga ega bo'lib kelgan, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki birinchi navbatda, ayniqsa, yoshlar o'rtasida, zo'ravonlikni keltirib chiqaradigan jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish lozim”.<sup>2</sup> O'zbekiston ekstremizmga qarshi kurashda g'oyaviy tarbiya, eng avvalo mamlakat yoshlarida yuksak ma'naviyatni shakllantirish masalalariga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

---

<sup>1</sup> Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари. “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, -Т.: 2009. 94-бет.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 371-372-бетлар.

#### **19.4. Mahalliy-hududiy darajadagi ma'naviy tahdidlar. Global miqyosdagi ma'naviy tahdidlar, ularning mazmun-mohiyati**

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida diniy erkinliklarga keng yo'l ochilib, haqiqiy diniy e'tiqod erkinligi qonun yo'li bilan kafolatlandi. Bugungi kunda O'zbekistonda turli diniy konfessiyalarga mansub diniy tashkilotlar, shu jumladan, oliy va o'rta maxsus diniy bilim yurtlari faoliyat yuritmoqda.

Mustaqillikdan keyin Markaziy Osiyodagi va O'zbekistondagi tinchlik-barqarorlikka hamda millatlararo totuvlikka tahdid solgan diniy ekstremizm, fundamentalizm, missionerlik, prozelitizm kabi zararli g'oyalarning Vatanimiz hududiga kirib kelishining sabablari O'zbekistonning qulay geostrategik, geosiyosiy imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, turli diniy va siyosiy guruhlar va tashkilotlar bu yerda o'z mavqeini mustahkamlashga, odamlar qalbi va ongiga o'z g'oya va mafkuralarini singdirishga harakat qilgan edilar. Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining tezlashuvi, turli siyosiy kuchlarning har xil mafkuraviy vositalar orqali dunyoda o'z ta'sir doirasini kengaytirishga urinishlari Markaziy Osiyo mintaqasi va jahondagi tinchlik barqarorlikka o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan edi.

O'zbekiston mustaqilligidan so'ng mamlakatimiz xududiga suqilib kirishga harakat qilgan va yoshlarimiz, fuqarolarimiz ongi-tafakkurini zaharlashga uringan diniy ekstremistik va fundamentalistik harakatlardan Mirzo G'ulom Axmadxon tomonidan asos solinib, Pokiston orqali O'zbekistonga kirib kelishga harakat qilgan Axmadiya harakati, Hindistonda Muhammad Ilyos tomonidan asos solinib, odamlarni ommaviy ravishda Islomga chorlashni maqsad qilib qo'ygan Tablig'chilar oqimi, Turkiyalik Said Nursiy tomonidan asos solinib, asl maqsadi mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o'ta diniy, mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat bo'lgan "Nur"chilik harakati, Ozarbayjonlik Xoji Abdulla tomonidan asos solinib, hokimiyatni zo'rlik yo'li bilan egallab, islom davlati qurishni maqsad qilib qo'ygan "Tavba" ekstremistik harakati, Taqiyiddin Nabaxoniy tomonidan asos solingan "Xizb at-tahrir al-islomiy" diniy tashkiloti, Vaxxobiylik g'oyalariga tayangan holatda o'z faoliyatini olib borishga harakat qilgan Akromiyalar diniy-siyosiy harakati vakillari O'zbekistondagi tinchlik-

barqarorlikka katta xavf tug'dirdilar. Hozirgi davrda xalqaro maydonda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega bo'lib, O'zbekistonning milliy mustaqilligidan keyin nazariy jihatdan asoslab berilgan "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan baxsga kirishish, olishish mumkinligi" mafkuraviy kurashning yangicha konsepsiyasi sifatida isbotlab berildi.

Bugungi kunda mamlakatimizga qilinayotgan axborot xurujlari "demokratiya, erkinlik va farovonlikni ilgari surish" niqobi ostida turli geosiyosiy manfaatlarni o'zida mujassamlashtirgan holda olib borilmoqda. Axborot xuruji g'arazli geosiyosiy manfaatlarni amalga oshirish yo'lida turli kuchlar tomonidan keng qo'llanilmoqda. Bunday holat geosiyosiy kuchlarning dunyoning yirik tele va radiokanallariga, Internet saytlariga turli siyosiy kuchlarning bosim o'tkazishga intilayotganini, ulardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinayotganini ko'rsatadi. Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylanib, hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internetda jahonning bir necha mamlakatida uyushgan terrorchi guruhlar va tashkilotlarning saytlari, zo'ravonlik va axloqiy buzuvchilikni targ'ib va tashviq qiluvchi saytlar mavjud bo'lib, ular orqali yoshlarning ongiga, turmush tarziga to'g'ri kelmaydigan yot g'oyalar targ'ib qilinmoqda.

O'zbekiston xalqiga mamlakat ichkarisidan ham ma'naviy, mafkuraviy tahdid solish hollari mavjud bo'lib, bunday tahdidlar jumlasiga korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, odamlarning befarqligi, tanish-bilishchilik, mansabparastlik, xasadgo'ylik, haqiqatni mensimaslik kabi umuminsoniy axloqqa zid bo'lgan xatar va illatlar kiritiladi.

### **19.5. O'zbekistonda ma'naviy tahdidlarning oldini olish shart-sharoitlari va omillari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslari, texnik-texnologik imkoniyatlari**

Bugungi kunda turli ma'naviy tahdidlar, zararli g'oyalar va mafkuralar, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm dunyo mamlakatlari uchun nafaqat tashqi, balki



ichki xavfsizlikka ham daxldor masalaga aylandi. Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasi diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilikning, axborot hurujlarining mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyati unga qarshi birgalikda kurashishi lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyani jahonning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan e‘lon qildi. O‘zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosatining maqsadi mintaqada va global miqyosda tinchlik, barqarorlikni saqlash, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi, xalqining erkin va farovon hayotini ta‘minlashdir.

Ekstremizm va terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurash haqida gap ketar ekan, O‘zbekiston Afg‘onistonda tinchlikka erishishda BMTning faolligini kuchaytirishga katta e‘tibor qaratmoqda.

“Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta‘minlashning muhim sharti bo‘lib qoladi, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Aminmizki, Afg‘onistonda tinchlikka erishishning yagona yo‘li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o‘rtasida oldindan hech qanday shart qo‘ymasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borishdir. Muzokaralar afg‘onistonliklarning o‘zlari hal qiluvchi o‘rin tutadigan holda, Afg‘oniston hududida va BMT shafeligida o‘tishi lozim. Donishmand afg‘on xalqi o‘z taqdirini o‘zi mustaqil hal qilishga haqlidir”.<sup>1</sup> Qo‘shni davlatdagi vaziyatni barqarorlashtirishda ko‘p millatli Afg‘oniston xalqining an‘anaviy diniy, milliy-madaniy qadriyatlari va urf odatlarini hurmat qilish hamda qo‘llab-quvvatlash, kam sonli millatlarning o‘ziga xos manfaatlarini e‘tirof etish ham o‘ta muhim ahamiyatga egadir.

“O‘zbekiston Afg‘oniston rahbariyati va mamlakatning yetakchi siyosiy kuchlari, jumladan, “Tolibon” harakati vakillari bilan bir qator muhim muzokaralar o‘tkazdi, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Ushbu siyosiy kuchlar afg‘on muammosini hal qilishda O‘zbekiston samarali vositachi bo‘la olishi mumkinligini e‘tirof etdilar. Ma‘lumki, Afg‘onistondagi vaziyatni barqaror etishning muhim

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 250-251-бетлар.

sharti – mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklashdan iborat. Bu borada biz Afg‘onistonda transport va logistika, energetika, savdo va ta’lim sohalarida yirik qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga kirishdik. O‘zbekiston tomonidan qurilayotgan Surxon – Puli Xumri elektr uzatish liniyasi, Termiz shahrida afg‘on fuqarolarini o‘qitish uchun ochilgan Ta’lim markazi, bojxona terminaliga ham ega bo‘lgan “Termiz-kargo” logistika markazi, Mozori Sharif – Hirot va Mozori Sharif – Kobul – Peshavor temir yo‘l liniyasi loyihalari ishlab chiqilayotgani shundan dalolat beradi. O‘zbekiston afg‘on muammosini yechish uchun bundan buyon ham har tomonlama yordam ko‘rsatadi. Biz uchun eng muhim pirovard natija – Afg‘onistonda tinchlik muzokaralarini boshlash va milliy yarashuvga erishishdan iborat”.<sup>1</sup>

O‘zbekiston din sohasidagi jarayonlarni tartibga solish, diniy munosabatlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning ijobiy yo‘sinda kechishini ta’minlash, ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish uchun o‘zining ichki siyosatida ham tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda 1998 yil 1 mayda yangi tahrirda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunda ushbu yo‘nalishdagi faoliyatning huquqiy asoslari o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 57-moddasida, Konstitusiyaviy tuzumni zo‘rluk bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi<sup>2</sup>, deyilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri)ning 5-moddasida, Davlat turli dinlarga e’tiqod qiluvchi va ularga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e’tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi, diniy va o‘zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yish va

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Т.: Ўзбекистон, 2019. 57-бет.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018. 19-20-бетлар.

keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan hatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi. ...O'zbekiston Respublikasida diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakati, shuningdek respublikadan tashqarida tuzilgan diniy partiyalarning filiallari va bo'limlarini tuzishga va ularning faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi. Diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishlari shart. Dindan davlatga va konstitusiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg'otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviy totuvlikni buzishda, bo'hton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa hatti-harakatlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi, deyilgan. Qonunning 19-moddasida, Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan matbaa nashrlarini, kino, foto, audio, video mahsulotlarini va shu kabi boshqa mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi, deyilgan.

O'zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizm, missionerlik va prozelitizm, axborot xurujlari kabi ma'naviy tahdidlarga qarshi tizimli va tadrijiy kurash olib borilib, bu kurash davlatimiz suvereniteti, xavfsizligi, barqarorligi va konstitusiyaviy tuzumini saqlash, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish va inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **19.6. Ma'naviyatga tahdidlarning oldini olishda milliy g'oyaning ahamiyati**

Milliy g'oya o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra mafkuraviy tajovuz, ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan barkamol insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ma'naviy tahdid insonning ongi, dunyoqarashi va axloqiga daxl qilishi bilan jiddiy xavf hisoblanib, u turli usullar va vositalar yordamida amalga oshirilmoqda.

Milliy g'oya va milliy mafkura xalqimizning erkin, ozod, adolatli, ma'naviyatli, erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishdan iborat tub milliy maqsadimizga erishishimizni ta'minlaydi. Ma'naviyatli jamiyat qurishga intilayotganimiz milliy g'oya va mafkuramizda o'z ifodasini topadi. Yangilanayotgan ma'naviyat asosida milliy g'oya va milliy mafkurani yaratish, ma'naviyatga qarshi qaratilgan ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashni kuchaytirish davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifadir. Mafkurada muayyan g'oyaga ishonirish, uyushtirish, safarbar etish, ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish, g'oyaviy tarbiyalash, g'oyaviy immunitetni shakllantirish kabi maqsadlar ko'zda tutilganligi sababli u, ayni paytda, ma'naviy harakat dasturi vazifasini bajaradi.

Hozirgi paytda jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va dunyoni shunday asosda bo'lib olishga urinishlar davom etmoqda. Buning uchun ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, ularning yutuqlaridan foydalanishga harakat qilmoqdalar.

XXI asr axborot asri bo'lish bilan birga inson ongi va tafakkurini o'zga g'oyalar bilan zabt etish asri ekanligi ham aniq bo'lib bormoqda. Axborot xurujini tashkil etuvchi va tarqatuvchi asosiy maydon – bu internet bo'lib, globallashgan axborot maydonida ruhiy-informatsion ta'sir vositalarini to'liq cheklash yoki nazorat qilish imkonsizdir. Demokratik boshqaruv, fikrlar xilma-xilligi bunga yo'l qo'ymaydi. Aslida tarqatilayotgan har bir axborot qayta-qayta tekshirilgan bo'lishi kerak. Ammo real hayotda buni amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun ma'naviy, mafkuraviy tahdidlarning oldini olish uchun fuqarolarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularning ongi va qalbiga milliy g'oya va mafkurani singdirish muhimdir. Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizim bo'lib, mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi, bu bilimdir. Mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'yektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi, xalq va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. O'zbekistonning boy tarixi, yuksak ma'naviyati, milliy

qadriyatlari xalqimizda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining yuksalishiga xizmat qilib, ma'naviy, mafkuraviy immunitetning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Milliy g'urur va iftixori yuksak bo'lgan inson milliy g'oya va mafkuraga tayangan xolatda ma'naviy tahdidlarga, zararli g'oyalar va mafkuralarga qarshi kurashadi. Vatan va xalq manfaati inson amaliy faoliyatining asosini tashkil etib, Vatanning kelajagi oldidagi burch va mas'uliyat inson ma'naviyatining muhim mezoniga aylanadi. Qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Inson qalbi va ongiga milliy g'oyani singdirish g'oyaviy tarbiya orqali olib borilib, ushbu tarbiyaning asosiy maqsadi – jamiyatning har bir a'zosi, ijtimoiy qatlam yoki guruhda ezgu g'oyalarga sadoqat, ularni amalga oshirish uchun mas'uliyat, yot va zararli g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir. G'oyaviy tarbiya vositasida insonda yangicha dunyoqarash, yuksak e'tiqod, iymon, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyat, vatanparvarlik, fidoyilik kabi fazilatlar shakllantiriladi.

Milliy g'oya insonda urf-odat, an'ana va qadriyatlardan boshlanib, ma'naviy meros, tarixiy xotira va millat taraqqiyotida to'plagan tajribalarni o'z ichiga oladi. Milliy g'oya tizimida milliy ong, milliy o'zlikni anglash va milliy mentalitet yetakchi o'rin egallaydi. Milliy g'oya millat vakillarida millat taqdiri uchun mas'ullik tuyg'ularini uyg'otadi. Milliy g'oya millatni o'z-o'zini anglashi, milliy ong rivojlanishi bilan cheklanib qolmay, u millatni boshqalarga tanitadi va uning umumjahon sivilizatsiyasi jarayonlariga mustaqil sub'yekt sifatida kirib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Milliy g'oya milliy o'zlikni anglash, boy tarixiy ma'naviy merosni tiklash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirishga xizmat qilganligi uchun ham ma'naviy tahdidlar, zararli g'oyalar va mafkuralarga qarshi fuqarolarda g'oyaviy, mafkuraviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlashga

xizmat qiladi. Milliy g'oya ma'naviy tahdidlar, zararli g'oyalar va mafkuralarga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslangan holda, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy merosiga tayanib, mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Milliy g'oya O'zbekistonda adolatli va insonparvar jamiyat barpo etish jarayonida xalqimizning adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalariga bo'lgan ishonch va e'tiqodini o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qilib, jamiyat a'zolarida ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlagan holda ularni O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Milliy g'oyaning fuqarolar mafkuraviy immunitetini mustahkamlash jarayonidagi muhim vazifasi, u millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptirib, jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

Milliy g'oya tomonidan kurash olib boriladigan ma'naviy tahdidlar, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni o'zida ifodalaydi. Ma'naviy tahdidlarning uch turi mavjud bo'lib, bular, mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion tahdidlardan iboratdir:

1. **Mafkuraviy tahdidlar.** Mafkuraviy tahdidlar insonparvarlik tamoyiliga zid bo'lgan, bir millatni boshqasidan ustun qo'yadigan, oliy irq da'vosida boshqa xalqlarni qirg'in qilishga chaqiradigan, jamiyatni qarama-qarshi taraflarga bo'lib tashlaydigan g'oyalar bo'lib, diniy aqidaparastlik va jangari irqchilik, buyuk davlatchilik shovinizmi va ashaddiy millatchilik, fashizm va bolshevizm mafkuralari ana shunday mafkuraviy tahdidlar bo'lib hisoblanadi.

2. **G‘oyaviy tahdidlar.** Bu turga kiruvchi tahdidlar inson ma‘naviy olamida yot g‘oyalar, qarashlar va maqsad-muddaolarni shakllantirishga intiladi. Bugungi kunda g‘oyaviy tahdidlarning quyidagi ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, bularga axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, egosentrizm, individualizm, “ommaviy madaniyat”, milliy davlatning taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg‘otish, milliy nizolar keltirib chiqarishga urinish, iqtisodiy tanglik joriy qilish, qo‘shni davlatlarni bir-biriga qayrash, yoshlar ongini zaharlash kabilari kiradi.

3. **Informatsion tahdidlar.** Bu turga kiruvchi tahdidlar insonning ijtimoiy ongini noto‘g‘ri shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lib, bugungi kunda informatsion tahdidlar Internet vositasida chetdan turib uyushtirilmoqda. Informatsion tahdidlarning asosiy ko‘rinishlari, davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, kichik muammoni katta muammo sifatida tasvirlash, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni salbiy tarzda tasvirlash, milliy qadriyatlarni noto‘g‘ri talqin qilish, yoshlarni chalg‘itish kabilardan iborat bo‘lib, informatsion tahdidlarni ba‘zida *axborot xuruji* deb ham atashadi. Axborot xuruji shaxsni ikkilantirib, uni muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik tarkib topadi.

Milliy g‘oya bugungi kunda mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion tahdidlarga qarshi fuqarolar ongi va qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlashning eng muhim omilidir.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ma‘naviy tahdid deganda nimani tushunasiz?
2. G‘oyaviy tazyiq va tajovuz tushunchalarining bir-biridan farqini ko‘rsatib bering?
3. G‘oyaviy tazyiqning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
4. Ma‘naviy tahdid va tajovuzlarning harakat usullarini aytib bering?
5. Ma‘naviy tajovuzning o‘ziga xos ko‘rinishlari va xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

6. Ma'naviy tahdidlar oshkora va yashirin jihatlarining jamiyatda namoyon bo'lishi xususiyatlarini tushuntirib bering?
7. Ma'naviy tahdidlar turli daraja va ko'lamda namoyon bo'lishi xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Mahalliy-hududiy darajadagi ma'naviy tahdidlar deganda nimani tushunasiz?
9. Global miqyosdagi ma'naviy tahdidlarning mazmun-mohiyatini aytib bering?
10. O'zbekistonning ma'naviy hayotiga tahdidlar va ularni bartaraf etish yollari haqida ma'lumot bering.
11. O'zbekistonda ma'naviy tahdidlarning qanday omillari mavjud?
12. O'zbekistonda ma'naviy tahdidlarning texnik-texnologik imkoniyatlari deganda nimani tushunasiz?
13. Milliy g'oya orqali ma'naviyatga tahdidlarning oldini qanday olish mumkin?



## **20-BOB. YOT VA ZARARLI G‘OYALARNING KO‘RINISHLARI, ULARNING OLDINI OLISHDA MILLIY G‘OYANING O‘RNI VA AHAMIYATI**

### **20.1. Yot va zararli g‘oyalar, g‘oyaviy kurash tushunchalari, ularning mazmun va mohiyati**

Insoniyat XXI asrga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolar, urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma’naviy qashshoqlik, narkobiznes, ekstremizm va terrorism, missionerlik va prozelitizm, “ommaviy madaniyat” kabi muammolarga duch keldi. Shu bilan birga, dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog‘liq jarayonlar ham sodir bo‘lmoqda. Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan yot va zararli g‘oyalar, siyosiy kuch va harakatlar ham mavjud bo‘lib, tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va irqchilik, diniy ekstremizm va fundamentalizm kabilar shular jumlasidandir.

“Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va ba’zi mintaqalarda yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa jinoyatchilik, odam savdosi, terrorchilik, ekstremizm, narkotrafik kabi illatlarning hamda o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarning ko‘payishiga olib kelmoqda, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – axborot-kommunikatsiya tizimlarining keng qo‘llanishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi albatta, o‘z navbatida, axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Korrupsiya, mahalliychilik va urug‘ aymoqchilik kabi illatlar davlat hokimiyatini obro‘sizlantirib, iqtisodiyotning o‘sishi va tadbirkorlik rivojiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. “Ommaviy madaniyat” balosi ko‘plab yoshlarni o‘z domiga tortib, millat va yurt uchun butunlay begona bo‘lgan an’analar kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda”.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 – жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2018. 45-46-бетлар.

Jamiyatimiz hayoti va yosh avlod tarbiyasi uchun zararli boʻlgan yot va zararli, vayronkor gʻoyalar ijtimoiy taraqqiyotimiz hamda kelajagimiz uchun tahdididir. Vayronkor gʻoyalar deb inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni gʻarazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan gʻoyalar majmuasiga aytiladi. Yot va zararli, vayronkor gʻoyalarga mustabidlik, bosqinchilik, terrorchilik, aqidaparastlik, jaholatparastlik, irqchilik, millatchilik, mahalliychilik, yovuzlik kabi gʻoyalar kiradi. Yot va zararli, vayronkor gʻoyalar kosmopolitizm, neokommunizm, neofashizm, rasizm, shovinizm, panislomizm, panslavyanizm, panamerikanizm, paneronizm, panturkizm, fundamentalizm, gegemonizm, konformizm kabi shakllarda namoyon boʻladi.

Yot va zararli, vayronkor gʻoyalar oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, bu xususiyatlarga quyidagilar taalluqlidir. Eng avvalo, yot va zararli, vayronkor gʻoyalarda gʻoyaviy yakkahokimlikka intilish kuchli boʻlib, fikrlar plyuralizmi rad etiladi. Yot va zararli, vayronkor gʻoyalarda demokratik va milliy qadriyatlar tan olinmasdan, mutlaq hokimiyatga daʼvo qilinadi. Yot va zararli, vayronkor gʻoyalar jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka moyil boʻlib, jamiyatda yagona, hukmron mafkurani oʻrnatishga urinadi. Shu bilan birga, ushbu gʻoyalar ijtimoiy ixtiloflarni qoʻllab-quvvatlab, aqidaparastlik va siyosiy ekstremizmni yoqlab chiqadi. Yot va zararli, vayronkor gʻoyalarning tashkiliy asoslari diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, narkobiznes, noqonuniy qurol-yarogʻ savdosi, begona, soxta diniy aqidalar, jangarilikni targʻib etish va aqidaparastlikdan iboratdir.

Yot va zararli, vayronkor gʻoyalar jamiyat hayotida bir qator zararli oqibatlarni keltirib chiqarib, bu zararli oqibatlarga quyidagilar taalluqlidir. Eng avvalo, yot va zararli, vayronkor gʻoyalar insonning ongi, tafakkuri, maʼnaviyatiga salbiy taʼsir koʻrsatib, insonning tafakkur tarzini tarixiy asosi, milliy negizlaridan begonalashtiriladi. Yot va zararli, vayronkor gʻoyalar insonda nosogʻlom turmush tarzini shakllantirib, begona urf-odat va anʼanalarni targʻib qiladi. Yot va zararli, vayronkor gʻoyalar begona urf-odat va anʼanalarning kirib kelishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Ushbu gʻoyalar fikrlar xilma-xilligini cheklab,

qaramlik, tobelik va mutelik muhitini yaratadi. Yot va zararli, vayronkor g'oyalar mamlakatni, xalqni o'z milliy qadriyatlari va taraqqiyot yo'lidan begonalashtiradi. Yot va zararli, vayronkor g'oyalar jamiyatda tinchlik-barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikka rahna solib, mamlakatda ichki ixtilof va parokandalikni keltirib chiqarishi mumkin bo'lganligi uchun ham uning milliy davlatchiligimiz va ma'naviyatimiz uchun tahdidi kattadir. G'oyaviy kurash turli manfaat, maqsad va intilishlarni ifodalovchi g'oyalar va ularga tayanadigan kuch va harakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalovchi tushunchadir. Insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyotida ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari bilan bosqinchilik, tajovuzkorlik va mustabidlik g'oyalari o'rtasida doimiy ravishda mafkuraviy kurash olib borilgan. Jamiyat taraqqiyotida zulm va zo'ravonlik, qabohat va jaholat g'oyalari qarshi adolat, tinchlik va birodarlik, taraqqiyot va farovonlik g'oyalari asosida g'oyaviy kurash olib borilmoqda. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, yuksak mafkuraviy madaniyatni qaror toptirish masalasiga katta e'tibor qaratilib, g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr va jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyili O'zbekistonning milliy g'oya va mafkura sohasidagi siyosatining mazmun-mohiyatini o'zida ifodalaydi.

## **20.2. O'zbekiston hayoti va taraqqiyotiga g'oyaviy tahdidlar, ularning ko'rinishlari va namoyon bo'lish xususiyatlari**

O'zbekiston xalqining mustaqilligiga, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy asoslariga tashqi va ichki tahdidlar mavjud bo'lib, tashqi tahdidlar yot va zararli g'oyalar hamda mafkuralarga taalluqli bo'lsa, ichki tahdidlar mamlakat qudrati, tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, odamlarning befarqligi, maqtanchoqligi, xushomadgo'yliqi, xasadgo'yliqi, manmanligi, haqiqatni mensimasligi, tanish-bilishchilik, mansabparastlik, poraxo'rlik, loqaydlik kabi umuminsoniy axloqqa zid bo'lgan illatlardan iboratdir.

“Korrupsiya” – lotin tilida “poraga sotilish”, “aynish”, “tanazzul” degan ma’nomalarni bildirib, mansabdor shaxsning boyish maqsadida o‘z mansabini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ushbu masala bo‘yicha alohida shug‘ullanib, maxsus qaror qabul qilgan hamda korrupsiyaga tegishli bo‘lgan quyidagi jihatlarga e’tibor qaratgan. Eng avvalo, korrupsiya mansabdor shaxslar tomonidan davlat mulkini o‘g‘irlash, talon-taroj qilish va o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatdir. Shu bilan birga, korrupsiya noqonuniy foyda olish uchun o‘z xizmat lavozimini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatdir. Jamiyat xayoti bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatda ijtimoiy burch va shaxsiy ta’magirlik, manfaatlar o‘rtasida o‘zaro ziddiyatlar vujudga keladi. Jamiyat xayotida korrupsiyaning mavjudligi mamlakat xavfsizligiga katta tahdiddir. Agar masalaning siyosiy jihatiga e’tibor qaratisa, korrupsiya bu eng avvalo jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshi qaratilgan faoliyatdir. Korrupsiyada o‘z umrini yashab bo‘lgan, yangi iqtisodiy munosabatlarni o‘ziga qarshi tahdid deb bilgan, ularning rivojlanishini sekinlashtiradigan ma’muriy-buyruqbozlik tizimi bilan “xufiyona” iqtisodiyotning manfaatlari ob’yektiv ravishda birlashib ketgan bo‘ladi. Korrupsiyaga aralashgan amaldorlar shaxsiy manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo‘yadilar va bu bilan davlatning yuksalishi va taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadilar. Jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitusiyaviy asoslarini yemirib, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Davlat boshqaruv tizimidagi amaldorlarning o‘z shaxsiy manfaati yo‘lida jinoiy unsurlar bilan birlashib ketishi odamlarda olib borilayotgan islohotlarga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini kuchaytiradi. Jinoyatchilik va korrupsiya jamiyat a’zolarining fuqarolik mavqeini yo‘qqa chiqarib, amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga nisbatan salbiy munosabatlarni vujudga keltiriladi. Hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biridir. Jinoiy tuzilmalarning davlat organlari amaldorlari bilan birlashib ketishi, ularning turli hokimiyat organlariga kirib olishi jamoatchilik fikricha fuqarolarning himoyasizligi hissini kuchaytirib, davlatning o‘zini

obro'sizlantiradi. Jamiyatda korrupsiyaning mavjudligi sharoitida jinoyatchi unsurlar tomonidan avvalo o'z xalqini aldab kapital to'planadi, so'ngra demokratiya va adolatni ro'kach qilgan holda jamoatchilik fikrini aldab, siyosiy obro' orttirishga harakat qilinadi. Bunday shaxslar o'z manfaatlari yo'lida respublikadagi vaziyatga ta'sir ko'rsatishga urinayotgan tashqi kuchlarga xizmat qilishga tayyor turganliklari uchun ham O'zbekistondagi tinchlik-barqarorlikka, davlatimizning havfsizligiga doimo tahdidni vujudga keltiradilar. Mamlakatimizning porloq kelajagi va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidlarni esda tutishi va ularga qarshi kurashishi muhimdir. Halol mehnat qilish, o'z bilimi, kuch-g'ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo'lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to'la-to'kis foydalanishini orzu qiladigan har bir fuqaro, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashni o'zining burchi va mas'uliyati deb hisoblashi muhimdir.

Urug'-aymoqchilik qon-qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan odamlarning birligi bo'lib, hozirgi davrda bir joyda tug'ilgan, qon-qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan odamlar davlat hokimiyati idoralarida, turli korxonalar va tashkilotlarda birgalikda faoliyat yuritishlari asosida o'zlarining shaxsiy manfaatlarini umumdavlat, umumxalq manfaatlaridan ustun qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Urug'-aymoqchilikni ajratib turuvchi belgi – uning a'zolarining bir joyda tug'ilganidir. Tug'ilgan joyning umumiylikiga qarab ish yuritish mahalliychilikni keltirib chiqaradi. Mahalliychilik bu – kishilarda o'zlari tug'ilib o'sgan joy bilan bog'liq holda shakllanadigan hududiy yaqinlik tuyg'usining salbiy shaklda namoyon bo'lishidir. Mahalliychilikning eng nomaqbul tomoni mahalla, hudud, mintaqalar manfaatlari jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yilishi natijasida davlatning hududiy yaxlitligi, barqarorligi va taraqqiy etishiga tahdid vujudga keladi. Mahalliychilikning kuchayishi joylarning o'z-o'zini chegaralab qo'yishiga, mavjud xo'jalik va ijtimoiy aloqalar tizimining kuchsizlanishiga olib kelishi mumkin. Mahalliychilikning oldini olishda milliy mafkura muhim o'rin tutadi. Milliy

mafkura jamiyatimizda yashovchi barcha xalqlar, millatlar va elatlarning asosiy maqsadlari va orzu-umidlarini amalga oshirishga xizmat qilib, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik g'oyalari qarshi kurashadi. Milliy g'oya xalqning ma'naviy kamolotiga, ma'rifatiga asoslanadi, kishilar ongida umumiy mohiyatga ega bo'lgan milliy g'urur tuyg'usini uyg'otadi va mustahkamlaydi.

Jamiyat barqarorligiga tahdidlardan biri millatchilik bo'lib, millatchilik bu – boshqa millat kishilari manfaatlari, ehtiyojlariga bepisandlik bilan qarashni, xudbinlarcha munosabatlarni ifodalovchi g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyotidir. Jamiyat hayotida milliy g'urur bir millatga xos bo'lgan xususiyatlarning rivojlanishiga, ularning kelajak hayotini yuksaltirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, millatchilik boshqa millatlar, elatlar manfaatlari, ehtiyojlarini nazar-pisand qilmaslikka, ularning huquq va erkinliklarini chegaralashga qaratilgan faoliyat va harakatdir. Millatchilik davlat va millat xavfsizligiga tahdid soladigan salbiy omildir. Jamiyat hayotida bir millat o'z ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatlar hisobidan hal qilishga intiladigan bo'lsa, bu millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Millatlararo munosabatlarni tartibga solishda milliy mafkuradagi millatlararo totuvlik g'oyasi muhim ahamiyatga egadir. Millatlararo totuvlik g'oyasi jamiyatdagi tinchlik-barqarorlikning muhim omilidir.

O'zbekiston hayoti va taraqqiyotiga g'oyaviy tahdidlardan yana biri axborot sohasidagi xurujlar bo'lib, axborot sohasidagi xavfsizlikni ta'minlash bugungi kundagi dolzarb masaladir. Axborot sohasidagi tahdidlar globallasuv sharoitida har bir millatning o'ziga xosligi, milliy qadriyat va an'analariga sodiqligi, milliy o'zligini anglashiga katta xavf tug'diradigan omillardan biridir. Hozirgi davrda millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyluklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qoladi. Axborotni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi matbuot, radio, televideniye kabi hodisalarni o'zida birlashtiruvchi ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat hayotiga ulkan ta'sir o'tkazish quvvatiga ega. Ayni paytda axborotning aksariyat qismi internet orqali dunyoga tarqalmoqda. Internetdagi axborotning hajmi juda katta bo'lib, turli xilligi

tufayli yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ham ko'rsatmoqda. Globallashuv davrida axborotga bo'lgan talab yuqoriligi bois, inson o'ziga kerakli bo'lgan turli xil ma'lumotlarni oladi. Internetda tarqatilayotgan axborotning xolis yoki haqqoniyligiga ishonish muammoli masala bo'lib, Internetdagi ayrim xabarlar buzg'unchilik harakatlarini sodir etishga undab, hozirgi vaqtda bunday axborot tarqatish usullaridan turli ekstremistik guruhlar va buzg'unchi tashkilotlar foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Yoshlar internetdan umummilliy manfaatga xizmat qiladigan va uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotlarni tanlab tahlil qilib foydalansalar, ularning ma'naviyat va tafakkuri o'sib, axborot iste'moli madaniyatiga ega yoshlarda mafkuraviy immunitet mustahkamlanib boradi.

### **20.3. Tahdidlarning ichki va tashqi yo'nalishlari, ijtimoiy ildizlari**

Bugungi kunda insoniyatga bo'layotgan tahdidlarning eng xatarlisi bu ma'naviy tahdid. Ma'naviy tahdid, eng avvalo, insonning ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni o'zida ifodalaydi. Ma'naviy tahdidlar faqat inson tomonidan yaratiladi va faqat insonga tajovuz qilinishi bilan zararli bo'lib hisoblanadi. Ma'naviyatga ichki tahdidlar o'zining qamrovi va keltiradigan salbiy oqibatlari bilan tashqi tahdidlardan ham xavfliroq bo'lib hisoblanadi. O'z manfaati yo'lida oshkora va mahfiy ravishda yo'l qo'yiladigan g'ayriinsoniy hatti-harakat, korrupsiya, tanish-bilishchilik, mahalliychilik, millatchilik, ta'magirlik, sotqinlik ma'naviy tahdidlarning turli xil ko'rinishlari bo'lib, ushbu ma'naviy tahdidlarning xatarli jihati shundan iboratki, ular millatni ichidan yemirib, yagona millat vakillarining o'rtasida turli-tuman ziddiyatlarni ham vujudga keltirishi mumkin. Ichki tahdidlar mamlakatda beqarorlikni vujudga keltirib, bu bilan tashqi tahdidlar ta'siri kuchayishi imkoniyatni yaratadi. Bugungi kunda milliy ma'naviyatga qarshi qaratilgan tashqi tahdidlarga globallashuv sharoitida vujudga kelib jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan diniy ekstremizm, fundamentalizm, aqidaparastlik, missionerlik, prozelitizm, kosmopolitizm, irqchilik, shovinizm, panislomizm kabi mafkuraviy xurujlar, axborot xuruji, "ommaviy madaniyat", turli

xil kasalliklarning avj olishi, narkotik moddalarning keng yoyilishi, odam savdosi kabilarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston xalqining mustaqilligi, uning tinch-totuv yashashiga, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy tuzilmalariga solinayotgan tahdidlar siyosiy va iqtisodiy, ichki va tashqi tahdidlarga bo'linadi. Siyosiy tahdidlarga tashqaridan reaksiya ekstremistik partiya va boshqa uyushmalarning kirib kelib buzg'unchi g'oyalarni tarqatishga urinishi, turli yo'llar bilan mamlakatning ichki ishlariga aralashishga urinish, diniy ekstremizm va separatizm g'oyalarni tarqatishga harakat qilish kabilar taalluqlidir. Xalqaro maydonda xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, qurol yarog' savdosi, narkotik moddalarni tarqatishga urinish ham siyosiy maqsadlarni ko'zlagan holda amalga oshiriladigan tahdidlardir. Hozirgi davrda turli davlatlarda hokimiyatning yuqori bo'g'inlaridagi korrupsiya va poraxo'rlik kabi salbiy illatlar ham siyosiy tahdidlardir.

Jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy tahdidlarga jamiyat hayotida yashirin iqtisodiyotning kuchayishi, iqtisodiy dezintegratsiya, banklarning to'lov qobiliyatini yo'qotishi, tashqi kuchlarning mamlakatni jahon iqtisodiyotiga kirishiga yo'l qo'ymaslikka urinishi, iqtisodiy sohada raqobatga bardosh berolmaslik kabilar kiradi. Siyosiy va iqtisodiy tahdidlarning o'zi ichki va tashqi tahdidlarga bo'linib, ichki tahdidlar mamlakatning ichida davlat siyosatidan norozi bo'lgan kuchlarning o'z Vataniga va vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g'oya, fikr va hatti-harakatlaridan iboratdir. Ichki tahdidlar nosog'lom mahalliychilik, boshqalarni mensimaslik, vatandoshlarining haqiga xiyonat qilish, baxtini o'z vatanidan emas, balki boshqa joylardan izlash, odamlarni mulkiy jihatdan tabaqalarga bo'lish, poraxo'rlik, korrupsiya, qo'pollik, ashaddiy millatchilik, boylikka hirs qo'yish, befarqlik, loqaydlik, o'zligini anglamaslik kabi illatlarda namoyon bo'ladi. Tashqi tahdidlar esa yot va zararli g'oyalar, buzg'unchi kuchlarning mamlakatga tashqaridan kirib kelgan holda uning ijtimoiy tuzilmalarini yo'q qilishga, xalqni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan parokandalikka uchratib o'zlariga tobe qilishga qaratilgan hurujlaridir. Bugungi kunda ijtimoiy taraqqiyotga, milliy ma'naviyatga qarshi qaratilgan tashqi tahdidlarga ham qaraganda ichki tahdidlarning oldini olish birinchi navbatdagi vazifaga aylanib



bormoqda. Chunki har bir millat ma'naviy jihatdan baquvvat bo'lishi uchun u eng avvalo, har qanday ichki tahdidlardan holi bo'lishi lozim. Ichki ziddiyatlardan xoli bo'lgan millatda har qanday tashqi tahdidlar xavfini oldini olishga bo'lgan kuch-quvvat ham mustahkam bo'ladi. Milliy ma'naviyatni asrash va boyitishning muhim omili ajdodlardan qolgan boy tarixiy va ma'naviy merosdir. Xalq, millat o'z merosi va tarixiy xotirasini tiklagani sari ruhan baquvvat bo'lib, undan ilhom oladi, ma'nan boyib, istiqbolga intilib yashaydi hamda uning faolligi tabiiy ravishda oshib boraveradi. Ma'naviy meros va tarixiy xotiraga nisbatan befarqlik ichki va tashqi tahdidlarning kuchayishiga, milliy ma'naviyatga e'tiborning pasayishiga olib keladi. Milliy ma'naviyatga bo'layotgan tahdidlarning oldini olish va bartaraf etishda quyidagilar muhim ahamiyatga egadir:

- chetdan kirib kelayotgan tashqi ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy tahdidlarni paydo bo'lish davridan aniqlab, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

- ularga qarshi kurashishning huquqiy asosini yanada takomillashtirish, yangi normativ – huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilish;

- millatning, xalqning jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-axloqiy normalari, madaniy rivojlantirish tamoyillarini rivojlantirish, ularning barcha fuqarolar, ayniqsa yoshlar orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish;

- internet va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan turli salbiy axborotlarga qarshi O'zbekistonning barcha fuqarolarining o'zaro hamkorlikda kurashishi;

- ichki va tashqi ma'naviy tahdidlarga qarshi "mafkuraviy immunitet"ni shakllantirish;

- yoshlarning ongida milliy ma'naviyatimizga, ma'naviy merosimizga, tariximizga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

- atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan doimo ogoh va hushyor bo'lish hamda o'zining mustaqil fikrini bildirish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda milliy ma'naviyatga bo'layotgan ichki va tashqi tahdidlar inson va jamiyat hayotiga, mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Hozirgi vaqtda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya maydonida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar

tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi kurashish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

#### **20.4. Diniy ekstremizm va terrorchilik, ommaviy madaniyat va demokratik g'oyalarni niqob qiluvchi ma'naviy-mafkuraviy oqimlar, ularning faoliyat usullari va xavfsizlikka tahdidi**

O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik hamda hamjihatlik yurtimiz taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning mustahkam asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Lekin g'oyalar kurashi avj olgan XXI asrda dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida hal etilishi zarur bo'lgan ko'plab muammolar yuzaga kelayotgani, kishilarning osuda hayotini izdan chiqarishga qaratilgan yangi shakldagi tahdidlarning kun sayin paydo bo'layotgani va buning natijasida buzg'unchi g'oyalarning mafkura maydonini qurshab olishga harakat qilayotgani barchamizdan ogohlik va hushyorlikni talab etmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi, kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur'atlardagi taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turtki bo'lib, yoshlar ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir etuvchi mafkuraviy xurujlar global muammoga aylandi. Bugungi kunda globallasuv va axborotlashuv jarayonlari odamlarning ongi va qalbini turli g'oyalarni sinash maydoniga, mafkuraviy poligonga aylantirib bormoqda. Bugungi kunga kelib turli maqsadlarni ko'zlab uyushtirilayotgan axborot xurujlari xalqlar, davlatlar, mintaqalar hayotiga, kelajak taqdiriga tahdid solmoqda. Jamiyat hayotida inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangi usul va vositalari ko'payib, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlar vujudga kelmoqda. Buning natijasida diniy shior ostida talonchilik va bosqinchilik, terrorchilik va qo'poruvchilik harakatlarini amalga oshirishga urinishlar jahondagi ayrim mamlakatlarda diniy ekstremizm, fundamentalizm, terrorchilik kabi zararli

g'oyalar va mafkuralarga tayangan kuchlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Zararli g'oyalar va mafkuralarga tayangan kuchlar yoshlar, jamiyatdagi boshqa fuqarolar orasida millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik va diniy ayirmachilik kayfiyatlarini shakllantirishga harakat qilmoqdalar. Islom niqobi ostida faoliyat ko'rsatayotgan mutaassib uyushmalar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qat'i nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib, ularning yagona maqsad ostida birlashuvi g'oyasini ilgari surdilar.

Mustaqillikdan keyin O'zbekistondagi, Markaziy Osiyodagi tinchlik-barqarorlikka, millatlararo totuvlikka tahdid solgan diniy ekstremizm, fundamentalizm, missionerlik, prozelitizm kabi zararli g'oya va mafkuralarning Vatanimiz hududiga kirib kelishining sabablari O'zbekistonning qulay geostrategik, geosiyosiy imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lib, turli diniy va siyosiy guruhlar hamda tashkilotlar bu yerda o'z mavqeini mustahkamlashga, odamlar qalbi va ongiga o'z g'oya va mafkuralarini singdirishga harakat qilgan edilar.

“Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda”.<sup>1</sup>

Buyuk davlatchilik shovinizmi, agressiv millatchilik, irqchilik, missionerlik, prozelitizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm kabi zararli g'oyalar bugungi

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 – жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2018. 125- бет.

kunda xalqaro maydonda muayyan siyosiy, diniy guruhlar, tashkilotlar tomonidan geosiyosiy, geostrategik maqsadlarni amalga oshirish, g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazish vositasiga aylantirib borilmoqda.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid bo'lgan g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni o'zida ifodalaydi. Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik muayyan g'oyalarning to'g'ri ekanligiga qattiq ishonish, ularga mukkasidan ketish, o'zi to'g'ri deb hisoblamagan g'oya va qarashlarga murosasiz munosabatda bo'lish, boshqa oqim va mazhablarni butunlay rad etgan holda, ularni tan olmaslikda namoyon bo'ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy ekstremistik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Terrorizm – jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, axoli keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otishga qaratilgan siyosiy kurashning o'ziga xos usuli bo'lib, u yashirin ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatni egallash maqsadida amalga oshiriladi. Terrorchi guruhlar jamiyatda aholining keng qatlami nomidan harakat qilayotgandek taassurot uyg'otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar. Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri ushbu harakat tarafdorlarining "Kuch ishlatish va zo'ravonlik davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi", degan g'oyaga asoslanib harakat qilishlaridir. Terrorizmning yana bir xususiyati hech qanday urush bo'lmayotgan, demokratik institutlar faoliyat ko'rsatayotgan, tinchlik hukmron jamiyat sharoitida muqobil usullarni atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo'rlik yo'li bilan hal qilishga intilishda ko'rinadi. O'zbekiston mustaqilligidan so'ng siyosiy maqsadlarni din niqobi ostida amalga oshirishga intiluvchi diniy-ekstremistik va terrorchilik guruhlari mintaqaga suqilib kirishga harakat qildilar. O'zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish uchun mustahkam huquqiy

asosga ehtiyoj sezilganidan so'ng, 2005 yil 15 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lsa, 2018 yil 12 iyunda O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

"Ommaviy madaniyat" – bir guruh shaxslar tomonidan o'ylab topilgan va ongli ravishda targ'ib qilinadigan, biror millat madaniyatiga dahli bo'lmagan g'oyalar va udumlar yig'indisidan iboratdir. Hozirgi davrda "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchi va zo'ravonlik, individualizm va egosentrizm g'oyalarini tarqatishga urinishlar sodir bo'lmoqda. "Ommaviy madaniyat"ni tarqatish hisobidan bo'ylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik bilan qarash, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar bugungi kunda odamlarni tashvishga solib kelmoqda. "Ommaviy madaniyat" oqibatlariga qarshi kurashish uchun eng avvalo odamlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasiga e'tiborni qaratish zarur.

Zararli g'oyalar va mafkuralar globallashuv sharoitida ma'naviy – mafkuraviy tahdid vositasi bo'lib, eng avvalo, jahondagi muayyan siyosiy kuchlarning geopolitik maqsad va manfaatlariga yo'naltirilgan holatda olib borilmoqda. Shuning uchun bugungi kunda O'zbekistonda yosh avlodni milliy g'urur va iftihar tuyg'usi ruhida tarbiyalash, ularning ongi-tafakkuriga milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini chuqurroq singdirib, ularning yot g'oya va mafkuralarga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

## **20.5. O'zbekistonga qarshi axborot xurujlari, ularning asl maqsadlari va ta'sir yo'nalishlari**

Hozirgi davrda axborot va axborot texnologiyalari asrida davlatlar, qit'alar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etishga qodir yagona axborot makoni shakllanmoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida axborotlar bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bular quyidagilardan iboratdir:

- axborot zaxiralari bitmas-tuganmas bo‘lib, jamiyatning rivojlanishi va axborotga bo‘lgan talabning ortib borishi bilan ular doimiy ravishda ko‘payib boradi;

- jamiyat hayotida axborotdan foydalanish imkoniyati doimo saqlanib turadi;

- axborotni zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali bir zumda istalgan joyga yetkazish mumkin;

- axborotning mazmuni vaqt o‘tishi bilan o‘zgarmay, tarixiy fakt sifatida muayyan qimmatga ega bo‘ladi;

- axborot zaxiralari boshqa zaxiralar bilan birlashgan xolatda harakatlanuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning yo‘lga qo‘yilishi, kompyuter tarmoqlari orqali axborotni qabul qilib olish va uzatishda aloqa vositalaridan foydalanishning keng joriy etilishi hamda axborotlashtirishning jadal taraqqiyoti axborot uzatish tizimlarini tahdidlardan himoya qilish, axborot xavfsizligini ta‘minlash muammosini keltirib chiqardi. Bugungi kunda har qanday axborot yashin tezligida dunyoning turli chekkalariga yetib borishi, millionlab odamlar undan bir zumda xabar topishi oddiy xolatga aylangan. Ushbu holatning qulayliklari bilan birgalikda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavfli tomonlari ham bor. Axborot xavfsizligi muammosi davlat va jamiyatning barcha sohalari – iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan, madaniyat, milliy va xalqaro xavfsizlikning sifatli axborot almashinuvi, axborot va telekommunikatsiya tizimi, texnologiya va vositalariga tobe bo‘lib qolganiga asoslanadi. Shaxsning axborot sohasidagi manfaatlari uning axborotga ega bo‘lish, qonunan ta‘qiqlanmagan faoliyatni, ya‘ni jismoniy, ma‘naviy va intellektual rivojlanish jarayonida axborotdan foydalanish borasidagi konstitusion huquqlarining amalga oshirilishining ta‘minlanishini nazarda tutadi.

Axborotning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud bo‘lib, axborotning ijobiy tomoni shundan iboratki, o‘z vaqtida olingan to‘g‘ri va sifatli axborot turli sohalarda aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To‘g‘ri sifatli axborot insonlar, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar

egasi bo'lishi imkonini beradi. Axborotning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma'lumotlar ham mavjud. Ayniqsa bunday ma'lumotlar Internet tarmog'i orqali keng tarqalmoqda. Internet va SMS xabarlar orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, qadriyatlarimiz va an'analarimizga, davlatchiligimizga zid bo'lgan nojo'ya axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto'g'ri yo'llarga boshlashi mumkin.

Hozirgi kunda butun jahonda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham internet tarmog'idan faol ravishda foydalanuvchilar soni kundan-kunga ko'payib bormoqda. Chunki, internet vaqtni va mablag'ni tejashga yordam berishidan tashqari axborotlarni juda tez uzatish va qabul qilish, kerakli ma'lumotlarni tez izlab topish, uzog'imizni yaqin qilish, onlayn suhbatlar qurish, dunyo voqealari bilan qisqa fursatlarda xabardor bo'lish kabi ko'plab imkoniyatlarni yaratib beradi. Hozirgi paytda internet tizimining ijtimoiy tarmoqlar xizmatlari keng ommalashib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqning maqsadi internetda o'zaro qiziqishlar yoki faoliyatga ega shaxslar bilan muloqot qurishdan iborat bo'lib, ushbu o'zaro aloqa ichki pochta yoki xabar almashish tizimi orqali amalga oshiriladi. Internetdan foydalanish jarayonida quyidagi salbiy holatlar va kamchiliklar ko'zga tashlanadi:

- foydalanuvchilardan ayrimlarining o'z nomlari bilan ro'yxatdan o'tmaganligi;
- nomaqbul fotosuratlarining qo'yilganligi;
- o'zaro muloqotlarda hurmatsizlik qilinishi;
- bema'ni gaplarning yozilishi hamda ba'zan noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanilishi;
- sahifalar ijtimoiy bo'lishiga qaramasdan ba'zida siyosiy muloqotlarning o'rnatilishi kabi holatlar uchrab turadi.

Axborot kommunikatsiyalari va internet orqali qilinayotgan mafkuraviy xurujlar bir necha guruhga bo'linib, ularga quyidagilar taalluqlidir:

1. Jamiyatimiz a'zolarining ongi va tafakkuriga ta'sir qilishga qaratilgan xurujlar. O'zbek xalqining milliy mentalitetida, dunyoqarashi hamda hulq-atvor normalarida ota-onaga, o'zi yashayotgan mahalla jamoasiga, katta yoshdagi kishilarga chuqur hurmat bilan qarash, muayyan voqea va hodisalarga bosiqlik, mulohaza va andisha bilan munosabatda bo'lish, jamoa fikriga nisbatan alohida ehtirom ko'rsatish kabi hislatlar ustuvorlik qilib, aynan mana shu qadriyatlar jamiyatimiz ma'naviyatining tamal toshini tashkil qiladi. Axborot kommunikatsiyalari va internet orqali qilinayotgan mafkuraviy xurujlarda xalqimizning mana shunday ulug'vor qadriyatlariga mutlaqo teskari va begona bo'lgan, asosan "individualizm", "egoizm", "kosmopolitizm", "zo'ravonlik", "diniy mutaassiblik" kabi vayronkor g'oyalarni iloji boricha chiroyli niqoblarga o'rab, jamiyatimizga olib kirishga harakat qilinadi.

2. Xalqimizning milliy urf-odatlariga nisbatan bo'layotgan g'oyaviy, mafkuraviy hurujlar. O'zbek xalqining o'ziga xos milliy urf-odatlari, an'analari, udumlari va marosimlari shakllangan bo'lib, jamoa bo'lib yashash, qarindosh urug'larga mehribonlik, to'y va marakalar, bayramlar, tarbiya masalalarida, hasharlarda ijtimoiy hamkorlikning, jamoaviylik an'anasining yuqori darajada namoyon bo'lishi shular jumlasidandir. Xalqimizning bu urf-odatlari asrlar davomida jamiyat mustahkamligining asosi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

3. O'zbek xalqining milliy madaniyatiga bo'layotgan g'oyaviy, mafkuraviy xurujlar. O'zbek xalqining milliy madaniyati o'zining qadimiyligi, boyligi bilan alohida ajralib turadi. Markaziy Osiyo tarixida aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan allomalar, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Axmad Yassaviy, Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Mahmud Zamahshariy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar. Hozirgi davrda globallasuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida xalqimizga nisbatan ma'naviy huruj uyushtirayotgan turli kuchlar jamiyatimiz a'zolarini milliy



madaniyatidan begonalashtirishga harakat qilmoqdalar. Shu maqsadda Internet tarmogʻidan, kinofilmlar va sanʼat turlaridan foydalangan holda “ommaviy madaniyat”ning yengil-yelpi, inson tafakkurini rivojlantirishga emas, aksincha uning sayozlashuviga xizmat qiluvchi namunalarini jamiyatimizga olib kirishga intilmoqdalar. Bunday sanʼat va madaniyat namunalarida behayolik, zoʻravonlik, mantiqsizlik gʻoyalarining targʻiboti yetakchilik qilmoqda. Ochiq axborot tizimlarida millatlarni parokandalikka olib boradigan, insoniyat uchun sharmandali vaziyatlarni oʻzida ifodalovchi holatlar demokratiya, inson huquqlari kabi oliy qadriyatlar shiori ostida targʻib qilinmoqda. Mana shunday holatlardan kelib chiqib, bugungi kunda Oʻzbekistonda boy tarixiy maʼnaviy meros, milliy oʻzlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy gʻurur va iftihor tuygʻularini yuksaltirish asosida mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Yoshlarda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi masalalarga asosiy eʼtibor qaratiladi:

- yoshlarning gʻoyaviy-mafkuraviy salohiyatini oʻstirish va barkamol avlod tarbiyasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan toʻgʻri foydalanishni tashkil etish;

- axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalari yutuqlaridan oqilona va maqsadli foydalanish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va axborotlardan foydalanish muhitini yaratish;

- internet tarmogʻida yoshlarga, ularning qiziqishlariga va intilishlariga, axborot ehtiyojlariga yoʻnaltirilgan elektron manbalarni tashkil etish masalalari.

Yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda milliy gʻoya va mafkurani targʻib qiluvchi, insonning oʻzligini anglatuvchi, kuchli gʻoyaviy, maʼnaviy-maʼrifiy, ilmiy, badiiy, sport, harbiy-vatanparvarlik, milliy oʻyinlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar yoʻnalishlarida milliy axborot resurslarini yaratish va rivojlantirish masalalariga katta eʼtibor beriladi. Bugungi kunda yoshlar internetdan faol foydalanuvchi subʼyektlarning asosiy qismini

tashkil etib, ularning mafkuraviy ongi unda berilayotgan ma'lumot-axborotlar orqali shakllanib boradi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Yot va zararli g'oyalarga qanday g'oyalar kiradi?
2. Yot va zararli g'oyalarning mazmun va mohiyatini tushuntirib bering?
3. G'oyaviy kurash tushunchasini izohlab bering?
4. O'zbekiston taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan g'oyaviy tahdidlarning ko'rinishlari nimalardan iborat?
5. O'zbekiston hayotiga ta'sir ko'rsatadigan g'oyaviy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlarini tushuntirib bering?
6. Tahdidlarning ichki va tashqi yo'nalishlari deganda nimani tushunasiz?
7. Tahdidlarning ijtimoiy ildizlari qanday vujudga kelgan?
8. Diniy ekstremizm va terrorchilikning kelib chiqish sabablarini tushuntirib bering?
9. Ommaviy madaniyat va demokratik g'oyalarni niqob qiluvchi ma'naviy-mafkuraviy oqimlardan qaysilarini bilasiz?
10. Ma'naviy-mafkuraviy oqimlarning faoliyat usullari va xavfsizlikka tahdidini tushuntirib bering?
11. O'zbekistonga qarshi qaratilgan axborot xurujlari nimalardan iborat?
12. Axborot xurujlarining asl maqsadlari va ta'sir yo'nalishlarini qanday bilish mumkin?

## **21-BOB. “OMMAVIY MADANIYAT”NING MILLIY G‘OYAGA ZIDLIGI, UNING OLDINI OLISH SHART-SHAROITLARI, OMILLARI**

### **21.1. “Ommaviy madaniyat” tushunchasining ma’no-mazmuni. Uning milliy g‘oya maqsadlari va negizlariga zidligi**

Xalqimiz, jumladan, yosh avlod g‘arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyoti, san’atining ilg‘or jihatlarini inkor etmaydi. G‘arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o‘zi “g‘arbning muammosi” sifatida baholayotgan “ommaviy madaniyat”ning salbiy illatlaridan yoshlarni, davlatimizning barcha fuqarolarini asrab-avaylash bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masaladir.

So‘z, fikr, axborot orqali inson tafakkurini zabt etish muayyan xalq, mamlakat, hududni bosib olishning biroz madaniylashgan ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi. Ma’naviy xuruj yashirin ravishda, zimdan amalga oshirilganligi uchun unga uyushgan holda qarshilik ko‘rsatib bo‘lmaydi. “Ommaviy madaniyat” yordamida madaniy gegemonlikni o‘rnatish uchun tarixiy xotirani susaytirish, jamiyatdagi birdamlikka putur yetkazish, an’anaviy qadriyatlarni yemirish, xalqni ma’naviy ildizlaridan mahrum etish, sog‘lom aqlni asta-sekin yo‘qotib borish, axloqsizlikni targ‘ib qilish, insonning eng tuban mayllari, hayvoniy hirslari, nafsini qo‘zg‘ash hisobiga insonga ta’sir etib, uning ma’naviyatiga tajovuz etish “ommaviy madaniyat”ga xos xususiyatdir.

“Hammamiz ko‘rib, kuzatib turibmiz – bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi ufq va imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor etmoqda, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og‘ir kulfatlar olib kelmoqda, g‘arazli kuchlar hali ongu tafakkuri to‘la shakllanib ulgurmagan bolalarni o‘z ota-onasi, Vataniga qarshi qo‘yib, ularning hayotiga zomin bo‘lmoqda. Shuning uchun biz – ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik,

mahalla-kuy bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirib, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat aytganidek, bu dunyo haqiqatan ham kurash maydoniga, sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq esa bu kurashning quroliga aylanib borayotganini chuqur anglab, shu borada jaholatga qarshi ma'rifat asosida ish olib borishimiz zarur".<sup>1</sup>

Madaniyat – kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar, ularni qayta tiklash va rivojlantirish yo'llari va uslublari majmuidir. Madaniyat inson tomonidan ishlab chiqilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, qadriyatlar yig'indisidir. Madaniyat moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o'zaro munosabatlar, siyosat, oila, axloq, xulq, huquq, ta'lim, tarbiya, ijod, ilm-fan, xizmat ko'rsatish, turmush tarzi kabilar bilan bog'liq bo'lgan keng qamrovli voqeadir. Madaniyat jamiyat bilan birga rivojlanib, jamiyatning taraqqiyot darajasini o'zida aks ettiradi. Tarixiy taraqqiyotda madaniyat "elita madaniyat", xos madaniyat va ommaviy madaniyat kabi turlarga bo'lingan. O'tmishda ommaviy madaniyat xalq baxshilari kuylaydigan dostonlar, sayllarda, to'ylarda ommaga ko'rsatiladigan tomoshalar – dorbozlik, askiyabozlik, masxarabozlik, xalq ashulalari, turli bayram va marosimlarda ijro etiladigan kuy, qo'shiq, raqslar ko'rinishida namoyon bo'lgan.

Keyinchalik fan-texnikaning taraqqiyoti natijasida ommaviy madaniyatning jamiyatdagi tutgan o'rni va vazifasi o'zgardi. Dastlab XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida paydo bo'lgan ommaviy madaniyat XX asrning ikkinchi yarmida yanada rivojlanib, bunga ommaviy axborot vositalarining nihoyat darajada rivojlanganligi sabab bo'ldi. Ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi – matbuot, radio, televideniye, kino, tovush va tasvir yozuvlari, kitob chop etish va nusxa ko'chirish, bularning barchasi foyda keltirishi hamda jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazishi ommaviy madaniyatning mislsiz rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ommaviy madaniyatning bosh maqsadi – ko'proq daromad olish, asosiy sifat mezoni – hammaga tushunarli va ko'ngilochar bo'lishida edi. Ommaviy madaniyat o'ziga xos janrlar: shou, triller, boyevik, shlyager, komiksni yaratdi. Ularning umumiy mohiyati – individualizm, jismonik kuch va zo'ravonlik hamda axloqiy

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 496-бет.

buzuqlikni targ'ib etish, ayrim hollarda g'oyaviy va millatchilik yo'nalishlarida chiqishlar qilishdan iborat edi.

Ommaviy madaniyatni G'arbda "populyar" yoki qisqartirilgan holda "pop – kultura" (ya'ni "ommaviy madaniyat") deb atashadi. Bugungi kunda "Ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzqlik va zo'ravonlik, individualizm va egosentrizm g'oyalari targ'ib-tashviq qilinmoqda. "Ommaviy madaniyat" eng avvalo yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy – axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga, san'atga, uning boyliklariga qarshi kurashib, uning yutuqlarini inkor etib kelyapdi. "Ommaviy madaniyat" tomonidan targ'ib etilayotgan "pop – art" ("tasviriy san'at"), "pop – muzika", "pop – adabiyot" insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlarni inkor etib, yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu – maqsadlarni mensimaslikka da'vat qiladi. "Ommaviy madaniyat"da inson emas, balki moddiy dunyodagi narsalar va buyumlar e'zozlanadi. Insonning ma'naviy dunyosi emas, balki uning maishiy – iste'molchilik xis - tuyg'ulari qadrlanib, ular keng ommalashtiriladi.

Hozirgi davrda dunyoda doimo zo'ravonlik va gegemonlik hisobidan boylik orttirib kelgan ayrim kuchlar "ommaviy madaniyat" shiori ostida turli salbiy g'oyalarni keng targ'ib qilishga harakat qilib kelmoqdalar. Ommaviy madaniyatni niqob qilib, buzqlik va zo'ravonlik singari inson shaxsini ruhan yemiradigan g'oyalarni targ'ib etadigan asarlarning haqiqiy madaniyatga hech qanday aloqasi yo'q. Ushbu madaniyatning asosida avvalo tijorat, moddiy manfaatdorlik birinchi o'rinda turadi. Ba'zi ijtimoiy qatlamlarning didiga "ommaviy madaniyat"da ko'p uchraydigan mazmunan sayoz, siyqa va jo'n mahsulotlar ham mos kelishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, to'g'ri ma'nodagi ommaviy madaniyat zararli tushuncha bo'lmay, u xalqimizning boy tarixiy moddiy va ma'naviy merosi, urf-odat, an'ana va marosimlari, bayramlari, to'ylari, xalq og'zaki ijodi, bir so'z bilan aytganda, omma uchun madaniyatga aylanib ulgurgan barcha qadriyatlarni o'zida ifodalaydi. G'arb "ommaviy madaniyat"i esa qo'shtirnoq ichida yozilib, bu "ommaviy madaniyat"ning asosini "Avval mening o'zim, keyin boshqalar" degan g'arbona egosentrizm g'oyasi tashkil etadi.

## **21.2. “Ommaviy madaniyat” g‘oyalarini tarqatishga urinishlar. Ularning texnik imkoniyatlari**

“Ommaviy madaniyat” – ko‘p hajmda sanoat usulida ishlab chiqariladigan madaniyat elementlarining umumjahon ehtiyojlarini qondiruvchi majmuidir. Bugungi zamonaviy fan “Ommaviy madaniyat”ning (inglizcha – mass culture) tub zahirida tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini e‘tirof etadi. “Ommaviy madaniyat” xalqning turmush tarziga ommaviy axborot-vositalari va boshqa vositalar orqali targ‘ib-tashviq qilinadi, tarqatiladi hamda amalga oshiriladi. Ommaviy madaniyatning mazmunini zamonaviy sanoat ishlab chiqarilishi, kino-televideniye, kitoblar, gazetalar, jurnallar, sport, turizm va boshqalar tashkil etadi. Ommaviy madaniyat natijasida ishlab chiqilgan mahsulotlarni iste‘mol qilish ommaviy iste‘mol bo‘lib, uni iste‘mol qiladigan auditoriya – katta zallar, stadionlar, kinoekran, televideniye ishqibozlaridan iborat bo‘lgan ommaviy auditoriyadir. Bugungi kunda ko‘pchilik yoshlar odobni, kiyinish, muomala madaniyatini asosan ommaviy madaniyat orqali olib, ommaviy madaniyatning targ‘ib-tashviq qilinishida reklama muhim rol o‘ynaydi. Ommaviy madaniyatning bosh maqsadini ko‘proq daromad olish tashkil etadi. Bu madaniyatning hammaga tushunarli hamda ko‘ngilocharligi uning asosiy sifat mezonini tashkil etadi. Ommaviy madaniyatda ko‘proq daromad olish maqsadida axloq normalaridan chekiniladi. Ommaviy madaniyat jamiyat madaniy hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan bo‘lib, u eng avvalo keng omma uchun mo‘ljallangan edi. Ommaviy madaniyat plastinka, kasseta va kompakt disklarning ommaviy tiraji tufayli juda keng tarqaldi. Ommaviy madaniyat tomoshabop tadbirlarning ulkan tijorat majmuini yaratdiki, u amerikacha “shou – biznes” atamasi bilan nomlandi. Ommaviy madaniyat g‘arb mamlakatlarining madaniy rivojlanishiga katta zarar yetkazib, ommaviy madaniyat zaminida tijorat madaniyati gullab-yashnadi. Uning asosiy mazmun-mohiyati tijorat, daromad hamda foyda bo‘ldi. Ommaviy madaniyatning tasviriy san’atdagi ko‘rinishi pop – art (ommaviy san’at) tarzida namoyon bo‘ldi. Bu san’atdagi asarlar fotografiyalar, mulyajlar, reproduksiyalar, mashina detallari va boshqalar yordamida paydo qilinardi. Pop – artning sahnaviy va televizion ko‘rinishlari ham mavjud. Hozirgi davrda urf bo‘layotgan yangi

yoʻnalishdagi qoʻshiqchilik, turli musiqiy shoular, kassabop filmlar foyda koʻrish, boylik orttirishga xizmat qilish bilan birga yoshlar tarbiyasiga taʼsir qilmoqda. Bir qarashda “ommaviy madaniyat” hurfikrlilik, inson erki tarafdoridek koʻrinadi, lekin barcha sohalarda uning amal qilish xususiyatiga eʼtibor berilsa, u insonning fikrlashiga, tafakkur qilishiga zid ekanligi ayon boʻladi. “Ommaviy madaniyat” jamiyat hayotida shaxsning ijtimoiylashuviga imkon bermay, aksincha, yon – atrofida sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarga nisbatan loqayd, el-yurt taqdiriga mutlaqo befarq avlodni shakllantiradi, umuman, jamiyatda beparvolik kayfiyati hukm surishiga xizmat qiladigan har qanday hatti-harakatni ragʻbatlantiradi.

Dunyodagi har bir xalqning oʻziga xos anʼanalari, urf-odatlar va milliy qadriyatlari bor. Muayyan zaminda paydo boʻlib, necha yuz yillar davomida shakllangan va sayqal topgan maʼnaviy mezonlar shu millatning, shu xalqning bebaho boyligi hisoblanadi. Xalqimizning hayotiga shiddat bilan kirib kelayotgan texnika va texnologiya, globallashuv jarayonlarida bunday boylkning mohiyatini yanada chuqurroq anglash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda keskin tus olayotgan “ommaviy madaniyat” ham maʼnaviy tahdidlardan biri boʻlib, milliy oʻzlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy gʻurur va iftihar tuygʻularini yuksaltirish asosida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash bugungi kundagi muhim vazifadir. Ilgʻor gʻoya uchun kurash – shaxs faolligining muhim koʻrsatkichidir. Shaxs ijtimoiy – siyosiy va milliy gʻoyani amalga oshirishda muhim rol oʻynaydi. Milliy gʻoya yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, maʼnaviy barkamol inson shaxsini shakllantirishda muhim ijtimoiy omil boʻlib xizmat qiladi.

“Ommaviy madaniyat” jamiyatning maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarini, milliy-maishiy hayot hamda undagi jarayonlarni zimdan taʼqib qilib boradi. “Ommaviy madaniyat” natijasida milliy, diniy tarbiyadan, urf-odatlardan begonalashish, ularni mensimaslikka daʼvat hollari yuzaga keladi. Hozirgi paytda dunyoda demokratiya va erkinlik, oshkoralikning yagona meyorlariga oʻtishni zoʻr berib targʻib qilayotgan buzgʻunchi kuchlar insonlar ongiga taʼsir koʻrsatishning turli yoʻllaridan foydalanishga harakat qilib, “ommaviy madaniyat” ana shu yoʻlda inson maʼnaviyatini yoʻqotish orqali uni boʻysundirishga harakat qiladi. “Ommaviy madaniyat” vositasida kirib kelayotgan axloqsizlik, behayolik,

zo‘ravonlik va buzuqlik kabi illatlar dunyodagi hech bir xalqning milliy madaniyatiga ham, umumbashariy qadriyatlarga ham to‘g‘ri kelmaydi. Bugungi kunda turli yo‘llar bilan, turli niqoblar ostida xalqimiz hayotiga kirib kelishga urinayotgan “ommaviy madaniyat” mamlakatimiz ma’naviy hayoti, yoshlar, fuqarolar ma’naviyatiga ham tahdid solmoqda. Ayniqsa, jangari filmlar, yoshlarning ko‘plab vaqtini olayotgan kompyuter o‘yinlarida beto‘xtov ravishda yovuzlik targ‘ib etilsa, turli seriallar, internetdagi saytlarda buzuqlikka taalluqli ma’lumotlar ham berilmoqda. Estrada san’atiga kirib kelayotgan ayrim yo‘nalishlar va qo‘shiqlar, kliplar, yaratilayotgan kinofilmlar, reklama roliklarida targ‘ib etilayotgan turlicha kiyinish va so‘zlashuv “madaniyati”, umuman, hayot tarzimizga to‘g‘ri kelmaydigan holatlarni o‘zida namoyon etmoqda. “Ommaviy madaniyat” jamiyat hayotida juda kichik detallar, arzimas voqealar orqali odamlarni o‘ziga o‘rgatadi, ko‘niktiradi. So‘ngra asta-sekinlik bilan kundalik hayotdan milliy madaniyatni siqib chiqarishga harakat qiladi. Hamma narsaga erkinlik nuqtai-nazaridan qaraydigan “ommaviy madaniyat”ning asosiy maqsadi – odamning irodasini susaytirish, o‘zining hayotiga, atrofidagi odamlarga qarshi qo‘yish va oxir oqibatda erkinligidan judo etib, ma’naviy dunyosiga, ma’naviyatiga zarba berishdir.

### **21.3. “Ommaviy madaniyat”ning milliy ma’naviyat negizlariga, milliy g‘oya, ma’naviy meros va demokratik prinsiplarga zid ekanligi**

“Ommaviy madaniyat” G‘arb dunyosida o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng tarqalib, garchi u “madaniyat” deb atalsada, aslida, o‘zining tub mazmun-mohiyati, maqsad-niyatiga ko‘ra chinakam madaniyatga qarshi bo‘lgan aksilmadaniyat vazifasini bajarib kelmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra ilmfanda “antikultura” (“g‘ayrimadaniyat”) degan tushuncha shakllanmasligi uchun “pop” (“populyar”) ya’ni “ommaviy madaniyat” degan tushuncha qo‘llanilib kelmoqda. “Ommaviy madaniyat” hozirgi davrda yuksak ma’naviyatsizlik va axloqsizlikning sinonimi sifatida ishlatilib, u eng avvalo yuksak iste’dod va o‘lmas ma’naviy-axloqiy g‘oyalar bayroqdori bo‘lgan mumtoz madaniyatga, san’atga,



uning boylıklariga qarshi tish-tirnog‘i bilan kurashib, uni inkor etib kelmoqda. “Ommaviy madaniyat” insoniyat tomonidan yaratilgan qadriyatlarni, yuksak madaniyatni, ma’naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi. “Pop-art”chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e’zozlashadi, ma’naviy dunyoni emas, maishiy-iste’molchilik his-tuyg‘ularini qadrlaydilar hamda ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma’naviy yondashuvi – ma’naviyatni o‘ldirish va “narsalarga qullik”ni rag‘batlashtirishdir.

“Ommaviy madaniyat”da “pop-muzika” alohida o‘rin tutadi. Bu musiqa tinglashga, qalbdan huzurlanishga emas, balki vujud harakatiga, talvasa raqsga yo‘naltirilgan bo‘lib, jazavali ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. “Ommaviy madaniyat”dagi texnik-ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirib, musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligi yo‘qqa chiqarilmoqda. “Pop-muzika” namoyandalari o‘z “ommaviy”liklarini ta’kidlash uchun sahnadagi hattiharakatlari va kiyim-liboslari namoyishida ham odob-axloq, jamiyatga ehtirom tuyg‘ularini rad etib – asosan ko‘cha, olomonchilik qonun-qoidalariga amal qiladilar. Asl san’atni yerga urish – “Ommaviy madaniyat”ning o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan asosiy vazifalaridan biridir.

“Ommaviy madaniyat” bir o‘lchamli hodisa bo‘lmay, u o‘ziga xos tur va darajalarga egadir. Hozirgi davrda “ommaviy madaniyat”ning Kich, Mid va Artdan iborat uchta asosiy darajasi ko‘rsatiladi:

1. Kich – madaniyat bu past darajadagi, vulgar, behayolar madaniyati.
2. Mid – madaniyat bu “o‘rtamiyona” madaniyatdir.
3. Art – madaniyat bu ma’lum badiiy mazmun va estetik qiymatga ega bo‘lgan madaniyatdir.

“Kich” so‘zi nemis tilidagi “kitchen” so‘zidan hosil bo‘lgan va saviyasi past, arzon va jo‘n asar yaratib, sotishni bildiradi. Bunday asarlar haqiqiy san’at durdonalari soyasida paydo bo‘ladigan bo‘sh, esdan tez chiqib, unutiladigan madaniyat mahsulotlari bo‘lib hisoblanadi. Mid-madaniyatning qamrovi keng, darajasi ancha baland bo‘lib, u an’anaviy madaniyatning ayrim xususiyatlarini aks

ettirsa ham, ommaviy madaniyatga bevosita taalluqlidir. Art madaniyati odatda, aholining bilimlil qismiga mo'ljallangan ommaviy madaniyat bo'lib, uning vazifasi ommaviy madaniyatni maksimal darajada an'anaviy madaniyat standartlariga yaqinlashtirishdan iboratdir.

“Ommaviy madaniyat” ko'pdan-ko'p shakllarda namoyon bo'lib, Kitch – zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish, komiks – tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa-rasm mahsulotlari, starizm – sub'yektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlarni ilohiylashtirish, xepining – avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan “keskin” tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobillarni urib abjag'ini chiqarish yoxud o't qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy “ko'ngil ochish”lar uyushtirish kabilar “ommaviy madaniyat”ning ayrim ko'rinishlaridir.

Bugungi kunda “ommaviy madaniyat”ning ma'naviy-axloqiy tubanliklaridan yoshlarni asrab-avaylash dolzarb masaladir. “Ommaviy madaniyat” milliy ma'naviyat negizlariga, milliy g'oya, ma'naviy meros va demokratik prinsiplarga zid hodisa bo'lib, uning yordamida tarixiy xotira susaytiriladi, birdamlikka putur yetkaziladi, an'anaviy qadriyatlar yemirilib, xalq ma'naviy ildizlaridan mahrum etiladi. “Ommaviy madaniyat” insonda sog'lom aqlni asta-sekin yo'qotib borishga xizmat qiladi. Axloqsizlikni targ'ib qilish, insonning eng tuban mayllari, hayvoniy hirslari, nafsini qo'zg'ash hisobiga insonga ta'sir etib, uning ma'naviyatiga tajovuz etish “ommaviy madaniyat”ga xos xususiyatdir. “Ommaviy madaniyat” milliy ma'naviyat negizlariga, milliy g'oya, ma'naviy meros va demokratik prinsiplarga qarshi kurashib, uning yutuqlarini inkor etib kelmoqda. “Ommaviy madaniyat” insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlarni inkor etib, yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaslikka, tan olmaslikka harakat qilmoqda. “Ommaviy madaniyat”da insonning ma'naviy dunyosi emas, balki uning maishiy-iste'molchilik xis-tuyg'ulari qadrlanadi.

Globalashuv jarayoni, zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlarining jadal rivojlanishi, madaniyatlararo, insonlararo muloqot kengayib borayotgan bir davrda

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy merosni asrab avaylash va kelgusi avlodlarga bekami-ko'st yetkazib berish, yoshlarimizni aqlli, dono, baxtli va barkamol etib tarbiyalash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. "Ommaviy madaniyat"ga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda yoshlarimizni milliy urf-odat va an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. "Ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashda yoshlarni ajdodlarimizning tarixiy, adabiy-badiiy merosini o'rganish va uni ko'z qorachig'idek asrashga o'rgatish ham muhim ahamiyatga ega.

#### **21.4. "Ommaviy madaniyat" eskalatsiyasining xavf-xatari va tahdidli ekanligi**

Yer yuzida axborot almashuvi mislsiz darajada tezlashgan hozirgi globallasuv sharoitida g'arbdagi ayrim "markazlar" boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida G'arb hayoti "jozibalari"ni, jumladan, "ommaviy madaniyat" ta'sirini "erkinlik shabadalari" tarzida imkoni boricha keng yoyishga harakat qilmoqdalar. Dunyo xalqlarini "g'arblashtirish"ga urinishlar quroli sifatida "ommaviy madaniyat" vositalaridan, turli-tuman axborot tarqatish yo'llaridan – reklama, matbuot, kino, televideniye kabilardan zo'r berib foydalanilmoqda. Xalqimiz, jumladan yosh avlod g'arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyot va san'atining ilg'or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq bugungi kunda g'arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o'zi "g'arbning muammosi" sifatida baholayotgan "ommaviy madaniyat"ning ma'naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, uning zararli ta'siriga qarshi g'oyaviy, mafkuraviy immunitet qanchalik mustahkam shakllantirilsa, barkamol avlodni tarbiyalash sohasidagi davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat shuncha tez amalga oshadi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan mafkuraviy siyosat, mafkuraviy profilaktika hamda ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql idroki va umuman ma'naviyatini diniy-aqidaparastlik, jaholatparastlik xataridan tashqari "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan muhofaza qilishni ham o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda ommaviy telekommunikatsiya, kompyuter, internet vositalari orqali biron bir hududga xos bo'lgan milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'zga xalqlarga singdirish va shu yo'l bilan jahonda nafaqat iqtisodiy, balki milliy-ma'naviy hukmronlikni o'rnatishga bo'lgan urinish hollari sodir bo'lmoqda. Jahondagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlar xalqaro maydonda iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, fan texnika, texnologiya, ta'lim sohasida rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish, demokratik qadriyatlarni keng yoyish bahonasida milliy-ma'naviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmoqdalar. Globallashuv sharoitida yot, zararli g'oyalar va mafkuralar bilan birgalikda "ommaviy madaniyat" ham boshqa xalqlarning ongi va qalbini egallashga harakat qilmoqda. Eng zamonaviy tele-kommunikatsiya, kompyuter, internet kabi vositalar orqali milliy o'zlikni anglashga zid bo'lgan, uni barbod qilishga qarshi qaratilgan, zamirida faqat foyda olishdan boshqa hech qanday ibratli maqsad bo'lmagan "ommaviy madaniyat" namunalari – axloqsiz filmlar, teleseriallar, axmoqona shou-tomoshalar kundalik hayotga kirib kelmoqda.

"Ommaviy madaniyat" jamiyat hayotiga ma'naviy tahdid sifatida quyidagilarni o'zida ifodalaydi. Ulardan birinchisi – imonsizlik, o'z insoniy burchi va mas'uliyatini tan olishni istamaslik, befarqlik va loqaydlik. Ikkinchisi – sanab o'tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi "dunyoni manfaat boshqaradi" degan xudbinona tezis asosida yashash. Uchinchisi – oldingilaridan kelib chiqadigan dunyoda azaliy va abadiy qat'iy axloqiy me'yorlar mavjud emas, ko'pchilik o'zini qanday tutayotgan bo'lsa, biz ham shunga qarab ketaveramiz, degan o'ysizlik, fikriy dangasalik tamoyili. Va nihoyat to'rtinchisi – bugungi axborot vositalarining cheksiz imkoniyatlari sharoitida befarqlik va o'ysizlik botqog'iga botgan kimsalarning dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib, o'zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni "umuminsoniy axloqiy me'yorlar" darajasiga ko'tarishga urinishlaridir.

"Ommaviy madaniyat", ma'naviy tahdidlar jamiyat ma'naviy hayotiga tahdid solayotgan bir vaziyatda yoshlarda bilim va tafakkurni rivojlantirishga katta

e'tibor qaratilib, yuksak intellektual salohiyatli barkamol avlodni tarbiyalash, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki milliy intellektual salohiyati yuksak bo'lgan millatgina mamlakatni taraqqiyotga olib boruvchi milliy g'oyani ishlab chiqishi va uni amaliyotga tatbiq qilishi mumkin. Milliy g'oya esa fuqarolarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning ongi va qalbiga qarshi qaratilgan turli tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda mamlakatimizda milliy intellektual salohiyatni oshirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda xalqimizning yuksak maqsad-muddaolarini o'zida ifodalagan milliy g'oya mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, iqtisodiy yuksalishga erishish, milliy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari, milliy intellektual salohiyatni oshirish, milliy ma'naviy meros, urf-odat va qadriyatlarni zamon talablari asosida boyitish, millat ma'naviyatiga qarshi qaratilgan tahdidlar, shu jumladan "ommaviy madaniyat"ning zararli oqibatlariga qarshi tayyor bo'lish, globallasuv sharoitida milliy o'ziga xoslikni asrash, uning ta'siri ostida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan buzg'unchi g'oyalarga, "ommaviy madaniyat"ga nisbatan g'oyaviy, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash kabi o'ta muhim vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Milliy ongi rivojlangan, o'zligini anglagan, dunyoqarashi shakllangan inson xalqi va Vatanini ulug'laydi, el-yurt oldidagi mas'uliyatini tushunib, uning manfaatini himoya qiladi. Lekin bugungi globallasuv jarayoni "ommaviy madaniyat" tufayli milliy tarbiyaga ham salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bugungi kunda ma'naviy hayotimizga yot urf-odat va an'analar, axloqsizlik va ma'naviyatsizlik tahdid solmoqda. Biz o'zimiz uchun maqbul bo'lgan odat va an'analarni qabul qilishimiz mumkin. Ammo ularni ko'r-ko'rona qabul qilish bugungi kunda jaholat alomati bo'lib hisoblanadi.

Xalqimizning tarixiy taraqqiyotida asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onani ulug'lash, oilani muqaddas saqlash, farzandlik burchi, kattaga hurmat, kichikka izzat, o'zaro mehr-oqibat, iffat, or-nomus, xayo kabi fazilatlar, ustoz va

shogirdlik odobi kabi ezgu qadriyatlarga sodiq qolish milliy tarbiyamizda muhim ahamiyatga egadir. Ammo bugungi kunda G'arb madaniyatiga xos bo'lgan individualizm, ota-onaning holidan xabar olmaslik, qarindosh-urug'lar o'rtasida o'zaro mehr-oqibatning yo'qligi singari mentalitetimizga yot bo'lgan qator xususiyatlar globallashuv tufayli ma'naviy hayotimizga kirib kelishga urinmoqda.

Dunyo miqyosida globallashuv jarayoni avj olayotgan bugungi kunda milliy-ma'naviy immunitetimizning mustahkamlanishiga yordam beradigan barcha imkoniyat va vositalardan samarali foydalanish milliy o'zligimizni saqlab qolish, uni har qanday tashqi ta'sirlardan himoya qilishda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib qolaveradi.

### **21.5. “Ommaviy madaniyat” xavfining oldini olish shart-sharoitlari va omillari**

“Ommaviy madaniyat” tub mohiyatiga ko'ra milliy madaniyatning kushandasidir. “Ommaviy madaniyat” g'arbda yuz berayotgan axloqiy tanazzulning muqaddimasi bo'lib, o'tgan ellik yil davomida “ommaviy madaniyat” o'sha jamiyatlarni sun'iy, sohta ideallar bilan chalg'itibgina qolmay, g'ayriinsoniy axloq va munosabatlarni qonuniylashtirdi va buni demokratiyaning oliy namunasi deb hisobladi. “Ommaviy madaniyat” namoyondalarining amallari o'zlari uchun har taraflama manfaatdorlikka asoslangan bo'lib, ular “noyob san'at” namunalari – g'oyalarini nafaqat targ'ib qiladi, balki pullaydi ham. Boshqacha aytganda, o'z g'oyasini yoyish orqali ham ma'naviy lazzatlanadi, ham moddiy xohish mayllarini qondiradi. “Ommaviy madaniyat”ning shiddat bilan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri uning tijorat qoidalariga bevosita asoslanishi bo'lsa, ikkinchi tomondan bu ofat o'zagining boshida turganlar shoshilmasdan o'z maqsadlariga erishish uchun doimiy ravishda o'z faoliyatlarini olib borishga harakat qiladilar. “Ommaviy madaniyat” muvaffaqiyatli tarzda yoyilayotganining yana bir omili, u tomonidan umuminsoniy madaniyatni bo'ysundirishga intilish hamda o'z ta'sir doirasini kengaytirib borishidir. “Ommaviy madaniyat”ni targ'ib-tashviq qilishda xalqning mentaliteti, uning ichki nozik ruhiyati, turmush tarzi,

istak-mayllari chuqur o'rganiladi va shu asosda xalqning tub ildizlariga zarba berish usullari ishlab chiqiladi. "Ommaviy madaniyat" bir qarashda hurfikrlilik, inson erki tarafdoridek ko'rinadi, lekin boshqa tomondan qaraganda u odamzodning fikrlashiga, tafakkur qilishiga tish-tirnog'i bilan qarshi chiqadi. "Ommaviy madaniyat" shaxsning ijtimoiylashuviga imkon bermay, yon atrofida ro'y berayotgan voqea-jarayonlarga loqayd, yurt taqdiriga mutlaq befarq avlodni shakllantiradi. Shu bilan birga, "ommaviy madaniyat" jamiyatda mas'uliyatsizlik, beparvolik kayfiyati hukm surishiga xizmat qiladigan har qanday hatti-harakatni rag'batlantiradi. "Ommaviy madaniyat"ning asl maqsadi har kuyga solish mumkin bo'lgan olomonni shakllantirish bo'lgani bois, u ma'naviy oziq beradigan, badiiy yuksak, o'quvchini mushohadaga undab, tasavvur olamining kengayishiga xizmat qiladigan asarlarni yaqiniga yo'latmaydi. "Ommaviy madaniyat" namunalari chinakam badiiy qimmatga ega bo'lmasada, u hamisha keng auditoriyani o'ziga jalb eta oladi. "Ommaviy madaniyat" fikrlash doirasi tor, omi odamlarni o'ziga tortib, u odamlarning o'tkinchi xoyu-xavaslarini qanoatlantirishi, har qanday yangilikni darhol ilg'ab, o'zida aks ettirishi bilan ham jozibali bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon sivilizatsiyasining muhim bir bo'g'iniga aylandi. Tobora jadallashib borayotgan integratsiya jarayonida xalqlar o'rtasida o'zaro muloqot jarayonlari kuchayib borib, jamiyat hayotiga yangilik niqobiga o'ralgan yot g'oyalar va unsurlarni olib kirishga intilishlar ham vujudga keldi. "Ommaviy madaniyat"ga ergashish odatda, dunyoqarashi, ongi to'liq shakllanmagan, milliy g'oya va qadriyatlarning mohiyatini anglab yetmagan yoshlar orasida ko'proq kuzatiladi. Ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, musiqiy asarlar, tasviriy san'at, kinomatografiya, internet tarmog'i, xorijiy telekanallar, uyali aloqa vositalari orqali tarqatilayotgan turli g'ayrimilliy g'oya va qarashlar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bugun butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham zamonaviy axborot texnologiyalari keng tarqalmoqda. Hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan yosh avlodning ongu-tafakkurini himoya qilishda ilmu-fan va madaniyat jamoatchiligi

va ijod ahlining o‘rni va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda bizning milliy ruhiyatimiz va tabiatimizga yot va begona bo‘lgan ana shunday “madaniyat” namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni ta’qiqlash bilan biror natijaga erishib bo‘lmaydi. Bunday xatolardan xayotimizni asrash, ma’naviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalambor, ezgu insoniy g‘oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish talab etiladi. Bugungi globallashuv sharoitida turli shakldagi, xususan, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi mafkuraviy xurujlarga qarshi kurash, buning uchun “xalqni-xalq, millatni millat” qilish O‘zbekiston mustaqilligini asrab-avaylash, jamiyatdagi barqarorlikni saqlashning muhim vositasidir.

“Ommaviy madaniyat”ning hayotimizga kirib kelishida dastlab ommaviy axborot vositalari asosiy rolni o‘ynadi. Bugunga kelib esa, reklama uning ajralmas yo‘ldoshiga aylanib qoldi. Bozor qonuniyatlari “ommaviy madaniyat” mahsulotlarini keng tarqatishdan manfaatdor bo‘lib maydonga chmqmoqda. Zamonaviy audio-videotexnikalar, ovoz yozish va kuchaytirgich asboblarning yuzlab turlari “ommaviy madaniyat” mahsulotlari reklamasi bilan kun ko‘rmoqdalar.

“Ommaviy madaniyat” oqibatlariga qarshi kurashish uchun quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib borish hamda yoshlarning, barcha fuqarolarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish va mustahkamlash masalasiga e’tiborni qaratish zarurdir:

1. Yoshlarga oid targ‘ibot-tashviqot ishlarida turli ixtisoslik va yo‘nalishlardagi mutaxassislar ma’ruzalaridan unumli foydalanish, uchrashuvlarda jonli muloqot va amaliy ishlardan ko‘proq foydalanish zarur.

2. Targ‘ibot-tashviqot ishlarida turli vositalarni mukammal darajada ishga solish, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda yoshlar ongi va tafakkurida milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimiz, o‘zligimizga hurmat ruhini kuchli darajada shakllantirishimiz zarur.

3. Yoshlarni milliylikimiz, o‘zligimizga sadoqat, hurmat ruhida tarbiyalashda kino va musiqa san’ati, tasviriy va amaliy san’at, badiiy adabiyot



imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarur. San'atning badiiy adabiyot, kino va teatr kabi turlarida yoshlarning tarbiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan zamonaviy qahramon obrazini yaratish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. "Ommaviy madaniyat" tushunchasining mohiyatini tushuntirib bering?
2. Nima uchun "ommaviy madaniyat" milliy g'oya maqsadlariga zid keladi?
3. "Ommaviy madaniyat" g'oyalari jamiyatda qanday tarqaladi?
4. "Ommaviy madaniyat"ning texnik imkoniyatlari nimalardan iborat?
5. "Ommaviy madaniyat"ning milliy qadriyatlarga salbiy ta'sirini qanday izohlaysiz?
6. "Ommaviy madaniyat"ning demokratik tamoyillarga zidligi nimalarda aks etadi?
7. "Ommaviy madaniyat" eskalatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
8. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlarga tahdidini tushuntirib bering?
9. "Ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashishda qanday shart-sharoit va omillar zarur?
10. Yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash asosida "Ommaviy madaniyat" xavfining oldini olishning muhim jihatlarini aytib bering?

## **22-BOB: O'ZBEKISTONDAGI MAFKURAVIY JARAYONLAR VA MILLIY G'OYAGA EHTIYOJ HAMDA DUNYODAGI MAFKURAVIY KURASHLAR SHAROITIDA MILLIY G'OYANING ZARURLIGI**

### **22.1. Ma'furaviy jarayonlar tushunchasi, uning ma'no va mazmuni**

Ma'fura – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, elat, millat, xalq, jamiyat, davlat ehtiyoj va manfaatlari, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Har qanday davlatning boshqa bir davlat va hudud davlatlari bilan o'zaro munosabatlari mavjud bo'lib, bu munosabatlar tenglik, bir tomonning ustunligi yoki butunlay hukmronligi tarzida ham bo'lishi mumkin. Ushbu jarayonlar xalqaro munosabatlarda “davlatlararo munosabatlar”, “tashqi aloqalar” va “o'zaro aloqalar” kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

Geosiyosat – “geo”- yer va “siyosat” – davlatni boshqarish san'ati, degan ma'nolarni bildiradi. Geosiyosat – muayyan hududiy-mintaqaviy tamoyil asosida siyosatda, iqtisodiy va siyosiy geografiyada ko'proq ishlatiladigan atama bo'lib, hozirgi davrga kelib u xalqaro, siyosiy va davlatlararo munosabatlarga nisbatan ham qo'llanilmoqda. “Geosiyosat” atamasida geosiyosiy muddaolar, ularning ko'rinishlari, turli xil davlat va xalqlarning manfaatlari tizimi, unga bo'lgan yondashuv uslublari, vositalari u yoki bu davlatning hududiy joylashuvi, salohiyatiga bo'lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o'z ifodasini topgan.

Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlar ko'proq ma'furaviy siyosat bilan bevosita bog'liqdir. Bunda ma'furaviy ta'sir ko'rsatish, ma'furaviy jarayonlar geosiyosatning eng ta'sirchan vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni turli davlatlarning maqsadlari xalqning turli qatlamlari, xususan yoshlar ongi va qalbiga ma'furaviy ta'sir ko'rsatish orqali, ularning faoliyatini o'z ta'siriga, ya'ni manfaatlarga yo'naltirilgan ma'furaviy muhitni yaratishni ko'zlagan holda amalga oshirilmoqda.

Bugungi dunyoda turli hudud xalqlarini ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va dunyoni shunday asosda bo'lib olishga urinishlar davom etmoqda. Buning uchun ular ommaviy axborot vositalari, turli xil markazlardan foydalanmoqda. Ana shunday sharoitda milliy g'oyani chuqur egallash orqaligina bunday maqsadlarning asl mohiyatini to'g'ri tushunish mumkin. Hozirgi davrda Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli bu mintaqaga nisbatan geopolitik yondoshuvlarning ifodasi bo'lgan mafkuraviy jarayonlar murakkablashib bormoqda. Mustaqil taraqqiyot, erkin va farovon hayotga bo'lgan ishonch-e'tiqodni mustahkamlash yo'lida xavf-xatarlarning oldini olish uchun muttasil ogoh bo'lib yashash, birgalikda kurash olib borish mintaqaxalqlari uchun hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi. Bugungi kunda jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar turli yo'llar bilan sodir bo'lmoqda. Jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va bugungi kunda dunyoni shunday asosda bo'lib olishga urinishlar davom etmoqda. Buning uchun ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, ularning yutuqlaridan, hamda turli xil markazlar, ayni paytda o'zaro hamkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanish orqali dunyoning turli hududlarida o'zlariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ham ko'zlamoqdalar. Mafkuraviy jarayonlar fikr va g'oyalar tizimi sifatida inson ongiga yo'naltirilganligi, o'ziga xos maqsadlari borligi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda O'zbekistonning yutuqlari jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda islomiy qadriyatlar tiklandi. Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida ham bizning respublikamizda amalga oshirilayotgan mustahkam do'stlikka qaratilgan siyosat qo'llab-quvvatlanmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sirasiga ajratilib, ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga:

- Integrasiya jarayonlarining kuchayib borishi;
- "Turkiston – umumiy uyimiz" g'oyasining amalga oshishi;
- mustaqil davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;

- terrorchilikka qarshi kurash markazini tashkil etish;
- diniy aqidaparastlikka qarshi kurashda umumiy faoliyat olib borish kabilar taalluqlidir.

Shu bilan birgalikda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik, inson erkinligi va shaxs kamoloti, umuminsoniy qadriyatlar kabilar ham mafkuraviy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Markaziy Osiyodagi mafkuraviy jarayonlarga jiddiy xavf-xatar va tahdidlar quyidagilardan iboratdir:

- Yagona xalifalik bayrog'i ostida musulmon xalqlarini yangi davlatga birlashtirishga intilishlar;
- tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;
- yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g'oyasi;
- axloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga qaratilgan intilishlar;
- turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar. Shu bilan birgalikda Markaziy Osiyodagi mafkuraviy jarayonlarga terrorizm va ekstremizm, irqchilik, millatchilik, diniy aqidaparastlik, totalitarizm, mustabidlik, egoizm, mahalliychilik kabi ma'naviy tahdidlar ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida shakllanish yo'liga kirgan milliy mafkura xalqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini, milliy o'zligimizni o'zida mujassamlashtirib, ularni umuminsoniy qadriyatlar, dunyo sivilizasiyasi yutuqlari hamda ilg'or, taraqqiyparvar g'oyalar bilan boyitib, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad va vazifalarni aniq-ravshan aks ettiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariга amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ulardan ko'zlangan maqsad – “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat<sup>1</sup>.

Milliy g'oya demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda fuqarolarni birlashtiradi, yakdil va hamfikir bo'lishlariga xizmat qiladi. Turli manfaatlar, qarama-qarshi kuch va harakatlar muvozanatini ta'minlaydigan ma'naviy omil bu – milliy g'oya bo'lib, u ijtimoiy guruhlar manfaati va mafkurasidagi umumiylikni o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya negizida milliy mafkura shakllanadi.

## **22.2. O'zbekiston ijtimoiy hayotining mafkuralar xilma-xilligiga asoslanishi. “Mafkuralar xilma-xilligi” tushunchasi. Turli g'oyalarning milliy g'oyaga tayanishi va jamiyatda milliy g'oyaga ehtiyoj**

Jamiyat hayotida mafkura muayyan bir ijtimoiy guruhning, millatning, xalqning manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan qarashlar tizimidan iborat bo'lib, bu tizim o'zining ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy, badiiy asoslariga egadir. Jamiyat hayotida turli ijtimoiy guruh va qatlamlar mavjud bo'lganidek, jamiyatning ma'naviy hayotida turli mafkuralar mavjud bo'ladi. Jamiyat hayotida turli mafkuralarning mavjudligi mafkuraviy plyuralizm tushunchasida o'z ifodasini topib, mafkuraviy plyuralizm – ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini o'zida ifodalovchi tushunchadir. Mamlakatda ilg'or g'oyalar va mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, ya'ni mafkuraviy plyuralizm jamiyat hayotida ustuvor bo'lsa, taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyat shuncha keng bo'ladi. Mafkuralar xilma-xilligi ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan yangidan-yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga, turli xalqlar, elatlar, millatlar va siyosiy guruhlarining manfaatlarini umumiy tarzda

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2018 йил, 244 бет.

ro'yobga chiqishiga sharoit yaratadi. Mafkuraviy plyuralizm jamiyat hayotida ko'ppartiyaviylik tizimi mavjud bo'lishini taqozo etadi. Siyosiy partiyalar o'zlari mansub bo'lgan qatlamlar, siyosiy guruhlarning manfaatlari, intilishlarini o'z harakat dasturlarida namoyon qiladilar. Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi. Ko'ppartiyaviylik zamonaviy demokratik jamiyatlar siyosiy hayotini tashkil qilishning asosiy konstitusiyaviy tamoyillaridan biri hisoblanib, aynan ko'ppartiyaviylik tufayli mafkuralar xilma-xilligi ta'minlanadi, demokratiyaning siyosiy plyuralizm, qonun ustuvorligi, imkoniyatlar tengligi kabi asosiy tamoyillarini o'zida mujassam etgan siyosiy partiyalar va ularning vakillari o'rtasida doimiy muloqot ta'minlanadi. Siyosiy partiya – fuqarolarning eng faol, mushtarak mafkura asosida bog'langan, davlat hokimiyatini qo'lga kiritish, uni saqlab qolish va amalga oshirishga intiluvchi qismidir. Har qanday partiya aholi guruhlari va aniq ijtimoiy qatlamning manfaat va intilishlarini ifoda etuvchi mafkura egasi va uning targ'ibotchisi bo'lib hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati instituti hisoblanuvchi siyosiy partiya, vakillik demokratiyasining muhim bo'g'ini bo'lib, u o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish imkoniyatiga egadir. Mafkurani va dasturlarni ishlab chiqarar ekan, partiyalar strategiyani belgilashga, fuqarolarni muqobil va boshqa xatti-harakatlarning ham mumkinligiga ishontirishga intiladilar.

Mustaqillik yillarida respublikada siyosiy institutlarning, mafkuralarning, fikrlarning xilma-xilligiga asoslangan va fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda keng ishtirok etishini ta'minlaydigan yangi demokratik siyosiy tizimning negizlari vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda qonunlarimizda mamlakatimizda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanishi belgilab qo'yilgan, siyosiy partiyalarning keng ko'lamda ijtimoiy-siyosiy faoliyat yuritishi kafolatlangan.

Har qanday siyosiy partiya zamon bilan hamnafas bo'lib, uning o'tkir talablariga javob bergan taqdirdagina siyosiy kuch sifatida yashay oladi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Biz nafaqat O'zLiDeP, balki barcha partiyalar misolida ana shunday qudratli, safarbar etuvchi kuchni ko'rishni istaymiz<sup>1</sup>. Shu bilan birgalikda siyosiy partiyalarning g'oyaviy, mafkuraviy tarbiyadagi o'rni va ahamiyati haqida Prezidentimiz tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan. Partiyalar fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning g'oyaviy, mafkuraviy ehtiyojlarini qondirishi shart. Agar partiyalar bunga erisholmasa, bu bo'shliqni g'araz niyatli kuchlar to'ldirishga harakat qilishi shubhasiz<sup>2</sup>.

Ko'ppartiyaviylik, partiyalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, eng avvalo, parlament ishida o'z vakillari orqali ishtirok etuvchi partiyalarning demokratik qonunlar qabul qilish va ularni hayotga tatbiq etish borasida faollik ko'rsatishi ham jamiyatdagi mafkuraviy plyuralizmni o'zida ifodalaydi. Jamiyat hayotida turli manfaatlar, qarama-qarshi kuch va harakatlar muvozanatini ta'minlaydigan ma'naviy omil bu milliy g'oya bo'lib, u ijtimoiy guruhlar manfaati va mafkurasidagi umumiylikni, ya'ni umummilliy manfaatlarni va yagona oliy maqsadni o'zida ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng eski mafkuradan voz kechildi, yangi mafkura, ya'ni milliy istiqlol mafkurasi shakllanishiga qadar jamiyat ma'naviy hayotiga turli zararli g'oyalar va mafkuralar, diniy ekstremizm, terrorizm, missionerlik, prozelitizm, kosmopolitizm, "erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish", "adolat va tartib o'rnatish", "sivilizasiyaga oshno etish", "ochiq jamiyat barpo etish" niqobi ostida yevroposentrizm g'oyalarini olib kirishga urinishlar bo'ldi. Mustaqillikdan so'ng Axmadiya, Tablig'chilar, "Nur"chilik, "Tavba", "Xizb at-tahrir al-islomiy", Vahhobiylik kabi diniy-siyosiy harakatlar va oqimlar tomonidan panislomizm g'oyalarining ilgari surilishi ham O'zbekistonda milliy g'oya va mafkuraga bo'lgan talab va ehtiyojni kuchaytirdi. Natijada boy tarixiy ma'naviy meros, milliy

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. М. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2017. 549-бет.

<sup>2</sup>Ўша асар. 559-бет.

va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda milliy g'oya va mafkuraning asosiy tushuncha va tamoyillari, g'oyalar tizimi ishlab chiqila boshlandi.

Bugungi kunda O'zbekistondagi tinchlik-barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikka bevosita tahdid solayotgan turli zararli g'oyalar va mafkuralarga qarshi fuqarolar ongi-tafakkuriga milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asosiy tushuncha va tamoyillari, g'oyalarini singdirib, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir", degan g'oya davlatimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvar siyosatning tamal toshini tashkil etadi.

### **22.3. Dunyodagi mafkuraviy kurashlar va uning sabablari. Mafkuradan ko'zlangan maqsadlarning xilma-xilligi. Ezgu, bunyodkor mafkuralar hamda yovuz va buzg'unchi mafkuralar**

Insoniyat XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolar – urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabilarga duch keldi. Shu bilan birgalikda dunyoda globallasuv, axborot oqimining tezlashuvi, yangi texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy jarayonlar ham sodir bo'lmoqda. XX asr oxirida totalitarizm, ma'muriy buyruqbozlik va zo'ravonlik g'oyalariga asoslangan siyosiy tizimlar yemirilib, dunyo xaritasida o'zlarining mustaqil taraqqiyot yo'llarini belgilab olgan o'nlab yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Boshqa tomondan ushbu yangi paydo bo'lgan davlatlar hali o'zining aniq maqsadi, belgilangan taraqqiyot yo'nalishini qat'iy belgilab olmaganligi uchun ushbu hududlarni geopolitik jihatdan o'zining ta'sir doirasiga olish uchun jahon siyosatida yetakchilikka harakat qilayotgan davlatlar o'rtasida muayyan hududlarni mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga intilishlar kuchaydi. Bu esa dunyoda buyuk davlatchilik shovinizmi, diniy ekstremizm, tajovuzkor millatchilik kabi mafkuraviy tahdidlar ta'sirining muayyan darajada kuchayishiga olib keldi. Bunday vaziyatda faqatgina kuchli, xalq irodasini o'zida aks ettirgan g'oyalarning mamlakatni,



jamiyatni yot g'oyalar ta'siridan, mafkuraviy tazyiqlardan muhofaza qila olishi masalasiga katta e'tibor qaratildi.

Hozirgi davrda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar yer yuzining barcha mintaq va mamlakatlarini qamrab olmoqda. Bugungi kunda bu jarayonlardan biror kishi yoki mamlakat chetda qolmay, ayniqsa, diniy ekstremizm, fundamentalizm, prozelitizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa egosentrizmga asoslangan axloqsizlik g'oyalarini kishilar ongiga singdirishdan iborat bo'lgan mafkuraviy tajovuzlar mintaqaviy va umumbashariy muammo darajasiga chiqib, unga qarshi kurashning xalqaro institusional tizimini shakllantirishni taqozo qilmoqda. Hozirgi davrda aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradioaloqa tizimlarining kuchayishi bilan axborot almashuv jarayoni, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengayib bormoqda. Bugungi kunda biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun dunyoga yoyilmoqda. Natijada odamlar ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda. Muayyan g'oyani ilgari suruvchi, targ'ibot va tashviqotning turli usul va vositalari orqali odamlar ongi va ruhiyatiga ta'sir etuvchi mafkuraviy markazlar globallasuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida o'zlarining ta'sirlarini kuchaytirishga harakat qilmoqdalar. Hozirgi vaqtda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikasiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berib, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish masalasi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bugungi kunda qaysi millatning, qaysi davlatning milliy g'oyasi va mafkurasi kuchli bo'lsa, g'oyaviy, mafkuraviy kurash sharoitida o'sha millat va davlatning yengib chiqish imkoniyati yuqori darajada bo'ladi.

Bugungi kunda barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning asosiy diqqat e'tibori reaksion g'oyalarga qarshi birgalikda kurash olib borishdan iborat bo'lib, davlatlararo munosabatlar sohasida yagona g'oyaning amal qilishi masalasiga katta e'tibor qaratilgandir. Davlatlararo munosabat sohasida amal qiladigan g'oyaning mazmuni va mohiyati shundan iboratki, u birgalikda tinch

hayot kechirish, hamkorlikka intilish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, turli nuqtai nazar va fikrlarga bardoshli bo'lish tamoyillarini o'zida ifodalaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga ajratilgan holda tahlil qilinib, ijobiy ta'sir qiluvchi omillarga quyidagilar taalluqlidir:

- Integrasiya jarayonlarining kuchayib borishi;
- "Turkiston – umumiy uyimiz" g'oyasining amalga oshishi;
- Mustaqil davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;
- Terrorchilikka qarshi kurash markazini tashkil etish;
- Diniy aqidaparastlikka qarshi kurashda umumiy faoliyat olib borish.

Salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilardan iboratdir:

- Islom xalifaligi bayrog'i ostida musulmon xalqlarini yangi imperiyaga birlashtirishga intilishlar;
- Tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;
- Axloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilishlar;
- Turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar.

G'oya va mafkuralarning tarixiy shakllari hamda mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash jarayoni belgilab keladi. Insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyotida bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi ravishda ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, ezgu va bunyodkor maqsadlar va mafkuralar uchun asos bo'lib kelgan. Ezgu maqsad-muddaolarga xizmat qiladigan mafkuralarga ozodlik, tinchlik, tenglik, do'stlik, hurfikrlilik, bag'rikenglik, mustaqillik, adolat, hamkorlik, birdamlik, ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik kabi bunyodkor g'oyalar asos bo'ladi. Jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lib, g'ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiladigan mustabidlik, terrorchilik, jaholatparastlik, millatchilik, vatansizlik, bosqinchilik, aqidaparastlik, irqchilik, mahalliychilik, yovuzlik kabi vayronkor g'oyalar yovuz va buzg'unchi mafkuralar uchun asos bo'ladi.

#### **22.4. Hozirgi davrda mafkuraviy poligonlarning yadro poligonlaridan xavfli ekanligi, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning zarurligi**

Hozirgi davr dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar tarixda hech ko'rilmagan olamshumul miqyosda murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchli bo'lib borayotgan davrdir. Insoniyat XX asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush, turli kasalliklar, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shu bilan birga, bu dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi bilan bog'liq jarayonlar ham sodir bo'lmoqda. Globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar mavjuddir.

Bugungi kunda o'zbek xalqining milliy mafkurasi singari ijobiy yo'nalishda faoliyat olib borayotgan mafkuralar insoniyatni har xil ofatlardan, turli mojarolardan xalos etib, tinch-totuv, o'zaro hamjihatlikda yashash, hududlar bo'linmasligi, chegaralar daxlsizligini ta'minlash kabi maqsadlarga xizmat qiladi hamda bunyodkor g'oyalar sifatida namoyon bo'ladi. Salbiy yo'nalishda faoliyat olib borayotgan mafkuralar esa urush va qurollanishni targ'ibot-tashviqot qilish, shuningdek odamlarni har xil g'oyaviy o'yinlarni o'ylab topish asosida mafkuraviy yo'l bilan ichidan bo'lib tashlash, ularning tabiiy boyliklarini egallab olish, o'zlarini esa g'oyaviy qaramlikka giriftor qiluvchi vayronkor g'oyalar sifatida mavjud bo'ladi. Buyuk davlatchilik shovinizmi, islomiy davlat, xalifalikni barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan panislomizm, panamerikanizm, panslavyanizm, panturkizm kabi g'oyalarga tayanilgan holatda ishlab chiqilgan mafkuralar bugungi kunda jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga harakat qilmoqdalar.

“Poligon” so'zi yunon tilida “poli-ko'p” va “gonia-burchak” ya'ni “ko'pburchak” degan ma'noni bildirib, mafkuraviy poligon – katta ijtimoiy-

iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy imkoniyatlarga ega bo'lgan ayrim shaxs, elat, millatlarning o'zga odamlar va xalqlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli g'oyalarni kurash maydoniga tashlash oldidan sinab ko'riladigan maxsus mafkuraviy maydondir. Yadro poligonlarida yadro qurollari sinab ko'riladi. Insoniyat yadro qurollarini ishlab chiqish uchun juda katta moddiy va moliyaviy resurslarni sarfladi. Yadro qurollarini poligonlarda sinab ko'rish esa ekologiyaga va odamlarning sog'lig'iga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Termoyadro urushi havfi insoniyatning kelgusi taraqqiyotini juda katta xavf-xatar ostiga qo'ydi.

Hozirgi davrda yer yuzining turli hududlarida joylashgan davlatlarning geopolitik, geostrategik maqsadlariga xizmat qiluvchi mafkuraviy poligonlar turli g'oyalar, mafkuralarni tezlik bilan tarqatish, katta miqdorda moddiy va moliyaviy resurslarni tejash imkoniyatiga egadir. Yadro qurollari insoniyatga juda katta vayronalik hamda talofotlarni olib keladi. Shuning uchun ham bugungi kunda tabiiy zahiralarga boy bo'lgan hududlarni egallashga urinayotgan turli xil kuchlar, muayyan g'oya va mafkuralar bayrog'i ostida birlashib, o'zlarining mafkuraviy qurollarini ishga solgan holda jahondagi ma'lum bir hududlarni egallash uchun mafkuraviy kurashni avj oldirishga harakat qilmoqdalar.

Bugungi kunda yer yuzida to'planib qolgan urush qurollari boshqa hududlarni bosib olish u yoqda tursin, balki butun Yer sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlashga yetadi. Hozirgi davrda yadro qurollarini ishlatish, oxir-oqibatda uni qo'llagan mamlakatni ham halokatga olib kelishini yer yuzidagi barcha davlat rahbarlari va insonlar yaxshi biladilar. Bunday sharoitda esa muayyan hudud yoki moddiy boyliklar emas, balki kishilarning ongi va qalbi uchun kurash birinchi o'ringa chiqadi. Shu sababli hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ko'payib, tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va neokommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkuralarini tarqatishga intilishlar kuchaymoqda. Hozirgi davrda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib, global xususiyat kasb etib bormoqda. Ushbu holat bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda. Insoniyat jamiyati o'zining tarixiy taraqqiyotida insonda oliyjanob fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishiga

ham, turli g'ayri insoniylikning xilma-xil ko'rinishlari namoyon bo'lishiga ham ko'p bor guvoh bo'lib keldi. Zararli g'oyalar va mafkuralar bugungi kunda Yer yuzidagi tinchlik va totuvlikka, hamkorlik va hamjihatlikka, insoniyatning yagona birlik sifatida erkin taraqqiy qilishiga, uning kelajagiga katta xavf tug'dirmoqda. Bugungi kunda jamiyat hayotida namoyon bo'ladigan informasion ma'lumotlar ta'sirida shaxsning qadriyatlari, xulq-atvori, dunyoqarashi, ongi va tafakkurida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha xududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Hozirgi davrda jahonda olib borilayotgan axborot sohasidagi tajovuz raqibni yo'q qilishni emas, balki uni o'ziga ma'naviy jihatdan bo'ysundirishni ko'zlagan holatda olib boriladi. Ba'zan beozor ko'ringan ommaviy axborot vositalari ham, milliy madaniyatga, ma'naviyatga tahdidning muhim vositasiga aylantiriladi.

Hozirgi davrda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish jarayonida xalqimizning boy tarixiy, ma'naviy merosini tiklash, milliy o'zligini anglash, har bir O'zbekiston fuqarosida milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini yuksaltirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etib, shaxs kamolotida uning bilimi, dunyoqarashi, vatanparvarlik tuyg'ularining yuksalishi masalasiga asosiy e'tibor qaratiladi.

## **22.5. Mafkuraviy kurashlarning oldini olishda milliy g'oyaning zarurligi. Yovuz va tajovuzkor mafkuralarga qarshi kurashda milliy g'oya rolining oshib borishi**

Yuksak ma'naviyatli insonni tarbiyalash, yuksak ma'naviyatli jamiyatni barpo etish milliy g'oyaning asosiy vazifasi bo'lib, jamiyatning ma'naviy hayoti, odamlarning ongi va qalbini egallashga harakat qilayotgan zararli g'oyalar va mafkuralarga qarshi kurashda milliy g'oya muhim ahamiyatga egadir. Milliy g'oya bugungi kunda O'zbekistonning ma'naviy hayotini yuksaltirishga, jamiyat a'zolarini ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazib berishga xizmat qiladigan qudratli

kuchga aylanib, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ustunlik darajasiga erishgan va g'oyaviy tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi kunda milliy g'oyani odamlar ongi va qalbiga singdirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy g'oya xalqni, millatni birlashtirib, jamiyat har bir a'zosining ma'naviy kamolotga erishishini ta'minlaydi. Milliy g'oya yovuz va tajovuzkor mafkuralarga qarshi kurashda jamiyat har bir a'zosida yuksak ma'naviyat belgilari bo'lib hisoblangan vatanparvarlik va fidoyilik singari fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Milliy g'oya jamiyatning har bir a'zosini ozod va obod Vatanni yaratish yo'liga safarbar etadi. Milliy g'oya jamiyat hayotida turli ijtimoiy guruxlar, tabaqalar o'rtasidagi hamkorlikni, millatlararo totuvlikni va umumtaraqqiyot yo'lidagi jiplashuvni ta'minlab, O'zbekistonda istiqomat qiladigan barcha xalqlarning tilidan, e'tiqodidan, jinsidan qat'iy nazar barcha fuqarolarning manfaatlarini o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya jamiyatning har bir a'zosini yovuz g'oyalar ta'siriga tushib qolishdan asrab qoladi va shu bilan birgalikda ulg'ayib kelayotgan yoshlarni o'z xalqi va Vatani ravnaqi yo'lida voyaga yetishini ta'minlab beradi. Bugungi kunda jamiyat a'zolarini, ayniqsa O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yoshlarning ongi va qalbini zaharlashga intilayotgan, jamiyatimizning ma'naviy hayotini parokandalik holatiga tushirishga harakat qilayotgan ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda milliy g'oya muhim rol o'ynaydi. Milliy g'oya jamiyat a'zolarining ongi va qalbiga ma'naviy va tarbiyaviy ishlar yordamida singdirilib, u kishilarda birlik, birdamlik, hamjihatlik, hamkorlik, faollik, fidoyilik, ma'naviy hayotda esa onglilik, birlik va birdamlik shakllarida namoyon bo'ladi. Ma'naviy yetuk insonlar milliy o'zlikni anglashga tayanib, muayyan etnik birlikka mansublikni, uning oldidagi burch va mas'uliyatini anglay oladi. Milliy g'oya milliy tarbiya an'alariga katta e'tibor bergan holda jamiyat a'zolarining ma'naviyatini yuksaltirib, ularda vatanparvarlik, milliy iftixor, millatparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Hozirgi paytda milliy hayotimizga xos muayyan xususiyatlarni ochiqdan-ochiq qoralash, yerga urish yoki ayrim tarixiy voqea-hodisalarni umuman bo'lmaganidek, jahon madaniyati, ilmu-faniga ulkan hissa qo'shgan ulug'

allomalarimizni bizga aloqasi yo'qdek qilib ko'rsatishga urinishlar, shuningdek, mintaqa davlatlari o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarish va jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilishlar ham mavjuddir. Milliy g'oya bunday zararli fikr va g'oyalarga qarshi O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Milliy g'oya o'zining mazmun-mohiyati bilan yovuz va tajovuzkor mafkuralarga, turli mafkuraviy tajovuzlarga qarshi tura oladigan kishilarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu borada barcha fuqarolarning ogohligi, faolligi, ezgu g'oyalarga xizmat qilishga tayyorligi katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat sharoitida axborotning aksariyat qismi internet orqali dunyoga tarqatilib, internetdagi axborotning hajmi juda katta bo'lib, turli xilligi tufayli yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ham ko'rsatmoqda. Internetdagi ayrim xabarlar buzg'unchilik harakatlarini sodir etishga undaydi. Hozirgi vaqtda bunday axborot tarqatish usullaridan turli ekstremistik guruhlar, buzg'unchi tashkilotlar foydalanishga harakat qilmoqdalar. Axborot asrida Internetdan axborot tarqatish va qabul qilish oddiy hol bo'lib qoldi. Internetda "kiberterrorizm" vujudga kelib, ayrim shaxslar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda agressiv maqsadda axborot xurujini uyushtirishga harakat qilmoqdalar. Internet orqali tarqatilayotgan axborot xuruji ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan milliy qadriyatlarimizga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda Internet orqali mafkuraviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari kengayib, Internet orqali tarqatilayotgan ayrim ma'lumotlar milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy dunyosiga, tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayonida axborot xuruji yoshlarimizning ongiga, jamiyat taraqqiyotiga, milliy mentalitetiga tahdid solmoqda. Ochiq axborotlar tahdidi sharoitida yoshlarni to'g'ri yashashga, vatanparvar va insonparvar bo'lishga, erkin fikrli bo'lishga o'rgatish orqali ularda mafkuraviy immunitetni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Milliy g'oya o'zining asosiy g'oyalari Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikka tayangan holatda ana shu g'oyalarga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar, tashqi va ichki tahdidlarning oldini

oladi. Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etayotgan mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga egadir. Milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo har bir fuqaroning mustahkam e'tiqod va yuksak dunyoqarashga ega bo'lishini taqozo etadi. G'oya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda insonning ongi va qalbini egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib, yovuz va tajovuzkor mafkuralarga qarshi kurashda milliy g'oyaning roli oshib bormoqda. Milliy g'oya O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini hisobga olgan holda takomillashib bormoqda.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mafkuraviy jarayonlar deganda nimani tushunasiz?
2. Mafkuraviy jarayonlarning mazmuni nimalardan iborat?
3. O'zbekistondagi mafkuraviy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering?
4. O'zbekistonda mafkuralar xilma-xilligi nimalarga asoslangan?
5. "Mafkuralar xilma-xilligi" tushunchasining mohiyatini aytib bering?
6. Jamiyatda milliy g'oyaga ehtiyoj qanday oshib boradi?
7. Dunyodagi mafkuraviy kurashlarning sabablarini tushuntirib bering?
8. Milliy mafkuradan ko'zlangan maqsadlarni aytib bering?
9. Ezgu va bunyodkor mafkuralarning yovuz va buzg'unchi mafkuralardan farqini tushuntirib bering?
10. Mafkuraviy poligon deganda nimani tushunasiz?
11. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning zarurligini asoslab bering?
12. Mafkuraviy kurashlar qanday vujudga keladi?
13. Yovuz va tajovuzkor mafkuralarga qarshi kurash olib borishda milliy g'oyadan qanday samarali foydalanish mumkin?



## **23-BOB: YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY G'OYANING AHAMIYATI**

### **23.1. Yoshlar, mafkuraviy immunitet tushunchalarining ma'no-mazmuni. Yoshlarga xos xususiyatlar**

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni qaror toptirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonda har bir yoshning ma'naviy tafakkurini oshirish, ijtimoiy faolligini ta'minlash va ular ongiga milliy g'oyani singdirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda yoshlar haqida doimiy g'amxo'rlik qilinmoqda.

Yurtimiz yoshlari o'rtasida ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalarida, umuman, barcha jabhalarda jonbozlik ko'rsatib kelayotgan azamat yigitlarimiz juda ko'p, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Ular o'zining jismoniy va ma'naviy salohiyati, iste'dod va mahoratini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish borasida mamlakatimizda ko'p ishlar qilinyapdi va kelgusida ham ularni albatta davom ettiramiz. Ayni vaqtda halol va samarali mehnati, ilmiy-ijodiy yutuqlari, Vatanga sadoqatli xizmati bilan barchaga o'rnak bo'layotgan mard o'g'lonlarimizni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markazida bo'lishi zarur<sup>1</sup>.

O'zbekistonda demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruvni tashkil etish, yoshlarimiz ong-tafakkuri va dunyoqarashida tajovuzkor g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni qaror toptirish, endigina shakllanib unib-o'sib kelayotgan yoshlarni milliy urf-odat, an'ana, qadriyatlarimiz va tarixiy merosimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularda umumbashariy fazilatlarni shakllantirish muhim masaladir. Hozirgi zamonda yoshlarda mustahkam mafkuraviy e'tiqodni shakllantirish har qachongidan ham muhimdir. Ijtimoiy taraqqiyotda g'oyaviy

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 – жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2017. 535-бет.

jihatdan yetuk shaxs jamiyatning barqaror rivojlanishida uning ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy sub'yekt bo'lib xizmat qiladi.

Mafkuraviy immunitet (lotincha *immunitas* – biror narsaning chidamliligi yoki biror narsadan ozod etish) – ma'lum bir shaxsda yoki ijtimoiy guruhda o'ziga xos bo'lgan, qat'iy, barqaror, sog'lom mafkuraviy qarashning shakllanganligi bilan ifodalanadi. U shaxsning insoniylikka yot bo'lgan turli zararli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarga berilmasligida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada, sog'lom g'oyalar tizimi uning dunyoqarashidan mustahkam joy oladi va ma'naviy-ruhiy holatida bo'shliq kuzatilmaydi. Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizimdir. Aslida immunitet tibbiyotga tegishli tushuncha bo'lib, u organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashga, turli tashqi ta'sirlardan, infeksiyalardan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmuidir. Oddiy qilib aytganda, immunitet – organizmning o'z-o'zini turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Mafkuraviy immunitetning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, agar insonning umumiy immunitet tizimi tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitet shakllantirilib boriladi. Mafkuraviy immunitet har bir avlod uchun alohida xususiyatga ega bo'ladi. Mafkuraviy immunitet tizimi shakllantirilgan holatda jamiyatda mafkuraviy dahlsizlik ta'minlanadi. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va eng muhim elementi, bu bilimdan iborat bo'lib, bu bilimlar ob'yektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishiga, xalq va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozimdir. Mafkuraviy immunitet tizimining yana bir muhim elementi ana shunday ilg'or bilimlar zamirida shakllanadigan baholar va qadriyatlar tizimidir. Mafkuraviy immunitet tizimida bilimlar qanchalik ob'yektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga keladigan baholar va qadriyatlar tizimi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab, zararli g'oyalardan himoya qilish yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim elementi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy sohalardagi maqsadlar tizimidir.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Bizning

asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz<sup>1</sup>.

Mustaqil O'zbekistonning yoshlar siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlardan iboratdir:

1. Yoshlarni jismonan va aqlan sog'lom bo'lib o'sishini ta'minlash. 2. Ularga tadbirkorlik, ishchanlik, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini hayotdagi birinchi qadamlardan boshlab singdirish. 3. Har bir yoshni o'z Vataniga muhabbat va mehr, sadoqat va fidokorlik ruhida tarbiyalash. 4. Bu mehr-muhabbat va sadoqatning ildizi chuqur bo'lishi uchun yoshlar o'z millati, o'z yurti tarixini, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini, uning jahon sivilizatsiyasi maydonidagi o'rnini har tomonlama bilishini ta'minlash. 5. Sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish, sportdan mamlakat va millatni ulug'lovchi xolis vosita sifatida foydalanish.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda boy tarixiy, ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida unda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga katta e'tibor qaratilib, Vatanning gullab-yashnashi har bir insonning mehnatiga, tadbirkorligiga bog'liq ekanligini uning ongi va qalbiga singdirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

### **23.2. Yoshlarga turli g'oya va mafkuralarning ta'siri. Ularning immunitetini mustahkamlash zarurligi**

Yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish jamoat birlashmalari, xususan, yoshlar tashkilotlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlarning ishini hamkorlikda tashkil etish asosida olib boriladi. Yoshlarga mafkuraviy bilim berish, ular ongida milliy g'oyani shakllantirish jamiyatda mafkuraviy barqarorlikni ta'minlaydi, jamiyat va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish asosida tinch va osoyishta hayot kechirish muhitini yaratadi. Milliy g'oya

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 252-бет.

yot g'oyalarga qarshi kurashda mafkuraviy immunitetni shakllantiradi, va shu asosda yagona ezgu maqsadimiz bo'lgan “ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etish” uchun zamin hozirlaydi.

Milliy g'oya jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'layotgan diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm kabi ijtimoiy illatlarning oldini olish, ularga qarshi kurashish, bu yot g'oyalarning yoshlar orasida keng ko'lamda tarqalmasligiga qaratilgan faoliyatni olib boradi. Shu bilan birgalikda milliy g'oya jamiyat hayotida saqlanib qolayotgan eski mafkuraviy sarqitlar – ma'naviy buzqlik, boqimandalik, mahalliychilik kabi g'ayriaxloqiy holatlarning oldini olishga yordam beradi. O'zbekistonda yashovchi yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularning ongiga milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalarini singdirish asosida yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularda har xil mafkuraviy xurujlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masaladir. O'zbekiston fuqarolari, yoshlarining ongi va dunyoqarashida, mentaliteti hamda xulq-atvor normalarida ota-onaga, o'zi yashayotgan mahalla jamoasiga, katta yoshdagi kishilarga chuqur hurmat bilan qarash, muayyan voqea va hodisalarga bosiqlik, mulohaza va andisha bilan munosabatda bo'lish, jamoa fikriga nisbatan alohida ehtirom ko'rsatish kabi xislatlar ustuvorlik qilib, aynan mana shu qadriyatlar jamiyatimiz ma'naviyatining asosini tashkil qiladi. Yoshlarga turli g'oya va mafkuralarning ta'sirini ko'rib o'tganda bunyodkor g'oyalar taraqqiyotga xizmat qilsa, vayronkor g'oyalar jamiyatni tanazzulga olib boradi. Jamiyatimiz ma'naviy hayotiga, yoshlarimizning ongi va qalbiga, ma'naviyatiga qarshi qaratilgan ma'naviy xurujlar “individualizm”, “egoizm”, “kosmopolitizm”, “zo'ravonlik”, “diniy mutaassiblik” g'oyalari ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Xalqimizda o'ziga xos milliy urf-odatlar, an'ana va marosimlar ham shakllangan bo'lib, jamoa bilan yashash, qarindosh-urug'larga mehribonlik, to'y va marakalar, bayramlar, tarbiya masalalarida, hasharlarda ijtimoiy hamkorlikning namoyon bo'lishi ko'zga tashlanadi. Bugungi kunda milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizga qarshi qaratilgan ma'naviy tahdidlar ham amalga oshirilib, global aloqa tizimlari va

boshqa vositalar orqali ma'naviy qashshoqlikka, tarkidunyochilikka, odamlarga nisbatan oqibatsizlik va shafqatsizlikka olib keluvchi g'oyalar hamda urf-odat normalari zo'r berib targ'ib qilinmoqda. O'zbek xalqining milliy madaniyati o'zining qadimiyligi, boyligi bilan alohida ajralib turib, Markaziy Osiyo tarixida aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan allomalar ko'p bo'lgan. Ma'naviy xuruj uyushtirayotgan kuchlar tomonidan jamiyatimiz a'zolari, shu jumladan yoshlarni milliy madaniy boyluklar va imkoniyatlaridan begonalashtirishga qaratilgan harakatlar sodir etilmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekistonning har bir fuqarosi, eng avvalo yoshlarning ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirib, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish va mustahkamlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarda mafkuraviy immunitet, shuningdek g'oyaviy e'tiqodni qaror toptirish, ularga ijtimoiy hayotdagi turli mafkuralarning mazmunini to'g'ri anglatish, dunyoqarash hamda tafakkurni vatanparvarlik, xalqparvarlik ruhida shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda va shu asosda yoshlarda mas'uliyat, vijdon, e'tiqod, o'zini hurmat qilish va o'zgalar qadr-qimmatini hurmat qilish ko'nikmalari shakllantirilmoqda.

Hozirgi davrda globallashuv jarayonida jahondagi ayrim mintaqalar yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan, inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul hamda halokatga mahkum etadigan vayronkor g'oyalarni sinash maydoniga, ya'ni mafkuraviy poligonga aylantirilib, bunday vayronkor g'oyalarga diniy aqidaparastlik va jangari irqchilik, buyuk davlatchilik shovinizmi va ashaddiy millatchilik, neofashizm va kosmopolitizm mafkuralari, volyuntarizm va amoralizm, gegemonizm va demokratik tranzit, islom fundamentalizmi va terrorism, missionerlik va prozelitizm, egosentrizm va narquoagressiya kabi ma'naviy tahdidlar taalluqlidir. Aloqa vositalarining rivojlanishi dunyoda mavjud bo'lgan davlatlarning chegara va sarhadlarini pisand qilmay, kompyuter, elektron pochta, internet, kosmik tele-radio aloqa tizimlari, texnik-texnologik vositalarning

kuchayib ketishi bilan axborot almashuvini tezlashtirgan holda, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora o'sib bordi. Bugungi kunda internet tizimida axborot almashuvi jarayonlarining tezlashib borishi g'oyaviy ta'sir o'tkazish ko'lamining kengayib ketishiga olib keldi. Geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat sharoitida boshqa mamlakatlarni mafkuraviy ta'sir doirasiga olishning asosiy maqsadlari bu eng avvalo katta boylik orttirish va g'oyaviy qaram qilishdan iboratdir. Boshqa xalqlar va mamlakatlarni g'oyaviy qaram qilishda "ommaviy madaniyat"ning ham ta'siri kuchayib, saviyasiz audio va videokassetalar, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan filmlar, internetdagi saytlar ma'naviy tahdidning ko'rinishiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashida milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

### **23.3. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash shart-sharoitlari**

Yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash va insondagi vatanparvarlik tuyg'usi o'z-o'zidan paydo bo'lmay, balki doimiy va izchil ravishda olib boriladigan g'oyaviy tarbiya yordamida shakllantiriladi. Milliy g'oya yoshlar ongi va qalbiga ishonch ruhini baxsh etadi, ajdodlarimizning bebaho merosi va umumbashariy qadriyatlarga tayanadi, yoshlarni komil inson etib tarbiyalashga undaydi, mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga uyg'unlashib borishini nazarda tutadi. Milliy g'oya yoshlarda mehnatsevarlik, qat'iy iroda, sabr-toqat, mehr-oqibat, kattaga hurmat va kichikka izzat, yaxshilarga ergashish kabi fazilatlarning shakllanishiga ham yordam beradi. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yoshlarning salohiyati, intilishlari va aql-idrokiga bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqyealarga daxldorlik hissini oshirish,

mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish masalasiga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Yoshlarning ongiga milliy g'oyani singdirish, yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash yaxlit jarayon bo'lib, ushbu holatda yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim-tarbiyaning mohiyati hamda jamiyat hayotida tutgan o'rnini haqidagi ma'lumotlar bilan qurollantirish talab etiladi. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda hamda ularning ongiga milliy g'oyani singdirishda yoshlarda g'oyaviy va mafkuraviy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltirish, mafkuraviy tafakkurni qaror toptirish ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Yoshlarning g'oyaviy va mafkuraviy immunitetini shakllantirishda yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy, amaliy faoliyatlarini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirish hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash jarayonida yoshlar hayotida keng ko'lamli ijtimoiy, ma'naviy sog'lom muhitni yaratish, yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish asosida milliy dunyoqarashni kengaytirish, yoshlarning bilim va tafakkurlarini o'stirish asosida ularning ijtimoiy faolligini oshirish talab etiladi.

Yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirish hamda mafkuraviy immunitetini shakllantirishda, yoshlarga O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi g'oyalar haqida chuqur bilim beriladi. Yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirishda, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda mafkuraviy tarbiyaning tizimligiga, uzluksiz tashkil etilishiga e'tibor qaratiladi. Yoshlarni g'oyaviy, mafkuraviy tarbiyalashda, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishning aniq maqsadga yo'naltirilganligi ta'minlanadi. Yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirish, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishga bir butun jarayon sifatida yondashiladi. Yoshlar ongiga milliy g'oya – jamiyatda tinchlik, totuvlik, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolati, insonlarga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni

mujassamlashtiradigan, jamiyatda yashayotgan yoshlarni yagona maqsad sari yetaklovchi mafkuraviy tizim ekanligi to'g'risidagi tushuncha singdiriladi. Yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirish, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda yoshlarning milliy g'oyani o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlari ham hisobga olinadi. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalariga tayaniladi. Milliy mafkurani yoshlar qalbi va ongiga singdirish jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, ta'lim, fan, madaniyat, san'at jismoniy tarbiya muassasalari faoliyati orqali amalga oshiriladi. Yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalashda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, davlat ramzlariga nisbatan chuqur hurmat-e'tibor qaror toptiriladi, yoshlarda jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini teran anglash, har qanday yot g'oyalar xurujiga qarshi kurashish, insonparvarlik tuyg'ulari shakllantiriladi. Fuqarolar manfaati, sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmatini masalalari ham g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyadagi muhim masalalar bo'lib, yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish milliy ongni o'stirish, milliy o'zlikni anglash, yoshlar ongi va qalbiga milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirish asosida amalga oshiriladi. Yoshlarga milliy g'oyani singdirish jarayonida ularda mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, imon-e'tiqod, sog'lom dunyoqarash, vatanparvarlik, fidoyilik, madaniyatlilik va insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi. Milliy g'oyani yoshlar ongi va qalbiga singdirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib hisoblanib, ushbu jarayonda yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'usi shakllantiriladi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ilmiy va dunyoviy bilimlarni egallash, ta'lim-tarbiyani zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish amalga oshiriladi.

Milliy g'oya jamiyat a'zolarining aql-idrok va maqsadlarining ongli ravishda birlashuvini ta'minlaydi. Bugungi kunda vatanparvarlik, yurtni sevish va milliy g'oyaga sodiqlik jamiyatning yoshlar oldiga qo'yayotgan asosiy talabidir. Milliy g'oya har bir fuqaro, yoshlar uchun Vatan va xalq oldidagi o'z vazifasini to'laqonli va vijdonan bajarish, milliy mafkuraning g'oyalar tizimini ularning ongi va qalbiga singdirish, yangi davr kishisini shakllantirish, ularning ongi va qalbiga milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirish vazifalarini bajaradi. Ta'lim-tarbiya



jarayonida yoshlarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatish milliy g'oyaning muhim jihatlaridan biridir.

Milliy g'oya va mafkurani yoshlarning ongi va qalbiga singdirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratiladi. Eng avvalo ta'lim-tarbiya jarayonida inson kamoloti jamiyat rivojlanishining eng asosiy omili ekanligi masalasiga e'tibor qaratilib, milliy g'oyaga doir bilimlarni o'zlashtirish jarayonida sog'lom dunyoqarash, aql-idrok, tasavvur, bilim va ilg'or g'oyalar singdiriladi. Yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashda ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'ladigan voqealar asosida yoshlarda ijtimoiy-siyosiy onglilik, g'oyaviy yetuklik, tashkilotchilik va tashabbuskorlik fazilatlarini qaror toptiriladi. Yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalashda yot g'oyalar va mafkuralarga qarshi kurashda ularda ijtimoiy faollikni shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Zararli g'oyalar va mafkuralar tajovuziga qarshi kurashda yoshlarni ilm olishga, hunar egallashga, sog'lom turmush tarzini yaratishga, bunyodkorlik ishlariga da'vat etuvchi va yo'naltiruvchi omil bu milliy g'oyadir. Milliy g'oya va mafkura yoshlar tarbiyasida xalqimizning azaliy an'analari, milliy ruhiyati, dini, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, yoshlarning o'z salohiyatini yuzaga chiqarishiga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birgalikda zararli g'oyalar va mafkuralarga qarshi kurashda yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga yordam beradi.

#### **23.4. Yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini oshirish**

Bugungi kunda yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etib, insoniyat o'zining tarixiy taraqqiyotida dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik, boshqa xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish masalasiga doimo katta e'tibor qaratib kelmoqda. Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni, tanlagan yo'li, kasbi maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqallangan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqodning mahsuli bo'lib hisoblanadi.

Yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini oshirish aholining siyosiy bilimdonligi, ijtimoiy faolligi, aholining o'z bilim saviyasini oshirishga intilishi, yot g'oyalarga murosasiz bo'lishi, mustaqillik g'oyasini har qanday sharoitda himoya qila olishida namoyon bo'ladi. Hozirgi davrda zararli mafkuralar tajovuziga qarshi kurashda yoshlarni ilm olish, hunar egallash, sog'lom turmush tarzini yaratish, bunyodkorlik ishlariga yo'naltirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, jamiyatda mafkuraviy tadbirlarni amalga oshirishda yoshlarning qiziqishlari, ehtiyojlari, bilim va dunyoqarashlari darajasi, shuningdek, ijtimoiy faolliklari hisobga olinadi. Yoshlarga bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarning mohiyatini tushuntirish asosida ularda fidoyilik va vatanparvarlik xislatlari tarbiyalanadi. O'zbekistonda yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish, so'z va vijdon erkinligi, ekologik tarbiya va madaniyatni takomillashtirish, tinchlikni saqlab qolish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda millatning g'oyalari, qarashlari, turmush tarzi, orzu-istaklari, milliy qadriyatlariga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar milliy g'oyaning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u xalq ongining o'sishi va turmush madaniyatining rivojlanishida, barkamol shaxsning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bugungi kunda, ilmiy bilimlarning rivojlanishi va fan-texnikaning jadal taraqqiyoti sharoitida har bir davlat o'zining kelajakdagi istiqbol rejalarini amalga oshiruvchi yosh avlodning qobiliyatlarini rivojlantirishga, intellektual salohiyatini yuksaltirishga, ma'naviyatini boyitishga katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekistonda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda ularning haq-huquqlarini muhofaza qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlod keng ma'noli tushuncha bo'lib, u eng avvalo mustaqil, yangicha tafakkur va ong sohibi bo'lib hisoblanadi. Inson ta'lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar, siyosiy g'oya, milliy mafkura kabi omillar ta'sirida yashab, ularni o'zlashtiradi va shu jarayonda ijtimoiylashib, shaxs sifatida shakllanadi. O'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yuksak mas'uliyatni his etish, g'oya uchun kurashish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga xos

belgilardir. Shaxsning maqsad, g'oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g'oya va mafkura bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Barkamol avlod tushunchasi mustaqil fikrlash madaniyatiga ega bo'lgan, demokratik tamoyillarni qadrlaydigan, yuksak salohiyatga ega, zamonaviy ilm-fan va texnologiya yutuqlarini o'zlashtirgan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga o'zining hissasini qo'shadigan insonlarni o'zida ifodalaydi. O'zbekistonda yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, yoshlar ma'naviyatini milliy g'oya asosida shakllantirishda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish, yoshlarda Vatanga va xalqqa muhabbat, yurt farovonligi uchun kurashish, insonparvarlik, o'zlikni anglash, milliy g'urur, milliy iftixor, o'zga millat kishilari va ularning qadriyatlarini hurmat qilish kabi fazilatlarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda ma'naviyat-ma'rifatni rivojlantirishda yoshlarda vijdon erkinligi, bilimdonlik, axloqlilik, jismoniy yetuklik, mustaqil fikrni kamol toptirish kabi ta'lim-tarbiya masalalariga e'tibor kuchaytirilmoqda. Ta'lim O'zbekiston xalq ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etib, yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. O'sib kelayotgan yosh avlodning barcha yaxshi fazilatlari ta'lim jarayonida namoyon bo'lib, insonning kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi. Katta avlodning bilimi va tajribasi anglab olinib, yosh avlodga o'tadi hamda yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatining oshishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekistonda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish jarayonida, yot va begona bo'lgan zararli g'oyalar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga yetkazish, yoshlarning ongida mafkuraviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlash jarayonida o'z mustaqil fikriga ega, mustahkam irodali, chuqur bilimli barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma'naviy barkamollik insonning ruhiy poklanishi, yuksak ongu tafakkurga ega bo'lishi, halol va pok yashashi, mustahkam e'tiqodga ega bo'lishida yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'naviyatni yuksaltirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lsa, kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlar qalbi va ongiga boy ma'naviy merosni

singdirish asosida barkamol avlodni shakllantirish undan ham dolzarb vazifadir. Ma'naviyat insonni ruhan poklanish va ulg'ayishiga chorlaydigan, uning irodasini baquvvat, iymon e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch bo'lganligi uchun yurtimizda ma'naviyatni yuksaltirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Ma'naviyatni yuksaltirish sohasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishilgach, millat g'ururi bo'lgan o'nlab va yuzlab allomalar xotirasini qayta tiklash, milliy an'ana va marosimlarni xalqqa qaytarish kabi xayrli ishlar ma'lum darajada amalga oshirilgach, milliy g'oya va milliy mafkura masalalarini kun tartibiga qo'yish uchun ma'naviy asos yaratildi. Ana shu ma'naviy asos mamlakat taraqqiyotini ta'minlovchi yosh avlodni ma'naviy kamol toptirish, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalash, yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini oshirish jarayonida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar milliy istiqlol mafkurasi va siyosatining ajralmas qismi bo'lib, u xalq ongining o'sishi va turmush madaniyatining rivojlanishida, yosh avlod kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

### **23.5. Yoshlarni yot va zararli g'oyalarning ta'siridan himoyalashda milliy g'oyaning ahamiyati**

Yoshlar bizning bugungi orzu-niyatlarimizni ertaga ro'yobga chiqaradigan, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlaydigan, har bir sohada o'z iqtidori va iste'dodini to'la-to'kis namoyon eta oladigan avlod sifatida shakllanib, boshlagan ishlarimizning munosib davomchilari sifatida Vatanimiz taqdirini o'z qo'liga olib, uni yangi-yangi marralar sari boshlaydi. Milliy g'oya O'zbekiston xalqining tub manfaatlari, asriy orzu-umidlari, ezgu niyatlari, buyuk maqsadlarini ifoda etib, xalqning o'z maqsad-muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat bo'ladigan poydevordir. Sog'lom g'oyalar tarbiyasi yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini anglatadi. Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni jamiyatda o'zligini saqlagan holda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, yoshlarni yot va zararli

g'oyalar ta'siridan himoya qilishda mafkuraviy immunitetni o'zida ifodalaydi. Har qanday jamiyat zararli g'oyalar va mafkuralarga qarshi kurash jarayonida buzg'unchi g'oyalar mohiyatini ochib berishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi. Mafkuraviy immunitet shaxs tomonidan Vatan, millat manfaati uchun g'oyaviy asoslanib amalga oshiriladigan kundalik faoliyatda namoyon bo'ladi. Bu faoliyat milliy birlik va ma'naviy yuksalishga xalaqit beradigan yot qarashlar, yot va zararli g'oyalar, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turishni ham o'z ichiga oladi.

Yoshlarni yot va zararli g'oyalarning ta'siridan himoyalashda milliy g'oya quyidagi maqsadlarni amalga oshirish bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Milliy g'oya yoshlarni oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimiz, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga yo'naltiradi. Eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lishga yordam beradi. Jamiyatning ma'naviy hayotida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Yot va zararli g'oyalarga qarshi yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishiga yordam beradi. Yot va zararli g'oyalardan yoshlarni himoya qiladi. Mustaqil davlatimizning har bir fuqarosida Vatan taqdiri uchun mas'ullik tuyg'usining shakllanishi va mustahkamlanishiga yordam beradi. Mustaqillik yillarida xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga yo'naltiradigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida mujassam etadigan milliy g'oya yoshlarni yot va zararli g'oyalardan himoya qilishning muhim omiliga aylandi. Milliy g'oya – millat tafakkuri va ongining mahsuli bo'lib, boshqa tomondan siyosiy ong darajasi har bir millatning rivojini belgilaydigan muhim omil bo'lib hisoblaydi. Milliy g'oya, eng avvalo, yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Milliy g'oya Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz ma'naviy va moddiy merosining munosib vorislari deb hisoblashimiz uchun imkoniyat yaratadi. Milliy g'oya yoshlarning bunyodkorlik faoliyatida ularning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shib, kelajagi buyuk davlat qurish jarayonida ularning ishonch-e'tiqodini mustahkamlashga yordam beradi. Milliy mafkuraning asosiy

maqsadi – O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat va elat vakillarini barkamol inson qilib tarbiyalash, ularni mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirishdan iboratdir. Jamiyat taraqqiyotida insonning faolligi uning ilg'or va bunyodkor milliy g'oyaga amal va e'tiqod qilishiga bevosita bog'liqdir.

Hozirgi davrda yoshlarning ongu-tafakkurini, qalbini egallab, o'zlarining yot va zararli g'oyalari, mafkuralarini geopolitik maqsad va manfaatlari asosida boshqa hududlarga tarqatishga urinayotgan ma'naviy tahdidlar – diniy ekstremizm, fundamentalizm, missionerlik, prozelitizm, terrorizm, kosmopolitizm, irqchilik, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, “ommaviy madaniyat”, axborot xurujlari kabi tahdidlarga qarshi kurashda milliy g'oyaning tutgan o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Globallashuv va axborot oqimining tezlashib borishi sharoitida islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirishga, yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirishga da'vat etuvchi zararli g'oyalar va mafkuralar ham ilgari surilmoqda. Milliy g'oya va mafkuraga qarshi qaratilgan ma'naviy tahdidlardan yana tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirish, axloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilish, turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan xarakatlarni ham keltirish mumkin.

Hozirgi davrda yoshlar qalbi va ongini zabt etishga qaratilgan ma'naviy tahdidlar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Odamlarda demokratiya qadriyatlari va demokratik taraqqiyot imkoniyatlariga nisbatan shubha bilan qarash xolati vujudga keltiriladi. Odamlar ezgu g'oyalardan chalg'itilib, ularga xayoliy turmush tarzi va'da qilinadi. Jamiyat a'zolari, avvalo yoshlar tafakkurida milliy qadriyatlarga sodiqlik tuyg'ularini zaiflashtirishga hamda xalqimizning urf-odatlari va milliy mentalitetiga begona odatlarni kiritishga harakat qilinadi. Ma'naviy tahdidlardan yana ekstremistik ruhdagi diniy g'oyalarni targ'ib-tashviq qilish, aholi o'rtasida milliy taraqqiyot modeliga nisbatan ishonchsizlik uyg'otish va jamoaparvarlik, ijtimoiy hamkorlik ruhini inkor etib, individualizm g'oyalarini sun'iy ravishda tiqishtirish kabi tahdidlar ham mavjuddir. Yuqorida ko'rsatib

o'tilgan tahdidlar eng avvalo, oddiy insonlar qalbi va ongini zabt etishga, ularni o'z milliy qadriyatlaridan, umumbashariy sivilizasiya yutuqlaridan mahrum qilishga, pirovard natijada mamlakatni o'ziga qaram qilib olishga qaratilgan ma'naviy tahdidlar bo'lib, bunday tahdidlarga qarshi kurashda milliy g'oya va milliy mafkura muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda yoshlarni yot va zararli g'oyalarning ta'siridan himoya qilishda milliy g'oyaning tutgan o'rni va ahamiyati oshib bormoqda.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Yoshlar tushunchasini tushuntirib bering?
2. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish yo'llari nimalardan iborat?
3. Yoshlarga xos xususiyatlarni shakllantirishda mafkuraning rolini aytib bering?
4. Yoshlarning salbiy g'oya ta'siriga tushib qolishining sabablarini tushuntirib bering?
5. Mafkuralarning jamiyatdagi ta'sirchan vositalari nimalardan iborat?
6. Yoshlarning immunitetini mustahkamlashda jamoat tashkilotlarining vazifalarini ko'rsating?
7. O'zbekistonda yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash shart-sharoitlari nimalardan iborat?
8. Yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini oshirishda kitob mutolaasining rolini ochib bering?
9. Yoshlarni yot va zararli g'oyalardan asrashda milliy g'oyaning zarurligi nimalardan iborat?

## **24-BOB: MILLIY G'OYANING MILLIY NEGIZLAR VA UMUMDEMOKRATIK PRINSIPLARGA ASOSLANISHI**

### **24.1. Milliy g'oyaning milliy-ma'naviy negizlari va umumdemokratik prinsiplari**

Milliy g'oya, uning milliy-ma'naviy negizlari va tamoyillariga odamlarda ishonch va e'tiqod qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat hayotida shunchalik samaradorlikka, har qanday jamoani uyushtirishga, ularda demokratik tafakkurni shakllantirishga erishiladi. Milliy g'oya, milliy mafkurani o'rganish jarayonida mafkuraviy, g'oyaviy va informasion xurujlarning salbiy mohiyatini ochib berish, ularga qarshi izchil kurash olib borish, jamiyatimiz a'zolarining mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarini ishlab chiqish yo'llari to'liqroq o'rganiladi. Milliy g'oya, milliy mafkurani odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish haqidagi bilimlar yanada mustahkamlanadi. Mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish, Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, mamlakatni yuksaltirish, yorug' va erkin hayot qurish, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy g'oyaning milliy-ma'naviy negizlari xalqimizning boy tarixiy ma'naviy merosiga tayanadi. Barchamiz, ayniqsa, bu yerda yig'ilgan ijodkor ziyolilarimiz, bizning qanday buyuk va shonli o'tmishimiz, qanday ulug' ajdodlarimiz borligini yaxshi bilamiz va bu bilan hamisha faxrlanamiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Misol uchun, bironta jangda yengilmagan buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temurni olamizmi, algebra faniga asos solgan Al-Xorazmiyni olamizmi, Kolumbdan 500 yil oldin Amerikani kashf etgan Beruniy bobomizni olamizmi, o'rta asrlarda tibbiyot fanining poydevorini yaratgan Ibn



Sinoni olamizmi, astronomiya sohasida beqiyos kashfiyotlar qilgan Mirzo Ulug'bekni olamizmi – jahon sivilizasiyasi va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan bunday ulug' ajdodlarimizning har biri haqida soatlab gapirishimiz mumkin<sup>1</sup>.

Milliy g'oyaning milliy-ma'naviy negizlari xalqimizning qadimiy va boy tarixiga tayanadi. Vatanimiz hududida tarixiy taraqqiyotimizda yaratilib, bugungi kunimizda ham yurtimizga ko'rk bag'ishlab turgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch qudrati, bunyodkorlik an'analari haqida, Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashayotgan har bir inson qalbida g'urur va iftihar tuyg'ularining uyg'onishi va mustahkamlanishiga yordam beradi. Xalqimizning boy tarixiy, ma'naviy merosi, xalq og'zaki ijodi namunalari, “Alpomish”, “Shashmaqom” kabi san'at durdonalari, Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Yetimxon, Darveshxon, Dukchi Eshon kabi vatanparvar milliy qahramonlarimizning ibratli hayoti va ko'rsatgan jasoratlari milliy g'oya va milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardir. Vatanimiz tarixida boy tarixiy ma'naviy merosimizni yaratgan donishmand ajdodlarimizning ozodlik to'g'risidagi g'oyalari, Xorazmiyning dunyoviy kashfiyotlari, Beruniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari, Forobiyning adolatli jamiyat to'g'risidagi fikrlari, Ibn Sinoning dualizm ta'limoti, Alisher Navoiyning komil inson haqidagi fikrlari, jadid-ma'rifatparvarlarning ozodlik, mustaqillik to'g'risidagi yondashuvlari milliy g'oya, milliy mafkuraning shakllanishiga va takomillashib borishiga o'zining ta'sirini ko'rsatgan. Milliy g'oya va mafkura ilmi kalom, ilmi hikmat, ilmi rivoyat, ilmi tavhid va aqida ilmi kabi diniy va dunyoviy ilmlarga, ta'limotlarga ham bevosita tayanadi.

Milliy g'oyadagi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalari xalqimizning tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda takomillashib boradi. Ma'naviy merosimizdagi Ahmad Yassaviyning hikmatlari

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 191-бет.

odamlarni axloqiy, ma'naviy komillikka da'vat etsa, Bahouddin Naqshbandning "Dil ba yoru, dast ba kor" shiori mehnatsevarlikka chorlaydi. Najmiddin Kubroning "yo Vatan, yo sharofatli o'lim" shiori esa o'zida vatanparvarlikning yuksak namunasini namoyon etadi. Sohibqiron Amir Temurning "kuch adolatdadir" shiori esa siyosiy mukammallik va ijtimoiy adolatni o'zida ifodalaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda boy tarixiy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni chuqur o'rganish asosida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda boy tarixiy ma'naviy merosimiz bilan nafaqat faxrlanish, balki buyuk mutafakkirlarimizga munosib voris bo'lib, ularning ishini davom ettirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini ko'tarish masalasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Milliy g'oyaning milliy-ma'naviy negizlari bilan umumdemokratik tamoyillari ham mavjud bo'lib, mustaqil O'zbekistonda demokratiya jahon demokratiyasi, Sharqning insonparvarlik hamda xalqchilik an'analari, xalqimizning tarixiy tajribasi va ijtimoiy adolat to'g'risidagi ta'limotlari asosida rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining birdan bir manbai xalq bo'lib, davlat xalqning irodasini ifodalaydi va uning manfaatlariga xizmat qiladi. Milliy g'oya va mafkura tayanadigan umumdemokratik, umumbashariy tamoyillarga qonun ustuvorligi, inson haq-huquqlari va hurfiylik, turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik, boshqa xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabilar taalluqlidir. Demokratik tamoyillar – huquqiy demokratik jamiyat asosini belgilaydigan demokratik qonun-qoidalar majmuasi bo'lib, barcha fuqarolarning qonun oldidagi tengligi va xalqning hokimiyat manbai bo'lib xizmat qilishi demokratik tamoyillar asosini tashkil qiladi. Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi, qarorlarning ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinishi, ozchilikning ko'pchilik irodasiga bo'ysunishi, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquq va erkinliklarini amalga oshirish ham demokratiyaning muhim tamoyillaridir.

Milliy g'oya xalqimizning o'zligini anglashiga, o'zining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini yo'qotmasdan, ularni tiklab, avaylab, e'zozlab, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Milliy g'oya va milliy mafkura xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanadi. Shu bilan birga milliy g'oya va milliy mafkura zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlanadi, ularga tayangan holda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Umuminsoniy demokratik qadriyatlarga tayangan milliy g'oya jamiyatdagi umumiy manfaatlarni o'zida ifodalaydi.

## **24.2. “Demokratik taraqqiyot” tushunchasi, uning ma’no-mazmuni, jamiyat g’oyaviy mafkuraviy asoslarining demokratik taraqqiyot bilan bog’liqligi**

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etish va bu jarayonda milliy g'oya, mafkura va ma'naviyatning muhimligi masalasi bugungi kundagi dolzarb masaladir. Milliy-ma'naviy negizlarga tayanib, demokratik jamiyatni barpo etishda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va uning uzluksizligini ta'minlashga katta e'tibor beriladi. Turli millatlar, diniy tashkilotlar, siyosiy partiyalar, davlat va jamoat tashkilotlarining hamjihatligi masalasiga ham e'tibor kuchaytiriladi. Demokratiya mohiyatan insonning har tomonlama kamol topishi uchun berilgan imkoniyat, shaxs bilan jamiyat manfaatlaridagi uyg'unlikni ta'minlovchi omildir. Ayni paytda demokratiya qabul qilingan qonunlar, amaldagi tartib-qoidalar yordamida shaxs hayoti va faoliyatini tartibga soluvchi mexanizm hamdir. Demokratiya asosida qiziqish, intilish va manfaatlarni mutanosiblashtirish, muvofiqlashtirish, murosaga keltirish va kelishish siyosati yotadi. Demokratiya jamiyatdagi kuchlarni birlashtirishga, mamlakat salohiyatini taraqqiyot uchun safarbar qilishga xizmat qilib, milliy g'oya ushbu holatda jamiyatdagi barcha millatlarni, xalqni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi ulug'vor fikrni o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya xalqning o'zligini, milliy g'ururi, oriyati va sha'nini anglashiga, tarixiy xotirasining uyg'onishiga olib kelib, demokratik taraqqiyot sharoitida u xalqning azaliy intilishlari, ezgu niyatlari, maqsadlari, manfaat va

ehtiyojlari, orzu va ideallari, hayotiy tajribalari, bilim va malakalarini o'zida mujassam etadi. Demokratik taraqqiyot sharoitida milliy g'oyaning ommaga ta'sir etuvchi kuchi uning uyushtiruvchilik, uyg'otuvchilik, yetaklovchilik va ilxomlantiruvchilik xususiyatlaridadir. Milliy g'oya shu jihatdan xalqning o'tmishini kelajak bilan bog'laydi, uni ezgu maqsadlar yo'lida birlashtiradi va safarbar etadi. Demokratlashtirish jarayoni davlatni boshqarish sohasidagi vazifalarning davlat zimmasidan jamiyat zimmasiga o'tib borishini, bu jarayonda milliy g'oya asosida manfaatlar umumiyligiga ega bo'lgan xalq vakillarining faol ishtirok etishini o'zida ifodalaydi. Davlat hokimiyatining mustaqilligi xalqimizning siyosiy va ma'naviy yetukligi, milliy g'oya asosida uyushganligi bilan belgilanadi. Xalqning siyosiy va ma'naviy yetukligi uning davlat qurilishidagi faol ishtirokida ko'rinadi. Siyosiy madaniyat fuqarolarning ham, davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining ham qonunga birdek itoat etishidan boshlanib, demokratik taraqqiyot sharoitida fuqarolarning o'z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirishlari talab etiladi. Demokratlashtirish jarayoni jamiyatdagi turli ijtimoiy gurux va qatlamlarning ehtiyoj va manfaatlarini o'zida ifodalab, milliy g'oya asosida ularning umumiy maqsad va manfaatlarini o'zida ifodalaydi. Jamiyatdagi demokratlashuv jarayonida teng huquqlilik, erkin demokratik saylovlar, hurfikrlilik, siyosiy plyuralizm, ko'ppartiyaviylikning mavjudligiga, fikrlar va mafkuralar xilma-xilligi masalasiga e'tibor qaratiladi. Demokratik jamiyat sharoitida ko'ppartiyaviylik turli manfaatlar, xilma-xil kuchlar o'rtasidagi muvozanatni vujudga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatdagi turli manfaatlar, kuch va harakatlar muvozanatini ta'minlaydigan muhim ma'naviy omil milliy g'oya bo'lib, bugungi kunda O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. Bugungi kunda demokratiya ma'naviy mezonlar asosida boshqariladigan kuchli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatidan iborat bo'lib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati demokratiyaning o'zaro bir biri bilan bog'liq bo'lgan ikki tomonini o'zida ifodalaydi. Xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, bilim va malakasi, salohiyati, umummadaniy darajasi qanchalik baland bo'lsa, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni shunchalik tezroq amalga oshadi. Ijtimoiy taraqqiyotda demokratiya bu eng avvalo erkin yashash va erkin faoliyat olib borish, fikr bildirish, o'z irodasini

ifodalash, haq-huquqlaridan bemaol foydalanish va jamiyat ishlarida faol qatnashish jarayonidan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi bunga to'la kafolat beradi va har bir fuqaroning huquqini himoya qiladi. Demokratiya har bir insondan yuksak ma'naviyat egasi bo'lish hamda mas'uliyat va jamiyat oldidagi burchni his qilishni ham talab etadi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha oldimizda ulkan va muhim vazifalar turganini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Bu borada har qanday islohot konstitusiyaviy tamoyil va qoidalarga muvofiq tarzda amalga oshirilishi, qonun ustuvorligi bosh mezon bo'lishi zarur. Bizning maqsadimiz – xalq hokimiyatini so'zda emas, amalda ta'minlashdan iborat. Bu – biz yashayotgan bugungi murakkab davrning asosiy talabidir<sup>1</sup>.

Demokratiya erkin fuqarolik jamiyati ekan, unda ochiq muloqotlar, qonun asosidagi munosabatlar qat'iy asosga qo'yilib, u oshkoralikni yuzaga keltiradi va qonun asosida ijtimoiy adolat tiklanishiga erishiladi. Demokratik jamiyatda inson huquqini ta'minlash va himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratiya sharoitida hokimiyat jamiyat nazorati ostida bo'lib, saylash va saylanish mexanizmi amal qiladi, davlat rahbarlarining hisob berib turishi, matbuot erkinligi, jamoat tashkilotlarining faol ish olib borishi uchun imkoniyat ta'minlanadi. Milliy g'oya har bir shaxs va butun jamiyatga tegishli g'oya bo'lib, u fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslanadi va butun jamiyatga xizmat qiluvchi jamiyat mafkurasi vazifasini bajaradi. Milliy g'oyaning negizida vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'usi yotib, milliy mafkuraning bosh g'oyasi – “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” g'oyasida mustaqillikning abadiyligi, demokratik erkinliklar, Vatan ravnaqi, har bir fuqaro hayotining faollashuvi kabi fikr va g'oyalar o'z ifodasini topadi. Demokratik taraqqiyot sharoitida milliy g'oya asosida fuqarolarga bunyodkorlik, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'ulari singdiriladi.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 30-бет.

### **24.3. Milliy g'oya – O'zbekiston demokratik taraqqiyotining g'oyaviy–mafkuraviy asosi**

Milliy g'oya, erkin fuqarolik jamiyati va demokratiya o'zaro bir-biri bilan bog'liq tushunchalardir. Milliy g'oya O'zbekistonni taraqqiyotga va mamlakat fuqarolarini chinakam hamjihatlikka, ma'rifatga olib boradigan insonparvar va taraqqiyparvar g'oyadir. Har qanday jamiyat va mamlakat o'zining demokratik taraqqiyoti jarayonida inson va uning manfaatlarini tan oladi va huquqiy jihatdan ularni tasdiqlashga intiladi. O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik, huquqiy davlat, eng avvalo jahon sivilizasiyasi, boshqa xalqlar ijobiy va ijodiy tajribalari, umuminsoniy qadriyatlarni inobatga olgan holda, adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik bilan sug'orilgan Sharq falsafasi va islom dini ta'limotlariga, milliy davlatchilik an'analariga asoslanadi. O'zbekistondagi demokratik jarayonlar "Sharqona demokratiya" tamoyillariga asoslanib, "Sharq demokratiyasi" tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi. O'zbekistondagi demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilish, qonunga itoat etish kabi fazilatlari asosida rivojlanib boradi. O'zbekistonda barpo etilayotgan davlat va jamiyatning asosini insonparvarlik tashkil etib, qurilayotgan demokratik, adolatli, insonparvar jamiyatning asosiy vazifasi milliy g'oyaga asoslangan holda odamlarning o'z qobiliyatlari va ehtiyojlarini to'la namoyon qilishlari va ro'yobga chiqarishlari uchun zarur bo'lgan sharoit va imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmni yaratib berishdan iboratdir. O'zbekistonda jamiyat va davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri, ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'orifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazishdan iboratdir. Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy etadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, xalqimizning milliy mentalitetiga, tarixiy an'analari, urf-odatlarini, milliy ruhiyati, ongi va turmush tarziga asoslanadi. Demokratik jamiyat qurish uchun mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlar adolatli bo'lishi, o'zida xalq manfaatlarini ifoda etishi lozimdir. Bunday qonunlarga og'ishmay itoat etilsagina, jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi. Demokratiyaning

vazifasi – fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan jamiyatni qurishdan iboratdir. Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi mezonlar – xalqning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligi, hukumat qarorlarining xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi va oddiy fuqarolarning davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishi bilan bog'liqdir. Huquqiy demokratik davlatda - fuqarolarning huquqlari qonun bilan kafolatlanadi, davlat organlari va mansabdor shaxslar qonunga itoat etadi va shaxs erkinligining qonun asosida kafolatlanishi va himoyalaniishi amalga oshiriladi.

Milliy g'oya jamiyatni tashkil qilgan shaxslar, individlar va ijtimoiy guruxlarning siyosiy partiyalarga mansubligidan, qaysi dinlarga e'tiqod qilishidan, millati va irqidan, ijtimoiy maqsadidan qat'iy nazar, ularning manfaatlarini integrasiyalashtiruvchi hamda universallashtiruvchi ijtimoiy faoliyat omili bo'lib hisoblanadi. O'zini O'zbekiston fuqarosi deb bilgan har bir insonni umumiy Vatan tuyg'usi, xalq farovonligi, erkin va farovon hayot qurish, millatlararo totuvlik bilan uzviy bog'liq bo'lgan milliy g'oya birlashtiradi. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish, siyosiy sohani erkinlashtirish, uning qonuniy-huquqiy asoslarini va turmushga tatbiq etishning mukammal mexanizmlarini yaratish milliy g'oyaga bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatda g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarni erkinlashtirishning muhim demokratik tamoyillaridan biri fikrlar va mafkuralar xilma-xilligini ta'minlashdir. Demokratik jamiyatda fikr, so'z, matbuot va e'tiqod erkinligi uchun shart-sharoit hamda imkoniyatlar yaratiladi. Hozirgi davrda ma'naviy-madaniy sohani erkinlashtirishning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari va tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu omil demokratik huquqiy davlatning tub siyosiy maqsadlarini ifodalaydi. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etish jarayonida milliy g'oya milliy ma'naviyatimizga tayanib, xalqimizning ma'naviy merosidan ozuqa oladi, milliy o'ziga xosligini saqlab turishga, milliy manfaatlarni amalga oshirishga va milliy taraqqiyot yo'llarini belgilashga xizmat qiladi. Milliy g'oya bir tomondan, demokratiya sharoitida O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlarini, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odati va an'alarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko'maklashishni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan,

O'zbekistonning tashqi siyosatida barcha davlatlar bilan teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tinchlik va xavfsizlikni asrab-avaylash, xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligi kabi tamoyillarga amal qiladi. Millatning tub manfaatlari, uning o'z o'tmishiga bergan bahosi va kelajakka ishonchi milliy g'oyada o'z aksini topib, yuksak ma'naviyatga, pokiza axloqqa, demokratiya tamoyillariga tayangan milliy g'oya jamiyatni rivojlanishga yetaklaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat<sup>1</sup>. O'zbekistonda "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyatga o'tish" qoidasi asosida demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslari barpo etilmoqda.

#### **24.4. Milliy g'oya tamoyillarining milliy va umumdemokratik xarakteri**

G'oya va mafkuralar muayyan xalq va jamiyat hayotidagi o'ziga xos o'rni hamda ahamiyati bilan farqlanib, bu farq uning milliylik, xalqparvarlik, bunyodkorlik kabi xususiyatlari bilan belgilanadi. O'zbekistonning milliy g'oyasi xalqaro huquq qoidalariga, umuminsoniy qadriyatlarga, davlatimiz Konstitusiyasiga, milliy madaniyatimiz va urf-odatlarimizga, vijdon erkinligi, insonparvarlik, fikrlar xilma-xilligi kabi demokratik tamoyillarga tayanadi. Milliy g'oyaning asosiy tamoyillari deb, uning shakllanish xususiyatlari va amal qilish usullarining imkoniyatlari va yo'llarini belgilab beradigan yo'nalishlarga aytiladi. Tamoyil biror bir ta'limot, dunyoqarash yoki faoliyatning qat'iy amal qiladigan qoidasi va me'yorini anglatuvchi tushunchadir. Milliy g'oyaning tamoyillari o'zaro

---

Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 244-бет.



uzviy aloqadorlikda bo'lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, qonun ustuvorligi kabi talablarni ham nazarda tutadi.

Milliy g'oyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

- milliy g'oyaning milliy ong, milliy tafakkur va milliy o'zlikni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- milliy g'oyaning millatni birlashtirishga qaratilganligi;
- milliy g'oyaning millat manfaatini ifodalashi;
- milliy g'oyaning ilg'or milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarning mustahkamlanishi va rivojlanishiga asos bo'lishi;
- milliy g'oyaning milliy g'urur, iftixor va mas'uliyatning shakllanishi va mustahkamlanishiga zamin bo'lishi;
- milliy g'oya ko'pmillatli mamlakatimiz aholisida "O'zbekiston – yagona Vatan" degan tushunchaning shakllanishiga yordam beradi;
- milliy g'oya mamlakatimizda milliy meros, tarixiy xotirani asrash, o'zlashtirish va keyingi avlodga yetkazishning ma'naviy-ruhiy manbasi bo'lib hisoblanadi;
- milliy g'oya yoshlarimizda Vatanparvarlik, millatparvarlik, xalqparvarlik va umuminsoniylikka tayangan holatda ma'naviy, ruhiy salohiyatni shakllantirishga yordam beradi;
- milliy g'oya o'zida millatimizning mustaqil sub'yekt sifatidagi maqomini aks ettiradi;
- milliy g'oya millatimizning ozodligi, mustaqilligi va taraqqiyotiga ma'naviy-ruhiy tayanch bo'ladi.

Milliy g'oya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi, davlatimizning hududiy yaxlitligi va sarhaddari daxlsizligini ta'minlashga yordam beradi hamda qonun ustuvorligini ta'minlaydi. Milliy g'oya demokratiya va o'z-o'zini boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallashiga asoslanadi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanadi. Milliy g'oya xalqaro huquq qoidalariga mos keladi hamda iqtisodiy plyuralizm va xilma-xil mulkchilikning erkin shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy g'oya davlatning bosh islohotchi ekanligiga va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanganligiga tayanib, vijdon erkinligi va fikrlar xilma-xilligi muhitini

shakllantirishga yordam beradi. Milliy g'oya aholining ijtimoiy himoyalanganligi, jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligi jarayonlariga xizmat qiladi.

Milliy g'oyaning qonunning ustuvorligi tamoyili milliy g'oyaning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Davlat jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Milliy g'oyaning inson huquqlari erkinliklari va hurfiylik tamoyili milliy g'oyaning ijtimoiy mohiyatini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarida fuqarolarning huquqlari va burchlari to'liq o'z ifodasini topgan. Milliy g'oyaning tamoyillari ana shu huquqiy asosga tayangan holda amalga oshiriladi. Milliy g'oyaning fikrlar xilma-xilligini qaror toptirish tamoyili – demokratik jamiyat barpo etishning asosiy shartidir.

Milliy g'oyaning fikrlar xilma-xilligini qaror toptirish tamoyili odamlarning xilma-xil fikrlari, turli-tuman qarashlarining umumiy maqsad asosida uyg'unlashuvini ifodalaydi. Milliy g'oyaning asosiy tamoyillaridan yana biri – milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligidir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi tamoyili odamlarda O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonch-e'tiqodni mustahkamlashda, fuqarolarning siyosiy madaniyatini o'stirishda muhim ahamiyatga egadir. Milliy g'oyaning milliy qadriyatlarga sodiqlik tamoyili O'zbekistonning har bir fuqarosi o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazishi zarurligini o'zida ifodalaydi. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari o'z ona tilini, madaniyatini, urf-odatlarini asrash va rivojlantirish imkoniyatiga ega. Milliy g'oyaning milliy qadriyatlarga sodiqlik tamoyili tarixiy meros va madaniy boyliklarni, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o'rganishni o'zida ifodalaydi. Milliy g'oya tayanadigan milliy asosdagi yana bir tamoyil xalqimizga xos bo'lgan jamoaviylikdir. Jamoaviylik an'anasi jamiyatimizning muhim xususiyati, ijtimoiy hamkorlik va hamjihatlikning negizi bo'lib hisoblanadi. Milliy g'oyaning umuminsoniy, umumbashariy tamoyillariga quyidagilar taalluqlidir:

-milliy cheklanganlik, agressiv millatchilik va shovinizmdan xoli bo'lish;

- urush olovini yoqish, o'zga millatlarlarga zulm o'tkazishdan xoli bo'lish, mamlakatlararo beqarorlikni vujudga keltirish vositasiga aylanmaslik;
- adolat, tenglik, tinchlik, bunyodkorlik va demokratiya g'oyalarini o'zida ifoda ettirish;
- jahon xalqlari yaratgan sivilizasiya yutuqlarini asrash va keyingi avlodga yetkazishda ma'naviy-ruhiy omil bo'lish;
- insoniyatga xavf solayotgan global muammolarning tahdidini keng tashviqot qilish va unga qarshi kurashda jahon xalqlari birligini vujudga keltirishga xizmat qilish;
- diniy bag'rikenglik g'oyalarini o'zida ifodalash;
- inson haq-huquqlari, shaxs erkinligi va hur fikrlilikni himoya qilish;
- qonun ustuvorligini, millatlararo hamjihatlikni va siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va mustahkamlashga asos bo'lish;
- har bir millatning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini hurmat qilish, ilg'or tajribalarini o'rganish va o'z millati erishgan yutuqlarini ularga yetkazish;
- vayronkor va turli g'arazli g'oyalarga qarshi kurash va bunyodkor g'oyalar rivojlanishining omili bo'lish kabilardir. Ular o'z mazmun va mohiyati jihatdan har bir milliy g'oya uchun xos bo'lgan umuminsoniy tamoyillardir<sup>1</sup>.

#### **24.5. Demokratik taraqqiyotda turli xil g'oyalar va mafkuralar, siyosiy institutlar xilma-xilligining ahamiyati**

O'zbekistonda mustaqillik yillarida mustaqil davlat tashkil etishning barcha siyosiy va huquqiy zaminlari yaratildi. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida avvalboshdanoq asosiy ustuvor yo'nalishlarga aylangan masalalar – tinchlik va barqarorlikni saqlash, millatlararo hamjihatlikni asrash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, iqtisodiyotni tubdan isloh etish, milliy armiyani shakllantirish, sud-huquq tizimini yangi asosda barpo etish, inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy xayotni erkinlashtirish, aholi salomatligi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport

---

<sup>1</sup> Миллий истиқлол ғояси. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалаврият босқичи учун дарслик. –Т.: Академия, 2005. 223-бет.

jabhalariga e'tibor qaratish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash kabi masalalarga e'tibor qaratildi.

Milliy g'oyaning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u fikrlar va g'oyalar xilma-xilligiga asoslanadi. Erkinlik, xususan, fikr erkinligi va xilma-xilligi tamoyillariga amal qilish milliy g'oya uchun muhim ahamiyatga egadir. Fikr erkinligi va g'oyalar xilma-xilligiga asoslanish taraqqiyotni ta'minlab turuvchi va inson salohiyatini oshiruvchi muhim omildir.

O'zbekistonning milliy mustaqillikdan keyingi taraqqiyot yo'li aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Respublikaning yana bir xususiyati – aholi milliy tarkibining o'ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallab, shu bilan bir vaqtda, respublika hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi. O'zbekistonda bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakkahokimligidan qat'iyan voz kechilib, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi tan olinadi. O'zbekistonda ma'naviylik va insonparvarlik, respublika hududida yashayotgan barcha xalqlarning an'analari va urf-odatlarini, dini, tili va madaniyatini hurmat qilish qoidalariga ustuvorlik berilmoqda. Mamlakatimizda chinakam demokratiyaning zaruriy va qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylik amalda shakllantirilmoqda. G'oya va mafkuralar xilma-xilligi ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruxlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini o'zida ifodalaydi. Inson va jamiyat hayotida g'oyalar va mafkuralar xilma-xilligining namoyon bo'lishi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojga bevosita bog'liq bo'lib, jamiyat hayotida turli ijtimoiy gurux, qatlam, siyosiy partiyalarning maqsad-muddaolari, orzu-istaklari, manfaatlari bir-biridan farqlanishi mumkin. Jamiyatda fikrlar va g'oyalar bir-biridan farq qilib, o'z mohiyatiga, oldiga qo'ygan maqsadi va qaysi ijtimoiy guruhlarning manfaatiga xizmat qilishiga qarab, bu fikrlar va g'oyalar bir-biridan farqli xususiyatga egadir. Dunyodagi xalqlar, millatlar, mamlakatlar va davlatlar ham bir-biridan farqlanadi hamda ularning diniy e'tiqodi, milliy madaniyati, milliy mentaliteti, maqsadlari va taraqqiyot yo'llari turli mafkuralarga asoslanadi. Jamiyat hayotida mafkura

muayyan bir ijtimoiy guruhning, millatning, xalqning, jamiyatning manfaatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi qarashlar va g'oyalar tizimini o'zida ifodalab, bu tizim o'zining falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va badiiy negizlariga egadir. Mamlakatda ilg'or g'oyalar va mafkuralar qancha ko'p bo'lib, jamiyatning ma'naviy hayotida mafkuraviy plyuralizm hukmron bo'lsa, taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyatlar ham shunchalik keng bo'ladi.

Mustaqil O'zbekistonda mafkuraviy plyuralizm, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. G'oya va mafkuralar xilma-xilligi mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimiga ham sharoit yaratmoqda. Siyosiy partiyalar esa o'zlari mansub bo'lgan qatlamlar, siyosiy guruhlarining manfaatlarini, intilishlari, orzu-umidlarini umumlashtirgan holda o'zlarining harakat dasturlarini ishlab chiqadilar. Jamiyatdagi ezgu g'oyalar barcha davrlarda insonni yuksak orzular bilan yashashga, olijanob maqsadlar yo'lida e'tiqod bilan kurashishga o'rgatadi. Ezgu va yuksak g'oyalar odamlarni hamisha olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlarga xizmat qiladi. Bunyodkor g'oyalar bilan qurollangan kishilar farovon hayot va erkin jamiyat qurish uchun kurash olib boradilar. Milliy mafkura turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan ijtimoiy hodisadir. Milliy mafkurada biron-bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi. Milliy mafkura O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qilib, barcha siyosiy partiyalar, millat va qavmlar, guruh va qatlamlarning umumiy manfaatlarini o'zida ifodalaydi. Milliy mafkura millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbai bo'lishi, so'z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olishi, O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taalluqli bo'lishi zarurdir. Mafkurada ifoda etilgan g'oya va maqsad jamiyatdagi ko'plab partiyalar, ijtimoiy harakat va tashkilotlarning faoliyat dasturiga asos bo'lib, ijtimoiy rivojlanishga kuchli turtki beradi. Jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar mafkura asosida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o'z munosabatlarini belgilaydilar. Mafkura keng xalq ommasini ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlab, ularda kelajakka ishonch tuyg'ularini shakllantiradi. Mafkura jamiyatda ijtimoiy-siyosiy harakatning o'ziga xos dasturilamali bo'lib xizmat qiladi. Milliy

mafkura jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarning umumiy harakat dasturi, ularni faollikka da'vat etuvchi ijtimoiy omildir.

Milliy mafkura O'zbekiston zaminida istiqomat qilayotgan barcha kishilarni millati, dini, tili, kasb-kori, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar yagona maqsad yo'lida birlashtirishni, butun xalq irodasini murakkab ijtimoiy muammolarni oqilona hal etish uchun yo'naltirishni, kishilarda yorqin va baxtli kelajakka ishonch ruhini tarbiyalashni, milliy mustaqilligimizga jiddiy xavf solayotgan mafkuraviy tahdidlarga zarba bera oladigan mard, jasur va vatanparvar avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi. Milliy mafkura kishilar ongiga singdirilishi bilan ularda Vatan taqdiri uchun mas'ullik, yagona Vatan tuyg'usi shakllanib, milliy mafkura o'zida butun bir xalqning hayotiy manfaat va intilishlarini aks ettiradi. Jamiyat hayotida demokratik qadriyatlarning keng rivojlanishi qarashlar xilma-xilligi va fikrlar turli-tumanligi ya'ni plyuralizmning qaror topishiga olib keladi. Milliy mafkura jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar manfaatlarini aks ettirib, jamiyat hayotiga tahdid soladigan ijtimoiy illatlarga qarshi kurashishni taqozo etadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Milliy g'oyaning milliy-ma'naviy negizlari nimalardan iborat?
2. Milliy g'oyaning umumdemokratik prinsiplarini tushuntirib bering?
3. "Demokratik taraqqiyot" tushunchasining mohiyatini aytib bering?
4. "Demokratik taraqqiyot"ning jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy asoslari qanday rivojlanadi?
5. Milliy g'oya – O'zbekistonda demokratik taraqqiyot uchun qanday g'oyaviy–mafkuraviy asos bo'ladi?
6. Milliy g'oya tamoyillarining milliy xarakteri qanday shakllanadi?
7. Milliy g'oya tamoyillarining umumdemokratik xarakterini ochib bering?
8. Turli xil g'oyalar va mafkuralarning demokratik taraqqiyotga ta'sirini aytib bering?
9. Demokratik taraqqiyotda siyosiy institutlarning xilma-xilligini ochib bering?

## **25-BOB: O'ZBEKISTONNING XALQARO MAVQEINI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY G'OYANING O'RNI**

### **25.1. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga to'laqonli a'zo bo'lishi – istiqlolning sharofati**

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallash uchun harakat qilmoqda. O'zbekistonning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan xorijiy davlatlarning O'zbekiston bilan siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yishi tarixiy ahamiyat kasb etdi. Yurtimizning ozod yurtga aylanganligini birinchilar qatorida Turkiya davlati tan olib, biz bilan ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Shuningdek, jahondagi ko'plab davlatlar birin-ketin O'zbekiston mustaqilligini tan olib, xalqaro va siyosiy munosabatlarni yo'lga qo'yishdi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq, milliy manfaatlarni muhofaza qilish, ularni umuminsoniy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash masalasi davlat siyosati markaziga qo'yildi. Mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining avval "O'zbek modeli", hozirgi davrda "Harakatlar strategiyasi" asosida davlatchilik asoslari barpo etilib, O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan Milliy xavfsizlik Konsepsiyasi va barqaror taraqqiyot strategiyasi: Konstitutsiya, qonunlar va boshqa xalqaro Deklarasiyalar, konvensiyalar va shartnoma talablariga, dunyo davlatlari qonunchilik tajribalariga, umuminsoniy demokratik-gumanistik tamoyillarga, manfaatlarga mosligi bilan jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Masalan, BMTning mamlakatimizdagi doimiy muvofiqlashtiruvchisi Stefan Prisner: "BMTning O'zbekistondagi tuzilmalari mamlakatingizning yangi taraqqiyot dasturini to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Harakatlar strategiyasida belgilangan chora-tadbirlar

O'zbekistonning bugungi rivojlanish bosqichida juda dolzarb sanaladi. Unda ma'muriy, sud-huquq, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy sohani rivojlantirish, shuningdek, yaqin qo'shnichilik, do'stlik va millatlararo bag'rikenglik ruhida tashqi siyosat olib borish ko'zda tutilgan, deb hisoblaydi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan ko'plab vazifalar BMTning 2016-2020 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyotga ko'maklashuvchi doiraviy dasturiga muvofiq bo'lib, BMT tasarrufidagi YuNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Krista Pikkat, BMT Aholishunoslik jamg'armasining yurtimizdagi vakolatxonasi rahbari Miyeko Yabuta, BMT Bolalar jamg'armasi (YuNISEF)ning mamlakatimizdagi vakolatxonasi rahbari Sasha Graumannlar mamlakatimizda turli manfaatlarni uyg'unlashtirishga doir islohot natijalariga yuqori baho berishdi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligi doktrinasining asosiy vazifasi ham milliy manfaatlarni himoya qilishga yo'naltirilgan siyosatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Unda davlatning xalqaro hamjamiyatdagi rolini oshirishga qaratilgan ijtimoiy, milliy, iqtisodiy, harbiy, huquqiy yo'nalishlar aks etgan.

Mustaqillik yillarida respublikada qabul qilingan qonunlarning barchasi, istisnosiz, bevosita yoki bilvosita xalqaro hamjamiyatda milliy manfaatlar ustuvorligi, fuqarolarning xalqaro miqyosda himoya qilinishi, Konstitusion qonunlarga va ma'naviy-axloqiy tamoyillarga asoslangan. Ya'ni, Konstitusiya "shaxs-jamiyat-davlat" tizimi manfaatlari himoyasiga va ularni uyg'unlashtirishga oid eng asosiy qomusiy hujjat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 13-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitusiya va qonunlar bilan himoya qilinadi", deb qayd etilgan.

Davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'yekti sifatidagi o'рни va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan



islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish ayni vazifalarimiz negizidir. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish doimo davlatning asosiy vazifasi qilib belgilangan. Davlat chegarasini delimitasiya va demarkasiya qilish masalalarini hal etish kabi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarini barqarorlashtiruvchi dolzarb masalalar xalqaro hamjamiyatdagi nufuzimizni yanada oshiradi. Bugungi kunda O'zbekistonning olib borayotgan tashqi siyosati asosini davlat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi dahlsizligi, milliy manfaatlar ustuvorligi, umuminsoniy qadriyatlar, tinchlik va xavfsizlik, o'zaro hurmat kabi tamoyillar tashkil etadi.

Biz tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni avvalo xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshiramiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Bu siyosatning asosini tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish tashkil etadi. Biz bundan buyon ham uzoq-yaqindagi barcha xorijiy mamlakatlar, jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorligimizni davom ettiramiz. Bu borada ochiq, do'stona va pragmatik siyosat olib borish tamoyiliga sodiq qolamiz<sup>1</sup>.

Bugungi kunda O'zbekiston olib borayotgan tinch qo'shniçilik, ijtimoiy hamkorlik siyosati jahondagi 180 dan ortiq davlat tomonidan tan olinib, umume'tirof etilmoqda. O'zbekiston tinchlikparvar siyosatining asl negizi qonunlarimizda belgilab qo'yilgan bo'lib, asosiy qonunimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17 – moddasida, -O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'yektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi<sup>2</sup>, - deyilgan.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2017. 128-бет.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 8-бет.

Mamlakatimizdagi ijobiy o'zgarishlar dunyo hamjamiyatida O'zbekistonga bo'lgan qiziqishni oshirib, uning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda<sup>1</sup>, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

## **25.2. Davlat mustaqilligining BMT tomonidan tan olinishi**

XX asrda insoniyatni bir maqsad sari birlashtirish, turli adovatlarning oldini olish uchun yangi tashkilot tashkil topdi. Bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), ya'ni barcha davlatlarning mustaqilligini tan oluvchi xalqaro tashkilotdir. Bu tashkilot 1945 yilning 24 oktyabrida tashkil topgan. Ayni paytda BMTga a'zo bo'lgan mamlakatlarning soni 193 tadir. Bu yirik tashkilotga 2017 yil 1 yanvardan boshlab Portugaliyalik Antoniu Gutterish Bosh kotib lavozimida ishlab kelmoqda.

O'zbekiston ushbu nufuzli tashkilotga 1992 yil 2 mart kuni a'zo bo'lgan. O'tgan davr mobaynida davlatimizning nomi jahonda mustahkamlanib, o'zining mavqeyi va obro'sini oshirdi. Birinchi Prezidentimiz shu tashkilot orqali mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik, barqarorlik, millatlar va dinlararo bag'rikenglikni ta'minladi. Ayniqsa, mintaqaviy va xalqaro muammolarni doimo tinch yo'l bilan hal etishga intildi. Bu borada BMT hujjatlaridagi huquqiy me'yorlarga to'liq amal qilinib, jahonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Islom Karimov Markaziy Osiyoni yadrosiz hududga aylantirish bo'yicha jahon hamjamiyatining e'tiborini O'zbekistonga qaratdi. O'tgan davr oralig'ida Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan "6+2" muloqot guruhini yo'lga qo'ydi. Mintaqadagi vaziyatlardan kelib chiqqan holda, Orol muammosiga va uning oqibatlariga alohida munosabat bildirdi. Dunyoda keng avj olgan xalqaro terrorizm, odam savdosi, ekstremizm, qurol-yarog'larning noqonuniy savdosi va narkotik moddalarga qarshi kurashish bo'yicha o'zining bor kuchini ishga soldi.

O'zbekistonning BMT tomonidan tan olinishining muhim ko'rinishi 2017 yil iyun oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishning yurtimizga tashrifi bo'ldi. Bosh kotib Orol dengizi akvatoriyasida, Mo'ynoq

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 86-бет.

tumanidagi “Kemalar qabristoni”da bo’lib, hududda BMT tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

2017 yil 10-12 may kunlari BMT Inson huquqlari bo’yicha Oliy komissari boshqarmasi delegasiyasi Zayd Raad al-Husayn Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashib, O’zbekistonda qonunchilik sohasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Ular tashrif doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Oliy sud, Bosh prokuratura, Tashqi ishlar, Adliya, Ichki ishlar vazirliklari, Inson huquqlari Milliy markazi, Xotin-qizlar qo’mitasi rahbariyati, Ombudsman bilan uchrashuvlar o’tkazdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ishtirok etdi va nutq so’zladi. Bu tarixiy tashrif O’zbekiston bilan BMT o’rtasidagi xalqaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

BMT Bosh Assambleyasi sessiyasi insoniyatning kelajakda dolzarb muammolarni ilmiy va amaliy yechimini topish, millatlar va davlatlarga amaliy yordam berish masalalarini o’z ichiga oladi. Har bir mamlakatning g’oyalari va dasturlari muhokamaga qo’yiladi, mintaqalar va xalqlar uchun maqbul bo’lgan xulosalar beriladi.

Davlatimiz rahbarining O’zbekiston ichki va tashqi siyosati, jahon siyosiy maydonidagi roli, dunyoda tinchlik-osoyishtalikni ta’minlash, barcha millat va elatlarni birlashtirishdagi qarashlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari o’z fikrlarini uch yo’nalishdagi – O’zbekiston, Markaziy Osiyo mintaqasi va BMT darajasidagi muammolar asosida isbotlab berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O’zbekistonda islohotlar “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” tamoyilidan kelib chiqishi, 2017 yil yurtimizda Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili, deb nomlangani, barcha tuman va shaharlarda Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalarini tashkil etilib, odamlar davlat idoralari uchun emas, davlat idoralari odamlar uchun xizmat qilayotganligini ta’kidladi. Jamiyatning barcha sohalarida inson manfaatlariga xizmat qilish uchun Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilganligini butun dunyoga ma’lum qildi.

O’zbekistonning mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga intilishi, hududlarda

ekologik vaziyatning yaxshilanishi, Afg'onistondagi infratuzilmani va vaziyatni o'nglash, narkotik moddalarga qarshi kurashish borasida harakatlarni davom ettirishi aytib o'tildi. Insoniyat uchun tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda BMT xalqaro hujjatlari muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Prezident tomonidan Markaziy Osiyoda millatlararo totuvlik, o'zaro hamkorlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish masalalariga ham e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, mintaqadagi suv zahiralaridan barcha davlatlarning oqilona foydalanishi, Orol fojiasining salbiy oqibatlarini birgalikda bartaraf etishning zarurligi masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Shavkat Mirziyoyev butun dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro hamjamiyatdagi o'rnini oshirish bo'yicha fikr bildirdi. Bu tashkilotning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini qabul qilish va Bosh Assambleyaning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyasi bo'yicha taklif va tashabbusni o'rtaga tashladi. Bu takliflar sammit davomida barcha xorijiy ommaviy axborot vositalari uchun kun mavzusi bo'ldi. Sammit doirasida BMTga davlatimizning tuhfası – Registon maydoni aks etgan maket topshirilib, bu maketning topshirilishida ham o'ziga xos chuqur ma'no bor edi.

Bugungi kunda O'zbekistonning BMT bilan hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda.

2017 yil noyabr oyida Samarqandda BMT shafeligida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzuidagi xalqaro anjuman O'zbekistonning jahondagi nufuzi yanada oshishiga va mustahkamlanishiga xizmat qildi. Ushbu anjumanda O'zbekiston siyosatining yangi yo'li, qo'shni davlatlar bilan ko'p tomonlama hamkorlik va mintaqada yashovchi xalqlar manfaati uchun olib borilayotgan faoliyat masalalariga e'tibor qaratildi.

### **25.3. Yurtimizning xalqaro tashkilotlarga a'zoligi**

O'zbekiston chorak asrdan ortiqroq vaqt mobaynida o'zining jahondagi o'rniga ega bo'ldi. Bu vaqt oralig'ida xalqaro darajaga ega bo'lgan ko'plab tashkilotlarga a'zolik huquqini qo'lga kiritdi. Bugun O'zbekistonda BMTning Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha

tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, Bolalar jamg'armasi, Aholishunoslik jamg'armasi, Taraqqiyot dasturi, Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha boshqarma, OIV/OITS bo'yicha birlashgan dastur va boshqa tuzilmalarining vakolatxonalarini faoliyat yuritmoqda.

BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – YuNESKO bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ushbu tashkilot mamlakatimizdagi tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar, yozma va og'zaki xalq ijodiyoti, umuman, o'zbek xalqining boy tarixiy merosiga katta e'tibor bilan qaraydi. Tashkilot bilan o'zaro hamkorlikda har ikki yilda bir marotaba “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali o'tkaziladi. Yurtimizning Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Qo'qon, Termiz shaharlaridagi ko'plab obidalar YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 2014 yil may oyida Samarqandda “O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilgan edi.

BMT Aholishunoslik jamg'armasi – YuNFPA 1993 yildan boshlab yurtimizda aholining tibbiy salomatligini mustahkamlash, barcha yosh qatlamlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, turli yuqumli kasalliklar profilaktikasiga ko'maklashish singari ko'plab ishlarga amaliy yordam berib kelmoqda. BMTning Bolalar jamg'armasi – YuNISEF bilan hamkorlikda doimiy ravishda bolalar salomatligini ta'minlash, ularni doimiy emlash, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi reproduktiv salomatlik va maktablarda tibbiy madaniyatni oshirish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini milliy mentalitet asosida shakllantirishga qaratilgan ko'plab tadbirlar tashkil etilmoqda.

O'zbekistonda BMT Jahon sayyohlik tashkiloti – YuNVTO bilan hamkorlikda bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Samarqandda YuNVTONing Buyuk ipak yo'lidagi mintaqaviy markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Tashkilot bilan o'zaro hamkorlik doirasida xalqaro sayyohlik yarmarkalari, konferensiyalar va seminarlar tashkil etilmoqda. 2014 yil oktyabr oyida Samarqandda o'tkazilgan BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya

kengashining 99-sessiyasi mamlakat turizm industriyasi rivojida muhim qadam bo'ldi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti – FAOga O'zbekiston 2001 yilda a'zo bo'lgan. 2014 yil 6 iyunda Toshkentda tashkilotning vakolatxonasi ochilgan. Mamlakatimizda FAO bilan hamkorlikda xalqaro miqyosda suvni tejash va suv resurslarini boshqarish bo'yicha milliy kadrlar tayyorlanib, zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. O'zbekistonda yerga ishlov berish, qishloq xo'jaligidagi seleksiya va urug'chilik, ayrim viloyatlardagi cho'llanish va yer yemirilishiga qarshi kurashishning ilg'or uslublari amaliyotga qo'llanilmoqda.

Mamlakatimizda Orolbo'yini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan “Orol dengizi qurishining oqibatlarini bartaraf etish va Orolbo'yida ekotizimlar halokatining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi” BMT Bosh Assambleyasi 68-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida qabul qilingan. Shu asosda 2014 yil oktyabr oyida Urganch shahrida bo'lib o'tgan “Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish” mavzuidagi xalqaro konferensiya BMT tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Unda O'zbekiston va BMTning maqsadlari mushtarakligi, barcha sa'y-harakatlari hamohang ekanligi aks etdi.

O'zbekiston uchun Barqaror Rivojlanish maqsadlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, BMT tarixida birinchi marta umumqamrovli global maslahatlashuv jarayonida 2030 yilgacha rivojlanish bo'yicha yagona nuqtai nazar ishlab chiqildi. Ushbu kun tartibi BMT ning 193 ta a'zo davlatlari tomonidan tasdiqlandi va shu tarzda 2030 yilgacha dunyoga nisbatan umumiy nuqtai nazarni ifodalaydi. Rivojlanish bo'yicha milliy va xalqaro sheriklar bilan hamkorlik qilish asosida BMT O'zbekistonda uning Hukumatiga mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlash va barcha fuqarolar uchun munosib sog'lom turmush sharoitlarini yaratish maqsadlariga erishish yo'lida o'z yordamini ayamaydi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq

so'zlab, quyidagi fikrlarni bayon qilgan edi. Biz qat'iy ishonamiz, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rin tutadi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - O'zbekiston ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafdoridir. Biz Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz. Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi rahbariyati tomonidan tashkilotni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo'llab-quvvatlaymiz<sup>1</sup>.

Bugungi kunda BMTning mustaqil ixtisoslashtirilgan agentligi bo'lgan Jahon banki BMTning faoliyatida O'zbekistonda o'z vakolatxonalariga ega bo'lmagan holda yordam ko'rsatmoqda. Ular qatoridan BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi (YuNEP), BMT OIV/OITS bo'yicha birlashgan dasturi (YuNEYDS), Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) va "BMT-Ayollar" o'rin olgan.

O'zbekiston Xalqaro Mehnat Tashkilotiga 1992 yilda a'zo bo'lgan. Ayni paytda bu tashkilotning 14 konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. Keyingi yillarda O'zbekistonning XMT bilan aloqalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, 2014 yil 25 aprelda O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi, Kasaba Uyushmalar Federatsiyasi Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va XMT ning Moskva shahridagi byurosi boshlig'i o'rtasida hamjihatlik haqida Memorandum imzolandi.

Umuman olganda, O'zbekiston jahondagi xalqaro tashkilotlar bilan o'zining ko'p tomonlama shartnomalarini tuzgan bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa avvalo yurtimizda tinchlik, xavfsizlik, barqaror taraqqiyot, kuchli ijtimoiy siyosat va iqtisodiy farovonlikni ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston 1992-yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti – YeXHT ga a'zo bo'lib kirdi. 1994-yil sentyabr oyida Toshkentda YeXHTning xalqaro anjumani bo'lib o'tib, unda tashkilot faoliyatining barcha qirralariga oid masalalar ko'rib

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 247-бет.

chiqildi. YeXHT Toshkentda va Urganchda atrof muhitni qayta tiklash masalalari bo'yicha seminarlar o'tkazib, shu bilan birgalikda Orol muammosini hal qilishga ko'maklashmoqda.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, ya'ni NATONing "Tinchlik dasturi", Islom Konferensiyasi tashkiloti, qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. O'zbekiston qisqa bir davrda jahon hamjamiyatiga qo'shilib, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, jahondagi va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston 2001 yil iyun oyida Shanxay hamkorlik tashkiloti – ShHHT ga a'zo bo'ldi. Shanxay hamkorlik tashkiloti deb 2001 yildan nomlangan tashkilot "Shanxay forumi" yoki "Shanxay beshligi" sifatida 1996 yil Shanxayda, 1997 yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlarining sammitlarida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnomalar imzolanganidan so'ng tashkil topgan edi. 2001-yil iyunda bo'lgan sammit yakunida Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risida deklarasiya hamda terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasida Shanxay konvensiyasi imzolanib, O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotining asoschilaridan biri bo'ldi. Shanxay hamkorlik tashkiloti a'zo davlatlar orasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ta'lim, energetika, transport, ekologiya va boshqa sohalardagi samarali hamkorlikni rivojlantirish va rag'batlantirishni ko'zda tutadi. 2003 yil 29-may kuni Moskvada bo'lib o'tgan sammitda ShHHTning doimiy amal qiluvchi idoralari – Pekinda Kotibiyat va Toshkentda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) ijroiya qo'mitasini ishga tushirishga qaror qilindi. Bu tashkilotlar 2004-yil yanvardan boshlab ish boshladilar.

Markaziy Osiyoda barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash Tashkilotimizning asosiy maqsadlariga erishish, uning oldida turgan vazifalarni hal etishda muhim omillardan biridir, - degan edi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari kengaytirilgan tarkibdagi 2018 yil 10 iyunda Sindao shahrida bo'lib o'tgan majlisidagi nutqida, - Shu munosabat bilan mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit shakllanganini katta



mamnuniyat bilan ta'kidlamoqchiman. Biz qisqa vaqt ichida mintaqadagi o'tkir muammolar, jumladan, chegara, savdo, transport va suvdan foydalanish masalalarini amaliy hal qilish yo'lida ancha katta marralarga erishdik. Shu bilan birga, Afg'onistonda tinchlik o'rnatish, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti bo'lib qolmoqda<sup>1</sup>.

O'zbekiston tarixan qisqa vaqtda dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilib, nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

#### **25.4. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab olib borilgan tinchliksevar tashqi siyosat**

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab xalqaro hamjamiyatda tinchlikparvar tashqi siyosatini yo'lga qo'ydi. Xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda o'zaro ishonch va tenglik, manfaatdorlik ruhi shakllandi. Davlatimizning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik ko'lami yil sayin kengayib, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-madaniy va harbiy sohalarda namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda xorijiy sarmoyadorlarning faoliyat olib borishlari uchun yaratilgan sarmoyaviy muhit, ulkan imtiyoz va imkoniyatlarga ko'plab davlatlar ishbilarmonlarining qiziqishi kuchaymoqda. Ko'plab xorijiy qo'shma korxonalar bilan hamkorlikda yirik iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi yurtimizda tinchlikparvar tashqi siyosat amalga oshayotganligining tasdig'idir.

O'zbekiston jahonda xalqaro hamda mintaqaviy masalalarga oid tinchlikparvar tashqi siyosat asosida, avvalo, terrorizmga qarshi qat'iy turib, mintaqadagi barqarorlikni mustahkamlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'zbekistonning bugungi tinchliksevar tashqi siyosati va yuksak taraqqiyoti dunyo ahlining e'tiborini jalb etmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosat yo'lini belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy,

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 405-бет.

diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida kun tartibida turardi. Davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan ana shu vazifalarning bajarilishiga bog'liq edi. Mustaqillikdan keyin respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. Xalqaro huquq normalarining ichki qonunlardan ustunligi respublika qonunchilik faoliyatida o'z ifodasini topib, respublika qonunlari xalqaro huquq normalariga doimo muvofiqlashtirilmoqda va yaqinlashtirilmoqda. O'zbekistonning tashqi siyosatiga tinchlik, barqarorlik va hamkorlik yo'li asos qilib olinib, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillariga quyidagilar taalluqlidir:

- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
  - davlatlarning suveren tengligi va chegaralar dahlsizligini hurmat qilish;
  - boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
  - nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
  - kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
  - inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
  - ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustivorligi;
- Davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
  - davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
  - tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning turli mintaqalarda yuz berayotgan qarama-qarshilik, kelishmovchiliklar va to'qnashuvlarni siyosiy muzokaralar, tinchlik yo'li bilan hal etishga doir yondashuvlari diqqatga sazovor

bo'lib, Mamlakatimizda qabul qilingan Harakatlar strategiyasiga muvofiq, biz tashqi siyosat sohasida barcha uzoq va yaqin davlatlar, avvalo, qo'shni mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish siyosatini izchil davom ettiramiz. Biz O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro moliya institutlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda tuzilgan shartnoma va kelishuvlarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarish bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlarni ko'ramiz<sup>1</sup>.

Samarqand shahrida har ikki yilda o'tkaziladigan, o'ziga xosligi va betakrorligi bilan jahonga do'vruq taratgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali ham O'zbekistonning yaxshi an'anaga aylangan tinchlikparvar tashqi siyosati uchun yorqin misol bo'la oladi. 1997-yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida" qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturulamal bo'lib xizmat qildi. 1997-yil 25-avgust – 2-sentyabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan "Sharq taronalari" birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 31 ta mamlakatidan ijrochilar, san'atkorlar, jamoat arboblari ishtirok etdilar, festivalda yangragan o'zbek ohanglari, kuy-qo'shiqlari jahon uzra aks-sado berdi. Har ikki yilda Samarqandda "Sharq taronalari" Xalqaro festivalini o'tkazish an'anaga aylanib, keyingi festivallar 1999, 2001, 2003, 2005, 2007, 2009, 2011, 2013, 2015, 2017 yillarda bo'lib o'tdi. 2019 yilda ham an'anaviy "Sharq taronalari" o'n ikkinchi Xalqaro festivali bo'lib o'tadi. "Sharq taronalari" musiqa festivali o'zining betakror ruhi va qiyofasi, xalqlar o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlash, musiqa san'ati an'alarini asrash, madaniy muloqotni rivojlantirish borasidagi ezgu maqsad-muddaolari bilan qisqa muddatda yuksak darajaga erishdi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Bu borada siz, azizlar kabi fidoyi tashkilotchi va ishtirokchilarning munosib hissangiz borligini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. ...Agar 1997 yilda, dastlabki musiqa bayramida dunyoning 31 ta davlatidan 57 nafar san'atkor qatnashgan bo'lsa, bu yil 58 ta mamlakatdan 241 nafar mohir xonanda va sozanda ishtirok etmoqda. "Sharq

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 144-145-бетлар.

taronalari” festivali bugungi kunda YuNESKO tomonidan musiqa olamining yirik xalqaro forumi sifatida e’tirof etilgani va bu ibora dunyo bo’ylab baralla yangrayotgani, hech shubhasiz, uning nufuzi va ahamiyati tobora ortib borayotganidan dalolat beradi<sup>1</sup>.

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan tashqi siyosatdagi yangiliklar va erishilgan kelishuvlar bugungi xalqaro munosabatlarda yorqin aks etmoqda. O’zbekistonning qo’shni mamlakatlarga nisbatan yangicha bo’lgan ochiq va yaxshi qo’shnichilik siyosati mintaqaviy bahslarni hal etishda muhim rol o’ynamoqda.

O’zbekistonning bugungi mintaqaviy siyosatida ijobiy jarayonlar shakllanib, Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan tinchliksevar va xalqaro do’stona tashqi siyosat o’zining samaradorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekistonning tashqi siyosatida quyidagilarga alohida e’tibor qaratilmoqda: eng avvalo, har bir davlat bilan hamkorlik qilishda turli mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar ochiqlik siyosatini olib borish, davlatlarning teng huquqlilik va o’zaro manfaatlari, suverenitet, hududiy yaxlitligi, chegaralarining dahlsizligini doimo hurmat qilish, hech bir davlatning ichki siyosatiga aralashmaslik, turli munozaralarni doimo tinch yo’l bilan hal etish choralarini ko’rish, biron bir harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, tinchlikparvar tashqi siyosat negizida o’z hududida xorijiy davlatlar harbiy bazalarining joylashuviga yo’l qo’ymaslik masalalari O’zbekistonning tashqi siyosatida e’tibor qaratilayotgan masalalardir.

O’zbekistonning yangilangan Milliy xavfsizlik Konsepsiyasi va O’zbekiston Tashqi siyosiy faoliyati Konsepsiyasida ushbu tamoyillarga alohida e’tibor qaratilgan. Qolaversa, Prezident Shavkat Mirziyoyevning faoliyatida Markaziy Osiyodagi tinchlikparvar tashqi siyosat muhim ustuvor yo’nalish qilib belgilangan. Bu jarayon 2017-2021 yillarda O’zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasida ham o’z aksini topgan. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi beshinchi ustuvor yo’nalishi 2-qismi Chuqur o’ylangan, o’zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo’nalishlar, deb nomlanib, bu yerda quyidagi

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 442-443-бетлар.

masalalarga asosiy e'tibor qaratildi: - davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'yekti sifatidagi o'rnini va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnihilik muhitini shakllantirish; - O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish; - O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish; - davlat chegarasini demilitarizatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish<sup>1</sup>.

O'zbekistonning olib borayotgan tinchlikparvar tashqi siyosati negizida mintaqada yangicha siyosiy barqaror muhit shakllandi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga chiqib, milliy manfaatlarni o'zaro hisobga olish va hurmat qilish, ochiqlik va siyosiy ishonch singari xususiyatlar vujudga keldi. O'zbekiston o'z qo'shnilari o'rtasidagi davlat chegaralarini demilitarizatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo'yicha katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha ham bir qator kelishuvlarga erishildi. O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida 2018-2019 yillarda Kompleks tadbirlar rejalari ishlab chiqildi. Shu asosda 2018 yilning iyul oyidan sentyabr oyiga qadar O'zbekiston Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston davlatlari o'rtasida birgalikda antiterrorchilik mashg'ulotlari olib borildi.

Davlatimizning tinchlikparvar tashqi siyosatida Afg'oniston muhim ahamiyatga ega bo'lib, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bu davlatdagi muammolarni hal etishda dolzarb sanaladi. Afg'onistonda tinchlikni saqlash masalasi Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashga bog'liq bo'lgan dolzarb masalalardan biridir.

Barchamiz qat'iy ishonamizki, xavfsizlik yagona va bo'linmasdir va uni faqat birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan ta'minlash mumkin, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Biz xavf-xatarlarning ba'zi birlarini "o'zimizniki",

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. –Т.: Адолат, 2018. 27-28-бетлар.

boshqasini esa “birovniki” deb qabul qilmasligimiz kerak, aniqroq aytganda, bunday qilishga haqqimiz yo’q. Afg’oniston xavfsizligi – bu O’zbekiston xavfsizligi, butun bepoyon Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi barqarorligi hamda taraqqiyotning garovidir. Xalqaro terroristik tashkilotlar Afg’onistonni o’zining doimiy makoniga aylantirib olishiga yo’l qo’yib bo’lmaydi<sup>1</sup>.

O’zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo’lga qo’yish va rivojlantirish bobida katta ishlar amalga oshirilib, O’zbekiston o’zining tinchliksevar, yaxshi qo’shnihilik, o’zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o’zining munosib o’rnini egalladi va uning mavqeyi yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.

## **25.5. O’zbekistonning xorijiy davlatlar bilan ikkitomonlama va ko’ptomonlama madaniy aloqalari rivojida milliy g’oya va mafkuraning roli**

O’zbekiston xalqaro miqyosda bag’rikenglik va insonparvarlik g’oyalarini mustahkamlash borasida doimiy ravishda millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni qo’llab-quvvatlab kelmoqda. Bu jarayonda yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millatlarning totuvligini ta’minlash, barcha xorijiy mamlakatlar bilan samimiy, teng huquqli va ko’p tomonlama o’zaro manfaatli munosabatlar yo’lga qo’yilgan. Har bir xorijiy davlat bilan ikki tomonlama hamkorlik asosida madaniy aloqalarni mustahkamlash O’zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi hisoblanadi.

Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning Vatan ravnaqiga xizmat qilishga qaratilgan milliy g’oya va mafkura asosida birlashganligi muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston Konstitusiyasida ko’rsatib o’tilganidek, fuqarolarning irqi, millati, tili, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi tamoyili hamda turli millat va elatlar vakillarining tili, urf-odatlar va an’analarini hurmat qilish hamda ularni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jamiyatdagi dolzarb masaladir.

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 363-бет.

O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan do'stlik va ahillik, tenglik, tinchlik va ijtimoiy barqarorlik muhitini madaniy aloqalar negizida mustahkamlab bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, davlatimiz nufuzining jahon hamjamiyatida madaniy sohada yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Biz bugun o'z davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash bilan bir qatorda, yurtimizda xavfsizlik, tinchlik, barqarorlik va yaqin qo'shnichilikka asoslangan madaniy muhitni yaratishga qaratilgan o'zaro manfaatli tashqi siyosatni amalga oshirmoqdamiz. Barkamol avlod ongida milliy g'oya va mafkurani kamol toptirish, insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirish, tarixiy qadriyatlarni tiklash masalasida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizdagi barcha millat vakillari o'rtasida madaniy aloqalar rivojlanmoqda, millatlararo hamjihatlik yanada mustahkamlanib, bu boradagi siyosatimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi. Yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir<sup>1</sup>.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 mayda chiqarilgan "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni esa tashqi madaniy aloqalarni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu Farmon asosida xorijiy davlatlarning milliy-madaniy markazlari va do'stlik jamiyatlari bilan hamkorlikda

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 – жилд, -Т.: Ўзбекистон, 2017. 295-296-бетлар.

ko'plab davlatlarda "O'zbekiston madaniyati kunlari" o'tkazib kelinmoqda. Xorijda yashayotgan o'zbek millati vakillarining ham faoliyatini har tomonlama davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga va do'stona hamkorlikni yanada rivojlantirishga olib kelmoqda. O'zbekistonda xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqalarni yanada kengaytirish masalasiga katta e'tibor qaratilib, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi.

Bu Qo'mita jamiyatda milliy g'oyaga asoslangan millatlararo totuvlikni kuchaytirish, bag'rikenglik g'oyalarini keng targ'ib qilish, tinchliksevar siyosatni olib borish, jamiyatning barcha sohalarida erishilgan yutuqlarni xalqaro miqyosda keng targ'ib qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shuningdek, xalqaro hamjamiyatda chet eldagi hamyurtlarimiz diasporasi bilan do'stlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

Xalqaro hamjamiyatdagi madaniy aloqalar o'zbek yoshlarini bag'rikenglik ruhida kamol toptirishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlashga, milliy va madaniy aloqalarni oshirishga, barcha millatlarning an'ana va urf-odatlarini hurmat qilishga va asrab-avaylashga xizmat qiladi. O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan ikkitomonlama va ko'ptomonlama madaniy aloqalarining rivojlanib borishi, jamiyatda turli millatchilik, terrorizm va ekstremizm g'oyalari tahdidi kuchayishi sharoitida milliy g'oya va mafkuraga bo'lgan talab va ehtiyoj oshib boradi. Milliy g'oya va mafkura fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirib, O'zbekistonning milliy manfaatlarini xalqaro miqyosda himoya qilishga yordam beradi.

Bugun O'zbekiston ikki tomonlama hamkorlik doirasida madaniy aloqalarning yangi bosqichlarini keng miqyosda namoyon qilmoqda. Hamkorlik doirasida O'zbekistonning tarixiy-madaniy aloqalari jahonning nufuzli davlatlarini jalb etmoqda. O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va muhim vositasi bo'lib, O'zbekiston mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar tashqi siyosatda ochiq-



oydinlik tamoyilini ro'yobga chiqarishga va barcha davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o'rnatishga intilmoqda.

O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash, ular bilan qalin ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish, ilmiy va madaniy hamkorlikni kengaytirish O'zbekiston tashqi siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston bugungi kunda Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlar, arab mamlakatlari, Osiyodagi Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Janubiy Koreya, G'arb davlatlaridan Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Italiya va boshqa yetakchi davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni olib bormoqda. O'zbekistonning Turkiya, Germaniya, Fransiya, Avstriya, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Saudiya Arabistoni, Misr, Indoneziya, Malayziya, Eron, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlar bilan ilm-fan va madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-diplomatik aloqalari rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda tashqi siyosatni mafkuradan to'la xoli etish xavfsizlikni ta'minlashning muhim kafolatidir. O'zbekiston dunyoning barcha mamlakatlari bilan o'z munosabatlarini bu mamlakatlarning g'oya va mafkuralari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, faqat xalqaro huquqning barcha tan olgan qoida va mezonlari asosida olib bormoqda. Davlatlararo munosabatlar sohasida yagona g'oya amal qilishi lozim bo'lib, bu g'oyaning ma'nosi birgalikda tinch hayot kechirish, hamkorlikka intilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, turli nuqtai nazar va fikrlarga bardoshli bo'lish tamoyillarini o'zida aks ettirgan qonunlarga tayanishdan iboratdir. Markaziy Osiy davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biri bo'lib, xalqlarimiz tarixi, madaniyati, an'analari, diniy e'tiqodining mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlik va hamjihatlikning asosiy poydevoridir. O'zbekiston davlatlarning tinch-totuv yashashi, xalqaro masalalarni hal qilishda kuch ishlatmaslik, tahdid qilmaslik tamoyilini tashqi siyosatga asos qilib olgan holda o'z faoliyatini olib bormoqda. Hozirgi dunyoda davlat barqarorligini ta'minlash jamiyatning ijtimoiy-ruhiy, ma'naviy va axloqiy, madaniy va tarixiy ildizlariga tayanib, davlatning mustahkamligi va qudrati uning jahon jamoatchiligi oldidagi

ma'naviy-axloqiy qiyofasi va nufuzi bilan ham aniqlanadi. Bugungi kunda xalqimizning, millatimizning ma'naviy jihatdan uyg'onishi mustaqilligimiz, milliy xavfsizligimizning garovi bo'lib, milliy uyg'onish g'oyasining amalga oshishi, davlatimizning kelajakda barqaror bo'lishi yosh avlodning tarbiyasiga, barkamol bo'lib shakllanishiga bevosita bog'liqdir. Mustaqillikdan keyin O'zbekiston jahonning ko'plab mamlakatlari bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yib, O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati uning jahonda e'tirof etilishiga sabab bo'lgan. O'zbekistonning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahondagi o'rni va mavqeini belgilab bermoqda. Milliy g'oya turli millat va xalqlarni hamkorlik va hamjihatlikka, tinchlik va totuvlikka da'vat etadi. Milliy g'oya jamiyat hayotida inson ongini bunyodkor g'oyalarga yo'naltiruvchi, ezgulikka xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalarining rivojlanishida ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikning kengayib borayotganligi O'zbekistonning jahon maydonlarida tutgan o'rnini yuksaltirishga, o'zbek xalqining tarixan shakllangan milliy g'oya va mafkurasining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishining ijobiy jihatlarini tushuntirib bering?
2. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga a'zo bo'lishida mustaqillikka erishish qanday rol o'ynagan?
3. O'zbekiston mustaqilligining BMT tomonidan tan olinishida qanday omillar muhim rol o'ynagan?
4. O'zbekiston qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lgan?
5. O'zbekiston tomonidan jahonda olib borilgan tinchliksevar tashqi siyosatning mohiyatini tushuntirib bering?
6. O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan ikkitomonlama aloqalarining bugungi kundagi ahamiyatini bilasizmi?
7. O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan ko'ptomonlama madaniy aloqalari rivojida milliy g'oya ahamiyatini aytib bering?

## XULOSA

Milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani bugungi kunda O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida mamlakatimiz fuqarolarini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, ularni adolatli jamiyat qurish va barkamol insonni tarbiyalash maqsadiga yo'naltiruvchi, O'zbekiston fuqarolarida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradigan milliy g'oya va milliy mafkurani o'rganadigan ijtimoiy-siyosiy fanlardan biridir. G'oya inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr sifatida O'zbekistonning bugungi taraqqiyotida muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlab o'tganidek, "Oldimizga qo'yilgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur". Bugungi kunda milliy g'oyani rivojlantirish milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, buyuk allomalarimizning ma'naviy merosini tiklash, xalqimizning imkoniyatlarini jahonga namoyon qilish vositasida amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning milliy g'oyasi xalqimizning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradigan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shaklidir. Bugungi kunda milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani fuqarolar, birinchi navbatda, yoshlarni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini singdirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish asosida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirib, ularni halol mehnat qilishga, ish-bilarmonlik va tadbirkorlikka da'vat etish, baxtli va farovon hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalasi ham milliy g'oyaga bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda davlatimiz

tomonidan olib borilayotgan siyosatda ham milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlarni tiklash asosida xalqimizning milliy g'urur va iftixorini tiklash masalasiga katta e'tibor qaratilib, bu masala milliy g'oyada o'z ifodasini topgandir.

Hozirgi davrda O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, obro'-e'tiborining oshib borishi davlatimizning olib borayotgan tinchliksevar tashqi siyosati, ma'naviyat va milliy g'oyani fuqarolar ongi va qalbiga singdirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan insonparvar ichki siyosatiga bevosita bog'liqdir. Davlatimiz siyosati va milliy g'oyamizda insonning erki, huquqi, uning erkin kasb tanlashi va halol mehnat qilishi, boy va farovon hayot kechirishi masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy g'oyamizda tarixiy ma'naviy meros va milliy qadriyatlar, milliy madaniyat va san'atni tiklash va yuksaltirish masalasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. 2018-yil 6-10-sentyabr kunlari Shaxrisabz shahrida Xalqaro maqom san'ati anjumanining, 2019-yil 5-10-aprel kunlari Surxondaryo viloyati Termiz shahrida Birinchi "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivalining, 2019-yil 26-30-avgust kunlari Samarqand shahrida XII "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining, 2019-yil 24-avgustda Termiz shahrida "O'zbekiston sivilizatsiyalar chorrahasida" arxeologik-turizm forumining, 2019-yil 10-15-sentyabr kunlari Qo'qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivalining o'tkazilishi milliy g'oyamiz tayanadigan tarixiy-ma'naviy meros va amaliy san'atimizning tiklanishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Xalqimizning milliy g'oyasi va milliy ma'naviyati buyuk mutafakkirlarimizning ma'naviy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy sivilizatsiya yutuqlari hamda islom dinining insonparvarlik g'oyalariga, mohiyatiga tayangan holda rivojlantirilmoqda. Islom dinining insonparvarlik mohiyati xalqimizning tarixiy merosi, urf-odat va an'analari, milliy mentaliteti bilan bevosita bog'liq bo'lib, milliy g'oyamizning komil inson g'oyasi ham diniy, ham dunyoviy bilimlar, qadriyatlarga tayangan holda rivojlantirilmoqda. O'zbekistonda islom dini va islomiy qadriyatlarga katta e'tibor qaratilib, mamlakatimizda Toshkent islom universiteti, Toshkent islom instituti, Buxoro shahrida Mir Arab islom instituti, viloyatlarda 9 ta madrasalar faoliyat ko'rsatmoqda. Toshkent shahrida Islom sivilisatsiyasi markazi, Samarqand shahrida Imom

Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilib, Samarqandda – Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik, Imom Moturidiy markazi qoshida kalom ilmi, Fargʻonada – Margʻinoniy ilmiy markazida islom huquqi maktabi, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida tasavvuf, Qashqadaryoda – Abu Muin Nasafiy markazida aqida ilmi maktabi tashkil etilmoqda. Ushbu maktablarning tashkil etilishi milliy maʼnaviyatimizning tiklanishiga, milliy gʻoyamizning yuklanishiga oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatib kelmoqda. Bugungi kunda islom dini va islomiy qadriyatlar odamlarni mehr-oqibatga, halollikka chaqirishda, yoshlarni axloq-odob ruhida tarbiyalashda, oilalar, mahallalarda tinchlik, hamjihatlik muhitini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda aholining hayot darajasi va sifatini yaxshilash, tadbirkorlik va xususiy mulk rivojiga keng imkoniyat ochib berish, yoshlar, xotin-qizlar, keksa avlod vakillari, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga doimiy eʼtibor va gʻamxoʻrlik koʻrsatishga qaratilgan siyosat olib borilib, ushbu siyosat milliy gʻoya va mafkurada oʻz ifodasini topgandir. Milliy gʻoya tarixi va nazariyasi fanida tarixiylik va zamonaviylikning uygʻunligiga, milliy gʻoya, mafkura va maʼnaviyat taraqqiyotidagi vorislik jarayonlariga, zararli gʻoyalarga va mafkuralarga qarshi kurashda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalariga katta eʼtibor qaratilgan.

Oʻzbekistonda bugungi kunda “Jonajon Oʻzbekistonim, mangu boʻl omon!” degan bosh gʻoyani oʻzida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar hamda targʻibot-tashviqot ishlari amalga oshirilib, 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi, shuningdek, “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” davlat dasturi, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Besh ijobiy tashabbus” kabi muhim dastur va rejalar doirasida olib borilayotgan islohotlar milliy gʻoyaga tayangan holatda amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarning intellektual salohiyati, odob-axloqi, zukkoligi, harakatchanligi va shijoati, davrning shiddatli oʻzgarishlariga tayyorligi masalalariga eʼtibor qaratilmoqda.

2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi

o'z mohiyatiga ko'ra hozirgi zamonda davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha beshta ustuvor yo'nalishda aniq muddatga mo'ljallangan tom ma'nodagi milliy strategiya hisoblanib, u milliy g'oyaga asoslangan holatda taraqqiyotning yo'nalishini belgilab beradi. Bugungi kunda ta'lim axborotlashuv jarayonlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun hozirgi davrda yoshlarga axborot asriga xos ta'lim berish, axborot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surilib, ushbu tashabbuslarda yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga alohida e'tibor berildi. Bugungi kunda yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib, ushbu masalada milliy g'oya tarixi va nazariyasi fani ham muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

## ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. –T.: «Adolat», 2018.
3. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 – jild, –T.: «O'zbekiston», 2017.
4. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: «O'zbekiston», 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so'zi” gazetasi, 2018-yil 29-dekabr.
6. «Avesto». Tarixiy-adabiy yodgorlik. –T.: «Sharq», 2001.
7. Alisher Navoiy Mahbub ul – qulub. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
8. Amir Temur o'g'itlari. –T.: «Navro'z», 1992.
9. Андерсон Б., Байер О., Хрох М. *Нация и национализм*. – М.: Праксис, 2002.
10. Axloq – o'dobga oid hadis namunalari. –T.: «Fan», 1990.
11. Bozorov O. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Samarqand, 2000.
12. Boynazarov F. O'rta Osiyoning antik davri. –T.: «O'qituvchi», 1991.
13. Бобылев А.И. *Общество, гражданское общество, личность, государство, право. Их взаимодействие на современном этапе // Право и политика, 2001. №3.*
14. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, –T.: 2009.

15. Жаринов Д.А. и др. Древний мир в памятниках его письменности. 4.1. –М.: 1915. С. 31, 38-39.
16. Jo‘rayev N. Tarix falsafasi. –Т.: «Ma‘naviyat», 1999.
17. Ibrohimov A, Sultonov X, Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. –Т.: «O‘zbekiston», 1996.
18. Imomnazarov M., Eshmuhamedova M. Milliy ma‘naviyatimiz asoslari. –Т.: Islom universiteti, 2001.
19. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. –Т.: «Sharq», 1993.
20. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –Т.: «O‘zbekiston3, 1996.
21. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. –Т.: «O‘zbekiston», 1996.
22. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. –Т.: «O‘zbekiston», 1996.
23. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. –Т.: «O‘zbekiston», 1996.
24. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. –Т.: «O‘zbekiston», 1996.
25. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Т.: «O‘zbekiston», 1997.
26. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, –Т.: «O‘zbekiston», 2000.
27. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –Т.: «O‘zbekiston», 2000.
28. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –Т.: «Ma‘naviyat», 2008.
29. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –Т.: «O‘zbekiston», 2015.
30. Karimov SH., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. –Т.: «O‘qituvchi», 1997.



31. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: Istiqlol, 1994.
32. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. –T.: «Yozuvchi», 1996.
33. Кузнецов В. Геокультура. Основы геокультурной динамике безопасности в мире XXI век: культура сеть. - Москва, Книга и Бизнес, 2003.
34. Люсьен Леви Брюлл. Первобытный менталитет. –М.: Культурное наследие, 2003.
35. Mamashokirov S., Tog‘ayev SH. Erkin va farovon hayot qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari. –T.: «Ma‘naviyat», 2007.
36. Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida “Avesto”ning o‘mi. Mualliflar jamoasi. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2012.
37. Maxmudov T. «Avesto» haqida «Guliston» jumali. 1999 yil, 4-son.
38. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston, 2000.
39. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
40. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. (qisqa izohli tajribaviy lug‘at) –T.: «Yangi asr avlodi», 2002.
41. Milliy istiqlol g‘oyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim bakalavriyat bosqichi uchun darslik. –T.: “Akademiya”, 2005.
42. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. – T.: «Akademiya», 2007.
43. Нуденко Л.А. Теория демократии. –М.: “Юрист”, 2001.
44. Otamurodov S. Milliy g‘oya - milliy tiklanish manbai. - «Tarix, mustaqillik, milliy g‘oya». –T.: «Akademiya», 2000.
45. Otamurodov S. Milliy rivojlanish falsafasi. –T.: Akademiya nashriyoti, 2005.
46. Рассел Б. Почему я не христианин. –М., 1987. –с. 173.

47. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. –М.: Политиздат, 1992.
48. Temur tuzuklari. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
49. Tohir Karim. Muqaddas “Avesto” izidan. –T.: Choʻlpon, 2000.
50. Tulenov J., Gʻofurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. –T.: «Oʻzbekiston», 1996.
51. Umarov E. Estetika. –T.: «Oʻzbekiston», 1995.
52. Falsafa asoslari. –T.: «Oʻzbekiston», 2005.
53. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –T.: «Navroʻz», 1993.
54. Maʼnaviyat yulduzlari. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
55. Choriyev Z. XX asr boshida Turkiston oʻlkasi hududida, aholisi va rivojlanish xususiyatlari. - «Tarix, mustaqillik, milliy gʻoya». –T.: Akademiya, 2001.
56. Oʻzbekistonda siyosiy partiyalar. – T.: “Akademiya” nashriyoti, 2007.
57. Erkayev A. Milliy gʻoya va maʼnaviyat. –T., “Maʼnaviyat”, 2002.
58. Qosimov B. Jadidlar va milliy mafkura. «Tafakkur» jumali, 2000 y, 3-son.
59. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy gʻoya va mafkura. –T.: «Fan», 2015.
60. Constitution. uz/ uz / pages / humanrights.
61. [https // kun. uz/ news/ 2018 / 11 / 20.](https://kun.uz/news/2018/11/20)
62. [https // president. uz/ uz / 2152.](https://president.uz/uz/2152)

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1-BOB. “MILLIY G‘OYA TARIXI VA NAZARIYASI” FANINING OB‘YEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI</b>	
1.1.“Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining shakllanishi ....	7
1.2.“Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining obyekti va predmeti .....	12
1.3.“Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining maqsadi .....	15
1.4.“Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining vazifalari .....	17
<b>2-BOB. MILLIY G‘OYANING SHAKLLANISH TARIXI, UNING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI</b>	
2.1.Inson, millat va jamiyat hayotida g‘oya va mafkuraga bo‘lgan talab-ehtiyojlar .....	21
2.2. Milliy g‘oyaning tarixiy ildizlari.....	27
2.3. Dastlabki g‘oyaviy qarashlar va ularning manbalari .....	41
2.4.Urug‘-qabilachilik davrlarida qabilalarni birlashtirishga xizmat qilgan ilk g‘oyalar va qarashlar .....	44
2.5. Avesto – milliy g‘oya shakllanish bosqichidagi muhim manba.....	57
2.6.Milliy g‘oyaning tarixiy negizlaridagi asosiy manbalar va undagi ilg‘or g‘oyalar .....	60
2.7.O‘rta asrlardagi g‘oyaviy qarashlar tarixi va rivojlanish xususiyatlari .....	68
2.8.Ma‘rifatparvarlik g‘oyalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.....	83
2.9.Mustamlakachilik mafkurasi va uning xalqimiz hayotidagi salbiy oqibatlari .....	92

2.10.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar .....	99
--	----

### **3-BOB. MUSTAQILLIK VA MILLIY ISTIQLOL**

#### **G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR**

#### **KONSEPSIYASINING ISHLAB CHIQILISHI**

3.1.Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekistonda jamiyat g'oyaviy - mafkuraviy asoslarining o'zgarishi .....	105
3.2.O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy hayot sohalarining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslanishi .....	110
3.3.Hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi .....	114
3.4.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasini ishlab chiqishga ehtiyoj. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida milliy istiqlol g'oyasining nazariy va amaliy jihatdan asoslanishi.....	119
3.5.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi, uning mazmuni va mohiyati..	127

#### **4-BOB. MILLIY G'OYA TIPOLOGIYASI**

4.1. G'oyalar tipologiyasi, milliy g'oya tipologiyasi, ularning mazmun-mohiyati .....	134
4.2.Milliy g'oyaning mafkuraviy plyuralizmga asoslanishi .....	145
4.3. Milliy g'oyaning bunyodkor g'oya ekanligi. Uning jamiyatni jamiyat, millatni millat, xalqni xalq qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	150
4.4.Milliy g'oyaning yot va zararli g'oyalardan farqi, uni aniqlash mezonlari .....	153
4.5.Mustaqillik sharoitida jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy asoslari o'zgarishining mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyati .....	161

## **5-BOB. MILLIY G'OYA KONSEPSIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI**

5.1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining mazmuni va mohiyati. Milliy g'oya konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari .....	168
5.2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasida milliy g'oya va mafkuralar tarixining asoslanishi.....	174
5.3. Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurashning konsepsiyada yoritilishi. Konsepsiyada O'zbekiston taraqqiyoti va mafkuraviy muammolarining ochib berilishi .....	183
5.4. Milliy istiqlol mafkurasi, uni xalqimiz qalbi va ongiga singdirish usul va vositalarining konsepsiyada aks etishi .....	192
5.5. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ahamiyati .....	199

## **6-BOB. O'ZBEKISTON MUSTAQIL DEMOKRATIK TARAQQIYOTINING MILLIY G'OYA KONSEPSIYASI BILAN BOG'LIQLIGI**

6.1. Mustaqillik, mustaqil demokratik taraqqiyot, va milliy g'oya tushunchalarining o'zaro munosabati, mazmun – mohiyati .....	202
6.2. Mustaqil demokratik taraqqiyotni ta'minlashning milliy-ma'naviy va umuminsoniy demokratik tamoyillari .....	205
6.3. O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g'oyasini amalga oshirishda davlatning bosh islohotchilik roli .....	208
6.4. Mustaqil demokratik taraqqiyotning milliy g'oya konsepsiyasi bilan mushtarakligi .....	215
6.5. Taraqqiyotning o'zbek modeli, uning asosiy tamoyillari .....	218

**7-BOB. MILLIY G'OYANING JAMIYAT HAYOTI  
SOHALARI BILAN BOG'LIQLIGI**

7.1. Jamiyat hayoti sohalari tushunchalari, ma'no-mazmuni. Milliy g'oyaning jamiyat hayoti sohalarida aks etishi .....	222
7.2. Milliy g'oya va iqtisodiy hayot. Ijtimoiy hayot sohalari va milliy g'oyaning o'zaro mushtarakligi .....	226
7.3. Milliy g'oya va ma'naviy hayot. Fan va ta'lim sohasidagi yutuqlar, uni ijtimoiy hayot sohalariga tadbqiq etish .....	229
7.4. Erkin va farovon hayot bunyod etishda ilm-fan yutuqlaridan foydalanish .....	233
7.5. Mustaqillik tufayli jamiyat hayoti sohasida erishilgan yutuqlar. Ularning milliy g'oya maqsadlari bilan uyg'unligi .....	235

**8-BOB. MILLIY G'OYADA INSON – ENG OLIY  
QADRIYAT**

8.1. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida insonparvarlik g'oyalarining takomillashuv jarayoni, unda avlodlararo vorislik va yangilanishning namoyon bo'lishi .....	240
8.2. Yangi g'oyalar tizimidagi ustuvor tamoyillar, ularni amalga oshirishning dolzarb vazifalari .....	243
8.3. Istiqloлга asoslangan yangi g'oyalar tizimini takomil- lashtirish, uning ma'naviy ta'sirchanligi va mafkuraviy samarasini oshirish usullari va yo'llari.....	246
8.4. Inson, uning sha'ni va qadr-qimmat, huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy kafolatlari .....	249

**9-BOB. INSON ERKINLIGI, HUQUQ VA  
MANFAATLARINING MILLIY G'OYADA AKS ETISHI**

9.1. Inson erkinligi, huquq va manfaatlari tushunchasi, uning ma'no-mazmuni.....	254
9.2. Milliy g'oyaning inson erkinligi, huquq va manfaatlari ustuvorligi tamoyiliga asoslanishi .....	258

9.3. Milliy g'oya – barkamol avlodni tarbiyalash omili .....	261
9.4. Barkamol avlodga xos bo'lgan xususiyatlar .....	264
<b>10-BOB. MILLIY G'OYADA SIYOSIY INSTITUTLAR VA MAFKURALAR XILMA-XILLIGI TAMOYILI</b>	
10.1. Siyosiy institutlarda va siyosiy jarayonlarda turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishi .....	268
10.2. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishi ...	271
10.3. Mafkuralar va fikrlar xilma-xilligining shakllanishi .....	276
10.4. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslanishining huquqiy asoslari .....	279
<b>11-BOB. MILLIY G'OYA NEGIZLARINI ASRAB- AVAYLASH, UNI HIMOYA QILISH SHART- SHAROITLARI VA OMILLARI</b>	
11.1. Milliy g'oyaning negizlari tushunchasi, uning mazmun va mohiyati .....	282
11.2. Milliy ma'naviy meros va umuminsoniy demokratik tamoyillar. Ruhiiy safarbarlik va ma'naviy jipslikning milliy g'oya negizida shakllanishi .....	290
11.3. Milliy g'oya va milliy ma'naviy meros o'rtasidagi uzviylikning Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida nazariy asoslanishi .....	292
11.4. Milliy g'oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlari va omillari .....	295
11.5. Milliy g'oyaning rivojlanib, yangilanib borishi – umumiy qonuniyat ekanligi .....	298
<b>12-BOB. MILLIY G'OYANING UMUMMAFKURAVIY JARAYONLAR BILAN BOG'LIQLIGI</b>	
12.1. Milliy g'oya va umummafkuraviy jarayonlar tushunchalarining o'zaro munosabati, mazmun-mohiyati .....	302

12.2. Mafkuraviy jarayonlarning turli xil ijtimoiy guruhlar, qatlamlar manfaatlar bilan bog'liqligi, uni anglash darajalari ....	305
12.3. Mafkuraviy jarayonlarning turli xil g'oyalar, mafkuralar bilan bog'liqligi .....	306
12.4. Dunyodagi mafkuraviy jarayonlar. Mafkuraviy jarayonlar va mafkuraviy kurashlar .....	312
12.5. Milliy g'oyaning mafkuraviy kurashlarda muhim omil ekanligi .....	315

**13-BOB. MILLIY G'OYANING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH MEKANIZMLARI  
VA VOSITALARI**

13.1. Milliy g'oyaning o'ziga xos xususiyatlari. Milliy g'oyaning muayyan mamlakat yoki xalq maqsadlari va taraqqiyot yo'li bilan bog'liqligi .....	319
13.2. Milliy g'oyani rivojlantirish tushunchasi, ma'no-mazmuni, milliy g'oya rivojlanishining ong va tafakkur, turli xil omillar bilan bog'liqligi .....	322
13.3. Milliy g'oyaning rivojlanish mexanizmlari – milliy ma'naviy meros, urf-odat, an'analar va qadriyatlar .....	326
13.4. Milliy g'oya ta'sirchanligini oshirish mexanizmlari. "Fikr – g'oya – mafkura – tizim" munosabati .....	329
13.5. Milliy g'oya va OAV. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi o'zgarishlar va milliy g'oya ta'sirchanligini tobora oshirib borishda mafkuraning o'mi .....	333

**14-BOB. MILLIY G'OYA – O'ZBEKISTON XALQINING  
ISHONCH-E'TIQODI MANBAI**

14.1. Jamiyatni erkinlashtirish va davlat qurilishini demokratlashtirishda milliy g'oyaning roli .....	337
14.2. Jamiyatni demokratlashtirish jarayoni – milliy g'oyani rivojlantirish omili. Milliy g'oyaning gumanistik mohiyati .....	340



14.3.O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurilishining mafkuraviy kafolatlari .....	343
14.4.“Vatanni sevmoq iymondandir” g'oyasining mazmuni va ahamiyati .....	346
14.5.Ko'pmillatli mamlakatimiz aholisi ongida “O'zbekiston – yagona Vatan” g'oyasini shakllantirish vazifalari. Milliy g'oyaning fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati .....	349
<b>15-BOB. MILLIY G'OYADA MA'NAVIY VA MODDIY HAYOT UYG'UNLIGI</b>	
15.1.Ma'naviy va moddiy hayot tushunchalarining ma'nomazmuni .....	353
15.2.Milliy g'oyaning ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligiga asoslanishi .....	356
15.3.Moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qaramaqarshi qo'yish, ularning biriga ustunlik berishning samarasiz ekanligi .....	358
15.4.Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi masalalarining yoritilishi .....	360
15.5. Moddiy va ma'naviy omillarni o'zaro uyg'unlashtirish, shu asosda inson, davlat va jamiyat hayotini yuksaltirish masalasi .....	363
<b>16-BOB. MILLIY G'OYA – MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLILIKNI TA'MINLASH OMILI</b>	
16.1.O'zbekistonning ko'pmillatli va polietnik davlat ekanligi..	368
16.2.Milliy g'oyada turli millatga mansub xalqlarning manfaatlari va maqsadlarining ifodalanishi .....	371
16.3. “Millatlararo totuvlik” tushunchasi, uning milliy g'oyada aks etishi .....	374

16.4. Milliy g'oya – millatlararo totuvlik va hamjihatlik omili. Uni amalga oshirish shart-sharoitlari .....	377
16.5. Millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda milliy g'oya rolining oshib borishi .....	380
<b>17-BOB. MILLIY G'UYADA MILLIY VA DINIY BAG'RIKENGLIK TAMOYILI</b>	
17.1. "Milliy bag'rikenglik" va "Diniy bag'rikenglik" tushunchalarining ma'no-mazmuni .....	383
17.2. Milliy bag'rikenglik va ko'pmillatlilik. Millatlararo muloqot. Din va dinlararo muloqot .....	386
17.3. Ko'p dinlilik, dinlararo bag'rikenglik, vijdon erkinligi kabi tushunchalarning mazmuni va mohiyati .....	389
17.4. Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenglik tamoyili .....	392
17.5. Milliy g'oyaning milliy bag'rikenglikka zid holatlar, milliy ayirmachilik va separatizm kabilarning oldini olishdagi ahamiyati .....	394
<b>18-BOB. KOMIL INSONNI SHAKLLANISHIDA MILLIY G'UYANING O'RNI</b>	
18.1. Komil inson, barkamol avlod tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati .....	398
18.2. Komil inson va barkamol avlodga xos bo'lgan fazilatlar. Barkamollik sifatlari, mezonlari .....	402
18.3. Ta'lim-tarbiyaning milliy g'oya negizlariga asoslanishi hamda barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati .....	405
18.4. Komil insonning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, shart-sharoitlar .....	408
18.5. Barkamol avlodning shakllanishi, unga xos xususiyatlar: yangicha tafakkur, falsafiy dunyoqarash, ma'naviy axloqiy poklik, yuksak ma'naviyat .....	411

**19-BOB. MA'NAVIYATGA TAHDIDLARNING OLDINI OLIHDA MILLIY G'OYAGA TAYANISH ZARURATI**

19.1. Ma'naviy tahdid, g'oyaviy tazyiq va tajovuz tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati va yuzaga kelish shart-sharoitlari....	414
19.2. Ma'naviy tahdid va tajovuzlarning o'ziga xos ko'rinishlari, niqoblanish xususiyatlari va harakat usullari .....	417
19.3. Ma'naviy tahdidlarning oshkora va yashirin jihatlari, ularning turli daraja va ko'lamda namoyon bo'lish xususiyatlari.	420
19.4. Mahalliy-hududiy darajadagi ma'naviy tahdidlar. Global miqyosdagi ma'naviy tahdidlar, ularning mazmun-mohiyati.....	423
19.5. O'zbekistonda ma'naviy tahdidlarni oldini olishning shart-sharoitlari va omillari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslari, texnik-texnologik imkoniyatlari .....	424
19.6. Ma'naviyatga tahdidlarning oldini olishda milliy g'oyaning ahamiyati .....	427

**20-BOB. YOT VA ZARARLI G'OYALARNING KO'RINISHLARI, ULARNING OLDINI OLIHDA MILLIY G'OYANING O'RNI VA AHAMIYATI**

20.1. Yot va zararli g'oyalar, g'oyaviy kurash tushunchalari, ularning mazmun va mohiyati . .....	433
20.2. O'zbekiston hayoti va taraqqiyotiga g'oyaviy tahdidlar, ularning ko'rinishlari va namoyon bo'lish xususiyatlari.....	435
20.3. Tahdidlarning ichki va tashqi yo'nalishlari, ijtimoiy ildizlari .....	439
20.4. Diniy ekstremizm va terrorchilik, ommaviy madaniyat va demokratik g'oyalarni niqob qiluvchi ma'naviy-mafkuraviy oqimlar, ularning faoliyat usullari va xavfsizlikka tahdidi.....	442
20.5. O'zbekistonga qarshi axborot xurujlari, ularning asl maqsadlari va ta'sir yo'nalishlari .....	445

**21-BOB. “OMMAVIY MADANIYAT”NING MILLIY  
G‘OYAGA ZIDLIGI, UNING OLDINI OLISH SHART-  
SHAROITLARI, OMILLARI**

21.1. “Ommaviy madaniyat” tushunchasining ma’no-mazmuni. Uning milliy g‘oya maqsadlari va negizlariga zidligi .....	451
21.2. “Ommaviy madaniyat” g‘oyalari tarqatishga urinishlar. Ularning texnik imkoniyatlari .....	454
21.3. “Ommaviy madaniyat” ning milliy ma’naviyat negizlariga, milliy g‘oya, ma’naviy meros va demokratik tamoyillarga zid ekanligi.....	456
21.4. “Ommaviy madaniyat” eskalatsiyasining xavf-xatari va tahdidli ekanligi.....	459
21.5. “Ommaviy madaniyat” xavfining oldini olish shart- sharoitlari va omillari .....	462

**22-BOB. O‘ZBEKISTONDAGI MAFKURAVIY  
JARAYONLAR VA MILLIY G‘OYAGA EHTIYOJ  
HAMDA DUNYODAGI MAFKURAVIY KURASHLAR  
SHAROITIDA MILLIY G‘OYANING ZARURLIGI**

22.1. Mafkuraviy jarayonlar tushunchasi, uning ma’no va mazmuni.....	466
22.2. O‘zbekiston ijtimoiy hayotining mafkuralar xilma- xilligiga asoslanishi. “Mafkuralar xilma-xilligi” tushunchasi. Turli g‘oyalarning milliy g‘oyaga tayanishi va jamiyatda milliy g‘oyaga ehtiyoj .....	469
22.3. Dunyodagi mafkuraviy kurashlar va uning sabablari. Mafkuradan ko‘zlangan maqsadlarning xilma-xilligi. Ezgu, bunyodkor mafkuralar hamda yovuz va buzg‘unchi mafkuralar.....	472

22.4. Hozirgi davrda mafkuraviy poligonlarning yadro poligonlaridan xavfli ekanligi, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning zarurligi .... 475

22.5. Mafkuraviy kurashlarning oldini olishda milliy g'oyaning zarurligi. Yovuz va tajovuzkor mafkuralarga qarshi kurashda milliy g'oya rolining oshib borishi..... 477

### **23-BOB. YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY G'OYANING**

#### **AHAMIYATI**

23.1. Yoshlar, mafkuraviy immunitet tushunchalarining ma'no-mazmuni. Yoshlarga xos xususiyatlar ..... 481

23.2. Yoshlarga turli g'oya va mafkuralarning ta'siri. Ularning immunitetini mustahkamlash zarurligi ..... 483

23.3. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash shart-sharoitlari ..... 486

23.4. Yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini oshirish ..... 489

23.5. Yoshlarni yot va zararli g'oyalarning ta'siridan himoyalashda milliy g'oyaning ahamiyati ..... 492

### **24-BOB. MILLIY G'OYANING MILLIY NEGIZLAR VA UMUMDEMOKRATIK TAMOYILLARGA**

#### **ASOSLANISHI**

24.1. Milliy g'oyaning milliy-ma'naviy negizlari va umumdemokratik tamoyillari..... 496

24.2. "Demokratik taraqqiyot" tushunchasi, uning ma'no-mazmuni, jamiyat g'oyaviy mafkuraviy asoslarining demokratik taraqqiyot bilan bog'liqligi ..... 499

24.3. Milliy g'oya – O'zbekiston demokratik taraqqiyotining g'oyaviy-mafkuraviy asosi ..... 502

24.4. Milliy g'oya tamoyillarining milliy va umumdemokratik xarakteri..... 504

24.5. Demokratik taraqqiyotda turli xil g'oyalar va mafkuralar, siyosiy institutlar xilma-xilligining ahamiyati .....	507
<b>25-BOB. O'ZBEKISTONNING XALQARO MAVQEINI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY G'OYANING O'RNI</b>	
25.1.O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga to'laqonli a'zo bo'lishi – istiqloqlarning sharofati .....	511
25.2.Davlat mustaqilligining BMT tomonidan tan olinishi .....	514
25.3.Yurtimizning xalqaro tashkilotlarga a'zoligi .....	516
25.4. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab olib borilgan tinchliksevar tashqi siyosat .....	521
25.5.O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan ikkitomonlama va ko'ptomonlama madaniy aloqalari rivojida milliy g'oya va mafkuraning roli .....	526
Xulosa.....	531
Adabiyotlar .....	535

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ</b> .....	3
<b>1-ГЛАВА. ОБЪЕКТ, ПРЕДМЕТ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ КУРСА “ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ</b>	
1.1. Становление курса “Теория и история национальной идеи” .....	7
1.2. Объект и предмет курса “Теория и история национальной идеи” .....	12
1.3. Цель курса “Теория и история национальной идеи” .....	15
1.4. Задачи курса “Теория и история национальной идеи” .....	17
<b>2-ГЛАВА. ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ И ОСОБЕННОСТИ ЕЁ ПРОЯВЛЕНИЯ</b>	
2.1. Потребность в идее и идеологии в жизни человека, нации и общества .....	21
2.2. Исторические корни национальной идеи .....	27
2.3. Первоначальные взгляды на идею и их источники .....	41
2.4. Первоначальные идеи и взгляды, служившие объединению племен в первобытный период .....	44
2.5. Авеста как важный источник в формировании национальной идеи .....	57
2.6. Основные источники фундамента национальной идеи и передовые идеи .....	60
2.7. История идейных воззрений в эпоху средневековья и особенности их развития .....	68
2.8. Идеи просветительства и их особенности .....	83

2.9. Колониальная идеология и её негативные последствия для жизни нашего народа .....	92
2.10. Узбекистан на пороге достижения независимости: идейно-идеологические процессы .....	99

### **3-ГЛАВА. НЕЗАВИСИМОСТЬ И РАЗРАБОТКА КОНЦЕПЦИИ ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ: ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ И ПРИНЦИПЫ**

3.1. Изменение идейно-идеологических основ общества в первые годы независимости Узбекистана .....	105
3.2. Опора социальных сфер общества Узбекистана на плюрализм политических институтов, идеологий и взглядов .....	110
3.3. Недопустимость установления какой-либо идеологии как государственной идеологии .....	114
3.4. Потребность в разработке Идеи национальной независимости: основные понятия и принципы. Теоретическое и практическое обоснование идеи национальной независимости в трудах Первого Президента Республики Узбекистан Ислама Каримова .....	119
3.5. Разработка Идеи национальной независимости:..... основные понятия и принципы, её содержание и сущность	127

### **4-ГЛАВА. ТИПОЛОГИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ**

4.1. Типология идей, типология национальных идей, их сущность и значение .....	134
4.2. Опора национальной идеи на плюрализм.....	145
4.3. Созидательная сущность национальной идеи. Роль и значение идеи в формировании нации как нации, общества как общества и народа как народа.....	150



4.4. Отличие национальной идеи от разрушительных и иных идей. критерии их определения.....	154
4.5. Значение изменения идейно-идеологических основ общества в обеспечении развития страны .....	161

## **5-ГЛАВА. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ КОНЦЕПЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ**

5.1. Сущность и значение концепции Идеи национальной независимости: основные понятия и принципы. Основные направления концепции национальной идеи .....	168
5.2. Обоснование национальных идей и идеологий в концепции идеи национальной независимости: основные понятия и принципы .....	174
5.3. Борьба за сердце и сознание человека в современную эпоху и ее отражение в концепции. Раскрытие прогресса Узбекистана и идеологических проблем в концепции .....	183
5.4. Отражение в концепции методов и средств внедрения национальной идеи в сердца и умы нашего народа .....	192
5.5. Значение концепции идеи национальной независимости: основные понятия и принципы в углублении демократических реформ и развития гражданского общества .....	199

## **6-ГЛАВА. СВЯЗ НЕЗАВИСИМОГО ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА С КОНЦЕПЦИЕЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ**

6.1. Взаимосвязь понятий независимости, независимого демократического развития и национальной идеи, их сущность и значение.....	202
6.2. Национально-духовные и общечеловеческие демократические принципы независимого демократического развития..	205

6.3. Роль государства в проведении реформ, в укреплении национальной независимости и реализации идей мира, процветания Родины и благополучия народа в Узбекистане..	208
6.4. Общность независимого демократического развития с концепцией национальной идеи .....	215
6.5. Узбекская модель развития, её основные принципы .....	218

## **7-ГЛАВА. ВЗАИМОСВЯЗЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ СО СФЕРАМИ ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА**

7.1. Смысл и значение сфер жизни общества, их сущность Отражение национальной идеи в сферах общественной жизни .....	222
7.2. Национальная идея и экономическая жизнь. Общность сфер социальной жизни и национальной идеи .....	226
7.3. Национальная идея и духовная жизнь. Достижения в сфере науки и образования, их внедрение в жизнь общества ..	229
7.4. Использование достижений науки и техники в строительстве свободной и благополучной жизни .....	233
7.5. Достижение успехов в жизни общества в результате независимости. Их гармония с целями национальной идеи ..	235

## **8-ГЛАВА. ЧЕЛОВЕК - ВЫСШАЯ ЦЕННОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕЕ**

8.1. Процесс дифференциации национальной идеи на этапе независимого развития Узбекистана, отражение в них преемственности поколений и обновления .....	240
8.2. Приоритетные принципы новых идей, актуальные задачи по их реализации .....	243
8.3. Дифференциация новых идей на основе независимости, их духовное влияние и пути и способы повышения идеологической .....	246

8.4. Правовые гарантии человека, его чести и достоинства, прав и свобод.....	249
--	-----

**9-ГЛАВА. ОТРАЖЕНИЕ СВОБОД, ПРАВ И  
ИНТЕРЕСОВ ЧЕЛОВЕКА, В НАЦИОНАЛЬНОЙ  
ИДЕЕ**

9.1. Понятие свобод, прав и интересов человека, их сущность и значение.....	254
9.2. Закрепление свобод, прав и интересов человека в национальной идее.....	258
9.3. Национальная идея как фактор воспитания гармонично развитого поколения .....	261
9.4. Основные черты гармонично развитого поколения.....	264

**10-ГЛАВА. ПРИНЦИП МНОГООБРАЗИЯ  
ПОЛИТИЧЕСКИХ ИНСТИТУТОВ И ИДЕОЛОГИЙ В  
НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕЕ**

10.1. Свободное выражение различных мнений в политических институтах и в политических процессах .....	268
10.2. Появление системы многопартийности в Узбекистане...	271
10.3. Формирование плюрализма идей и идеологий.....	276
10.4. Опора общественной жизни в Республике Узбекистан на многообразие политических институтов, идей и идеологий.....	279

**11-ГЛАВА. СОХРАНЕНИЕ ОСНОВ  
НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ, УСЛОВИЯ И ФАКТОРЫ  
ЕЁ ЗАЩИТЫ**

11.1. Понятие основ национальной идеи, их содержание и сущность .....	282
11.2. Национальное культурное наследие и общечеловеческие демократические принципы. Формирование	

духовной мобилизации и духовного единения на основе национальной идеи.....	290
11.3.Взаимосвязь национальной идеи и национального культурного наследия и их теоретическое обоснование в трудах Президента Шавката Мирзиёева .....	292
11.4.Условия и факторы сохранения основ национальной идеи .....	295
11.5.Закономерность развития и обновления национальной идеи .....	298

## **12-ГЛАВА. СВЯЗ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ С ОБЩЕИДЕОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ**

12.1.Сущность и взаимосвязь понятий национальной идеи и общеидеологических процессов .....	302
12.2.Взаимосвязь идеологических процессов с интересами различных социальных групп, слоев, уровень их осознания	315
12.3.Взаимосвязь идеологических процессов с разными идеями и идеологиями .....	306
12.4.Идеологические процессы в мире. Идеологические процессы и идеологическая борьба .....	312
12.5.Национальная идея как важный фактор идеологической борьбы.....	315

## **13-ГЛАВА. ОСОБЕННОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ, МЕХАНИЗМЫ И СРЕДСТВА ЕЁ РАЗВИТИЯ**

13.1.Особенности национальной идеи. Связь национальной идеи с целями и путями развития страны и народа .....	319
13.2.Понятие развития национальной идеи, ее сущность и взаимосвязь национальной идеи с сознанием и мышлением и различными факторами.....	322
13.3.Механизмы идеи национального развития – национальное духовное наследие, традиции и ценности .....	326

13.4.Совершенствование механизмов воздействия национальной идеи. Подход “Мысль – идея – идеология – система”.....	329
13.5.Национальная идея и СМИ. Изменения в информационно-коммуникационной сфере и роль идеологии в повышении эффективности национальной идеи .....	333
<b>14-ГЛАВА. НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ – ИСТОЧНИК ВЕРЫ И УБЕЖДЕНИЯ НАРОДА УЗБЕКИСТАНА</b>	
14.1.Роль национальной идеи в либерализации общества и демократизации государственного строительства.....	337
14.2.Процесс демократизации общества – фактор развития национальной идеи. Гуманистическая сущность национальной идеи .....	340
14.3.Идеологические гарантии построения демократического правового государства в Узбекистане .....	343
14.4.Суть и значение идеи “любовь к Родине – от веры” .....	346
14.5.Задачи по формированию идеи “Узбекистан – наша Отчизна” в сознании народа в условиях полиэтнического общества. Роль национальной идеи в построении гражданского общества .....	349
<b>15-ГЛАВА. ГАРМОНИЯ ДУХОВНОЙ И МАТЕРИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕЕ</b>	
15.1.Сущность понятия духовной и материальной жизни.....	353
15.2.Опора национальной идеи на взаимосвязь духовной и материальной жизни .....	356
15.3.Противопоставление материальных потребностей духовному миру, неэффективность приоритета одного из них .....	358

15.4. Освещение вопросов взаимосвязи духовной и материальной жизни в трудах Президента Шавката Мирзиёева.....	360
15.5. Взаимосвязь материальных и духовных факторов, их влияние на возрождение жизни человека, государства и общества .....	363
<b>16-ГЛАВА. НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ КАК ФАКТОР МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ И СОЛИДАРНОСТИ</b>	
16.1. Узбекистан многонациональное и полиэтничное государство .....	368
16.2. Отражение в национальной идее интересов и целей различных наций и народностей .....	371
16.3. Понятие “национальное согласие” и его отражение в национальной идее .....	374
16.4. Национальная идея – фактор идеологии и межнациональное согласие. Условия её реализации .....	377
16.5. Повышение роли национальной идеи в обеспечении межнационального согласия и солидарности .....	380
<b>17-ГЛАВА. ПРИНЦИП НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕЕ</b>	
17.1. Сущность понятий “национальная толерантность” и “религиозная толерантность” .....	383
17.2. Национальная толерантность и многонациональность Межнациональное общение. Религия и межконфессиональный диалог .....	386
17.3. Сущность и содержание понятий многообразия религий, религиозная толерантность и свобода совести .....	389

17.4. Принцип национальной и религиозной толерантности в национальной идее .....	391
17.5. Роль и место национальной идеи в предотвращении ситуаций, противоречащих национальному согласию, национализму и сепаратизму .....	394

## **18-ГЛАВА. РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В ФОРМИРОВАНИИ ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОЙ ЛИЧНОСТИ**

18.1. Сущность и значение понятий гармонично развитая личность, гармонично развитое поколение .....	399
18.2. Достоинства гармонично развитой личности и гармонично развитого поколения. Качества, критерии гармоничности.....	401
18.3. Роль образования, основанного на национальной идее в развитии гармоничного поколения .....	405
18.4. Факторы и условия, влияющие на формирование идеального человека .....	408
18.5. Формирование гармонично развитого поколения, его особенности: новые мышление, философское мировоззрение, духовно-нравственная чистота, высокая духовность .....	410

## **19-ГЛАВА. ОПОРА НА НАЦИОНАЛЬНУЮ ИДЕЮ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ ДУХОВНЫХ УГРОЗ**

19.1. Сущность и значение понятий духовная угроза, духовное воздействие и духовное влияние и условия их возникновения .....	414
19.2. Особенности духовной угрозы и духовного влияния, способы их выражения и осуществления .....	417
19.3. Открытый и скрытый характер духовных угроз, способы и уровни их проявления .....	420

19.4. Угрозы местного и регионального масштаба. Глобальные угрозы, их сущность и значение .....	423
19.5. Условия и факторы предотвращения духовных угроз в Узбекистане, их социально-экономические, политические, правовые, духовно-просветительские основы, технические и технологические преимущества .....	424
19.6. Роль национальной идеи в предотвращении духовных угроз .....	427

**20-ГЛАВА. ПОЯВЛЕНИЕ НЕГАТИВНЫХ ИДЕЙ,  
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В ИХ  
ПРЕДОТВРАЩЕНИИ**

20.1. Сущность и значение понятий разрушительные идеи и духовные угрозы .....	433
20.2. Духовные угрозы развитию Узбекистана, особенности их проявления .....	435
20.3. Внутренние и внешние направления угроз, их социальные корни .....	439
20.4. Духовно-идеологические течения, прикрывающиеся религиозным экстремизмом и терроризмом, массовой культурой и демократическими идеями, их методы деятельности и угрозы безопасности .....	442
20.5. Информационные атаки на Узбекистан, их основные цели и направления действия .....	445

**21-ГЛАВА. ПРОЯВЛЕНИЕ РАЗРУШИТЕЛЬНЫХ  
ИДЕЙ, МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ  
ИДЕИ В ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИИ**

21.1. Сущность и значение понятия "массовая культура". Её противоречие целям и основам национальной идеи .....	451
21.2. Попытки распространения идей "массовой культуры". Их технические возможности .....	454



21.3.Противодействие “массовой культуры” основам национальной духовности, национальному наследию и демократическим принципам .....	456
21.4.Угрозы и опасности эскалации “массовой культуры” ....	459
21.5.Условия и факторы, предотвращающие риски “массовой культуры” .....	462

**22-ГЛАВА. ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В  
УЗБЕКИСТАНЕ, ПОТРЕБНОСТЬ В  
НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕЕ И ЕЕ НЕОБХОДИМОСТЬ  
В УСЛОВИЯХ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ БОРЬБЫ В  
МИРЕ**

22.1. Понятие “идеологических процессы”, их сущность и значение .....	466
22.2. Общественная жизнь в Узбекистане на основе многообразия идеологий. Понятие “идеологическое многообразие”. Опора различных идей на национальную идею и потребность в национальной идее общества .....	469
22.3. Идеологическая борьба в мире и её причины. Многообразие целей, поставленных идеологией. Созидательные и разрушительные идеологии.....	472
22.4. Превосходство идеологических полигонов над ядерными полигонами на современном этапе, необходимость борьбы «с идеей только идеей, с мыслью - только мыслью, с невежеством только просвещением» .....	475
22.5 Потребность в национальной идее для предотвращения идеологической борьбы. Увеличение роли национальной идеи в борьбе против разрушительных и антигуманных идеологий .....	477

## **23-ГЛАВА. РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В УКРЕПЛЕНИИ ИДЕЙНОГО ИММУНИТЕТА МОЛОДЁЖИ**

23.1. Сущность и значение понятий молодёжь и идеологический иммунитет. Особенности молодежи.....	481
23.2. Влияние разных идей и идеологий на сознание молодежи. Необходимость укрепления их иммунитета .....	483
23.3. Условия укрепления идеологического иммунитета молодежи .....	486
23.4. Повышение культуры независимого мышления у молодежи .....	489
23.5. Роль национальной идеи в защите молодежи от воздействия разрушительных идей.....	492

## **24-ГЛАВА. НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ С ОПОРОЙ НА НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И ОБЩЕДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ**

24.1 Национально-духовные основы и общедемократические принципы национальной идеи.....	496
24.2. Понятие “демократическое развитие”, его сущность и значение, взаимосвязь идейных и идеологических основ общества с демократическим развитием .....	499
24.3. Национальная идея – идейная и идеологическая основа демократического развития Узбекистана.....	502
24.4. Национальный и общедемократический характер национальной идеи .....	504
24.5. Значение различных идей и идеологий, политических институтов в демократическом развитии.....	507

## 25-ГЛАВА. РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В УКРЕПЛЕНИИ МЕЖДУНАРОДНОГО АВТОРИТЕТА УЗБЕКИСТАНА

25.1. Полноправное участие Узбекистана в международном сообществе как результат обретения независимости.....	511
25.2. Признание со стороны ООН государственной независимости Узбекистана .....	514
25.3. Членство нашей страны в международных организациях .....	516
25.4. Мирлюбивая внешняя политика, проводимая с первых лет независимости .....	521
25.5. Роль национальной идеи и идеологии в развитии двухсторонних и мно-госторонних культурных связей Узбекистана с зарубежными странами .....	526
Литературы .....	535

## CONTENTS

<b>INTRODUCTION</b> .....	3
<b>CHAPTER 1. OBJECT, SUBJECT, PURPOSE AND TASKS OF THE SUBJECT OF “THEORY AND HISTORY OF NATIONAL CONCEPT”</b>	
1.1. Formation of the subject of “Theory and history of national concept” .....	7
1.2. Object and subject of “Theory and history of national concept” .....	12
1.3. Purpose of “Theory and history of national concept” ...	15
1.4. Tasks of “Theory and history of national concept” .....	17
<b>CHAPTER 2. HISTORY OF FORMATION OF NATIONAL CONCEPT AND IT’S CHARACTERISTIC FEATURES</b>	
2.1. Demands and needs for the concept and ideology in human, nation and society life .....	21
2.2. Historical roots of National concept .....	27
2.3. Initial ideological views and their sources .....	41
2.4. The first ideas and views serving to unite tribes in the clan-tribe period .....	44
2.5. Avesto- the main source in formation of national concept	57
2.6. The main sources and advanced ideas in the history of national concept .....	60
2.7. History and features of development of ideological views in the medieval times .....	68
2.8. Enlightenment concept and its features .....	83
2.9. Colonialist ideology and its negative consequence in our people .....	92

2.10.Uzbekistan is on the threshold of gaining Independence: ideological process .....	99
--	----

**CHAPTER 3. INDEPENDENCE AND CONCEPT OF NATIONAL SOVEREIGNTY: DEVELOPMENT OF BASIC CONCEPTS AND PRINCIPLES**

3.1.Changing of ideology of the society in Uzbekistan in the first years of independence .....	105
3.2.Social life sphere based on the political institutions, ideologies and different ideas in Uzbekistan.....	110
3.3.No concept can be established as a state concept.....	114
3.4.Concept of national sovereignty: demand on basic notion and principle concepts development. Theoretical and practical justification of the concept of national Independence in the works of the first president of Uzbekistan, Islam Karimov .....	119
3.5. Concept of national sovereignty: basic notion and principle concepts development .....	127

**CHAPTER 4. THE TYPOLOGY OF NATIONAL CONCEPT**

4.1.The typology of concepts, the typology of national concept and their content .....	134
4.2. The basis of national concept on ideological pluralism...	145
4.3.The Creative idea of national concept and its role and importance in society .....	150
4.4.The criteria of determining national concept and the difference between national idea and alien elements .....	154
4.5.The importance of society ideological basis in the conditions of independence in ensuring the development of the country .....	161

**CHAPTER 5. BASIC DIRECTIONS OF THE STATE  
ANALYZES CONSUMPTION**

5.1. Concept of national independence: the content and essence of the of basic concepts and principles. The Main Directions of the national idea conception .....	168
5.2. Concept of national independence: the basis of the history of national ideologies in the concept of basic notions and principles .....	174
5.3. The Concept of Struggle for the soul and Consciousness of People in the current period. The progression of Uzbekistan and revealing Ideological Issues of Uzbekistan in the Concept .....	183
5.4. The national ideology: the way of implementing it to people's mind and their soul and reflection of the methods and means of national ideology in the conception .....	192
5.5. The advancement of democratic reforms in society and The national independent idea on the development of civil society: the significance of the conception of basic notions and principles .....	199

**CHAPTER 6. RELATION THE INDEPENDENT  
DEMOCRATIC DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN  
WITH THE NATIONAL CONCEPT**

6.1. The Relationship Between Independence, Independent Democratization and National Concept and their notions.....	202
6.2. The national-spiritual and democratic principles of ensuring independent democratic development.....	205
6.3. The Role of State in Reforming the National Independence and the Implementation of the Idea of Abundance of Nation, Homeland Development.....	208

6.4.The Relationship between Independent Democratic Development and National Concept ..... 215

6.5.The Uzbek model of development and its basic principles 218

## **CHAPTER 7. RELATION OF NATIONAL CONCEPT**

### **WITH THE SPHERES OF SOCIAL LIFE**

7.1.The notions of the spheres of society, meaning and content. Reflection of the National Concept in the spheres of society ..... 222

7.2.National Concept and Economy. The Relationship between the spheres of Social Life and National Concept ... 226

7.3.National Concept and Spirit. Achievements in science and education, and implementing it on social life ..... 229

7.4.The Use of science achievements in forming free and abundant Life ..... 233

7.5.Achievements in social life due to the independence. Their harmony with the objectives of the National Concept .. 235

## **CHAPTER 8.THE SUPERIOR HUMAN IN**

### **NATIONAL CONCEPT**

8.1.The process of humanistic ideas development in the process of independent development of Uzbekistan, in which manifestation of intergeneration heirloom and renovation.... 240

8.2.Priority principles in the system of new ideas, actual tasks of their implementation ..... 243

8.3.Methods and means of improving the structure of new ideas, their spiritual sensitivity and ideological effectiveness based on their independence ..... 246

8.4.Legal guarantees for the humanity, its honor and dignity, rights and freedom ..... 249

**CHAPTER 9. THE REFLECTION OF HUMAN  
LIBERTY, RIGHTS AND INTERESTS ON  
NATIONAL CONCEPT**

9.1.The concept of human liberty, rights and interests, its meaning and content.....	254
9.2.The basis of the principle of the national idea on the priority of human freedom, rights and interests .....	258
9.3.National idea - a factor in bringing up perfect generation	261
9.4.The characteristics of perfect generation .....	264

**CHAPTER 10. THE VARIETY OF POLITICAL  
INSTITUTIONS AND IDEOLOGY IN THE  
NATIONAL CONCEPT**

10.1.Expressing different ideas freely in Political Institutions and Political Processes .....	268
10.2.The Formation of the multiparty system in Uzbekistan...	271
10.3.The Formation of various ideologies and ideas .....	276
10.4.The legal basis of the social life of the Republic of Uzbekistan on the diversity of political institutions, ideologies and opinions.....	279

**CHAPTER 11. SAVING THE BASES OF THE  
NATIONAL CONCEPT, THE CONDITIONS AND  
FACTORS OF ITS PROTECTION**

11.1.The Notions of National Idea, its meaning and essence..	282
11.2.National spiritual heritage and democratic principles. The formation of spiritual mobilization and spiritual unity on the basis of the national concept .....	290
11.3.Theoretical Justification of Shavkat Mirziyoev's Works in the Relationship Between National Idea and National Heritage .....	292



11.4.Keeping the Base of National Concept, the Conditions and Factors of its protection .....	295
11.5.The development and renewal of the national idea is a general rule .....	298

**CHAPTER 12. RELATION OF NATIONAL CONCEPT WITH INTERIDEOLOGICAL PROCESSES**

12.1.The Interaction, essence and meaning of national concept and the interideological process .....	302
12.2.The relation of the degree of ideological process to the different social groups, layers, its levels of consciousness ....	315
12.3.The Relation of Ideological Processes with Different Ideas, Ideologies .....	306
12.4.Ideological processes in the world. Ideological processes and ideological struggle .....	312
12.5. The importance of national concept in ideological struggle.....	315

**CHAPTER 13. SPECIAL FEATURES, DEVELOPMENT MECHANISMS AND MEANS OF NATIONAL CONCEPT**

13.1.The main features of national concept. Relation of the National Concept to a Specific Country or Folk Goals and Prospects .....	319
13.2.The notion of national concept development, meaning and content of the development of national concept connection with the mind and reasoning, the various factors.....	322
13.3.National Idea Development Mechanisms – National Spiritual Heritage, Traditions, Customs and Values .....	326

13.4.Mechanisms to increase the effectiveness of national concept. The concept of "Idea - concept - ideology - system"	329
13.5.National Concept and Media. The Role of the Ideology in Enhancing Influence of ICT and National Concept .....	333
<b>CHAPTER 14. NATIONAL CONCEPT - THE SOURCE OF UZBEK PEOPLE'S TRUST</b>	
14.1.The Role of National Concept for Liberalization of the Government and Democratization of State Construction.....	337
14.2.The process of democratization of the society and a factor of the development of the national concept. The humanistic essence of the national concept .....	340
14.3.Ideological guarantees of construction of democratic legal state of Uzbekistan .....	343
14.4.The Content and Importance of "Love of Homeland is From Faiti" .....	346
14.5.The task of forming the idea of "Uzbekistan – the only country" in the minds of our multinational people. The role of National Concept in forming Civil Society .....	349
<b>CHAPTER 15. THE RELATIONSHIP BETWEEN SPIRITUAL AND FINANCIAL LIFE IN THE NATIONAL CONCEPT</b>	
15.1.The essence of notions of spiritual and financial life ...	353
15.2.Reasoning on the harmony of the national concept on the spiritual and financial life .....	356
15.3.Putting financial needs against the spiritual world of man, and proving it as an ineffective priority to one another..	358
15.4.Illustrating issues of spiritual and financial life in the works of Shavkat Mirziyoev, the President of Uzbekistan ...	360
15.5.Mutual harmonization of financial and spiritual factors, raising the lives of people, state and society on this basis ...	363

**CHAPTER 16. NATIONAL CONCEPT AS A MAIN  
FACTOR IN KEEPING INTERETHNIC HARMONY  
AND SOLIDARITY**

16.1. Uzbekistan is a multinational and polyethnic country .....	368
16.2. The representation of the interests and goals of people with different nationalities in the national concept .....	371
16.3. The notions of "interethnic harmony" and its reflection on national concept .....	374
16.4. National as a factor of interethnic harmony and idea concept solidarity. Conditions of its implementation .....	377
16.5. Increasing the role of national ideas in ensuring inter- ethnic harmony and cohesion .....	380

**CHAPTER 17. THE PRINCIPLES OF NATIONAL  
AND RELIGIOUS TOLERANCE IN THE NATIONAL  
CONCEPT**

17.1. The essence of the concept of "national tolerance" and "religious tolerance" .....	383
17.2. National Tolerance and Multinationalism. Interethnic communication. Religious and Interreligious communication	386
17.3. The essence of concepts of privacy, inter-religious tolerance, freedom of conscience .....	389
17.4 The principle of national and religious tolerance in the national concept .....	391
17.5. The opposition situation of national tolerance to national concept and its importance on preventing national tolerance, national separation and separatism .....	394

**CHAPTER 18. THE ROLE OF THE NATIONAL  
CONCEPT IN CREATING THE IDEAL HUMAN**

18.1. An Ideal human being, the concept of a harmonious generation, the essence of their content .....	399
18.2. Attributes of a ideal human being and a harmonious generation. Characteristics, Characteristics of Parenting ...	401
18.3. The Role of Education in Education Based on National concept and Its Role in Educating a harmonious Generation...	405
18.4. Factors Affecting the Creation of an ideal human being and situations .....	408
18.5. The formation of harmonically developed generation, its distinctive features: fresh diffusion, philosophical outlook, spiritual moral cleanness, high spirituality .....	410

**CHAPTER 19. REQUIREMENTS FOR FAMILY**

**RELATIONSHIP IN CASES OF CIRCUMSTANCES**

19.1. The concept of spiritual threat, ideological oppression and aggression, their meaning and essence .....	414
19.2. Specific peculiarities of spiritual threats and aggression, masking features and ways of action .....	417
19.3. Transparent and hidden aspects of spiritual threats, their varying degrees and dimensions .....	420
19.4. The spiritual threats at the local and regional level. Global threats, their meaning and essence.....	423
19.5. Conditions and factors of prevention of spiritual threats in Uzbekistan, social, economic, political, legal, spiritual and educational bases, technical and technological capabilities....	424
19.6. The Role of National concept in Preventing Threats to Spirituality .....	427

**CHAPTER 20. EXAMPLES OF THE INSULATED  
AND LOWER IDEAS, THE ROLE AND  
IMPORTANCE OF THE NATIONAL CONCEPT IN  
THEIR PREVENTION**

20.1. Alien and harmful concepts, ideological struggle, and their essence .....	433
20.2. Ideological threats to life and development of Uzbekistan, their appearance and attributes .....	435
20.3. Internal and external threats, social roots.....	439
20.4. Religious extremism and terrorism, ideology and ideological currents that depict mass culture and democratic concepts, their way of working and threats to security .....	442
20.5. Information attacks against Uzbekistan, their goals and directions .....	445

**CHAPTER 21. THE OPPOSITION OF MASS  
CULTURE TO NATIONAL CONCEPT AND ITS  
PRINCIPLES OF PREVENTION**

21.1. The meaning of the concept of "mass culture" Its contradiction to its goal and intentions .....	451
21.2. Attempts to disseminate ideas of "mass culture". Their technical capabilities .....	454
21.3. Contradiction the principles of national culture, national ideology, spiritual heritage and democratic principles .....	456
21.4. The danger and threat of escalation of "mass culture"....	459
21.5. The conditions and factors preventing the threat of "mass culture" .....	462

**CHAPTER 22. THE NECESSITY OF NATIONAL  
IDEOLOGY DURING THE ALTERING  
IDEOLOGICAL PROCESSES IN UZBEKISTAN AND  
THE WORLD**

22.1. The notion, concept and gist of ideological process ...	466
22.2. Dependency of Uzbekistan's social life in divergent ideological concepts. The notion of miscellaneous ideology. The necessity and reliability of national ideology for various types of ideas.....	469
22.3. Ideological fights in the world and their rationales. Divergence of ideological targets. Kind, humanitarian ideas against evil, cruel ideology .....	472
22.4. Jeopardy of ideological fight and necessity of the battle between ideas, concept against concept .....	475
22.5. Necessity for national ideology in order to alert ideological war. Inclination of the role of national ideology for fighting against evil and cruel ideas .....	477

**CHAPTER 23. THE IMPORTANCE OF THE  
NATIONAL CONCEPTS IN STRENGTHENING  
IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH**

23.1. Youth and the essence of the concept of ideological immunity. Peculiarities for Youth .....	481
23.2. The effect of young people on different ideas and ideologies. The need for strengthening their immunities .....	483
23.3. Conditions for strengthening youth's immunities.....	486
23.4. Developing the culture of independent thinking in young people.....	489
23.5. The role of National concept to protect young people from influence of harmful ideas .....	492

**CHAPTER 24. FORMATION OF NATIONAL IDEOLOGY IN ACCORDANCE WITH NATIONAL VALUES AND INTERDEMOCRATIC PRINCIPLES**

24.1. National values and interdemocratic principles of national ideology .....	496
24.2. The notion and gist of ‘Democratic development’ and its connection with social life of the country .....	499
24.3. National ideology as a conceptual and spiritual basement of Uzbekistan’s democratic development .....	502
24.4. National and interdemocratic features of tendencies of national ideology .....	504
24.5. The significance of divergence of ideas and concepts and political institutes in democratic development .....	507

**CHAPTER 25. THE ROLE OF DEVELOPING NATIONAL CONCEPT IN CONSOLIDATING THE INTERNATIONAL STATUS OF UZBEKISTAN**

25.1. Uzbekistan’s full membership for the World community – the declaration of independence .....	511
25.2. Recognition of the independence of the state .....	514
25.3. Membership for international organizations .....	516
25.4. Peaceful foreign politics since the first years of independence .....	521
25.5. The role of national concept and ideology in the development of Bilateral and Multilateral cultural relations of Uzbekistan with foreign countries .....	526
Literatures .....	535

**G'AYBULLAYEV OTABEK MUXAMMADIYEVICH**

## **MILLIY G'OYA TARIXI VA NAZARIYASI**

**Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2019**

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	F.Tishabayev
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Raxmatullayeva

**E-mail: [tipografiyacnt@mail.ru](mailto:tipografiyacnt@mail.ru) Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.**

**Nashr.lits. AI №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 30.09.2019.**

**Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i 25,75. Nashriyot bosma tabog'i 36,0.**

**Tiraji 1000. Buyurtma № 142.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.**

**100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**